

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

<p>Ro`yxatga olindi</p> <p>№ _____</p> <p>«_____» _____</p> <p>2018-yil</p>	<p>«TASDIQLAYMAN»</p> <p>Buxoro davlat</p> <p>universiteti</p> <p>o`quv ishlari bo`yicha</p> <p>prorektor</p> <p>D.Q.DURDIYEV</p> <p>_____</p> <p>«_____» _____</p> <p>2018-yil</p>
---	--

“O`zbek tilshunosligi” kafedrası

"Hozirgi o`zbek adabiy tili (Morfologiya)"

fanidan bakalavriat talabalariga mo`ljallangan

**O`QUV-METODIK
MAJMUA**

Buxoro - 2018

O`MMning muallifi Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Mehriniso Abuzalova
Taqrizchilar: Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
B.E.Qilichev
pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent D.N. Yo`ldosheva

Mazkur O`MM O`zbek tilshunosligi kafedrasining № 1-son (-avgust, 2018-yil) yig`ilishi qarori bilan tasdiqlangan.

Kafedra mudiri filologiya fanlari nomzodi,
dots. Axmedov A.

Mazkur O`MM filologiya fakultetining № 1-son (-avgust 2018-yil) yig`ilishi qarori bilan tasdiqlangan.

Fakultet kengashi raisi filol. fanlari nomz.,dots.
Haydarov A.A.

Mazkur O`MM BuxDU o`quv-usuliy kengashining № -1 son (-avgust 2018-yil) yig`ilishi qarori bilan tasdiqlangan.

BuxDU o`quv-usuliy kengashi raisi fizika-matematika fanlari doktori

DURDIYEV D.Q.

MUNDARIJA

1.	HAR BIR MAVZU BO'YICHA O'QUV-USLUBIY MATERIALLAR.....
2.	TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA`LIM UCHUN MATERIALLAR(Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari).....
3.	AMALIY MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR.....
4.	SEMINAR MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR.....
5.	GLOSSARIY.....
6.	ILOVALAR(ishchi va namunaviy dastur, taqvimiy reja).....

MA`RUZALAR MATNI

Mavzu: O'zbek tilshunosligida an'anaviy (formal) va yangi yo'nalishlar. Ularning o'zaro munosabati. Ularning davomiyligi. "Zotiy yondashuv" tushunchasi haqida

Reja:

1. An'anaviy va sistem - struktur tilshunoslikda til birliklarining tushunilishi, ularning tadqiq usullari (Buxoro tilshunoslik maktabi ta'lim usullarining asosiy tamoyillari).
2. O'zbek tilshunosligida zotiy yondashuv usullarining asosiy tamoyillari. "oraliq uchinchi" qonuniyati haqida.
3. Umumiy xulosalar.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

Formal va zotiy tilshunoslik, empirik va dialektik yo'nalish, lisoniy birlikning zotiy tabiati, "oraliq uchinchi" qonuni, gipo- giperonimik (markaz- qurshov) munosabatlari, har bir lisoniy birlikning mustaqil sinonimik va graduonimik qurshovga ega bo'la olishi, sistemaviy tilshunoslik — munosabatlar tilshunosligi.

Bugungi kunda rivojlangan sistem - struktur tilshunoslik lingvistik tadqiqot obyektini — til va nutq birliklarining tabiatini an'anaviy tilshunoslikka nisbatan boshqacha tushunadi: sistem tilshunoslikda til birliklari deb olinadigan elementlar bevosita kuzatishda berilmagan va aqliy tahlil, idrokiy (intellektual) usul bilan ochilishi mumkin. Demak, sistem - struktur va an'anaviy tilshunoslikda til birliklarining tushunilishi, ularning tabiatini o'rganuvchi tadqiqot usullari, metodologiyasi o'zaro farq qiladi. An'anaviy tilshunoslikda til birliklari deb konkret, moddiy, bizning sezgi a'zolarimizga ta'sir etadigan holatda berilgan xususiyliklar tushuniladi va bu tilshunoslik ushbu xususiyliklarni tasvirlash metodidan, tajriba, kuzatish, jonli mushohada usullaridan, ya'ni fahmiy (empirik) tahlil metodologiyasidan foydalanadi. Shuning uchun tilshunoslikda bu yo'nalish - empirik, ya'ni nominalistik yo'nalish sanaladi. Sistem - struktur tilshunoslikda esa bevosita kuzatishda berilmagan, faqat nutqqa tayanilgan holda aqliy yo'l bilan ochiladigan til birliklarining tabiati dialektik umumiylik, imkoniyat va mohiyat sifatida tushuniladi hamda bu tilshunoslik dialektik umumiylik, imkoniyat va mohiyatni ochish usullari — dialektik idrokiy tahlil metodologiyasiga asoslanadi (3, 27).

Har bir fanning taraqqiyoti uzluksiz "empirik ~ dialektik ~ empirik ~ dialektik..." zanjiridan iborat ekan, hozirgi o'zbek tilshunosligi dialektik taraqqiyot bosqichida turibdi. Chunki bugungi kunda empirik asosda yig'ilgan, saralangan til dalillari dialektik usul bilan umumlashtirilmoqda.

O'zbek tilshunosligida sistem-struktur tadqiqotlar 60 - yillarda vujudga kela boshladi. Ushbu dialektik yo'nalishdagi tadqiqotlarni prof. S.N.Ivanov boshlab berdi. 60 - yillarda e'lon qilingan S.N.Ivanovning monografiyasi va doktorlik dissertatsiyasida til qurilishining zotiy (substansial, dialektik) tadqiq usullari shakllantirilgan. Bu ta'limotning eng muhim va ahamiyatli tomoni shundaki, olim turkiy tilshunoslikka grammatik formada substansional (zotiy) yondashish omilini tadbqiq etgan. Zot - til birliklariga umumlashma sifatida qarash demakdir. Bunday yondashishning mohiyati shundaki, lisoniy birlik zot sifatida nutqda voqelanuvchi barcha ma'no va vazifalarni o'zida mujassimlashtirgan bo'ladi. Shuning uchun lisoniy birlik

nutqda voqelanganda yangi-yangi ma'nolar kashf etmaydi, balki o'zida mujassamlangan imkonyatlardan bir qismini voqelantiradi, xolos. Prof. H.Ne'matov ko'rsatgan-laridek, zot voqelanishlar (tajallilar)dan, ularning yig'indisidan ham kattadir [2, 27-30;]. H. Ne'matov o'zining ko'p sonli shogird va izdoshlari bilan birga zotiy - dialektik tahlil usullarini chuqurlashtirdi.

O'zbek tili leksikologiyasi, morfologiyasi, sintaksisining yangicha tavsif va talqinlarini shakllantirdi. Shakl - vazifaviy (formal-funksional) yo'nalishning o'ziga xos tahlil usullari bo'lib, bu usullarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. lisoniy birlikning zotiy tabiati;

2. Har bir lisoniy birlikning kamida ikki paradigмага mansubligi;

3. Lisoniy tizimning barcha bosqichlarida "oraliq uchinchi"ning mutlaqligi;

("Oraliq uchinchi" qonuni deganda, dialektikada ikki bir-biriga zid bo'lgan, bir-birini inkor etuvchi xususiyatlarning uchinchi bir narsada, birlikda bo'lishi tushuniladi. Ushbu uchinchi bir narsada qarama-qarshiliklar o'zaro birlashib, bir butunlikni hosil qiladi. Masalan: o'tgan zamon shakllari sodir bo'lgan (bo'lmagan) harakatni, kelasi zamon shakllari sodir bo'lishi (bo'lmasligi) kerak bo'lgan harakatni atab kelsa, hozirgi zamon shakllari sodir bo'lgan, davom etayotgan va davom etadigan harakatlarni ifodalaydi va ushbu ziddiyatda "oraliq uchinchi" mavqeida turadi. Yoxud yordamchi fe'llar, ko'makchi otlar mustaqil va yordamchi so'zlar orasidagi "oraliq uchinchi" sanaladi. Sintaksisda uyushgan gaplar sodda va qo'shma gaplar orasidagi "oraliq uchinchi"dir.

Yoxud bugungi kunda maqol va matal munosabatlari o'rganilgan ekan, o'z ma'nosida keluvchi parema (hikmatli so'z)lar - matal (*So'raganning aybi yo'q; Mehmon otangdan ulug'*), ko'chma ma'noda keluvchi paremalar-maqol (*Qo'shning ko'r bo'lsa, ko'zingni qis; Kemaga tushganning joni bir*) sanaladi. Lekin shular orasida "maqol-matal" tipidagi paremalar mavjud bo'lib, ular yuqoridagi ikkala birlikning belgilarini mujassamlashtiradi. Masalan, *Tulki quyrug'in maqtar, ahmoq urug'in*. Bunda birinchi satr ko'chma ma'noda kelgan bo'lsa, ikkinchi satr o'z ma'nosida kelgan va bir butunlikni hosil qilgan.

4. Lisoniy tizimning pog'onali (iyerarxik) qurilishi: bu iyerarxiyada har bir bo'g'inning nisbiy mustaqilligi va har bir bo'g'in uzvlarining gipo - giperonimik munosabatlar bilan ochiq mikrosistema sifatida o'zaro bog'lanishi;

5. Har bir lisoniy birlikning o'z xususiy sinonimik va graduonimik qatoriga ega bo'la olishi va bu qatorlarning umumlisoniy sistema va mikrosistemalarga bevosita aloqador emasligi.

Ushbu tamoyillarning uchinchisini yuqorida tushuntirdik. Endi qolganlarini sharhlashga o'tamiz.


1. lisoniy birlikning zotiy tabiati nima? Lisoniy birlikning zotiy tabiati-bu uning imkoniyatlar, ismlar va sifatlar majmuasi sifatida tushunilishidir. Masalan, lisoniy konstruksiyalar (qoliplar) ularni bevosita tashkil etuvchilarning sifatleri majmuasiga teng emas. Masalan, gapning eng kichik qurilish qolipi (gapning zoti) "so'z + kesimlik qo'shimchalari"dan iborat. Lekin uning mohiyati fikrni shakllantirish, uni birovga yetkazish yoki birov tomonidan tushuna olishidadir. Shuning uchun [WP_m] (sodda gapning qurilish qolipi) zot sifatida yuz minglab sodda gap ko'rinishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Voqelikda shu zotning tajallilari namoyon bo'ladi. Ya'ni konkret, moddiy holga *Ketdim; Keldim; Talabaman; Yozaverdi...* kabi tajallilari voqelanadi.

2. lisoniy birlik rang-barang qirrasini bilan rang-barang paradigmalarga kira oladi. Masalan, ravish va sifat belgini atab, ot va fe'lni aniqlab keladi. Demak, atash va sintaktik vazifa nuqtai nazaridan ravishlar va sifatlar semantik va funksional paradigmada bir xil o'rin oladi. Lekin morfologik belgilariga ko'ra sifatlar morfologik jihatdan o'zgarsa, ravishlar o'zgarmas. Lisoniy birlik bir necha paradigmalarga kirar ekan, har bir paradigмага faqat bir qirrasini bilangina kiradi. Uni bir paradigмага nisbat berib bo'lmaydi.

4. Lisoniy pog'onaviy tizimning gipo-giperonimik munosabatlar bilan bog'langan bo'g'inlardan iborat ekanligi leksik tizimda, ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanadi. Gipo-giperonimik (markaz-qurshov) munosabatlaridan iborat bo'lgan pog'onali qurilmalarni

O.Bozorov fonologik tizimda, I. Madrahimov so'z turkumlari misolida, H. Ne'matov va Sh. Shahobiddinova grammatik kategoriyalar asosida, M. Abuzalova sodda gap, R.Sayfullayeva qo'shma gap qoliplari asosida berishgan. Masalan, gipo-giperonimik (tur-jins) munosabatlari leksikada - *qalam - o'quv qurollari - qurollar - narsa - buyumlar - predmet* qatorida har bir quyi pog'onada yuqori pog'onalarning zotiy belgisi bo'lishi mutlaq. Qaratqich kelishigi bir otni ikkinchi ot yoki harakat nomiga bog'lashga xizmat qiladi, shu bilan u kelishiklar guruhiga kiradi. Kelishiklar so'zlarni bir-biriga bog'lovchi vositalar sifatida ko'makchilar bilan birgalikda tobe so'zni hokim so'zga bog'lovchi vositalar guruhiga kiradi. Tobe so'zni hokim so'zga bog'lovchi kelishik va ko'makchilar, bog'lovchilar va egalik kategoriyasi bilan birgalikda so'zlarni bir - biriga bog'lovchi vositalar sirasiga mansub bo'ladi.

5. Har bir lisoniy birlik (fonema, leksema, morfema, model) o'z mustaqil sinonimik va graduonimik qurshoviga ega bo'la oladi. Masalan, "ot" so'zining o'zbek tilida 500 dan ko'proq giponimlari (tur nomlari) bor: *saman, baytal, bedov, ayg'ir, qashqa, jiyron...* Shuningdek, "ot" leksemasining *qulun, toy, q'o'nan, do'nan ot* kabi darajalanish qatori ham mavjud. Lekin "Ulov" LMGga bu 500 ta so'z kirmaydi. "Ulov" LMG quyidagi shaklga ega:



Falsafa bitmas-tuganmas materiyadan tortib, uning eng kichik zarralarigacha muayyan bir zotiylikka ega deb ta'lim beradi. Zot o'zining tajallilari zamirida yotuvchi umumiylik sanaladi. Fahmiy jarayonda tadqiqotchi tajallilar bilan ish ko'rganligi sababli, unda zotni idrok qilish imkoni cheklangan bo'ladi. Chunki fahm tajallilardagi muayyan zotni emas, balki ulardagi cheksiz boshqa zotlar tajallilarini ko'radi. Bu esa zotni bilishga to'sqinlik qiladi [1, 7;]. Buni bir oddiy uy misolida tushunish mumkin: ya'ni bizning ko'zimizga ko'proq uyning asosiy poydevori, skeleti emas, balki uning bezaklari, ranglanishi, jihozlari, qurilish tipi tashlanadi. Va bular bizni asosiy mohiyatdan uzoqlashtiradi. Uyning zotiy mohiyatini aniqlash uchun bu zohiriy bezaklarni zotdan soqit qilish kerak. Shunda "uy muhitning ichida istiqomat qilish uchun to'silgan bo'lagi, parchasi" mohiyatiga ega bo'ladi.

Tilga zotiy yondashuv mana shu tahlil usuli bilan an'anaviy (formal) tilshunoslikdan farq qiladi. An'anaviy tilshunoslik qiyosan aytganda, uyning har xil ko'rinishlari va bezaklarini tasvirlash bilan band bo'lganidek, so'zning, fonemalarning, grammatik shakllarning muayyan nutqiy, moddiy shakl va qurshovlardagi xususiyat va ko'rinishlarini tasvirlash bilan shug'ullandi. Sistemaviy yondashish esa fonema, leksema, so'z birikmalari, gaplarni muayyan moddiylikdan xoli qilib, ularni umumiyliklar sifatida har birini o'z paradigmasida, ya'ni o'zi kabi o'xshashlar bilan munosabatlari tizimida o'rganadi. Shuning uchun bunday yondashish sistemaviy - tizimiy yondashish deyiladi. Bunday yondashuvda sistema, ya'ni umumiyliklarning o'zaro barqaror munosabatlari bilan hosil bo'ladigan butunlik va bu butunlik ichida uning tarkibiy qismlari (element)ning o'zaro munosabatlari (opozitsiyalari)ni o'rganish alohida ahamiyat kashf etadi. Shuning uchun sistemaviy tilshunoslikni "munosabatlar tilshunosligi" deb ham ataydilar.

O'zdek tilining sistemaviy (idrokiy) tahlil usuli uning fahmiy (empirik), tahlilining bevosita davomidir va navbatdagi bosqichidir. Empirik tahlil tajallilarni yig'gan, saralagan, tavsiflagan, guruhlagan bo'lsa, sistemaviy tahlil bu tajallilarni (muayyan nutqiy, moddiy ko'rinishlarni) zotga—idrokiy umumiylikka birlashtiradi.

Adabiyotlar:

1. Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари. Диссертация автореферати. Тошкент-1995.
2. Неъматов Ҳ. Тажалли тасаввуф билиш назарияси ва тилшуносликда синтаксисни ўрганиш масалалари. «Ўзбек тили ва адабиёти», 1993 йил, 2-сон.
3. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. Тошкент, «Ўқитувчи», 1993 йил.
4. Қурбонова М. Шакл-вазифавий талқинда субстанциаллик омили. «Ўзбек тили ва адабиёти», 1998 йил, 5-сон.
5. Қурбонова М. Шакл-вазифавий тадқиқ усулларига доир. «Ўзбек тили ва адабиёти», 1998 йил, 5-сон.
6. Қурбонова М. Лисоний тизимда «Оралиқ учинчи» нинг мутлақлиги. «Ўзбек тили ва адабиёти», 1999 йил, 6-сон.
7. Қурбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили. Тошкент, 2002 йил.

SLAYDLAR



3. Formal-funksional grammatikada so`z turkumlari tasnifi masalalari.

Asosiy tushunchalar:

- semantik tasnif , morfologik tasnif, sintaktik tasnif
- mustaqil so`z, yordamchi so`z, oraliq so`z
- ko`chish - traspozitsiya

❖ Til bizning ongimizda imkoniyat, umumiylik, munosabatlar, belgilar sistemasi sifatida mavjud. U nutq orqali yuzaga chiqadi, nutqda muayyan moddiy shaklga, ko`rinishga ega bo`ladi. Til qonuniyatlari dialektik qonuniyatlar asosida tadqiq etiladi.


TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA`LIM UCHUN MATERIALLAR(Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)

1. Matnni o`qing. Sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalarning gap qurilishidagi roliga e'tibor bering. So`zlarni bog`lashga, so`zlarga alohida sintaktik vazifa belgilashga va so`zlarni ham bog`lash, ham gap tarkibida ma'lum sintaktik vazifaga xoslaydigan shakllarni ajrating, ma'nosini izohlang.

VALENTLIK HAQIDA

Valentlik atamasi, eng avvalo, kimyo faniga tegishli bo`lib, biror kimyoviy element atomining boshqa element atomlaridan muayyan sondagisini biriktirib olish xossasidir.

*“Valentlik” tushunchasini kimyo faniga 1853-yilda ingliz kimyogari Eduard Franklend olib kirdi. Valentlik so`zi **kuch** degan ma'noni bildiradi. Fizika fanidan ma'lumki, kuch - o`zaro ta'sir va bog`lanish, demakdir. Kimyo fanida “bir valentli”, “ikki valentli”, “ko`p valentli” atamalari ham ishlatiladi. Buni qanday tushunish kerak? Chunonchi, H_2O (suv) – suv molekulasida bitta kislorod atomi (O) bir valentli bo`lib, u vodorod (H) atomining ikkitasi bilan birikkan. Demak, bu yerda kislorod ikki valentli(H_2)dir.*



Ammiak tarkibida (NH_3)gi azot (N) bir valentli, vodorod (H) esa uch valentlidir.

*Tilshunoslikda ham **valentlik** atamasi mavjud. So`zning ma'noviy valentligi tushunchasi o'tgan asrning 20-30-yillarida shakllandi va juda tez ommalashdi. XX asrning 40-yillarida rus tilshunosligiga valentlik tushunchasini S.D.Kosnelson olib kirdi. Ma'noviy va sintaktik valentliklar ustida olimlar o`rtasida uzoq yillar bahs davom etdi. Bu jiddiy masala yechimini o`zbek tilshunosligida olim*

Ravshanxo`ja Rasulov hal etdi. Olim masalani lison ~ nutq aspektida tekshirib, valentlik hodisasini imkoniyatli voqelik sifatida baholadi. (Qarang: Rasulov R. O`zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari. T.: "Fan", 1989.) Shu bilan birga o`zbek tilshunosligidagi valentlik ikki tomonlama: ham semantik, ham sintaktik hodisa ekanligini isbotladi.

2.mashq.

O`zbek tilida ko`plik, payt, o`rin, miqdor kabi grammatik ma'nolarni ifodalovchi vositalarni aniqlang. Ularning o`zaro o`xshash va farqli jihatlarini aniqlang.

Namuna: *Bozordan ikki kilogramm olma sotib oldik* (ko`plik) (aniq ko`plik).

Qop-qop olmalarni aravaga ortishdi (ko`plik) (noaniq ko`plik).

Kutubxonaga kitoblar keltirildi (ko`plik) (noaniq ko`plik) va h.

AMALIY MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

1-topshiriq. Quyidagi test topshiriqlarini mustaqil bajaring.

1. Falsafa va fanda ilmiy bilishning necha bosqichi farqlanadi va ular qaysilar?

I) 3 II) 2 III) 4

1. Fahmiy 2. Amaliy 3. Nazariy 4. Mantiqiy 5. Empirik 6. Idrokiy

A. I; 1,5,6

B. II; 5,4

C. III; 2,4,5,6

2 Alisher Navoiy fahmiy bilish xususida qaysi asarida fikr yuritgan?

A. "Lison ut-tayr"

B. "Muhokamat ul-lug'atayn"

C. “Mezon ul-avzon”

3. Kim nazariy bilishning hodisalardan uzilganligini uqtiradi?

A. Alisher Navoiy

B. So'fi Olloyor

C. Gyote

4. Quyidagi misollarning ma'nolarini farqlang. 1. *Gulnora*ning kitobi 2. *Gulnora*ning opasi 3. *Gulnora*ning uyi 4. *Gulnora*ning yig'isi

a. Subyekt-harakat b. Qarashlilik c. mansublik d. egalik

A. 1-b 2-c 3-d 4-a

B. 1-c 2-a 3-b 4-d

C. 1-a 2-d 3-c 4-b

5. O'zbek tilshunosligi o'zining amaliy bosqichini bosib o'tgan vaqtni aniqlang.

A. XX asrning 20-yillaridan 70-yillarigacha

B. XX asrning 40-yillaridan 90-yillarigacha

C. XX asrning 20-yillaridan 90-yillarigacha

6. Dialektika nuqtayi nazardan o'zbek tilshunosligining birinchi bosqichi...?

A) Lisoniy birlikning shakliy tomonini tasnif qilish

B) Lison va nutq farqlanishi

C) UMIS va AHVOni bir-biridan farqlamay tasnif etish

D) Lisonning ichki qurilish tizimini o'rganish

7. “Fanlarning taraqqiyoti shu davrning ilg'or falsafiy fikri...”

“Ushbu fikr qaysi tilshunos olimga tegishli?”

A) H. Nematov

B) Qilichev

C) F. Sosyur

D) B. Kurtene

8. UMISning tildagi tajallisi nima?

A) Nutq

B) Lison

C) Me`yor

D) Til

9. U tafakkurni kodlashtirishga , xotirada qat`iy tizib saqlashga xizmat qiladi. Gap nima haqida bormoqda ?

A) Nutq

B) Lison

C) Me`yor

D) Til

10. Kim lison- nutq munosabatini shatranj o`yini qoidalari asosida tushuntirib bergan ?

A) B. Kurtene

B) H. Nematov

C) Qilichev

D) F. Sosyur

11. Bo`linuvchan birliklarning majmui nima ?

A) Nutq

B) Lison

C) Me`yor

D) Til

12. Fonemalar bir butunlikni tashkil etadi. Ular nimalardan tashkil topadi ?

A) Fonemalardan

B) Unlilardan

C) Harflardan

D) Unli va undoshlardan

13. Quyidagilardan qaysi biri lisoniy birlik emas?

A) Fonema, qo`shimcha

B) Tovush, morfema

C) Qo`shimcha, so`z

D) Qolip, so`z

14. Xususiy hodisalar zamirida umumiylikni ko`rishga intilish bilishning qaysi bosqichida mavjud ?

- A) Fahmiy
- B) Idrokiy
- C) Ikkalasida ham bor
- D) Hech qaysisida yo`q

15. Lisoniy imkoniyat – sinonimik qator, lisoniy birliklarning dublet, allovariant va variantlari, sohaviy birliklardan har birining voqelanish o`rni va xususiyatini belgilovchi omil nima?

- A) Nutq
- B) Lison
- C) Me`yor
- D) Til

2-topshiriq. Quyidagi so'zlarga izoh bering va ingliz tiliga tarjima qiling:

- *nazariy bilish;*
- *fahmiy bilish;*
- *mohiyat;*
- *tizim;*
- *yaxlitlik.*

SEMINAR MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

Maqola tahlili

Nofiza Vohidova
MUOSIR O`ZBEK SUBSTANSIAL TILSHUNOSLIGI

Hozirgi o`zbek substansial tilshunosligi (O`ST)¹ning rivojlanishi Buxoroda bir necha yil ishlagan leningradlik turkolog professor Sergey Ivanov (1922-1999) nomi bilan bog`liqdir. O`zbek fanida bu yo`nalishdagi ilk tadqiqot

¹ O`zbek fanida bu yo`nalish *formal-funksional, zotiy, dialektik tilshunoslik* deb ham nomlanadi.

S.Ivanovning 1959 yilda Leningradda Leningrad universiteti nashriyoti e`lon qilgan 158 betli "Очерки по синтаксису узбекского языка (форма на -ган и ее производные)" asaridir. Keyingi yillarda olim bu ishida boshlagan tadqiqotlarini o`zining bir qator maqolalarida chuqurlashtirdi va doktorlik dissertatsiyasida umumlashtirdi². O`STning keyingi taraqqiyoti va hozirgi kunda O`zbekistonda ommalashishi S.Ivanovning shogirdi 1961-77 yillarda Leningard tilshunosligi ta`limini ko`rgan buxorolik olim Hamid Ne`matov va u yaratgan lingvistik maktab bilan bog`liq³. O`zbekiston mustaqilligigacha (1991) O`ST fandagi bir oqim bo`lib qoldi va uning keng ommalashishiga imkoniyat yo`q edi, chunki SSSRda ta`lim tizimining yagonaligi butun Ittifoq bo`yicha ilmiy talqinlarning birxilligini talab qilardi; grammatik talqinlar rus va milliy tillardagi ta`limgohlarda bir xil edi. O`STning talqinlari esa rasmiy rus tilshunosligidan keskin farq qiladi, shuning uchun u davrda ta`lim tizimiga tatbiq etilishi mumkin emas edi.

1991-yildan keyin o`zbek tilshunosligi, jumladan, o`zbek tilini ona tili sifatida maktab va oliygohlarda o`qitish mustaqil taraqqiyot yo`liga o`tdi; o`zbek tili bo`yicha maktab va oliygoth programmalari O`ST talqinlari (Interpretation) asosida tuzildi⁴, bu yo`nalishning ommalashishiga asos bo`ldi.

O`STning o`zagini Praga strukturalizmdagi (funktional lingvistikadagi) **lison-nutq, lisoniy birlik-nutqiy birlik** tushunchalarini dialektikaning *umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab* (UMIS) va *yakkalik, hodisa, voqelik, oqibat* (YAHVO) kategoriyalari mazmuniga muvofiq talqin qilish tashkil qiladi. Shu sababli O`STning bosh tamoyili lingvistik tadqiq jarayonida (-lisoniy birlik tabiatini oshish va talqin etishda -) dialektik tahlil usullaridan onglilik va izchillik bilan foydalanishdan iboratdir. Dialektika shakl va mazmun aloqadorligini tan olgan holda mazmunga ko`proq e`tibor qaratgani sababli O`STda fonetika-fonologiyada N.Trubetskoy-R.Yakobson-A.Reformatskiy tadqiq tamoyillari asosan saqlanib, tilning mazmun bilan bog`liq sathlari - leksika, morfologiya va sintaksis tadqiqi yetakchilik qiladi.

O`STda tilshunoslikning eng asosiy tushunchalari *til~lison~meyor~nutq* quyidagicha tushuniladi:

Til - sof insoniy qobiliyat va imkoniyat..U tafakkurni shakllantirishga (kodlashtirishga), xotirada qat`iy sistemaga tizib saqlashga, axbotrotni uzatish va qabul qilishga imkoniyat beruvchi eng nuhim (birlamchi) insoniy ijtimoiy-ruhiy bevosita va bilvosita kommunikatsiya vositasidir. **Til lison~me`yor~nutq** ning dialektik butunligidan iboratdir. Unda bosh ichki ziddiyat atash (nominativ) va ifodalash (ekspressiv) vazifalarning dialektik birligidadir.

Lison UMIS tabiatli lisoniy birliklarning serqirra, ko`pqavatli sathlaridan tashkil topgan barqaror, tashqi muhit ta`siriga o`ta sezgir, o`zgarish, rivojlanish va moslashish immanent qobiliyatini o`z ichida mujassamlashtirgan murakkab qurilishli iyerarxik sistemasidir.

² С.Н.Иванов. Родословное древо тюрок Абул-Гази-Хана.Грамматический очерк.Имя и глагол).Ташкент: Фан. 1969.200 стр.

³ Bu haqda qarang: Туҳфа.....; М.М.Қурбонова. Ҳозирги замон ўзбек тили. Гап синтаксиси учун материаллар. Тошкент. Университет. 2002.

⁴ Qarang: Умумий ўрта таълим давлат таълим стандартлари ва ўқув дастурлари.Она тили. Ўзбек тили. Журн. "Таълим тараққиёти ахборотномаси".1999. 1 махсус сон. Б.55-105; Ҳозирги ўзбек адабий тили. 5220.100. Ўзбек филологияси йўналиши учун дастур. Тузувчилар: Ҳ.Неъматов, Н.Маҳмудов, А.Нурмонов, Р.Сайфуллаева.Тошкент 2002.

Me`yor lisoning ichki qurilish tizimiga nisbatan tashqi omil bo`lib lisoniy imkoniyatlardan - sinonimik qatorlardan, lisoniy birliklarning dublet, allovariant va variantlari, sohaviy birliklaridan har birining voqelanish o`rinlari va xususiyatlarini belgilaydi.

Nutq lisoning me`yor elagidan o`tgan muayyan moddiy (yozma, og`zaki, tasviriy /imo-ishora, signal v.h./ shakllaridan birida) voqelanishidir.

Lisoniy birliklar dialektik tabiatini ochish va ularni tavsiflashda O`ST sustansiallik, ichki ziddiyatlik, ko`p qatorlik, oraliq uchinchi asosiy tamoyillariga tayanadi. Bu tamoyillar O`STning metodologik asosini tashkil etganligi sababli ularning har birini alohida ko`rib o`tamiz:

1.**Substansiallik.** Lisoniy birlik nutqda voqelantiruvchi barcha ma`no va vazifalarini o`zida ontologik mujassamlashtirgan, yashirgan deb olinadi. Nutqda hech bir narsa yaratilmaydi, balki lisoniy birlikdagi imkoniyat faqat yuzaga chiqariladi, xolos. Shuning uchun tilshunoslik oldida lisoniy birlik voqelanishidagi nutqiy alohidaliklarni umumiy lisoniy ma`noga (allgemeine Sprachbedeutung) birlashtirish va lisoniy imkoniyat sifatida ongda va lisoniy tizimda mavjud bo`lgan bu ma`noni nutqda muayyan ko`rinishlarda voqelantirish yo`llarini o`rganish vazifasi turadi.

2.**Ichki ziddiyatlik.** Lisoniy birlikning umumiy lisoniy ma`nosi ontologik ziddiyatli, qarama-qarshilikli - turli tabiatli tomonlarning birlashidan iborat bo`lgan dialektik butunlikdir. U hamisha serqirradir.

3.**Ko`p qatorlik.** Lisoniy birlik ontologik ziddiyatli tabiati bilan boshqa lisoniy birliklar bilan bir necha oppozitiv qatorga (munosabatlarga) - har bir qirradi bilan alohida-alohida siralarga - paradigmalariga kiradi. Shuning uchun uning umumiy lisoniy ma`nosi bir necha oppozitiv siralardagi (paradigmalaridagi) differensial belgilarining yig`indisi, mohiyatiga ega bo`ladi.

4.**Oraliq uchinchi.** Lisoniy birliklardagi qarama-qarshi ma`no va vazifalar, paradigmalaridagi bir-birini inkor etuvchi birliklar zid tomonlarni o`z ontologik tabiatida birlashtiruvchi hodisa (birlik)da birlashadi va ikki qarama-qarshilik orasida birlashtiruvchi vosita - oraliq uchinchi mavqeyida bo`ladi. Tabiatan istagan lisoniy birlik oraliq uchinchi mohiyatiga egadir.

O`STda lisoniy tizim yaxlitlikda partonimik (butun-bo`lak) munosabatlarga, lekin lisoniy yaruslar izchil gipero-giponimik

(jins-tur) aloqalariga asoslanishi g`oyasi ilgari suriladi. Unda an`anaviy sinomiya, antonimiya kabi munosabatlar doirasi ancha cheklangan bo`lib, graduonimiya, giponimiyaga keng o`rin berilgan.

Lisoniy birlikning asosiy turlari sifatida fonema, morfema, leksema va qolip (model) ajratilib, modellarning morfologik (lug`aviy shakllar yasash, sintaktik shakllar yasash), derivatsion (sodda va qo`shma so`z yasash), sintaktik (nominativ birliklar - so`z birikmalari hosil qilish modellari, kommunikativ birliklar - gap hosil qilish modellari) turlari farqlanadi. Morfologik-derivatsion-sintaktik modellar o`zaro iyerarxik munosabatlarda turgan sanaladi. Bu modellar hosilalarining lisoniy birlaklarga o`tishi va lison xazinasini muttasil to`ldirib borishida ixtoslashish-soddalanish-tublanish bosqichlari ajratiladi.

O`STning leksikologiya, morfologiya, sintaksis, qiyosiy tipologiya sohalarida amalga oshirgan ishlari M.Qurbonova va H.Nematovlarning maxsus islarida tahlil etilgan va umumlashtirilgan⁵.

Mavzu: Zotiy yondashuvda grammatika. Morfologiya va sintaksis munosabati. Nutqiy voqelanishdan umumiylikka (morfologiya), zotiy mohiyatdan qo`llanishga (sintaksis)

Reja :

1. Morfologiya va sintaksisning dialektik birligi.
2. Nutqiy voqelanishdan umumiylikka—zotiy mohiyatdan qo`llanishga.
3. O`zbek tili morfologiyasining asosiy tamoyillari.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

Morfologiya va sintaksisning dialektik birligi, [WPm] — gapning minimal qolipi, dialektik munosabatlarning morfologik sathda namoyon bo'lishi, qatorlanish (sintagmatik) tushunchasi, guruhlanish (paradigmatik) va pog'anaviylik (iyerarxik) tushunchalari, birlik va ko'plik son shakllarining umumiy ma'nolari.

Hammaga ma'lumki, grammatika deganda tor ma'noda morfologiya va sintaksis, keng ma'noda esa tilning barcha qurilish sathlari tushuniladi. Til sathlari deganda fonetika va fonologiya, leksika va semasiologiya, frazeologiya, morfologiya, sintaksis va stilistika tushuniladi. Morfologiya va sintaksis bir-birini taqozo etuvchi sathlar sanaladi. Lisoniy birliklarga zotiy yondashuv morfologiya va sintaksisning dialektik birligi haqida hukm chiqarish imkonini berdi. Morfologiya — grammatikaning so'zshakl ma'nosi haqidagi sohasi bo'lsa, sintaksis grammatikaning so'zshakl vazifasi haqidagi sohasi sanaladi. Tilning asosiy ijtimoiy vazifasi aloqa - aralashuv, insonlar orasida fikr almashtirish vositasi bo'lganligi sababli sintaksisning o'rganish manbai bo'lgan gaplarda tilning barcha sathlarining—fonologiya va fonetikaning, leksika va semantikaning, morfemika va morfologiyaning birliklari voqelanadi, yuzaga chiqadi. Bu birliklardan har birini tilshunoslikning alohida-alohida bo'limlari o'rganadi. Lekin sintaksisning o'rganish manbai bo'lgan gaplarda barcha sath birliklarining belgilari jilvalanadi.

Masalan, 1. *Kitobni ukamga oldim.*

Kitobni ukam uchun oldim.

2. *Salima xafa bo'ldi.*

Salimaning kapalagi uchdi

kabi hodisalar sintaktik hodisalar — sintaktik sinonimiya deb talqin etiladi. Lekin 1-holatda morfologik birliklarning ma'no va vazifadoshligi, 2 - holatda so'z va ibora ma'nodoshligini kuzatish mumkin. Bunday morfologik hodisalarga sintaktik jihatdan qaraladi va sof sintaktik hodisani o'rganish chetda qoladi.

⁵ Nimat G. Hamid. O`zbek tilini struktural tadqiqi. "3.Uluslararası türk dil kurultayı.

Tutk dil qurumu yayinlari 1678. Ankara.2000. S.787-793.

Yoki:

- y/ yu
-da
lekin / ammo
Lola keldi yoki men ketdim.
shuning uchun
chunki
deb

kabi gaplar bogʻlangan qoʻshma gaplar, ergashgan gaplar va ularning koʻrinishlari sifatida anʼanaviy tilshunosligimizda oʻrganilib kelinmoqda. Agar diqqat bilan eʼtibor bersak, bu misollarda turli xil gaplar (sintaktik hosilalar) -ni emas, balki turli bogʻlovchi vositalar bilan shakllangan morfologik hodisalarni — bogʻlovchilar paradigmasini koʻrish mumkin. Bu yerda ham morfologik birliklarning sintaksisda "qorishilganini" sezish mumkin. "Sintaksis boshqa sathlar (ayniqsa, leksika va morfologiya) birliklari tajallisidan xoli boʻlgach, behad sodda va hammaga oson tushunarli qoliplarning oʻzaro munosabat chizmalari shaklini oladi..." [2, 29-30;].

Jumladan, [WPm] sintaktik qolipi ham xuddi shunday keltirib chiqarilgan. Buning uchun nutqdagi oddiy bir gapga murojaat qilamiz: (*Bu kunda*) *Latofatning murgʻakkina qalbiga shunday nogahoniy sevgi otash tashladi*. Bu nutq hosilasida barcha til sathlarining birliklari oʻz ifodasini topgan. Bu gapning sintaktik qurilishini aniqlash uchun, nutqdagi gapning nosintaktik kategoriyalar koʻrinishlarini birma-bir olib tashlaymiz:

1. Intonatsion tugallanganlik. Yuqoridagi gap intonatsion tugallikka ega. Agar biz shu gapga boshqacha bir tus bersak, u intonatsion jihatdan tugal boʻlmasligi ham mumkin, yaʼni "*Bu kunda Latofatning murgʻakkina qalbiga shunday nogahoniy sevgi otash tashladi va uning koʻzi oldida borliq oʻzgacha libos kiydi*". Gapning birinchi qismi ohang jihatdan tugallanmagan. Bunday xususiyatlar nutqdagi gaplar uchun xarakterli holat sanaladi. Ammo gapning qolipiga ahamiyatsizdir, chunki gaplarni ohang jihatdan oʻrganish fonetika, fonetik tahlilning obyektidir.


2. Gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari. Yuqoridagi nutqiy hosila ham soʻroq, ham buyruq, ham his - hayajon gap boʻlib shakllanishi mumkin. Ammo gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari gap semantikasida oʻrganilishi lozimligi uchun, shuningdek, bunday xususiyatlar gapning eng kichik qolipiga daxldor boʻlmaganligi tufayli bu nosintaktik hodisadan ham voz kechamiz.

3. Modal maʼnolariga koʻra turlari. Nutqda gap turli modal (gumon, taxmin, ishonch, qatʼiylik...) manolarida boʻlishi mumkin. Jumladan, yuqorida bergan gapimizni quyidagi shaklda qoʻllasak:

(*Bu kunda*) *Latofatning murgʻakkina qalbiga shunday nogahoniy sevgi otash tashlaganga oʻxshaydi*. Bu gapda endi gumon maʼnosi oʻz ifodasini topgan. Bu hodisa ham gapning sintaktik qurilishi uchun ahamiyatsiz boʻlganligi va tilning modallik kategoriyasida oʻrganilishi lozimligi tufayli tajalli sifatida gapdan chetlashtiramiz. Qisqasi, shunga oʻxshash nosintaktik hodisalarni gapdan chetlashtirgandan soʻng gapning boʻlaklari qoldi.

Mashhur fransuz tilshunosi L.Tenʼer grammatikasida (gap boʻlaklarining gap ichidagi mavqei, darajalanishi) asoslangan holda gapdagi markaziy boʻlakni aniqlashga kirishamiz. Bu gapning eng kichik qolipini aniqlashdagi ikkinchi tayangan bosqichimiz boʻladi ("*Bu kunda Latofatning murgʻakkina qalbiga shunday nogahoniy sevgi otash tashladi*") gapini boʻlaklardan birma- bir xoli qilgach, fikrni ifodalay oladigan markaziy boʻlak — kesim vazifasidagi soʻz forma ("tashladi") qoldi va quyidagi chizmani hosil qilish mumkin:

BU KUNDA LATOFATNING MURG`AKKINA QALBIGA SHUNDAY NOGAHONIY SEVGI OTASH TASHLADI.



Sxemada ko`rib turganimizdek, I, II, III bosqichda tobe bo`laklar aniqlanildi. Bu so`z, so`z birliklari atash, nomlash xususiyatini ifodalaydi. Fikr ifodalash esa "Otash tashladi" frazemasida mujassamlashgan. "Otash tashladi" so`zining valentligi asosida yuqoridagi gap hosil qilingan. Bu so`z shakl ikki qismdan iborat: *otash tashla* — lug`aviy ma`no ifodalovchi qism, *-di* — kesimlik ko`rsatgichlari qismi, ya`ni bu [WPm]ga tengdir.

Yuqorida biz nutqiy voqelanishdan umumiylikka qarab intildik va umumiy hosilani vujudga keltirdik. Bu chizma, qolip (WPm) yuz minglab gaplarda voqelanadi, ro`yobga chiqadi. Ya`ni zotiy mohiyat nutqda rang-barang ko`rinishlarda namoyon bo`ladi. Bu o`rinda shuni ta`kidlash kerakki, biz yuqoridagi misolimiz bilan, dastlab, xususiyliklardan umumiylik keltirib chiqardik va bu umumiylik yana pastga qarab turli xususiyatlarini namoyish etadi. Bundan morfologiya va sintaksisning bosh maqsadi kelib chiqadi. "...xususiyliklarni ma`lum tamoyillar asosida umumiyliklarga birlashtirish va, aksincha, muayyan umumiylikning bevosita kuzatishda turlicha namoyon bo`lish imkoniyatlarini ochib berishga, boshqacha aytganda, induktiv usulga tayangan holda xususiyliklardan umumiyliklarga o`tish, umumiyliklar o`rtasidagi o`zaro munosabatni ochish — nazariy morfologiyaning bosh maqsadi sanaladi" [3,8;]. O`zbek tili nazariy morfologiyasining asosiy xususiyatlari, vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Til - nutq zidlanishi asosida umumiylik - xususiylik, imkoniyat - voqelik dialektik munosabatining morfologik sathda namoyon bo`lishini ko`rsatib berish.

2. Morfologiya morfologik birliklar munosabatiga tayanadi.

3. Til birliklari o`rtasidagi uch xil munosabat tadqiqot markazida bo`ladi: qatorlanish (sintagmatik) — guruhlanish (paradigmatik) — pog`onaviylik (iyerarxik). Qatorlanish — til birliklarining ketma-ket joylashuvi. Guruhlanish munosabati ma`lum birlashtiruvchi belgi asosida muayyan sinfga birlashtiruvchi birliklar o`rtasidagi munosabat sanalib, u "Fahmiy bog`lash" orqali hosil qilinadi. Pog`onaviylik — kichik birliklarning o`zidan kattaroq birliklar tarkibiga kirish munosabati. Bu munosabat butun va bo`lak aloqasini namoyon etadi. Masalan, morfema affiksial morfema bilan so`z morfemalardan tashkil topadi, morfema so`zshakl tarkibida real voqelanadi.

4. Morfologik birliklarning birlashtiruvchi va farqlovchi belgilari ularni ma`lum paradigma tarkibida zidlash asosida aniqlanadi. Shuning uchun ham har qanday grammatik paradigma zaminida zidlanish yotadi. Tilshunoslikning vazifasi ana shu zidlanish belgilarini ochishdan iborat. Bu zidlanishlar nutqiy konkret ma`nolar asosida emas, balki grammatik (morfologik) shaklning umumiy - lisoniy ma`nosi asosida quriladi. Umumiy - lisoniy ma`nolar esa o`zaro mutanosib grammatik shakllarning aloqadorligi asosida ochiladi. Chunonchi, birlik son bilan ko`plik son shakllarining nutqiy ma`nolarini qiyoslasak:

Birlik son

Ko`plik son

kitob

kitoblar

1 ta kitob
ko`p kitob
10 ta kitob
bu yer

bu yerlar

Ikki son shakl ma`nolarini qiyoslab hukm chiqara olamizki, birlik son aniq miqdorni ham, noaniq miqdor (*ko`p kitob*)ni ham, birlikni ham, aniq va noaniq ko`plikni ham ifodalay oladi. Ko`plik son esa hamisha noaniq ko`plikni ifodalaydi. Mana shu noaniq ko`plikni ifodalash ko`plik sonning umumiy ma`nosi, birlikni ham, ko`plikni ham, aniqlikni ham, noaniqlikni ham ifodalay olish esa birlik sonning umumiy ma`nosidir.

Morfologik paradigmalarda shakllar mana shunday umumiy ma`nolar asosida zidlanadi. Mana shunday umumiy morfologik (grammatik) ma`nolarni ochish va paradigma a`zolarining zidlanish belgilarini tavsiflash bugungi o`zbek tili nazariy morfologiyasining tadqiq manbaidir. Bu ishga o`zbek tilshunosligi endigina kirishdi va uning rivoji bevosita iqtidorli yoshlarning kelajakdagi faoliyatlari bilan bog`liqdir.

Morfologik shaklning mana shu usulda ochilgan umumiy ma`nosi bu formaning qo`llanilishida — sintaksisda voqelanadi. Shuning uchun morfologik shakl umumiy ma`nosi imkoniyat sifatida unda yashiringan bo`ladi. Nutqda esa u ro`yobga chiqadi va morfologiya va sintaksisning uzviy aloqadorligi, bir-biridan ajralmasligi ta`minlanadi.

Morfologik shakl imkoniyat bo`lsa, sintaktik qupilma voqelanishdir. Chunonchi, "*ukamga*" so`z shaklini olib ko`raylik. Bu shaklda

1) lug`aviy ma`no o`zidan kichik, erkak jinsidagi bir ota-onadan bo`lgan bir avloddagi qarindosh;

2) ma`lum bir so`z turkumi (ot)ga mansublik;

3) miqdor jihatdan aniqsizlik;

4) qandaydir boshqa so`zga tobe (to`ldiruvchi yoki hol) mavqeida kelib, harakat yoki biror narsaning unga yo`nalganligi;

5) I shaxsga aloqadorlik ma`nolari mujassamlangan.

Bu ma`nolarning barchasi "*ukamga*" so`z shaklida noaniq va umumiydir. Bu so`zshakli nutqda boshqa so`zlar bilan aloqadorlikda voqelanganda yuqoridagi ma`nolar muayyanlashadi. "*Kitobni ikkinchi ukamga oldim*", "*Bu gapni kenja ukamga aytdim*", "*Boshimni ko`tarib o`rtancha ukamga qaradim*".

Bundan biz yana bir xulosaga kelamiz: morfologik shakl nafaqat sintaktik qo`llanishi bilan, balki lug`aviy ma`no va lug`aviy to`ldirilishi bilan ham uzviy bog`langan. Bu leksika, morfologiya va sintaksisning o`zaro uzviy aloqadorligi va tilning yaxlitligi bilan tabiatan bog`liqdir. Biz tilni, uning birliklarini turli sathlarga sun`iylik bilan ajratamiz, ayrim maqsadlarni ko`zlab ajratamiz. Haqiqatda esa ular bir butunlikda yashaydi, ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Lekin har bir sath uchun faqat shu sath uchun xos bo`lgan xususiyatlarni aniqlash maqsadida biz o`rganilayotgan sath birligini boshqa sathlar tajallisidan sun`iy ravishda ozod qilishimiz kerak. Masalan: "*Ahmadlar*" so`zshaklida *-lar* qo`shimchasining ma`nosi "*kitoblar*" so`z shaklidagi *"-lar"* ma`nosidan farq qiladi. Bu farq, shubhasizki, yakka shaxs

nomi bo`lgan. "*Ahmad*" va bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomi bo`lgan "*kitob*" so`zining lug`aviy ma`nosi bilan va morfologik shakl bo`lgan ko`plik sonning umumiy morfologik ma`nosiga aloqador emas. Xuddi shunday *"-ni"* tushum kelishigi qo`shimchasini qabul qilgan vositasiz to`ldiruvchi quyidagi birikmalarda har xil ma`noga ega:

Uyni qurdik.

Uyni buzdik.

Uyni bezadik.

Uyni ko`rdik.

Uyni o`yladik...


Lekin bu rang-baranglik "-ni" shaklining umumiy morfologik ma`nosidan emas, balki unung qanday so`zlar bilan birikib kelgani bilan bog`liq. Tushum kelishigining umumlisoniy ma`nosi ot yoki ma`nosi toraygan so`zni o`timli fe`l bilan tobe bo`lak (vositasiz to`ldiruvchi) mavqeida bog`lashdan iboratdir, xolos. Shuning uchun grammatika umumiy ma`nolar bilan ham, xususiy nutqda voqelangan ma`nolar bilan ham ish ko`rganligi sababli biz bu ikki xil ma`no ustida alohida to`xtalishimiz lozim.

Adabiyotlar:

1. Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши. Тошкент, НДА, 1994 йил.
2. Неъматов Х. Тажалли тасаввуф билиш назарияси ва тилшунослиқда синтаксисни ўрганиш масалалари. «Ўзбек тили ва адабиёти», 1993 йил, 2- сон.
3. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. ва бошқалар. Ўзбек тили назарий морфологиясининг асосий тамойиллари. «Ўзбек тили ва адабиёти», 1998 йил, 2 - сон.

PREZENTATSIYA

BORLIQ		
TIL		
LISON	ME'YOR	NUTQ
Umumiylik		Alohidalik
Mohiyat		Hodisa
Imkoniyat		Voqelik
Sabab		Oqibat



Grammatika ko'plab tilshunoslik atamasi kabi ikki ma'noli.

Tilning grammatik qurilishi

Tilshunoslikning shu grammatik qurilishini o'rganuvchi sohasi

Grammatika quyidagi masalalarni, ya'ni:


sintaktik birliklar va ularning turli ko'rinishi

so'z va gapning formal-grammatik tomoni - so'z o'zgarishi

strukturasi va hosil qiluvchi vositalari

ifodalaydigan grammatik ma'nosini

o'rganadi



TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MATERIALLAR(Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)

Mashq. Matnni o'qing. So'zlarni asos va morfema qismlarga ajrating.

U butun nutqini Istiqlolga muhabbat uyg'otishga qaratdi:

— Istiqlol! Mustaqillik. «Ollohga ming qatla shukurlarkim, bu kunlarga ham yetishdik. Ko'chalarda jar solib: «Suyunchi!», «Suyunchi!» deb uyma-uy yuradigan zamon keldi!

Muxtoriyat!..Oh-o!.. Bunga yetmoq niyatida ne-ne kurashlar bo'lmadi? Ne-ne asl farzandlarimiz jonlarini fido qilib, qurbon bo'lib

ketmadilar. Istiqlolning bu qadar jon fido qilgulik ne sehri, ne mo'jizasi borki, asrlardan buyon insoniyat Istiqlol uchun, hatto bir quloch yeri bor xalqlar ham jon olib, jon berib kurashgan. Axir, bizning Turon yurtimiz go'zallikda ham, boylikda ham Xudoning marhamati yozilgan bir zamin emasmi? Yillar bo'yi talanmadimi? O'zimiz qaytadan ega bo'lganimizga shukurlar! Muborak bo'lsin!

Alisher Navoiy «Oltin qafas» deb karomat qilganlaridek, qafasda parvoz bo'lmaydi! Qafasdagi qushning sudraluvchi jonivordan ne farqi bor, axir!

Yurt bosqinlari bizning qanotimizni qayirdi. Vaholanki, xalqimizning jahonga parvoz qilarli qanoti bor emasmi? Endi qayrilish bilmasin bu qanot? Iloho, omin!

(Shukrullo. «Tirik ruhlar»)

1-topshiriq. Matndagi derivatsion morfemalar ishtirok etgan so'zlarni ko'rsating.

Namuna: mustaqillik...

2-topshiriq. Topgan so'zlaringizni yasalish asosi bo'yicha quyidagi jadvalga joylashtirib chiqing.

OT	
SIFAT	
RAVISH	
FE`L	


Mashq. Matnni o'qing. Grammatik qo'shimchalarni aniqlang va ularni quyidagi diagrammalarga joylashtiring.

Afg'onistonning Sind daryosi bo'yida Jaloliddinning 600–750 kishilik qo'shini bilan 30000 kishilik mo'g'il qo'shini yovlashdi. Aytishlaricha, o'sha jangda odamlarning qoni shu darajada ko'p to'kildiki, Sind daryosida suv o'rnida qon oqdi. Sulton Jaloliddinning navkarlari dushman bilan sherdek olishib, faqatgina Jaloliddinning o'zi daryoning narigi qirg'og'iga tirik suzib o'tib ketdi: omon qoldi.

Bu jangni o'z ko'zi bilan ko'rib turgan Chingizxon hayratdan shunday deb yuborganini bilmay qoldi:

— Otadan dunyoda hali bunday o'g'il tug'ilmagan. U sahroda sher kabi g'olib jangchi, daryoda esa nahang kabi botirdir... Otaga shunday o'g'il zarurki, u ikki girdob: olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa olsin...

Biz ana shunday arslon haybatli, botir va qo'rqmas, dushman oldida aslo tiz cho'kmas bobolarimizga farzand ekanligimizdan hamisha faxrlanamiz. Bir umr ulardan o'rnak olish orzusi bilan yashab o'tamiz.



AMALIY MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

Grammatik ma'no

1. Grammatik ma'no deganda nimani tushunasiz?
2. Umumiylilik nima?
3. Xususiy Grammatik ma'no (XGM) nima?
4. Oraliq Grammatik ma'noga misollar?
5. Krossvord

1.			O																
2.			R																
3.			A																
4.			L																
			I																
5.			Q																

KROSSVORD SAVOLLARI

- 1.... ham Grammatik ma'no ifodalashga xizmat qiladi. Bu vosita yodamida: 1)gapning turini ajratish mumkin 2) gap bo'laklarini ajratish mumkin.
- 2.Keng dalalar(so'z birikmasi); dalalar keng(gap) ushbu ko'rinishda grammatik ma'no anglatishning qaysi vositasi qo'llangan?
- 3.Tilimizda grammatik ma'no ifodalashning eng keng tarqalgan usuli qaysi?
- 4.Yordamchi so'zlar vositasida yasalgan shakllar ... shakllar deb ataladi?
- 5.Bir so'zni aynan ikki marta takrorlash orqali hosil qilinuvchi grammatik ma'no qanday nomlanadi?

Sintaksis

1. Sintaksis atamasining ma'nolari haqida nimalarni bilasiz?
2. So'zshakl sintaksisi nimalarni o'rganadi?
3. Fleksiya hodisasi haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
4. Valentlik nima?
5. Krossvord

1.		S							
2.		I							
		N							
3.		T							
4.		A							
5.		K							
6.		S							
7.		I							
8.		S							

KROSSVORD SAVOLLARI

1. Gap tarkibidagi grammatik shakllangan so'zlarni... sintaksisi o'rganadi.
2. Tilshunoslikda valentlik tushunchasi ostida 3 jihatni farqlash mumkin. Shulardan birini toping.
3. Sintaktik munosabat ifodalaydigan vositalardan biri?
4. So'zlarning o'zaro bog'lanib, fikr ifodalashga xizmat qiladigan nutqiy birlik qonuniyatlarini ... sintaksisi o'rganadi.
5. LSQ larga xos belgilardan biri?
6. Tilshunoslikda valentlik tushunchasi ostida 3 jihatni farqlash mumkin. Shulardan birini toping.
7. LSQ larning nutqiy hosilalariga xos belgilardan biri?
8. ... hodisasi flektiv tillarga xos.

SEMINAR MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR. TEST.

Falsafa va fanda ilmiy bilishning necha bosqichi farqlanadi va ular qaysilar?

I) 3 II) 2 III) 4

1. Fahmiy 2. Amaliy 3. Nazariy 4. Mantiqiy 5. Empirik 6. Idrokiy

D. I; 1,5,6

E. II; 5,4

- F. III; 2,4,5,6
3. Alisher Navoiy fahmiy bilish xususida qaysi asarida fikr yuritgan?
- D. “Lison ut-tayr”
- E. “Muhokamat ul-lug’atayn”
- F. “Mezon ul-avzon”
5. Kim nazariy bilishning hodisalardan uzilganligini uqtiradi?
- D. Alisher Navoiy
- E. So’fi Olloyor
- F. Gyote
6. Quyidagi misollarning ma’nolarini farqlang. 1. *Gulnoraning kitobi* 2. *Gulnoraning opasi* 3. *Gulnoraning uyi* 4. *Gulnoraning yig’isi*
- a. Subyekt-harakat b. Qarashlilik c. mansublik d. egalik
- D. 1-b 2-c 3-d 4-a
- E. 1-c 2-a 3-b 4-d
- F. 1-a 2-d 3-c 4-b
5. O’zbek tilshunosligi o’zining amaliy bosqichini bosib o’tgan vaqtni aniqlang.
- D. XX asrning 20-yillaridan 70-yillarigacha
- E. XX asrning 40-yillaridan 90-yillarigacha
- F. XX asrning 20-yillaridan 90-yillarigacha

Topshiriq. Quyidagi so’zlarga izoh bering va ingliz tiliga tarjima qiling:

- *nazariy bilish;*
- *fahmiy bilish;*
- *mohiyat;*
- *tizim;*
- *yaxlitlik.*
-

Mavzu: Grammatik ma'no. Umumiy grammatik ma'no (UGM), oraliq grammatik ma'no (OGM) va xususiy grammatik ma'no (XGM). Ularning munosabati. Umumiy ma'noni ochish yo'llari.

Reja:

1. Grammatik ma'noning yangicha talqini xususida.
2. Xususiylar lisonidagi umumiy ma'nolarning ajallisi, voqelanishi, yuzaga chiqishi.
3. Umumiy ma'noni ochish yo'llari (paradigmatik munosabat).

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

Grammatika, grammatik ma'no (GM), xususiylar grammatik ma'no (XGM), umumiy grammatik ma'no (UGM), oraliq grammatik ma'no (OGM), son shakllarining XGM va UGMlari, UGM ni ochish yo'llari, bo'lunavchan yoki bo'linmas tushunchalari, aniq miqdor, noaniq miqdor, noaniq miqdoriy ko'rsatkich (NMK).

Grammatik ma'no deganda nima tushuniladi?

Grammatik ma'no deganda har bir tilning qurilish tizimi nutqda ifodalanishini zaruruy va majburiy deb talab etadigan va turli xil shakliy ko'rinishlar bilan beriladigan umumlashgan ma'nolar tushuniladi. Chunonchi, "*Bolalar qiziqarli kitobni o'qiydilar*" gapini olsak, "*Bolalar*" so'zida 2 xil ma'no ajralib turadi: 1) lug'aviy ma'no-ya'ni bu so'zning borliqidagi odam jinsiga mansub bo'lgan, yosh jihatdan voyaga yetmagan shaxsni yoki voyaga yetgan kimsaning farzandi, avlodini atab kelish;

2) ko'plik sonda, bosh kelishikda, gapda ega vazifasida kelgan turdosh ot. Bu ma'nolardan birinchisi lug'aviy, leksik ma'no bo'lsa, ikkinchisi grammatik umumlashgan ma'nodir. Grammatik ma'nolar har bir til uchun shu til uchun o'ziga xos bo'ladi va rang-barang shakliy usullar bilan (biz ularni navbatdagi mavzuda ko'rib o'tamiz) ifodalanadi.

Grammatik ma'noni yangicha talqin qilishda ham til va nutq farqlanishi mezoniga yondashiladi. Zohiriy narsa tez - tez yo'qolib, o'zgarib turadi. Lekin u mohiyatning yashash usuli sifatida ahamiyatlidir. Nutq hech qachon til haqida to'liq ma'lumot berolmaydi. Bizning til haqida nutq orqali olgan ma'lumotlarimiz hamisha noto'liq. Nazariyotchi ularni umumlashtirar ekan, til haqida ma'lumotga ega bo'ladi.

Grammatik ma'no (GM)ning an'anaviy talqini nutqiy hodisalarga tayanadigan empirik talqindir. An'anaviy talqindagi /GM/ ni /XGM/ desak to'g'ri bo'ladi.

UGM XGMga qarama-qarshi turadi. UGM XGM orqali voqelanadi. UGM hamma XGMlarni o'z ichiga oladi. UGM va XGMlar haqida gapirishdan oldin, biz umumiylik va xususiylar nima, umumiy va xususiylar ma'noning o'zi nimaligi haqida bahs yuritaylik.

Biz ko'ra oladigan, seza oladigan, o'lchay oladigan, kuzata oladigan narsa, belgi, voqea - hodisa xususiylardir. Masalan; *daraxt*ni biz ko'ra olamiz, paypaslaymiz, shoxlari va barglarini, mevasini sanay olamiz. *Daraxt*ning moddiyligi uning ildizi, tanasi, shox-shabbasida. Har bir *daraxt* takrorlanmas, chunki bir yilda ekilgan *2 ta olma daraxti* 2 ta alohidalikdir- mevasi, tanasi bir xil bo'lsa-da, barglar miqdori bilan farqlanishi mumkin. Demak, yer yuzida nechta *daraxt* bo'lsa, shuncha xususiylar *daraxt* bor. Ularning hisobi nisbiy, chunki sanaguncha nechitasi quriydi, nechitasi yonib ketadi va hokazo...

Bir ashulani san'atkor 2 marta aytar ekan, bu bir emas, ikki xususiylardir. "*Men ma'ruza o'qiyapman*" gapini 2 marta takrorlasak, bunda ikki xususiylar voqelangan bo'ladi. Chunki bu ikki gap hech bo'lmaganda zamonda farqlanadi.

Umumiylik nima?

Xohlagan xususiylkda umumiylikning belgisi yotadi. Minglab daraxtlar uchun (*olma, anjir, chinor... daraxtlari*) umumiy boʻlgan tomon - tanasi, shoxi bor oʻsimlik. Bizning ongimizda *daraxt* xuddi shu maʼno bilan yashaydi. "Umumiylik - bevosita kuzatishda berilgan alohida xususiylklardagi belgilarning ongimizdagi obrazi" [1,8;].

Umumiyliklar mayda - chuyda belgilarni oʻz ichiga olmaydi, umumiylik xususiylklarda takrorlanib turadi. Demak, xulosa shuki: xususiylk - takrorlanmas, chegaralangan; umumiylik - takroriy, chegaralanmagan.

Istalgan butunlik shakl va maʼno tomondan iborat boʻladi. Yana *daraxt* misoliga qaytamiz. *Daraxtning* shakl tomoni bizga maʼlum: qattiq tanali oʻsimlik.

Daraxt nima uchun kerak?

a) soya soladi;

b) meva beradi;

v) yogʻ och beradi... Mana shu vazifalar *daraxtning* mazmun tomonidir, yaʼni vazifasi.

Nutqiy hosilalarning mazmuni turli nutqiy sharoitda qanchalik xilma - xil boʻlmasin, maʼlum bir lisoniy umumiylik maʼnosining tajallisidir. Masalan, bir oddiy *piyola* ham ichish quroli, ham oʻlchov andazasi, ham aylana chizish mumkin... Lekin *piyolaning* umumiy mazmuni-choy yoki boshqa suyuqlik ichish uchun moʻljallangan oʻzbek milliy roʻzgʻor buyumi. Ongimizda *piyola* mana shunday yashaydi. Chunki "nutqdagi xususiylk maʼnolar lisondagi umumiy maʼnolarning tajallisi" [1,11;].

Umumiy maʼno maʼlum bir fonema, morfema, leksemaning paradigmadagi oʻrni, mavqeidan ochiladi. Masalan, leksemalardagi umumiy maʼno shu leksemaning oʻzi munosabatdosh boʻlgan leksemalar qatoridan anglashiladi. "*Ota*" leksemasi ongimizda quyidagi paradigmada yashaydi va UGMsi oʻshandan ochiladi:

/bobo/: /buvi/

/ona/: /ota/

:

/bola/

:

/nevara/

:

Ushbu paradigmadan "*ota*" soʻzining UGMsi kelib chiqadi: birinchi avlod, bevosita qon-qarindosh, katta, erkak. Leksemalardagi UGMni semema deyishadi. Demak, umumiylikning mohiyati maʼlum bir umumiylikni oʻziga oʻxshash va farqli umumiyliklar bilan munosabatidagina ochilishi mumkin.

Sh. Shahobiddinova ishida XGM va UGMlar atroflicha talqin qilingan. Jumladan, son kategoriyasi shakllarining XGM va UGMlari.

[-lar] ning XGMlari:

a) koʻplik - *Unda shirin - shirin bananlar bor* (Sh. Yul.);

b) jamlik - *ishchilar sinfi - ishchi sinfi*;

d) bogʻliqlik va oʻxshashlik - *Avvalgi sarvigullar oʻqishni tugatishdi*. (Sh. Yul.);

s) taxmin - *Soat beshlarda keldi*;

e) kuchaytirilgan maʼno - *Tillarimga koʻcholmaydi boʻgʻzimdagi azobim...* (U. Azimov).

[o] shakl XGM lari:

a) jamlik - *Gadoning dushmani gado boʻladi* (A.O.);

b) koʻplik - *Majlisga yigirma kishi keldi* (aniq koʻplik); *U qishloqda uch - toʻrt kun qoldi* (noaniq koʻplik);

d) birlik ifodalash - bunda koʻrsatish olmoshlari, "*bir*" soʻzi koʻproq ishtirok etadi: *Ushbu yodgorlikka murojaat qilar ekanman, mening maqsadim bitta...* (O.Matjon).

Demak, son kategoriyasi shakllari uchun quyidagi UGMlarni ko'rsatish mumkin: [-lar] UGMsi—bo'linuvchan/ bo'linmas sifat va noaniq miqdor ifodalash. [o] UGMsi — bo'linmas va aniq/ noaniq miqdor ifodalash.

Bo'linuvchanlik/ bo'linmaslik deganda, quyidagini tushunish kerak: har bir xususiylik alohidalik ekanligini ko'rib o'tdik. "Qovunlar" degan so'zshakli bir necha qovunlarni atab keladi. "Qovunlar" so'zshakli bir to'plamni ifodalaydi va u bir necha alohidaliklarga bo'linadi. "Ahmadlar" deganda Ahmad va unuing o'rtoqlari, oilasi... tushuniladi. Ya'ni Ahmadlar bir to'plamni ifodalaydi va bu to'plam bo'linuvchan. "Suvlarni stolga qo'ydi" deganda kola, mineral suvlar... tushuniladi. "Toshkentlarni kezib chiqdi" so'zshakl Toshkentni bo'lib beryapti, tumanlari hisobga olingan. "Tillarimga ko'cholmaydi bo'g'zimdagi azobim" misrasida til, gap, so'z, og'iz ajratib

berilgan. Shuning uchun "ishchi sinfi" va "ishchilar sinfi"; "o'qituvchi odati" va "o'qituvchilar odati" kabi so'z birikmalarida birlik va ko'plik son ma'nolari yaqinlashsa ham, orasida nozik farq bor. "Ishchilar"da sifatiy bo'linuvchanlik sezilib turadi. Birlik sonda yaxlitlik ma'nosi ko'proqdir. Demak, bir jihatdan birlik va ko'plik son ko'plik sonning bo'linuvchanlikni ta'kidlashi, birlik sonning esa yaxlitlikni ko'rsatishi bilan qarama-qarshi turadi. Miqdoriy jihatdan esa birlik son birlik, aniq/noaniq miqdorni ifodalay olishi bilan hamisha noaniq miqdoriy ko'plikni ifodalovchi ko'plik son shakliga qarama - qarshi turadi. Shuning uchun "Bu kitobni ol", "Stol ustida to'rt kitob bor", "Kitob - bilim manbai" gaplarida 3 xil ma'no voqelangan: Kitoblar so'zshakli hech qachon aniq miqdorni ifodalay olmaydi. Quyidagi gaplarni qiyoslang:

Uch kun (uch kunlar)dan keyin keldi;

O'ninchi yil (yillar)da tug'ildi.

Shuning uchun birlik sonning umumiy grammatik ma'nosi quyidagicha ko'rsatilishi mumkin: birlik — aniq yo noaniq miqdorni bo'linuvchan/ bo'linmas ma'noda berish. Ko'plik sonning ma'nosi — noaniq miqdoriy ko'plikni bo'linuvchan sifatda berish.

Mana shu umumiy grammatik ma'nolar bilan birlik va ko'plik morfologik son shakllari til tizimida va ongimizda yashaydi. Bu umumiy ma'nolar nutqda muayyan moddiy shakllarda cheksiz rang-baranglikda voqelangani.

Ko'rib o'tdikki, daraxt umumiyliги o'ta sodda va u "o'simlik + tana + shox"dan iborat, xolos. Lekin borliqdagi milliard daraxt behad rang - barang. Xuddi shunday ko'plik sonning ma'nosi "miqdoriy noaniq ko'plik + sifatiy bo'linuvchanlik" kabi soddadir. Nutqda esa u milliard xususiy ko'rinishlarda voqelangani. Birlik sonning ma'nosi "miqdoriy aniq/noaniq ko'plik + sifatiy bo'linmas" kabidir. Lekin yuqorida ko'rsatilgan UGM nutqda XGM sifatida voqelangan ekan, u umumiylik bilan xususiylik orasida oraliq ma'nolar yotadi. Oraliq ma'nolar xususiy ma'nolar uchun ma'no tiplari, ya'ni "o'xshash ma'nolar majmuasi", UGM uchun esa "umumiylikning ko'rinishlari", turlari mavqeida bo'ladi. Chunonchi, birlik sonning UGMsi "aniq / noaniq va birlik" kabi ma'nolarni o'z ichiga oladi. Va UGM XGM sifatida voqelanganuncha yuqorida ko'rsatilgan aniqlik, noaniqlik, birlik kabi uch OGM ma'noning biridan o'tadi. Chunonchi,

XGM	OGM	UGM
Bu kitobda	— birlik	aniq/noaniq
Uch kitobda	— aniq	sifatiy bo'linmas
Kitobda	— ko'plik	miqdor
shunday yozilgan.	— noaniq	

OGM hamisha so'zning lug'aviy ma'nosi, matn, qurshov bilan aloqador bo'ladi. Chunonchi, [-lar] ko'plik sonning umumiy ma'nosi - "sifatiy bo'linuvchan, miqdoriy noaniq ko'plik" UGMsi bir necha OGMga ega. Bulardan asosiylari:

1. Bir yoki turli jinsdagi predmetlarning NMK(noaniq miqdoriy ko'rsatkichi)ni ifodalash (*kitoblar, odamlar...*);

2. O'lanmas moddalarni alohidaliklarga ajratib noaniq miqdoriy ko'plikni ko'rsatish (*Toshkent suvlari...*);

3. Turli tur va jinslardan iborat NMKni ko'rsatish (*yog'lar-sariq yog', paxta yog'i; ichimliklar-arog, mineral suv, kola*);

4. Narsani yondoshlari bilan birgalikda NMK sifatida ifodalash (*Ahmadlar keldi; Toshkentlarni aylandik.*);

5. Taxmin ifodalash: *70- yillar*;

6. Bo'linmasni bo'linuvchan etib ko'rsatib, ekspressiv ma'no berish (*Yuraklarimga to'kildi*). Mana shunday har bir morfologik shaklda XGM, OGM va UGMlar mavjud bo'ladi. Siz 40 - 80 - yillarda nashr etilgan darsliklarda tanishgan grammatik shakllarning ma'nolari asosan XGM va OGMLardir. UGMlarni ochish bosqichiga o'zbek tilshunosligi endi ko'tarilmoqda. Jumladan, ushbu mavzular mana shu UGMlarni ochishga bo'lgan ilk qadamlardan biridir.

Shunday xulosaga kelish mumkinki, UGM til birligining minglab turli xil matnlarda yuzaga chiqadigan va bevosita kuzatishda berilgan xususiy grammatik ma'nolari (XGM)ning umumiy yig'indisi emas, XGMlar negizida yotgan, XGMlarga nisbatan umumiylik vazifasini o'taydigan ma'nodir.

XGMlar bilan UGMlar orasidagi munosabat bilvositadir. Bu ikki bo'g'inni bog'lovchi ma'no tipi — bu OGMdir.

Adabiyotlar:

1. Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик ва хусусийлик диалектикаси талқинида. Биринчи ва иккинчи жузв. Андижон, 1994 йил.

2. Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида. НДА, Самарқанд, 1993 йил.

SLAYDLAR




Til hamisha taraqqiyotda. Bunda ustuvorlik, asosan, tilning **leksik** sathiga beriladi. Ijtimoiy hayotning o'zgarishi leksikada keskin o'zgarish yasaydi. Yangi so'zning vujudga kelishi, so'zlarning «tirilishi», iste'moldan chiqib ketishi kabilar bunga misol. Tilning fonetik va grammatik sathlari ijtimoiy o'zgarishga befarq, unda faqat vaqt o'z izini qoldiradi. Chunki yaqin yillarda tubdan o'zgarishga uchragan ijtimoiy hayotning ta'siri natijasida, masalan, o'zbek tilining morfologik strukturasi, sintaktik qurilishida o'zgarish kuzatilmaganligi buning yorqin dalili. Lekin asrlar davomida bunday o'zgarish bo'lib turadi.

Grammatik ma'noning abstraktligi deganda uning bevosita kuzatishda berilmaganligi nazarda tutiladi. Masalan, hozirgina keltirilgan WP_m – kesimlik ko'rsatkichi bilan shakllangan atov birligi sintaktik qolipining grammatik ma'nosi ko'zga tashlanib turgan til birliklari zamiriga yashiringan.

- **Grammatik ma'no deganda til (fonetik, leksik, morfologik va sintaktik) birliklarning nutqni shakllantiruvchi umumlashma abstrakt ma'nolari tushuniladi. Ta'rifni qisqacha sharhlaymiz. Ko'rinadiki, ta'rifda uch muhim unsur mavjud. Ular quyidagilar:**





Grammatik va leksik ma'no munosabati

- ***Bolalar qiziqarli kitobni o'qiydilar*** gapini olaylik. Aytilganidek, mustaqil so'z o'zida bir vaqtda leksika va grammatikani birlashtiradi. ***Bolalar*** so'zida ikki xil ma'no anglashilib turadi:
- **a)** lug'aviy ma'no («odam jinsiga mansub bo'lgan, yosh jihatdan voyaga yetmagan shaxs yoki voyaga yetgan kishining farzandi, avlodi»);
- **b)** turdosh ot, ko'plik son, bosh kelishik, ega vazifasida. Bu so'z leksik va grammatik ma'noni o'zida mujassamlashtirgan.

TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA`LIM UCHUN MATERIALLAR(Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)

Matnni o`qing. Matn tarkibidagi har bir so`z ifodalangan grammatik ma`noni izohlang. Grammatik ma`no ifodalovchi vositalarga diqqat qiling.

Usmon Nosirning keyingi umri panjaralar ichida, yerto`lalar, qamoqxonalar va tikanli simlar ortida kechdi. Quyoshning bir tutam nuri ham uning yuziga temir panjaralar orasidan tushdi. Sovuq o`lkalarda kechgan yillarda esa quyoshni deyarli ko`rmadi.

Kechagina shoirning jo`shqin ovozi yangragan zallarda endi uning nomi va ijodiga tuhmat toshlari otila boshlandi. Korxonalar va o`quv yurtlarida, gazeta va jurnallar sahifalarida, radio to`lqinlarida Usmon Nosir sha`niga aytilgan bo`htonlar avj oldi. Kutubxona va she`riyat muxlislari uyini nurga to`ldirib turgan shoir kitoblari gulxanlarga tashlandi.

*Tergov xonalarida esa uning «xalq dushmani» ekanligini tasdiqlash, «dalil»lar topish uchun turli vahshiyona usullar qo`llandi. Hali yigirma to`rtga kirib ulgurmagan yigitning boshi balolardan chiqmadi. G`ayriqonuniy tergov usullari qanchalik dahshatli bo`lmasin, u qariyb bir yil davomida «o`z aybi»ni bo`yniga olishdan bosh tortdi. Ammo nafaqat shoir, balki tergov ishlari bo`yicha mutaxassislar ham qaysar edi. Oqibatda Usmon Nosir Toshkent qamoqxonasida saqlanayotgan kezlaridayoq ruhiy kasallikka *duchor* bo`ldi...(Naim*

Karimovdan)

Biz yuqorida dastur talablari asosida 5-sinfda o'rganiladigan badiiy asar misolida og'zaki va yozma nutqni o'stirish bilan bir yo'la milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning yo'llari masalasida qisqacha to'xtab o'tdik. Shuningdek, 5-sinfda o'rganiladigan Imom al-Buxoriyning "Hadislar"i, "Konfutsiyning hikmatlari", "Ertaklar haqida", "Uch og'a — ini botirlar" kabi badiiy asarlar ham milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun eng yaxshi namunalardir. Bu asarlarni milliy qadriyatlarga bog'lab o'tish, ulardan foydalanishni bilish, albatta, o'qituvchining uslubiy mahoratiga bog'liq.

Gulnora XOLBOYEVA,
Jizzax tumanidagi 34-maktab o'qituvchisi.

TALIMDA XALQ MAQOLLARIDAN FOYDALANISH USULLARI

O'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradigan, nutqini boyitadigan, ularning hayot haqidagi bilim va ko'nikmalarini oshiradigan vositalar orasida xalq maqollari alohida ahamiyatga ega. Chunki, xalq maqollari xalq tajribalari, hayot haqiqatlariga asoslangan xulosalardir. Xalq maqollarining yana bir tomoni shundaki, ular qisqa, lo'nda, sodda va tushunarli, aksariyati esda tutuladigan she'riy shaklda ifodalanadi. Xalq maqollari — xalq ijodining teran namunasi hisoblanadi. Ular hamma sohaga dahldor: bilim-tarbiya, ilm-fan, insof-adolat, vafo va boshqa ijodiy his-tuyg'ular ifodalangan go'zal naqllardir.

O'quvchilarni xalq og'zaki ijodining ana shu tengsiz hazinalaridan bahramand etish, shubhasiz darslar samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, xalq maqollari ta'lim-tarbiya mazmunini boyitish bilan chuqurlashtirib borishi tufayli ham katta ahamiyatga egadir. Biz, shu o'rinda, so'z turkumlarining ayrimlarini o'rganishda xalq maqollaridan foydalanishning o'ziga xos usulini ko'rib chiqishni niyat qildik.

O't so'z turkumiga mos keladigan maqollar xalq og'zaki ijodida ko'pincha uchraydi va ular aniq hodisaning o'zini ifodalaydi. Demak,

o't so'z turkumiga oid maqollar:

1. Ko'z qo'rqqoq, qo'l botir.
2. Ko'cha handon, uy zindon.
3. Ona yurtning — oltin beshiging.
4. Uzoqning donidan yaqinning somoni yaxshi.

5. Kengash qilgan el ozmas, keng bichilgan to'n to'zmas.
6. Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib.

Sifat so'z turkumiga oid maqollar:

1. Yozgi mehnat – qishki rohat.
2. Yaxshilik nur keltirar, yomonlik zulmat.
3. Bilimsiz to'lib so'zlar, bilimli kulib so'zlar.
4. Do'stsiz boshim, tuzsiz oshim.
5. Yangi libos oroyish, yaxshi yo'ldosh osoyish.
6. Og'zi kattani uyida sina, nafsi yomonni to'yda.

Fe'l so'z turkumiga oid maqollar:

1. Nor o'lsa, norchasi qolar.
2. Pulni – pul topar, o'g'ilni qiz.
3. Farzand boqqan ota, jonni qoqqan ona.
4. Farzand ko'rdingmi, ko'chat ek.
5. Tosh toshga tegsa, aql boshga kelar.
6. Yaxshi o'g'il uy tuzar, yomon o'g'il uy buzar.
7. Avval kuzatib, keyin kuzat.

Ravish so'z turkumiga oid maqollar:

1. Oz so'zla, ko'p tingla.
2. Avval o'yla, keyin so'zla.

3. Ish bor joyda, osh bor kabi maqollar boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar uchun qulay didaktik materiallar hisoblanadi.

Xalq maqollarini lingvistik tahlil qilib, so'z turkumlari, boshqa mavzularni o'tishda foydalanish, nafaqat ona tili nuqtai nazaridan ta'limiy xarakterga ega bo'lib qolmasdan, balki ular o'quvchilar ma'naviyati, ta'lim-tarbiyaga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda ham muhimdir. Xalq maqollari darslikda berilgan mavzularni davr ruhi bilan bog'lashda, allomalarning odob-axloq haqidagi qarashlaridan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishda, mustaqillik davrida yaratilgan va amalga oshirilayotgan milliy istiqloq g'oyasini o'quvchilar ongiga singdirishda keng yo'l ochib beradi.

Ko'rinib turibdiki, xalq maqollari dars jarayonida foydalanish uchun eng zarur manbalardir. Xalq maqollari shunday obrazli xususiyatga egaki, ulardan bemalol barcha mavzularni o'tishda, xususan, sinonim va antonim mavzularini o'quvchilarga etkazishda foydalanish mumkin. Yuqorida aytganimizdek, obrazli ifodalar juda jozibali va esda qolarli bo'lishi bilan ta'lim-tarbiya jarayonini chuqurlashtirishda katta imkoniyat yaratiladi.

Ayniqsa, antonim so'zlarga oid, umuman, qarama-qarshi va ziddiyatli holatni ifodalovchi maqollar, nazarimizda, manzara yarata

olish xususiyati bilan yanada katta mazmunga ega.

Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish o'qituvchidan izlanish talab etar ekan, bunda xalq og'zaki ijodning hozirjavobligidan va har bir davrga mos keladigan xalq maqollaridan samarali foydalanish juda-juda zarurdir. Chunki, xalq maqollari hayot borasidagi tushunchalarni o'quvchilar qalbiga singdirishda qo'l keladi.

Yuqorida so'z turkumlarini o'rganishda xalq maqollaridan foydalanish haqida so'z yuritdik. Lekin, ulardan boshlang'ich sinf o'quvchilarida ziyraklik va hozirjavoblikni tarbiyalashda ham foydalanish yanada samarali yo'l hisoblanadi. Xalq maqollarining axloqiy tarbiyadagi o'rmini alohida ta'kidlamoq kerak. Masalan: "Bir yigitga etmish hunar oz", "Olim bo'lsang – olam seniki", "Yoshlikda bilgani toshga yozgani", "Qarilikda bilgani muzga yozgani", "Boylik tugar, bilim tugamas", "Ilmu xikmat suvni yondirar" singari.

Albatta, o'qituvchining izlanishdan, uning samarali faoliyatidan manfaatdorligi hayotiy ehtiyoj. Pedagog iste'dodi, kasb mahorati xuddi ana shu izlanishning mezonini va asosidir.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib, xalq maqollari barcha fanlarni o'qitishda, darslikdagi mavzularni xalq dahosi bilan bog'lab to'ldirishda, o'quvchilarga milliy istiqloq g'oyalari ruhida ta'lim – tarbiya berishda boy didaktik material bo'lib xizmat qiladi. Eng muhimi, xalq maqollari inson hayotining barcha sohalarini qamrab olgan. U ijtimoiy, madaniy, ma'naviy, ma'rifiy jarayonlarni o'zida mujassamlashtirgan bilim, ko'nikma tajriba, xulosa va malakalar bilan yoshlar ongini yuksaltiruvchi ta'lim-tarbiya vositalaridan biridir.

Hikmatilla BOBOMIRZAYEV,
Navoiy DPI o'qituvchisi, pedagog. fan.n.

BUXORO XALQ RESPUBLIKASIDA VAQF MULKLARIGA MUNOSABAT MASALASINI O'RGANISHNING AYRIM MUAMMOLARI (1920-1924-YILLAR)

Vaqf mulklari Sharq dunyosida asrlar davomida iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy taraqqiyotda muhim o'rin egallab kelgan. Vaqflar maorif va madaniyatning asosiy moddiy tayanchi bo'lgan.

Vaqf mulklariga yer, saroy, do'kon, suv tegirmoni, karvonsaroy, bozor joylari, hammom, hovli joylari kabilar kirib, ular orasida

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

1-topshiriq. Izohli lug'atdan olingan quyidagi parchaga e'tibor bering. So`z ma'nosini izohlash uchun qanday birliklar qo'llanilyapti?

ANBAR (a) mumsimon xushbo'y modda

ANBAR (a) tobutning cho'plariga o'rnatilgan novdalarga yopilgan mato

ARSH (a) xudoning taxti; osmon; uyning shifti

ASR (a) quyosh botishidan bir soat oldingi namoz o'qiladigan payt

2-topshiriq. O`zingiz ham lug'atlardan shunday misollar keltiring. So`z ma'nosini izohlash uchun qo'llanilayotgan iboralarni ajratib oling.

Quyidagi birinchi qatordagi so`zlarni ikkinchi qatordagi so`zlar bilan bog`lab, birikma hosil qiling. Nega barcha so`zlar bir-biri bilan birkavermaydi? Izohlashga harakat qiling.

<i>Insoniy</i>	<i>Muhabbat</i>
<i>Davo</i>	<i>o'qish</i>
<i>Yigit kabi</i>	<i>Navqiron</i>
<i>Anketa</i>	<i>beo'xshov</i>
<i>Qattiq</i>	<i>Savollari</i>
<i>Yurakdan</i>	<i>qo'shiq</i>
<i>Sevimli</i>	<i>Izsiz</i>
<i>Toshdek</i>	<i>go'zallik</i>
<i>Yaxshi</i>	<i>Egik</i>
<i>Bexato</i>	<i>o'qimoq</i>
<i>Insoniy</i>	<i>Aziyat</i>
<i>Kamalak misli</i>	<i>Shaxs</i>
<i>Hayvon kabi</i>	<i>Uyushma</i>
<i>Tarixiy</i>	<i>Izlab</i>

SEMINAR MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR. TEST.

Quyidagi test topshiriqlarini mustaqil bajaring.

1. AHVOga tegishli xususiyatlarni toping. *1.Moddiylikdan xoli 2.Betakror
3.Cheksiz 4.Takrorlanuvchan 5.Moddiylikka ega*

A. 5,2,3

B. 3,2,4

C. 1,2,5

2. UMIS va AHVO munosabati falsafada qanday ataladi?

A. Substansiya va aksidensiya

B. Zot va tajalli

C. Haq va sifat

3. Fonologik UMIS qanday ataladi?

A. Tovush

B. Fonema

C. Grafema

4. Quyidagi misralari bilan UMIS va AHVO munosabatini ajoyib tasvirlagan shaxsni aniqlang.

Subutiylir aning sakkiz sifoti,

Sifot zoti emas, na g'ayri zoti.

A. Alisher Navoiy

B. Huvaydo

C. So'fi Olloyor

5. Moddiylikdan xoli va takrorlanuvchanlik xususiyatlari qaysi kategoriyaga xos?

A. AHVO

B. UMIS

C. AKSIDENSIYA

Topshiriq. Quyidagi so'zlarga izoh bering va ingliz tiliga tarjima qiling:

- *umumiylik – alohidalik;*
- *mohiyat – hodisa;*
- *imkoniyat – voqelik;*
- *sabab – oqibat.*

Mavzu: Grammatik ma'no ifodalash usullari. Grammatik shakl turlari

Reja:

1. Grammatik ma'no — grammatik munosabat ifodalaydigan umumiy ma'no.
2. Grammatik ma'no ifodalovchi vositalar haqida.
3. Umumiy xulosalar.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

Affiksatsiya, ichki fleksiya, suppletivizm, ohang, so'zlarini juflash orqali grammatik ma'no ifodalash, agglyutinativ tillar, flektiv tillar.

Grammatik ma'no, grammatik shakl va grammatik kategoriya grammatikaning eng muhim tushunchalaridir va bular o'zaro uzviy bog'langan. Grammatik ma'no tilda rang-barang usullar bilan ifodalanadi. Dastlab, grammatik ma'no to'g'risida mufassal to'xtaylik. Grammatik ma'noning tashuvchisi va ifodalovchisi grammatik shakl sanaladi. Tabiatan agglyutinativ va sintetik bo'lgan o'zbek tilida qo'shimchalardan aloqa- munosabat qo'shimchalari va lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar, asosan, grammatik ma'no ifodalaydi. Masalan, *kitobi* so'zshakliga e'tibor bersak. Bu shakldagi *-i* qo'shimchasi kitobning qandaydir uchinchi bir shaxsga tegishlilikini ifodalasa, "*O'tgan kunlar*" *kitobi*" birikmasida tur va jins nomini o'zaro bog'lab birikma hosil qilyapti. Shu ma'nolar *-i* qo'shimchasida mujassamlangan va shu ma'no ushbu affiksalar morfema orqali yuzaga chiqmoqda. Kelishik qo'shimchalari grammatik ma'no ifodalaydi. Masalan, "*Javondagi kitoblardan oldi*" gapida *-dan* qo'shimchasi ma'lum bir manbadan biror narsa ajralayotganini ifodalasa, "*Vijdondan qo'rqing*" gapida *-dan vijdon* va "*qo'rqmoq* so'zlarini bir-biriga bog'lashga xizmat qilyapti, "*Anvar uydan chiqdi*" gapida esa *Anvar* degan shaxsning chiqish joyini ko'rsatmoqda. Yuqorida keltirgan misollarimizdan shunday xulosaga kelish mumkinki, grammatik ma'no lisoniy va nolisoniy munosabatlarning muayyan shakl(qolip) da mujassamlangan mavhum inikosidir. Chunki, yuqoridagi *kitobi* so'zidagi *-i* qo'shimchasida, "*Javondagi kitoblardan oldi*" gapidagi *-dan* qo'shimchasida nolisoniy munosabat yotsa, "*O'tgan kunlar*" *kitobi*" birikmasidagi *-i* va "*Vijdondan qo'rqing*" gapidagi *-dan* qo'shimchasida sof lisoniy munosabat mujassamlangan. Shuning uchun grammatik ma'no tarkiban murakkab bo'lib, lisoniy va nolisoniy munosabatlar inikosining birikishidan iboratdir.

Fe'l zamonlari ham grammatik ma'no ifodalaydi. Bu zamonlar faqat nutqdagi, matndagi so'zlarning qaysi zamonga oid ekanini ko'rsatish bilan chegaralanmay, balki tashqi dunyoda sodir bo'ladigan voqea va hodisalarning qachon bo'lib o'tganini, ya'ni aynan gapirilayotgan

vaqtda yoki gapirilayotgan vaqtdan oldin yo keyin sodir bo'layotganligini ifodalash uchun ham xizmat qiladi: *Lola o`qidi; Lola o`qiydi; Lola o`qiyotir.*

Sifat darajalari ham grammatik ma`no anglatadi. Ular narsa, predmet, hodisalarning borliqdagi nisbiy farqini aks ettiradi: *tor/ torroq /eng tor; go`zal/ go`zalroq/ eng go`zal.*

Mana shunday ma`lum bir shaklda mujassamlangan va tilda ifodalanishi zarur bo`lgan umumlashgan, lug`aviy ma`no ustidagi ustama ma`no – grammatik ma`no sanaladi. Grammatik ma`no aytib o`tganimizdek, rang-barang usullar bilan ifodalanadi. O`zbek tilida, jumladan, grammatik ma`nolar quyidagi usullar bilan ifodalanadi:

- Affiksatsiya.
- Yordamchi so`zlar.
- So`z tartibi.
- Takror.
- Ohang.
- Juftlash.
- Ichki fleksiya.
- Urg`u.
- Suppletivizm.

Biz bu usullarni tilimizda tarqalganlik doirasiga ko`ra joylashtirdik. Usullar mohiyati sizga “Tilshunoslikka kirish” kursidan ma`lum.

1. Affiksatsiya tilimizda grammatik ma`noni ifodalashning eng keng tarqalgan usuli bo`lib, tilimizga xos bo`lgan grammatik ma`nolarning deyarli barchasi son, egalik, kelishik, hurmat, shaxsiy munosabat, belgi darajasi, harakat, nisbat, tarz (harakatning sodir usuli), bo`lishli-bo`lishsizlik (tasdiq-inkor), mayl- zamon, shaxs-son affiks - qo`shimchalar yordamida ifodalanadi. O`zbek tilida, asosan, suffiksalar, ya`ni o`zak yoki asosdan keyin qo`shiladigan qo`shimchalar ishlatiladi. Tilimizda eroniy tillardan kirgan bir qator *be-*, *bo-*, *ser-*, *no-*, *ba-* kabi prefiksalar — o`zak va asosdan oldin keladigan qo`shimchalar ham o`zlashib qolgan. Lug`aviy shakl va aloqa - munosabat qo`shimchalari vositasida yasaladigan shakllar tilshunoslikda *s i n t e t i k* shakllar deb aytiladi. Chunonchi, *kitoblar*, *akamga*, *uyularimizda*, *kelmasaydingiz*, *yaxshiroq*, *o`nta* kabi shakllar sintetik shakl sanaladi.

2. Yordamchi so`zlar. Bular ham grammatik ma`no ifoda qilish uchun qo`llaniladi. Ko`makchilar ot, ma`nosi toraygan so`zlar bilan birga kelib, o`zi aloqador bo`lgan so`zni boshqa so`z bilan munosabatga kiritadi: *Biz kelajakka ishonch bilan qaraymiz* (A.Q.) - holat ma`nosi voqelangan; *Telefon orqali gaplashdim* –vosita ma`nosi voqelangan; *Do`stlik biz uchun hamisha ilhom va kuch-quvvat manbai bo`lib kelgan* (O`.U.) – atalganlik ma`nosi voqelangan. O`zbek tilida yordamchi so`zlar juda katta guruhni tashkil etib, ko`makchi, bog`lovchi va yuklamalarning yarim bog`lovchi, yarim ko`makchi, yarim yuklama kabi turlari mavjud bo`lib, bunday so`zlar ham mustaqil, ham yordamchi ma`noga ega. Chunonchi, *Ishning boshida Abdurahim turar edi.*

Yordamchi so`zlar sifatida o`zbek tilida *juda*, *eng*, *bag`oyat*, *nihoyatda*, *o`ta*, *sal*, *bir muncha* kabi ravishlar ham, *olmoq*, *bermoq*, *qolmoq*, *o`tirmoq*, *chiqmoq*, *ketmoq*, *boshlamoq*, *bo`lmoq* kabi 40 dan ortiq fe`llar ham keng qo`llaniladi. Yordamchi so`zlar vositasida yasalgan shakllar *a n a l i t i k* shakllar deb ataladi. Tilimizda juda ko`p holatlarda ayni bir grammatik ma`no sintetik shakl bilan ham, analitik shakl bilan ham ifodalanishi mumkin. Chunonchi, *Kitobni akamga (akam uchun /akamga deb / akamga atab/ akamga mo`ljallab/...)oldim.*

3. Takror (reduplikatsiya)- bir so`zni aynan ikki marta takrorlash sanalib, bunda ham turli grammatik ma`nolar hosil qilinadi: predmetning ko`pligi, belgining oshirilishi, ma`noning kuchayishi, harakatning takrorlanishi hamda uzoq davom etishi va boshqalar. Chunonchi,

- etak-etak paxta* — miqdoriy ko`plik;
- ayta- ayta charchamoq* — harakat davomiyligi.

Tilimizda bu usulning to'liq takror (*etak- etak paxta*) va qisman takror (*qip - qizil, ko'm- ko'k, yam - yashil*) va tilimizgagina xos bo'lib, fanda "sadodosh takror" (slova- exo) deb atalgan ko'rinishi ham keng tarqalgan (*mayda- chuyda, she'r-pe'r, kitob -mitob, ko'k- mo'k, qizil- pizil*).

4. **So'z tartibi** - grammatik ma'no anglatishning yana bir vositasi. So'zlarning gapda ma'lum tartibda oldinma-keyin joylashtirilishi ham grammatik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi. Tilimizda ba'zan shu vosita orqali so'zning qaysi kelishikda ekanligi aniqlanishi mumkin. Masalan, bunday holatlar xususan poetik nutqda keng uchraydi. So'z tartibi so'z birikmalari hosil qilishda yetakchi omillardan biri sanaladi. Chunonchi, *keng dalalar* (so'z birikmasi) - *Dalalar keng* (gap). So'z tartibi grammatik omili nutqda hamisha ohang bilan birga ish ko'radi. Shuning uchun yuqoridagi hosilalarning ohangi bir-biridan tubdan farq qiladi. Chunonchi, *bir, ikki kitob- bir- ikki kitob* birikmalarining ohangi har xildir.

5. **Ohang** ham grammatik ma'no ifodalashga xizmat qiladi. Bu vosita yordamida

a) gapning turini ajratish mumkin: *Imtihon topshirdi. Imtihon topshirdi? Imtihon topshirdi!*

b) gap bo'laklarini ajratish mumkin:

Gulnora, singlim keldi. Gulnora, singlim keldi! Gulnora singlim keldi. Birinchi gapda "Gulnora" va "singlim" so'zlari uyushib kelgan bo'lsa, ikkinchi gapda "Gulnora" so'zi undalma vazifasida kelgan, uchinchi gapda esa *ism* ma'nosida kelgan. Ohangning so'z tartibi, so'zlarni bir-biriga bog'lash bilan uzviy aloqadorlikda voqelanishini takroran eslatib o'tish joiz. Yuqoridagilar buning yorqin dalilidir.

6. **Juflash** har xil so'zlarni – ma'nodoshlarni (*baxt-saodat*), zid ma'nolilarni (*yaxshi-yomon*), giponimlarni ulov- (*ot-eshak*), darajalanuvchilarni (*qo'y-qo'zi*), umumiste'mol arxaizmlarni (*bola- chaqa, cho'pon- cho'liq*) – o'zaro qo'shish orqali har xil grammatik ma'nolarni ifodalash ham tilimizda anchagina.

Yuqorida sanalgan olti usul tilimizning ichki qurilishiga xos bo'lgan grammatik ma'nolarni ifodalashning yetakchi usulidir. Shular bilan birga tilimizda juda kam qo'llaniladigan suppletivizmlar, chunonchi, (*men -biz, sen -siz*; eski o'zbek tilida *u- alar, anga, anda, ani, aning*), arabcha so'zlar orqali o'zlashgan ichki fleksiya usullari mavjud:

Kitob - kutubxona

xabar - axbor

fikr - afkor

ilm - ulum

taraf - atrof va boshqalar.

7. **Urg'u.** Dynyo tillarining barchasida grammatik ma'nolarning ifodalanishida urg'u ham ajratiladi. Tilshunosligimizda ham urg'uni shunday vosita sifatida ajratib kelganlar va

tugma (ot) - *tugma* (fe'l)

yozma (sifat) - *yozma* (fe'l)

studentsiz (sifat) - *studentsiz* (kesim)

ximik (sifat) - *ximik* (ot) kabi so'zlarning o'zaro farqlanishini urg'uning turli xil o'rni bilan bog'laganlar. Lekin urg'uning o'zbek tilida ma'no farqlash vazifasi munozaralidir. Urg'uning ma'no farqlash vazifasi tilimizda rus tilidan ko'chirilgan hodisadir. Chunki "*Tugmang tushdi*" va "*Belbog'ni tugmang*" gaplaridagi "*tugma*" so'zida urg'u har ikki holatda ham "*a*" tovushiga tushadi.

Hozirgi tilshunoslikda grammatik ma'noni alohida til hodisasi sifatida o'rganish endi boshlandi. Shu kungacha grammatik ma'no grammatik shaklning bir tomoni sifatida o'rganilib kelindi. Grammatik ma'noni ifodalashning rang - barang usullarini ko'rib o'tgach, biz ayta olamizki, ayni bir grammatik ma'no xilma-xil vositalar bilan ifodalanishi mumkin. Chunonchi, son ma'nosi o'zbek tilida affiksatsiya *Ø/-lar*, ya'ni birlik/ko'plik son shakllari paradigmasi doirasida ko'rib chiqilgan. Son shakllarining ma'nosi deganda mana shu ikki morfema nazarda tutilgan. Tilimizda son ma'nosining ifodalanishi yana boshqa vositalar orqali ro'yobga chiqadi. Chunonchi, ko'plik ma'nosi takror, juft so'zlar bilan ham, birlik

ma'nosi juz'iy reduplikatsiya (takror) yoki so'z- so'zsimon (*kitob - mitob, non - pon, meva - cheva*) bilan ham ifodalanishi mumkin.

Hozirgi fanimizda son ma'nolarining o'xshashlik va farqli tomonlari, shuningdek, "*Kitobni akam uchun oldim*" va "*Kitobni akamga deb/ atab oldim*" kabi hosilalar orasidagi ma'no farqlari deyarli o'rganilmagan. Ya'ni ayni bir ma'noni turli xil vositalar bilan ifodalash yo'llari fanimizning o'rganilmagan muammolari sirasiga kiradi. Bularni tadqiq qilish bugungi kunning vazifasidir.

Adabiyotlar:

- 1.Азизов О.Тилшуносликка кириш. Тошкент: «Ўқитувчи», 1996 йил, 89-94-бетлар.
- 2.Содиқов А., Абдуазизов А., Ирисқулов М. Тилшуносликка кириш. Тошкент: «Ўқитувчи», 1981 йил, 146-154-бетлар.
- 3.Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик ва хусусийлик диалектикаси талқинида. 2-жув. Андижон, 1994 йил.

SLAYDLAR

Grammatik va leksik ma'no munosabati

- ***Bolalar qiziqarli kitobni o'qiydilar*** gapini olaylik. Aytilganidek, mustaqil so'z o'zida bir vaqtda leksika va grammatikani birlashtiradi. ***Bolalar*** so'zida ikki xil ma'no anglashilib turadi:
- **a)** lug'aviy ma'no («odam jinsiga mansub bo'lgan, yosh jihatdan voyaga yetmagan shaxs yoki voyaga yetgan kishining farzandi, avlodi»);
- **b)** turdosh ot, ko'plik son, bosh kelishik, ega vazifasida. Bu so'z leksik va grammatik ma'noni o'zida mujassamlashtirgan.

Soʻz grammatik birlik sifatida morfologik maʼno tizimiga ega.
Shunga koʻra, grammatik maʼnoni quyidagi turga boʻlish
mumkin:

Bildiruvchi
maʼno

Ifodalovchi
mano

Koʻrsatuvchi
maʼno

Grammatik shaklning fahmiy his qilinadigan alohida maʼnosi *xususiy grammatik maʼno* (qisq. XGM) deyiladi. Masalan, egalik qoʻshimchalari umuman «keyingi soʻzni oldingi soʻzga bogʻlash» mohiyatiga ega. Bu *umumiy grammatik maʼno* (qisq.UGM) boʻlib, u nutqiy birlik boʻlgan *Halimning kitobi* birikuvida «*kitob* soʻzini *Halim* soʻziga bogʻlash», *daftarning varagʻi* birikuvida esa «*varaq* soʻzini *daftar* soʻziga bogʻlash» tarzida xususiy lashgan. Bu – XGM.

UGM lisoniy tabiatli boʻlib, lisoniy birliklarga xos barcha belgiga, XGM esa nutqiy maʼno boʻlganligi uchun nutqiy birliklarga xos belgiga ega. UGM umumiy, mavhum, zaruriy, barqaror, invariant, uzual, ijtimoiy boʻlsa, XGM bu belgilarning aksi boʻlgan xususiylilik, aniq, tasodifiy, beqaror, okkazional, individual kabi belgiga ega.

O'zbek tilida so'z bir grammatik ko'rsatkichli yoki bir necha grammatik ko'rsatkichli bo'lishi mumkin. Masalan, yuqorida keltirilgan *sarguzasht* so'zi bir grammatik ko'rsatkichli (oddiy daraja), *kitoblarni* ikki grammatik ko'rsatkich (tushum kelishigi, ko'plik son)li. Shuningdek, tilimizda grammatik shaklning ba'zilari bir grammatik ma'noni, ba'zilari bir vaqtning o'zida bir necha grammatik ma'noni ifodalashi mumkin. Masalan, keltirilgan *sevib* so'zshaklidagi *-ib* ko'rsatkichi holat ma'nosinigina, *o'qiyman* so'zshaklidagi *-man* shakli esa, ham birinchi shaxs, ham birlik ma'nosini ifodalamoqda.



Hozirgi o'zbek tilida so'zshaklning bir necha tipi mavjud:

- a) affikslar yordamida hosil bo'luvchi so'zshakl (sintetik yoki «yopishgan» shakl);
- b) nomustaqil (faqat grammatik ma'no ifodalaydigan) so'z bilan ifodalanadigan so'zshakl (analitik yoki «ajralgan shakl»);
- d) ham affiks, ham nomustaqil so'z yordamida ifodalangan shakl (sintetik-analitik yoki «aralash» shakl);
- e) so'zning takroridan hosil bo'lgan shakl (yoki takroriy shakl).

TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MATERIALLAR(Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)

Х. Хайруллаев

ТИЛ САТҲЛАРИ ВА УЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТУВЧИ БИРЛИКЛАРНИНГ ЎЗARO МУНОСАБАТЛАРИ ХУСУСИДА

Сўнгги йилларда мамлакатимиз тилшунослигида ҳам жаҳон тилшунослиги андозаларига асосланган фундаментал тадқиқот ишлари вужудга кела бошлади. Мазкур ишларда, шубҳасиз, умумий тилшунослик доирасида қўлга киритилаётган ютуқлардан ўринли фойдаланилаётганини ижобий баҳолаш лозим. Маълумки, ҳеч бир фан фақат ўз қобилигида иш олиб боролмайди ва бу орқали бирор муваффақиятга ҳам эришиб бўлмайди. Шу боис жаҳон тилшунослигида қўлга киритилган ютуқлар барча тиллар тараққиёти учун бир хилда хизмат қилмоғи лозим. Шундай бўлгач, тилшунослик фанининг фундаментал назариялари ҳар бир хусусий тилшуносликнинг тараққиёти учун муҳим аҳамият касб этиши табиийдир. Бу ўринда академик И.И.Мешчаниновнинг куйидаги сўзларини алоҳида таъкидлаш зарур деб ўйлаймиз: «Умумий тилшуносликнинг муаммолари алоҳида олинган тилларнинг конкрет материални ўрганиш орқали ҳал этилади» [1. 7].

Мамлакатимиз тилшунослари томонидан кейинги йилларда яратилган тадқиқот ишларининг аксарияти жаҳон тилшунослигида долзарб бўлган масалалар талқинига бағишланмоқда. Бундай ишлар жумласига куйидагиларни киритиш мумкин: «Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси», «Функционал синтаксисга кириш», «Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг шакл-вазифавий (формал-функционал) талқини», «Эргаш гапли қўшма гап конструкцияларида семантик-сигнификатив парадигматика», «Ўзбек тилида предикатив синтагманинг трансформацияси», «Ўзбек тили систем лексикологияси асослари», «Ҳозирги ўзбек тилида гап бўлақларининг семантикаси ва грамматикаси», «Ўзбек

тилида матннинг прагматик талқини», «Когнитив тилшунослик», «Прагмалингвистика», «Қиёсий тилшуносликнинг назарий асослари», «Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси», «Тил нормасининг тарихи ва назарияси», «Матн лингвистикаси» ва бошқалар.

Мазкур тадқиқот ишларида семантик синтаксис, функционал таҳлил, тил бирликларининг парадигматик ва синтагматик муносабатлари, трансформацион назария, нутқ бирликларининг прагматик омиллар қуршовидаги талқини, қиёсий тилшунослик ва унинг долзарб муаммолари, тил меъёри, когнитив тилшунослик асослари, прагмалингвистика ва унинг вазифалари каби долзарб масалалар хусусида баҳс юритилади. Бу, албатта, асосан анъанавий лингвистик (аникроғи, мантикий-лингвистик) тамойиллар қолипида тадқиқот ишлари олиб борилаётган тилшунослигимиз учун собит кадам бўлди. Бироқ фан ҳар доим тараққиётда бўлгани боис, тилшунослигимиз олдида ҳали ўз ечимини кутаётган масалалар ҳам оз эмас. Ана шундай муаммолардан бири тил ва нутқ бирликларининг поғонали муносабати илмий талқинидир.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, сатҳ тушунчаси дастлаб америкалик файласуф-материалистлар томонидан тадқиқотлар кун тартибига қўйилган эди. Бошқача айтганда, мазкур тадқиқот ишларида структур сатҳ тушунчаси қўлланилгани кузатилади. Бироқ бунда бу тушунча ҳали лингвистик маънода эмас, балки жонли мавжудотларга нисбатан ишлатилиб, биологик маъно касб этган (Г.Ч.Браун, Р.В.Селларс) [2.4]. Сатҳ тушунчаси кейинчалик дескриптивистлар томонидан лингвистик таҳлил босқичи маъносида истеъмолга киритилди. Мазкур тушунча шундан сўнг таҳлил

поғонаси ёки даражаси тарзида методик нуқтаи назардан қўллана бошлади.

Шубҳасиз, сатҳ тушунчаси поғонали муносабат тушунчаси билан узвий боғлиқ. Аммо сатҳни турлича тушуниш мумкин. Шу боис дескриптивистларнинг бу борадаги мулоҳазалари ҳам ўзига хосдир. Масалан, америкалик таниқли дескриптивистлардан бири Г.Глисоннинг куйидаги фикрларига эътибор берайлик: «Структура языка имеет несколько уровней. В целях наиболее успешного рассмотрения каждый из них должен быть четко отграничен от всех других. Тем не менее они не являются совершенно независимыми друг от друга. При анализе каждого более высокого уровня структуры следует исходить из единиц более низкого порядка. Так, определяя морфему, лучше всего исходить из фонемы. ...каждый уровень зависит отлежащих ниже, но описывается вне зависимости от вышележащих. Каждый из уровней структуры языка должен быть описан отдельно, хотя лингвистический анализ их ведется более или менее одновременно»[3. 108].

Америка дескриптивизмининг кейинги босқичи вакиллари—структурализм намоёндалари (З.Харрис, Дж.Л.Трейджер, Ю.А.Найда, Н.Хомский ва бошқалар) сатҳ (level) тушунчасини тил бирликлари билан боғлаб, поғона тушунчасини ҳам тадқиқотлар кун тартибига киритадилар.

Прага тилшунослик мактаби вакиллари томонидан бажарилган тадқиқот ишларида сатҳ тушунчаси анча мукамал талқин этилди. Мазкур мактаб намоёндаларининг лингвистик назарияларида, америкалик структуралистлардан фарқли равишда, тил бирликлари таҳлили уларнинг нутқда бажарадиган функциялари билан узвий боғлиқ ҳолда олиб борилди. Бундан ташқари, улар маъно тушунчасидан (лингвистик ва грамматик) йироқлашмадилар. Бунда Н.Трубецкойнинг дастлаб 1939 йилда немис тилида чоп этилган «Фонология асослари» (1960 йилда рус тилига таржима қилинган), А.Мартиненинг «Умумий тилшунослик асослари»

асари, В.Матезиуснинг гапнинг актуал бўлаклари ҳақидаги таълимоти, В.Скаличка ҳамда Л.Новакларнинг фонология муаммоларига оид қатор тадқиқот ишлари муҳим аҳамият касб этди ва ҳозирги пайтда ҳам мазкур ишлар тил системаси ва структурасини ўрганишда дастуриламал бўлиб қолмоқда.

Н.Трубецкой фонологик сатҳ бирликларининг мукамал тавсифини бериш учун жаҳоннинг икки юздан ортиқ тилига мурожаат этди ва ўзининг ғоят муҳим аҳамиятга эга бўлган фонологик таълимотини яратди. Олим фонема ва морфема ўртасидаги муносабат талқинини моҳирона бера олди ва бунинг натижасида морфонология тушунчасига биринчилардан бўлиб асос солди.

А.Мартиненинг лингвистик назарияси асосида функционал таҳлил муаммоси ётганлигини кўрамиз. Мартиненинг функционал таҳлил назарияси жаҳон тилшуносларининг барчаси томонидан тўлиқ тан олинганлиги билан ажралиб туради. Мазкур назария, асосан, тилнинг морфематик ва сўз сатҳи бирликлари талқини, уларнинг функционал қимматини ёритишда муҳим аҳамиятга эга.

В.Матезиуснинг гап сатҳи унсурларининг семантик-функционал талқинига бағишланган гапнинг актуал бўлаклари назарияси ҳам ҳозирги кунгача ўз қимматини йўқотгани йўқ. Айни пайтда ҳам гап компонентларининг тема-рематик муносабати масаласи талқинига бағишланган монографик тадқиқотлар бажарилмоқда (И.П.Распопов, Н.А.Слюсарова ва бошқалар). Тилнинг фонематик сатҳи бирликлари функционал таҳлили бобида Прага тилшунослик мактабида улкан тадқиқот ишлари амалга оширилди. Бу борада Н.Трубецкой, Р.О.Якобсон, В.Скаличка, Л.Новак каби тилшунослар катта ютуқларга эришдилар.

Тил сатҳлари ва уларнинг ўзаро муносабатига доир француз тилшуноси Э.Бенвенистнинг мулоҳазалари ҳам илмий жиҳатдан салмоқли аҳамият касб этади. У тил материалининг лингвистик таҳлили учун сатҳ тушунчасининг аҳамияти катта эканлигини

таъкидлайди ва бунда берилган материални сегментлаш яхши натижа беришини эслатиб ўтади. Тил материалнинг сегментланишининг сўнгги босқичида фонемалар қолишини, агар шундан кейин ҳам таҳлил давом эттириладиган бўлса, фонемаларнинг дифференциал белгилари ҳақида маълумот олиш мумкинлигини кўрсатиб беради. Бундан ташқари, Э.Бенвенист энг кичик сегментлар фонемалар эканлигини, дифференциал белгилар эса сегмент мақомига эга эмаслигини ҳам атрофлича ёритади [4.129-131].

Тил материални сегментлаш муҳим аҳамиятга эга эканлиги изоҳ талаб қилмайди, чунки мазкур таҳлил воситаси орқали тил бирликларининг ўзаро муносабатинигина эмас, балки уларнинг ўзлари тегишли бўлган сатҳ доирасидаги ўрнини ҳам белгилаш мумкин. Масалан, фонематик сатҳ бирликларини тил материални сегментлаш орқали белгилай оламиз. Бироқ мазкур операцияни субфонематик сатҳ (фонеманинг дифференциал белгилари) унсурларига нисбатан қўллаб бўлмайди, зеро, улар муайян фонемаларнинг ички дифференциал белгиларини тақозо этади, холос. Субфонематик сатҳ унсурларини таҳлил жараёнида бошқаси билан алмаштириш мумкин. Мазкур усул тилшуносликда **субституция усули** деб аталади. Албатта, субституция усули ҳам маълум мақсадда қўлланилади. Масалан, бирор фонеманинг ўзига хос дифференциал белгиларининг нутқ жараёнида бажариши мумкин бўлган функционал қимматини аниқлашда мазкур усулдан фойдаланиш яхши натижа беради. Демак, сегментланиш хусусияти субфонематик сатҳ унсурларига эмас, балки фонемаларга хосдир.

Бироқ фонемани тил материалнинг сегменти тарзида ўрганиш унинг муайян объект таркибидаги ўрнини аниқлашимиз учун аҳамиятли бўлса ҳам, бу орқали унинг функционал фаоллиги хусусида мулоҳаза юрита олмаймиз. Уни ўзидан катта бирлик сатҳида ўрганганимиздагина функционал қиммат ҳақида фикр билдиришимиз

мумкин ва бир пайтнинг ўзида фонемадан катта тил бирликлари морфема ёхуд сўз хусусида ҳам баҳс юрита оламиз [4.131-135].

Баъзи сўзлар борки, улар бир йўла тилнинг уч хил бирлиги талабларига жавоб бера олади. Масалан, у графемасини олайлик. Мазкур элемент фонематик, морфематик ва сўз сатҳларининг ҳар бирининг элементи вазифасида талқин этилиши мумкин. Бироқ уни морфема деб, ёки сўз деб талқин этганимизда тилнинг кичик сатҳи бирлиги мақоми нейтраллашади деб тушунмаслигимиз керак. Бошқача айтганда, уни морфема тарзида ўрганганимизда фонематик сатҳ бирлиги морфематик сатҳ бирлигининг таркибига кираётгани, у билан поғонали муносабат ташкил этаётгани ўз кучини тўлиқ сақлайди. Шунингдек, у морфематик сатҳ бирлиги сифатида сўз таркибига кираётганида ҳам морфема ва сўз ўртасидаги поғонали муносабат тўлиқ сақланади. Бундай вазиятда фақат шунга эътибор беришимиз керакки, айтилган пайтда тилнинг фонематик, морфематик ва сўз сатҳлари бирликларининг ифода материали бир хил бўлади, холос.

Равшанки, тилнинг сўз сатҳи доирасида воқеланувчи поғонали муносабат таҳлилига етганимиздан сўнг, поғоналилиқ ҳодисаси мақоми кескин ўзгаради. Зотан, энди тил бирлиги – сўз билан нутқ бирлиги – гап ўртасида иерархик боғланиш вужудга келади.

Шу нарса эътиборга молики, гап тилнинг барча сатҳлари бирликларининг ўзаро кесишиши объекти саналади. Бунда фонематик, морфематик ва сўз сатҳларининг ҳар бири реал қўлланиш учун имкон топади. Гап таркибида келаётган ҳар бир сатҳ бирликлари ўз-ўзлари билан **дистрибутив**, юқори сатҳ бирликлари билан эса **интегратив** муносабат ташкил этади [4.136-137].

Муайян тил бирлигини, масалан, сўзни кичик бирликларга сегментлаш шу бирликнинг конститутив (ташкил этувчи) унсурлари ҳақида маълумот беради. Конститутив унсурлар, албатта, таҳлил этилаётган бирлик сатҳидан кичик сатҳга тегишли бўлади. Демак, бу жараён сегментланаётган

бирликнинг формаси хусусида маълумот беради. Шу бирлик таркибида жамланиб унинг таркибий қисмини ташкил этаётган кичик сатҳ бирликлари маъно ифодаси билан боғлиқ бўлади. Бошқача айтганда, муайян бирликнинг интегратив хусусияти маъно ифодасини беради. Катта бирлик ичида кичик бирликлар маълум қодалар (фонетик, грамматик) асосида ўзаро бириколмас экан, бу ўринда интеграция тушунчаси нолга тенг бўлади. Бу ҳақда сўз юритганида Э.Бенвенист Ф.де Соссюрнинг куйидаги мисолини келтиради: «Белгининг ифодаловчи ва ифодаланувчи жиҳатларини кўп пайтларда гавда ва руҳ қоришувини тақозо этувчи инсон (шахси) билан қиёс қилишадилар. Бироқ бундай қиёс унчалик ўринли эмас. Бунда бирор кимёвий қоришувни мисол келтириш мақсадга мувофиқроқ бўларди. Масалан, кислород ва водород қоришувидан иборат бўлган сувни олайлик. Агар мазкур унсурларни алоҳида оладиган бўлсак, уларнинг бирортаси ҳам сув хусусиятига эга бўлолмайди» [4.137]. Бу тил бирлигининг интегратив хусусияти ниҳоятда муҳим аҳамиятга эга эканлигидан далолат беради, албатта.

Тил сатҳлари бири иккинчиси билан узвий боғлиқ бўлса ҳам, уларнинг ҳар бири ўзича бир хил бирликлар макропарадигмасини жамловчи нисбий автоном механизмларни тақозо этади. Бироқ реал қўлланишига кўра мазкур автоном механизмлар бирликлари ўзидан катта автоном механизмлар таркибига кирмоғи лозим. Бу жараёнда улар иккинчи сатҳ учун қурилиш материали ҳамда унинг интегрантлари вазифасини бажаради. Бошқача айтганда, ҳар бир автоном механизм бирлиги ўзидан катта бирлик сатҳида тил бирликларини интеграциясини ташкил этади. Масалан, фонематик сатҳ бирликлари – фонемалар морфематик сатҳ бирлиги – морфема таркибига кирганда ундан кичик бирликлар интеграциясини ҳосил қилади [5.146-147].

Бу тарздаги тил бирликлари муносабатини нафақат фонематик, морфематик сатҳлар доирасида, балки морфематик ва сўз сатҳлари, сўз ва гап сатҳларининг ўзаро боғланишида ҳам

кузатамиз. Бу, ўз навбатида, тил бирликларининг функционал қиймат касб этиши уларнинг ўзаро муносабатига узвий боғлиқ эканлигини кўрсатади. Тил бирликлари уч хил: парадигматик, синтагматик ва иерархик муносабатда бўлади. Бироқ мазкур муносабатларнинг ҳар бири ўзига хос хусусиятларга эгадир. Агар парадигматик муносабат тил бирликларининг ўзлари тегишли бўлган сатҳ доирасидаги муносабатини тақозо қилса, синтагматик муносабат муайян сатҳ бирликларининг иккинчи сатҳ ичида бир-бири билан боғланишини намоён этади. Бунда шу нарса характерлики, фақат муайян бир сатҳга тегишли бирликларгина муносабатга кириша олади. Масалан, фонема фонема билан, морфема морфема билан ёки сўз сўз билан синтагматик боғланиши мумкин. Аммо шуни ҳам айтиш керакки, синтагматик муносабат иерархик муносабатнинг шаклланишига олиб келади. Гап шундаки, фонема фонема билан ёки морфема морфема билан ўз сатҳлари доирасида муносабатга кириша олмайди. Бунинг учун уларга ўзларидан катта сатҳни ташкил этувчи қўлланиш объекти лозим бўлади. Бу эса бир пайтнинг ўзида сатҳлараро муносабатнинг, яъни иерархик муносабатнинг шаклланишига ҳам олиб келади. Демак, синтагматик ва иерархик муносабатлар бир-бири билан узвий боғлиқдир. Зотан, тил бирликлари горизонтал қатор бўйлаб ўзаро боғланган тақдирдагина ўзларидан катта бирлик билан поғонали муносабат ташкил эта олади.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, тилнинг ҳар бир сатҳи бирликлари ўзича алоҳида системани тақозо этади. Уларнинг иерархик муносабат доирасига кириши ва бошқа сатҳ бирликлари билан боғланиши система тушунчасини кенгайтиради ва яхлит тил системаси ҳақида тасаввур ҳосил қилади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Мещанинов И.И. *Общее языкознание. К проблеме стадийности в развитии слова и предложения.* –Л., 1940.

2. Солнцев В.М. *О понятии уровня языковой системы // Вопросы языкознания, №3, 1972.-С.4.*

3. Глисон Г. Введение в дескриптивную лингвистику. – М., 1959.

4. Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М., 1974.

5. Головин В.Н. Язык // Общее языкознание. – М., 1979.

AMALIY MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

Morfemik polisemiyalarga misollar keltiring.

pishiqchilik

paxtachilik

asosdan anglashilgan
narsa
yetishtiriladigan
sohani ifodalovchi
otlar:

asosdan
anglashilgan narsa
hodisaning borlik
holatini bildiruvchi
otlar:

ulfatchilik

asosdan anglashilgan
tushuncha bilan
bog`liq bo`lgan ishni
bildiruvchi otlar:

Matni o`qing. Grammatik ma`no ifodalovchi vositalarni aniqlang.

Xotin-qizlar jinsidan irodasi kuchli, hatto erlardan ham jasurroq shaxslarni ko`p uchratamiz. Shuning bilan birga, ularni, naqadar kuchli irodaga molik bo`lmasinlar, yana hissiyotlarga mag`lub ko`ramiz. Masalan: hikoyamiz qahramoni Ra`noning jasorati, xonga qarshi isyoni, hatto ma`yus qolgan Anvarni yo`lga solishi – o`z zamonasi uchungina emas, bizning hozirgi asrimiz uchun ham loyiqli tahsin va Ra`no yoshlik qizlarimizga ibratdir. Lekin irodasi kuchli shu Ra`no hozir yana hissiyoti qo`lida mag`lub edi (A.Qodiriy).

SEMINAR MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR. TEST.

Savollarga javob bering, topshiriqlarni bajaring.

1. Grammatik ma'no deganda nimani tushunasiz?
2. Grammatik ma'no so`zning leksik ma'nosidan qanday farqlanadi?

Misollar asosida tushuntiring.

3. Grammatik ma'no tillarda qanday vositalar bilan ifodalanadi? Fikringizni o`zbek, rus va ingliz (nemis, fransuz) tillari doirasida isbotlashga harakat qiling.

4. «Affikslar - grammatik ma'no ifodalovchi vositalar» ekanligini izohlang.

5. «Fuziya», «agglyutinatsiya», «fleksiya» atamalarining ma'nosini tushuntiring.

6. So`z tartibi grammatik ma'no ifodalashi mumkin bo`lgan holatlar haqida nimalarni bilasiz?

7. Grammatik ma'no ifodalashning suppletivizm usulini tushuntiring.

8. Grammatik ma'no ifodalashning takror usuli deganda nimani tushunasiz?

9. Urg`u grammatik ma'no ifodalovchi vosita bo`la oladimi?

10. Intonasiya (ohang) orqali grammatik ma'no ifodalanishini isbotlang. Bu barcha tillar uchun xosmi?

11. Qanday tillar analitik tillar deyiladi?

12. Sintetik tillar haqida ma'lumot bering.

13. Grammatik ma'no nol (\emptyset) ko`rsatkichga ega bo`ladigan holatlarni izohlang.

14. Fleksiya usuli bilan ifodalangan grammatik ma'noga misollar ayting.

TEST TOPSHIRIQLARI

1. Karim maktabga qarab ketdi.

Ushbu gapda faqat grammatik ma'no ifodalangan so`zni toping.

- A) Karim ketdi
B) maktabga
C) qarab
D) maktabga qarab
E) barcha soʻzlar leksik maʼnoga ega

2. Axir, kishi yashashdan tashqari kurash, yaratish, baxt uchun ham tugʻilmaydimi?!

Berilgan gap tarkibida necha soʻz faqat grammatik maʼno ifodalaydi?

- A) toʻrtta soʻz
B) beshta soʻz
C) oltita soʻz
D) toʻgʻri javob yoʻq
E) yettita soʻz

3. Grammatik kategoriya hosil qiluvchi shakllar berilgan qatorni toping.

- A) otlardagi son shakli, feʼllardagi oʻtimli-oʻtimsizlik
B) otlardagi erkalash va kichraytirish shakllari
C) feʼllardagi nisbat shakllari
D) A va B
E) A, B, C

4. Nokategorial formalar berilgan qatorni aniqlang.

- A) shaxs-son qoʻshimchalari
B) egalik qoʻshimchalari
C) otlardagi erkalash va kichraytirish qoʻshimchalari
D) mayl qoʻshimchalari
E) kelishik qoʻshimchalari

5. Kategorial formalar berilgan qatorni toping.

- A) ravish yasovchi affikslar
B) gumon olmoshlarini hosil qiluvchi affikslar
C) sonning maʼno jihatidan turlarini hosil qiluvchi affikslar
D) feʼllardagi harakat tarzi shakllari

E) barcha javoblar to`g`ri

Mavzu: Grammatik kategoriya (GK) va shakllar. Grammatik kategoriyalar tasnifi

Reja:

1. Kategoriya tushunchasi haqida.
2. GK ko`rinishlari va ularning tasnifi.
3. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining "Ona tili" darsliklarida grammatik kategoriya va ularning tasnifini berish xususiyatlari.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

Grammatik kategoriya (GK), grammatik shakl (GSH), ravishdosh shakllarining XGM va UGMsi, son kategoriyasi, egalik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi, subyektiv munosabat kategoriyasi, qiyoslash kategoriyasi, nisbat kategoriyasi, o`zgalovchi kategoriya, kesimlik kategoriyasi, morfologik kategoriya (MK), sodda va murakkab kategoriyalar, "oldingisi bilan" aloqa, "keyingisi bilan" aloqa, leksik-morfologik kategoriya, funksional-morfologik kategoriya, tasnif tushunchasi, aloqa-munosabat shakllari, kichraytirish - erkalash shakli, lug'aviy shakllar.

Grammatik kategoriya va grammatik shakl masalasi grammatika fanida ko`p tilshunoslarni o`ylovga qo`ygan masalalardandir. GK mohiyati nimadan iborat? Bu savolga tilshunoslar turlicha javob beradilar. Buning mohiyatini bilish uchun dastlab kategoriya atamasining o`zi nimaligi haqida fikr yuritaylik. Bu atama falsafadan tilshunoslikka kirib kelgan bo`lib, falsafada bu tushuncha quyidagicha izohlanadi: "...obyektiv borliq va bilishdagi mohiyatan ko`proq qonuniy aloqa va munosabatlarni aks ettiruvchi umumiy tushuncha". Falsafada ham, tilshunoslikda ham kategoriya bir xil narsani ataydi, ya`ni kategoriya uchun juftlik va yakkalik mavjud bolishi shart va zarur. Falsafada juftlikni sabab -natija, mohiyat -hodisa, butun- qism; yakkalikni borliq, miqdor, makon tashkil etsa,tilshunoslikda kategoriya atamasi ostida qat`iy zidlangan ikkilik (son kategoriyasi) yoki ko`plik (kelishik kategoriyasi) tushuniladi.

GK bo`lishi uchun aloqa va aloqaga tushuvchi birliklar zarur. Muayyan ma`no umumiyliги asosida birlashgan va o`zaro zidlanuvchi shakllar sistemasi GK hisoblanadi. GK deganda, asosan, morfologik kategoriyalar (MK) anglashiladi. **GK grammatik shakllarning oddiy arifmetik yig`indisi emas, balki ma`lum turdagi formalarning barqaror munosabatlari tizmasidan iborat bo`lgan yangi bir butunlikdir.** Shuning uchun grammatik kategoriya o`zi uchun xos bo`lgan umumiy ma`noga ega, bu ma`no shu kategoriya shakllarida ma`lum ko`rinishlarda, turlarda parchalanib, aniqlanib voqelanadi. Shuning uchun kategoriya UGMsi bilan shu kategoriya birliklari shakllari XGMLari o`zaro tur- jins munosabatlarida turadi. Masalan, o`zbek tilida ravishdoshlarning UGMsi "fe`lni fe`l bilan aloqaga kiritish" sifatida tavsiflanadi. Lekin ravishdoshlarning xususiy ko`rinishlari quyidagi paradigmani hosil qiladi:

- I. 1.- *gach* — boshqa bir harakatning boshlanish chegarasini ko`rsatish;
2. -*guncha* — boshqa bir harakatning tugallanish chegarasini ifodalash;
3. -*ganda* — boshqa bir harakat sodir bo`lish fonini ifodalash;
- II. 4. -*b/-ib* — davomli va davomsiz harakatni fe`l bilan bog`lash;
5. -*a/-y* — davomli harakatni fe`l bilan bog`lash;
- III. 6.- *gani/-gali* — maqsad ma`noli harakatni boshqa harakat bilan bog`lash.

Yuqorida ko`rsatilgan barcha ravishdoshlarda ravishdoshning umumiy ma`nosi mavjud: fe`lni fe`lga bog`laydi. Lekin bu uch qatorning xususiy ma`nolari ham bor: birinchi qatorda payt, zamon, ikkinchi qatorda davomli- davomsizlik, uchinchi qatorda sabab-maqsad UGMLari mujassamlangan.

Keyingi tadqiqot ishlarida (Qarang: Mengliyev B. Morfologik vositalarning ma`noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari. ND. Buxoro, 1994) yuqorida ko`rsatib o`tilgan (-gach,- guncha, -ganda, -b/ -ib, -a/ -y, -gan / -gali) shakllar ravishdoshlarning turli zamon yoki tarz formalari emas, balki har xil zamon va tarz kategoriyalarining ravishdoshlarda ko`rinishi sifatida talqin qilingan. Boshqacha qilib aytganda, zamon ma`nolari ravishdoshlarga va ravishdoshlik vazifasi zamon ichiga singib ketgan. Bunday hodisalarni o`rganish bugungi tilshunosligimiz oldiga ko`ndalang qilib qo`yilgan.

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, shakl va kategoriya tushunchalari pog`onali, butun- bo`laklik, katta-kichiklik munosabatlari bilan bog`langanligi sababli biror kategoriyaga mansub bo`lmaydigan morfologik forma bo`lishi mumkin emas. Moddiy ko`rsatkichi bitta bo`lgan kategoriyalarda muayyan morfologik formani yasovchi asosning o`zi nol ko`rsatkichli- \emptyset bo`lib, ikkinchi morfologik shaklni tashkil qiladi. Chunonchi,

kitob -birlik son

kitoblar- ko`plik son

qizil -oddiy daraja

qizilroq -qiyosiy daraja.

Odatda nokategorial deb ataluvchi *-niki*, *-dagi*, *-dek*, *-gacha* morfemalari mohiyatan so`z yasovchilardir. Sh. Shahobiddinova morfologik kategoriyalarni o`rganar ekan, o`zbek tilida ularning quyidagi turlarini beradi:

1. Son kategoriyasi — $[\emptyset]$: [-lar]
2. Egalik kategoriyasi — $[\emptyset]$: [-i/m]:[-i/ng]...
3. Kelishik kategoriyasi — $[\emptyset]$: [-ning]:[-ni]:...
4. Subyektiv munosabat kategoriyasi — $[\emptyset]$: [-jon]:[-xon]...
5. Qiyoslash kategoriyasi — $[\emptyset]$: [-roq]...
6. Nisbat kategoriyasi — $[\emptyset]$: [-t/-dir]: [-il]...
7. O`zgalovchi kategoriyasi — $[\emptyset]$: [-ish]: [-i/b]: [-gan]...
8. Kesimlik kategoriyasi — $[\emptyset]$ aniqlik, buyruq, shart mayli...

Ushbu grammatik kategoriyalar bir necha jihatdan tasnif qilinadi:

1. Kategoriyadagi shakllarning ma`noviy tarkibiga ko`ra.
2. Morfologik kategoriya (MK)larning so`z turkumlari yoki gap bo`laklariga xosligi jihatidan.
3. MK sintaktik qobiliyatlarining yo`nalishlariga ko`ra.

Endi shular ustida qisqacha to`xtab o`taylik. Birinchi tasnifga ko`ra kategoriyalar sodda va murakkab kategoriyalarga ajratiladi. Son, qiyoslash, kelishik, nisbat, subyektiv munosabat kategoriyalari sodda kategoriyalar jumlasidandir. Chunki ularda ma`no sodda bo`lib, faqat bir kategoriyaga mansub bo`lgan ma`noni ajratamiz. Chunonchi, son kategoriyasining ma`nosi miqdoriy va sifatiy belgilarning ma`lum yig`indisidan iborat bo`lsa, kelishik kategoriyasi tobelikni ifodalaydi. Qiyoslash kategoriyasi belgining qiyosan ekanligini ko`rsatsa, nisbat kategoriyasi fe`l anglatgan bajaruvchining tavsifini ifodalaydi.

Murakkab kategoriyalarning formalari ma`no murakkab bo`lib, ularda bir necha kategoriyalarga mansub bo`lgan ma`nolarni ajratish mumkin. Murakkab kategoriyalar sirasiga egalik, o`zgalovchi, kesimlik kategoriyalarini kiritish mumkin. Masalan, egalik kategoriyasida uch xil ma`no mujassamlangan bo`ladi:

- a) lisoniy va nolisoniy munosabatni ifodalash (egalik kategoriyasi uchun kategorial ma`no);
- b) shaxs ma`nosi (nokategorial ma`no);
- d) son ma`nosi (nokategorial ma`no).

Kesimlik kategoriyasi ham murakkab bo`lib, unda tasdiq-inkor, mayl- zamon, shaxs -son ma`nolari birlashgan bo`lib, ular bitta qo`shimchada yoki bir necha qo`shimchada ro`yobga chiqadi. Masalan, " *Olmani ol*" gapida "ol" so`zshakli tasdiq, buyruq mayli, hozirgi zamon, ikkinchi shaxs, birlik son ma`nolarini voqelashtirib kelmoqda va bu ma`nolar $[\emptyset]$ bilan ifodalanmoqda. " *Kitobni olmadingiz*" gapida inkor ma`nosi [-ma] qo`shimchasi bilan, mayl- zamon ma`nosi [-di] bilan, ko`plik ma`nosi [-iz] bilan ifodalanmoqda.

O'zgalovchi kategoriya ham murakkab bo'lib, unda ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi shakllari ma'nolari bir butunlikni hosil qiladi.

Morfologik kategoriyalarning so'z turkumlari yoki gap bo'laklariga xosligi jihatidan tasnifiga ko'ra MKlar ikkiga bo'linadi:leksik-morfologik va funksional - morfologik. Leksik - morfologik kategoriyalar so'zlarning ayrim guruhlari- turkumlariga xos. Bular sirasiga son, subyektiv munosabat, qiyoslash, daraja, nisbat, o'zgalovchi kategoriyalar kiradi. Chunki son kategoriyasi, asosan, ot, olmoshlarga, qiyoslash, daraja kategoriyalari sifatarga, nisbat, o'zgalovchi kategoriyalari fe'llarga xos leksik -morfologik kategoriyalar sifatida ajratiladi.

Funksional - grammatik kategoriyalarga kelishik, egalik, kesimlik kategoriyasi kiradi. Chunki kesimlik kategoriyasi gap markazi — kesimni shakllantirsa, kelishik uning boshqa bo'laklarini shakllantiradi. Egalik kategoriyasi esa so'z birikmasi qurilishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

MKlar sintaktik qobiliyatlarining yo'nalishlariga ko'ra tasnifida "birin - ketinlik", ya'ni grammatik kategoriyalarning sintaktik qobiliyatlarining "oldingisi bilan"va "keyingisi bilan" sifatida belgilanishi nazarda tutiladi. Masalan, "kitobning" so'zshaklidagi \-ning\ o'zidan keyin egalik shaklini olgan ot kelishi shartligini, "kitobi" so'zidagi \-i\ bu so'zshaklidan oldin qandaydir qaratqich aniqlovchi bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. O'zbek tilida egalik, nisbat, kesimlik, qiyoslash, son kategoriyalari so'zshaklning "oldingisi bilan" aloqalarini ko'rsatsa, kelishik kategoriyasi so'zshaklning "keyingisi bilan" aloqasini ko'rsatadi. Shaxsiy baho shakllari bu jihatdan mo'tadildir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-7 - sinflari uchun mo'ljallangan ona tili darsliklarida ham yuqorida sharhlangan grammatik kategoriya va ularning tasnifi o'rin olgan. O'quvchilarga kategoriya ko'rinishlarini berishdan oldin to'plam va tasnif tushunchalarining mohiyati sodda va lo'nda qilib izohlab berilgan. Tasnif deganda biror predmetni, shaxsni, belgi, voqea, hodisani o'z ichki o'xshashliklari bilan bir to'plamga, guruhga kiritish yoki, aksincha, biror to'plamni uni tashkil etuvchi sinflarga, guruhlarga ajratish, farqlash tushuniladi.

Darhaqiqat, o'quvchi ona tilining morfologiya bo'limida so'z turkumlari va ularning lug'aviy shakllari, ma'noviy guruhlari, so'zshakllari va ularning turlarini o'rganar ekan, mavzuni puxta o'zlashtirishi uchun tasnif asoslarini bilishi shart va zarurdir.

Maktab darsliklarida so'zshakllari ikki guruhga ajratib o'rganiladi: aloqa- munosabat va lug'aviy shakllar. Aloqa-munosabat shakllari doirasiga egalik, kelishik, kesimlik kategoriyalari qo'shimchalari kiritilgan. Lug'aviy shakllar doirasida esa otlardagi son shakli, kichraytirish-erkalash shakli, sifatlardagi oddiy, qiyosiy, ortirma daraja lug'aviy shakllari, fe'llardagi nisbat va ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakllari va harakat tarzi shakllari berilgan. Bunday shakllar o'zaklarga qo'shib, ularning lug'aviy ma'nosiga qo'shimcha ma'no beradi. Aloqa-munosabat shakllari so'z birikmasi va gapni shakllantiradi. Lug'aviy shakllar va aloqa - munosabat shakllarining maktab darsliklaridagi talqini ham o'z xususiyatlariga ega. Lug'aviy shakllar morfologiya bo'limida har bir so'z turkumini o'rganish boshlanishida o'tilib, bu lug'aviy shaklning biz yuqorida UGM deb atagan ma'nosi sodda, bolalarga tushunarli shaklda bayon etiladi. Mavzu davomida har bir so'z turkumining LMGlari o'rganiladi va har bir LGM so'zlarida lug'aviy shaklning ma'no xususiyatlari ochib beriladi, ya'ni OGM va XGM lar berib boriladi.

Adabiyotlar:

- 1.Зикриллаев Ф. Ўзбек тили морфологияси. Бухоро, 1994 йил.
- 2.Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. Грамматик категория муаммосига доир айрим мулоҳазалар. ЎТА, 1998 йил, 6-сон, 22-26-бетлар.
3. Ne'matov H. va b. Ona tili. 6 - sinf uchun darslik. Toshkent. "O'qituvchi" 2000.
4. Ne'matov H. va b. Ona tili. 7 - sinf uchun darslik. Toshkent. "O'qituvchi" 2000.
- 5.Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик ва хусусийлик диалектикаси талқинида. 2-жузв. Андижон, 1994 йил.

SLAYDLAR

Grammatik shakl (*grammatik ko'rsatkich, grammatik shakl, morfologik shakl, morfologik ko'rsatkich, morfologik vosita* atamaları – ma'nodosh terminlar) tasnifi tilshunoslik, jumladan, o'rta va oliy ta'lim grammatik tizimining muhim tushunchasidan biri bo'lganligi sababli har doim dolzarb bo'lib kelgan. O'tgan davr mobaynida o'zbek tili grammatik ko'rsatkichlarining tasnifi yaratildi, ammo xulosa avval arab, keyinchalik rus tili grammatik me'yoriga asoslangan holda berilib kelindi.

Affiksatsiya tilimizda grammatik ma'no ifodalashning eng keng tarqalgan turi, u orqali deyarli aksariyat grammatik ma'no ifodalanadi. Ifodalaydigan grammatik ma'noning xarakteriga va o'z mohiyatiga ko'ra affikslar ikkiga bo'linadi.

- a) so'z yasovchi affiks;
- b) shakl yasovchi affiks.

Hozirgi o'zbek tilida so'zshaklning bir necha tipi mavjud:

- a) affikslar yordamida hosil bo'luvchi so'zshakl (sintetik yoki «yopishgan» shakl);
- b) nomustaqil (faqat grammatik ma'no ifodalaydigan) so'z bilan ifodalanadigan so'zshakl (analitik yoki «ajralgan shakl»);
- d) ham affiks, ham nomustaqil so'z yordamida ifodalangan shakl (sintetik-analitik yoki «aralash» shakl);
- e) so'zning takroridan hosil bo'lgan shakl (yoki takroriy shakl).

Analitik so'zshakl nomustaqil ma'noli (asosan, yordamchi) so'z yordamida hosil qilinadi: *maktab uchun, kelajak sari*.

Sintetik-analitik shakl ham affiks, ham yordamchi so'z yoki yordamchi so'z vazifasidagi mustaqil so'z bilan hosil qilinadi. Masalan, *o'qib chiqdi, borgan ekan, shaharga tomon* va h. Bunda *chiqdi* so'zi ushbu o'rinda *-ib* affiksi, *tomon* so'zi *-ga* qo'shimchasi yordamida aralash so'zshaklni vujudga keltirgan.

Takroriy shakl ham ma'lum bir grammatik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, *baland-baland* (imorat), *qator-qator* (daraxtlar), *kula-kula* kabilar «ko'plik», «takror» ma'nosini ifodalaydi.

**O'zbek tilida grammatik ma'no ifodalashning
quyidagi vositalari mavjud:**

affiksial vosita;

2) sof nomustaqil va nomustaqil vazifadagi so'z;

3) so'z tartibi;

4) takror;

5) ohang;

6) sintaktik qolip.




- Soʻz yasovchi affiks soʻzga qoʻshilib, yangi lugʻaviy maʼno hosil qiladi va soʻzning grammatik tabiatiga ham taʼsir etadi. Masalan, *ish* soʻziga qoʻshilgan *-la* soʻz yasovchi qoʻshimchasi yangi lugʻaviy maʼno vujudga keltirish bilan birga, yangi grammatik maʼno ham hosil qiladi. Qiyoslang: *ish* (gram.maʼno: «predmetlik», «ot») – *ishla* (gram.maʼno: «jarayon», «feʼl») Koʻrinadiki, hosila leksemadagi «jarayon» va «feʼl» grammatik maʼnolari soʻz yasovchi vosita yordamida vujudga kelgan.

Affikslar asosan sintetik shakl hosil qiladi va qisman analitik shakllar hosil qilishda yordamchi vositalarga koʻmaklashadi.

Sof nomustaqil va nomustaqil vazifadagi soʻz ham grammatik maʼno ifodalovchi vosita sirasida muhim oʻrin tutadi.

Yordamchi soʻz mustaqil soʻz va gapda grammatik maʼno ifodalashning alohida turini tashkil etadi.

O'zbek substansial tilshunosligi o'zbek tilining agglyutinativ tabiati va ontologik shakl yasash xususiyatiga tayangan holda grammatik ko'rsatkichlarning yangicha tasnifini berdi. Bunga ko'ra:



TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MATERIALLAR(Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)

Ko'chiring. Grammatik ma'nolar o'zbek va rus tillarida qanday usul va vositalar bilan ifodalanganligini solishtiring.

I. Eng yaxshi – самый хороший, o'qiyman – буду читать, kitobni – книгу, o'tiribsan – сидишь, stollar – столы, yaxshi – хороший, yaxshiroq – лучше, arraning – пили, yomon – плохо, yomonroq – хуже, meni – меня.

So'zlarning tarjimasini yozing va grammatik ma'no ifodalagan vositalarni sharhlang.

II. Бегаю - ...

рукавицы –.....

лестнице –.....

второй этаж –.....

поговорив по телефону –.....

на стенах –.....

на руку –.....

Mashq.

Grammatik ma'noning fleksiya usuli bilan ifodalanishiga o`nta misol keltiring.

Mashq.

O`zbek tilida ko`plik, payt, o`rin, miqdor kabi grammatik ma'nolarni ifodalovchi vositalarni aniqlang. Ularning o`zaro o`xshash va farqli jihatlarini aniqlang.

Namuna: *Bozordan ikki kilogramm olma sotib oldik* (ko`plik) (aniq ko`plik).

Qop-qop olmalarni aravaga ortishdi (ko`plik) (noaniq ko`plik).

AMALIY MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

Matnni o`qing. Matn tarkibidagi har bir so`z ifodalagan grammatik ma'noni izohlang. Grammatik ma'no ifodalovchi vositalarga diqqat qiling.

Usmon Nosirning keyingi umri panjaralar ichida, yerto`lalar, qamoqxonalar va tikanli simlar ortida kechdi. Quyoshning bir tutam nuri ham uning yuziga temir panjaralar orasidan tushdi. Sovuq o`lkalarda kechgan yillarda esa quyoshni deyarli ko`rmadi.

Kechagina shoirning jo`shqin ovozi yangragan zallarda endi uning nomi va ijodiga tuhmat toshlari otila boshlandi. Korxonalar va o`quv yurtlarida, gazeta va jurnallar sahifalarida, radio to`lqinlarida Usmon Nosir sha`niga aytilgan bo`htonlar avj oldi. Kutubxona va she`riyat

muxlislari uyini nurga to'ldirib turgan shoir kitoblari gulxanlarga tashlandi.

Tergov xonalarida esa uning «xalq dushmani» ekanligini tasdiqlash, «dalil»lar topish uchun turli vahshiyona usullar qo'llandi. Hali yigirma to'rtga kirib ulgurmagan yigitning boshi balolardan chiqmadi. G'ayriqonuniy tergov usullari qanchalik dahshatli bo'lmasin, u qariyb bir yil davomida «o'z aybi»ni bo'yniga olishdan bosh tortdi. Ammo nafaqat shoir, balki tergov ishlari bo'yicha mutaxassislar ham qaysar edi. Oqibatda Usmon Nosir Toshkent qamoqxonasida saqlanayotgan kezlaridayoq ruhiy kasallikka duchor bo'ldi... (Naim Karimovdan)

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Kategoriya atamasi haqida nima bilasiz?
2. Falsafa va tilshunoslik fanlari kategoriyalari aynan bir narsami?
3. Grammatik kategoriyalar deganda asosan qaysi kategoriyalar nazarda tutiladi?
4. GK(grammatik kategoriya)lar qanday butunlikdan iborat bo'ladi?
5. O'zbek tilshunosligida, xususan, zotiy tilshunoslikda qaysi morfologik kategoriyalar sanab o'tiladi?
6. Sodda va murakkab kategoriyalar haqida nima bilasiz?
7. Leksik-morfologik kategoriyalarni sanab bering.
8. Funktsional-grammatik kategoriyalar xizmati nimadan iborat?
9. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham MKlar bo'yicha ma'lumot beriladimi?

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR. TEST.

1. Tushlikka zang urilganda Zokir ota non xaltasini ko'tarib keldi. Ushbu gapda "urilganda" so'zida qaysi grammatik kategoriyalarga tegishli shakllar bor?
 - a) o'zgalovchi, nisbat kategoriyasi*
 - b) kelishik kategoriyasi
 - c) kesimlik kategoriyasi
 - d) nisbat kategoriyasi
2. Qaysi qatorda murakkab kategoriyalar to'g'ri berilgan ?

- a) egalik kategoriyasi, o'zgalovchi kategoriya , kesimlik kategoriyasi *
- b) daraja kategoriyasi, egalik kategoriyai,kesimlik kategoriyasi, son kategoriyasi,
- c) nisbat kategoriyasi, o'zgalovchi kategoriya, bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi
- d) o'zgalovchi kategoriya, nisbat kategoriyasi
3. Sodda kategoriya berilgan qatorni aniqlang.
- A) nisbat, son*
- B) egalik, son
- S) kesimlik, nisbat
- D) daraja, kesimlik
4. Kesimlik manosining tafsifiy ifodalanishiga misol bo'la oladigan qatorni ko'rsating.
- a) ishchi edim, o'qisa bo'ladi *
- b) shifokorsiz, o'qituvchisiz, ishchi
- s) boray,yog'sa kerak, yoz
- d) yoz; o'qituvchiman, ishchi edim
5. Kesimlik kategoriyasining ma'nolarini ko'rsating .
- a) tasdiq, inkor, mayl, zamon, shaxs, son*
- b) bo'lishli, bo'lishsizlik, zamon, shaxs, son
- s) tasdiq, inkor, nisbat, zamon, shaxs, son
- d) bo'lishli, bo'lishsizlik, nisbat, shaxs, son
6. O'zgalovchi kategoriyalar berilgan qatorni toping?
- a) -gach, -guncha, -ayotgan*
- b) -moq, -a, -e, -ay,
- c) -ma, -may, -masdan
- d) -sa, -sa edi, gan
7. Kelishik kategoriyasida qanday ma'nolar bor?
- a) payt, makon, yo'nalganlik, saralash*
- b) son, zamon, mayl, saralash
- c) tasdiq, inkor, zamon, daraja
- d) shaxs, zamon, tasdiq, inkor
8. Murakkab kategoriyalar berilgan qatorni toping ?
- a) egalik, o'zgalovchi, kesimlik*
- b) harakat tarzi, son, nisbat
- s) egalik, o'zgalovchi, nisbat
- d) egalik, harakat tarzi, nisbat.
9. Birlik sonning umumiy grammatik ma'nosi nima ?
- a)aniq yoki noaniq miqdor,bo'linmas ma'no*
- b) aniq miqdor, bo'linuvchan ma'no
- s) aniq miqdor, bo'linmas ma'no.

d) noaniq miqdor, bo'linmas ma'no.

10. Ko'plik sonning umumiy grammatik ma'nosi.

- a) noaniq miqdor, bo'linuvchan/bo'linmas ma'no*
- b) noaniq miqdor, bo'linuvchan ma'no
- s) aniq miqdor, bo'linmas ma'no
- d) aniq miqdor, bo'linuvchan ma'no.

11. UGM va XGMlarni bog'lovchi ma'no tipi ?

- a) OGM*
- b) GM
- c) NHK
- d) NMK

12. "Javondagi kitoblardan oldi" gapida [-dan] qo'shimchasi qanday grammatik ma'no ifodalaydi ?

- a) Ma'lum bir manbadan biror narsa ajralayotganini ifodalaydi.*
- b) Javon va kitob so'zlarini bir-biriga bog'lashda xizmat qilyapti.
- s) O`rin ma`nosini berishga xizmat qilyapti.
- d) Payt ma`nosini ifodalayapti.

13. Grammatik ma'no qanday munosabatlar birikishidan iborat ?

- a) lisoniy va nolisoniy*
- b) lisoniy
- s) nolisoniy
- d) agglyutinativ

Mavzu: So'z turkumlari tasnifi. So'zning serqirraligi va tasniflarning xilma-xilligi

Reja:

1. Tasnif omillari. Tasnifning mantiqiyliigi va uzluksizliigi.
2. Leksemalarning ma'noviy tasnifi.
3. Leksemalarning morfologik tasnifi.
4. Leksemalarning sintaktik tasnifi.
5. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida so'z turkumlari va ularning tasnifi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

Leksemalarning serqirraligi, tasnif va uning mantiqiyliigi, mustaqil ma'noli so'zlar, bo'sh ishora ma'noli so'zlar, yordamchi ma'noli so'zlar, o'zgaruvchi leksemalar, o'zgarmas leksemalar,

soʻz - gaplar, muchalanuvchilik (gap boʻlagi boʻlib kelishi), sonlanish, darajalanish, tartiblanish, ajraluvchilik (gap boʻlaklari bilan munosabatga kirishmaslik), sintaktik aloqa vositasi.

Biz oldingi mavzuda tasnifning mohiyati nimada ekanligi, uning xususiyati haqida bir oz toʻxtalib oʻtgan edik. Soʻzlarning tasnifini berishda leksemaning serqirraligi mohiyati hamma vaqt diqqat markazida boʻlishi kerak. Leksemaning har bir qirrasini bir tasnifni yuzaga keltiradi. Chunonchi:

- 1.Bo'g'in soniga ko'ra: bir bo'g'inli, ko'p bo'g'inli.
- 2.Fonemalar miqdoriga ko'ra: bir fonemali, ikki fonemali, uch fonemali...
- 3.Fonemalarni ifodalovchi harflarning tartibiga ko'ra.
- 4.Tub-yasamaligiga ko'ra:tub va yasama.
- 5.Yasalish tipiga ko'ra: diaxronik va sinxronik.
- 6.Tuzilishiga ko'ra: sodda, qo'shma, juft, takroriy.
- 7.Shakl va ma'no munosabatiga ko'ra: ma'nodosh, shakldosh, qarama-qarshi ma'noli so'zlar va paronimlar.
- 8.Qo'llanishiga ko'ra: aktiv va passiv.
- 9.Onomasiologik - nominatsion xususiyatlariga ko'ra; antroponim, toponim, zoonim...
- 10.Vazifaviy - uslubiy xususiyatlariga ko'ra: kitobiy, rasmiy, so'zlashuv.
- 11.Lug'at tarkibidagi qatlamiga ko'ra: o'z va o'zlashgan qatlam, chegaralangan va chegaralanmagan qatlam.
- 12.Emotsional - ekspressiv jihatiga ko'ra: emotsional - ekspressiv bo'yoqdor va bo'yoqsiz so'zlar.
- 13.So'zning ifodalaydigan kategorial umumiy ma'nosiga ko'ra: narsa, buyum, shaxs, mavjudotlarni atovchi so'zlar; belgi, xususiyat, munosabat ifodalovchi so'zlar; harakat-holat ma'nosini bildiruvchi so'zlar; o'rin-payt, tarz-tus ma'nosini ifodalovchi so'zlar va h.k.

Demak, soʻzlarga berilgan xilma-xil tasnifning mavjudligi ularning serqirraligidan dalolat beradi. Har xil tasnifning har biri oʻz oʻrnida ahamiyatlidir. Soʻz va uni tasniflash asoslari tilshunos I.Madrahimov tomonidan oʻrganilib, uning maʼnoviy, sintaktik, morfologik guruhlanishi asoslab berilgan.

Soʻzlar **maʼnoviy belgisiga** koʻra quyidagicha turkumlanadi:

1.Mustaqil maʼnoli soʻzlar:

- a) mavjudotlarni atovchi soʻzlar - otlar;
- b) belgi - xususiyatni atovchi soʻzlar – sifatlar;
- v) harakat - holat ifodalovchi soʻzlar - feʼllar;
- g) miqdorni ifodalovchi soʻzlar – sonlar;
- d) oʻrin - payt, tarz - tusni ifodalovchi soʻzlar- ravishlar;
- e) taqlidni ifodalovchi soʻzlar-taqlidiy soʻzlar.

2.Boʻsh-ishora maʼnoli soʻzlar-olmoshlar.

3.Yordamchi maʼnoli soʻzlar: koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, koʻmakchi feʼllar. Soʻzlarning mustaqil va yordamchi tiplarga ajralishi ularning mustaqil holda maʼno ifodalay olish qobiliyatiga koʻra belgilanadi.

Oʻzbek tilshunosligida olmoshlarning doirasi va vazifasi zoʻrma-zoʻrakilik bilan cheklantirilib, "ot, sifat, son oʻrnida qoʻllanuvchi soʻzlar "sifatida tor doirada tushinilgan edi. Bu oʻrinda olmoshning nafaqat ot, sifat, son oʻrnida, balki feʼl, ravish, taqlidiy soʻz, undov gap, hattoki matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olinmagan. Olmoshlar sinfiga:


- *men, sen, biz, siz, ular* kabi shaxsga;
- *kim, nima, ana, mana, bu* kabi predmetga ishora qiluvchi leksemalar;
- *qanday, bunday, shunday* kabi belgiga;
- *buncha, shuncha, qancha* kabi miqdorga;

-shunday bo'lmoq, shunday qilmoq kabi harakat-holatga ishora etuvchi leksemalar ham kiradi. Ishora so'zlarning ma'nosi matn ichida oydinlashadi.

Leksemalar **morfologik tasnif**ga ko'ra ikki tipga ajratiladi:

1. O'zgaruvchi leksemalar.
2. O'zgarmas leksemalar.

O'zgaruvchi so'zlar morfologik kategoriyalar (son, egalik, kelishik, nisbat, qiyoslash, subyektiv munosabatlar, kesimlik, o'zgalovchi)ning qo'shimchalarini qabul qila oladi. O'zgarmas so'zlar bunday qo'shimchalarni qabul qila olmaydi. Leksemalarning morfologik imkoniyatiga ko'ra tasnifini quyidagicha beramiz:



Ushbu tasnifdan ishora so'zlar va taqlidlar o'rin olmagan. Chunki olmoshlarga o'zlari ishora qilib kela oladigan barcha leksema guruhlarining morfologik kategoriyalari ham, sintaktik vazifalari ham xosdir. Bu isbot talab qilmas holatdir: ot-olmoshlar son kategoriyasiga (*kim-kimlar*); fe'l-olmoshlar nisbat kategoriyasiga (*shunday qilishdi*); son-olmoshlar: tartib kategoriyasiga (*necha - nehanchi*); sifat-olmoshlar daraja kategoriyasiga (*shunday-shundayroq*) ega. Taqlidlarining esa o'ziga xos tasniflovchi morfologik kategoriyasi yo'q. Biroq ular o'zgarmas so'zlar ham emas. Taqlidlarining morfologik kategoriyalarga ega bo'lishi ularning gapda qanday bo'lak bo'lib kelishi bilan bog'liq. Professor H.Ne'matov o'zining "Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI – XII веков" nomli kitobida taqlidlarda leksemalarning ajralmagan "embriyon - diffus holati" o'z aksini topganligini qayd etadi [3,192;].

Leksemalarning sintaktik tasnifida, asosan, ularning nutqda boshqa leksemalar bilan bog'lana olish yoki bog'lana olmasligi, gap bo'lagi bo'lib kela olishi yoki kela olmasligi kabi xususiyatlar o'z aksini topadi. **Sintaktik tasnif**ga ko'ra leksemalarni uch tipga ajratamiz:

1. Gap bo'lib keladiganlar – undov, modal, tasdiq va inkor, taklif so'z – gaplar.

2. Gap bo'lagi bolib keladiganlar – hamma mustaqil so'zlar-fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlidlar, ishora so'z – olmoshlar.

3. Sintaktik aloqa vositasi bo'lib keladiganlar–ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

So'z-gaplar nutqda boshqa so'zlar bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, o'zi mustaqil gap bo'lib kela olish qobiliyatiga ega, ya'ni ajralish xususiyatiga ega. Mustaqil va yordamchi so'zlar esa bog'lanish xususiyatiga ega bo'lib, bulardan yordamchilar gapda alohida bo'lak bo'lib kela olmaydi, ammo sintaktik jihatdan bog'lash vazifasini bajaradi. Mustaqil so'zlar esa mustaqil ravishda "muchalanadi", ya'ni gap bo'lagi bo'lib keladi.

Bizningcha, quyidagi jadvalda leksemalarning serqirralik xususiyatini, ya'ni ularning ma'noviy, sintaktik, morfologik belgilarini umumlashtirish mumkin:

	Leksema turlari	Ma'noviy	Sintaktik	Morfologik	Izoh (ajralish-ning asosiy belgisi)
1	Fe'l	Harakat holatni nomlash asosida atash mustaqil leksemalari	Cheklanmagan muchalanuvchilik (gap bo'lagi bo'lib kelishi)	Nisbatlanuvchi o'zgaruvchi (yozmoq-yozildi)	Morfologik va ma'noviy

2	Ot	Predmet va predmetlikni nomlash orqali atash mustaqil leksemalari	Cheklanmagan muchalanuvchilik	Sonlanuvchi o'zgaruvchi (<i>kitob-kitoblar</i>)	Morfologik va ma'noviy
3	Sifat	Belgini nomlash asosida atash mustaqil leksemalari	Cheklanmagan muchalanuvchilik	Darajalanuvchi o'zgaruvchi (<i>yaxshi- yaxshi-roq</i>)	Morfologik va ma'noviy
4	Son	Miqdorni nomlash asosida atash mustaqil leksemalari	Cheklanmagan muchalanuvchilik	Tartiblanuvchi o'zgaruvchi (<i>bir-birinchi</i>)	Morfologik va ma'noviy
5	Ravish	O'rin, payt, tarz-tusni nomlash asosida atash mustaqil leksemalari	Cheklangan muchalanuvchilik	O'zgarmaslik	Morfologik va sintaktik
6	Taqlid	Tovush yoki ko'rinishga taqlid leksemalari	Cheklanmagan muchalanuvchilik	-	Ma'noviy
7	Ishoralar (olmoshlar)	Ishora mustaqil leksemalari	-	-	Ma'noviy
8	Ko'makchi		So'zni so'zga tobelantiruvchi muchalanmas leksemalar	O'zgarmaslik	Sintaktik
9	Bog'lovchi		So'zni va gapni bog'lovchi muchalanmas leksemalar	O'zgarmaslik	Sintaktik
10	Yuklama	Ta'kid	Muchalanmaslik	O'zgarmaslik	Ma'noviy
11	Modal	Munosabatni nomlash asosida atash leksemalari	Ajraluvchilik (gap bo'laklari bilan munosabatga kirishmaydi)	O'zgarmaslik	Ma'noviy va sintaktik
12	Undov	His-hayajonni tasvirlash leksemalari	Ajraluvchilik	O'zgarmaslik	Ma'noviy va sintaktik
13	Tasdiq va inkor so'zlar	Tasdiq-inkor ma'nosi	Ajraluvchilik	O'zgarmaslik	Ma'noviy va sintaktik
14	Taklif so'zlar	Tasdiq ma'nosi	Ajraluvchilik	O'zgarmaslik	Ma'noviy va sintaktik

DTSga asoslangan ona tili o'quv dasturi va darsliklarida ham o'zbek tili qurilishi talqinida qator yangiliklar ko'zga tashlanadi:

1. Olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki fe'l, ravish, taqlidiy so'z, undov gap va, hatto, matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olingan holda ularni o'rganish fe'l, ravish, taqlidiy so'zlardan keyinga ko'chirilgan va ular ishora so'zlar sifatida izohlanilgan.

2. Dasturda bir so'z turkumidan ikkinchi bir so'z turkumiga o'tish talqini rus tili grammatikasidan ko'chirilgan hodisa sifatida baholanadi (*“Yaxshi bola yaxshi o'qiydi”*;

“Mardona yigit mardona gapiradi” kabi gaplarda yaxshi va mardona so'zlari birinchi birikmada sifat deb, ikkinchi birikmada esa ravish deb bahslanadi). Darslikda ravish so'z turkumining xususiyatlari o'rganilar ekan, uning morfologik kategoriyalarni, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni qabul qila olmasligi asosiy belgisi qilib ko'rsatilgan. Ravishlarning morfologik jihatdan o'zgarmas ekanligi qator misollarda (*tasodifan, birga, qasddan, o'zbekona, haqiqatan*) aniqlab berilgan. Ravishlarning sintaktik vazifasi ularning aniqlovchi bo'lib kela olishi bilan kengaytirilgan.

3. Egalik, kelishik qo'shimchalari faqat otlar va otlarni almashtirishga xizmat qiladigan olmoshlar bilan birikadi, degan g'ayriilmiy talqin dasturdan o'rin olmagan. Grammatikadagi otlashuv hodisasi "ma'no torayishi" mavzusi doirasida izohlangan.

4. So'z turkumlarini o'rganishda ularning asosiy ma'noviy, morfologik, sintaktik xususiyatlari hisobga olingan holda, amaldagi dastur va darsliklarimizdan farqli o'laroq quyidagicha joylashtirilgan:

- | | |
|----------------|--|
| 1. Fe'l. | 7. Olmosh |
| 2. Ot. | 8. Ko'makchi |
| 3. Sifat. | 9. Bog'lovchi |
| 4. Son. | 10. Yuklama |
| 5. Ravish. | 11. So'z- gaplar (undov, modal, tasdiq va inkor, taklif so'z-gaplar) |
| 6. Taqlid so'z | |

7-sinf darsligida so'z-gaplar, ularning ko'rinishlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Tasdiq-inkor ma'nosini ifodalaydigan so'zlar (*asosan, ha, yo'q, xo'p, xo'sh*) tilshunosligimizda, ko'pincha, modallar tarkibida o'rganilib kelingan. Joriy dastur va darsliklarda esa ularning ma'noviy xususiyatlari hisobga olingan holda alohida guruhga ajratilgan. Taklif so'z-gaplar guruhiga qo'llanilishi tana a'zolarining maxsus harakatlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan *Ma, Mang, Qani, Xo'sh?, Marhamat* kabi so'zlar kiritilgan. So'z-gaplarning asosiy xususiyati, ya'ni ularning kesimlik shakli qo'shimchalarini mutlaqo qabul qila olmasligi izohlab berilgan.



Xulosa qilib aytish mumkinki, keyingi yillardagi ona tili tizimidagi qator yangiliklar, tajribalar, ilmiy xulosalar umumiy o'rta ta'lim dastur va darsliklarida ham o'z ifodasini topgan.

Adabiyotlar:

1. Бобокалонов Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар. НДА. Тошкент, 2000 йил.
2. Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серкирралиги ва уни таснифлаш асослари. НД. Тошкент, 1994 йил.
3. Нигматов Х. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII веков. Ташкент, 1989 год, 181 стр.
4. Умумий ўрта таълимнинг Давлат Таълим Стандарти ва ўқув дастури. Тошкент, 1999 йил, 1-махсус сон.

SLAYDLAR

FE'L TURLARI



TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA`LIM UCHUN MATERIALLAR(Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)

**O`zbek va rus tillarida berilgan so`zlarni turkumlarga ajrating va
quyidagi jadvallarga joylashtiring.**

I. *Chiroy, go`zallik, oppoq, pushti, qomus, devoriy, musaffo, yettinchi, samo, satang, himoyachi, parishon, kulmoq, qashqa, jiringlab, kuylaklik, birvarakayiga, uchun, qarab, kuymalanmoq, oqish, burchli, bari, g`irt, hamda, ham, oshqozon, faqat, mardonavor, naq, hech, oltmish besh, ko`p, gullamoq, yuqori, abajur.*

II. *Телефон, не подумала, два, ключ, секретарь, понравились, себя, пустой, ты, сразу, другой, три, ореховая, лежал, мы, светился, Элар, ночь, спал.*

Mustaqil so`z turkumlari							Yordamchi so`z turkumlari		
<i>fe`</i>	<i>o</i>	<i>sifa</i>	<i>so</i>	<i>ravis</i>	<i>taqli</i>	<i>olmos</i>	<i>bog`lovch</i>	<i>ko`makch</i>	<i>yuklam</i>
<i>l</i>	<i>t</i>	<i>t</i>	<i>n</i>	<i>h</i>	<i>d</i>	<i>h</i>	<i>i</i>	<i>i</i>	<i>a</i>

**Quyidagi jadvalda mustaqil va nomustaqil fe'llarga xos xususiyatlar
berilgan, ularni to'g'ri joylashtiring.**

Mustaqil fe'l	Nomustaqil fe'l
biror so'zni boshqarib yoki biror so'z tomonidan boshqarilib keladi	lug'aviy ma'no asosidagi harakatni ifodalaydi
har qanday harakat bajaruvchi bilan ham bog'lanadi	harakat zamon bilan bog'lanishi mumkin
bevosita lug'aviy ifodali harakat ma'nosiga ega emas	zamonli va zamonsiz fe'lni farqlaymiz

mohiyat e'tibori bilan uchga: yordamchife'l; ko'makchife'l; to'liqsizfe'lgabo'linadi.	fe'l nisbatlari kategoriyasiga ega
fe'l mayli kategoriyasiga ega	tuslangan va tuslanmagan fe'lni farqlashni taqozo qiladi.
fe'l va fe'l bo'lmagan so'zningu zamonini ko'rsatadi	gapda biror bo'lak vazifasida keladi

AMALIY MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

Mashq. Matnni o'qing. Matndagi so'zlarni turkumlarga ajrating.

Yetti pirlardan biri

(Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy)

Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy – Vobkent tumaniga qarashli Anjir Fag'ni qishlog'ida tug'ilib, shu yerda vafot qilganlar. Bu qishloqning hozirgi nomi Anjirbog'dir. Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy ilmi qol va ilmi holni Hazrat Xoja Orif Revgariydan o'rgangan. Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy qabrlari ustida yangi maqbara, maqbara yonida hovuz va jome masjidi qurildi. Ushbu joy obod ziyoratgohga aylangan. Bu zoti sharif XIII asrda yashab o'tganlar. Manbalarda yozilishicha, Oллоh taolo Xoja Mahmudga ko'plab karomatlarni ato etgan ekan. Ul zoti sharif zarurat bo'lganda ulkan qush shakliga kirib ucharkanlar va kerakli manzilga bir zumda yetib borarkan. Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy 1286-yil vafot qiladilar va u kishini tug'ilgan qishloqlarida dafn qiladilar. Sho'rolar zamonasida Xoja Mahmud ziyoratgohlari qarovsiz, xarob edi. Istiqlol sharofatidan yurtimizdagi boshqa ziyoratgohlar qatorida Hazrat Mahmud

Fag'naviy majmualari ham obod etildi. Bu yerda yangi darvozaxona, maqbara, jome masjid, quduq, hovuz, katta bog' barpo qilingan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tasnif nima? Uning mohiyatini nima tashkil qiladi?
2. Leksemalarning qaysi qirralari orqali tasniflar hosil qilish mumkin?
3. Ma'noviy belgisiga ko'ra so'zlar qanday turkumlanadi?
4. Leksemalar morfologik tasnifga ko'ra necha tipga ajratiladi? Ular qaysilar? Har birini izohlang.
5. Leksemalar sintaktik tasnifida ko'proq ularning qaysi jihatlari inobatga olinadi?
6. O'zbek tilshunosligida fe'l so'z turkumining tutgan o'rnini haqida qanday tushunchangiz bor?
7. Nima uchun olmosh taqlidlardan so'ng o'rganiladi?
8. So'z-gaplarning qanday ko'rinishlari bor?
9. Taqlidlar nima uchun mustaqil so'z turkumlari qatoridan o'rin olgan?

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR. TEST.

1. "Faqat guruhlar markazidagi birliklar aniq. So'z turkumlari chegarasidagi oraliq birliklar esa hamisha u yoq-bu yoqqa tebranib turadi. Ana shu noaniq, xira va tebranib turuvchi holat tilshunosning diqqatini ko'proq o'ziga jalb etmog'i lozim". Fikr kimga tegishli?

- | | |
|-------------------|-----------------|
| A) F.de Sossyurga | C) U.P.Pavlovga |
| B) L.V.Sherba | D) F.Engelsga |

2. So'zlar qaysi tasnifi jihatidan o'zgaruvchi va o'zgarmas leksemalarga ajratiladi?

- | | |
|----------------------|---------------------|
| A) morfologik tasnif | C) sintaktik tasnif |
| B) semantik tasnif | D) leksik tahlil |

3. "Adyektivatsiya" atamasining izohi to'g'ri berilgan qatorni toping.

- | | |
|-----------------|------------------|
| A) otlashish | C) olmoshlashish |
| B) sifatlashish | D) ravishlashish |

4. Oraliq so'zlarga nimalar kiradi?

- A) bog'lovchi, ko'makchi, yuklama
- B) so'z-gaplar
- C) taqlid so'zlar
- D) olmosh, taqlid

5. O`zgarmas leksemalar berilgan qatorni toping.

- A) o`qimoq, kitob, chiroyli
- B) yarq-yurq, bilan, olma
- C) hatto, kabi, milt-milt
- D) tuzuk, besh, uxlamoq

6. Dildor Nizomjonga ko`rinmaslikka harakat qilardi.

Ushbu gapda bo`lishsizlik shaklidagi so`z qanday so`z hisoblanadi?

- A) sof fe'l
- B) ravishdosh shakli
- C) sifatdosh shakli
- D) harakat nomi

7. 1. U devordan irg`ib tushdi. 2. Qattiq tovushdan cho`chib tushdi.

Har ikkala gapdagi "tushdi" fe'lini izohlang.

- A) birinchi gapda mustaqil, ikkinchi gapda ko`makchi fe'l
- B) birinchi gapda ko`makchi, ikkinchi gapda mustaqil fe'l
- C) har ikkala gapda mustaqil fe'l
- D) har ikkala gapda ko`makchi fe'l

8. Shaxs-son va zamonni ko`rsatmaydigan fe'l shakli

- A) ravishdosh shakli
- B) harakat nomi
- C) sifatdosh shakli
- D) bo`lishli fe'l

9. Jahli chiqib yurmasin tag`in.

Berilgan gapdagi fe'l maylini aniqlang.

- A) buyruq-istak mayli
- B) shart mayli
- C) ijro mayli
- D) maqsad mayli

10. Qaysi qatordagi gapda qo`shma fe'l berilgan?

- A) Hakim bobo har bir niholni parvarish qilardi.
- B) Dadasining qo`lidan ushlab, dikir-dikir o`ynoqlab ketaberdi.
- C) Bugun havo juda isib ketdi.
- D) Mashinada u-bularni yuborasiz.

11. Fe'lning tasniflovchi grammatik kategoriyalariga nimalar kiradi?

- A) nisbat, o`zgalovchi kategoriya
- B) harakat tarzi shakllari
- C) bo`lishli-bo`lishsizlik kategoriyasi
- D) barcha javoblar to`g`ri

Mavzu: Fe'l, uning UGMsi, fe'llarning o'timli va o'timsiz turlari, asosiy lug'aviy ma'no guruh (LMG)lari, har bir LMGning markaziy leksemalari

Reja:

1. Fe'lning umumiy ma'nosi.
2. Fe'llarning o'timli va o'timsiz turlari.
3. Fe'l [LMG]larining o'rganilishi.
4. Fe'l yasalishi. Ularning yasalish qoliplari.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

Fe'lning umumiy ma'nosi, o'timli va o'timsiz fe'llar, fe'l LMG'lari, harakat fe'llari, holat fe'llari, ichki holat, ruhiy holat, jismoniy holat, tashqi holat, nutq fe'llari, natijali faoliyat fe'llari, tafakkur fe'llari, fe'llarda graduonimiya, munosabat fe'llari, sintetik va analitik shakl, fe'l lug'aviy ma'no guruh (LMG) larida ko'chma ma'no, fe'l yasash sistemasi, fe'l yasash qoliplari, affiksatsiya, kompozitsiya va valentlik.

Fe'llar ish-harakatni yoki holatni atab keladi. Holatni atab kelganda ham uni jarayon tarzida bir holatdan ikkinchi holatga o'tish ma'nosi bilan beradi. *Daraxt - ko'k* –sifat-kesim; daraxtning barqaror, turg'un belgisini ifodalab kelmoqda. *Daraxt ko'kardi*– fe'l-kesim, daraxtning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini harakat, jarayon sifatida ifodalab kelmoqda. Shuning uchun harakat, jarayon ma'nosi fe'llarning umumiy ma'nosini tashkil etadi. Bu ma'no barcha fe'llar uchun xosdir. Fe'l nima qilmoq? so'rog'iga javob bo'ladi: *yozmoq, o'qimoq, bormoq, o'tirmoq* kabi. Fe'l anglatgan ish-harakat, holat biror kimsa yoki narsa tomonidan bajariladi. Bu kimsa yoki narsa harakatning bajaruvchisi deyiladi. Fe'llar harakat va holatning predmet-obyektga munosabatiga qarab ikki turga bo'linadi: 1) o'timli fe'llar ; 2) o'timsiz fe'llar. O'timli fe'llar kimni?, nimani?, qayerni? so'roqlariga javob bo'lib keladigan to'ldiruvchilar bilan birika oladi: ...*Va shabboda qurg'ur ilk sahar Olib ketdi gulning totini* .(H.O.)

O'timsiz fe'llar bunday to'ldiruvchilar bilan birika olmaydi: *Mehmon juda quvonib ketdi*. (A.Q.) *Sobir hayajonlanib o'rnidan turdi*.(O.) Ba'zi fe'llar matnda qanday so'zlar bilan bog'lanib kelishiga qarab o'timli ham, o'timsiz ham bo'lib kela oladi: *O'quvchi masalani ishladi - U bu dargohda ancha ishladi*.

Keyingi yillarda so'z turkumlarining semantik tahliliga e'tibor kuchaymoqda. O'zbek tilshunosligida fe'llarning semantik xususiyatlari, tasnif masalalari tilshunoslarning diqqat markazida turibdi. Bu jihatdan A.Hojiyev, I.Qo'chqortoyev, K.Xoliqov, M.Sodiqova, R.Rasulov va qator tadqiqotchilarning asarlarini sanash joizdir. Jumladan, K.Xoliqov tomonidan fe'llarning bir necha ma'noviy guruhlari ajratilib: "hali ilmiy tadqiqotga mansub qator fe'l razryadlari mavjud, shuningdek, fe'llarning leksik-semantik tasnifi, ularning o'zlariga xos grammatik xususiyatlari atroflicha o'rganilishi zarur" degan fikr o'rta tashlangan. Bu sohada R.Rasulovning olib borgan tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. Olim tomonidan holat fe'llari va ularning LMG'lari chuqur o'rganilib tahlil etilgan. Holat fe'llarining yana ichki 9 ko'rinishi (davomli holat, ijro holati, biologik holat, fiziologik holat, psixik holat fe'llari kabi) ajratilgan.

Turkiy tillardagi fe'llarning LMG'larini dastlab N.K.Dmitriyev belgilab chiqqan edi: nutq fe'llari, sezgi fe'llari, faoliyat, harakat fe'llari kabi. Bu tasnif hozir ham amalda qo'llanilmoqda. Chunki 6-sinf "Ona tili" darsligida ham ushbu bo'linish mavjud. Fe'llarning LMG'larini belgilab chiqish, har bir guruhni chuqur o'rganish alohida ilmiy ishlarning obyekti bo'lib, maxsus tadqiqot talab etadi. A.A.Salkalamanidze ham fe'llarning lug'aviy-semantik guruhlari o'rganar ekan, ularni guruhlashda fe'l valentligini, fe'l valentligini belgilashda esa ularning o'timli va o'timsizligini asos qilib oladi [4,18-19;].

Fe'l anglatgan ma'nolar qator mazmuniy guruhlarga ajratiladi, bunda harakatga xos yaratish, buzish, o'zgartirish, so'zlash, sezish, yo'naltirish bilan; holatga xos ruhiy-psixologik, iqtisodiy, tafakkur bilan bog'liq jihatlar e'tiborga olinadi.

I. **Harakat fe'llari** inson, hayvon, jonsiz predmetlarga xos faoliyatni ifodalaydi. Ular yurish, ta'sir etish, zarb berish kabilar bilan bog'liq bo'ladi.

Qo'l, yuz, og'iz, gavda bilan bog'liq harakatlarda harakatlantiruvchi obyektlar yaqqol ko'rinib turadi. Masalan:

1. Oyoq harakati bilan bog'liq fe'llar. Bu harakat, asosan, "yurmoq" fe'li bilan beriladi. Yurish bilan bog'liq bo'lgan:

- a) yo'rg'alamoq - *La'li Bo'ronbek bilan yo'rg'aladi* (H.G'ulom);
- b) pildiramoq - *Bola onasining oldiga tushib pildirab ketdi* (Oybek);
- d) chopmoq - *Bolalar maydonchaga chopib ketishdi*;
- e) lapanglamoq - *Choyni keyin o'zingiz bafurja ichaverasiz,- dedi u lapanglab o'rnidan turayotgan Oyshabonuga* (H.G'.);
- f) gandarlamoq - *U gandarlab kelib, G'ulomjonning chiroyli ko'zlariga tikildi* (M.Ism.);
- g) do'qong'lamoq - *Soli sovuq do'qong'laganiganicha chiqib ketdi* (M.Ism.);
- h) sudralmoq - *Orif aka birdan majolsizlangan oyog'ini bazo'r sudradi* (A.M.);
- i) bitta-bitta bosmoq - *Jannat xola o'rnidan turdi-da, bitta-bitta bosib ko'cha eshigidan tashqariga qaradi* (S.Ahmad);
- j) tentiramoq - *Bezori tong otguncha qaylardadir bemaqsad tentiradi* (A.Q.);
- k) tisarilmoq - *Bexos oldidan chiqqan ilondan cho'chib ot biroz orqaga tisarildi* (H.G'.);
- l) o'rmalamoq - *Ufqdan berida o'rgimchakday o'rmalab arava kelar edi* (A.Q.).

Oyoq bilan yana tepish, tepkilash, toptash, depsinish kabi harakatlar bajariladi. "Yurmoq" fe'lining ma'no ko'chish bilan bog'liq (*Stanok yurdi; soatni yurguzdi; poyezd yurdi* kabi) rang-barang voqelanishlari ham mavjud.

2. Qo'l harakati bilan bog'liq bo'lgan fe'llarga quyidagilar kiradi:

- a) ushlamoq va uning ko'chma ma'nolari :
qalamni ushlamoq, o'g'rini ushlamoq, ishxonada ushlanmoq va boshqalar .
- b) silamoq - *Otam yetimlarning boshini siladi*;
- d) tirnamoq - *Mushuk bolaning qo'lini tirnadi*;
- e) shapaloq tortmoq - *Sheralining yuziga shapaloq tortdi* (M. Ism.);
- f) chimchilamoq - *Nodirmohbegim sandal ichidan oyog'ini uzatib Unsinning boldirini chimchiladi* (A.Q.);
- g) uqalamoq - *Bola buvisining oyog'ini uqalab qo'ydi*;
- h) qitiqlamoq - *Qizlar bir-birini qitiqlab kulishardi*;
- i) changallamoq - *Burgut o'ljasini changallab osmonga ko'tarildi*;
- j) mushtlamoq - *O'rtaroqda aytishib o'tirgan ikki bola to'satdan mushlashib ketdi* (H.G'.);
- k) chertmoq - *Domla stolni chertdi* (P.Qodirov.);
- l) hovuchlamoq - *Sidiqjon mayizni hovuchlab og'ziga soldi* (A.Q.);
- m) chapak chalmoq - *Ular chapak chalib yuborishdi* (A.Q.);
- n) paxsa qilmoq - *U qo'lini paxsa qildi*.

Xuddi shunday yuz, gavda, og'iz harakatlari bilan bog'liq harakat fe'llari mavjud.

II. **Nutq fe'llari** gapirish harakati bilan bog'liqdir. Bunday fe'llar inson faoliyati bilan aloqador bo'ladi.

- a) gapirmoq (sinonimlari - so'zlamoq, aytmoq, demoq) - *Elchibek jonliroq gapira boshlaganini o'zi ham payqadi* (A.Mux.);
- b) bidirlamoq - *Voy, bidirlamay qolgur!* (H.G'.);
- d) to'ng'illamoq - *U rasta bo'lgan o'spirin tovushi bilan to'ng'illadi* (A.Q.);
- e) g'o'ldiramoq (g'uldiramoq) - *Ayol nimalarnidir g'uldirab ketdi* (A.Q) kabi.

Ushbu fe'llarning salbiy xarakterga ega bo'lgan variantlari ham mavjud: *vaysamoq, valdiramoq, vaqillamoq, javramoq* va boshqalar. Bular ezmilik qilish, keragidan ortiq gapirish semalari mavjud. Ushbu nutq fe'llarining analitik shakli ham uchraydi:

bag'illab berdi
javob bermadi
bobillab berdi.

III. Holat fe'llari. Inson tabiatiga xos bo'lgan jismoniy, ekspressiv – ruhiy holatlar o'ziga xos xarakterga ega. Holatlarni to'rtga bo'lishimiz mumkin:

- a) ichki holat (ruhiy kechinmalar bilan bog'liq);
- b) tashqi holat (xursandlik, darg'azablik... bilan bog'liq);
- d) jismoniy holat (sog'lomlik, betoblik, kuchlilik, zaiflik... bilan bog'liq);
- e) ijtimoiy holat (boylik, kambag'allik... bilan bog'liq fe'llar).

Ruhiy - psixologik holat fe'llari, asosan, insonga xos bo'lib, o'y - xayol, eslash, unutish, dard - alam tortish, achchiqlanish, kuyish... bilan bog'liqdir. Bular, asosan, turg'un va frazeologik iboralar bilan beriladi va, shuningdek, ushbu fe'llar miya (o'y, tafakkur), yurak (ko'ngil) bilan bog'liq bo'lib, xuddi shu so'zlarning o'zi ham nutqda ba'zan ishtirok etadi. Bunday fe'llar yangi dastur va darsliklarda (maktablar uchun) tafakkur fe'llari deb berilgan:

O'yga tolmoq ~ o'yga cho'mmoq

O'ylab - o'ylab o'yiga yetolmaslik

Xayoli qochmoq

Eslamoq – yodiga olmoq

Ko'z o'ngiga keltirmoq

Ko'nglidan o'tkazmoq

Esiga tushmoq

Esidan chiqmoq

Ko'ngliga tugib qo'yimoq.

Bular, ko'pincha, kishining ichki ruhiy olami bilan bog'liq bo'ladi. Tashqi holat bilan bog'liq holat fe'llariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Gangimoq

Esini yo'qotmoq

Dong qotib qolmoq

Kuyunmoq

Tutoqmoq

Asabiylashmoq

Tajang bo'lmoq

Xunob bo'lmoq.

Tajang bo'lmoq, xunob bo'lmoq fe'llarida ko'proq ko'chma ma'no o'z ifodasini topgan. Bu holat fe'llarining kuchaytiruvchi shakllari ham mavjud:

Xit qilib yubormoq

Ichiga solib yurmoq.

Holat fe'llarini ifodalovchi iboralar ham mavjud:

Ichini it tirnaydi

Ichiga chiroq yoqsalar ham yorimaydi

Dili namozshom bo'ldi va boshqalar.

Kishining tashqi, obyektiv ta'sir, hayotiy qiyinchiliklar yoki betoblik, jismoniy jihatdan dard, alam holatini turli fe'llar, fe'lli birikmalar, frazeologizmlar bilan ifodalash mumkin:

Dardini tortmoq(ayriliq dardini tortmoq)

Azob chekmoq ~ izzitirob chekmoq ~ alam chekmoq

O'rtanmoq

Qaqshab o'tirmoq

Jigari ezilmoq ~ bag'ri ezilmoq

Achchiq sharbatini tortmoq va boshqalar.

Ijtimoiy holat fe'llari kishilar hayotining iqtisodiy jihatdan o'zgarishi bilan aloqador bo'lgan fe'llarni qamrab oladi: *boyimoq, qashshoqlashmoq...*

Yasamoq, qurmoq, bunyod etmoq, hosil bo'lmoq, chizmoq, yozmoq, barpo qilmoq, arralamoq, parchalamoq, sayqal bermoq, randa qilmoq, sindirmoq, yemoq, o'chirmoq... kabi **natijali faoliyat fe'llari** va *o'ylamoq, xayol surmoq, hukm chiqarmoq, o'yga botmoq, ko'z oldiga keltirmoq* kabi **tafakkur fe'llari** ham mavjud. Bular sodda va qo'shma holatda bo'ladi.

Fe'l stilistikasini o'rgangan olim M.Sodiqova bu o'rinda **munosabat fe'llarini** berib, ularni guruhlarga ajratadi:

1. Ijobiy xarakterdagi munosabat fe'llari;

2. Salbiy xarakterdagi munosabat fe'llari.

Birinchi guruhga-*erkalamoq, aldamoq, yaxshi ko'rmoq, maftun bo'lmoq, rom etmoq, yon bosmoq, o'rta tushmoq, rahmi kelmoq, xushomad qilmoq, e'zozlamoq, parvona bo'lmoq* kabilarni kiritgan. Bular bir qaraganda holat fe'llariga o'xshab ketadi. Ammo kontekstda (matnda) o'ziga xos uslubiy xususiyat kashf etadi: *U bolalarini sog'inib qolgan ekanmi, ertadan kechgacha erkalab ardoqlaydi.* Ikkinchi guruhga-*beti qursin, battar bo'lsin, xudo olsin, qorasi o'chsin, ordona qolsin, baloga uchragur, juvonmarg bo'lgur* kabilarni kiritilgan. Bunday fe'llarda, ko'pincha, "-sin" va "-gur" shakllari ko'p uchraydi. Bu guruh fe'llariga urishish, jerkish, do'q- po'pisa qilish bilan bog'liq fe'llar xosdir. Munosabat fe'llarining uslubiy, fonetik xususiyatlari alohida o'rganiladigan tadqiqot manbaidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, nutqda fe'llar juda ko'p uchraydi. Ularning qo'llanishdagi shakli, qurilish jihati xilma-xil. Yana shuni qayd etish kerakki, o'zbek tilida holat fe'llari ancha chuqur va mufassal o'rganilgan. R.Rasulov ishida holat fe'llari va ularning leksik - semantik guruhlari aniqlanilgan. Turkiy tildagi holat fe'llarining o'timlilik - o'timsizlik tabiati chuqur tahlilga tortilgan [2;4].

Darajalanish hodisasi fe'lning ayrim ma'noviy guruhlariga ham xosdir. Buni quyidagi fe'llar doirasida kuzatish mumkin:

1. *Pichirlamoq, shivirlamoq, ming'illamoq, so'zlamoq, baqirmoq, dodlamoq.*

2. *Yo'nalmoq, odimlamoq, yurmoq, chopmoq.*

3. *So'ramoq, iltimos qilmoq, yalinmoq, yolvormoq, o'tinmoq.*

Fe'llar o'ziga xos yasash sistemasiga ega. Tilimizdagi fe'llar, asosan, affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan yasaladi. Yasash asosiga qo'shib yasama fe'llar hosil qiluvchi affikslarning so'z yasash darajasi turlicha.

-la, -lan, -lash, -lashtir, -(a)/r, -(a)y kabi affikslar mahsuldor bo'lib, juda ko'p miqdorda fe'l yasashga xizmat qiladi.

1. -la affiksi quyidagi qoliplarda yangi leksema hosil qiladi :

[ot+la] – *ishla, gulla, tuzla, bog'la;*

[sifat+la] – *qorala, tekisla, tezla, tozala;*

[ravish+la] – *qaytala, hozirla...*;

[olmosh+la] – *sizla, senla;*

[taqlid+la] – *gumburla, dukurla... ;*

[undov+la] – *dodla, voyvoyla, tufla....*

2. -lan, -lash, -lashtir kabi murakkab affikslar –

[ot, sifat, son, +lan] – *zavqlan, ajablan, ikkilan...;*

[ot, sifat, son+lash] – *salomlash, tezlash, birlash...;*

[ot+ lashtir] – *rejalashtir(moq), gazlashtir (moq), ekranlashtir(moq)...* –turli ma'nolarga ega

bo'lgan fe'llar yasaydi. Yuqorida ko'rsatilgan affikslar orqali yasalgan fe'llarni ma'no jihatidan guruhlash mushkul, chunki tilimizdagi *ovqatlanmoq, kasallanmoq, foydalanmoq, to'lqinlanmoq; ahdlashmoq, qiynlashmoq, oydinlashmoq* kabi yuzlab fe'llarning har biri rang-barang ma'nolarni o'zida voqelantiradi.

3. -r/ar, -y/ay affikslari [sifat+r/ar], [ot,sifat +y/ay] qolipida biror belgini qabul qilish ma'nosini ifodalovchi fe'llar yasaydi. Chunonchi, *qisqar (moq); pasay (moq), toray (moq), kuchay (moq)....*

4. Fe'l yasovchi -a, -illa, -sira, -k/ik, -q/iq, -ira, -i kabilarni kamunum affikslar sanaladi va

[ot, sifat, taqlid +a] – *sana, o'yna, qiyna, ata, bo'sha, shildir, yiltira;*

[taqlid+illa] – *chirsilla, chirqilla, mo'ltilla, guvilla, likilla;*

[ot, olmosh+sira]- *suvsira, gumonsira, hadiksira, sensira, manmansira, sizsira*;

[ot, sifat, son+k/ik]-*ko'zik (moq); kechik(moq), birik (moq)*;

[sifat+q/iq] - *zo'riq (moq), zoriq (moq)*;

[taqlid+ira] - *yaltira, miltira, qaltira*;

[ot, sifat+i]-*changi (moq), boyi (moq), tinchi (moq)* qolipidagi fe'llarni yasashga xizmat qiladi. Affiksatsiya usuli bilan fe'ldan fe'l yasalmaydi.

Kompozitsiya usuli bilan, ma'lumki,

[fe'l++fe'l]-*olib bermoq, aytib ketmoq, sotib kelmoq, sotib bermoq, olib qochmoq, sakrab turmoq*;

[ot+fe'l]-*ta'zim qilmoq, bashorat qilmoq, isbot etmoq, kasal bo'lmoq, fikr qilmoq, zikr etmoq*;

[sifat+fe'l]-*xursand bo'lmoq, shod etmoq, xafa qilmoq, obod qilmoq, juft bo'lmoq, zada bo'lmoq* kabi qo'shma fe'llar yasaladi.

Adabiyotlar:

1. Ne'matov H. va b. Ona tili. 6 - sinf uchun darslik. Toshkent. "O'qituvchi" 2000.
2. Расулов Р. Ўзбек тилида ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. Тошкент, «Фан» 1989 йил.
3. Содиқова М. Феъл стилистикаси. Тошкент, 1975 йил.
4. Цалкаламанидзе А.А. Валентность глаголов в свете их семантико-синтаксических свойств. (На материале турецкого и узбекского языков) АДД. Ленинград, 1988 год.

Mavzu: Fe'l nisbatlari paradigmasi. Nisbatlarning so'z yasalishi va so'z o'zgartirishga munosabati

Reja:

1. Nisbat shakllarining yasalishi.
2. Fe'l nisbatlarining mohiyati va ular tabiatidagi xususiyatlar.
3. Aniq, orttirma, birgalik, o'zlik va majhul nisbat shakllari UGMsi. Ularning nutqiy voqelanishi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

Nisbat tushunchasi, aniq nisbat, mavhum va o'zlik nisbat, orttirma nisbat, birliglik nisbat, nisbat UGMsi, har bir nisbat shaklining UGM si, foil, foilning ishtirok tarzi, nisbat paradigmasi, nisbatlarning so'z yasalishiga munosabati, nisbat shakllarining nutqiy voqelanishi, birgalik nisbat shakli va harakat nomi shakli orasidagi farq, lug'aviy vosita, hosila.

Fe'l nisbatlari o'zbek tilshunosligida ancha mufassal tavsiflangan. Fanimizda fe'l nisbatlariga bag'ishlab yozilgan S.Ivanov, S.Mamatqulov, H.Ne'matov, F.Saidov, S.Sultonsaidova, U.Tursunov, S.Ferdaus, E.Fozilov, A.G'ulomov, A.Hojiyev va boshqalarning tadqiqotlarida nisbat shakllari mufassal o'rganilgan. Umumturkiyshunoslik adabiyotida fe'l nisbatlari masalasi N.A.Baskakovning qoraqalpoq tiliga bag'ishlangan tadqiqotida, E.Sevortyaning fe'l so'z yasalishiga bag'ishlangan katta monografiyasida, A.Sherbakning turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasiga bag'ishlangan qator ishlarida tahlil qilingan. Fe'l nisbatlari deganda nima tushuniladi? Formal (shakliy) yo'nalishda fe'l o'zaklaridan keyin, yasama fe'llarda esa fe'l yasovchi qo'shimchadan keyin o'zak-negizga qo'shilib keladigan *-t, -iz, -ir, -ar, -sat, -dir(-tir), -l(-il), -n(-in), -sh(-ish)* kabi qo'shimchalar nisbat shaklini yasovchilar va shunday qo'shimchali hosilalar fe'l nisbatlari deb aytiladi. Chunonchi,

Yuvmoq *ishlamoq* *to'qimoq*

Yuvdirmoq *ishlatmoq* *to'qitmoq*

Yuvilmoq *ishlanmoq* *to'qilmoq*

Yuvinmoq

Yuvishmoq ishlashmoq to'qishmoq

Ushbu paradigmada fe'llar nisbat paradigmasini yuzaga chiqargan.

Nisbat shakllarining yasalishi. Yasalish xususiyatiga ko'ra sodda va mustanosiz shakl birgalik nisbat shaklidir. U qat'iy ravishda unli bilan tugagan o'zak-negizlarga *-sh*, undosh bilan tugagan o'zak-negizlarga *-ish* qo'shimchasini yasash bilan hosil bo'ladi: *o'qishmoq, to'qishmoq, boqishmoq, gapirishmoq, tunashmoq, turishmoq* va boshqalar.

Majhul nisbat va o'zlik nisbat. Ushbu nisbat qo'shimchalari bir xil shaklga ega ekanligi hammaga ma'lum. Majhul nisbat qo'shimchasi ko'pincha *--l, -il*, o'zlik nisbat qo'shimchasi esa *-n, -in* bilan ifodalanadi. Lekin *-l, -il, -n, -in* oppozitiv shakllarga o'zbek tilida sanoqli fe'llargina ega:

O'zlik nisbat	Majhul nisbat
<i>Yuvindi</i>	<i>Yuvildi</i>
<i>Ko'rindi</i>	<i>Ko'rildi</i>
<i>Yechindi</i>	<i>Yechildi</i>
<i>Kiyindi</i>	<i>Kiyildi</i>
<i>Bezandi</i>	<i>Bezaldi</i>
<i>Surindi</i>	<i>Surildi</i>
<i>Tarandi</i>	<i>Taraldi</i>
<i>Yasandi</i>	<i>Yasaldi</i>
<i>Maqtandi</i>	<i>Maqtaldi</i>
<i>Yopindi</i>	<i>Yopildi</i>
<i>Artindi</i>	<i>Artildi</i>
<i>Bo'yandi</i>	<i>Bo'yaldi</i>

Ba'zi holatlarda o'zlik nisbat shakli ham, majhul nisbat shakli ham *-n, -in* qo'shimchasi bilan yasaladi. Chunonchi,

1. *Botir yovga arslondek tashlandi.*

2. *Yog'och- taxtalar aravaga tashlandi.*

1-holatda o'zlik ma'nosi, 2-holatda esa majhullik ma'nosi voqelangan.

Orttirma nisbat. Bu nisbat shaklining unumli qo'shimchalari *-t, -it; -tir, -dir* sanaladi va bunda atigi bitta qat'iy qonuniyat mavjud: *-t, -it* qo'shimchasi unli bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga qo'shiladi (*o'qit, uxlat, qurit, so'rat, ishlat, cho'qit, jo'nat...*), *-tir, -dir* qo'shimchasi ko'pgina hollarda bir bo'g'inli tub fe'llarga qo'shiladi (*yedir, yozdir, keltir, suzdir, chizdir, oldir, choptir, kuldir...*). Lekin bu qat'iy qoida emas. Chunki juda ko'p bir bo'g'inli so'zlarning orttirma nisbat shakli

-r, -ir: uchmoq-uchir, bitmoq-bitir, pishmoq-pishir, qochmoq-qochir;

-az, -iz: emmoq-emiz, tommoq-tomiz, oqmoq-oqiz;

-sat: ko'rsat; (atigi bitta)

-giz, -kiz, -qiz, -g'iz, -gaz, -kaz, -qaz, -g'az: yurgizmoq, ketkizmoq, yutqizmoq, yurg'izmoq, ko'rgazmoq, bitkazmoq, yutqazmoq, turg'azmoq;

-gar, -kar, -qar, -g'ar: boshqarmoq, bitkarmoq, o'ng'armoq kabi qo'shimchalar bilan ham hosil bo'ladi.

Fe'l nisbatlarining tabiati.

Nisbat shakllari fanimizda ancha mufassal o'rganilgan bo'lishiga qaramasdan bu shakllarning tabiati to'g'risida yagona bir qarash mavjud emas. Ba'zi tilshunoslar nisbatlarni fe'l yasalishi doirasida ko'radilar va fe'ldan fe'l yasalishi deb talqin qiladilar. Ba'zilar esa uni so'z o'zgartirish

deb forma yasash yoki lug'aviy shakl yasash doirasida ko'rib o'tadilar. E.Sevortyan, S.Ivanov tadqiqotlaridan keyin nisbatlarni leksik-grammatik, ya'ni ham so'z yasashga, ham so'z o'zgartirishga aloqador kategoriya sifatida talqin etish rasm bo'ldi. Lekin bunda ham nima so'z yasalishi-yu, nima so'z o'zgartirish ekanligi aniq emas. Bir narsa shubhasizki, juda ko'p fe'llarning forma yasalishida ularning beshala nisbat shakli ham bir so'zdan yasalavermaydi. Juda ko'p fe'llardan atigi ikki, uch nisbat shakli yasaladi, xolos. Chunonchi, *jonlanmoq*, *go'zallashmoq*, *ommalashmoq* kabi bir qator fe'llardan nisbatning hamma shaklini ham yasab bo'lmaydi.

Bundan tashqari, fe'llarning o'zlik, birgalik, orttirma va majhul nisbatlarining ayrim shakllari ularni hosil etgan bosh fe'ldan ma'no jihatidan shu darajada uzoqlashganki, ularni bir-biriga bog'lash qiyin.

Chunonchi: *sevmoq – sevinmoq*
Kelmoq - kelishmoq
Chiqmoq – chiqishmoq
Tegmoq – tegishmoq

Ko'pgina tadqiqotchilar orttirma nisbatning **o'timsiz fe'ldan o'timli fe'l yasash vazifasini** to'lat-to'kis so'z yasalishiga nisbat beradilar: *kulmoq-kuldirmoq*, *kelmoq-keltirmoq*. Har holda, nisbatlarning so'z yasalishiga va so'z o'zgartirishga, jumladan, lug'aviy shakl yasashga munosabati murakkab va munozaralidir.

Ko'pchilikka ma'lumki, har bir grammatik shakl ma'lum bir paradigma doirasiga birlashadi, grammatik kategoriya tarkibida bo'ladi. Demak, har bir shakl uchun kategorial va xususiy UGM xosdir. Nisbat kategoriyasi va shakllarida ham UGMlarni farqlash har bir nisbat shaklining muayyan holatda so'z yasashga va so'z o'zgartirishga (lug'aviy shakl yasashga) munosabatini aniq belgilash imkoniyatini beradi. Hosilada nisbat kategorial UGMsining shu nisbat uchun xos bo'lgan ko'rinishi saqlangan bo'lsa, so'z o'zgartirish, lug'aviy shakl yasash hodisasi mavjud. Agar hosilada nisbat UGMsi yo'qolgan bo'lsa, nisbat shakli ham yo'qolgan va hosila o'zining asosidan uzilgan bo'ladi. Demak, bu holatda so'z yasalishi mavjud va hosila yangi lug'aviy ma'noni yuzaga chiqaradi.

Nisbat shakllarining UGMsi.

Tilshunoslar, jumladan, S.Ivanov va uning izdoshlari nisbat grammatik ma'nosini "foilning harakatda ishtirok tarzini ifodalash"da deb bilishadi. Demak, nisbat kategoriyasining UGMsi bu "foilning harakatda ishtirok tarzi". Fe'l nisbatlarida foilning harakatni bajarishda qanday ishtirok etishi xususiylik bo'ladi:

Aniq nisbat. *Salima kir yuvdi.*
Orttirma nisbat. *Onasi Salimaga kir yuvdirdi.*
Majhul nisbat. *Kir yuvildi (Salima tomonidan yuvildi).*
O'zlik nisbat. *Salima yuvindi.*
Birgalik nisbat. *Salima onasiga kir yuvishdi.*

Ushbu fe'llarning barchasi bitta foil "yuvmoq" harakati bajaruvchisining bir xilliligi bilan o'zaro bog'langan. Faqatgina bu foilning harakatni bajarishdagi ishtirok tarzi turlicha:

Aniq nisbatda u o'zi harakatni bajaradi. Aniq nisbat [0] shaklga ega bo'lib, foilning harakatda ishtirok tarzi fe'lning lug'aviy ma'nosi bilan belgilanadi va shunga mos ravishda foilning ishtirok tarzi xilma-xil bo'lishi mumkin. Masalan,

1.Foil harakatning bajaruvchisi:
O'timli fe'llarda – *Karim xat yozdi. Qush uya qurdi.*
O'timsiz fe'llarda- *Mashina yurdi. Bola chopdi.*

2.Foil harakatni o'zida mujassamlashtiradi va bir holatdan ikkinchi holatga o'tadi: *Karima qizardi. Bola qo'rqdi.*

Orttirma nisbat shaklida foil harakatni bajarishga qo'zg'altiriladi, biror ta'sir orqali harakat bajariladi: "*Onasi Salimaga kir yuvdirdi*". "*Qiziqchi bolani kuldirdi*". "*Xushxabar Karimjonni Toshkentga keltirdi*". "*Haydovchi mashinani yurgizdi*" kabi gaplarda nisbat UGMsi voqelanadi,

ya'ni harakat bajarilishiga tashqi ta'sir mavjud. Ammo "Karimjon xushxabar keltirdi", "Rahbar ishni yurgizdi" gaplarida orttirma nisbat UGMsi voqelanmagan.

Majhul nisbat shakli UGMsi-harakatni bajarishda foilning chetlashtirilishidir: *Kir yuvildi. Paxta terildi. Qo'shiq kuylandi.*

Juda ko'p fe'llarda, xususan, harakat natijasida obyektning shakli, rangi, tusi, ko'rinishi, o'zgarishini ifodalaydigan fe'llarda ikki xil ma'no voqelanadi: ularning birida foilning harakat tarzi majhul, ikkinchisida esa shu majhullik yo'q. Chunonchi, *Sir ochildi.*(*Sir tergovchi tomonidan ochildi*). *Sir ochildi* (o'z-o'zidan bir holatdan ikkinchi holatga o'tish). "Gul ochildi" tipidagi gaplarda esa majhul ma'no yo'q. Uni aniq nisbat shakliga aylantirib bo'lmaydi.

O'zlik nisbat shakli UGMsi harakatni o'z ustida yoki o'z manfaatida bajarish tarzida voqelanadi:

Salima yuvindi – Salima yuzini yuvdi.

Salima tarandi – Salima sochini taradi.

Lekin nisbat shakli yoki hosila foil ma'nosidan uzilsa, nisbat ma'nosi yo'qoladi: *Salima sevindi*. Bu gapda "sevmoq" fe'lining foili yo'q. Shuning uchun o'zbek tilshunosligida *ochildi, osildi, boshlandi, sevindi* kabi fe'llarni ajralmas o'zlik/ majhullik fe'l nisbatlari deydilar. Tilshunoslik nazariyasida bunday fe'llarni "medial fe'llar" deyishadi.⁶ Bu mohiyatan o'timli fe'llardan yasalgan o'timsiz fe'llardir.

Birgalik nisbat UGMsi nutqda foilning harakatni bajarishdagi birgalikdagi ishtirok tarzi sifatida voqelanadi. Fe'l o'zagiga *-sh, -ish* birgalik nisbat shakli qo'shilganda o'zarolik, birgalik, yordamlashuv kabi ma'nolar yuzaga chiqadi: *Salima onasiga kir yuvishdi. Ikki kundan keyin xabarchilar kelishdi.*

Birgalik nisbat o'zi qo'shilayotgan fe'l asos boshqaruvida o'zgarish yasay oladi: vositali to'ldiruvchi ko'makchili vositali to'ldiruvchiga aylanishi mumkin. Bunda birgalik nisbatga xos bo'lgan "ko'pchilik" ma'nosi yo'qoladi: Fotima singlisi bilan so'rashdi. "Ko'plik" ma'nosi tiklanishi uchun nisbat qo'shimchasi qavatlanadi: Fotima bilan singlisi so'rashishdi. Ushbu gapda nisbat shakli UGMsi voqelangandir. Shunga o'xshash holatlarni *chiqishmoq, kelishmoq* kabi fe'llarda ham kuzatish mumkin.

Yuqorida bayon qilingan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, nisbat shakli aniq nisbat shakli va umumiy foil bilan bog'langan bo'ladi. Shuning uchun istagan nisbat shaklini qo'shimcha lug'aviy vositalar yordamida aniq nisbat shakli bilan berish mumkin:

1. *Ona Salimaga kir yuvdirdi – Onasi ta'sirida Salima kir yuvdi.*

2. *Kir yuvildi – Kimdir (Salima) kir yuvdi.*

3. *Salima yuvindi – Salima yuzini yuvdi.*

4. *Salima kir yuvishdi – Salima kimningdir kir yuvishiga yordam berdi.*

Agar hosila shakl ma'nosini tasviriy yo'l bilan aniq nisbat shaklida ifodalashning imkoniyati bo'lmasa, bunday shakl nisbat tizimidan uzilib, mustaqil fe'lga o'tgan bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Нейматов Х. Феъл нисбатлари муносабати ҳақида. ЎТА, 1970 йил, 3-сон.
2. Нигматов Х.Г., Цалкаламанидзе А.А. Семантико-синтаксические группы глаголов и значение залоговых аффиксов в узбекском языке. Советская тюркология. Баку, 1979 год. №3.
3. Фозилов Э. Феъл даража ясовчи аффиксларнинг тарихи. ЎТА., 1960 йил, 3-сон.
4. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Тошкент, 1975 йил.
5. Ғуломов А. Феъл. Тошкент, 1954 йил.
6. Ҳожиёв А. Феъл. Тошкент, 1973 йил.

⁶Бу ҳақда «Ўзбек тили ва адабиёти» журналининг 1970 йил 3-сонига ва 1972 йил 1-сонига қаралсин.

Mavzu: Fe'l turlari (vazifa shakllari) haqida umumiy ma'lumot. Ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi UGMsi

Reja:

1. Fe'ning vazifa shakllari UGMsi.
2. Ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakllari paradigmasi.
3. Umumiy xulosalar.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

Fe'l turlari, fe'lni o'zgalash, fe'ning vazifa shakllari, ravishdosh UGMsi, sifatdosh UGMsi, harakat nomi UGMsi, ismi foil, oppozitsiya, kuchli belgili a`zo, belgisiz a`zo, o'zgalovchi shakllar, o'zgalovchi shakllarning bo'lishsiz shakli.

Fe'ning vazifa turlari ham nisbat shakllaridek o'zbek tilshunosligida nutq bosqichida ancha mukammal o'rganilgan. G'. Abdurahmonov, R. Jumaniyozov, G'. Zikrillayev, J. Muxtorov, H. Ne'matov, B. Sayimov, U. Tursunov, A. Hojiyev kabi zakiiy tilshunoslar fe'ning vazifa turlari bo'lmish sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakllarining ma'noviy xususiyatlarini to'liq tavsiflaganlar. Rus turkiyshunoslaridan N.A.Baskakov, S.N.Ivanov, S.Y.Malov kabi yirik olimlarning tadqiqotlarida fe'ning vazifa turlari orasidagi munosabat, ularning nisbat kategoriyasiga munosabati, ma'no tomonlari mufassal o'rganilgan. Fe'ning funksional formalari nutqda fe'ning boshqa so'zlar bilan aloqaga kirishish vositasidir va bu jihatdan kelishik kategoriyasiga o'xshab ketadi. Kelishiklar ham, fe'ning funksional shakllari ham gapda bir so'zning ikkinchi so'z bilan aloqaga kirishish omillaridir. Nutqda fe'llar fe'l va fe'l bo'lmagan boshqa mustaqil so'z turkumlariga mansub so'zlar bilan aloqaga kira oladi.

Fe'ning vazifa turlari (funksional shakllari) to'rt turga bo'lib o'rganiladi: kesimlik shakli, harakat nomi, sifatdosh shakli, ravishdosh shakli. Bulardan kesimlik shakli kesimlik kategoriyasi doirasida o'rganiladi, chunki *o'qiyman, yozing, chizdi* kabi sof fe'llar kesimlik kategoriyasining fe'llardagi voqelanishlaridir. Fe'ning vazifa shakllari "fe'lni o'zgalash va uni boshqa so'zlarga bog'lash" [UGM]si ostida birlashadi¹. Ayni paytda har bir fe'l shaklining o'ziga xos [UGM]si mavjud bo'lib, ichki shakllar paradigmasiga egadir (paradigma quyiroqda beriladi). Ushbu shakllar tilshunoslikda funksional shakllar, nokategorial shakllar, o'zgalovchi kategoriya, fe'ning vazifa turlari atamalari ostida o'rganilib kelinmoqda. Ravishdosh, sifatdosh, harakat nomining har biri bir nechta shakldan iborat bo'lgani bilan yagona bitta kategoriyaga birlashishi fanda isbotlangan². O'zgalovchi shakllar ma'lum bir umumiy ma'no va umumiy vazifa bilan birlashadigan shakllar qatorini – paradigmasini tashkil etadi. Boshqa GK shakllari kabi harakat nomining uchta (*[-moq],[/-sh/ish],[/-v/-uv]*), sifatdoshning ham uchta (*[-gan],[/-digan],[/-yotgan]*), ravishdoshning oltita (*[-b/-ib],[/-a/-y],[/-gach],[/-guncha],[/-gani],[/-ganda]*) shakli ajratiladi.

Ravishdosh o'zgalovchi kategoriyaning "fe'lni fe'lga bog'lash va unga ravishlik belgisini berish" vazifasini bajaruvchi qismi bo'lib, u quyidagi ichki shakllar paradigmasiga ega:

- 1.-*gach*- harakatning bosh chegarasini ko'rsatish.
- 2.-*guncha*- harakatning oxirgi chegarasini ko'rsatish.
- 3.-*gani*- maqsad ma'noli harakatni fe'l bilan bog'lash.

¹Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари. НДА, Тошкент, 1996.

²Ўзбек тили грамматикаси. Итом. Тошкент, 1975. 510-525-б. Менглиев Б. Кўрсатилган асар. 18-б. Менглиев Б. Грамматик категорияларни белгилашга доир мулоҳазалар. ЎТА, 1996. 2-сон, 23-25-б.

4.-ganda- harakat sodir bo'lish paytini ifodalash.

5.-b/ib- davomli va davomsiz harakatni ifodalash.

6.-a/y - davomli harakatni ifodalash.

7.-may/masdan- bo'lishsizlik ma'nosini ifodalash.

-a/-y ; -b/-ib shaklli ravishdoshlar bajaradigan vazifasining xilma-xilligi bilan boshqa ravishdosh shakllaridan ajralib turadi. -a/y , -b/-ib shaklli ravishdoshlar, ko'pincha, *boshlamoq, chiqmoq, qolmoq, ko'rmoq, yubormoq* kabi fe'llar bilan qo'shilib keladi. [-a/y qo'shimchali ravishdosh + boshlamoq], [-b/ib shaklli ravishdosh + turmoq], [-b/ib shaklli ravishdosh + ko'rmoq] qoliplarida ifodalangan fe'llar o'z mustaqil ma'nolarini yo'qotib, yordamchi ma'nolarda keladi va fe'llarning harakat tarzi shakllarini hosil qiladi. Ushbu fe'llar harakatning davomiyligi yoki qisqaligi (*Men kitoblarni o'qib turibman*), kutilmaganda sodir bo'lishi (*Uni ko'rib qotib qoldim*), tugallanganligi (*Xatni yozib berdi*), harakatni bajarmaslikni qat'iy ta'kidlash (*Bu gapni hech kimga ayta ko'rma*) kabi rang-barang ma'nolarni ifodalab keladi. -a/y;-b/-ib ko'rsatkichli ravishdoshning bo'lishsiz shakli -*may/masdan* qo'shimchalari orqali yasaladi: *o'qib-o'qimay, o'qimasdan; yozib-yozmay, yozmasdan*. She'riyatda -*may* shaklning -*mayin* tarzida qo'llanishi ham uchraydi: *Bilmayin bosdim tikanni, tortadurman jabrini* (xalq og'zaki ijodidan). Ravishdoshning -a/y shakli harakatining belgisini bildirish vazifasida, asosan, takror yoki juft holda qo'llanadi va ma'no kuchaytirish uchun xizmat qiladi:

Sidiqjon shosha-pisha chiqib keldi (A.Q.). *Tog' oralig'idagi qalin qor eriy-eriy odam bemalol kira oladigan g'or bo'lib qolibdi* (S.Anorboyev).

-b /ib; -a/y shaklli ravishdoshlar harakatining doimiyligi, uning takroriy va davomiyligi belgisi asosida ichki oppozitsiyada turadi. Chunki -b /ib shaklli ravishdosh bir belgiga Ī bir fe'lni ikkinchi bir fe'l bilan bog'lash belgisiga egadir. Qolgan barcha ravishdosh shakllari mazkur belgidan tashqari ravishdoshlarning ichki oppozitsiyalari asosida qo'shimcha belgilarga ega: *Toma -toma ko'l bo'lur* (Maqol). Demak, ravishdosh shakllaridan -b/ib va -a/y davomli-davomsizlik belgisiga ko'ra farqlanadi, -*gach, -guncha, -ganda* shakllari o'zaro zamon ma'nosiga ko'ra, -*gani/gali* esa maqsad ma'nosini ifodalashiga ko'ra farqlanadilar¹. Sifatdosh o'zgalovchi kategoriya UGMsi "fe'lni otga (qisman fe'lga) bog'lash va unga sifatlik belgisini berish" tarzida belgilanadi. Sifatlar ham, sifatdoshlar ham narsa - buyumning belgisini ifodalab keladi. Sifatlar turg'un belgini (*qizil gul , ko'k daraxt*) ifodalasa, sifatdoshlar esa belgini o'zgarish, harakat natijasi (*qizargan gul, ko'kargan daraxt*) sifatida ifodalaydi. Sifatdosh shakllari o'zaro zamon kategoriyasi ma'nolari asosida zidlanadi, ya'nigan (-kan, -g'an) qo'shimchali sifatdoshlar asosan o'tgan zamon ma'nosiga ega: *U yaratgan misralar bizni hayratga soladi...* (E.V.)

-*yotgan, -ayotgan* qo'shimchali sifatdoshlar hozirgi zamon ma'nosiga ega: *Xalqning uzoq yillar yashab kelayotgan yaxshi udumlari elning boyligidir* (E.V.). -*adigan, -ydigan* qo'shimchali sifatdoshlar esa kelasi zamon ma'nosini ifodalaydi: *Biz bu cho'qqiga ... doimo intilib yashaydigan yuksaklik deb qaraymiz* (E.V.). Sifatdoshning inkor shakli -*mas* inkor ma'nosi mavjudligi bilan yuqoridagi shakllardan farq qiladi. Sifatdosh shakllari qatorida o'rganilib kelingan -(u)vchi, -(a)r qo'shimchalari ayrim tadqiqotlarda ismi foil² (faoliyat egasi nomi) sifatida baholanib, bu shakllarning ismi foillik tabiati ochib berilgan, ya'ni *oqar (suv), keluvchi (kishi), so'nmas (hayot), ishlovchi (odam)* so'z shakllar tarkibidagi -(a)r, -(u)vchi qo'shimchalari mohiyatida ko'proq grammatik jihatdan ko'ra, mazmuniy tomon kuchaygan.

Demak, ravishdosh va sifatdoshlar nutqda fe'lning boshqa so'zlar bilan aloqaga kirishish vositasi ekan, ravishdosh va sifatdoshlarning faqat fe'llar bilan birika olish belgisi asosidagi zidlanish (oppozitsiya)da ravishdoshlar oppozitsiyaning kuchli (belgili) a'zosi bo'lib, fe'lni faqat fe'l bilan bog'lashga xizmat qiladi. Sifatdoshlar esa bu oppozitsiyada belgisiz a'zo bo'lib, fe'lni fe'l bilan ham, ismlar bilan ham bog'lay oladi. Chunonchi, *Zulfiya shunday qudratni topa oldi* (E.V.). *Men keladigan bo'ldim* (A.Q.). *Ko'ngilda doimo qilolmagan ishlar, yozilmagan satrlar iztirobi yashaydi* (E.V.). Ushbu oppozitsiyada sifatdoshlarning mavqei bu shakllarning bir qator boshqa xususiyatlarini ham ochib beradi:

² Салоев Р.Б. Ўзбек тилида исми фоиллар. НДА. Самарқанд, 1994.

1. Fe'ni fe'lga bog'lash nafaqat ravishdoshda, balki sifatdoshda ham bor bo'lgan imkoniyatdir.
2. Ravishdoshlarning shakllanishida sifatdoshlarning hissasi katta. Ularning tarixiy taraqqiyot natijasida sifatdoshlardan kelib chiqqanligi aniqlangan. Bu holatni *-ganda, -guncha, -gancha* shakllarida ko'rish mumkin.¹
3. Sifatdoshlar fe'ni har qanday mustaqil so'zga bog'lovchi forma bo'lganidan, ular gapda so'zlarni bog'lashga xizmat qiluvchi barcha vositalar (kelishik, egalik, ko'makchilar) bilan birikadi. Bunday xususiyat ravishdoshlarda yo'q.
4. Sifatdoshlar gapda aniqlovchi, ega, to'lduruvchi, hol, kesim vazifalarida kela oladi: *Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar* (Maqol). *Sen uchun atalgan oppoq atirgullar* (Qo'shiqdan). *Ertaga Botiralinining onasiga jamoadan yegulik olib boradiganman* (H.G'ulom). *O'qiyotganini aytdi*.

Harakat nomi UGMsi "fe'lga ot xususiylarini berish" tarzida baholanadi. Harakat nomi shakllari fe'llarga otga xos bo'lgan ma'noviy xususiyatlarni berishi bilan boshqa o'zgalovchilardan farq qiladi. *-sh, -ish, -v, -uv, -moq* qo'shimchalari bo'lishli ma'noli harakat nomi yasaydi. Harakat nomlaridan bo'lishsiz shakl hosil qilib bo'lmaydi. Harakat nomlarida fe'l uchun xos bo'lgan belgilar ravishdosh, sifatdoshga nisbatan kamdir. Harakat nomlari kelishik, egalik, son kabi kategoriyalar ko'rsatkichlarini erkin qabul qila oladi va gapda turli sintaktik vazifalarni bajaradi: *Tilim charchar, ajab, gohi seni tarjima qilmoqdan* (U.N.). *Aslida qo'shiq aytishning shukuhi o'zgacha* (E.V.). *So'zida turish – mardning ishi*. Harakat nomi shakllarida ham sifatdosh, ravishdosh shakllarida bo'lgani kabi tarz kategoriyasining davomiylik/davomsizlik, takroriylik ma'nolari nutqda o'z aksini topadi.


Xulosa qilib aytish mumkinki, o'zgalovchi kategoriyaning uch shakli (ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi) mavjud. Har uchala shakl fe'ni o'zgalash, ya'ni unga boshqa bir turkum xususiyatlarini berish uchun xizmat qiladi. Bu jihati bilan ular bir xil vazifa bajaradi. Ammo "fe'ni o'zgalash" belgisiga ko'ra ziddiyatga kirishadi. Ravishdoshda ravishlik belgisi, sifatdoshda sifatlik, harakat nomida otlik belgilari mavjud. O'zgalash kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini semantik jihatdan fe'lga boshqa turkum xususiyatlarini berish, sintaktik jihatdan fe'ni fe'l va ot bilan bog'lash tashkil etadi. Ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakllarida boshqa kategoriyalar (zamon, tarz, modallik, tasdiq-inkor) ma'nolarining tajallilari mavjud. Tajallilarning ifodalanish tarzi jihatidan o'zgalovchi kategoriya shakllari o'zaro oppozitsiyani tashkil qiladi. Chunonchi, harakat nomi fe'lga otga xos bo'lgan ma'noviy xususiyatlarni berishi sababli ravishdosh, sifatdosh shakllarida bo'lgani kabi boshqa kategoriyalar ma'noviy xususiyatlari tajallilari bilan murakkablashmaydi.

Adabiyotlar:

1. Зикриллаев Ф. Ўзбек тили морфологияси. Бухоро, 1994 йил.
2. Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари. НДА. Тошкент, 1996 йил.
3. Неъматов Х. Феъл, унинг форма ва категориялари. ЎТА, 1972 йил, 2-сон, 42-49-б.
4. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Тошкент, 1975 йил.


SLAYDLAR

¹ Абдурахманов Г.А. Исследования по синтаксису старотюркского языка XI века. М., 1967, стр.91.



- ot/sifat/ravish + la =*
- olmosh/taqlid/undov + la =*
- ot/sifat/son + lan =*

Fe'l yasovchilar	Lug'aviy shakl yasovchilar
gulla	siltala



shaxs	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
I	Bajargan+ man	Bajargan+miz	Aytib+man	Aytib+miz
II	Bajargan+		Aytib+	
III	Bajargan+		Aytib+	

shaxs	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
I	Aytdi+m	Aytdi+k	Uxlasa+ m	Uxlasa+k
II	Aytdi+	Aytdi+	Uxlasa+	Uxlasa+
III	Aytdi+	Aytdi+	Uxlasa+	Uxlasa+

shaxs	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
I	Kel +ay	Kel+aylik	Ko'rgan + im yo'q	Ko'rgan +ing yo'q
II	Kel+	Kel+	Ko'rgan +... yo'q	Ko'rgan + ... yo'q
III	Kel+	Kel+	Ko'rgan +... yo'q	Ko'rgan + ... yo'q

FE`LNING ASOSIY LMG LARI

LMG	LMG
Harakat fe'llari	1. <u>Oyoq harakati bilan bog'liq fe'llar:</u> yo'rg'alamoq, pildiramoq, chopmoq, lapanglamoq, gandaraklamoq, do'qong'lamoq, sudralmoq, bitta-bitta bosmoq, tentiramoq, tisarilmoq, o'rmalamoq... Oyoq bilan yana tepish, tepkilash, toptash, depsinish kabi harakatlar bajariladi. "Yurmoq"

	<p>fe'lining ma'no ko'chish bilan bog'liq (<i>Stanok yurdi; soatni yurguzdi; poyezd yurdi</i> kabi) rang-barang voqelanishlari ham mavjud.</p> <p>2. <u>Qo'l harakati bilan bog'liq bo'lgan fe'llarga</u> quyidagilar kiradi: ushlamoq, silamoq, tirnamoq, shapaloq tortmoq, chimchilamoq, uqalamoq, qitiqlamoq, changallamoq, mushtlamoq, chertmoq, hovuchlamoq, chapak chalmoq, paxsa qilmoq..</p> <p>Xuddi shunday yuz, gavda, og'iz harakatlari bilan bog'liq <u>harakat fe'llari</u> mavjud.</p>
Nutq fe'llari	<p>gapirmoq (sinonimlari - so'zlamoq, aytmoq, demoq) – bidirlamoq, to'ng'illamoq, g'o'ldiramoq (g'uldiramoq), vaysamoq, vaqillamoq, javramoq, bobillab berdi, javob bermadi, vaqillab ketdi...</p>
Holat fe'llari	<p>a) ichki holat (ruhiy kechinmalar bilan bog'liq): eslash, unitish;</p> <p>b) tashqi holat (xursandlik, darg'azablik... bilan bog'liq): xafa bo'lmoq, esankiramoq, dovdiramoq, g'azablanmoq;</p> <p>d) jismoniy holat (sog'lomlik, betoblik, kuchlilik, zaiflik... bilan bog'liq);</p> <p>e) ijtimoiy holat (boyluk, kambag'allik... bilan bog'liq fe'llar)</p>
Natijali faoliyat fe'llari	<p>yasamoq, qurmoq, bunyot etmoq, hosil bo'lmoq, chizmoq, barpo qilmoq, arralamoq, parchalamoq, sayqal bermoq, randalamoq, sindirmoq, yemoq, o'chirmoq</p>
Tafakkur fe'llari	<p>o'ylamoq, fikrlamoq, xayol surmoq, tafakkur qilmoq, o'yga botmoq, ko'z oldiga keltirmoq, bir qarorga kelmoq, xulosaga kelmoq</p>
Munosabat fe'llari	<p>erkalamoq, suymoq, yaxshi ko'rmoq, parvona bo'lmoq, rahmi kelmoq, xushomad qilmoq, yon bosmoq, maftun bo'lmoq, e'zozlamoq</p>


TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MATERIALLAR(Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)

Mashq. Quyidagi tibbiyot olami xususidagi fikrlarni diqqat bilan o'qing.

1. Kam yesang, uzoq umr ko'rasan. Kimki, o'zidagi ahmoqona kamchiliklarni yenga olsa, u irodalidir. (B.Franklin)
2. Ortiqcha ovqatlanishdan o'zni tiyish – organizm uchun buyuk tozalanish, ammo bu kasallikka qarshi malham emas. (P.Bregg)


3. Izzat tilasang, kam de, Sihat tilasang, kam ye. (o'zbek xalq maqoli)
4. Hayot – bu ovqatlanish fojiasidir.(A.Ernest)
5. Inson sanchqi va qoshiq bilan o'ziga qabr qaziydi. (P.Bregg)
6. Oldiga qo'yganni yemoq hayvonning ishi, Og'ziga kelganni demoq nodonning ishi. (A. Navoiy)

1-topshiriq. Gaplarda qo'llangan fe'llarni aniqlang va ularni quyidagi diagrammaga joylashtiring.Ma'ruzada olingan ma'lumotlarga muvofiq so'zlar qatorini davom ettiring.




Juft fe'llarni topib, ularni quyidagi tartibda guruhlang:


A. Grammatik shakliga ko'ra:

biri ravishdosh, ikkinchisi boshqa shaklda:  har ikki qismi bir xil shaklda:

B. Tarkibiy qismining qo'llanishiga ko'ra:

qismlari yakka holda ishlatiladigan  ikkinchi qismi yakka qo'llanmaydigan fe'llar: juft fe'llar:

C. Qismlari yakka holda ishlatiladigan juft fe'llar:



qismlari o‘zaro sinonim:

qismlari o‘zaro antonim:

qismlarining ma‘nosi yaqin:

AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

Berilgan gaplar ichidan bo‘lishsiz fe‘llarni toping.

1. Bahor borliqqa o‘z sepini yoyib ulgurgani yo‘q.
2. Oyni etak bilan yopib bo‘lmas.
3. Zo‘rni ko‘rib tan berishni o‘rganing.
4. Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston.
5. Inson sirligicha qolaveradi, ammo odamzod bir-birini anglab yetmaguncha, olam tinch, dunyo farovon bo‘lmaydi. (S.Mo‘min)
6. Bo‘lmasa ishq ikki jahon bo‘lmasin, ikki jahon demaki jon bo‘lmasin. (Navoiy)

Quyidagi she‘riy parchalardan fe‘llarni ma‘no guruhiga ko‘ra ajrating.

Do‘stlaring ko‘p bo‘lsa

Do‘stlaring ko‘p bo‘lsa, dushman shart emas,
Do‘stona sotishar siringni olib.
Yo‘q, ular atayin qilmaydilar qasd,
Do‘stona burashar birovlar solib.
Biri o‘zagingga soladi bolta,
Bir cho‘ntagingga tushadi sekin.
Do‘sting mehr bilan urar har holda,
Do‘sting yig‘lamsirab so‘yadi lekin.
Jon do‘sting joningga doim xaridor,
Non do‘sting oshiqdir dasturxoningga.
Yana dil og‘rig‘i-do‘sti nodon bor,
Chumchuq chaqiradi sepgan doningga.
Yuzma-yuz qolganda hammasi a‘lo,
Ikkov suhbat qursang –suhbati jonon.
Sen dushman borligin unutma aslo,
Do‘stlik san‘atini egalla, inson.

(Iqbol Mirzo)

Quyidagi fe‘llarni fe‘l nisbatlari bo‘yicha guruhlang.

Keldi, tashishdi, olishdi, zavqlandi, odatlandi, achindi, eslash, sezdi, tinglandi, puflandi, tinglashdi, qaltiradi, suhbatlas, ochdi, bezaldi, ilitildi, kiyindi, torttirdi, bo‘lindi, o‘qish, kechirtirdi, seskandi, chizildi, uqtirilgan, tiklandi, chalindi, bezandi.

“Qish xayollari” mavzusida matn tuzing. Matn tuzishda sinonim fe’llardan unumli foydalaning.

SEMINAR MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR. TEST.

Fe’l so’z turkumi bo’yicha test savollari

1. Qaysi qatorda o’zlik va majhul nisbatdagi fe’llar juftligi berilgan?

- a) ajraldi-ajratdi, maqtadi-maqtandi
- b) tarandi-taraldi, kiyindi-kiyildi
- c) yuvindi-yuvundi, chaqirdi-chaqirildi
- d) eshitdi-eshitildi, tashladi-tashlandi

2. Otasini hovlining chekkasidagi zax uyga ko’chirdi.

Ushbu gapdagi fe’lning nisbatini aniqlang?

- a) o’zlik nisbat
- b) aniq nisbat
- c) orttirma nisbat
- d) majhul nisbat

3. Qaysi gapda mustaqil qo’llanilgan kesim ifodalangan?

- a) Motor gurillab mashina olg’a intildi
- b) Oftoboyim eridan ham qo’lini yuvib qo’ltig’iga urgan edi
- c) It hurar-karvon o’tar
- d) Biz tomonlarga ham borib turing

4. 1) Gul ochildi. 2) Yig’ilish ochildi.

Ushbu gaplardagi fe’llarning nisbatini aniqlang

- a) majhul nisbat, o’zlik nisbat
- b) o’zlik nisbat, majhul nisbat
- c) har ikkala gapda majhul nisbat
- d) aniq nisbat, majhul nisbat

5. Fe’ldan sifat yasovchi qo’shimchalar qaysi qatorda berilgan?

- a) -aki, -oq, -choq
- b) -qi, -ay, -viy, -k
- c) -li, -iq, -a
- d) -qi, -iq, -iy

6. Qaysi qatorda aqliy faoliyat fe’llari keltirilgan?

- a) fikrlamoq, sevinib ketmoq, chaqirmoq
- b) fahrlamoq, pichirlamoq, ma’qullamoq
- c) imzolamoq, suyunmoq, sergaklanmoq
- d) ijod qilmoq, tushunmoq, o’ylamoq

7. Chin do’st uldirkim, do’stidan hech qachon ranjimaydi, agar xafa bo’lsa ham uzuruni qabul qiladi.

Gapda nechta yasama fe’l bor?

- a) 3 ta
- b) 2 ta

c) 1 ta

d) yasama fe'l yo'q

8. Qaysi qatorda ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi orttirma nisbat shaklida?

a) Kuchli to'lqin uni oqizib ketdi

b) Karima u qizni surishtirib qoldi

c) O'qituvchi yana intizom haqida gapirib o'tdi.

d) Majnuntol kokillari yo'lni to'sib turardi.

9. Fe'lning vazifa shakllaridan qaysi biriga egalik qo'shimchasi qo'shilganda tovush almashinuvi ro'y beradi?

a) sifatdosh

b) ravishdosh, sifatdosh

c) ravishdosh

d) harakat nomi

10. Qaysi gap tarkibida o'zlik nisbati shaklidagi fe'l mavjud?

a) Yigit bo'lib o'tgan voqealarni o'kinib so'zlab berdi

b) Bolalar hikoyani zavq bilan tingladilar

c) Biz ajdodlarimiz bilan faxrlanamiz

d) O'ksinib, xo'rsinib yig'lar yuragim

11. Fe'l+fe'l shaklidagi fe'llarni toping?

a) olib qochmoq, ishlab chiqarmoq

b) quvonib keldi, shoshirib qo'ydi

c) sotib yubormoq, o'ylab qolmoq

d) isib ketdi, yozib bordi

12. Quyidagi keltirilgan fe'llardan qaysilari orttirma nisbat shaklida?

1. bitirmoq 2. qizarmoq 3. qochmoq 4. tushirmoq 5. solishtirmoq 6. surishtirmoq

13. uyg'otmoq 8. yupatmoq 9. oshirmoq

a) 2,8,9 b) 1,4,5,9 c) 3,6,7,9 d) 1,3,4,9

14. Fe'lning noaniq shakli tarkibida qanday qo'shimchalar bo'lishi mumkin?

a) shaxs-son shaklini hosil qiluvchi

b) mayl shaklini hosil qiluvchi

c) zamon shaklini hosil qiluvchi

d) nisbat shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalar

15. Qaysi gapda fe'l bilan ifodalangan fe'l-kesim qatnashgan?

a) Yo'qoling, siz bilan adi-badi aytishga vaqtim yo'q.

b) Mardga o'lim yo'q

c) Barcha gaplarning kesimi modal fe'l bilan ifodalangan ot- kesimdir

d) Tabiatda hech qanday sirli kuch ta'sirida ro'y beradigan narsa yo'q.

16. Harakat nomi bilan ifodalangan kesim tarkibida kerak, darkor, shart so'zlari bo'lganda, ega bilan kesim moslashsa...?

a) harakat nomi tarkibida shaxs-son qo'shimchalari bo'lmaydi.

b) harakat nomi tarkibida egalik qo'shimchalari bo'ladi.

c) kerak, lozim, darkor, shart so'zlari alohida ot -kesim sanaladi.

d) harakat nomiga shaxs-son qo'shimchalari qo'shilsa, ega vazifasini bajaradi.

17.1)U uzoq yillar kasalligi sababli muntazam ukol olib keldi 2) Saida yuklarini uyga olib keldi

Ushbu gaplardagi fe'llarni tahlil qiling?

a) ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi, so'z birikmasi

b) qo'shma fe'l, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi

c) ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi, qo'shma fe'l

d) so'z birikmasi, qo'shma fe'l

18.Faqat ko'makchi fe'l vazifasini bajaruvchi fe'llar berilgan qatorni aniqlang?

1. bo'l 2. qil 3. boshla 4. yot 5. tur 6. ko'r 7. chiq 8. yubor 9. yoz 10. tush

a) 4,5,6,7,8,10

b) bunday fe'l yo'q

c) 1,2,3,4,5,6,7,8

d) faqat 1 va 3

19. Qaysi qatorda bo'lishsizlik shakli orqali davomiy bo'lishsizlik ma'nosi ifodalangan?

a) barcha javoblarda davomiy bo'lishsizlik ifodalangan

b) u darslarini tayyorlamay qo'ymadi

c) u darslarini tayyorlab qo'ymadi

d) u darslarini tayyorlamay qo'ydi

20.Sodda yasama fe'llar so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida qaysi so'z turkumlari yasalishi mumkin?

1. otlardan 2. fe'llardan 3. ravish 4. olmosh 5. sifatlardan

a) 1,2,3,5 b) 1,2,3,4,5 c) 1,3,4,5 d) 1,2,5

21. Yemoq, demoq fe'llaridan majhul nisbat qanday hosil bo'lgan?

a) yemoq, demoq fe'llaridan majhul nisbat hosil qilinmaydi

b) so'z asosiga –il qo'shimchasini qo'yish orqali

c) so'z asos unli tovush bilan tugaganligi uchun 1 undoshi qo'yish orqali

d) so'z asosi va majhul nisbat qo'shimchasi orasida y tovushini orttirish orqali

22. Quyidagilarni qaysi biri fe'lning munosabat shakli hisoblanadi?

1. shaxs-son 2. o'timli-o'timsizlik 3. zamon 4. b-li-b-sizlik 5. vazifa shakli 6. mayl

a) 1,3,6 b) 2,3,4,5 c) 2,4,5,6 d) 1,2,6

23. 1. To'g'ri kelgan odamning ko'ksiga o'zini tashlab quloq soladi. 2. Normal qo'shiqqa quloq solib ichkaridagi odamning chiqishini kuta boshladi.

Gaplarda qo'llangan "solmoq" fe'li haqida qaysi hukm to'g'ri?

a) ikkala gapda qo'shma fe'l tarkibida

b) birinchi gapda qo'shma fe'l tarkibida, ikkinchi gapda mustaqil fe'l

c) ikkala gapda mustaqil fe'l

d) birinchi gapda qo'shma fe'l, ikkinchi gapda qo'shma fe'l tarkibida

24.Sadaqayrag'och shohlarida chumchuqlar chirqillashib ko'klamni olqishlaydi allaqayoqlardan qaldirg'ochlar o'qday otilib kelib hovli ichiga kirib ketadi. Ushbu gapda nechta yasama fe'l bor?

a) 4 ta b) 5 ta c) 2 ta d) 3 ta

25.Qaysi qatorda ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi berilmagan?

- a) kelisha olmoq, chiqara olmoq
- b) jo'shib kuylamoq, qaytarib olmoq
- c) tebranib bormoq, qarab qo'ymoq
- d) haydab yubormoq, to'kib solmoq

26. Harakatning holatini anglatuvchi ravishdoshlar qaysi qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi?

1. (i) 2. –gancha 3. –gani 4. –gach

a) 2,3 b) 1,4 c) 3,4 d) 1,2

27.1. ko'chmoq 2. tikmoq 3. sog'moq 4. chiqmoq 5. egmoq

Ushbu fe'llardan o'tgan zamon sifatdoshi yasalganida ularning qaysi biri fonetik qoida (yozuv) asosida yoziladi?

a) 2,3,4,5 b) 2,3,4 c) 2,4 d) 1,3,5

28. –ar qo'shimchasi bilan fe'lning xoslangan shakllaridan qaysi biri hosil qilinadi?

- a) harakatning holatini anglatuvchi ravishdoshlar
- b) harakat nomi
- c) ravishdosh
- d) sifatdosh

29. Qaysi ko'makchi fe'l harakatni bajarishga imkoniyat mavjudligi ma'nosini ifodalaydi?

a) yurmoq b) yotmoq c) olmoq d) boshlamoq

30. 1. ko'chmoq 2. tikmoq 3. sog'moq 4. chiqmoq 5. egmoq

Ushbu fe'llardan o'tgan zamon sifatdoshi yasalganida ularning qaysi biri morfologik qoida asosida yoziladi?

a) 2,3,4,5

b) 2,4

c) 2,3,4

d) 1,3,5

31.Qaysi qatordagi fe'l noaniq shaklda berilgan?

A)bordi B)kelmoq S)yozi D)borsin

32. Berilgan gaplarning qaysi birida olmosh fe'l o'rnida qo'llangan?

- a) Karim gullarni uza boshladi. Bu esa bog'bonning jahlini chiqardi
- b) Holid toshni o'n marta ko'tardi. Men ham shuncha ko'tarishni orzu qilaman
- c) Gullarning ko'pi pushti rang, ana shu menga juda yoqdi
- d) Gul ochildi. Uning ochilishi kishilarga rohat berdi

33. Qaysi gapda o'tgan zamon sifatdoshi qatnashmagan?

- a) Shuncha o'qish ham, uning bilganlaridan, bilmaganlari ko'p ekan
- b) Salima yaxshi dars tayyorlagani uchun maqtovga sazovor bo'ldi

- c) Yaxshi o'qigani uchun u mukofotlandi
- d) Bolalar o'ynab kelgani ko'chaga chiqdi

34. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasida -ma bo'lishsizlik qo'shimchasi qanday ma'noni ifodalaydi?

- a) yetakchi fe'lga qo'shilsa-davomiy, bo'lishsizlik ma'nosi ko'makchi, fe'lga qo'shilsa-bir martalik harakat nomini ifodalaydi.
- b) yetakchi fe'lga qo'shilganda bir martalik harakat imkoniyatni, ko'makchi fe'lga qo'shilganda-davomiy bo'lishsizlik ma'nosini ifodalaydi
- c) yetakchi va ko'makchi fe'lga qo'shilganda-ma'no farqiga ega bo'ladi.
- d) yetakchi fe'lga qo'shilganda-inkor, ko'makchi fe'lga qo'shilganda-tasdiq ma'nosini ifodalaydi

35. O'timsiz fe'llar qaysi vositalar yordamida o'timli fe'lga aylanadi?

- a) o'zlik va majhul fe'lga aylanadi
- b) tushum kelishigi shakli
- c) orttirma nisbat shakli
- d) bosh kelishik shakli

36. Qaysi qatorda gap tarkibida o'zlik nisbati shaklidagi fe'l mavjud?

- a) Biz ajdodlarimiz bilan faxrlanamiz
- b) Yigit bo'lib o'tgan voqealarni o'kinib so'zlab berdi
- c) Bolalar hikoyalarni zavq bilan tingladilar
- d) O'ksinib, xo'rsinib yig'lar yuragim

37. Yetakchi fe'l tarkibida ham, ko'makchi fe'l tarkibida ham kelishi mumkin bo'lgan qo'shimchalarni toping.

- a) -gan, -ma, -in
- b) -di, -dir, -ish
- c) -il, -ma, -ish
- d) -man, -(i), -m, -ma

38. Qaysi qatorda sifatdan yasalgan fe'l bor?

- a) Peshonangiz devorga qarsillab urilgandan keyin esingiz kiradi.
- b) Bir-birimiz bilan tezda eski qadrdonlardek suhbatlashdik
- c) Dunyoda qancha pok odamlar bo'lsa, yovuzlik shunchalik kamayadi
- d) Ko'klam. Butun mavjudot qaytadan yasharmoqda

39. Qaysi gapda ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi ishtrok etgan?

- a) Quyosh ko'kdan mo'ralab qarar
- b) U to'nini tashlagan holda kechasi bilan yurib chiqdi.
- c) Karim darsga ataylab kelmadi

40. Qaysi gapdagi ko'makchi fe'lli so'z qo'shimchasining ko'makchisi bitta so'zdan iborat emas?

- a) Malika ko'rganini oqizmay-tomizmay gapirib berdi
- b) U borini bilib-bilmay sovirib bordi-ku
- c) Qo'shnisi uni bilsa-da, indamay-netmay qo'ya oldi
- d) Ular ba'zi-bazida kirib-chiqib turishadi.

41. Berilgan fe'llarning qaysilari ko'makchi fe'l vazifasida kela olmaydi?

- a) O'tir, tashla
- b) barchasi ko'makchi fe'l vazifasida kela oladi
- c) yoz, tush
- d) qara, boq

42. Yasama fe'l ishtirok etgan gapni aniqlang.

- a) Xolida gulzorga chiqmoqchi edi, oyisi to'xtatdi
- b) "Odamlar sizni qattiq hurmat qilishadi", - dedi Kamol
- c) Yasama fe'l mavjud emas
- d) Shabada esganda qad ko'targan yosh nihollarni tebratar edi.

43. Qaysi gapda ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasining yetakchi qismi juft fe'ldan tizilgan?

- a) Ikki oila anchadan beri bordi-keldi qilishadi.
- b) Akmal bo'lib o'tgan voqeadan xursandligidan yelib- yugurib qoldi
- c) Ukalarining yaxshi, o'ynab-kulib yurishibdi
- d) Ona bir necha marta o'z dardini aytib-aytib qo'ydi

44. Fe'lning vazifa shakllaridan qaysi biriga egalik qo'shilganda tovush almashinishi ro'y beradi?

- a) harakat nomi
- b) ravishdosh
- c) sifatdosh
- d) ravishdosh, sifatdosh

45. Qaysi gapda o'tgan zamon sifatdoshi sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida kelgan?

1. Bo'ladigan savdoning bo'lgani yaxshi
2. Bu ovoz hali ilimagan dalalarga tegib aks-sado berayotgandek tuyuladi.
3. Qoradaryo hamisha to'lib oqqan, lekin hech qachon bunday suvsiz bo'lmagan

- a) 2
- b) 1 va 2
- c) 2 va 3
- d) 1

46. 1) egmoq 2) tikmoq 3) sog'moq 4) chiqmoq 5) egmoq

Ushbu fe'llardan qaysilari o'tgan zamon sifatdoshi yasalganda ularning qaysi biriga jarangsiz undosh bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shiladi?

- a) 2,3,4,5.
- b) 2,4
- c) 1,2,3,4.
- d) 3,4.

47. 1. Umarali o'rnidan turdi va tashqariga chiqib ketdi. 2. Samir shosha darrov korxonaga kirib ketdi. 3. Ushbu gapni eshitib chiqib ketdi. 4. Direktor hujjatlar bilan tanishib chiqdi.

- a) 1-3 gapni ko'makchi fe'lni ergashtirib kelgan yetakchi fe'l, 2-gapda qo'shma fe'lning tarkibiy qismi, 4- gapda ko'makchili fe'l
- b) 3- gapda ko'makchi fe'lni ergashtirib kelgan yetakchi fe'l, 1-2 gapda qo'shma fe'llarning tobe qismi, 4- ko'makchi fe'l

c) 1-2-3 gapda ko'makchi fe'lni ergashtirib kelgan yetakchi fe'l, 4- gapda qo'shma fe'l

tarkibiy qismi

d) 2-4 gaplarda ko'makchi fe'lni ergashtirib kelgan, 1-3 gaplarda qo'shma fe'lning tobe qismi, 1- gapda ko'makchi fe'l.

48. Qaysi qo'shimchalar fe'llarga qo'shib, bajaruvchining harakat- holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini ifodalaydi?

a) zamon ma'nosini ifodalovchi qo'shimchalar

b) mayl hosil qiluvchi qo'shimchalar

c) nisbat hosil qiluvchi qo'shimchalar

d) shaxs- son qo'shimchalar

49. 1. ko'chmoq 2. tikmoq 3. sog'moq 4. chiqmoq 5 egmoq

Ushbu fe'llardan o'tgan zamon sifatdoshi yasalganda ularni qaysi biriga jarangli undosh bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shiladi?

a)1,3,4,5.

b)1,3,5.

c)1

d)2,3,4,5.

50.1. Do'sting uchun zahar yut. 2. Huvillab qolgan uyda yolg'iz yashash qiyin, hovli yutaman deydi.

3. Arslon degan bir yigit kurashda tengqurlarini yutdi.

Ushbu gaplarda qo'llangan "**yutmoq**" fe'llari ma'no munosabatiga ko'ra o'zaro qanday so'z hisoblanadi?

a) uchala gapdagi "**yutmoq**" so'zlari shakldosh

b) 1-gapda "**yutmoq**" so'zi ,2-3 gapdagi **yutmoq** so'zlariga shakldosh so'z, 2 va 3 gapdagi yutmoq so'zlari o'zaro bir so'zning 2- ma'nosi

c) 1- 2 gaplarda bir so'zning 2- ma'nosi, 3- gapdagi **yutmoq** fe'li ,1 va 2 gaplarda **yutmoq** fe'lga nisbatan shakldosh

d) Uchala gapdagi **yutmoq** so'zi bir so'zning , ya'ni ko'p ma'noli so'zning 3 xil ma'nosi

51. Harakat fe'llari berilgan qatorni toping.

A. Kema, olma, tama

B. Bormoq, yurmoq, ketmoq

C. Dimlama, qaynatma, o`zlashma

D. Egma , qo`llanma, o`zlashma

52. O`timli fe`l berilgan gapni belgilang.

A. Ish bilganga bir tanga , gap bilganga ming tanga

B . Salomatlik – tuman boylik.

C. Ota –onangni hurmat qil.

D. Kattaga hurmatta –kichikka izzatda bo`l.

53. Aytilgan vaqtga yetib kelindi. Fe`l nisbatini aniqlang.

A. Aniq nisbat.

B.O`zlik nisbat.

C.Birgalik nisbat.

D.Majhul nisbat.

54. O`zlik nisbatni hasil qiluvchi qo`shimcha qaysi qatorda to`g`ri berilgan?

- A. – n, - in, - l, - il.
- B. – l, - il, - n, - in.
- C. – sh, - ish.
- D. – t, -tir, -dir.

55. *Kelajakda quruvchi bo`lmoqchiman.* Fe`lning gapdagi vazifasini aniqlang.

- A. Ega.
- B. Kesim.
- C. Aniqlovchi.
- D. To`ldiruvchi.

56. Fe`lga xos bo`lmagan belgi qaysi qatorda berilgan?

- A. Tuslanadi.
- B. Zamonga ega.
- C. Vazifadosh shakllari mavjud.
- D. Mayl ko`rsatadi.
- E. Barcha javoblar to`g`ri.

57. Fe`l yasovchi qo`shimchalarni toping.

- A. –lan, -siz, -iy.
- B. - i, -sira, -ay.
- C. –l, -il. –t.
- D. –gan, -qan , - kan.

58. Yumush fe`llari berilgan qatorni toping.

- A. So`zladik, gapirdik, qaynadi.
- B. O`yladik , esladik, keldingmi?
- C. Ishladi, yuvdik, pishirdilar.
- D. Kelsam, bormoq, yurgan.

59. *Bizlar ood va obod vatan barpo etmoqchimiz.* Ushbu gap ichida kelayotgan fe`lning qaysi maylda ekanligini aniqlang.

- A. Ijro maylida
- B. Shar maylida
- C. Buyruq- istak malida.
- D. Maqsad maylida

60 . *Tursun, To`xtasin, Ko`paysin* kabi fe`llarga qaysi qatorda to`g`ri ta`rif berilgan?

- A. Buyruq- istak maylidagi fe`llar
- B. Fe`ldan hosil qilingan otlar
- C. Fe`lning bosh shakllari
- D. Fe`lning vazifadosh shakllari

Mavzu: Ot va uning lug`aviy shakllari

Reja:

1. Otlarda son paradigmasi. Uning UGMsi va nutqiy voqelanishi.
2. Otlarda kichraytirish shakli. Uning XGM va UGMsi, nutqiy voqelanishi.

3. Shaxsiy munosabat shakllari paradigmasi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

Otning lug'aviy shakllari, son paradigmasi, [-lar] shaklining UGM si, [-lar] shaklining XGMLari, [0] shaklining UGMsi, [0] shaklining XGMLari, kichraytirish shaklining UGMsi, kichraytirish shaklining XGMLari, shaxsiy munosabat shakllari, ot lugaviy shakllari va uning nutqiy voqealanishi.

Kim? nima? so'roqlariga javob bo'lib, yakka shaxs, narsa nomlarini, bir turdagi jonli va jonsiz narsa - buyum, voqea-hodisa, harakat -holatlarning umumiy nomlarini atab keladigan so'zlar ot turkumiga kiradi. Ot morfologik jihatdan o'ziga xos morfologik paradigmalarga ega.

Son paradigmasi. Otlarning - *lar* qo'shimchasini qabul qilmagan ko'rinishi birlik son shaklini, - *lar* qo'shimchasini qabul qilgan korinishi esa ko'plik son shaklini tashkil etadi. Birlik son [o] shaklda bo'lganligi bilan [-*lar*] shaklli ko'plik songa qarama -qarshi turadi. [-*lar*] shaklining quyidagi

XGMLari mavjud:

1. Ko'plikni ifodalash.
2. Jamlilik ifodalash.
3. Bog'liqlik yoki o'xshashlikka asoslangan ko'plikni ifodalash.
4. Taxmin ifodalash.
5. Kuchaytirilgan ma'no ifodalash.¹

Ko'plikni ifodalash [-*lar*]ning eng ko'p uchrovchi XGMsi bo'lib, u hamma turdagi otlar bilan munosabatga kirishadi. "*Unda qiziqarli kitoblar bor*" misolida so'zshakl [-*lar*] ifodalagan miqdoriy ma'no noaniq (kitobning nechtaligi ma'lum emas), sifatiy jihatdan bo'linuvchanlik ifodalanmoqda:

kitoblar =kitob+kitob+kitob...

Jamlilik ma'nosi bo'linuvchanlik xususiyatini saqlagan holda (*kishilar orzusi, qushlar bayrami*) va turg'unlashgan turkiy izofalarda (*bilimlar uyi, ishchilar sinfi*) yuzaga chiqadi.

Bog'liqlik yoki o'xshashlikka asoslangan ko'plikni ifodalash quyidagi misollarda yuzaga chiqadi:

Avazlarga g'isht quyib berdim (Avaz va u bilan bog'liq oila a'zolari nazarda tutilgan).


Avvalgi sarvigullar o'qishni tugatishdi (Sarvigul va unga o'xshashlar ma'nosida).

[-*lar*] chama - taxmin ma'nosini ham ifodalaydi: *dastlabki vaqtlarda, yaqin kunlarda, yigirma yoshlarda...*

Ma'lumki, ko'p narsa hamisha oz yoki yakka narsaga nisbatan kuchliroq, ahamiyatliroq tuyuladi. Shu sababli kuchli e'tibor va ta'kid zarur bo'lgan holatlarda narsaning miqdorini ko'p qilib ko'rsatishga intilish kuzatiladi va natijada [-*lar*] shaklini olgan miqdoran yagona yoki bitta bo'lgan narsa ko'p

sifatida tasavvur qilinadi. Bunda [-*lar*] shakli orqali kuchaytirilgan ma'no yuzaga chiqadi: *Yuraklarim yorila yozdi. Boshlarimni qotirib yubording.*

Nol ko'rsatkichli shaklning XGMLari quyidagilar:

1. Jamlilik ifodalash.
2. Ko'plik ifodalash 
3. Birlik ifodalash.

¹ Нурмонов А., Шахобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Тошкент., 2001 йил, 100-108-бетлар.

O`zbek tilida jamlikni ifodalovchi maxsus ko`rsatkichning yo`qligi natijasida bu ma`noni [-lar] ham, [o] ham ifodalay oladi. [-lar] jamlik ifodalay oladi. [-lar] jamlik ifodalaganda bo`linuvchanlik ottenkasi saqlanilsa, [o] jamlik ifodalaganda narsalarning bo`linmas, yaxlit birligi ma`nosi ifodalanadi:

Hozirgi gadolar ham g`oyat mukammal... (A.Oripov).

Gadoning dushmani gado bo`ladi... (A.Oripov).

[o] shakl matnda aniq va noaniq ko`plik ma`nolarini ifodalashi mumkin. Masalan, *Ermon buvaning aytishiga qaraganda, o`n pud ko`sakni chuvish zimmamizga tushgan emish* (O`Hoshimov).

[o] ko`rsatkichli so`zshakl (*ko`sak*) bu o`rinda aniq miqdorni ifodalovchi "*o`n pud*" bilan munosabatga kirishib aniq miqdoriy ko`plik ma`nosini yuzaga chiqargan.

"*Xuddi o`sha marakadan uch- to`rt kun ilgari g`alati voqea bo`ldi*" matnida (*uch -to`rt kun*) miqdoriy noaniq ko`plik ma`nosi yuzaga chiqqan.

Birlikni ifodalash [o] shaklning asosiy vazifasi sanaladi. Bu ma`no ko`rsatish olmoshlari, "bir" so`zi, aniqlovchilar bilan munosabatga kirishganda yuzaga chiqadi: *Bir radiosi bor, sandiqdek keladi* (O`Hoshimov).

Demak, yuqoridagilarga tayangan holda son kategoriyasi shakllari paradigmasini quyidagicha ko`rsatish mumkin:

Belgilar	[Ø]	[-lar]
1. Noaniq miqdor	[0]	+
2. Bo`linmaslik	+	[o]

Son kategoriyasi shakllari uchun quyidagi UGMlarni ko`rsatamiz:

[-lar] UGMsi I bo`linuvchan/bo`linmas sifat va noaniq miqdor ifodalash.

[o] UGMsi I bo`linmas sifat va aniq/ noaniq miqdor ifodalash. Otlardagi yana bir lug`aviy shakl bu kichraytirish shaklidir. **Kichraytirish shaklining** ko`rinishlari quyidagi paradigmani hosil qiladi:

1 -*cha* a) shaxs va predmetlarning kichik ekanligini ifodalash: *Shoir daftarchasini tizzasiga qo`yib tez- tez yozar edi* (A.Q.).

b) erkalash ma`nosini ifodalash: - *Qani bo`lmasa, tingla, o`g`ilcha,- deydi chol va yo`talib tarixini boshlaydi* (O.).

v) kamsitish ma`nosini ifodalash: *Ichkariga kiring, anavi yetimcha qizimizni o`ldirib qo`yay deyapti* (Mirm.).

2.- *gina* a) kichraytirish ma`nosini berish: *Qizgina raqsga tushdi. Bo`taloqqina har qancha ildam yursa -da, onasiga yetolmas ekan* (Gulxaniy).

b) achinish ma`nosini ifodalash: *Tarvuz va qovunginalar suvsizlikdan qovjirab qolibdi. "Qizginam bo`rilarga yem bo`ldiyov", - deb ota yig`lay- yig`lay uyga qaytdi* (Ertakdan).

v) erkalash ma`nosini ifodalash: ... *Endigi qolgan umrimni faqat seni izlash uchun sarflayman, deb ahd qilib qo`ygan edim, bolaginam* (A. Muxtor).

3. -(a) loq qo`shimchasi ayrim otlarga qo`shilib, erkalash, hurmat ma`nolarini bildiradi: *bo`taloq, qizaloq, toyloq* kabi.

Bu o`rinda shuni eslatib o`tish joizki, kichraytirish, achinish qo`shimchasi bo`lgan -*gina*, -*kina*, -*qina* qo`shimchasi bilan shakldosh bo`lgan -*gina* ajratish, ta`kid yuklamasi ham bor. Ajratish, ta`kid yuklamasi -*gina* hamisha so`zning oxirida keladi, ya`ni egalik, ko`plik qo`shimchalari yuklamadan oldin qo`yiladi: *Mardlargina o`z vatanlari uchun mardona kurasha oladilar. O`rtog`imgina menga qarshi chiqmadi*.

Bundan tashqari, -*gina* yuklamali so`zda urg`u o`zak qismga tushadi. Yuklamali so`zlar: *Zumradgina, qovungina*; kichraytirish, achinish qo`shimchali so`zlar: *Zumradgina, qovungina*.

Yuqoridagilardan kichraytirish shaklining UGMsini quyidagicha tavsiflash mumkin: otlarning har bir ma`noviy turi, guruhiga qo`shilib, so`zning lug`aviy ma`nosini aniqlashtirish. Darhaqiqat, yuqorida qayd etilgan qo`shimchalarning ma`nosi faqat matndagina reallashadi.

Eski o'zbek adabiy tilida kichraytirish shakli *-choq* va *-chak* qo'shimchalari yordamida hosil bo'lgan. Bu qo'shimchalar hozirgi kunda ayrim so'zlar tarkibida qotib qolgan. Masalan, *arg'imchoq, toychoq, qo'zichoq, o'yinchoq, kelinchak, o'rgimchak, belanchak...*

Ya'ni soddalashuv hodisasiga uchragan *-cha* qo'shimchasini olgan ayrim so'zlar haqida ham shu fikrni aytish mumkin. Ushbu qo'shimchani olgan ayrim so'zlar kichraytirish ma'nosini yo'qotib, semantik o'zgarish natijasida yangi leksik ma'no hosil qilgan: *Nafisa opa ilgari bolalar bog'chasida murabbiya bo'lib ishlardi* (Mirmuhsin). *Abdulla muzdek beqasam ko'rpacha ustiga cho'zildi* (O.U).

Bunday hollarda so'z o'zining dastlabki ma'nosini yo'qotadi, affiks so'zning asosidan ajralmas holatga keladi. [-*cha*] affiksining turli so'zlardan sifat (*o'zbekcha, o'rtancha, arabcha*) yasash hodisasi tilshunosligimizda chuqur o'rganilgan.

Shaxsiy munosabat (erkalash) shakllari (*-jon, -xon, -oy, -bonu, -gina*) shaxs bildiruvchi atoqli otlarga, turdosh otlarga qo'shilib erkalash, suyish ma'nolarini ifodalaydi: *Ahmadjon, xolajon, Lolaxon, onaxon, Madinabonu, Nafisaoy* kabi .

Adabiyotlar:

1. Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. Ташкент, 1989 год, стр. 41-50.
2. Ne'matov H. va b. Ona tili. 6- sinf uchun darslik. Toshkent. "O'qituvchi " 1998-yil, 66-68 betlar.
3. Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Тошкент, 2001 йил, 100-108-бетлар.
4. Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1992 йил, 275-276-бетлар.

SLAYDLAR

KO'PLIK KATEGORIYASINING O'RGANILISHI

1. Mahmud Koshg'ariy: «Devonu lug'otit turk»;
2. Abdurauf Fitrat: «O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. Sarf. Nahv»;
3. A.G'ulomov: «O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi»;
4. F. Safarov: «O'zbek tilida son-miqdor mikromaydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati»;
5. Sh.Rahmatullayev: «Hozirgi adabiy o'zbek tili».

O'ZBEK TILI TARIXIDA KO'PLIKNING GRAMMATIK KO'RSATKICHLARI

- 1. Ko'plikning *-lār, -lar* qo'shimchasi bilan: *bilgələr* – donolar, *alplar* – pahlavonlar
- 2. ko'plik *-n* qo'shimchasi bilan: *tyrkən* – turklar, *erən* – erlar
- 3. ko'plikning *-t* qo'shimchasi bilan: *tigit* – shahzodalar.
- 4. ko'plik *-z* affiksi bilan: *meñiz* – yuz, *kökyz* – ko'krak
- 5. ko'plik *-ag`ut* qo'shimchasi bilan *alpag`ut* – pahlavon, *bayag`ut* – boyon
- 6. ko'plikning *-at\l-ət* qo'shimchasi bilan: қыуыт (azoblar)

- 7. arab so'zlari: *shuarā* (shoirlar), *ulama* (olimlar) *salāṭyn* (sultanlar)

■ Mavjudot sonini ifodalovchi lisoniy vositalar tilning turli bo'limiga mansub bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- otning son-miqdor kategoriyasi;
- otning o'zak-negizi;
- otlashgan so'z;
- fe'lning son kategoriyasi;
- fe'lning o'zak-negizi;
- son turkumi;
- olmosh;
- sifatning o'zak-negizi;
- ravishning o'zak-negizi;
- egalik kategoriyasi;
- juft va takroriy so'z;

- unlini cho'zib talaffuz qilish.

- **Son-miqdor ma'nosi to'rt xil ko'rinishda ifodalanadi:**

- 1) birlik;
 - 2) ikkilik;
 - 3) ko'plik;
 - 4) umumiylik.
-

-lar shakli ifodalaydigan ma'nolar quyidagi o'n ikki turdan iborat:

- 1) predmet sonining ortiqdigi;
 - 2) tur ma'nosi (*suvlar*);
 - 3) to'dalarning ko'pligi (*xalqlar*);
 - 4) hurmat;
 - 5) mazax;
 - 6) ma'noni kuchaytirish (*yuraklarim, uyqularim*);
 - 7) belgi ma'nosini konkretlashtirish (*Tabiat go'zalliklarini tomosha qildim*);
 - 8) umumlashtirish (*Tiyonshon, Kazbek, Hindiqushlar buyuk tog`dir*);
-

Foydalanilgan adabiyotlar

- Каримов И.А. Юксак маънавият — енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. -176 б.
- Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфологияси. –Тошкент.: Уқитувчи, 1994.
- Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Алишер Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. -Т.: Фан, 1981.
- Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. -Т.: Уқитувчи, 1982. -176-б.
- Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: Уқитувчи, 1973.
- Abdurahmonov G., Shukurov SH., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. –Т.: O'qituvchi, 2008.
- Аслиддинов С. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида эгаллик категорияси: Фил. фан. номз. ... дис. автореф. –Самарқанд: 1964. –20 бет.

TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MATERIALLAR(Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)

Mashq

1-topshiriq. Quyidagi matndan turdosh otlarni aniqlang. Ularni jadvalga joylashtiring:

Narsa otlari	Shaxs otlari	O'rin- joy otlari	Faoliyat-jarayon otlari

Beshik bizning xalqlarimizning milliy udumi bo'lib, undan to'g'ri va tartibli foydalanib, gigiyenik qoidalarga amal qilinsa, chaqaloq uchun katta foydalari bor ekan. Yana xalqimizda beshik to'yi degan udum (bunda chaqaloqni kattaroq yoshdagi ayol beshikka belaydi. Marosimda, asosan ,mahallaning yosh bolalari chaqirilib, ularga turli shirinliklar

ulashiladi) mavjud bo'lib, agar bu shukrona tarzida, hatmi qur'on qililib, yosh bolalarni shirinliklar bilan xursand qilnadigan bo'lsa, yaxshi amaldir. Lekin bu udum tarkibida ba'zida bir qancha bid'at amallar bajariladi. Ba'zi joylarda chaqaloqni o'tdan aylantirish kabi amallar mavjud ekan. Bu Islomga umuman ziddir. (A.Ashirov “ O'zbek xalq marosim va odatlari”).

2-topshiriq. Tuzgan guruhingizni so'z qo'shib boyiting va jadvaldagi har bir so'zning ma'nodoshini topib, ularni alohida guruhga ajrating.

Namuna:

Narsaoti	Ma'nodoshi	O'rin-joyoti	Ma'nodoshi
Beshik	Belanchak	Gulzor	Guliston
Udum	An'ana	Universitet	Oliygo'h

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR. TEST.

1. Har bir tilning qurilish tizimi nutqda ifodalanishini zaruruy va majburiy deb talab etadigan va turli xil shakliy ko`rinishlar bilan beriladigan umumlashgan ma'no tuir nima deb ataladi?

- A. Grammatik ma'no
- B. Umumiy ma'no
- D. Xususiy ma'no

2. Qaysi Grammatik ma'no so`zning lug`aviy ma'nosi, matn, qurshov bilan aloqador bo`ladi?

- A. Umumiy grammatik ma'no
- B. Xususiy grammatik ma'no
- D. Oraliq grammatik ma'no

3. Grammatik ma'nolar nechta usl bilan ifodalanadi?

- A. 8 ta
- B. 9 ta
- D. 10 ta

4. Tilimizda grammatik ma'noni ifodalashning eng ko'p tarqalgan usuli qaysi?

- A. Affiksatsiya
- B. Yordamchi so'zlar
- D. Ohang

5. Qaysi usul yordamida har xil so'zlarni – ma'nodoshlarni (*baxt-saodat*), zid ma'nolilarni (*yaxshi-yomon*), giponimlarni ulov- (*ot-eshak*), darajalanuvchilarni (*qo'y-qo'zi*), umumiste'mol arxaizmlarni (*bola-chaqa, cho'pon-cho'liq*) – o'zaro qo'shish orqali har xil grammatik ma'nolarni ifodalash mumkin?

- A. Affiksatsiya
- B. Takror
- D. Juftlash

Mavzu: Ot va uning ma'noviy guruhlari. Atoqli va turdosh otlar haqida umumiy ma'lumot. Atoqli ot turlari

Reja:

1. Ot va uning ma'noviy guruhlanishi (atoqli va turdosh, muayyan va mavhum ma'noli otlar).
2. Atoqli otlar va ularning mazmuniy guruhlari.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

Ot lug'aviy ma'no guruh (LMG)lari, atoqli ot, turdosh ot, muayyan (aniq) ot, mavhum ma'noli ot, xayoliy mavjudotlarni atovchi ot, antroponim, zoonim, toponim, xrononim, astrononim, xrematonim, teonim, mahsulot nomlari, qo'shma joy nomlari, so'z birikmasi, [aniqlovchi-aniqlanmish] qolipi.

Otlar borliqdagi qanday narsalarning nomini bildirishiga ko'ra atoqli va turdosh otlarga bo'linadi. Atoqli otlar umumiy tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan otlar sifatida narsa, predmet, buyum, voqea-hodisalarni mustaqil predmet sifatida ifodalaydi. Boshqacha qilib aytsak, atoqli otlar bir marta nomlangan predmetlardan bittasini ajratish uchun qayta nomlangan ikkilamchi nomdir. Ular yakka shaxs, narsa, joy, mahsulot, tashkilot, muassasa nomlarini ifodalab keladi. Atoqli otlar matndan, nutq vaziyatidan uzilgan holda atash ma'nosiga ega bo'lmaydi va ular kontekstda reallashadi. Masalan, "*Lobar*" so'zining turdosh ot yoki atoqli ekanligi shu so'zning qurshovida bo'lgan birliklardan anglashiladi. Bu jihatdan atoqli otlar olmoshlarga I ishora so'zlarga o'xshaydi. Turdosh otlar ot turkumiga kirgan so'zlarning asosiy qismini tashkil qiladi. Turdosh otlar bir turdagi narsa, voqea-hodisa, harakat-holat, o'rin-joylarni atab keladi. Ular narsa - predmet, predmetlik kabi zotlarni (borliqning alohidaliklarini) nomlab kelganligi sababli bu kabi otlarda ma'no jihatidan zotlik (alohidalik) ma'nosi belgi ma'nosi bilan uzviy bog'langan bo'ladi,

chunki har qanday narsa bir belgi- xususiyatlarning majmuasi sifatida yuzaga chiqadi. Tilshunoslar ot turkumida zotiylik va sifat ma`nolarining bir-biridan ajralmaganligini ta`kidlashgan.

Muayyan otlarda narsa turli sifatning barqaror butunligi, yaxlitligi tarzida talqin etiladi. Mavhum otlar turi turli narsalarda mavjud bo`lgan bir xil yoki o`xshash sifatlarni bir alohidalik tarzida ifoda etadi. Masalan, *olma, qovun, shakar, qand* va h.k.

Muayyan otlarning muhim sifat belgisi "shirinlik" bo`lsa, "shirinlik" mavhum otida yuqoridagi narsalarda mavjud bo`lgan umumiy belgi bir alohidalik sifatida beriladi. Shuning uchun muayyan va mavhum otlarning farqli tomoni faqatgina ularning haqiqiy (*kitob, olma, eshik*) va xayoliy (*sevgi, ishq, shirinlik*), umumiy va yakka narsalarni ifodalay olishida emas, balki belgi, sifat ma`nosining qay usulda talqin etilishida hamdir.

Atoqli otlar va ularning mazmuniy guruhi. Atoqli otlar borliqdagi nimalarning xususiylashtirilgan nomi ekanligi nuqtai nazardan quyidagi guruhlariga bo`linadi:

1. Kishi, shaxs nomlari (antroponimlar)- *Tursunoy, Mansur*.
2. Hayvon nomlari (zoonimlar) - *Olapar, To`rtko`z*.
3. O`rin- joy nomlari (toponimlar)- *Markaziy Osiyo, Buxoro, Quyi Chirchiq, Arabxona*.
4. Mahsulot nomlari- "*Lazzat*" kabobi, "*Qoraqum*" shokoladi, "*Atirgul*" sovuni.
5. Voqea -hodisa nomlari (xrononimlar)- *Xotira kuni, "Navro`z" bayrami, somoniylar davri*.
6. Osmon jismlari nomlari (astronomimlar)- *Hulkar, Mirrix, Quyosh, Zuhra*.
7. Olloh va ilohiy tushunchalarni bildiruvchi atoqli otlar (teonimlar)- *Olloh, Muhammad, Yusuf, Iso*.
8. Madaniy buyum nomlari (xrematonimlar) "*Orlov*", "*Antonov*" olmosi.

O`zbek xalqi kishi ismlari o`ziga xos xususiyatga egadir. Chunki o`zbek xonadoni farzandiga qo`yilgan har bir ism juda purma`no bo`lib, tarkibi rang -barang erkalash, hurmat, mansab, urug` ma`nolarini ifoda etuvchi qo`shimcha va so`zlardan tashkil topgandir. Kishi nomlari tarkibida *Abdu-, -qul, -boy, -xon, -jon, -oy, -sho, -xo`ja, -bek, -to`ra, -bonu, -bibi, -ulla, -yor, -berdi, -zoda, -buvi, -bobo* kabi qator ko`rsatkichlar mavjud bo`lib, ularning imlosi o`ziga xos xususiyatga egadir.

Atoqli va turdosh otlar bir - biridan faqat semantik tomondangina farq qilmay, grammatik jihatdan ham farqlanadi. Atoqli otlar, odatda, birlik shaklida kelib, ko`plikda qo`llanmaydi. Atoqli otlar grammatik ko`plik belgisini olganda umumiy belgi - xususiyatga ega bo`lgan shaxs va predmetlar guruhini, bir xil ataladigan yoki o`zaro qarindoshlik munosabatidagi shaxslarni anglatadi: *Ahmadjonlar shu mahallada yashaydi. Katta Farg`ona kanalini farhodlar qazidi.*

-lar bu hollarda ko`pincha o`xshashlik asosida jamlik (ko`plik miqdori)ni ifodalaydi. Kishi nomlariga qo`shilgan *-cha* qo`shimchasi kichraytirish, kesatish, kamsitish ma`nolarini, *-gina* esa erkalash-achinish ma`nolarini ifodalaydi: *Salimcha "Chilonzor" dahasidan ko`chib kelgan edi, Manzuraginam ko`p uqubatlarni tortdi.*

O`rin -joy nomlarining quyidagi LMGLarini ko`rsatib o`tish mumkin:

1. O`lka - *Kavkazorti o`lkasi, O`zbekiston*.
2. Viloyat - *Toshkent, Buxoro viloyatlari*.
3. Shahar - *Samarqand, Qo`qon*.
4. Tuman - *Qorako`l, Izboskan*.
5. Posyolka- *Qorovulbozor posyolkasi*.
6. Daha - *Yangibozor dahasi*.
7. Mahalla- "*Kunji qal`a*" mahallasi.
8. Qishloq - "*Yangi turmush*" qishlog`i.

Atoqli joy nomlariga ham *-lar* ko`plik qo`shimchasi qo`shiladi va shu joy, uning atrofiga ishora qiladi: *Qo`qonlarni ko`rib keldim*. [Belgi nomi+ atoqli ot] qolipli joy nomlari [aniqlovchi+aniqlanmish] qolipli so`z birikmalaridan va qo`shma joy nomlaridan farq qiladi. [Belgi nomi+atoqli ot] qolipli joy nomlari bosh harflar bilan ajratib yoziladi: *Shimoliy Kavkaz, O`rta Osiyo, Kichik Osiyo*. Qo`shma joy nomlari ham bosh harf bilan, ammo qo`shib yoziladi:

Oltiariq, Yangiyo`l, Qorako`l. [Aniqlovchi+aniqlanmish] qolipli so`z birikmalari esa kichik harflar bilan yoziladi: *yangi yo`l, yangi bozor* va boshqalar. Bularning joy nomi yoki so`z birikmasi bo`lib kelganligi matndan anglashiladi.

Mahsulot nomlari ham yuqorida ko`rsatib o`tilgan atoqli ot ko`rinishlari kabi o`zining ichki guruhlanishiga ega: a) ovqat nomlari ("*Guliston*" *sho`rva*, "*G`ijduvon*" *kabobi*); b) salat nomlari ("*Oltin kuz*" *salati*, "*Navro`z*" *salati*); v) ichimlik nomlari ("*Toshkent*" *mineral suvi*) ; g) shirinlik nomlari ("*Lazzat*" *konfeti*, "*Qoraqum*" *shokoladi*). Shunga o`xshash kukun, sovun, mato kabi yuzlab mahsulot nomlarini misol qilish mumkin.

Voqea -hodisa nomlariga tarixiy voqea - hodisalar, bayramlarning nomlari (*Navro`z bayrami, Xotira kuni, Ramazon bayrami, Birinchi Jahon urushi*) kiradi. Osmon jismlari nomlari, ilohiy tushunchalarni, madaniy buyum nomlarini atab keluvchi atoqli otlar ham bosh harflar bilan yozilib, o`ziga xos guruhlanishni hosil qiladi.

Atoqli otlar turdosh otlardan nafaqat semantik, grammatik jihatdan, balki sifat belgisiga ega bo`lishi bilan ham farqlanib turadi. Shuning uchun ayni bir atoqli ot (masalan, *Salima* yoki *Yangi bozor*) o`nlab turli zotlarga (ayollarga va joylarga) nisbat berilishi mumkin: biz istagan narsani *k i t o b* deb atay olmaymiz, lekin istagan o`zbek ayoliga *Salima* ismini shartli ravishda nisbat bera olamiz.

Adabiyotlar:

1. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. 1999 йил, 1-махсус сон, 99-101-бетлар.
2. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. ва бошқалар. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Тошкент, 2001 йил, 54-57-бетлар.
3. Гурсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1992 йил, 251-253-бетлар.

SLAYDLAR

■ **Son-miqdorga munosabatiga ko'ra ot turkumidagi so'zlar (shakllarning birinchi qismi) avvalo uch turga bo'linadi:**

- 1) sanaladigan ot, (bola, kitob, ko'z), jamlovchi ot (xalq, qo'shin), atoqli ot (Zulfiya), juft ot (qozon-tovoq, aka-uka) va takroriy ot (qop-qop) kiradi.
- 2) sanalib-sanalmaydigan ot, Sanalib-sanalmaydigan otga *fikr, so'z, qonun, bayram* kabi ayrim mavhum ot kiradi.
- 3) sanalmaydigan ot. *ishonch, muhabbat, qayg'u, go'zallik, sukunat, uyqu* kabi mavhum ot hamda *shakar, tuz, yog', moy, suv, guruch, qor, yomg'ir, g'avo, tuproq* kabi mayda qism yoki zarrachalardan tuzilgan ot kiradi.

TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MATERIALLAR (Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)



**"МАЛАКА ОШИРИШ ТИЗИМИ
УЗВИЙЛИГИНИ
ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА
АХБОРОТ ХИЗМАТИ: МУАММО ВА
ЕЧИМЛАРИ" мавзусидаги
Республика илмий-амалий
конференция
МАТЕРИАЛЛАРИ**

Бухоро топоними хусусида

Эълон қилинган сана: 19.12.16 10:46

Тилимизнинг луғат гуруҳид аатоқли отлар маълум бир ўрин эгаллайди. Кишиларнинг исмлари, фамилиялар, тахаллуслар, географик номлар, ҳайвонларга атаб қўйилган номлар борки, улар атоқлиотлар саналади. Жумладан, атоқлиотлар доирасига қирувчи номлар орасида топонимлар салмоқли ўринни эгаллайди. Топоним сўзи асли грекча бўлиб, топос- жой, онома- ном сўзларидан ташкил топган бўлиб, жой номи маъносини англатади.

Дарҳақиқат, ҳар бир жой номининг ўз тарихи, ўзига хос хусусиятлари мавжуд. Улар халқ ҳаётининг турли томонларини ўзларида акс эттириб, кўпинча шу ҳудудда яшаган маълум бир халқ ҳаёти, яшаш турмуши билан боғлиқ ҳолда содир бўлади.

Бухоро топоними, унинг луғовий маънолари тўғрисида хилма-хил фикрлар олимлар ўртасида ҳамон баҳс талаблғича келмоқда. Чунки, жуда катта тарихга эга Бухоро шаҳри ўзининг ажойиботлари билан жаҳонга машҳур саналади.

Таниқли тилшунос олимларнинг фикрича Бухоро санскритча «**Вухаро**» сўзидан олинган бўлиб «ибодатхона» маъносини билдиради деган фикрлар бор. Бухоро сўзининг луғовий маъноси, унинг аталиб келиши борасида хилма-хил фикрлар мавжуд. Айниқса, бу борада рус тилшуносларидан В. Лившиц фикрича *бухагосўзи* сўғд тилига пархар шаклида кириб келган. Ҳофиз Таниш ёзишича «**Бухоро**» сўзи *бухор* сўзидан келиб чиққан бўлиб ўтпарастлар тилида «килм макони» демакдир. Бу талаффуз уйғур ва хитой тилларига яқин, чунки (уларда) сиғиниш жойлари бутпарастларининг маъбудаларни «бухор» деб атайдилар. Бухоро шаҳрининг номи аслида лумижкат бўлган Бухорийнинг «**Абдуллонома**» асарида.

Наршахий Бухоронинг **Нумижкат**, **Бумискат**, **Мадикат** **ут- тужжор**, яъни «*савдогар шаҳри*» деган номлари борлигини айтиб ўтади. Шунингдек, буюк аллома ўз асарида **Бухорога** шундай таъриф берган: «Бухоро деган ном у номларнинг ҳаммасидан машҳурроқдир. Хуросон шаҳарларидан биронтаси ҳам бунчалик кўп номга эга эмас. Бир ҳадисда **Бухоро** номи *Фохира* бўлиб келган». Халқ орасида **Бухоро** **Боғора** деган ривоят ҳам бор. Тўғрисида айтиш лозимки, ҳалигача Бухоро сўзининг этимологияси аниқ эмас.

Дарҳақиқат, Бухоро топоними ёлғиз эмас. XI- XII асрларда Балх шаҳри атрофларида **Навбеҳар** деган ибодатхона, Самарқанд билан Бухорода **Навбеҳар** дарвозалари бўлган. **Навбеҳар** «*эрта баҳор*» эмас, балки «*янги ибодатхона*» демакдир. Бухоро шаҳри этимологияси билан Ҳиндистондаги **Бихар** штатининг этимологияси бир эканлигини тилшунос олим В. А. Никонов ўз илмий тадқиқотларида келтириб ўтади. В.В. Шостакович Сибирда **Бухоро** номли дарё борлигини тилга олади. Бухоро яқинида *Дул Бухоро (Жул Бухоро)* номли қишлоқлар бўлган. Бухоро қишлоқларининг бири **Бухоро хитвар** (*Нажжар-хитфар*) деб аталган. Бир вақтлар Бухоро ҳокимлари «*бухорхудот*» деб ҳам номланиб келинган. Айниқса Республикамизда **Бухоро** компоненти билан аталадиган бир қанча топонимлар мавжуд. Масалан, Бекобод яқинида **Бухорарик**, Қашқадарё вилоятининг (*Китоб, Ғузор туманларида*) **Бухортўпор**, **Бухори**, **Хўжабухори** номли маҳалла, жой номлари бор. Шунга ўхшаш топонимларни республикамизнинг турли қишлоқ, маҳаллалари, кўчалари номларида ҳам учратиш мумкин.

Қадимги туркий руник ёзувда- Қултегинга бағишланган ёдгорликда *Буқарақ* деган жой номи учрайди (*Буқарақ улис- Бухоро эли*). Бу жой номига С. Е. Малов бемалол **Бухоро** деб изоҳ берган. Академик Б. Я. Владимирцев ўша ёдгорликда **Сўғд** номи ҳам учрашини айтади ва *Буқарақ* ҳақиқатан **Бухоро** деган сўз бўлса, ўйрат (олтой) қаҳрамон эпосларида *бухарин черик*, яъни «**Бухоро қўшинлари**» деган тахминларни келтиради.

Хулоса қилиб шуни айтиш жоизки, ҳар қандай жой номи ўз замонасининг маҳсули, тарихий ёдгорлиги, аҳоли муайян тилда қолдирган эсталигидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. И. Каримов. Юксак маънавият –енгилмас куч.Т., Маънавият, 2008 .94-95-б.
2. С. Қораев. Географик номлар маъносини биласизми? Т., 1970, 115- б.
3. З. Дўсимов., Х. Эгамов. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. Т., 1977, 55-56-б
4. Н. Охунов. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. Т., 1989, 39-40-б.
5. Н. Охунов. Жой номлари таъбири. Т., 1994, 51-56-б.
6. М. Қошғарий. Девону луғати турк. Т., 1967, 375-379 б.
7. Т. Эназаров. Ўзбекистондаги баъзи топонимларнинг этимологик талқини. Т., Университет.2004, 49-б.

Жойлаштирди: Холмуратов Икром Окманович

AMALIY MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

Matndan atoqli otlarni toping, ularning yozilishiga alohida e'tibor bering.

Nosir Xisrav

Mashhur shoir va davlat arbobi Nosir Xisrav 1004-yili hozirgi Tojikistonning Qobodiyon shahrida tug'ilgan. Ona yurtida xat-savodini chiqargan Nosir Xisrav Balx va Marv shaharlarida madrasada tahsil ko'rgan. Saljuqiylar saroyida 17 yil soliq mahkamasining boshlig'i bo'lib ishlagan. 1040-yil vazifasidan iste'fo bergan Nosir Xisrav 7 yil Sharq mamlakatlarini kezib chiqadi, uch marotaba piyoda hajga boradi. 1063-yil ko'p sarsonliklardan so'ng Tog'li Badaxshonning Yumg'on qishlog'ida o'rnashib, muallimlik qiladi, ilmiy, badiiy ijod bilan mashg'ul bo'ladi. 1088-yili shu yerda vafot etadi.

Nosir Xisrav Sharqda adolat, xalqparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyasini dadil kuylagan shoir, jasoratli fiqh donishmandi sifatida shuhrat topgan. Undan bizga qadar arab va forsiy tillardagi she'rlar devoni, "Zodul musofirin" (Musofirlarning yo'l oziqasi), "Ro'shnoinoma", "Saodatnoma", "Safarnoma" hamda din va so'fizm nazariyasiga doir bir necha risolalar meros bo'lib qolgan. Nosir Xisravning ayrim she'rlari professor

Sh. Shomuhamedov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Ot yasovchi qo'shimchalarni toping.

Bilim, ishonch, darsxona, talabgor, tortma, tilagim, boshga, etik, qalbingga, seni, sevinch, yuksak, sirdosh, mehnatkash, quvonch, to'kinlik, chiqindi, bolaligim, guldon, boshlovchi, yog'ingarchilik, loyihalash, sezgi, ko'zgul, mashinadan.

Quyidagi hikmatlarni o'qing. Ot so'z turkumiga oid so'zlarni toping.

1. Dunyoda baxt degan narsa ba'zan juda adolatsizlik bilan taqsim qilinar ekan.
2. Hech narsa ko'z yoshiday kishining yuragini bo'shatmaydi.
3. Qalbimizga vijdon otli nuri ilohiy joylashtirilgandir.
4. O'z qalbingni qusurlardan tozala, odamlarning qalbini ardoqla.
5. Mahzun tabassumda maftun etuvchi cheksiz bir narsa bor.

SEMINAR MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR. TEST.

Ot so'z turkumi bo'yicha testlar...

1. Ot sinonimlar berilgan qatorni toping.
 - A) odam-inson-kishi-kimsa-bashar
 - B) avval-ilgari-burun-oldin-qadim
 - C) hamma-barcha-bari-jami-butkul
 - D) uyatsiz-benomus-behayo-hayosiz
2. Qaysi qatordagi so'zlar faqat ot turkumiga mansub?
 - A) kelma, o'qima, tugma
 - B) gazlama, childirma, ko'rsatma
 - C) yasama, qaynatma, to'qima
 - D) yigirma, sekinlama, surma
3. Qaysi qatorda faqat otlar berilgan?
 - A) uchqun, to'lqin, bilimdon, qalamdon
 - B) yong'in, toshqin, tuzdon, kuldon
 - C) tuyg'un, keskin, qumdon, xumdon
 - D) so'lg'in, turg'un, suvdon
4. Qaysi javobda otga xos bo'lgan sintaktik vazifa noto'g'ri ko'rsatilgan?
 - A) ega vazifasida keladi
 - B) kesim vazifasida qo'llanadi
 - C) undalma vazifasida kelmaydi
 - D) to'ldiruvchi vazifasida keladi
5. Ot qaysi so'z turkumidagi so'zlar bilan birika olmaydi?
 - A) ot, sifat
 - B) olmosh
 - C) ravish, fe'l
 - D) ot mustaqil so'z turkumlarining barchasi bilan birika oladi
6. Otlarning gaplarda bajaradigan vazifalari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
 - A) undalma bo'lib keladi
 - B) bosh bo'lak vazifasini bajaradi
 - C) ikkinchi darajali bo'lak bo'lib ketadi
 - D) A, B, C javoblar to'g'ri
7. Qaysi qatorda "oy" so'zi ot turkumiga xos sintaktik vazifani bajargan?
 - A) Oy osmon dengizida suzib bormoqda.
 - B) Uydan oy yuzli qiz chiqib keldi.
 - C) Oy borib, omon kel, o'g'lim!
 - D) B va C javoblar to'g'ri

8. Iste'dodli shoirlar: Suvon Soqiy, Ismoil To'xtamishev, Rustam Musurmon, Sharofat Ashurova, Rustam Ochil va boshqa ijodkorlar yangi-yangi she'rlari bilan kitobxonlar qalbiga kirib bormoqdalar.

Ushbu gapda nechta shaxs oti ishtirok etgan hamda ularning nechtasi yasama hisoblanadi?

- A) 5ta shaxs oti ishtirok etgan, ulardan 5tasi yasama
- B) 3ta shaxs oti ishtirok etgan, ulardan 2tasi yasama
- C) 5ta shaxs oti ishtirok etgan, ulardan 2tasi yasama
- D) 8ta shaxs oti ishtirok etgan, ulardan 7tasi yasama

9. Qaysi qatordagi hukm noto'g'ri?

- A) ot sifat bilan birika oladi
- B) ot son bilan birika oladi
- C) ot olmosh bilan birika olmaydi
- D) ot fe'l bilan birika oladi

10. Ot antonimlarni toping

- A) olov, suv, o't, muz B) xursandchilik, sevinch, quvonch, shodlik
- C) g'alaba, mag'lubiyat, foyda zarar D) Ava C javoblar to'g'ri

11. Ot sinonimlarni aniqlang

- A) rohat, azob, kulgi, yig'i B) nur, shu'la, yog'du, ziyo
- C) ovoz, tovush, un, sado D) B va C javoblar to'g'ri

12. Otga xos eng to'g'ri hukm qaysi qatorda berilgan?

- A) ega vazifasida keladi B) kesim vazifasida keladi
- C) to'ldiruvchi vazifasida keladi D) barcha gap bo'lagi vazifasida kela oladi

13. Qaysi qatorda o'rin-joy otlari qayd etilgan?

- A) qishloq, maydon, qo'ra
- B) Sirdaryo, Amudaryo, Orol dengizi
- C) barcha javoblarda o'rin-joy otlari bor
- D) guzar, Oltiariq, saylgoh

14. Kampir Tolibjonni bag'ridan bo'shatib, hovli tomon qichqirdi: -Nima qilib turibsanlar, ayangni chaqirmaysanlarmi? Dadalaringga xabar gilmaysanlarmi? Yugur, pocchangga chop, tog'am keldi, deb ayt.

Berilgan matnda nechta shaxs oti bor va ular qanday sintaktik vazifani bajargan?

- A) 6ta; ega, hol, to'ldiruvchi
- B) 4ta; to'ldiruvchi
- C) 5ta; ega va to'ldiruvchi
- D) 6ta; ega va to'ldiruvchi

15. Qismlari mavhum otlardan iborat bo'lgan juft otlar qaysi qatorda berilgan?

- A) orzu-armon, ko'cha-ko'y, savdo-sotiq
- B) yig'im-terim, kam-ko'st, huzur-halovat
- C) fan-texnika, arzon-garov, odob-axloq
- D) kuch-g'ayrat, his-tuyg'u, aql-idrok

16. Qaysi javobda mavhum ot va jamlovchi ot berilgan?

A)armiya, xalq C) sabzavot, ish
B)el,Toshkent D)do'stlik,xalq

17. Ot turkumiga oid soʻzlar nutqda har doim qanday shaklda boʻladi?

A.Birlik yo koʻplik shaklida C.Kelishik shaklida
B.Egalik shaklini olgan holda D.A va C javoblar

18.Feʻldan ot yasovchi qoʻshimchalar berilgan qatorni toping

A.-iy , -chi B.-chi, -kash
C. –ch, -im D. –ki, -li

19.Qaysi qatorda faqat birlikda qoʻllaniladigan otlar berilgan ?

A.Koʻz, qosh, bosh B.Uyqu, sevgi, koʻngil
C.Un,yogʻ, suv D.A va B javoblarda
E. A, B, C javoblarda

20.Jamlovchi otlar berilgan qatorni toping.

A.Sabzavot, el ,aholi B.Toshkent, gullar, kun
C.Shodlik, baxt, mehr D. Ava C

Mavzu: Turdosh otlar. Ularning asosiy LMG va LMT lari. Ularning umumiy qurilish xususiyatlari, markaz va qurshovlari

Reja:

- 1.Turdosh otlarning muayyan va mavhum maʼnoli nom koʻrinishlari.
- 2.Turdosh otlarning LMG leksemalari orasidagi maʼno aloqalari.

Mavzu boʻyicha tayanch iboralar:

Lugʻaviy maʼno toʻda (LMT)lari , modda nomlari , shaxs tavsifi nomlari, oʻsimlik nomlari, oʻrin - joy nomlari, miqdor nomlari ,payt nomlari, tashkilot, muassasa nomlari, hayvon nomlari, narsa-buyum nomlari, jins - tur (giponimiya) munosabati, darajalanish (graduonimiya) munosabati, vazifadoshlik (funksionimiya) munosabati, pogʻonalilik (iyerarxita) munosabati, fitonimlarning koʻchma maʼnosi, hayvon nomlarining shaxs tavsifi uchun qoʻllanishi, narsa- buyum otlarining hosil boʻlish yoʻllari .

Turdosh otlar bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomini bildiradi. Turdosh otlar ifodalangan tushunchaning xarakteriga koʻra muayyan va mavhum maʼnoli otlarga, xayolan haqiqiy deb tushuniladigan mavjudotlarni atovchi otlar (dev, pari, ajdaho)ga ajratiladi. Muayyan aniq otlar ushlab, koʻrish, oʻlchash, sezish mumkin boʻlgan shaxs, narsa-buyumlarni atovchi otlardir. Muayyan otlarda zot (narsa) turli sifatlarning muayyan barqarorligi, butunligi tarzida talqin etilsa, mavhum otlar turi turli zotlarda mavjud boʻlgan bir xil yoki oʻxshash sifatlarni bir alohidalik tarzida ifoda eʼtadi. Shuning uchun zotlar bir sifati bilan bir-biriga monand boʻlsa, bir sifati bilan bir-biriga ziddir. Shuningdek, ayni bir xil sifat bir-biriga zid zotlarda mavjud boʻlishi mumkin. Alisher Navoiy bu qiyoslikni juda chuqur talqin etgan:

Ushoq qand garchi tuzga monand erur

Va lekin biri qand, biri tuz erur¹.

Muayyan otlar dastlab lug'aviy ma'no to'dasi (LMT) ga bo'linadi va bu LMTlar bir umumiy mavzuga oid bir necha LMGni o'zida birlashtiradi. Bu o'rinda shuni aytish joizki, o'zbek tili leksemalarining mazmun guruhleri sistem usulda anchagina o'rganilgan.² Muayyan otlar ichida quyidagi LMG larni ajratish mumkin:

- 1) modda nomlari (*oltin, kumush, qum, suv...*);
- 2) shaxs tavsifi nomlari (*yigit, chol; o'zbek, qirg'iz; bek, boy; cho'loq, kasal; kosib, qassob; ona, ota; novcha, baqaloq; olim, dono...*);
- 3) buyum nomlari (*qalam, kitob; cho'mich, kosa; gilam, sholcha; belkurak, omoch...*);
- 4) o'simlik nomlari (*daraxt, buta, o't...*);
- 5) o'rin-joy nomlari (*qishloq, shahar, sahro...*);
- 6) miqdor nomlari (*misqol, botmon, hovuch...*);
- 7) payt, vaqt nomlari (*kun, fasl, tong, kecha...*);
- 8) tashkilot, muassasa va joy nomlari (*maktab, idora, do'kon, bozor...*);

Bunday mavzu guruhlarini ko'plab keltirish mumkin. Mavzu guruhlarini ajratish lisoniy tabiatga ega bo'lib, bunda lisoniy xususiatlarga tayanilmog'i lozim.

I. Shaxs tavsifi nomlari shaxsni ma'lum bir belgisi asosida atab, nomlab keluvchi otlardir. Bunday otlar [ot+ot] birikmalarida agar ikkinchi ot ham shaxsni nomlovchi leksemaga mansub bo'lsa, egalik qo'shimchasini talab etmaydi (*yigit, bola, kasal, kishi*). Shu asosda tilshinoslikda hali ot, hali sifat tarzida talqin etib kelinadi. Shaxs otlari quyidagi LMG larga ajraladi:

- 1 Shaxsning yoshi jihatidan tavsifi (*chaqaloq, go'dak, o'smir, o'spirin...*).
2. Shaxsning qarindoshlik jihatidan tavsifi (*bobo, kuyov, jiyan, kelin...*).
3. Shaxsning kasb jihatidan tavsifi (*suvchi, shifokor, dorboz...*).
4. Shaxsning istiqomat joyiga ko'ra tavsifi (*toshkentlik, shaharlik...*).
5. Shaxsning tashqi belgilari jihatidan tavsifi.
6. Shaxsning ichki belgilari jihatidan tavsifi.
7. Shaxsning nasl-nasabiga ko'ra tavsufi (*xo'ja, bek, qul, cho'ri...*).

Xuddi shunday shaxs tavsifi otlarining yana bir necha LMG lari bor. Yuqorida zikr etilgan shaxs otlarining o'ziga xos morfologik xususiyatlari mavjud, ya'ni bunday otlarga *-lar, -cha, -gina* (*-kina, -gina*) qo'shimchalari qo'shilganda hosil bo'ladigan ma'nolar; [ot+chi], [ot+dosh], [joy nomi+lik] qolipli shaxs otlarining hosil qilinishi; tarkibida "qayin" so'zi bor bo'lgan qarindoshlik (*qaynona, qaynopa*) otlari va bunday qo'shma otlar ma'nosi hamda imlosi va boshqalar.

II. Hayvonot otlari. Bunday otlar dastlab uy hayvonlari va yovvoyi hayvon otlariga ajratiladi. Uy hayvonlarining quyidagi LMGlari mavjud.¹

- 1) "qoramol" LMG: (*sigir, buzoq, tana, g'unajin ho'kiz, buqa, govmish...*);
- 2) "ot" LMG: (*ot, baytal, biya, ayg'ir, saman, yo'rg'a, yobu, to'riq, jiyron, bedov toy...*);
- 3) "qo'y" LMG: (*qo'y, qo'chqor, qo'zi, baqlan, hisori, arabi, merikos...*);
- 4) "echki" LMG: (*echki, taka, serka, uloq...*);
- 5) "it" LMG: (*it, qanjiq, ko'ppak, bo'ribosar, tozi, gurji, kuchuk...*);
- 6) "eshak" LMG: (*eshak, mocha, xo'tik, xachir...*);
- 7) "tovuq" LMG: (*tovuq, xo'roz, mokiya, jo'ja...*).

Hayvon otlarining o'z va ko'chma ma'noda qo'llanilishi, shaxs tavsifi uchun qo'llanuvchi hayvon nomlarining nutqiy mohiyati tilshunosligimizda til (lison) va nutq farqlanishi asosida o'rganilgan².

¹ Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серкирралиги ва уни тасниф қилиш асослари НДА. Бухоро, 1994 йил.

² Қўчқортюев И. Сўзларнинг лексик-семантик тўдалари ҳақида. «ТошДУ илмий асарлар», 359-чиқиш, 1969 йил. Расулов. Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари Тошкент, 1989 йил. Нарзиева. М. Қон-қариндошлик номларининг компонент таҳлили. ЎТА, 1986 йил, 5-сон. Саидова. Х. Ўзбек тилида ҳайвон номларининг шахс тавсифи вазифасида қўлланиши. НДА, Самарқанд, 1995 йил. Неъматова Г. Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемалари: тизими ва бадий қўлланиши. НДА, Тошкент, 1998 йил ва бошқалар.

¹ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент, «Ўқитувчи», 1998 йил, 113-бет.

Hayvon nomlarining shaxs tavsifi uchun qo'llanishining, boshqacha qilib aytganda, ko'chma ma'nolar hosil bo'lishining o'z ichki yo'llari, qonunlari mavjuddir. Bu turdagi ko'chma ma'nolar hayvonlarning tashqi ko'rinishlari, harakati, biologik xususiyatlari, ovoz (tovush) va fe'l-atvori, tabiati kabi turkum belgilarga xos bo'lgan ichki nisbiy mustaqil turlarning (alohida har xil belgilarning) semalar sifatida o'zaro bog'lanib, sememalar hosil qilishi zaminida shakllanadi: (*Burgut-ovchi qush; Rahmonqulning kimligini bilmaydiganga o'xshaysan. U burgutning o'zi-ku!; Mirzakarimboy tulki odam;*)

Kishi nomlari tarkibida hayvon otlari ham ishlatiladi va bu qandaydir ramziy ma'noga ega bo'ladi : *Shermuhammad, Arslonbek, Po'latbulbul* va boshqalar.

III O'simlik nomlari. O'zbek tili nabotot olami nomlarining tasnifi olimi G. Nematova tomonidan batafsil o'rganilgan. Fitonimlar o'zbek tilida ko'p ma'noli bo'lib, badiiy nutqda ko'chma va ramziy ma'nolarda ishlatiladi, o'ziga xos LMG lariga (*daraxt nomlari, gul nomlari, o't-o'lan nomlari...*) ega bo'ladi.

IV Narsa-buyum otlari doirasi ancha kengdir. Bularga oziq-ovqat otlari, kiyim-kechak otlari, o'quv qurollari nomlari, uy-ro'zg'or buyumlari nomlari, madaniy ashyo otlari kabi yuzlab turdosh otlarni misol keltirish mumkin. Bu turdagi otlar o'ziga xos morfologik strukturaga ega bo'ladi. O'zakka rang-barang yasovchi qo'shimchalar qo'shilib narsa-buyum otlarini hosil qiladi: *suzgich, yelpig'ich, qalamdon, o'roq, taroq, bezak, qatlama...*

Muayyan otlarning boshqa LMGlari ham xuddi yuqoridagi otlar kabi ichki bo'linuvchanlikka egadir. Qisqasi, muayyan otlar LMGlari nisbatan barqaror va o'ta keng, deyarli cheklanmagan va o'zgaruvchan qurshovlardan iboratdir. LMG markazidagi leksemalar o'zaro jins-tur (giponimik), butun-bo'lak (partonimik), darajalanish (graduonimik), vazifadoshlik (funksionimik) va pog'onalilik (iyerarxonimik) munosabatlarida turadi. "*Daraxt*" o'simlik nomi (fitonim) quyidagi jins-tur munosabatlari bilan bog'lanadi: *qayin, tol, terak, baqaterak, majnuntol, archa...* "*Daraxt*" ot so'z turkumiga mansub bo'lgan leksema butun-bo'lak munosabatlari bilan bog'lanib, butun bosh leksema "*daraxt*" bilan, bo'laklar esa "*ildiz, shox, barg*" leksemalari bilan ifodalanadi. Vazifadoshlik asosida tuzilgan LMGlari miqdori ancha oz. Ular, asosan, narsa-buyum otlarida aniqlanadi. Chunonchi, *qalam, ruchka* va boshqalar. Ot so'z turkumiga mansub ba'zi leksemalar quyidagi darajalanish qatoriga ega bo'ladi:

1[*qiz*]-[*juvon*]-[*ayol*]-(*yoshiga ko'ra*).

2[*qulun*][*toy*]-[*g'o'nan*][*do'nan*].

3[*o'gil*]-[*o'smir*]-[*o'spirin*] -[*yigit*]-(*yoshiga ko'ra*).

4[*nihol*]-[*ko'chat*]-[*daraxt*].

5[*qishloq*]-[*kent*]-[*shahar*]-(*hajmi, aholisi va obodonligiga ko'ra*).

6[*nasim*]-[*shabada*]-[*shamol*]-[*yel*][*bo'ron*].

Adabiyotlar:

1. Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серқирралиги ва уни тасниф қилиш асослари. НДА. Бухоро, 1994 йил.
2. Нарзиева М. Қон-қариндошлик номларининг компонент таҳлили. ЎТА, 1986 йил, 5-сон.
3. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент, «Ўқитувчи», 1998 йил.
4. Неъматова Г. Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемалари: тизими ва бадий қўлланиши. НДА, Тошкент, 1998 йил.
5. Саидова Х. Ўзбек тилида ҳайвон номларининг шахс тавсифи вазифасида қўлланиши. НДА, Самарқанд, 1995 йил.

² Саидова Х. Ўзбек тилида ҳайвон номларининг шахс тавсифи вазифасида қўлланиши. НДА, Самарқанд, 1995 йил.

6. Кўчкортёв И. Сўзларнинг лексик-семантик тўдалари хақида. «ТошДУ илмий асарлар», 359-чиқиш, 1969 йил.

SLAYDLAR





TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MATERIALLAR(Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)

Д.Йўлдошева (Сам ДУ) ОРНИТОНИМ КОМПОНЕНТЛИ ИБОРАЛАРНИНГ НУТҚДА ҚЎЛЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Маълумки, ўзбек тилида қатор фразеологизмлар *хўроз, товуқ, майна, қарға, турна, олашақшақ, бургут, лочин, укки, чумчуқ* сингари куш номлари (орнитонимлар)нинг у ёки бу хусусиятларини тимсоллаштириш, кўчма маънода қўллаш асосида шаклланган. Кушлар олами, айниқса хонаки кушларининг инсон ҳаёти ва хўжалигида муҳим ўрин тутиши туфайли тилимизда ҳам уларнинг номлари (орнитонимлар) билан боғлиқ бўлган кўчма маъноли сўзлар, фразеологизмлар кўп қўлланади. Орнитонимларнинг ҳар бири нутқ жараёнида маълум бир салбий ёки ижобий, қиёсий ва кўчма, рамзий ва мажозий маъноларни ифодалашга хизмат қилади.

Масалан, одамга хос гердаиш хусусияти халқимизда *ғоз* сўзи (зооними) билан боғланади. Масалан, *ғоз юриш (кеккайиб юриш), ғоз қараши (менсимай, димоғдорлик билан қараши)* каби иборалар шундай хусусиятга эга: *Аёл ғоз юриши билан кўчага чиқди* (Саид Аҳмад.

Уфк); *Бону ўрнига бориб ўтириб, залдагиларга бир гоз қараш қилиб қўйди* (Ҳ.Ғулом. Бинафша атри) кабилар. Келтирилган мисоллардаги салбий хусусиятларга эга бўлган кишилар (бу ўринда аёллар)нинг хатти-ҳаракати ғознинг хатти-ҳаракатига мос келади.

Орнитонимлар иборалар таркибида иштирок этиб, одамзодга хос бўлган турли эмоционал-экспрессив ҳолатларни ифодалашга хизмат қилади. Масалан, *оёғи куйган товўқдай // оёғи куйган товўқдек* ибораларида ўзини кўярга жой топа олмаган киши ҳолати тасвирланган, чунки бу иборалар «безовталиқ билан, зир югуриб, ўзини ҳар ёққа уриб» каби маъноларни ифодалайди: *Одамлар оёғи куйган товўқдек пишиллаб югурдилар* (Саид Аҳмад. Ҳукм) ва ҳоказо.

Думи юлинган мусичадай // думи юлинган товўқдай иборалари эса «бир ери ёки бир нарсаси етишмагандай, беўхшов» маъноларини билдиради (ЎТИЛ, 1, 238): *Бердибой гарчи шаҳардан думи юлинган мусичадай бўлиб келган бўлса ҳам, фазлсиз эмас эди* (Абдулла Қодирий. Обид кетмон) кабилар.

Хўроз йигит (мард йигит) иборасида мард йигитнинг кўриниши хўрозга ижобий маънода таққосланади: - *Ганивой жуда бопта иш қипти, бунақа ишни йигитнинг хўрози қилади,- деди Бургут* (Саид Аҳмад. Чўл бургути) кабилар. *Хўроз гап (гапнинг асоси, хулласи)* ибораси эса сўзлашув нутқида «дангал бўлиш лозим» деган маънода қўлланади: *Мен сизга гапнинг хўрозини айтсам, Мухторхон, шунча аскар билан Қумқишлоқни олса бўлади, холос* (Ҳамид Ғулом. Машғал) кабилар.

Шунингдек, тилимизда *хўроз* орнитоними асосида «пайт, жуда барвақт» маъносини ифодаловчи *хўроз қичқирмасдан* ибораси ҳам шаклланган (ЎТИЛ, II, 347): *Врач қабулига биринчи бўлиб ёзилай деб, хўроз қичқирмасдан келгандим* (Н.Аминов. Елвизак) ва бошқалар.

Тилимизда ёш, ғурурли йигитчаларга нисбатан *жўжахўроздек бўйнини чўзмоқ, жўжахўрозлик қилмаслик* каби иборалар қўлланади. Бу ибораларда жўжахўрознинг ҳолати ёш йигитчага нисбатан таққосланади. Бу ўринда ёш тушунчаси муҳим аҳамият касб этади: *Ориқ косиб йигитча жўжахўроздай бўйнини чўзиб қичқирди* (Ойбек. Қутлуг қон) кабилар.

Тилимизда *жўжа* орнитоними асосида *жўжабирдай жон // жўжабирдек жон* иборалари шаклланган бўлиб, кўп болали, аёлманд кишиларга нисбатан қўлланади: *Жўжабирдек жонман, болам, бошлиқ биладилар. Бир бева қизим уч боласи билан уйда ўтирипти, ўзимда тўрт бола...* (Ҳамид Ғулом. Машғал) ва бошқалар.

Шундай қилиб, тилимизда орнитонимлар асосида шаклланган иборалар нутқ жараёнида хилма-хил услубий ва эмоционал-экспрессив хусусиятлари билан ажралиб туради. Бу муаммони тадқиқ этиш нутқ лингвистикаси соҳасининг долзарб муаммолари қаторига киради.

AMALIY MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

Mavhum otlarni toping.

Armonli dunyo

Goho saholarda tentirab yurdim,
Goho telbalardek yig'ladim, kuldim,
Goho samolarda parvoz ayladim,
Oqqushga aylanib qolg'im keladi.
Ko'nglim torlarini uzib tashladim,
Yuragim burgutga yulib tashladim
Sevgi-muhabbatim ko'mib tashladim,
Oqqushga aylanib qolgim keladi.
Kimlar do'st, kim raqib bila olmadim,
Vafo-sadoqatni topa olmadim,
Dunyo jumboqlarin yecha olmadim,

Oqqushga aylanib qolgim keladi.

Kechdim bu dunyoning adolaridan,
Qochdim soxtalik-u riyolaridan,
Kul bo'ldim yomonlar ig'volaridan,
Oqqushga aylanib qolgim keladi.

Ko'chiring. So'zlardagi ko'plik, egalik qo'shimchalarining qo'shilishiga e'tibor bering. Ularning o'rin almashishidagi ma'noviy –uslubiy xususiyatlarini tushuntiring.

Farzandim-farzandimiz. Boshim-boshlarim, iztiroblar-iztirobimiz, kuyov-kuyovingiz, yuzlarim-yuzim, do'stim-do'stginam-do'stlarim, uyimizda-uyularimizda, hayajonimiz-hayajonlarim, xirmon-xirmonlarim-xirmonimiz, dilim-dillaringiz-dilimiz, ko'zdan ayrildi-ko'zidan ayrildi, mashinadan chiqdi-mashinasidan chiqdi.

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR. TEST.

Ot so'z turkumi bo'yicha testlar...

1. *Ost, ust, yon* so'zlari qaysi turkumga mansub?
A. Ot
B. Olmosh
C. Ko'makchi
D. Sifat
2. Qaysi kelishik qo'shimchalari belgili va belgisiz holatda qo'llana oladi?
A. Qaratqich kelishigi
B. Tushum kelishigi
C. Jo'nalish kelishigi
D. A, B, C
3. Shevalarda *-gan, -gon, -din, -tin* shaklida ham uchraydigan kelishik qo'shimchasi qaysi?
A. Qaratqich kelishigi qo'shimchasi
B. Tushum kelshigi
C. O'rin-payt kelishigi qo'shimchasi
D. Chiqish kelishigi qo'shimchasi
4. Qanday usullar bilan ot yasaladi?
A. Morfologik va sintaktik usullar yordamida
B. Morfologik usul hamda qisqartirish yo'li bilan
C. Sintaktik usul hamda qisqartirish yo'li bilan
D. A va B
5. Qo'shma otlar berilgan qatorni toping.
A. Toqqaychi, oqqush
B. Maktab hovlisi, ko'ktosh
C. Og'zi qulog'ida, temir yo'l
D. Ava B
6. *-sh (-ish)* qo'shimchasi majhul nisbatdagi fe'l negiziga qo'shilganda qanday ot yasaydi?

A. –kam, -iq

B.-q,-m

C.-don, -dosh

D.A va B

20.Qo`shma otlar qanday yasaladi?

A.Ot bilan otdan

B.Sifat bilan otdan

C.Ot bilan sifatdan

D.A,BvaC

21.*Bolalik kunlarimda,*

Uyqusiz tunlarimda,

Ko`p ertak eshitgandim,

So`ylab berardi buvim...

Yuqoridagi she`rdan o`rin-payt kelishigidan so`ng egalik qoshimshasini olgan so`z gapda qanday vazifada kelgan?

A. Ega

B. Kesim

C. Aniqlovchi

D. To`liruvchi

22. Ot sinonimlarini toping.

A. Ot, ism. nom

B. O`rtoq, do`st, birodar

C. Asr, asir, olar

D. A va B

23. O`rin-joy oti yasovchi qo`shimchalarni toping.

A. –loq, -zor, -iston

B. -goh, -loq, -oq

C. -k, -don, -zor

D. -l a, -m, -siz.

Mavzu: Sifat, uning UGMsi. Asliy va nisbiy sifatlar. Asliy sifat daraja shakllari. Sifatning ma`noviy guruhleri va yasaliş qoliplari

Reja:

1. Sifat – turg'un belgilarni ifodalovchi turkum.

2. Asliy sifat daraja shakllari .

3. Sifatlarning ma`noviy guruhleri va ularning yasalişini.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

Sifat, sifat UGMsi, asliy sifat, nisbiy sifat, turgun belgi, o`zgaruvchan belgi, oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja, leksik usul, takroriy (juft) usul, leksik-semantik usul, sifatlarning kuchaytirma shakli, ozaytirma shakl, xususiyat bildiruvchi sifat, holat bilduruvchi sifat, rang-tus sifatleri, maza-ta`m sifatleri, shakl (ko`lam) sifatleri, hid bildiruvchi sifat, miqdor sifatleri, o`rin sifati, payt sifati, sifat LMGLarida ko`chma ma`noning ifodalanishi, sifat darajalanishi, sifat yasovchi qo`shimchalar, qo`shma sifatlar va ularning qolipi, sifatning gapdagi vazifasi, sifatlarda ma`no torayishi.

Mustaqil so`z turkimlaridan bo`lmish sifat tilshunosligimizda nutq bosqichida mufassal o`rganilgan mavzulardan biri bo`lib hisoblanadi. G'. Abdurahmonov, A. Zufarov, O. Madrahimov, M. Sodiqova, U. Tursunov, M. Xoliyorov, A. G'ulomov kabi zakiy tilshunoslar tomonidan sifat, uning ma`no tomonlari, grammatik belgilari, yasaliş xususiyatlari batafsil tadqiq qilingandir. Tilshunosligimizning keyingi taraqqiyotida sifat so`z turkumi I. Madrahimov, A. Nurmonov, SH. Shahobiddinovalarning tadqiqotlarida ma`lum darajada o`rganildi.¹

¹ Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серкирралиги ва уни тасниф қилиш асослари НД, Бухоро, 1994 йил.
Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Тошкент, 2001 йил

Predmet, voqea-hodisalarga xos bo'lgan belgi-xususiyatlarni ifodalovchi, gapda sifatlovchi-aniqlovchi va kesim vazifasida keluvchi mustaqil so'z turkumi sifat hisoblanadi. Sifatlar barqaror yoki turg'un belgini ifodalash ma'no xususiyati bilan boshqa ma'noviy turkumlardan ajralib turadi. Turg'un belgi deganda belgining harakatsizligi, barqarorligi, holatning qanday bo'lsa, shunday aks ettirilishi tushuniladi. Turg'un belgi shu jihati bilan o'zgaruvchan (dinamik) belgidan farq qiladi. Chunki o'zgaruvchan belgi bir holatdan ikkinchi holatga o'tish bilan bog'liq. Buni quyidagi misollarni solishtirganda ko'rish mumkin:

- | | |
|---------------------------|------------------------|
| 1. <i>Barg sariq.</i> | 1. <i>Gul qizil.</i> |
| 2. <i>Barg sarg'aydi.</i> | 2. <i>Gul qizardi.</i> |

Ushbu birinchi misollarda turg'un belgilarni, ikkinchi misollarda esa harakatdagi o'zgaruvchan belgilarni ko'rish mumkin. Sifatlar mana shunday turg'un belgilarni ifodalaydi. *Qanday?*, *qanaqa?*, *qachongi?*, *qayerdagi?* kabi so'roqlarga javob bo'lib, predmet, voqea-hodisa va holatning belgi - xususiyatlarini ifodalash uchun xizmat qiladigan leksemalar guruhi sifatidir. Sifatlar o'zbek tilshunosligida ikkita katta ma'no turiga ajratiladi: asliy sifatlar; nisbiy sifalar.

Nisbiy sifatlar belgini qandaydir bir predmet, belgi, miqdor, o'rin va harakatga nisbatan ifodalaydi: *moddiy yordam*, *siniq piyola*, *burchakdagi o'tirg'ich*...

Asliy sifatlarda esa belgining nisbatlanishi yo'q, qiyoslanish xususiyati mavjud, ya'ni asliy sifatlar – *roq* qo'shimchasini erkin qabul qila oladi, bu qo'shimcha bilan nisbiy sifatlar erkin birika olmaydi. Asliy sifatning barchasida daraja shakllari, ayrimlarida ozaytirma va kuchaytirma shakllar bor. Asliy sifatlarda belgining darajasini ifodalashga ko'ra uch daraja ajratiladi:

- 1) oddiy daraja;
- 2) qiyosiy daraja;
- 3) orttirma daraja.

Oddiy daraja shaklida hech qanday qo'shimcha yoki yordamchi so'z bo'lmaydi. U belgining darajasini aniq ko'rsatmaydi. Qiyosiy daraja shakli – *roq* qo'shimchasiga ega va u belgining qiyoslanayotgan, solishtirilayotgan boshqa belgidan ko'proq yoki ozroq ekanligini ifodalaydi: *Hasad qullikdan yomonroqdir. Uzum o'rikdan shirinroq.*

Lekin belgi anglatuvchi so'zga faqat – *roq* qo'shimchasini qo'shish bilan chog'ishtirish (qiyoslash) hosil bo'lavermaydi. Bu daraja ma'nosi matnda reallashadi. Qiyoslashda *battar*, *beshbattar* kabi birliklar ham qo'llanadi: ...*ko'rishamiz deb bundan ham battar qora kunga qolmasdan*,... (*Hamza*).

Orttirma daraja shakli yordamchi so'zlar vositasida yasaladi va belgining me'yordan ortiqligini ifodalaydi. Bunday ma'noni beruvchi so'zlar sirasiga *eng*, *juda*, *g'oyat*, *bag'oyat*, *o'ta*, *benihoya* kabi so'zlar kiradi. Orttirma daraja ma'nolari

- 1) leksik usul bilan: *Zap g'alati odamlaringiz bor-da* (S.A.).

- 2) takroriy(juft) so'zlar vositasida: *Kamol baquvvat tishlari bilan yong'oqlarni qars-qurs chaqib, oltin rangli barmoqday – barmoqday mayiz bilan yeya boshladi* (Oybek.).

- 3) turlicha so'z birikmalari, idiomatik iboralar vositasida: *Haddan tashqari qonli va dahshatli bo'g'ishmalar qaynadi* (O.). *Xo'sh, qozi domla, boyga-ku quling o'rgilsin Jamilaxonni olib beryapmiz...* (H.Hakimzoda)

- 4) leksik-semantik usul: *Shirin qovun-shakar qovun, sho'x qiz-shayton qiz, bo'sh odam-latta odam, sho'x bola-olov bola* va boshqalar.

Asliy sifatning kuchaytirma va ozaytirma lug'aviy shakllari mavjud. Sifatning kuchaytirma shakl ma'nolari orttirma daraja ma'nolaridan farq qiladi. Buning uchun quyidagi gaplarni solishtiramiz: *Eng qizil olmalardan bitta oldi - Qip-qizil olmalardan beshta oldi*. Birinchi gapdagi “*eng qizil*” birikmasida qandaydir “saralash” ma'nosi ifodalanmoqda, “*qip-qizil olmalardan*” birikmasida “saralash” belgisi yo'q, bunda barcha olmalarning rangi “qip-qizil” ekanligi, birining rangi ikkinchisining rangidan “ortiq” emasligi ifodalangan.

Asliy sifatning kuchaytirma shakli sifatdan oldin *to'q*, *jiqqa*, *tim*, *g'irt* kabi so'zlarni keltirish orqali ham hosil qilinadi: *jiqqa ho'l sochiq, tim qora soch* va boshqalar. Asliy sifatning ozaytirma shakli o'zakdan anglashilgan rangning, belgining ozligini, kamligini bildiradi va *-ish*, *-imtir* (*-mtir*), *-gina* qo'shimchalari bilan hosil bo'ladi: *ko'kish ro'mol, ko'kimtir suv, tuzukkina bola, kichkinagina hovli*. Rangni bildiruvchi sifatdan oldin *och*, *nim* so'zlarini keltirish bilan ham ozaytirma shakl hosil bo'ladi: *nimpushti ko'ylak, och qizil ro'mol* kabi.

Sifatlar semantik jihatdan quyidagi turlarga ajraladi:

- 1.Xususiyat bildiruvchi sifatlar.
- 2.Holat bildiruvchi sifatlar.
- 3.Rang-tus sifatleri.
- 4.Maza-ta'm sifatleri.
- 5.Shakl (ko'lam) sifatleri.
- 6.Hid bildiruvchi sifatlar.
- 7.Miqdor sifatleri.
- 8.O'rin sifatleri.
- 9.Payt sifatleri.

I. **Xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar.** Bular inson xarakter-xususiyatini ifodalashda ko'p qo'llanadi. Masalan, *yoqimtoy, badjahl, muloyim, dilkash, yaxshi, yomon, loqayd* kabilar. Xarakter-xususiyat ijobiy hamda salbiy bo'lishi mumkin. Ijobiy ma'noli ko'rinishga *zukko, harakatchan, xushbichim, mirishkor, odobli* kabi so'zlar misol bo'lsa, salbiy ma'noli ko'rinishiga *yoqimsiz, yaramas, xasis, ziqna, qo'pol, o'jar* so'zlari kiradi.

II. **Holat bildiruvchi sifatlar.** Predmet, hodisa, inson va hayvonga xos holat yoki vaziyat turli sifatlar orqali ifodalanadi. Holat bildiruvchi sifatlar ma'no jihatdan quyidagi MG larga bo'linadi:

- 1.Tabiiy holatni ifodalovchi sifatlar.
 - a) ijobiy ma'noda: *go'zal, mo'min, o'ktam.*
 - b) salbiy ma'noda: *cho'loq, bukir, xunuk* (bunda nuqsoniy belgilar hisobga olinadi).
2. Jismoniy yoki fizik holatlarni ifodalovchi sifatlar: *bardam, baquvvat, tetik, yosh, zaif, nimjon, keksa.*
3. Ruhiiy holatni ifodalovchi sifatlar: *xursand, xafa, hushyor, darg'azab, g'amgin, ma'yus, tajang.*
4. Kishining iqtisodiy holatini ifodalovchi sifatlar: *boy, badavlat, kambag'al, gado, yetim, bechora, mushfiq.*
5. Predmetning harorat belgisini ifodalovchi sifatlar: *iliq, salqin, sovuq, issiq.*
6. Tozalik belgisini ifodalovchi sifatlar: *toza, ozoda, kir, musaffo, isqirt.*
7. Predmetning eskilik, yangilik holatlarini ifodalovchi sifatlar: *yangi, eski, uvada, juldur* va sh. k.
8. Predmetning pishgan va xomlik holatlarini ifodalovchi sifatlar: *xom, g'o'r, dumbul, pishiq, puxta* va sh. k.
9. Predmetning ho'l - quruqlik holatini ifodalovchi sifatlar: *ho'l, nam, namxush, namtob, quruq, shalabbo.*
10. Tinch va notinch holatlarni ifodalovchi sifatlar: *tinch, jim, jimjit, sokin, osuda, osoyishta, bezovta, notinch.*
11. Sirtqi qism belgisini ifodalovchi sifatlar: *silliq, g'adur-budur, g'ijim, tekis, zich, qalin, yupqa,* va sh.k.

Ushbu MG lar yana ichki bo'linishlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, tabiiy holat belgisi bilan farqlanadigan sifatlar ikki guruhni tashkil qilishi mumkin: kishining bosh qismi a'zolari bilan bog'liq belgi ifodalovchi: *go'zal, pahmoq, cho'tir, kal, duduq, ko'r, g'ilay;* gavdaga xos sifatlar: *savlatli, bo'ychan, cho'loq, bukri* va sh.k.

III. **Shakl-ko'rinish anglatuvchi sifatlar.** Bunday sifatlar predmetning turli ko'rinishlarini, shakl belgilarini ifodalash uchun qo'llanadi: *dumaloq, yassi, yapaloq* kabilar. Bunday sifatlar holat bildiruvchi sifatlar bilan ba'zan mos kelishi mumkin: *semiz, ozg'in, pachoq* kabi. *Semiz hamshira qo'pol etiklarini do'qillatib ildam ketdi* (Oybek).

IV. **Rang-tus ifodalovchi sifatlar.** Bunday sifatlar predmet, inson, hayvon (a'zolari)ga tegishli rang belgisini bildiradi: *qizil, zangori, ko'k, qora.* Rangni ifodalovchi sifatlar o'rnida ba'zan predmet nomlaridan ham foydalaniladi:

Million yilgi yaproq izini izlar

Bugun oltin bargni jim bosib o'tib (O.Matjon.).

Bir yonda lojuvard Bahri Muhit bor,

Biir yonda za'faron Sahroi Kabir (A.Oripov.).

Kun tog' o'rkachiga tirmashar asta,
Novvot qoyalarda yaltiraydi qor (E.Vohidov.).

V. **Maza-ta'm sifatleri.** Bu tur sifatlar maza-ta'mni ifodalashga xizmat etadi: *shirin, achchiq, nordon, chuchuk, bemaza*. Maza-ta'm ifodalovchi sifatlar tilda kam bo'lgani tufayli ot turkimidagi so'zlardan ham bunday sifatlar o'rnida foydalaniladi. Mas., *shakar, asal, novvot, zahar, kakra* kabi.

IV. **Hid bildiruvchi sifatlar** ham tilda kam sonni tashkil qilganligi uchun ular o'rnida predmet nomlaridan foydalaniladi. Ya'ni hid tarqatuvchi predmet nomiga "hidli" so'zini qo'shish orqali qo'shma sifatlar hosil qilinadi: Masalan, *rayhon hidli, limon hidli* kabi.

VII. **Miqdor sifatleri.** Predmetning miqdorini ifodalash uchun xizmat qiladi: *ko'p, mo'l, oz, serob, kamchil* kabi (*Ko'p, mo'l, oz* so'zlari dastlab ravish so'z turkumi doirasida o'rganilgan. Bularning o'zgarishi nazarda tutilgach, sifat so'z turkumi doirasida o'rganilishi fanda aniqlandi.)

VIII. **O'rin va paytga munosabat bildiruvchi sifatlar.** Bu turkumga taalluqli sifatlar ko'pincha ot turkimidagi so'zlardan *-gi, -ki, -dagi* yasovchilari vositasida hosil qilinadi: *tonggi, tungi, kuzgi, ko'chadagi, kechki, sirtqi* va sh.k. Bunday sifatlar zamon va makon sifatleri deb ham yuritiladi.

IX. **O'lchov bildiruvchi sifatlar.** Predmetlar uchun xos vazn, uzunlik, hajmni ifoda etadi:

-vazn anglatuvchi belgi: *og'ir, yengil*.

-masofa anglatuvchi belgi: *uzoq, yaqin, olis*.

-hajm anglatuvchi belgi: *katta, kichik, ulkan*.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, barcha sifatlar uchun birlashtiruvchi, umumiy grammatik ma'no predmet, narsa, hodisaning belgisini ifodalashdir. Ular o'rtasida darajalanish (graduonimik) munosabatlari ham ko'p uchraydi:

-*qizg'ish, qizil, to'q qizil, qip-qizil;*

-*ko'kish, ko'k, ko'm-ko'k;*

-*sovuq, iliq, issiq, qaynoq;*

-*kuchli, baquvvat, zabardast;*

-*katta, azamat, ulkan, bahaybat, yirik*.

Sifatlar yasalishida otdan sifat yasovchi (*-li; -dor; -mand; -gi (-ki); -iy, -viy; -dagi; -simon; ba;bo-; be-; ser-; no-; -kash...*) va fe'ldan sifat yasovchi (*-ik,-iq, -uk, -uq; -kin, -qin, -gin, -g'in, -gun; -gir, -kir, -qir, -g'ir; -ag'on; -choq...*) kabi qo'shimchalar, ayniqsa, ko'p qo'llanadi. Qo'shma sifatlar doirasida [ot+fe'l+ar], [sifat+fe'l+ar], [son+fe'l+ar] (*kunbotar, osmono'par, tezyurar, beshotar*) qolipli va [ot+ot] (*bodomqovoq, sheryurak*), [sifat+ot] (*oqbadan, qorasoch*) qolipli qo'shma sifatlar keng uchraydi. Tarkibida *nim, yarim, g'ayri, umum, aro, rang, kam* kabi so'zlar bo'lgan qo'shma sifatlar tarkibi qo'shilgan holda yoziladi: *nimtatir, g'ayriilmiy, yarimochiq, umumjahon, xalqaro, kulrang, kamsuxan, kamquvvat*.

Sifat gapda, asosan, sifatlovchi-aniqlovchi, kesim bo'lib keladi. Ayrim o'rinlarda hol, to'ldiruvchi, ega vazifasini ham bajarishi mumkin: *Yaxshilar ko'paysin dunyoda. Ko'ylak qimmatbaho matodan chiroyli tikildi. Osmon yiroq-yer qattiq. Yaxshidan ot qolar, yomondan-dod*.

Adabiyotlar:

1. Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. Тошкент, «Фан» нашриёти, 1974 йил.
2. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Тошкент, Фан, 1975 йил.

SLAYDLAR

1-guruh. Asliy sifatlar:

- sergo'sht, kuchli...

2-guruh. Nisbiy sifatlar:

- do'ppili, devoriy...

SIFATNING LUG`AVIY MA`NO GURUHLARI

Lug`aviy ma`no guruhlari	Lug`aviy ma`noviy qator
<ul style="list-style-type: none"> • xususiyat bildiruvchi sifatlar • holat bildiruvchi sifatlar • shakl bildiruvchi sifatlar • rang-tus bildiruvchi sifatlar • ma`za-ta`m bildiruvchi sifatlar • hid bildiruvchi sifatlar • o`lchov bildiruvchi sifatlar • o`rin bildiruvchi sifatlar • payt bildiruvchi sifatlar 	<ul style="list-style-type: none"> • yoqimtoy, badjahl, muloyim, dilkash • go`zal, baquvvat, mayus, badavlat • novcha, yassi, uzunchoq, dumaloq, • oq, qora, qizil, pushti, sariq • shirin, achchiq, nordon, taxir, sho`r • xushbo`y, badbo`y, qo`lansa • keng, tor, uzun, yaqin, o`qir • ichki, tashqi, devoriy, qishloqi • kuzgi, yozgi, kishki, bahorgi, ertangi

**TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA`LIM
UCHUN MATERIALLAR(Dars mavzusiga oid jurnal
maqolalari)**

Maqollarni o`qing. Ular ichidan sifat so`z turkumiga oid so`zlarni toping.

1. Yaxshi o`g`il ko`kdagi yulduz,
Yaxshi qiz yoqadagi qunduz.
2. Ko`ngli qoraning yuzi qora.
3. Nomardga yalinma,
Bir baloga chalinma.
4. Aybsiz do`st izlagan do`stsiz qolar.
5. Yashirin do`stdan oshkora dushman yaxshi.
6. Yaxshi otga bir qamchi,
Yomon otga ming qamchi.
7. Aziz bir kishini insoniy muhabbat bilan sevishing mumkin: ammo
g`animingni muhabbat ilohiy bilan seva olasan.
8. Sof va beg`ubor shodlik bo`lmagani singari, qayg`uning ham sof va
beg`ubori bo`maydi.

Н.Бобоқандов (Сам ДАҚИ) **ИЗОҲ ЁКИ ИСЛОҲТАЛАБ СЎЗ ВА БИРИКМАЛАР**

Она тилимизга хос бўлган жозиба ва нодир ифода имкониятларини сақлаб қолиш, уни ривожлантириш учун кураш ҳеч қачон тўхтаб қолган эмас. Аммо, маълумки, тилимиз ривож даражаси турли замонларда, турли ижтимоий – сиёсий вазиятларда турлича муносабатларни бошидан кечирди. Миллий адабий тилимиз тақдирида улуғ ҳазрат Алишер Навоий хизматлари мангуликка дахлдор фидойлик ва қахрамонлик намунасидир.

Афсуски, яқингина ўтмишда, мустақиллик кашф этганимизга қадар она тилимиз анча ночор аҳволга тушиб қолганлиги ҳеч кимга сир эмас. Ўзбекистонда ўзбек тилига эътибор иккинчи, учинчи ўринга тушиб қолган эди. Маҳаллий зиёли олим, профессор: «Ўзбек тилида гапириб, нуфузим (рейтингим)ни тушириб юборишни хохламайман», - деб айтишдан заррача истиҳола қилмай қўйди ва ҳоказо.

Хуллас, 1989 йилги тарихий воқеа, ўзбек тилига Давлат тили мақомининг берилиши ва ниҳоят мустақиллигимизнинг қўлга киритилиши бу соҳадаги энг олийжаноб эзгу ниятларни амалга оширишимиз учун барча имкониятларни вужудга келтирди. Ана шу имкониятлар асосида қилинган ишлар оз эмас. Кўчалар ва жой номларининг ўзбекчалаштирилиши, мажлис ва йиғинларда Давлат тилида сўзлашнинг жорий этилиши йирик ахамиятга молик жиддий тарихий воқеалардир.

Инсон ҳамиша мукамалликка интилиб яшайди, шу йўсинда янги-янги зафарлар қучиб, у ёки бу соҳада мавжуд нуқсон ва камчиликларни бартараф этиб боради. Ана шундай эзгу ният ва мулоҳазалар билан айна замонда она тилимиз ривожланишидаги ўзига хос (нуқсон ва иллатлар, деймизми) ё изоҳ, ё ислоҳталаб бўлган баъзи кўринишларни эслатиб ўтиш жоиздир. Зеро, тил тақдирнамодир, унинг бирор белгисининг ўз жойида қўлланмаслиги фикрни тубдан ўзгартириб юбориши маълум ва равшан. Жумла ва матнлардаги ҳар бир сўз ва бирикма ўз ўрнида, мақсадга мувофиқ қўлланилмаса, муайян англашилмовчилик ва чалкашликлар юзага келмоғи табиий. Қолаверса, тил ботиний маданият ифодасидир.

Маълум хато ва камчиликларнинг эл орасида айрим шахслар томонидан ва ўзаро сўзлашув жараёнларида қўлланилиш ҳолатларини табиий деб қараш лозим. Илло, маҳаллий шевалар ва айрим касб - ҳунар эгаларига хос сўзлашув услубининг тақозоси деб қаралса, хато эмас. Аммо кенг жамоатчилик, ҳатто умумхалқ миқёсида, радио - телевидение ва матбуотда ҳам бирдай ишлатаётганимиз айрим жумлалар, сўз бирикмалари ва алоҳида сўзларда ана шундай номукамаллик бўлишига йўл қўйилса, бунинг олдини олиш, ўз ўрнида тузатиш талаб этилади.

Жумладан, мантиқий жиҳатдан қандайдир изоҳталаб, айрим, хитоб даражасига кўтарилган, радио ва телевидениеда мунтазам куйланиб келинаётган, шиорлар қилиб осиб қўйганимиз:

«Сен, барибир, муқаддасан, муқаддас аёл!» жумласидаги **«барибир»** сўзи ортиқча эмасми? Менимча, ҳа (изоҳи маълум). Ўз-ўзидан: яхшимсан, ёмонмисан, ўғримсан, тўғримсан, вафодор ё сотқинмисан, барибир муқаддасан деган фикр пайдо бўлмайдими? Айнан, шундай бўлади-да...

Демак, ана шу кириш сўзни олиб ташлаб «сен азиз-у мўътабарсан, муқаддас аёл», - деб ёзсак (масалан) ёмон бўлмас. Ёки яна шундай афоризм даражасида қайд этаётганимиз, қўшиқ **«Нима бўлса бўлсин, уруш бўлмасин»** жумласини ҳам жуда чуқур таҳлил қилмасдан, дабдурустдан қараганда ҳам, нега энди – нима бўлса бўлсин деб турибмиз. Бу ожизлик, ночорлик аломати эмасми...?

Иккинчидан: дунёни сув босса майлими, ўт олиб кетса майлими; худо кўрсатмасин турли бало – қазолар, касаллик ва офатлар ёғилса майлими...? фақат уруш бўлмасинми...?

Хуллас, «нима бўлса бўлсин» мутлақо ортиқча, боз устига ёмон ният. Бундай ғализликлар нутқимизда афсуски оз эмас.

Энди айрим бирикмаларимиздаги шакл ва мазмун маъносини, ҳамоҳанглигини таҳлил қилайлик.

...Ташкилий қўмитаси, китобий жумласи, тарбиявий соати каби қатор бирикмаларни, кўпинча шу ҳолатда-... **ташкилий қўмита, китобий жумла, тарбиявий соат...** ўринларида қўллаб юбораверамиз. Масалан 18-сентябр 2004 йил Муқимий номидаги 26 - сон мактабда «Мен ва келажак» мавзусида илмий ва амалий анжуман ўтказилади. Маърузалар 30 августгача қабул қилинади» тарзида эълон чиқарилиб, охирида манзил ва рақамлар, шартлар баён этилиб, **ташкилий қўмитаси** деб ёзиб қўйилади. Бу ўринда «ташкилий қўмита» нинг ўзи етарли (си ортиқча).

Хислат-киши феъл атворидаги хусусият бўлиб, бу сўз ижобий маънода қўлланилади. У, **иллатнинг** антоними, **фазилатга** синоним тушунчадир. Афсуски, бу сўзнинг ҳам фарқига бормасдан, салбий маънода ишлатадиган, ҳолатлар ҳам учраб туради.

Айтайлик, **...жамоа аъзолари бутун ўйин давомида кўпол ўйнаб, ўзининг салбий хислатларини намойиш қилдилар**, дейилган жумла мантиқий ғализдир.

Тил софлиги учун кураш йўналишида асосан, русча сўзларни ўзбекчалаштиришга ҳаракат қиламиз. Аммо, айтиш чоғда, улар орасида ҳам таржима қилиниши лозим ва мумкин бўлган шунинг билан бирга таржима қилинишининг ҳожати йўқ ва мумкин бўлмаган сўз ва иборалар борлигини ҳам унутмаслигимиз лозим.

Айтайлик, профсоюз, местком, субботник, свежий, съезд ва ҳоказо, бир пайтлар бефарқ ишлатаверганимиз, ўнлаб сўзларни ўзбекчалаштириб, тўғри қилдик. Аммо, велосипед – шайтонарава, поезд- оташарава каби таржималаримиз маълум даражада кулгига сабаб бўлди, холос.

Қисқаси, фан техника ва жамият тараққиёти муносабати билан пайдо бўлган сўз ва иборалар ўша кашфиётни амалга оширган миллат тилида дунё бўйича тарқалиши қабул қилинган. Бугунги кунда миллий курашимиз билан боғлиқ бўлган: **ҳалол, ёнбош, чала, ғирром** каби атамаларнинг халқаро миқёсда тан олинганлиги фикримиз исботидир. Масалан: Ракета, Спутник, Челенжер, Зонд, Компьютер сўзларини айнан ўз холида қўллаганимиз ҳолда, Перестройка, Гласность сўзларини эса (Европа ва АҚШ айнан шу тарзда қўллади) биз эса Собик Иттифоқ республикаларида **қайта қуриш азнавсози, тўнгарув-** дея ўзимизга ағдариб олдик.

Энди, гарчи фан-техника билан боғлиқ бўлмаса-да, нега: **самовар, ручка, подъезд, лампочка, доска, розетка, насос** ва бошқа шунга ўхшаш ўнлаб сўзларни таржима қилиш тўғрисида ўйламаймиз назаримизда анна шу нарса ва буюмларнинг вазифасини адо этган ашёлар бўлган-ку...!.

Демак, барча тадқиқот ишларида бўлганидек, таржима ишларида ҳам қабул қилинган ҳақиқат меъёр талаблари ётади. Унга амал қилиш фарзу қарз ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтганда, бугун она тилимиз камолига ғов бўлаётган, унинг файзли ва мусаффо муҳитини бузиб турган иллатларнинг мавжудлигини кўйидагича изоҳлаш мумкин

Биринчидан, Давлат тили тўғрисидаги қонун ижросининг мунтазам ва жиддий назорат қилинмаётганлиги.

Иккинчидан, таржимачиликдаги пала-партишлик ва ниҳоят, энг асосийси – учинчидан – она тилимиз билан фахрланиш – ифтихор туйғуларининг сусайиб кетаётганлигидадир. Тилга эътиборсизликни фожеа деб билсак, бу фожеанинг олдини олиш энг аввало, **тилшунос олимларимиз, бадий ижод аҳли** билан боғлиқдир. Шунингдек, миллий матбуот, айниқса, **радио ва телевидение ходимлари; сухандонлар, бошловчилар ва мухбирлар** билан ҳам алоқадор эканлиги маълум ва равшандир.

Муаллимлар ва мураббийлар, умуман, зиёлиларнинг меҳнат фаолияти ҳам бу соҳада яна ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Ниҳоят, **жазолаш** (огоҳлантириш, танбеҳ бериш, шарт қўйиш ва жарима солиш – товон тўлатиш ва бошқа шу каби усул) ҳам тарбия воситасидир.

Қолаверса, бу саъй - ҳаракатлар энг олийжаноб ишга – она тилимиз равнақи масаласига бағишланаётганлигини унутмаслигимиз лозим.

Улуғ бобомиз Алишер Навоийга, қалам суриб, «жаҳонни олмоқ» имконини берган дилбар ва қудратли тилимиз шаънига муносиб тарзда муомала қилайлик.

AMALIY MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

1. Matnni o`qing. Sifat so`z turkumiga oid so`zlarni toping.

Shaxs ma`naviyatining botiniy alomatlari

Shaxs ma`naviyatining botiniy alomatlari qalb tozaligi, halollik, samimiylik, mehr-shafqat, hayo, oqko`ngillik, adolatparvarlik, iymon, diyonat, taqvo, or-nomus kabi axloqiy tushunchalrni qamrab oladi. Quyida ularning har biriga qisqacha to`xtalib o`tamiz.

Qalb tozaligi. Qalb yurak, dil ma`nolarini bildiradi. Kishining ruhiy yoki ma`naviy dunyosi, ichki his-tuyg`ulari markazi ramzidir.

Halollik. Vijdon bilan insof yuzasidan ish tutish, to`g`rilik, soflik, vafodorlik. Halollik har qanday martabani bezaydi. Halollik, to`grilik-katta baxt. O`z halolligini namoyish etish ko`proq xushxulq odamga yarashadi. Harom, haromxo`rlik buning teskarisidir.

Samimiylik. Sidqidillik, chin qalbdan, yurakdan, dilning peshonasiga yoyilgan belgidir (D. Didro). Samimiylik- og`ir va juda nozik masala, u aql va chuqur ma`naviy odobni talab etadi (V.V. Veresayev). Samimiylik sofdillikdir. Bu fazilat kamdan kam odamda bor.

Mehr-shafqat. Mehr insonning o`z tug`ishganlariga, yaqin kishilarga va umuman, odamga bo`lgan samimiy muhabbati, shafqati, rahmdilligi; shafqat- biror kimsaga achinish, ayash, rahmdillik, mehribonlik kabi ma`nolarni bildiradi. Mehr- muhabbatli, shafqatli ma`nolaridan tashqari, ba`zan egizak, qo`shaloq holda ishlatilib, yetim-yesirlarga, nogironlar, qarovsiz qolgan qariyalar, g`ariblarga, muhtojlarga nisbatan moddiy va ma`naviy yordam berishdir.

2. O`qigan badiiy asaringizga taqriz yozing. Sifat yasovchi qo`shimchalarni izohlang.

3. Sifat so`z turkumiga oid so`zlarning zidini yozing.

Namuna: oq-qora

beozor-dilozor

yaxshi-yomon

SEMINAR MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR. TEST.

Sifat so'z turkumiga oid test savollari

1. Qaysi qatordagi qo'shma sifat qismlari ega bilan kesim grammatik munosabatlari asosida birikkan?
A)sofdil
B)cho'qqi soqol
C)bosh yalang
D)havo rang
2. Qanday sifatlar tuzilishiga ko'ra sodda sifatlar deb ataladi?
A)qo'shimchalar qo'shish usuli bilan yasalgan sifatlar
B)tub va yasama sifatlar
C)tub sifatlar
D)tub va qo'shimchalar qo'shish usuli bilan yasalgan sifatlar
3. Qaysi qatordagi qo'shma sifatlar tub-yasama so'zlardan hosil bo'lgan?
A)ertapishar
B)o'zbilarmon
C)cho'rtkesar
D)kuydi-pishdi
4. Ravish+ot tarzida yasalgan qo'shma sifatni toping
A)xomkalla
B)ochofat
C)kaltafahm
D)hozirjavob
5. Qaysi juft sifatning qismlari tub-yasama so'zdan iborat?
A)olis-yaqin
B)ho'l-quruq
C)issiq-sovuq
D)uzuq-yuluq
6. Qaysi juft sifatning faqat bir qismi mustaqil ma'no anglatadi?
A)shaldir-shuldur
B)bo'sh-bayov
C)ola-quroq
D)o'ydim-chuqur
7. Quyidagi sifatlardan qaysi birlari sodda sifatlar hisoblanadi?
1.katta 2.chiroyli 3.ishyoqmas 4.shishasimon 5.ko'kimtir
A)1,2,3
B)faqat 1
C)1,2,3,4,5
D)1,2,4,5
8. Qaysi qatorda qo'shma sifat ravish+ot birikuvidan tashkil topgan?
A)mushtumzo'r
B)kamquvvat
C)yolg'izoyoq
D)xomkalla
9. Qo'shma sifatlarni toping
A)olachipor, qoraqizil, ochiq ko'ngil
B)ko'k muqovali, serjahl, xomxayolroq
C)yam-yashil, uch g'ildirakli, betakalluf
D)qoramtir, sharsimon, oliy ma'lumotli
10. Bir narsa-buyum xususiyatiga ega emaslik belgisini bildiruvchi sifatlar yasovchi -siz qo'shimchasi quyidagi qaysi qo'shimchalarga nisbatan zid ma'noli (antonim) qo'shimcha hisoblanadi?
A)-mand
B)-li,-dor,-mand
C)-li
D)-li,-dor
11. Quyidagi gapda nechta juft sifat bor? Yakka-yu yagona farzanding yaxshi-yomon kunningga yaramasa ,katta-yu kichik oldida yuzingni yerga qaratsa-ya!
A)1 ta
B)3 ta
C)2 ta
D)4 ta

12. 1)-li;2)-siz;3)-dosh;4)chi;5)-illa;6)-la;7)-lik.

Qaysi qo'shimchalar sifat va ot yasashi mumkin?

- A)4,7 B)1,2,3,4,6 C)2,4,6,7
D)1,3,5,7

13. Qaysi qatorda qo'shma sifat olmosh+sifat qolipidan paydo bo'lgan?

- A)tilbilmas B)rahmdil C)o'zaro
D)o'zbilarmon

14. Fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalar qaysi qatorda berilgan?

- A)-aki, -oq, -choq B)-qi, -viy, -k
C)-li, -iq, -a D)-q, -iq, -iy

15. Qaysi gap tarkibida ikkita o'rinda yasama sifat qo'llangan?

- A)Keng, ulug'vor sahrolar ufqdan ufqqa tutashgan.
B)Tuproq qatlami qalin,sersuv yerlarda o'sgan archalar yo'g'on va bo'ydor bo'ladi.
C)Tiniq,ko'm-ko'k osmonda onda-sonda yengil bulutlar asta kezadi.
D)Bo'm-bo'sh otxonaning eshigi lang ochiq turar edi.

16. Temur yuksak insoniylik xususiyatlariga ega bo'lgan buyuk shaxs edi.

Ushbu gapda qatnashgan sifatlar haqidagi to'g'ri hukmlarni aniqlang.1)asliy sifat; 2)nisbiy sifat; 3)tub sifat; 4)yasama sifat; 5)aniqlovchi vazifasida; 6)hol vazifasida

- A)2,4,5,6 B)1,3,5 C)1,3,4,5
D)1,2,3,5

17. Otlashgan sifat ishtirok etgan gapni toping.

- A)Elmurod chaynaganni yutib, nonga tikilib qoldi.
B)Shu yaqindan o'tib ketayotgan ikkita ovchi urishqoqni aravaga ortib ketishdi.
C)Chumchuqlar ham nima shirin, nima achchigligini bilishsa kerak.
D)Ko'z tashlab ko'rilsa, ko'm-ko'k suv ko'k charxiga o'xshaydi.

18. Qaysi qatordagi gapda nisbiy sifat qo'llangan?

- A)Hovlimizda ko'cha eshikdan kiraverishda kichkina g'ishtin uycha bor.
B)G'iyos aka yumshoq ajriq ustiga yonboshladi.
C)Cho'ponlar sezgir, itlar ham ziyrak, bo'ridan ayyor.
D)Inson tabiatning eng ongli farzandi

19. Qaysi qatordagi gap tarkibida ot+ot tipidagi qo'shma sifat berilgan?

- A)Sofdil va jonkuyar odamlar bilan bu dunyo oboddir.
B)Toshtag'ir odamdan yaxshilik kutma.
C)Shirinsuxan, oqko'ngil odamlar mevali daraxtga o'xshaydi.
D)Nodon va kaltafahm odamdan yaxshi gap chiqmaydi.

20. Qaysi gapda xususiyat bildiruvchi sifat qo'llangan?

- A)Chumchuqlar ham nima shirin, nima achchigligini bilishsa kerak.
B)Mamat olachipor, yashil tepalikdan pastlikka tomon yayov ketmoqda.
C)Bultur bahorda eshigimiz oldidagi gullarni sug'orayotgan edim, yap-yangi "Moskvich" kelib to'xtadi.
D)Hovli tor, devorlari baland edi.

21. Qaysi qatorda asliy sifatlar berilgan?

- A. Ko`k, yozgi, qaynoq
C. Siniq, sirpanchiq, olg`ir
- B. Og`ir, to`g`ri, sho`x
D. Mazali, sersuv, beor
22. Nisbiy sifatlarning to`liq qatorini toping.
A. Sarg`ish, oqimtir, ko`kroq
C. Tepki, elak, o`roq,
- B. Tiniq, dumaloq, sarg`ish
D. Qo`rqoq, qadrdon, bo`rtma
23. Sifat yashovchi qo`shimchalar berilgan qatorni toping.
A. - ma, - don, - zor
C. - li, - lik, - la
- B. - in, - iy, - sz
D. - viy, - simon, - lan
24. Ozaytirma sifatlar berilgan qatorni toping.
A. Nim pushti, sariqroq, mard
C. Ko`kimtir, sarg`ish, sal dangasaroq, dardmand
- B. Jasurroq, sal dangasaroq, uzun
D. Mardona, dardchil, badavlat
25. Sifatning gapdagi asosiy vazifasini belgilang
A. ega
B. to`ldiruvchi
C. aniqlovchi
D. kesim
26. Otlashgan sifat berilgan qatorni berilgan qatorni belgilang .
A. Mard inson o`zidan ojizlarni kamsitmaydi
B. Sanamay sakkiz dema
C. Yurgan- daryo, o`tirgan- bo`yra
D. To`g`ri o`zadi, egri to`zadi
27. Sodda tub sifatlar berilgan qatorni toping.
A. Talabgor, olmoq, o`tkir
B. Jigar rang, yuzsiz, balandgina
C. Zerikarli, chopag`on, tog`li
D. Yashil, donoroq, qizg`ish
28. **Sifat+ot** ko`rinishidagi qo`shma sifatni toping.
A. Kulrang
C. Hozirjavob
- B. Kaltafahm
D. Shaharlararo
29. "**Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari**" birikmasidagi sifatning gapdagi vazifasini aniqlang.
A. Ega
C. Kesim
- B. To`ldiruvchi
D. Aniqlovchi
30. Sifatga xos bo`lmagan fikr qaysi qatorda berilgan?
A. Turlanadi
C. Tuslanadi
- B. Otlashadi
D. Yasaladi

Mavzu: Son. Uning UGMsi, lug'aviy shakllari. Sonning lugaviy ma'no guruhlari. Numerativ (o'lchov) so'zlar. Sonning sintaktik vazifalari

Reja:

1. Sonning asosiy xususiyatlari.
2. Son imglari.
3. O'lchov so'zlar va ularning ma'no jihatdan tasnifi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

Son, sonning UGMsi, sodda son, takror son, sanoq son, chama son, jamlovchi son, kasr son, dona son, taqsim son, tartib son, hisob (numerativ) so'zlar, sonning gapdagi vazifasi, sonlarda ma'no torayishi, sonidan yasalgan turkumlar

Son predmetlarning sanog'ini, tartibini ko'rsatuvchi so'z turkumidir. Sonlar otlar bilan birga qo'llanilib, bir necha predmetlarning yig'indisini, aniq miqdorini bildiradi. Shu jihatdan aniq miqdor bildiruvchi bu so'zlar predmetlarning noaniq miqdorini ifodalovchi *ko'p, mo'l, oz* kabi sifatlardan farqlanib turadi. Ushbu sifatlarda raqam bilan ifodalanmaydi. Son noaniq miqdorni bildirganda ham raqam bilan yozilishi mumkin: *uch-to'rt kun (3-4 kun)*.

Sonlar tuzilishiga ko'ra to'rt asosiy guruhga bo'linadi:

1. Sodda sonlar.
2. Qo'shma sonlar.
3. Juft sonlar.
4. Takror sonlar.

Sodda sonlar tub so'z holda bo'ladi: *bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz, o'n, on ikki, on uch, on to'rt, on besh, on olti, on yetti, on sakkiz, on to'qqiz, on o'n*. O'zbek tilida sodda sonlar ichida ayrimlarining ma'nodoshlari mavjud. Masalan, *bir* o'rnida *yakka, yagona, yolg'iz*; *ikki* so'zi o'rnida *qo'sh, juft* so'zlari qo'llanadi. Qo'shma sonlar ikki yoki undan ortiq o'zakdan tuziladi: *o'n bir, ikki yuz qirq besh*. Juft sonlar har xil o'zakni juftlash (*beshta-oltita*), takror sonlar bir xil o'zakni takrorlash (*o'nta-o'nta*) orqali hosil qilinadi. O'zbek tilida son quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Ma'noviy jihatdan miqdorni nomlaydi.
2. Sintaktik jihatdan cheklanmagan muchalanuvchilikka ega.
3. Morfologik jihatdan o'zgaradi.
4. Sonidan boshqa turkumdagi so'zlarni hosil qilish mumkin: *ikkilanmoq, mingoyoq* va sh.k.
5. Sonning o'ziga xos lug'aviy shakllari mavjud: *bitta, o'ntacha, uchov, ikkitadan, beshinchi*.
6. Son narsa miqdorini turli tomondan aniqlash uchun sanoq bilduruvchi so'zlar– numerativlar (o'lchovlar) bilan qo'llanadi: *bir siqim tuproq, bir qop un, ikki gektar, besh tonna* kabi.

Sonlar sanoq, dona, chama, kasr, jamlovchi, tartib, taqsim sonlar kabi ma'noviy guruhlariga bo'linadi. **Sanoq sonlar** son (miqdor) nomlarini, narsa-buyumlarning son-sanog'ini ifodalab keladi. Sonning bu turi boshqa so'zlarga bog'lanmagan holda, mustaqil ravishda qo'llana oladi. Sanoq sonlar ichida "*bir*" so'zi gapda xilma-xil ma'noni ifodalab, turli vazifada keladi:

1. Predmetning aniq miqdorini ifodalaydi: *Buloq boshida bir katta chinor o'sardi* (Ertakdan). Bu o'rinda "*bir*" so'ziga *yolg'iz, yagona* so'zlari ma'nodosh bo'lishi mumkin.
2. Noaniqlik ma'nosini ifodalaydi: *Vodiy larni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda* (H.Olimjon). Bu ma'noda "*bir*" so'ziga *qandaydir, kimdir, nimadir* kabi gumon bilduruvchi so'zlar ma'nodosh bo'ladi.
3. Chegaralov ma'nosini ifodalaydi: *Sinf majlisiga bir Zaynabgina kelmadi*.
4. Sifatlovchi aniqlovchilar oldida kelib, ma'noni kuchaytirish uchun qo'llanadi: *Bir jozibali, bir yoqimli kuy chalindi* (Oybek).

5. Takroriy shaklda fe'lga bog'lanib, harakatning belgisini ifodalaydi: *O'ktam kabinetda o'tirganlarga bir-bir qarab chiqdi.*

Chama sonlar predmetning noaniq miqdorini, taxminiy hisobini ifodalaydi. Quyidagi lug'aviy shakl qo'shimchalari orqali hosil qilinadi:

–sanoq songa *-lab* affiksini qo'shish bilan: *Respublikamizda yuzlab litseylar ochildi.*

–son o'zaklariga *-tacha (ta+cha)* affiksining qo'shilishidan: Bu affiks “*bitta*” dan boshqa barcha sanoq sonlarga qo'shiladi: *ikkitacha, beshtacha.*

–*cha* affiksi orqali. Bu qo'shimcha sanoq son bilan qo'llangan hisob so'zlarga qo'shiladi: *uch oycha, bir yilcha, o'n kilometrcha* va sh.k.

–*larcha* qo'shimchasi orqali. Ushbu qo'shimcha ko'pincha *o'n, yuz, ming* kabi yirik miqdor ifodalovchi sonlarga qo'shib keladi: *yuzlarcha, minglarcha.*

–*lar +da (-dan,-ga)* qolipi orqali ham taxminiy miqdor hosil qilinadi: *Uning yoshi o'ttiz beshlarda edi. Film soat o'nlarda beriladi.*

–sonlarni juftlash orqali. *Keyingi uch-to'rt kun ichida bu mish-mish g'ovlab ketdi* (A.Qahhor).

Chama sonlar gap tarkibida qo'llanilganda vaqt ma'nosi (*o'n kuncha*), masofa ma'nosi (*uch-to'rt qadam*), og'irlik ma'nosi (*uch-to'rt kilogramm*), kishi yoshining taxminiy miqdori (*oltmishlarga borib qolgan*), ko'plik, ortiqlik (*yuzlarcha odam*) ma'nolari voqelanadi.

Jamlovchi son jamlash, birgalik ma'nolarini ifoda etadi. Quyidagicha hosil qilinadi:

–*ov* qo'shimchasi bilan: *ikkov, yettov.* Bu xil jamlovchi sonlar ikkidan yettigacha sanoq sonlardan yasaladi.

–*ov+lon*: *Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar.*

–*ov+lab; ov+la+shib*: *ikkovlab, oltovlashib, to'rtovlashib* kabi.

–*ala* affiksini sanoq songa qo'shish orqali. Jamlovchi sonning bu turi ikkidan beshgacha sanoq sonlardan yasaladi: *Ikkala qiz chiqdi ariq bo'yiga.*

Jamlovchi son yasovchi *-ovlon* qo'shimchasi ko'pincha qadimiy xalq so'zlashuv tili uchun xosdir. Tarixiy kelib chiqishiga ko'ra jamlovchi son shakli bo'lgan **birov** so'zi hozirgi tilimizda olmosh turkimi tarkibiga o'tgan.

Kasr sonlar butunning qismini ifodalash uchun ishlatiladi: *uchdan bir* ($\frac{1}{3}$), *o'ndan ikki* ($\frac{2}{10}$).

Yarim, yorti, chorak, nimchorak, qoq, teng so'zlaridan ham kasr sonni ifodalashda foydalaniladi: yarim $\frac{1}{2}$ butunning yarmi, chorak $\frac{1}{4}$ to'rt dan bir bo'lak, nimchorak $\frac{1}{8}$ sakkizdan bir qismi kabi. *Qoq, teng* so'zlari ma'noni kuchaytirish uchun qo'llaniladi: *nonning teng yarmi, daftarning qoq o'rtasi.*

Dona son predmetlarni donalab ko'rsatish uchun qo'llaniladi:

–*ta* affiksi predmetlarni donalab ko'rsatish uchun qo'llanadigan, hisob so'zlari (numerativlar) o'rnini bosa oladigan shakldir: *uch dona kitob- uchta kitob, oltita talaba- olti nafar talaba, uchta o'rik- uch tup o'rik.*

–*ta* qo'shimchasi ajratib (donalab) sanalishi mumkin bo'lgan jonli va jonsiz narsa-hodisa nomlarining barchasi bilan birikib kela oladi: *30 ta o'quvchi, 5 ta kitob, 28 ta qoramol, 25 ta nihol, 5 ta do'st* va sh.k.

Taqsim sonlar narsalarning taqsimlangan miqdor ma'nosini anglatish uchun qo'llanadi va *-tadan* lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo'shimcha orqali hosil qilinadi: *beshtadan, o'ntadan.*

Tartib sonlar narsa-buyumning tartib belgisini ifodalaydi. Tartib son yasovchi *-nchi (-inchi)* qo'shimchasi qo'shma sanoq sonlarda faqat oxirgi songa qo'shiladi: *bir ming to'qqiz yuz oltmish yettinchi yil* kabi. Tartib sonlardan “*birinchi*” tartib soni o'z ma'nodoshlariga ega: *birinchi bahor- ilk bahor- dastlabki bahor* kabi. Tartib sonlar arab raqamlari bilan yozilganda *-nchi (-inchi)* qo'shimchalari o'rnida chiziqcha qo'yiladi, rim raqamlari bilan yozilganda esa hech qanday belgi qo'yilmaydi: *20-uy, 6-sinf, 25-dekabr, 2000-yil, 6-bo'lim, IV sinf, XXI asr, II bob* kabi. Bayramlarni ifodalovchi sanalar harf bilan yozilganda *Sakkizinchi mart, Birinchi sentabr*; arab raqamlari bilan yozilganda *8-Mart, 1-Sentabr, 21-Mart* shakliga ega bo'ladi. Yuqoridagi dona sonni hosil qiluvchi *-ta*, tartib sonni hosil qiluvchi *-nchi (-inchi)*, taqsim sonni hosil qiluvchi *-tadan*, jamlovchi sonni hosil qiluvchi *-ov(-ovlon)*, *-ala*, chama sonni hosil qiluvchi *-larcha, -lab, -cha* kabi qo'shimchalar lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar sirasiga kiradi.

Hisob soʻzlar predmet, narsa, buyumning sonini, hajmini, oʻlchovini bildiradi. Hisob (oʻlchov) soʻzlar otga bogʻlanib, quyidagi qolipni hosil qiladi: [sanoq son+hajm, koʻlam, vazn, vaqt... maʼnoli otlar+sanaladigan (oʻlchanadigan) buyum nomi]. Narsaning miqdorini aniqlashda quyudagi oʻlchov soʻzlar ishlatiladi:

1. Predmetni donalab hisoblash uchun ishlatiladigan oʻlchov soʻzlar: *oʻn dona kitob, ikki bosh qoramol, bir tup olcha, ikki nafar askar.*

2. Butunning qismini hisoblash uchun ishlatiladigan oʻlchov soʻzlar: *bir burda non, uch varaq xat, ikki ogʻiz soʻz, ikki karch qovun, bir chimdim choy.*

3. Toʻda maʼnoli oʻlchov soʻzlar: *bir gala qush, bir dasta gul, bir toʻda bolalar.*

Toʻdani ifodalashda koʻpincha “*bir*” sanoq soni ishlatiladi.

4. Ogʻirlikni ifodalovchi soʻzlar: *qadoq, tup, botmon, kilogramm, sentner, tonna...*

Predmetlarning joylashgan idish yoki narsalari hisobi bilan oʻlchash oʻzbek tilida juda koʻp uchraydigan hodisadir: *bir piyola asal, ikki qop un, bir togʻora somsa, bir lagan osh, ikki mashina don* kabi.

5. Narsaning uzunligi va masofani ifodalovchi oʻlchov soʻzlar: *kilometr, santimetr, tanob, chaqirim, qadam, qarich.*

6. Qiymatni bildiruvchi hisob soʻzlar: *soʻm, tiyin, tanga, chaqa.*

7. Vaqt oʻlchovi uchun ishlatiladigan soʻzlar: *minut, soat, kun, oy, yil, asr, daqiqa, hafta* kabi.


Bunday qatorlarni yana davom ettirish mumkin. Shular ichida aniq miqdorni ifodalovchi soʻzlar sifatida *gramm, santimetr, tonna, kilogramm, kilometr, amper, volt* oʻlchov birliklari qabul qilingan.

Sonlar ot bilan birga kelib, ularning aniqlovchisi boʻlib keladi. Baʼzan ot oldidan kelib sifat bilan birga aniqlovchi vazifasini bajaradi: *yigirmata ilmiy asar*. Sonlar kelishik, son, egalik kabi kategoriya shakllari bilan oʻzgarib, toʻldiruvchi, ega, hol sintaktik vazifalarida keladi.

Adabiyotlar:

1. Гурсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, «Ўзбекистон» 1992 йил.
2. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Тошкент, 1975 йил.

SLAYDLAR



Son ma'noviy guruhlari

Sanoq son	Dona son	Chama son	Jamlovchi son	Taqsim son	Tartib son
Bir					

TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MATERIALLAR(Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)

Matndan sonlarni toping.

Soat va Daqiqa

- Odamlarga hayronman,-dedi Daqiqa mili, - joningni jabborga berib ishlaysan-u, lekin sen bilan hech kimni ishi yo'q, nuqul soatni so'rashadi...

- Unuming yo'q-da, uka, sening oltmish qadaming-u, mening bir qadamim, -dedi unga Soat mili.

Til va Tishlar

- Muncha yo'limni to'smasanglar, o'z holimga qo'yasizlarmi, yo'qmi, - bobillab ketdi Til Tishlarga.
- Xayriyat-ki, biz bormiz, bo'lmasa sen haddingdan oshib, bir quloch bo'lib ketarding, - deyishdi Tishlar.

Qizilishton bilan Qurt

Qizilishton qurt tushgan daraxtga qo'nib, tumshug'i bilan taqillata boshladi.

- Kim kerak? –dedi Qurt ichkaridan.
- Daraxtni kemirib yotgan zararkunanda kerak. Bu yoqqa chiqsin, ishim bor, -dedi Qizilishton.

Qurt kavagiga ming bekensin – bekor...

Quyidagi hisob so'zlardan matn tuzing va uslubiy qo'llanishi xususida xulosa chiqaring.

To'p, dasta, bog', quchoq, hovuch, nafar, guruh, to'p, bo'lak.

Berilgan so'zlarni 4 ustunga bo'lib ko'chiring.

1.Uzunlik bildiruvchi:

2.Vaqt o'Ichovini bildiruvchi:

3.Yosh hisobini bildiruvchi:

4.Pul hisobini bildiruvchi:

Dollar, qadam, asr, soat, kunduz, yashar, tanob, quloch, oylik, oy, hafta, so'm, tiyin, lahza, daqiqa, metr, oy, tillo, tanga, yil, miri, chaqirim, minut, kilometr, bir karra.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

SON so'z turkumi bo'yicha topshiriqlar

1-mashq. Quyidagi gaplardagi son so'z turkumiga oid so'zlarni ajratib yozing.

1. Bir yil tut ekan kishi yuz yil gavhar teradi. (Maqol) 2. Bir yigitga yetmish hunar oz. (Maqol) 3. Hozir planetamizda nashr qilinayotgan barcha kitob mahsulotlarining deyarli uchdan bir qismi rus tilida bosilmoqda. (Gazetadan) 4. Sizga ma'lum: paxtani birinchi yil ekishimiz. (Sh. Rash) 5. Shu orada to'rttacha samosval oldinma ketin g'isht to'kib ketdi. (S. Ahmad) 6. Og'irligi 70 kg keladigan odam Oyga chiuqsa, uning vazni 11,7 kg dan oshmaydi. ("Qiziqarli geografiya") 7. Bir zumda ikkov, uchov, to'rtov, beshov bo'lishdi. (P. Tur.) 8. Non daraxtining 15-20 yillik bir tupi bir-ikki kishini, besh-olti tupi esa katta bir oilani bir yil boqa oladi. ("Qiziqarli geografiya") 9. Adolat mastavadan bir-ikki qoshiq ichdi. (S. Zunnunova) 10. Bir hovuch yerdagi poliz ham la'nati bo'rondan sog' qolmadi. (Sh. Rash.)

1-topshiriq. Sonlarni quyidagi ma'naviy guruhlarga ajratib yozing.

Sanoq son	Dona son	Chama son	Jamlovchi son	Taqsim son	Tartib son
Bir					
Yuz...					

2-topshiriq. Son qatnashgan so'z birikmalarini ajratib yozing va ularning sintaktik vazifalarini belgilang.

Namuna: **yetmish** hunar, aniqlovchi...

2-mashq. *Bir* so'zining qo'llanishi va vazifasiga ko'ra guruhlariga misollar keltiring.

1. «Miqdor» ma'nosi: *Yana bir gapni ayting.*

2. «Noaniqlik» ma'nosi:

3. «Harakat belgisi» ma'nosi:

4. «Mo‘ljal» ma’nosi:
5. «Bir xil» ma’nosi:
6. «Kuchaytirish» ma’nosi:
7. «Navbatma-navbat» ma’nosi:
8. «O‘xshashlik» ma’nosi:

3-mashq. Berilgan hisob so‘zlarini quyidagicha mikrosistemalarga ajrating.

Bosh, nafar, dona, nusxa, tup, jon, dasta, to‘da, to‘p, sentner, misqol, qadoq, botmon, kosa, varaq, luqma, parcha, poy, siqim, tilim, tomchi, to‘g‘ram, chaqmoq, chimdim, shingil, qultum, piyola, qop, qoshiq, quti, shoda, quchoq, hovuch, asr, yil, tiyin, miri, paqir, dinor, kun, kecha-kunduz, karra, qatla, daf‘a, sidra.

1. *Predmetni yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zi:*
2. *Predmetni butun yoki to‘daning qismi sifatida hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zi:*
3. *Predmetni to‘dalab, guruhlab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zi:*
4. *Predmetning og‘irlik o‘lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zi:*
5. *Predmetning uzunlik va masofa o‘lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zi:*
6. *Vaqt o‘lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zi:*
7. *Qiymat o‘lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zi:*
8. *Harakat miqdorini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zi:*

4-mashq. Berilgan gaplardagi sonlarning sintaktik vazifasini belgilang.

1. *Daftarning **uchtasi** menda.* 2. *Darvoza tepasiga shoxning **ikkitasi** qo‘yilgandi.* 3. *Bu xotinning joni **bitta** emas, balki **mingta**.* 4. *Samarqandni **bir necha** marta ko‘rganman.* 5. *U marraga **birinchi** yetib keldi.* 6. *Bir chetda gulzor oralab **ikkita** chiroyli qiz gul terib yuribdi.* 6. *Qarzni odamning **ikkinchisidan** so‘rang.* 7. *Bizning **beshovimizda** chora yo‘q.*

1-topshiriq. Har bir gap bo‘lagiga sonning bir guruhini ishtirok ettirib o‘zingiz mustaqil gaplar tuzing.

Namuna: 1. *Daftarning **uchtasi** menda.* Uchtasi – ega; talabalarning **oltitasi** buxorolik.

SEMINAR MASHG‘ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR. TEST.

Son so'z turkumi bo'yicha test savollari

1. Qaysi qatorda songa oid grammatik xususiyatlar noto'g'ri berilgan?
A) Son boshqa so'z turkumidan yasalmaydi
B) Sonning turlari maxsus qo'shimchalar qo'shish bilan yasalmaydi
C) Son otlashmasa turlanmaydi
D) Son odatda aniqlovchi so'z bilan qo'llanmaydi
2. Qaysi javobda arab raqamlarining rim muqobili noto'g'ri ifodalangan?
A) CM-900, to'qqiz yuz
B) M-1000, ming
C) LXX-70, yetmish
D) CCD-200, ikki yuz
3. Qaysi sonlarga -lan qo'shimchasini qo'shish orqali yangi so'z yasash mumkin?
A) ikki
B) yuz
C) uch
D) A va B
4. Sonning morfologik xususiyatlari qaysilar?
A) Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar sonning hamma turlariga ham qo'shilavermaydi
B) Boshqa so'z turkumlaridan son yasalmaydi
C) Sondan turli so'z turkumlari yasalishi mumkin
D) A, B C
5. Sonning sintaktik xususiyatlarini aniqlang.
A) Sonlar gapda aniqlovchi va kesim vazifasida keladi.
B) Sonlar hech qachon belgi ifodalovchi so'zlarni o'ziga tobe qilib kelmaydi.
C) Boshqa so'z turkumlaridan son yasalmaydi.
D) A, B
6. Kasr sonni toping.
A) Ikki hovli qo'shib yuborilgan edi,
B) ... qizarib-bo'zarib, ketmondek oying yarmi ko'rinadi.
C) ... to'rt-beshtacha chakana havaskorlarga kelibdi.
D) Nonvoyxonadan ikkita issiq non olib chiqay.
7. **Bir** so'zi qaysi gapda chegaralash ma'nosini bildirgan?
A) U Toshkentdan vakil bo'lib kelgan bir rus kishi bilan gaplashmoqda.
B) Choy mahalida bir kulib, bir yig'lamsirab, o'zi, bolalari to'g'risida gapirdi.
C) Vodiylarni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda.
D) Hammamiz imtihonlardan yaxshi o'tdik, bir Ahmadning mazasi bo'lmadi.
8. Chama sonni toping.
A) Ularning har ikkalasi ham shu to'g'rida o'ylar edi.
B) To'rt-beshtacha chakana havaskorlarga kelibdi.
C) Lekin ular yiqqan kitoblar chol yiqqan kitoblarning o'ndan biriga ham teng kelmaydi.
D) Hozir ular bo'lajak shiyponning to'rtinchi ustunini tayyorlashyapti.
9. **Qurbon ota ikkinchi samovarga xumdan suv olib quymoqda edi.** Shu gapdagi tartib sonning sintaktik vazifasini belgilang.

A)kesim B)ega C)to'ldiruvchi
D)aniqlovchi

10. Qaysi qatorda sonlarni yozishda imlo xatoga yo'l qo'yilgan?

A)bitta,ikkita B)uchchala, to'rttala
C)besh- o'n, ellik-oltmishtacha D)uchdan bir, beshdan uch

11. Ki hisob ichra bor edi o'n lak, Har laki o'n tuman kelib beshak (Navoiy)

Misralarda qo'llangan bir lak nechaga teng?

A)yuz B)ming C)o'n ming D)yuz
ming

12. Qaysi qatordagi sonlarga jamlovchi son hosil qiluvchi qo'shimcha qo'shilsa, o'zakda o'zgarish ro'y beradi?

A)to'rt, besh B)sakkiz, o'n C)olti, uch D)ikki,
yeti

13. Jamlovchi son qaysi qatorda?

A)So'rining shundoq yoniga ikki dona olma tushibdi.

B)Saida uyiga kech soat o'n birlarda qaytdi.

C)Shunday qilib, to'rttala nomzod ham ro'yxatda qoldi.

D)Patnisda to'rtta kulcha, ikki bosh qizil chillaki va bir bosh oq uzum bor edi.

14. Quyidagi gaplarning qaysi birida **bir** soni noaniqlikni ifodalayapti?

A)Birdan mehmon kelib qolsa bo'ladimi?!

B)Endi sizlar uchun bir juft qo'shiq eshittiramiz.

C)Eshonning bir talay qoramollari, qo'ylari bor edi

D)Maktab hovlisida sizni bir kishi chaqiryapti.

15. **-ala** qo'shimchasi qaysi sonlarga qo'shilib kelishi mumkin?

A)yetti, to'qqiz, o'ttiz B)o'n besh, qirq, ellik

C)besh, olti, ikki D)bir, sakkiz, uch

16. Quyidagi gapda **bir** so'zining qaysi ma'nosi ifodalangan?

Oonun oldida hamma bir.

A)miqdor B)noaniqlik C)marta ma'nosi D)teng

17. Qaysi sonlardan jamlovchi son yasalganda, tovush tushishi hosil bo'ladi?

A)ikki, uch, olti B)ikki, to'rt, yetti

C)ikki, olti, yetti D)ikki, besh, olti, yetti

18. **Olti** so'zida sonlarning ma'no va grammatik turlaridan qay birini hosil qilishda tovush tushishi yuz beradi?

A)miqdor sonlar B)chama sonlar

C)tartib sonlar D)jamlovchi sonlar

19. Sonning ma'no turlarini hosil qiluvchi qo'shimchalarning qaysilari hamma sonlarga qo'shila olmaydi?

1)-ta 2)-tacha 3)-ov 4)-ala 5)-lar 6)-larcha 7)-lab 8)-inchi

A)3,4,6,7 B)3,4 C)2,3,4,5,6,7 D)3,4,7

20. Tarixiy kelib chiqishiga ko'ra jamlovchi son shakli bo'lgan **birov** so'zi hozirgi kunda qanday so'z?

A)olmosh B)yordamchi soʻz C)jamlovchi son
D)ravish

21.Oʻzbek tilida tub sonlar miqdori nechta?

A.35 ta B.24 ta
S.23ta D.25ta

22. Dona son berilgan qatorni toping.

A. Oʻnta daftar sotib oldim B.Ikki yorti bir butun
C.Yigʻilishga oʻntacha odam keldi D.Bir doʻstim, ikkinchisi
akam boʻladi

23. Songa xos boʻlmagan xususiyat qaysi qatorda toʻgʻri berilgan?

A.Egalik qoʻshimchalarini oladi B.Turlanadi
C.Otlashadi D. Yasaladi

24.Soning maʼno turlarini yasovchi qoʻshimchalar qanday qoʻshimchalar sanaladi?

A.Soʻz yasovchi B. Soʻz shakil yasovchi
C.Turlanuvchi D.Tuslovchi

25.*Birniki mingta , mingniki tumanga.* Maqolidagi “tuman “ soʻzining maʼnosi qaysi qatorda toʻgʻri berilgan?

A.Oʻn ming B.Yuz ming
C.Ellik ming D.Bir million

26.Otlashgan son berilgan qatorni belgilang.

A.Yuzta siz-bizdan bitta jiz-biz yaxshi B.Birni kessang,
oʻnni ek
C.Urush millionlab odamlarning yostigʻini quritdi. D.Ikkinchi qavatga
koʻtarildik

27.*Beshalasi ham Samarqanddan boʻlishadi.* Gapdagi sonning sintaktik vazifasini belgilang.

A.Ega B.Toʻldiruvchi
C.Toʻldiruvchi D.Hol

28.*-lab va-larcha* qoʻshimchalari son dan tashqari yana qaysi soʻz turkumida uchraydi.

A.Ot soʻz turkumida B.Sifat soʻz turkumida
C.Ravish soʻz turkuida D.Feʻlda

29.Yasama sonlar berilgan qatorni toping.

A.Oʻnta, oʻntadan, oʻntacha, C.Yuzlab, minglab, ikkinchi
B.Bunday son yoʻq D.Birov, uchalasi, toʻrtovi

30. –ov, ovlon, ala qoʻshimchalari sonlari qoʻshilganda qanday oʻzgarish roʻy beradi?

A.Tovush tushadi
B.Tovush oʻzgaradi
C.Tovush orttiriladi
D.Tovush tushadi va ortiriladi

Mavzu: Ravish, uning ma'noviy va grammatik (o'zgarmaslik) belgisi. Ravishlarning ma'noviy turlari va ularning so'z yasash qoliplari

Reja.

1. Ravish Ī mustaqil ma'noli va morfologik o'zgarmas so'zlar turkumi.
2. Holat, miqdor-daraja, o'rin va payt ravishlari xususida.
3. Ravishlarda so'z yasash hodisasi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

Ravish, ravish UGMsi, morfologik o'zgarmaslik, holat ravishi, miqdor -daraja ravishi, o'rin ravishi, payt ravishi, ravishlarning darajalanishi, ravishlarda so'z yasash qoliplari, yaxlitlanish (soddalashuv), ravishlarning gapdagi vazifalari, belgi ma'nosini kuchaytiruvchi va pasaytiruvchi so'zlar, "o'zbekcha" so'zi haqida mulohazalar.

Ravishlar tilshunoslikda hamisha muammo bo'lib kelgan. Ravish so'z turkumini Evropa tilshunosligi tarixida atroflicha o'rgangan olim V. Vinogradov "mustaqil so'zlarning hech bir guruhiga sig'may qolgan so'zlar ravish turkimiga yig'ilgan" deb yozgan edi.¹ Ravishlarning ma'no va fazifasi jihatidan ot, sifat, son, olmoshlarga yaqin turushi arab va Evropa tilshunosligida qayd etilgan. Sharq va g'arb tilshunoslari ravishlarni ma'no va vazifasi jihatidan emas, balki boshqa mustaqil so'zlarning birortasiga xos bo'lmagan belgi Ī o'zgarmaslik belgisi bilan ismlardan farqlaydilar. O'zbek tili grammatik quruluşining tavsifiga bag'ishlab yozilgan ko'plab ilmiy adabiyot va dasrliklarda ravishlarning o'zgarmaslik tabiatiga amal qilinmagan. Tilshunolar ravishni ruscha "наречие" ning o'zbekcha muqobili sifatida talqin qilganlar va natijada *kecha, kunduz, tong, oqshom* kabi payt otlari; *barvaqt, kech* kabi payt sifatlari; *atrof, o'rt, u yerda, bu yerda, old, orqa* kabi o'rin otlari; *oz, mo'l, butun, to'la* kabi miqdor sifatlari; *keyin, past, baland, yuqori* kabi o'rin sifatlari ravish turkumiga kiritilgan. Bu esa ravishlarni o'rganishda qator chigalliklarni yuzaga keltirgan.

Ravishlar mustaqil ma'noli o'zgarmas so'zlardir. Ular belgini, miqdor yoki holatni, o'rin, payt ma'nolarini ifodalaydi va bu jihatdan ot, sifat, sonlarga yaqin turadi. Ammo ulardan farqli tomoni shundaki, so'z o'zgartiruvchi, shakl yasovchi qo'shimchalar bilan birika olmaydi, otlar- lar ko'plik qo'shimchasi bilan, sifatlar *-roq* daraja qo'shimchasi bilan erkin birika oladi. Chunonchi: *tongda, oqshomda, kunduzlari, ko'proq, ozroq, balandroq*. Ayrim til birliklarida uchraydigan egalik, kelishik shakllari ravishning o'zak qismida soddalashgan, ya'ni yaxlitlanib qolgan: *birdan, zumdan, to'satdan* va boshqalar. Bu qo'shimchalardan tashqari qadimgi davrlarda keng ishlatilgan *-ra* qo'shimchasi (*so'ngra, uzra*), *-a* qo'shimchasi (*qayta, ko'tara*), *-in(-un)* qo'shimchasi (*birin-ketin, ostin-ustun*) ham so'zlar tarkibida yaxlitlanib qolgan. Ravish so'z turkimini talqin qilishda uning o'zgarmaslik xususiyatiga tayanish ushbu so'z turkumi tarkibini belgilashda bo'lgan qator qarama-qarshiliklarga nuqta qo'ydi. Ilmiy adabiyotlarda *eng, juda nihoyat (da), g'oyat (da), lang, g'irt* kabi so'zlar kuchaytiruv ravishlari deb ko'rsatiladi.¹ Bu shakllar sifatlar oldidan kelib belgi ma'nosini kuchaytirishga (*juda chiroyli, benihoya keng*) va pasaytirishga (*sal tor, xiyol keng*) xizmat qiladi. Keyingi yillarda ayrim tadqiqotchilar bu elementlarning ravish bo'lolmasligini, ularning ravish kabi mustaqil lug'aviy ma'noga ega emasligini ta'kidlab, ushbu shakllarni kuchaytiruv yuklamalari tarkibiga kiritishni ma'qul ko'radilar.

Ravishlarning holat, miqdor-daraja, o'rin, payt ravishlari kabi to'rt asosiy ma'noviy guruhi bor.

¹ Виноградов В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. М., 1947. стр.340.

¹ Ўзбек тили грамматикаси. Т., 1975, 1-жилд. 532-бет. Ne'matov H. va b. Ona tili. 6- sinf uchun darslik. Т., 2001, 154-бет.

1. **Payt ravishlari** ish-harakatning vaqtini, muddatini bildiradi: *endi, saharlab, hali, doim, boya, indin* va sh. k. Payt ravishlari gapda, ko'pincha hol, ba'zan kesim vazifasida keladi: *Bugun erta turib tongni ko'rdim...* (Uyg'un.)

2. **O'rin ravishlari** ish-harakatining yuzaga chiqish o'rnini ifodalaydi: *olg'a, uzra*. Yuqorida aytilganidek, o'rin ravishlarini o'rin ma'nosini ifodalaydigan otlardan farqlamoq kerak, chunki *atrof, o'rta, uchkari, tashqari, o'ng, chap* kabi o'rin otlari morfologik jihatdan o'zgara oladi. O'rin ravishlari esa o'zgarmas. Chunonchi, *atrofimiz, o'rtada, ichkarida, o'ngdan, chapda, oldida, u yerdan* va boshqalar.

3. **Holat ravishlari** ish-harakatning bajarilish usulini bildiradi. Tarz-tus ravishlari deb ham yuritiladi: *bexosdan, astoydil, majburan, qavatma-qavat, mardlarcha, yigitchasiga, o'zbekona*.

"O'zbekcha" so'zi ham qator darsliklarda ravish so'z turkumiga kiritilgan².

"O'zbekcha" so'zi morfologik o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega (*o'zbekcha (ni), o'zbekcha(ga), o'zbekcha (dan)*), shuning uchun "o'zbekcha" so'zini sifat deb baholash lozim.

4. **Miqdor -daraja ravishlari** miqdoriy sifat va darajani ifodalaydi: *ko'plab, sal, qarich-qarich, arang, ancha, xiyol, yana* kabilar miqdor-daraja ravishlariga misol bo'ladi. Miqdor-daraja ravishlari songa yaqin turadi, ammo noaniq miqdorni ifodalovchi sonlardan farq qiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan ravishlar tarkibiga diqqat qilsak, ularda turli so'z yasash qo'liplari borligini ko'rish mumkin: [*arabcha ot+an*]; [*ot+chasiga*]; [*ot+ona*]; [*ot+larcha*]; [*ot+lab*] kabi.

Qo'shma ravishlar esa quyidagi qo'liplarga ega: [*olmosh+ot*] (*har gal, har zamon, [ravish+ot] → [hali zamon]; [son+ot]* — (*bir yo'la, bir dam*).

Boshqa tirkumdagi so'zlarni takrorlash orqali ham ravish hosil qilish mumkin: *yuzma-yuz, quruqdan-quruq* va shu kabilar. Tilshunosligimizda ravish yasalishi masalasi ancha munozaralidir. Chunki ravishlarning asosiy qismi soddalashgan, ya'ni yaxlit birlikka (leksemaga) aylangan. Olimlar ravish turkumining yasalish sistemasiga ega emasligini *-an, -ona* qo'shimchalarining arabcha va tojikcha birlik ekanligi bilan, *-larcha, -chasiga, -lab* kabilarning grammatik ma'no ifodalashi bilan va *-iga/-siga; -chasiga* qismi bo'lgan so'zlarning barmoq bilan sanarli darajada ekanligi bilan izohlaydilar.

Ravishlar gapda ko'pincha fe'lga bog'lanib, hol vazifasida keladi; otga bog'lanib sifatlovchi vazifasini bajaradi: *Ular ancha yergacha asta borib, gaplashib ketdilar* (O.).


Adabiyotlar:

1. Виноградов В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. М., 1947. стр. 340.
2. Нигматов Х. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. Т., 1989.
3. Ўзбек тили грамматикаси. 1-жилд. Т., 1975.

SLAYDLAR

Ravish ma'noviy guruhlari


² Ўзбек тили грамматикаси. Т., 1975, 1-жилд, 529-бет.




Gaplardagi ravishlar ning yasalish tarkibi



Namuna:



Ravishlarning tuzilishiga ko'ra turlari



TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA`LIM UCHUN MATERIALLAR(Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)

Quyidagi omonim qo'shimchalarga misollar yozing. Ular
2 xil so'z turkumini ifoda etsin.

-n(-un,-un), -larcha, -cha, -lab, -da, -dan, -lar.


**Berilgan gaplarni o'qing. Qo'shimchalarning qo'llanishiga
e'tibor bering. (Kelishik, egalik)**

1. Qo'qqisdan singlim kirib keldi.
2. Men doim uni uzoqlarga tikilib kutaman.
3. Ota-onasini rozi qilgan odamning umri ziyoda bo'ladi.
4. Yaqinda do'stlarim uyga kelishdi.
5. Men birdaniga gapirib yubordim.
6. Qahramonga onasi bo'lgan voqeani tezda so'zlab berdi.

**"Xushmuomalali bo'laylik" mavzusida matn tuzing.Unda juft
va qo'shma ravishlarni ishlating.**

AMALIY MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

1-mashq. Gaplarni o'qing va ravish turkumiga oid so'zlarni aniqlang.
1.Sizni hazrat Navoiy tavalludiga bag'ishlab o'tkaziladigan fakultetiiz
adabiy – badiiy kechasiga lutfan va qalban taklif etamiz.2. Mastura
ayyorona javob berdi. 3. 4-kurs talabalari paxta yig'im-terimiga qisman
borishmadi.4. kunduzlari havo biroz iliydi. Xonaga birin-ketin qizlar
kirib kela boshladi. 5. So'rida qat-qat duxoba ko'rpachalar ustma-ust
to'shalgan edi. 6. Yurtim, senga she'r bitdim bu kun, Qiyosingni
topmadim also. Shoirlar bor o'z yurtin butun olam aro atagan tanho.
1-topshiriq. Topilgan ravishlarni ma'noviy guruhlarini aniqlab, ustunda
ifodalang.




2-topshiriq. Gaplardagi ravishlarning yasalish tarkibini tushuntiring.



Namuna:



2-mashq. Ravishlarning tuzilishiga ko'ra turlari bo'yicha misollar keltiring.



3-mashq. Ma'ruzada olgan bilimlaringizga tayanib, ravish haqidagi ma'lumotlarni to'ldiring.

1. Ravishni o'rgangan olim V.V.Vinogradov « ... so'z ravish turkumiga yig'ilgan» deb haqqoniy baho bergan edi.

2. Sharq va g'arb tilshunosligi ravishni ma'no va vazifasi jihatidan emas, balki boshqa birortasiga xos bo'lmagan belgi – ... bilan ismdan farqlaydi.
3. Ravishning so'z turkumi sifatidagi UGMsi - ...
4. Qadimgi davrda keng iste'molda bo'lgan -ra (jo'nalish kelishigi), shuningdek, ... qo'shimchalari ham ravish tarkibida qotib qolgan.
5. ... ravishi harakatning bajarilish usuli, tarzini bildiradi.
6. Noiloj, noilojlikdan, bekordan-bekorga, chor-nochor kabilar ... ravishlaridir.
7. Bajonudil, baholiqudrat, baqadrihol; har yili tuzilishiga ko'ra ...

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR. TEST.

Ravish so'z turkumi bo'yicha test savollari

1. Quyidagi gapda ravish turkumiga xos so'z qanday sintaktik vazifada kelgan?

Mehmonni uyga olib kir, men otga picha yem tashlab qo'yay.

A) ravish holi B) o'rin holi C) payt holi D) miqdor-daraja holi

2. Ravish o'rnida qo'llanuvchi olmoshlar berilgan qatorni toping.

A) nega, qani B) men, sen C) siz, ular D) qancha, nega

3. Salimaning ko'ngli joyiga tushdi va aybdorlarcha tabassum bilan yigitga qaradi.

Ushbu gapda ravish qanday vazifada kelgan?

A) hol B) sifatlovchi-aniqlovchi C) ega D) qaratqich-aniqlovchi

4. Dam o'tmay, a'lochi o'quvchilarni birin-ketin nom-banom chaqirishib, xonalarga taklif qilishdi. Shu gapdagi ravishlarni toping.

A) dam o'tmay B) nom-banom, birin-ketin
C) xonalarga, nom-banom, a'lochi D) dam o'tmay, nom-banom, birin-ketin

5. So'zlarni faqat belgi anglatish xususiyatiga asoslanib, qaysi turkumga ajratish mumkin?

A) sifatga B) songa C) ravishga D) sifat va ravishga

6. O'sha yillar qancha-qancha vatandoshlarimiz qatag'on qilindi.

Ushbu gapdagi ravishni toping.

A) o'sha B) yillar C) qatag'on D) qancha-qancha

7. Ravish berilmagan qatorni toping.

A)so'zma-so'z B)o'z-o'zidan C)quruqdan-quruq D)barchasi ravish hisoblanadi

8. Belgining belgisini bildirgan ravishni toping.

A)Mashina tuzroq yura boshladi.

B)Oqshom paytida shamol birdan to'xtadi.

C)Ra'no majlisda yaxshi gapirdi.

D)Uning so'zlari bolalarcha sodda, samimiy, lekin aniq va ravshan.

9. **Dam o'tmay, a'lochi o'quvchilarni birin-ketin nom-banom chaqirishib, xonalarga taklif qilishdi.** Gapdagi ravishga oid so'zni toping.

A) dam o'tmay B) nom-banom C)xonalarga D) dam o'tmay, nom-banom

10. **Suhbat haqida Aziza keyin uzundan uzoq so'zlab berdi.**

Shu gapdagi ravishga oid so'zni toping.

A)so'zlab B) keyin C) uzundan-uzoq D)B, C

11. **Yaqindan musiqa ovozi eshitildi.** Ushbu gapdagi ravishni toping.

A)musiqa B)ovozi C)yaqindan D)eshitildi

12. Qaysi qatordagi gapda **-i, -si** qo'shimchalari egalik ma'mosini ifodalamaydi?

A)Ona **tuni** bilan uxlamadi. B)**Kechasi** yomg'ir yog'di.

C)Berilgan gapda egalik ma'nolari ifodalanmagan

D)O'tgan **yili** hosil yaxshi bo'lgan edi.

13. **Yigitning ko'ngli biroz tinchidi va aybdorlarcha tabassum bilan qizga qaradi.**(O) Ushbu gapdagi otga bog'langan ravishni toping.

A)bir oz B)aybdorlarcha C)oz D)A, B

14. Faqat ravishlar berilgan qatorni aniqlang.

A)tiklab, pag'alab, mo'ylab B)qarab, aqrab, mansab

C)yonlab, egatlab, dastlab D)haftalab, kilolab, saharlab

15. Ravishni toping.

A)Pak-pakana bo'yi bor, yeti qavat to'ni bor.

B)G'ulomjonning oppoq yuzi issiqdan qizargan edi.

C)Mana, begim, falokat! bo'ron boshlandi,-dedi yamshik

D)Vodiylarni yayov kezganda...

16. **Tog'adan, yangalardan yashirincha u bilan bir- ikki marta kinoga tushdi.**(O)

gapdagi ravishga oib so'zni toping.

A) bir- ikki marta B) yashirincha C) kinoga D)A, B

17. **Kumush uyalgannamo yuzini chetga burdi.** Ushbu gapdagi ravishga tegishli so'zlarni toping.

A)_chetga B) uyalgannamo C) yuzini D) A, B

18. Ravish biror so'z bilan bog'lanib birikma hosil qilganda, sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalardan qaysisini oladi?

A)kelishik B)egalik C)shaxs-son

D)hech qanday sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarni olmaydi

19. Tez yongan bot soviydi . Gapdagi ravishga oib so'zlarni toping.

A)tez B)bot C)yongan D) A, B

20. Otga bog'lanib kegan ravish qaysi gap tarkibida qo'llangan?

A)Yigitning ko'ngli tinchidi va aybdorlarcha tabassum bilan qizga qaradi.

B)Toshpo'latning yordamchilari birin-ketin kelishdi.

C)Men o'z qo'lim bilan shiringina palov qilib beraman.

D)U ovoz kelayotgan tomonga borar ekan, kuy to'satdan o'zgardi.

21.Holat ravishlari berilgan qatorni belgilang

A.Kecha,bugun,ertalab

B.Ko`p,oz,ancha

C.Asta,birdan,jo`rttaga

D.Do`stona,kutilmaganda,yoppasiga

22.Ham ravish,ham sifat yasovchi qo`shimchalarni toping

A.-ona,-larcha,-lab

B.-siz,-cha,-in

C.-iy,-viy,-sira

D.-k,-iq,-gan

23.Qo`shma ravish berilgan qatorni toping

A.Hech qanaqa

B.Har bir

C.Allakimsa

D.Har qayoqqa

24.Ravish to`ldiruvchi vazifasida kelgan gapni belgilang.

A.Ko`p yurtlani piyoda kezib chiqmoq.

B.Kelajakdan umidlarimiz ko`p.

S.Ko`pchilik uning fikrini ma`qullaydi.

D.Ko`pdan qolma,keyin pushaymon bo`lasan.

25.Sodda tub ravishlar qaysi qatorda berilgan?

A.Mardona,birdan,to`satdan

B.Ko`p,bugun,ancha.

C.Ozgina,ertaroq,barvaqt

D.Ostin-ustun,bor,ishla

26.Ravishlarga xos bo`lmagan xususiyat qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?

A.Yasaladi

B.Sodda, qo`shma, juft shakllarda ishlatiladi

C.Asosan hol vazifasida keladi

D.Harakatning beldisini ko`rsatadi.

27.Yasama ravishlar berilgan qatorni toping.

A.Bir o`yla, biroz, har qachon

B.Xomligicha, butunlay, o`zicha

C.Suvsiz, shubhali, beo`rin

D. A va B javoblar

28.*El-yurt manfaati uchun astoyidil mehnat qilaylik.* Ravishning gapdagi vazifasini aniqlang.

- A. Ega
- B. Kesim
- C. Aniqlovchi
- D. Hol

29. Ravish gapda, asosan, qaysi soʻz turkumiga bogʻlanib keladi?

- A. Feʻlga
- B. Otga
- C. Olmoshga
- D. Songa

30. Payt ravishalri berilgan qatorni toping.

- A. Astagina, tezroq
- B. Shu yerda, oʻtgan yiki
- C. Hozirda, shunda
- D. Onda-sonda, baʻzan

Mavzu: Taqlidlar. Ularning maʼnoviy va grammatik xususiyatlari. Mustaqil soʻzlar tizimida oʻziga xos maʼno va vazifa xususiyatlari

Reja:

1. Taqlidlar mustaqil soʻz turkumi sifatida.
2. Taqlidlarning maʼno guruhlari.
3. Taqlidlarning tuzilishiga koʻra turlari.

Mavzu boʻyicha tayanch iboralar:

Taqlidlar, taqlidlarning maʼnosi, taqlidlar ĩ mustaqil soʻz turkumi, maʼnoviy gʻayrioddiylik, taqlid soʻzlar orasida darajalanish, tovushga taqlid soʻzlar, harakat-holatga (koʻrinishga) taqlidlar, taqlidlarning tuzilishiga koʻra turlari, taqlidlarning sintaktik qoʻllanilishi, taqlid soʻzlar orasida maʼnodoshlik, shakldoshlik, koʻpmaʼnolilik, tasviriy soʻzlarning leksik xususiyatlari.

Taqlidlar oʻzbek tilida katta bir guruhni tashkil qiladi. Ular oʻzbek tilining bugungi grammatikasida mustaqil soʻzlar sirasiga kiritilgan. Chunki birinchidan, taqlidlar turkiy tillarda miqdoran juda koʻp va maʼno jihatdan oʻta rang-barangdir. Shuning uchun taqlidlar turkiy tillarning, jumladan, oʻzbek tilining muhim ifoda va tasvir vositasidir. Ularning ifoda tomoni mazmun tomonidan maʼlum bir xabar, darak berib turadi. Chunonchi, *taq-taq, tars-turs* kabi taqlidiy soʻzlarni olaylik. Bu soʻzlardagi tovushlar tizmasi ularning maʼnosidan xabar berib turadi. Shu sababli tilshunoslar taqlidiy soʻzlarda ifoda va mazmun tomonining ijtimoiy, sof ramziy, balki tabiiy bogʻlanish mavjudligini qayd etadilar [2; 4;]. Buni quyidagi soʻzlar qatorini solishtirish asosida ham ilgʻab olsa boʻladi:

- 1) *tiq-tiq / tuq-tuq / toʻq-toʻq / taq-taq;*
- 2) *liq-liq / luq-luq / laq-laq;*

3) *tirs-tirs / tars-tars/ tars-turs.*

Bu qatorlardan ko'rinadiki, tor unlilar va qattiq undoshlarni olgan taqlidiy so'zlardagi belgi darajasi keng unlilarni va qattiq undoshlarni o'z ichiga olgan taqlidiy so'zlar ifodalagan belgidan ko'ra pastdir. Bu taqlidiy so'zlarda shakl va mazmun orasida tabiiy bog'lanish borligidan dalolat berib turadi [1, 77-78;]. O'zbek tilidagi taqlidlar jamiyatning har bir a'zosi tushunadigan o'ziga xos ma'nolarga ega. *Tiq-tiq, taq-taq, chiq-chiq, ship-ship* so'zlari orasidagi ma'noviy farqni va bu so'zlarning ma'nolari ma'lum voqelanishlar (*Soat chiq-chiq etyapti; Hassa to'q-to'q qilyapti; Guli piq-piq yig'laydi*) bilan bog'liq ekanligini hatto yosh bolalar ham tushunadilar. Ma'noviy g'ayrioddiylik faqat taqlidlargagina xos emas. Masalan, olmoshlar atov lug'aviy ma'nosiga ega emas. Ularning ma'nolari faqat matn tarkibidagina anglashiladi. Ammo olmoshlardagi ma'noviy "bo'shlik" ularni mustaqil so'zlar sirasiga kiritishga to'siq bo'lolmaydi. Bunday to'siq taqlidlarga ham ta'sir qila olmagan va taqlidlar mustaqil so'zlar sirasiga kiritilgan. Ikkinchidan, taqlidlar morfologik jihatdan o'zgaruvchan: *odamlarning g'ovur-g'uviri, eshikning taq-taqidan, to'plarning gumbur-gumburini* kabi. Uchinchidan, taqlidlar gap tarkibida biror so'roqqa javob bo'lib, ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, hatto, kesim vazifasida kela oladi:

1. *Mahallada duv-duv gap* (aniqlovchi).
2. *Shabada g'ir-g'ir esmoqda* (hol).
3. *Arilar g'uj-g'uj* (kesim).
4. *Otlarning gupur-gupuri eshitildi* (ega).
5. *Tashqaridagi g'ala-g'ovurdan uyg'ondi* (to'ldiruvchi).

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, turkiy tillardagi taqlidlar morfologik qurilishi va sintaktik qo'llanilishi bilan flektiv tillardan farq qiladi.

Taqlidlarning bir xili tovushga taqlidni ko'rsatsa, ikkinchi bir xili harakar-holat, ko'rinishga taqlidni ko'rsatadi.

I. Tovushga taqlid so'zlar. Bular kishilar, jonivorlar, narsa va hodisalarning chiqargan tovushlariga taqlid qilish natijasida paydo bo'ladi. Bularni yana quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Kishilarning harakatidan paydo bo'lgan tovushga taqlidlar: *qult-qult, qah-qah, xur-xur...*
2. Hayvon va jonivorlar tovushiga taqlidlar: *g'uv-g'uv, miyov-miyov, mo-o-o...*
3. Jonsiz predmetlar tovushiga taqlidlar: *g'ir-g'ir, shiq-shiq, shivir-shivir.*

II. Holat, ko'rinishga taqlid so'zlar. Tovushga taqlid so'zlar eshitish bilan bog'liq hodisalarni ifodalasa, holat, ko'rinishga taqlidlar ko'rish bilan bog'liq hodisalarni ifodalaydi. Bularning ham semantikasi har xildir:

1. Harakatni ifodalovchi taqlidlar: *dik-dik, lip-lip, lapang-lapang, ship-ship, lop...*
2. Holat, tashqi ko'rinishni ifodalovchi taqlidlar: *lang, hil-hil, jiq-jiq...*
3. Yorug'lik tasvirini ifodalovchi taqlidlar: *jivir-jivir, yalt-yult, yilt-yilt.*

Taqlid (tasviriy) so'zlar yozma adabiyotda, og'zaki nutqda, folklorda juda ko'p ishlatilib, nutqqa badiiy bo'yoq, ekspressivlik beradi. Ularning paydo bo'lishi odamlar nutq organlarini juda yaxshi boshqara olish qobilitiga ega bo'lgan davrlariga to'g'ri keladi. Yozma adabiyotning dastlabki namunalarida tasviriy so'zlar juda kam ishlatilgan. Navoiy, Muqimiy, Zavqiy asarlarida esa ular salmog'ining kengayganligini sezish mumkin. Bugungi kunda esa tasviriy so'zlar miqdori ancha ko'paygan, rang-barang ko'rinishlarga ega.

Har bir taqlid so'zning o'z ishlatilish o'rni bo'ladi. Masalan, *Qiqir-qiqir kuldi; Piq-piq yig'ladi* deyish mumkin bo'lsa ham, *Piqir-piqir yig'ladi* deyish mumkin emas.

Taqlid so'zlar orasida ham ko'pma'nolilik, shakldoshlik, ma'nodoshlik munosabatlari mavjud bo'ladi. Bular tilshunos R. Qo'ng'irov tomonidan atroflicha o'rganilgan.

Taqlidlar tuzilishiga ko'ra sodda (shig', yalt, yarq, paq, shir), juft (shov-shuv, qiy-chuv, g'ing-ping), takroriy (miyov-miyov, taq-taq, dag'-dag') shakllarda bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серкирралиги ва уни тасниф қилиш асослари. НД. Бухоро, 1994 йил.
2. Нигматов Х. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. Ташкент, «Фан», 1989 год, стр. 20-21.
3. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Тошкент, 1975 йил.
4. Қўнғиров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. Тошкент, «Фан», 1966 йил.
5. Қўнғиров Р. Тасвирий сўзларнинг лексик хусусиятлари ҳақида. ЎТА, 1962 йил, 3-сон, 32-35-бетлар.

SLAYDLAR TAQLID TURLARI

Tovushga taqlid:	Shivir-shivir
Holatga taqlid:	Duv-duv

Taqlidlar quyidagi gap bo'laklari vazifasida keladi:

1.	EGA	<u>Shivir-shivir</u> tindi.
2.	KESIM	
3.	HOL	
4.	TO'LDIRUVCHI	
5.	ANIQLOVCHI	
6.	QARATQICH ANIQLOVCHI	

Graduonimik jihatdan oshib boruvchi taqlidlar qatori

- 1) taq-tiq/tuq-tuq...
- 2) liq-liq/luq-luq/...
- 3) tirs-tirs/...
- 4) lip-lip/ ...
- 5) jiz-jiz/ jaz-juz/...
- 6) yilt-yilt/ yalt-yult/...
- 7) xur-xur/ ...

TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MATERIALLAR(Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)

Quyidagi so'zlarni undov va taqlid so'zlarga ajrating.

Oh, kisht, lip-lip, dag'-dag', gumbur, beh-beh, ehe, uf, bay-bay, uh, obbo, o'hho', qurey- qurey, yalt-yult, qars-qurs, g'ir-g'ir.

Matnni o'qing. Matndan undov, modal, so'zlarni topib, izohlang. Taqlidlardan farqini tushunting.

...Laylak qishlog'ining eng katta boyi Muhsin guppi yotsa ham, tursa ham yeriga yer qo'shishni o'ylardi. Yana bir orzusi dono va hozirjavob odam sifatida dovrug' taratish edi. Shu sababli oldiga Nasriddin Afandi kelib, sizga maslahatim bor, deganda, sevinganidan o'yinga tushib ketgudek bo'ldi.

- Xo'sh, xo'sh, - dedi u dik etib turib, salom-alikdan so'ng Nasriddin Afandini o'tirishga taklif etarkan.

- Bilasizmi, mulla aka, - gap boshladi Nasriddin, «mulla aka»ning Muhsin guppiga moydek yoqishini bilib, - men bugun tush ko'rdim.

- Xo'sh, xo'sh? - Muhsin guppi unga bir piyola choy uzatdi.

- Tushimga otam rahmatli kiribdilar. «Bog'ingdan uch-to'rt qadam yuqoriroqda odamdek keladigan, chorak qismi yerga ko'milgan eski xum bor. Qishlog'ingdan uch-to'rt bechorani topgin, uni suvga to'ldirishsin. Xumga eng oxirgi chelak suvni quygan odamga bog'ingning yarmini xatlab. berasan», dedilar.

- Iya, xudoyo tavba qildim! - dedi Muhsin guppi sevinchdan gupillab ketgan yuragini bazo'r tinchitib.

- Taqdir ekan, qanday qilay? - dedi Nasriddin Afandi bechorahol qiyofada.

- Ha, endi tushga har balo ham kiraveradi-da, - dedi Muhsin gupp yupatgandek bo'lib, bo'lmag'ur narsa uchun hayhotdek bog'ning Yarmidan ajralib o'tirasizmi?

- Yo'q, - dedi Nasriddin qat'iylik bilan. - Otam rahmatlining tirikliklarida so'zlarini ikki qilmasdim, endi ruhlari ozor cheksinmi?

- Ofarin! Ofarin! - Muhsin guppi ham sevinchdan, ham hovlidan quruq qolish vahimasidan bir turib yana o'tirdi. - Balli! Yashang! - bu olqishini boyagidan ancha xotirjam aytdi. Chunki darrov reja tuzishga sho'ng'ib, ko'zlari sovuq yiltiray boshlagandi.

- Xo'sh, - Nasriddin gapning kashtasini yanada gajakdorroq qildi.- Qoshingizga kelishimning boisi, mulla Muhsin aka, siz qishloqning ipidan ignasigacha biladigan obro'li odamsiz. Men esa yangiman. Xo'sh, shu xumni to'ldiradigan odamni qayerdan topaman? Menga birov ishonarmidi...

Ikkinchi tomondan, juda shov-shuv qilishning ham tarafdori emasman. Otamning aytganlarini bajarib, ko'nglimni xotirjam qilsam bas.

- Juda yaxshi kelibsiz!.. - dedi - yu, shu gapidan so'ng Muhsin guppini qattiq yo'tal tutdi. Aslida bu yo'tal emas, sevinchdan otilib chiqayotgan kulgisini xaspo'shlovchi soxtalik edi. - Juda to'g'ri va oqilona yo'l, deya Muhsin guppi ko'zyoshlarini artdi. - Ovoza qilish shart emas. Bu savob ishingizni o'zim uddalab beraman. Gah desam qo'limga qo'nadigan ikkita odamim bor. Bechoralar juda kambag'al. Aytaman, o'zim boshida turib, bajarib beraman. A?

- Bo'пти, men rozi! Rahmat sizga! - Nasriddin o'rnidan turdi.

- Bo'lmasa ishni bugundan qoldirmaylik, mulla aka. Yana otamning arvohi urib yurmasin meni. Kechasi tushimga kirib.

- Juda yaxshi! - Muhsin sevinchdan qafasdagi qushday potirloyotgan yuragini qo'li bilan bosdi. Nasriddin ketish taraddudida eshik tomon yurdi-yu, ilkis to'xtadi:

Na: aytmoqchi! - dedi u bir narsani hozirgina eslagandek. – Boyagi otam aytgan xumlari hech qachon bog'da turmasdi. Ertalab uyg'onib qaragam, xuddi aytganlaridek, bog'ning o'rtasida chorak bo'yi ko'milib, tippa-tik turibdi!

- Yo tavba! - Muhsin yoqa ushladi.

Nasriddin Afandi eshagiga mindi-da, iltijo qildi:

- Kutaman, mulla aka, xudo xayringizni bersin, shu ishimi tezroq bitirishga yordam bering!

Nasriddin ketdi. Muhsin guppi sal uzoqlashishini kutib turdi-da, sevinganidan baqirib yubordi:

- Tursunali! Alimsho!

Ichkaridan uzun-qisqa bo'lib ikki kishi yugurib chiqdi...

(Zohir

A'lam)

AMALIY MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

1-mashq. Nuqtalar o'rniga mos taqlid so'zlarni qo'yib ko'chiring.

1. ... suhbatga quloq solib o'tirdi.
2. Dahlizdan ... ovoz eshitildi.
3. Olmalar ...to'kildi.
4. Alamidan ... yig'lar edi.
5. Shamol ... esmoqda.
6. Miyangda aql ... bo'lsa ham, ba'zan o'zingni yo'qotib qo'yasan.
7. etigining ... ini pasaytirish uchun oyoq uchida yurib keldi.

1-topshiriq. Qo'ygan taqlidlaringizni ikkiga: tovushga va holatga taqlidni bildiruvchi so'zlarga ajrating.

Namuna:

Tovushga taqlid:	Shivir-shivir
Holatga taqlid:	Duv-duv

2-mashq. Graduonimik jihatdan oshib boruvchi taqlidlar qatorini to'ldiring.

- 1) taq-tiq/tuq-tuq...
- 2) liq-liq/luq-luq/...
- 3) tirs-tirs/...
- 4) lip-lip/ ...
- 5) jiz-jiz/ jaz-juz/...
- 6) yilt-yilt/ yalt-yult/...
- 7) xur-xur/ ...

3-mashq. Taqlid so'zlarini ishtirok ettirib gaplar tuzing. Unda taqlidlar quyidagi gap bo'laklari vazifasida kelsin.

1.	EGA	<u>Shivir-shivir</u> tindi.
2.	KESIM	
3.	HOL	
4.	TO'LDIRUVCHI	
5.	ANIQLOVCHI	
6.	QARATQICH ANIQLOVCHI	

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR. TEST.

1. Taqlid morfologik jihatdan...

- A) o'zgarmas
- B) o'zgaruvchan
- C) ba'zan o'zgaruvchan, ba'zan esa o'zgarmas
- D) to'g'ri javob yo'q

2. Odamlarning vag'ir-vug'uridan quloqlar bitgudek. Ushbu gapda taqlid so'z qanday sintaktik vazifani bajarib kelyapti.

- A) ega
- B) aniqlovchi
- C) to'ldiruvchi
- D) hol

3. Fiziologik tovushga taqlid so'zlar qatorini toping.

- A) tap-tup, taqir-tuqur, tipir-tipir

- B) qah-qah, miyov-miyov, xur-xur
 C) g`ing-ping, alang-jalang
 D) A va B javoblar to`g`ri

4. Qaysi qatorda juft taqlid so`zlar berilgan.

- A) g`arch-g`urch, duv-duv, guppa-guppa
 B) vag`ir-vug`ur, g`ing-ping, apir-shapir
 C) qah-qah, miyov-miyov, xur-xur
 D) duv-duv qilmoq, cho`lp-cho`lp qilmoq

5. Tashqi ko`rinishni ifodalovchi taqlid so`zlar berilgan qatorni toping.

- A) xil-xil, jiq-jiq, mo`lt-mo`lt
 B) lip-lip, jimir-jimir, yalt-yult
 C) g`arch-g`urch, duv-duv, guppa-guppa
 D) vag`ir-vug`ur, g`ing-ping, apir-shapir

Quyida berilgan taqlidiy so`zlarni LMTlari bo`yicha guruhlab, jadvalga joylashtiring.

Qah-qah, lip-lip, xil-xil, miyov-miyov, lik-lik, tap-tup, xir-xir, jimir-jimir, tipir-tipir, vag`ir-vug`ur, lapang-lapang, xur-xur, dik-dik, g`ing-ping, alang-jalang, guv-guv, ship-ship, jiq-jiq, yalt-yult, mo`lt-mo`lt, g`arch-g`urch, taq-tuq.

“Tovushga taqlid” LMT.		“Ko`rinishga taqlid” LMT.		
<i>Fiziologik tovushga taqlid</i>	<i>Fizik tovushga taqlid</i>	<i>Harakatni ifodalovchi taqlid</i>	<i>Tashqi ko`rinishni ifodalovchi taqlid</i>	<i>Yorug`likni ifodalovchi taqlid</i>

Mavzu: Olmosh. Uning mustaqil so`zlar tizimida o`zida xos ishoraviy o`rni va vazifasi. Olmosh ma`noviy guruhlari, yasalish xususiyatlari

Reja:

1. Olmosh – “bo`sh” ishora ma`noli so`zlar.
2. Olmosh lug`aviy ma`no guruhlari.

3.Olmoshning tuzilishiga ko'ra turlari.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

Olmosh, "bo'sh" ishora ma'noli so'z, zamir (yashirin ma'noli) so'zlar, kishilik olmoshlari, ko'rsatish olmoshlari, o'zlik olmoshlari, so'roq olmoshlari, gumon olmoshlari, bo'lishsizlik olmoshlari, belgilash (jamlash) olmoshlari, kishilik olmoshlarida ko'chma ma'no, ot-olmoshlar, olmoshning tuzilishiga ko'ra turlari, olmoshlarda shaxs ma'nosi, olmoshlarda hurmat, miqdor, munosabat ma'nolari, olmoshlarning morfologik tabiati, olmoshning sintaktik xususiyatlari, olmoshdan yasalgan turkumlar.

Hammaga ma'lumki, so'zlar ma'noviy belgisiga ko'ra uch tipga bo'linadi:

a) mustaqil ma'noli so'zlar (fe'l, ot, sifat, son);

b)bo'sh - ishora ma'noli so'zlar (olmosh);

v)yordamchi ma'noli so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, ko'makchi fe'llar).

"Ishoraviylik" ramzi bilan ataluvchi olmoshlar boshqa leksemalardan ajralib turadi. O'zbek tilshunosligida olmoshlarning doirasi va vazifasi zo'rma-zo'rakilik bilan ancha cheklantirilib, "ot, sifat, son o'rnida qo'llanuvchi so'zlar" deb behad tor tushunilgan. Vaholanki, bu bilan olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki fe'l, ravish, taqlidiy so'z, undov gap va, hatto, matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olinmagan edi. Olmoshlar guruhiga *men, sen, u, biz, siz, ular* kabi shaxsga ishora quluvchi; *kim, nima, bu, ana, mana, mana bu* kabi predmetga ishora quluvchi leksemalar; *qanday, bunday, shunday* kabi belgiga; *buncha, shuncha, qancha* kabi miqdorga; *qachon* kabi paytga; *qayer* kabi o'ringa; *shunday bo'lmoq, qanday qilmoq* kabi harakat-holatga ishora etuvchi leksemalar kiradi. Shuni aytib o'tish joizki, olmoshlar hamma vaqt ham qandaydir bir so'zni "almashtirib", uning o'rnida kelavermaydi. Chunonchi:

1.Kim mehnat qilsa, u rohat ko'radi.

2.Men kecha keldim. Sen buni bilasan.

3.Nima qilsam ham men o'zim bilaman.

4.Hamma mehmonlar biznikida.

5.Barcha mushkulotlar oson bo'ldi kabi gaplarda kishilik, belgilash, o'zlik olmoshlari hech bir so'zni almashtirmagan.

Arab tilshunosligida olmoshlar alohida so'z turkumiga ajratilmagan, balki har bir so'z turkumi ichida "yashirin ma'noli so'zlar" (zamirlar) sifatida alohida guruhlariga ajratilgan. Chunonchi, *kitob, daftar, Abbos* – ravshan ma'noli otlar bo'lsa, *men, sen, kim* – yashirin ma'noli otlar (zamid otlar)dir. Yoxud *oq, qizil, chiroyli* ĩ ravshan ma'noli sifat hisoblansa, *bunday, shunday* kabilar "zamid sifatlar" dir.

Olmoshlar shaxs, predmet, belgi yoki miqdorga xos bo'lgan umumiy (mavhum) ma'noni anglatadi. Olmosh bildiruvchi ma'no nutq jarayonida aniq yuzaga chiqadi. Ular otlar kabi kelishik, egalik, ko'plik qo'shimchalarini qabul qilib, morfologik jihatdan o'zgaradi va turli xususiyatlarni namoyon qiladi.

Olmosh qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llansa, shu turkum bajaragan sintaktik vazifani bajaradi: *O'qituvchi darsga kirdi. U o'quvchilar bilan salomlashdi.* Olmoshlar o'zidan oldin aniqlovchi talab qilmaydi: *Hamma xursand va shod. U kitobni o'qidi.* Olmoshlar ifoda etadigan ishoraviy ma'nosiga ko'ra quyidagi ma'no guruhlariga bo'linadi:

1.Kishilik olmoshlari.

2.Ko'rsatish olmoshlari.

3.O'zlik olmoshlari.

4.Belgilash olmoshlari.

5.So'roq olmoshlari.

6.Gumon olmoshlari.

7.Bo'lishsizlik olmoshlari.

I. Kishilik olmoshlari shaxs olmoshlari deb ham yuritiladi, chunki shaxsga ishora qilib keladi. Shaxs olmoshlarining qo'llanishida ayrim xususiyatlar bor. Shaxslar o'z ma'nosidan tashqari ko'chgan holda qo'llanishi mumkin. Chinonchi;

1."Biz" II shaxs ko'plikdagi "siz" olmoshi o'rnida qo'llanadi: *Qani endi biz ishga tushaylik*. Bundan tashviq ma'nosi anglashilib turadi.

2. Ko'plikni ifodalovchi olmoshlar birlik uchun qo'llanadi: *Bu ishni biz uddaladik*. Ushbu gapda "men" o'rnida ishlatilgan "biz" maqtanish ma'nosini ifoda etyapti.

3."Men" o'rnida "biz" olmoshi ishlatilib kamtarinlikni ifodalashi mumkin: *Biz bu maqolada yechimini kutayotgan muammoni olib chiqdik*.

4."Sen" o'rnida "siz" olmoshi ishlatilib hurmat ma'nosini ifodalaydi: *Siz bugun darsda faol ishtirok etdingiz*.

5."Siz" olmoshi, ko'pincha, birlik sonda hurmat ma'nosida qo'llanilganligi sababli ikkinchi shaxs ko'plik sonda "sizlar" shakli ishlatilishi mumkin: *Sizlar kelajagimiz*.

6.Kishilik olmoshlariga *-lar* qo'shilganda turli xil ma'nolar voqelanadi:

-*Senlarga aytyapman* (kamsitish ma'nosi).

-*Sizlarda insof bormi?* (ko'plik ma'nosi).

II.Ko'rsatish ma'nosini anglatuvchi olmoshlar (*bu, shu, mana, ana, u, o'sha, hov* va boshqalar) shaxs, predmet, belgini alohida ko'rsatish, ta'kid ma'nolari uchun xizmat qiladi. Ular ifodalovchi (ishoraviy) nom ham turlicha:

-shaxs yoki predmetga ishora qiladi: *-Siz o'shami?* (A.Qodiriy).

-belgiga ishora qiladi: *Menda ham shunaqa kitoblar bor*.

-vaqtga ishora qiladi: *Shu-shu Fotima kelmay qoldi*.

-o'ringa ishora qiladi: *Siz-unda, biz-bunda*.

III. O'zlik olmoshi. Bu olmosh turi ta'kid, tegishlilik ma'nosini anglatadi: *Mening o'zim bilaman*.

O'xshatish ma'nosi ham matndagi o'z so'zi orqali ifodalanadi: *Onasining o'zi*. Umumiylik, noaniqlik kabi ma'nolar: *-O'zim*. (*shunchaki*) turdagi gaplarda ro'yobga chiqadi.

IV. So'roq olmoshlari shaxs, predmet, belgi, harakatni aniqlash maqsadida ishlatiladi. Ular quyidagilarga bo'linadi:

-shaxsga nisbatan qo'llanuvchi olmoshlar (*kim, kimlar*);

-voqea-hodisa, predmetlarga nisbatan qo'llanuvchi olmoshlar (*nima, nimalar*);

-belgini aniqlashga qaratilgan olmoshlar (*qanday, qanaqa*);

-sabab va maqsadni aniqlashga qaratilgan olmoshlar (*nega, nima uchun, nechuk*);

-miqdorga nisbatan ishlatiluvchi olmoshlar (*necha, qancha*);

-harakat-holatga nisbatan qo'llanuvchi olmoshlar (*nima qildi, nima bo'ldi*);

-o'rin ma'nosini ifodalovchi so'roqlar (*qani, qayerda*);

-payt ma'nosini ifodalovchi so'roqlar (*qachon, qachonga*).

Bunday olmoshlar faqat so'rash ma'nolarini yuzaga chiqarmaydi, ma'noni bo'rttirish (*kimki, nimaki*); ritorik so'roq ma'nolarini (*Men sizga nima dedim?!*); taajjub ma'nosini (*Buning nimasi yomon?!*) ifoda etadi.

V.Belgilash olmoshlari. "Har" so'zi belgilash olmoshi bo'lib, ko'pincha, so'roq olmoshlari bilan birikib keladi va qo'shma belgilash olmoshlari yasaydi. Jamlilik ifodalovchi olmoshlar predmet, shaxs, belgiga nisbatan yig'indini, to'dani ifodalaydi: *hamma, yalpi, har kim, barcha, bari, butun*.

VI . Gumon olmoshlari muayyan predmet, shaxs, belgi yoki harakat xususida o'ta mavhum tushunchani bildiradi. So'roq olmoshlari bilan qo'shib keladigan *alla-* va *-dir* ushbu olmoshlarga noaniqlik ma'nosini kiritadi.

VII. Bo'lishsizlik olmoshlari ma'no jihatdan tasdiqqa nisbatan zidlikni bildiradi va *hech* so'zi bilan hosil bo'ladi. Bu olmoshlar gapni (fikrni) inkorga aylantiradi: *hech nima, hech kim, hech qachon, hech mahal...*

Qadimgi tilimizda ham, hozir ham ba'zan juda ko'tarinki, tantanavor nutqda kamtarinlik uchun, manmanlik qilmaslik uchun "men" kishilik olmoshi o'rnida *kamina, faqir, banda* so'zlari qo'llaniladi. Bular tilshunosligimizda *ot-olmoshlar* nomini olgan.

Olmoshlar nutqimizni o'ransiz takrorlardan tozalashning, fikrni ixcham bayon qilishning muhim vositasidir. Ular gapda turli sintaktik vazifalarda kela oladi: *Mening o'zim bu yukni ko'tara olmas edim.*

Vazifamiz I shu. Qanday kishi xor bo'lur? Bahor keldi seni so'roqlab.

Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlarini quyidagi jadvalda berish mumkin:

Olmosh	Sh a k l l a r				
	Sodda		Qo'shma	Juft	Takroriy
	Tub	Yasama			
1. Kishilik	men, sen	meniki, bularga	-	-	-
2. Ko'rsatish	bu, shu	bular, shunisi	ana bu, mana u	u-bu	o'sha-o'sha, shu-shu
3. O'zlik	o'z	o'zim, o'zlari	-	-	o'z-o'zini
4. So'roq	kim, nima?	kimga, nimalar?	nima uchun, nima maqsadda?	-	kim-kim, nima-nima?
5. Jamlovchi	hamma, bari	hammamiz	har kim, har nima	-	barcha-barcha, butun-butun
6. Bo'lishsiz-lik	hech	-	hech kim, hech nima	-	-
7. Gumon	-	birov, kimdir	allakim, alla nima	-	-

Biz yuqoridagi jadvalda olmoshning "yasama" shaklini berishda tilshunos olim G`Zikrillayevning fikrlariga tayanib, lug`aviy shakl qo'shimchalarini inobatga oldik.

Olmoshlarda **shaxs, hurmat, miqdor, munosabat** ma'nolarining mujassamligi va ularning nutqda rang-barang usulda voqelanishi, namoyon bo'lishi tilshunosligimizda aniqlangan. Masalan; kishilik olmoshlaridan *men, biz* so'zlovchi **shaxsni, sen, siz** tinglovchi **shaxsni, u, ular** o'zga **shaxsni** bildiradi. **Miqdor** ma'nosining ifodalanishi jihatidan *men, sen* birlikni; *biz, sizlar, senlar, bizlar* ko'plikni; *siz, ular* birlikka ham, ko'plikka ham betaraf ma'noni anglatadi. **Hurmat** ma'nosi II va III shaxs olmoshlariga xos. **Munosabat** ma'nosi kishilik olmoshlarining kelishik qo'shimchalarini olib o'zgarishida yuzaga chiqadi. Kishilik olmoshlariga egalik ma'nosi ham xos. Ushbu olmoshlar qaratgich kelishigida egalik ma'nosini bildiradi: *bizning universitet*. O'zbek tilida egalik ma'nosi kishilik olmoshiga *-niki* qo'shimchasini qo'shish bilan ham ifodalanadi: *meniki, bizniki, seniki* kabi. Yuqoridagi ma'nolarning ifodalanish tarzini boshqa LMGlarda ham kuzatish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Зикриллаев Ф. Ўзбек тили морфологияси. Бухоро, 1994 йил.
2. Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серкирралиги ва уни таснифлаш асослари. НД, Тошкент, 1994 йил.
3. Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Тошкент, 2001 йил.
4. Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1992 йил.

SLAYDLAR

Olmosh	Sh a k l l a r				
	Sodda		Qo'shma	Juft	Takroriy
1. Kishilik	<i>men, sen</i>	<i>meniki</i>	-	-	-
2. Ko'rsatish	<i>bu, shu</i>	<i>bular, shunisi</i>	<i>ana bu, mana u</i>	<i>u-bu</i>	?
3. O'zlik	<i>O'z</i>	<i>o'zim, o'zlari</i>	-	-	?
1. ?	<i>kim, nima?</i>	<i>kimga, nimalar</i>	?	-	<i>kim-kim, nima-nima?</i>
5. Belgilash	?	<i>hammamiz</i>	<i>har kim, har nima</i>	-	<i>barcha-barcha,</i>
2. ?	<i>hech</i>	-	?	-	-
7. Gumon	-	<i>birov, kimdir</i>	?	-	-

Olmosh ma'noviy guruhlari

1. Kishilik	
2. Ko'rsatish	

3. O'zlik

4. So'roq

5. Belgilash

6. Bo'lishsiz-lik

7. Gumon

TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MATERIALLAR(Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)

Ж.Лапасов (ЖДПИ)

ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ КИШИЛИК ВА БИРГАЛИК ОЛМОШЛАРИНИНГ ТАРАҚҚИЁТИ ҲАҚИДА

Тил бирликлари даврий характерга эга бўлиб, адабий тил доирасида доимий равишда жонли сўзлашув нутки билан узвий боғлиқ ҳолда ривожланиб ва маълум ўзгаришларга учраб боради. Буни ҳозирги ўзбек адабий тилидаги бошқа тил бирликлари қатори кишилик ва биргалик олмошлари тарққиёти мисолида ҳам кўриш мумкин.

Ҳозирги ўзбек адабий тилидаги кишилик олмошларининг бирлиги мен, сен ва кўплиги биз, сиз дир. Биргалик олмошлари эса барча, бари сўзлари билан юзага чиқади.

Мен, сен олмошлари VIII аср бошларига оид қадимги туркий манбаларидан «Тўнжук», «Култегин», «Билга қоон», «Онгин» каби яна бир қанча қабр тошлардаги ёзувларда, X асрга оид «Олтун ёруқ», XI асрга оид «Девону луғотит турк», «Қутадғу билиг», XII асрнинг охирида яратилган «Ҳибатул ҳақойиқ» асарларида ман, сан шаклида қўлланган.

Биз ва сиз олмошлари қайд қилинган манбалар ва ундан кейинги давр манбаларидан тортиб, то ҳозиргача ўз шаклини ўзгартирмаган.

Кишилик олмошлари ҳақида Маҳмуд Кошғарий қуйидагича фикр билдиради: «Сан иккинчи шахс маъносидаги сўздир. Бу сўзни турк қабиласи ёшда, мартабада ўзидан кичикларга қўллаб, ўзидан катта, ҳурматлиларга сиз олмошини қўллайдилар. Ўғузларда аксинчадир, яъни ўғузлар ўзидан катталарга сан ўзидан кичикларга ва кўпликда сиз қўллайдилар. Туркий қабилалар қўллаган шакл қоидага мосдир» (1- I т., 284-285).

Яна Маҳмуд Кошғарий давом этади:

«Сиз чигил қабиласи тилида бирлик маъносида сан ўрнида ҳурматли, катта одамга нисбатан ишлатиладиган олмошдир. Чигиллар кичикларга сан дейдилар, ўғуз қабилалари кичикларга сиз, катталарга сан дейди» (1-III т., 89).

Ҳозирги жонли сўзлашув нуткидаги каби XI аср адабий тилида сиз олмошининг си шаклида қўлланганлигини кузатиш мумкин: Силарга манингдек осиф сўз керак (1- III т., 89).

Қадимги, ўрта аср манбаларига, шунингдек, ҳозирги ўзбек адабий тили ва сўзлашув нутқида эътиборни қаратсак, бирликнинг биринчи ва иккинчи шахс олмошлари қараткич ва тушум келишигида келганида ме, се шаклига эга бўлади: ме+нинг, се+нинг, ме+ни, се+ни каби.

«Қутадғу билиг»дан мисол:

Муни сан аюрсан ма+нинг теп ма+нинг,
Нағуга аюрсан нағутак са+нинг (2- 412).

Кишилик олмошлари XIV-XV асрларга келиб мен, сен, биз, сиз шаклида қўлланган, XV асрда яратилган «Юсуфу Зулайҳо» дoston матнига эътибор қаратилса, кишилик олмошларининг юқоридаги ҳолатига дуч келинади. Бирликнинг биринчи шахсига мисол: Кўз ёшинга мен қилайин жон нисор (7866). Айлаб эдим ҳазратинга мен баён (7866).

Иккинчи шахсига мисол: Тухмат ила бандка солдим сени (33a15). Айла тафарруж сен алар холини (61 a2).

Кўпликнинг биринчи шахсига мисол: Ушбу ҳижолат била биз кетали (7a4). Англали аҳволини биз кундузун (78a 4).

Иккинчи шахсига мисол: Арз қилалинг отамиза сиз борин (78a9). Сизда эмиш барча бу дурру гавҳар (74a9).

Сиз олмошининг якка шахсга нисбатан ҳурмат маъносида келиши ҳам кузатилади: Юсуфу сиддик бу шоҳи замон / Пираҳанин сизга қилиптур равон (89 a15).

Бу дoston тилида ҳам кишилик олмошининг биринчи ва иккинчи шахс бирлик шакллари қараткич ва тушум келишигида келганда ме, се шаклига эга бўлади: Бўлди менинг ҳаққима фазлинг падида (89a5). Кирмангиз охир бу менинг қонима (861). Тенгри сенинг дардинга бергай даво (52610). Гарду ғуборингни сенинг бу замон (91611). Мен сени оғонг бўлайин, ема ғам(71 a11).

Туркий тиллардаги э товушининг кейинги даврда а ва и товушлари орасидан ўсиб чиққанлиги эътиборга олинса, кишилик олмошларининг биринчи ва иккинчи шахс бирлиги ми / би ва си шакллари ҳосил бўлишини кузатиш мумкин: мин / бин ва син.

Шунга кўра, кишилик олмошларининг бирлик ва кўпликдаги формалари бир хил шаклда бўлиб, улар олтой даври маҳсулидир (3-164;4-204). Улар таркибидаги н товуши бирликни ва з товуши эса кўпликни ҳосил қилувчи фонемадир. З фонемасининг кўпликни билдириш хусусияти ҳозирги ўзбек тилида ва тарихан ҳам эгалик кўшимчаларининг кўпликдаги биринчи шахси -миз -нгиз (ота+миз, она+нгиз), икки сонига кўшилиб эгиз, феълнинг буйруқ-истак майлидаги борингиз, келингиз, юрингиз каби сўзлар таркибида сақланган. Шу ўринда ҳозирги чуваш тилидаги икки сонининг икиз шаклида қўлланиши ҳам бунинг исботидир.

Маълумки, мўғул тили туркий тиллар билан бирга олтой тиллар оиласига киради. Кишилик олмошларининг мўғул тилида қўлланишига эътибор қаратилса, кишилик олмошларининг бирлик ва кўплик шакллари бевосита би, си эканлиги маълум бўлади: Танай танилцсандаа би их баярлаж байна (Мен сиз билан танишганимдан жуда хурсандман). Би Монгол улсаас ирсен (Мен мўғулдан келдим). Би тани тухай их соноссон юм (Мен сиз ҳақингизда кўп эшитганман). Би эрт босдог (Мен эрта тураман). Бид ден дуу эрт ирлее (Биз жуда эрта келдик). Бид завод узмеер байна (Биз заводга боришни хоҳлардик). Бид хоёр цацуу (Биз тенгдошмиз) ва ҳ.к.

Қадимги туркий манбаларда биргалик олмошлари алқу ва қамуқ, қамуғ сўзлари ёрдамида ифодаланган: Алқу куруқ (Ҳаммаси куруқ). Алқу ўлтилар (Ҳаммаси ўлдилар). Билиг бирла сўзла қамуғ сўзни сен (Сен ҳамма сўзни билим билан сўзла). Қамуқ су кўрунур (Ҳамма сув куринар). Шундан алқу олмоши V-X асрларда уйғур ёзувида битилган «Турфон текст»ларда учрайди.

Қамуғ олмоши эса XV асргача қўлланган: Кўнгил кимни севса қамуғи севинч («Қутадғу билиг»). Қамуғин Сир ёқосинда битидим («Муҳаббатнома»).

Қамуғ анда эрдилар. («Тафсир»). Агар қахрингга учраса, гадо булур қамуғ шоҳлар (Саккокий).

Қамук / қамуғ Алишер Навоий ва ундан сўнгги адиблар асарлари тилида учрамайди.

Бори, борча (бари, барча) сўзларининг юзага келиши ва уларнинг биргалик олмоши вазифасини бажара бориши қамуқ сўзининг ўзбек тилидан истеъмолдан чиқиб кетишига сабаб бўлади.

Бари, барча олмошларининг ўзаги йўқ сўзининг антоними бор сўзидир. Бари олмоши бор сўзига учинчи шахс бирликнинг -и кўшимчасининг бирикувидан ҳосил бўлган (бор+ и - бари): Бари хонлар аро тоқ айлаб они (Навоий): Дедики, бўлдум барига мен кафил («Юсуфу Зулайҳо»).

Барча олмоши эса бор+и формасига равиш ясовчи -чи кўшимчасининг кўшилиши (бор+и+ча) ва кейинчалик -и эгалик кўшимчасининг редукцияга учраши натижасида юзага келган: бор +и+ча- борча-барча. Мисол: Бари ани ўлтурунглар (Уларнинг барчасини ўлдиришлар. «Олтун ёруқ»). Барча топилур, вале ёр топилмас (Лутфий). Барчаси фаҳм этди (Навоий). Барчани бозор бошида ёсоққа еткургайлар (Бобур).

Бари, барча олмошлари XV асрда яратилган. «Юсуфу Зулайҳо» достони ва Алишер Навоий асарлари тилида кенг қўлланган бўлиб, унинг қамуғ варианты мазкур асарларда умуман учрамайди.

Бари, барча биргалик олмошлари ҳозирги ўзбек адабий тилида, шунингдек, бадий матнларда кенг қўлланади.

АДАБИЁТЛАР

1. Маҳмуд Кошғарий. «Девону луғотит - турк». I том. - Тошкент, 1960; II том,

-Тошкент, 1961; III том, - Тошкент, 1963.

2. Юсуф хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. - Тошкент, 1972.

3. Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников VII-IX вв. - Л., 1980.

4. Сравнительно – историческая грамматика тюркских языков. - М., 1988.

5. Древнетюркский словарь. - Л., 1969.

6. Монгол-орос ярианы товч дэвтэр (Краткий монгольско- русский разговорник). - М., 1956.

7. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. - Тошкент, 1982.

8. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. - Тошкент, 1984.

9. XIII-XIV асрлар туркий адабий ёдгорликлар тили. - Тошкент, 1986.

10. Муталлибов С.М. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк. - Тошкент, 1959.

11. Лапасов Ж. «Юсуфу Зулайҳо» достони морфологияси, -Тошкент, 1988.

Matndan olmoshlarni toping.

Hamma ishda kalla kerak

- Men ham gugurtman, - deb qoldi qatorda turgan gugurt donasi.
Uni ishlatib ko'rishdi. Yonmadi. Qarashsa, boshsiz ekan...

Yasama Tish

Og'izdagi yasama tish oddiy tishlar oldida o'zini ko'z-ko'z qilib yaltiragani-yaltiragan edi.

- Yasama-da, yasama, - deb unga ishora qilishardi oddiy tishlar.

Haqiqat

- Qayerdasan, Haqiqat? – deb nido qildi bir odam.
- Meni avvalo... o'zingdan izla, - dedi Haqiqat.

Chaynalgan masala.

- Meni kechayam chaynashdi, bugunam chaynashdi, u jag'dayam chaynashdi, bu jag'adayam chaynashdi, koshki yog'im chiqsa, - deb jig'ibiyron bo'lardi Saqich.

Uni esa hamon chaynashardi...

Olmoshlarni topib, ularni izohlang.

«BU DUNYODA MEN BIR YO'LOVCHI...»

Singlim Shuraga

Bu dunyoda men bir yo'lovchi,
Shodon menga qo'l silki, erkam.
Xuddi shunday tinch, erkalovchi
Ziyo to'kar kuz fasli Oy ham.
Isinurman Oyning taftiga,
Ilk bor undan orom olar jon.
Allaqachon so'ngan sevgiga
Umid bog'lab yashayman hamon.
Bunga bois - shu makonimiz,
Shu yer - oppoq, sho'r manglay turbat,
Qaylardadir toptalgan nomus,
Kimlargadir qarddon g'urbat.
Yashirmayman, har kim ham bilar:
Boshqa-boshqa emas, jon singil,
Ikkimiz ham bir sevgi bilan
Shu vatanga qo'yganmiz ko'ngil. (Sergey Yesenin)

AMALIY MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

1-mashq. Olmoshlar va ularning ma'noviy guruhlari jadvalini to'ldiring.

Olmosh	Sh a k l l a r				
	Sodda		Qo'shma	Juf t	Takror iy
1. Kishilik	<i>men, sen</i>	<i>meniki</i>	-	-	-
2. Ko'rsatish	<i>bu, shu</i>	<i>bular, shunisi</i>	<i>ana bu, mana u</i>	<i>u-bu</i>	?
3. O'zlik	<i>O'z</i>	<i>o'zim, o'zlari</i>	-	-	?
1. ?	<i>kim, nima?</i>	<i>kimga, nimalar</i>	?	-	<i>kim-kim, nima-nima?</i>
5. Belgilash	?	<i>hammami z</i>	<i>har kim, har nima</i>	-	<i>barcha - barcha</i>
2. ?	<i>hech</i>	-	?	-	-
7. Gumon	-	<i>birov, kimdir</i>	?	-	-

1-topshiriq. So'roq belgisi o'rnida yozgan olmoshlaringizni ishtirok ettirib gaplar tuzing.

Namuna: Shu-shu Nasibani qayta uchrata olmadim.

2-topshiriq. Grammatik shakllar qo'shilgan olmoshlarda qanday fonetik hodisalar kuzatilganini ayting.

2-mashq. Gaplarda qo'llangan olmoshlarni aniqlang

Kim mehnat qilsa, u rohat ko'radi. 2. Men kecha keldim. Sen buni bilasan. 3. Nima qilsam ham, men o'zim bilaman. 4. Hamma mehmonlar biznikida. 5. Barcha mushkulotlar oson bo'ldi. 6. Siz bugun darsda faol ishtirok etdingiz. 7. Xulq har kim o'z qiyofasini ko'rsatadigan ko'zgudir. 8. Nimani gapirish har doim ham muhim bo'laveraydi, qanday gapirish esa har doim muhim. 9. Oyisining chehrasida faqat tashvish emas, allaqanday qo'rquv ham bor edi. 10. – Siz o'shamu?

1-topshiriq. Aniqlangan olmoshlarni ma'noviy guruhlarga ajratib yozing.

1. Kishilik	
2. Ko'rsatish	

3. O`zlik
4. So`roq
5. Belgilash
6.Bo`lishsiz-lik
7. Gumon

3-mashq. 4-5 ta kichik guruhlarga bo'lining. Olmoshlar ishtirokida gaplar tuzing. Ularda olmoshlar quyidagi gap bo'laklari vazifasida kelsin.

1.	EGA	<u>Men</u> hamisha senga ishonganman, do'stim.
2.	KESIM	
3.	HOL	
4.	TO`LDIRUVCHI	
5.	ANIQLOVCHI	

1-topshiriq. Tuzilgan gaplardagi olmoshlarni so'z birikmalari bilan 3 ta guruhga ajratib ko'chiring.

Ularni quyidagi jadvalda ifodalang.

<i>Bitishuvli birikma</i>	<i>Hamma o'quvchilar</i>
<i>Moslashuvli birikma</i>	
<i>Boshqaruvli birikma</i>	

SEMINAR MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR. TEST. Olmosh so`z turkumiga oid test savollari

- Olmoshlar quyida berilgan birliklardan qaysi biri o'rnida almashinib qo'llanadi?
 A)so'z o'rnida, gap o'rnida
 B)so'z o'rnida, so'z birikmasi o'rnida
 C)so'z birikmasi o'rnida, gap o'rnida
 D)so'z , so'z birikmasi , gap o'rnida
- Olmoshlardan qaysi so'z turkumlarini yasash mumkin?
 A)fe'l
 B)ravish
 C)son
 D)A, B

3. Olmoshlar qaysi soʻzlarning yasalishiga asos boʻlishi mumkin?
A) sifatlarning B) iboralarning C) sonlarning D) A, B
4. Olmoshlar qaysi soʻzlar oʻrnida qoʻllanganda, sintaktik shakl yasovchi qoʻshimchalarni qabul qiladi?
A) ot B) sifat C) ravish D) ot va feʼl
5. Olmoshlarga xos grammatik xususiyatlar qaysi javobda notoʻgʻri izohlangan?
A) Olmoshlardan baʼzi qoʻshimchalar orqali ot, ravish yoki feʼllar yasalishi mumkin.
B) Olmoshlar baʼzi soʻzlar bilan qoʻshilib, boshqa soʻz turkumiga koʻchishi mumkin.
C) Olmoshlardan baʼzi soʻz turkumlaridan qoʻshimchalar yoki sintaktik yoʻl bilan yasalishi mumkin.
D) Olmoshlar otlarga xos sintaktik shakl yasovchilar bilan oʻzgaradi.
6. Qaysi soʻz turkumlari turlanadi?
A) olmosh, ot, otlashgan soʻzlar B) sifat, son, olmosh
C) ravish, olmosh, bogʻlovchi D) mustaqil soʻz turkumlarining barchasi
7. Turlanish qaysi turkumlariga xos?
A) olmosh, son B) feʼl, olmosh C) sifat, ravish
D) ot, olmosh
8. **Saida bu ayolni darrov yomon koʻrib qoldi.**
Ushbu misoldagi olmosh gapning qaysi boʻlagi boʻlib ketgan?
A) ega B) kesim C) toʻldiruvchi
D) aniqlovchi
9. Olmoshning gapdagi vazifasi qaysi qatorda toʻliqroq va toʻgʻri koʻrsatilgan?
A) ega B) toʻldiruvchi C) aniqlovchi
D) aniqlovchi, toʻldiruvchi, undalma, ega
10. **Bir xil talabalar berilgan topshiriqlarni oʻz vaqtida bajarmaydilar.**
Ushbu gapdagi olmoshlarni toping.
A) bir xil B) bir C) oʻz, bir xil D) oʻz
11. Qaysi gapda toʻrt oʻrinda olmosh ishtirok etgan?
A) U kishi faqirni nechundir koʻp xushlamaydilar...
B) Hammasi joyida, doʻstlar, men hech kimdan, hech narsadan xafa emasman.
C) Qaysi kuni redaksiyaga kirib, qanaqadir felʼyetonni bosilayotagan yerida toʻxtatib qoʻyibdi.
D) Shu vaqt kimdir uning ustida bosib oʻtdi-da, birdan toʻxtab, yelkasidan tortdi.
12. **Sen uning gapidan nimani aniqlading?** gapida olmoshlar qaysi kelishik shakllarida kelgan?
A) bosh, qaratqich, oʻrin-payt kelishigi
B) tushum, bosh, qaratqich kelishigi

C)bosh, qaratqich, jo'nalish kelishigi

D)bosh, qaratqich, tushum kelishigi

13. Olmosh qatnashmagan gapni toping.

A)Bahor andoqki, bulbul gul uzori toza istarmen.

B)Na bo'ldiki, siz shunchalar jim qoldingiz?

C)Bolalar yugurgancha ketishdi, ba'zilari gullarga suv quya boshladi.

D)...Ba'zi odamlar mehnatdan qochadilar.

14. Olmoshdan yasalgan so'zlar berilgan qatorni toping,

A)ularga, menimcha, unday

B)sizlamoq, senbop,

sensiramoq

C)shunda, shu yerda, shuni

D)qachondir, allaqancha,

nimani

15. Quyidagi so'zlarning qay biri olmosh turkumiga mansub?

A)jami

B)har

C)bir

D)A, B, C

16. Olmoshlarga otga xos qo'shimchalar qo'shilganda, qanday tovush o'zgarishi yuz beradi?

A)tovush tushishi

B)tovush orttirilishi

C)tovush almashinishi

D)A va B

17. Faqat ot o'rnida qo'llanadigan olmoshlarni belgilang.

A)kim, allakim

B)hamma, barcha

C)men, biz

D)A, C

18. Olmoshlarga qaysi qo'shimchalar qo'shilganda bitta n ortadi?

A)-day(dek)

B)-cha

C)-lay

D)A, B

19. Olmoshlarning o'ziga xos grammatik xususiyatlari qaysilar?

A)Olmoshlar, otlarga xos so'z o'zgartiruvchilarni qabul qiladi.

B)Olmoshlar egalik qo'shimchalarini olib qo'llanadi.

C)Boshqa so'z turkumlaridan qo'shimchalar yordamida olmoshlar yasalmaydi.

D)A, B, C

20. Yasama olmoshlar berilgan javobni toping.

A)kim, nima, hamma, barcha

B)qachon, bari, shu, o'sha

C)kimdir, qaysidir, allaqanday, allakim

D)A, B

21. Kishilik olmoshlari berilgan qatorni toping.

A.Hamma, barcha, bari

B.Birov, har kim, har marsa

C.Biz, siz, ular

D.U, bu, o'sha

22. Qaysi qatorda olmosh berilmagan?

A.Allakim

B.Har qanaqa

C.Hech qaysi

D.Barcha so'zlar olmosh so'z

turkumiga kiradi

23. Har uchala shaxs o'rnida qo'llanilishi mumkin bo'lgan olmoshni belgilang.

A.Hamma

B.Barcha

C.Har bir

D.O'z

birlikda bo'lishi, bir tomon bo'rttirilganda ikkinchi tomon zaiflashishini to'g'ri aniqlay olish va uni tushuntirishga imkon berdi [4, 40:].

Morfologik shakl [MSH]da ma'no va vazifa mushtarak holda yashaydi. Morfologik vositalar nutq jarayonida ma'lum bir so'zga qo'shilib, muayyan sintaktik shakl [SSH]larni hosil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, morfologik vositalar birikish jarayonida o'ziga xos ma'noga ega bo'ladi va sintaktik imkoniyatlarini voqelantiradi. Morfologik vositalar leksemalarga qo'shilib yangi SSHni vujudga keltirar ekan, ayni paytda uni boshqa SSHga bog'lash vazifasini ham bajaradi.

Shu bilan bir qatorda leksemaning valentlik imkoniyatini qisman o'zgartiradi. Chunonchi, *gul* leksemasi va *gulni* SSHini olib ko'raylik.

Gul leksemasining birikish imkoniyati chegaralanmagan [*qizil gul, ko'p gul, beshta gul, xushbo'y gul ...*]. Bu bir tomondan, ikkinchi tomondan *gulni termoq, gulga o'xshamoq, guldan uzmoq, gulda yig'ilmoq* va hokazo. *Gulni* SSHida esa bu birikish tobe so'z bilan bog'lanish qobiliyati to'la saqlangan holda hokim so'z turlarini keskin chegaralaydi: *gulni termoq, gulni olmoq, gulni sotmoq*, ya'ni bu SSH faqat o'timli fe'llar bilangina birika oladi.

Shuning uchun formal-funksional tahlilda morfologiya bilan sintaksis bir-biridan keskin ajratilmaydi. So'z shakli ikki jihatdan tadqiq etilishi mumkin. So'z shaklidan vazifaga – sintaksis, vazifadan so'z shakliga – morfologiya sifatida talqin etiladi. [2:] So'zning sintaktik shakllari tizimi aytib o'tganimizdek, egalik, kelishik va kesimlik shakllarini o'z ichiga oladi. Bu shakllarni birlashtiruvchi umumiy xususiyat so'zning lug'aviy ma'nosiga ta'sir etmay, so'zlarni so'z birikmalari tarkibiga birlashtirish va ularga ma'lum sintaktik funksiya belgilashdan iboratdir. Shuning uchun sintaktik shakllarning o'zi o'z ichiga ikki guruhni tashkil etadi. Bir tomondan egalik va kelishik shakllari, ikkinchi tomondan kesimlik shakllari.

Formal tilshunoslikda qo'shimchalar (grammatik shakllar va kategoriyalar) so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi va forma yasovchilarga ajratiladi. Forma yasovchilarga, jumladan, son, daraja, mayl, nisbat, zamon qo'shimchalari kiritiladi. O'zbek tilshunosligining keyingi taraqqiyotida nosintaktik sof ma'noviy deb tavsiflangan son, daraja, nisbat, egalik shakllarida ma'lum ma'nolar bilan bir qatorda o'ziga xos sintaktik imkoniyatlar va, aksincha, sof sintaktik deb tavsiflangan kelishik, mayl, zamon, shaxs-son shakllarida ma'lum ma'nolar yashiringanligi aniqlandi. Bu esa grammatik shaklning ma'noviy qobiliyati va sintaktik imkoniyati masalasini o'rtaga qo'ydi. Chunonchi, mayl / zamon shaklining ma'nosi so'zlovchining harakatga va harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalash bo'lsa, uning sintaktik imkoniyati gap kesimini shakllantirishidir. Grammatik shakllarning ma'nosi va sintaktik qobiliyatlari B.Mengliyevning tadqiqotidan olingan quyidagi jadvalda umumlashtirilgan:

MK	Mk ning ma'noviy xususiyatlari	MK ning sintaktik imkoniyatlari
1	2	3
Kelishik	ma'noviy aniqlik-noaniqlik, sifat va predmet, manba, sabab, maqsad, payt, o'rin, vosita, chegara va h.k	tobe so'zni hokim so'zga bog'lash .
Egalik	egalik, shaxs-son, tegishlilik	keyingi SSHning oldingi

	h.k	SSHga munosabatini ifodalash
Son	miqdor, miqdoriy aniqlik – noaniqlik, sifatliy bo`linuvchanlik–bo`linmas	SSHga yangi valentliklar berish
Daraja	Belgining nisbiyligini ifodalash	mikromatn tarkibiy qismlarini bog`lash, sintaktik qurilma ma`nosini o`zida mujassam-lashtirish
Nisbat	harakatning ob`yektga munosabatini, o`timli - o`timsizligi va medial-nomedialligini ifodalash	fe`l valentligini o`zgartirish, uning foiliga munosabatini ifodalash
Fel`ning funksional shakllari	harakatning oldinma–keyinligi, davomli-davomsizligi, harakatni shaxs yoki narsaning atributiv belgisiga aylantirish, harakatni predmetlashtirish	fe`lni fe`lga va otga bog`lash, fe`lga ot vazifasini berish
Mayl-zamon	so`zlovchining harakatga va harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalash	gap kesimini shakllantirish, kesimga turli valentliklar berish, mikromatn tarkibiy qismlarini bog`lash
Shaxs-son	harakat bajaruvchisining shaxs va sonini, aniq-noaniqligini, bor-yo`qligini ifodalash	gap kesimini shakllantirish

Usbu morfologik kategoriyalarga mansub shakllar ikki guruhga ajratib o`rganiladi:

1.Leksik – morfologik (lug`aviy) shakllar

2.Funksional – morfologik (sintaktik) shakllar

Bu ajralishning mohiyati shundaki, **lug`aviy shakllar** (bularga qisman an`anaviy forma yasovchilar kiradi) o`zi qo`shilib kelayotgan so`zga yangi sintaktik vazifa bermaydi, lug`aviy ma`noga qisman ta`sir etib, uni muayyanlashtiradi. Lug`aviy shakl yasovchi qo`shimchalarga fe`l nisbatlari, fe`l turlari (ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi), harakat tarzi, otlarda son, kichraytirish-erkalash, shaxsiy munosabat, sifat darajalari, sonning turlari qo`shimchalari kiradi. Masalan, ot turkumida lug`aviy ma`noga ta`sir qiluvchi grammatik vositalar sifatida **kichraytirish va erkash ko`rsatkichlari** bo`lgan [-cha], [-choq], [-chak] qo`shimchalari o`zbek an`anaviy tilshunosligida otlarning kichraytirish-erkalash shakllari sifatida atroflicha o`rganilgan. [6, 274-275;] Kichraytirish shakllari otlarga qo`shilar ekan, avvalo ularning lug`aviy ma`nosiga muayyanlik kiritadi. Masalan, *kitob, qush, mushuk, hovuz* so`zlarida “kattalik” belgisi ham, “kichiklik” belgisi ham mavjud bo`lib, so`z ma`nosi bu jihatdan neytraldir. Ya`ni bu so`zlar turli kattaliklar ([katta], [o`rta], [kichik], [yirik]) ni ifodalovchi so`zlar bilan erkin birikaveradi. Kichraytirish shakli [-cha] esa so`zni shakllantirar ekan, uning semantikasidagi ma`lum nuqtalarni oydinlashtiradi. Bu qo`shimchani olgan sememada “katta” semasi so`nadi. Semantikada yuz bergan o`zgarish leksemaning sintaktik qobiliyatini ham o`zgartirib yuboradi. Ya`ni, *kitobcha* so`zshakli [o`rta], [katta], [ulkan] kabi leksemalar bilan birikish imkoniyatiga ega bo`lolmaydi.

Harakat tarzi shakllari fe`lning lug`aviy ma`nosi bilan zich bog`langan. Bu shakllar fe`llarni grammatik jihatdan shakllantirib, ularning lug`aviy ma`nolarini muayyanlashtiradi: harakatning kutilmaganda sodir bo`lishi (*kulib yubordi*), harakatning tugallanganligi (*o`qib chiqdi*),

harakatning davomiyligi (*o'qib yuribdi*) kabi o'nlab ma'nolarni ifodalaydi. Ushbu shakllar ko'makchi fe'llar atamasi ostida o'zbek tilshunosligida batafsil o'rganilgan. Lekin bugungi kunda ko'makchi fe'llarning lug'aviy shakllar sifatida tutgan o'rni va lisoniy mohiyati masalasi kun tartibida turgan muammolardan sanaladi. Lug'aviy shakl yasovchilar guruhiga mansub bo'lgan **ko'plik son** shakli ot turkumiga mansub leksemalarda "belgilanmagan miqdor" semasini muayyanlashtiradi: *U kitoblarini yig'ishtira boshladi*.

Yuqorida aytilgan fikrlardan shunday xulosaga kelinadiki, lug'aviy shakllar sirasiga ma'lum bir turkumlar doirasidagina amal qiladigan son, kichraytirish – erkalash [ot turkumi], nisbat [[fè'l], daraja [sifat] kabi ko'rsatkichlar kiritiladi.

Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar esa barcha turkumlar uchun umumiy bo'lib, so'zning lug'aviy ma'nosiga mutlaqo ta'sir etmay, so'zlarni bir-biriga bog'lab, ularga ma'lum bir sintaktik vazifalar muayyanlashtirishga xizmat qiladi. Sintaktik shakllar guruhiga egalik, kelishik, kesimlik kategoriyasi qo'shimchalari kiritiladi. Bular o'z navbatida sintaktik imkoniyati nuqtai nazaridan yana ikki guruhga ajraladi: a) so'zlarni bog'lashga xizmat qiluvchi shakllar (kelishik, egalik); b) so'zlarga alohida sintaktik vazifa belgilovchi shakllar (kesimlik shakllari).

Kelishik so'zlarni o'zaro bog'lashga xizmat qiluvchi aloqa-munosabat shakllaridan bo'lib, asosan, tobe so'zni hokimga bog'laydi. Kelishik kategoriyasi ma'lum shakllar orqali ifodalanadi va alohida bir paradigmani hosil qiladi. Kelishik kategoriyasi olti shakl (bosh kelishik, qaratqich kelishigi, chiqish kelishigi, tushum kelishigi, jo'nalish kelishigi, o'rin-payt kelishigi) ning sistemasi bilan shakllanadi, ularning har biri ma'lum ma'nolar kompleksini ifodalaydi.

Kelishik shakllarida ma'lum bir sintaktik vazifa uchun xoslanganlik ham ajratiladi, ya'ni:

B.k.-gapning egasi shakli

Q.k.-qaratqichli aniqlovchi

T.k.-vositasiz to'ldiruvchi

J.k.

CH.k. } -vositali to'ldiruvchi yoki hol

O'-p.k.


Egalik shakllari esa qarashlilik, mansublik ma'nosini, ya'ni bir narsaning ma'lum shaxs yoki narsaga mansub ekanligini ifodalab, sintaktik jihatdan "keyingi SSHning oldingi SSHga munosabatini" ko'rsatadi. An'anaviy tilshunoslikda forma yasovchi deb qaraluvchi mayl va zamon shakllari ham sintaktik shakl sifatida baholanilmoqda. Buning sababi shundaki, mayl va zamon shakllari bo'lishli-bo'lishsizlik, shaxs-son shakllari bilan birgalikda gapning kesimiga xos bo'lib, shu mavqe'da qanday so'z kelishidan qat'iy nazar, bu kategoriya ma'nolari voqelanadi. Masalan: "*Men talabaman*" gapida ham, *talabaman* so'zshakli kesimlik shaklidir, bo'lishli, aniqlik mayli, hozirgi-kelasi zamon, I shaxs, birlik son shaklidir. Yoki "*Men yozaman*" gapi yuqorida sanab o'tilgan shakllarda o'zgaradi. Shu sababli, kesimlik kategoriyasi alohida kategoriya sifatida ajratilib, mayl, zamon, shaxs-son shakllari fe'l shakllari tizimidan chiqarilgan va kesimlik kategoriyasi tizimida o'rganilmoqda. So'zlarga alohida sintaktik vazifa belgilovchi kategoriya bo'lgan kesimlik shakllari (mayl-zamon, shaxs-son, tasdiq-inkor)ning ma'noviy tomonini so'zlovchining harakatga va harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalash, harakat bajaruvchisining shaxsi va sonini, boryoqligini ifodalash tashkil etsa, uning sintaktik tabiati gap kesimini shakllantirishidir. Aloqa-munosabat qo'shimchalari bilan birikish xususiyatiga ko'ra so'zlar ikki guruhga ajraladi: o'zgaradigan so'zlar; o'zgarmas so'zlar; O'zgaradigan so'zlar guruhiga ot, sifat, son, taqlid, olmosh, fe'lning kesimlik shakli, sifatdosh, harakat nomi kiradi. O'zgarmas so'zlar tarkibiga ravish, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, ravishdosh, so'z – gaplar kiradi.


Adabiyotlar:


1. Бахриддинова Б. Феъл луғавий шакллари тизими. Феълнинг тур категорияси. НД, Қарши-2002.
2. Иванов С.Н. Родословное древо тюрок Абу-л-Гази-Хана. Грамматический очерк. (Имя и глагол. Грамматические категории). Ташкент, 1969 г.

3. Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари. НДА, Тошкент-1996.
4. Неъматов Ҳ., Сайфуллаева Р., Курбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. (Филолог талабалар учун қўлланма). Тошкент, «Университет», 1999 йил.
5. Ne'matov H., Gulomov A., Qodirov M., Abduraimova M. Ona tili. 7-sinf uchun darslik. Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 2001-yil.
6. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, «Ўзбекистон» нашриёти, 1992 йил.

SLAYDLAR







TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA`LIM UCHUN MATERIALLAR(Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)

Ko`chiring.Belgili va belgisiz qaratqich shaklli so`zlarni aniqlang.

- 1.Maqtanganning uyini ko`r,kerilganning to`yini ko`r.
- 2."Boburnoma" qahramonlar tavsifi,ularning shakl-shamoyilini ta`riflashdan boshlanadi.
- 3.Dangasaning vaji ko`p.
- 4.Hayotim lazzati,qalbim qo`risan,Vatanim
- 5.Bir lahza jimlikdan keyin allaqayerdan qo`ylarning,sigirlarning ma`rashi,ho`kizlarning o`kirishi eshitildi.
- 6.Boyagi yigitning,Avazning ,qo`li gul ekan.(P.Qodirov)

Gaplarni o`qing.Kelishik va ko`makchilarning sinonimligiga e`tibor bering.

- 1.Abu Ali ibn Sino G`aznaga yo`l oldi.
- 2.Begimga o`xshashni xohlayman.
- 3.Beruniy indamay eshikka yo`naldi.
- 4.Qaysi gunohlaringga seni qiynoqqa soldilar.
- 5.Navkar uning qo`llaridan qayirib,eshikka sudradi.
- 6.Sizga atalgan tilaklarim bir jahon.

7. Inson qalbi bilan hazillashmang siz.

Matnni o'qing. Egalik qo'shimchalarining ishlatilishiga e'tibor bering.

- Bolaginam, muzlab qolay debsan-ku! - dedi u tinmay. Issiq ko'rpaga o'rab qaynoq-qaynoq choy ichirishdi. Har choy ho'plaganimda jo'rttaga bir inqillab qo'yaman. Ichimga issiq kirishi bilan huzur qilib uxlab qolibman. Ertasiga birinchi qilgan ishim qishlog'imizda yashaydigan Soraxon folbinning ishlarini tekshirib ko'rish bo'ldi. Meni biron kishi komissiya qilib tayinlagani yo'q-ku, lekin shunchaki o'zim qiziqib qoldim-da. O'qituvchimiz unga ishonmanglar, hammasi yolg'on deydi. Yolg'on bo'lsa, nega xolamning shuhrati shunchalik yoyilib ketadi. Rom ochirib, dardiga davo so'rash uchun odam shunaqangi ko'p keladiki, shunaqangi ko'p keladiki, qishlog'imizdagi medpunkt uning oldida ip esholmaydi. Undan keyin, kelganlar quruq kelishmaydi. Birovi shoxdor qo'y, birovi sariq echki, birovi qog'ozga o'ralgan pul, bir xillari katta tog'orada to'rt quloqli somsa tashlab ketishadi. Men bilan o'qiydigan o'g'li Mirobiddinxo'janing kerilganini aytmaysizmi, bir o'zining ikkita velosipedi bor. Tunov kun, bittasini minib biroz sayohat qilgan edim, qosqonini egib qo'ygan ekanman, aka-uka meni tutib olib rosa do'pposlashdi.

Odamlar:

- Soraxon folbin to'ppa-to'g'ri xudo bilan gaplashadi! - deyishadi. Mirobiddinxo'ja bo'lsa maqtanib:

- Bizning uydan xudoning ovozi eshitilib turadi! - deydi. Ishqilib, ana shu narsalarni tekshirib ko'rmoqchi bo'ldim-u, ertalab nonushtadan so'ng to'ppa-to'g'ri folbin xolamning uyiga qarab yo'l oldim. Hovlisida yettita xotin, beshta chol, uchta bola o'tirishibdi. Hammasi ham kasal bo'lsa kerak, rangi oftob urgan xashakdek sap-sariq. Qalpoqni kiyib sekin ichkari kirdim. Folbin xolam qorong'i uyda o'tirib olib rom ochyapti, qarshisida bola qo'ltilqagan mening oyimga o'xshagan cho'ziq yuzli bir ayol o'tiribdi.

- O'g'lingni sariq jin uribdi, qizim, - dedi folbin xolam. (Xudoyberdi To'xtaboyev)

-

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

1. Aqlli, bilimdon va hushyor vazir shunday bo'lurki, bir to'g'ri tadbir qo'llab g'anim dushmanini parokanda qilib yubora oladi, murosa-yu madora, xushmuomalalik bilan sipohni birlashtirib, dushman lashkarlarini o'ziga rom qiladi.

(«Temur tuzuklari» dan)

Faqat derivatsion morfemali soʻzlar	Faqat grammatik morfemali soʻzlar
asillik	qildim

Ham derivatsion, ham grammatik morfemali soʻzlar.
Boʻlishlik

2. Soʻzlar orasiga kerakli vositalarni qoʻllab, birikma hosil qiling.

Ish... shoshilmoq

Oy... goʻzal

Bahor... ayyomi

Yosh... ijodkorlar

Uyi... chiqib

Gulzor... sayr

Yangi... sheʻr

Onadek... aziz

Bayram... fayzi

oʻrik... hidi

3. Tubandagi soʻzlar yordamida soʻz birikmalari tuzing. Soʻz birikmasidagi soʻzlarning qanday vosita orqali munosabatga kirishganini tushuntiring.

Goʻzallik, qodir, din, sheʼriyat, rassom, hayot, mehribon, qahramon, insoniy, ijodkor, istak, ayol, xurofot, ruh, sanʼat, surat, musavvir, nafosat, ezgulik, mashhur, mukofot, davr, qalb, tuygʻu, mavhum, dala, daʼvat, pok, oʻlmas, koʻz, nogoh, ishonuvchan, shaxs.

4. Hosil boʻlgan birikmalarni quyidagi jadvalga joylashtiring.

Bitishuvli	Boshqaruvli	Moslashuvli

SEMINAR MASHGʻULOTLAR UCHUN MATERIALLAR. TEST.

1. Tushum kelishigining qisqargan shakli berilgan gapni aniqlang.

1. Har oila oʻchogʻin oʻz qutlugʻ tarixi bor ; 2. Olmazorlar gulin toʻkadi, meva bogʻlab shoxin gʻazal yozadi:

A)1,2 B)1,2,4 C)2,4 D)2,3

2. Otning grammatik xususiyatlaridan qaysi biri uning sintaktik vazifasini begilashda rol oʻynamaydi?

A)kelishik B)egalik C)son D)A,B

3. Turlanish qaysi soʻzlarga xos?

1.sifatdosh; 2.son ;3.ravishdosh; 4.ot; 5.harakat nomi; 6.olmosh;

A)3 B)1,3,4,5,6 C)3,6 D)4,5,6

4. Qaysi gapda kelishiklar belgisiz qoʻllangan?

A)U chollar suhbatini eshitmas edi.

B)Bunda bulbul kitob oʻqiydi, bunda qurtlar ipak toʻqiydi.

C)Bunda ari ketiradi bol, bunda qushlar topadi iqbol.

D)A,B va C

5. Qanday holatlarda tushum kelishigi belgili qoʻllanadi?

A)Atoqli ot bilan ifodalansa

B)egalik affiksini olgan boʻlsa

C)Otning sifatlovchisi boʻlsa

D)A,B,C

6. **Yer haydasang, kuz hayda.** Maqolda qaysi kelishik qoʻshimchalari belgisiz qoʻllangan?

A)Oʻrin-payt, joʻnalish

B)Tushum, oʻrin-payt

- C)tushum kelishigi
D)o'rin-payt kelishigi
7.Qaysi gapda tushum kelishigidagi ot fe'l bilan birikma hosil qiladi?

- A)Qishlog'imizda yangi maktab qurildi.
B)Yaxshilik yerda qolmas.
C)Rais terimchilarga mukofot berdi.
D)Qoramtir osmonda yulduzlar chaqnay boshladi.

8.Har olam ufurgan nafasin atri –she'rimning eng yetuk , eng yaxshi satri. Mazkur gapda qaratqich kelishigidagi nechta so'z bor?

- A)3ta;bitta belgisiz;ikkita belgili
B)2ta;bitta belgili; bitta belgisiz
C)2ta; belgili D)1ta;belgili

9.Dala yuzin qoplar chechak, gul.Kulib chiqar yorib yer tagin, tinmay esar har tomonga vel, Oo'yemas sochar o'rikning gulin.

Ushbu gapda kelishik qo'shimchalari qay tarzda qo'llangan?

- A)uchta belgili, bitta belgisiz
B)ikkita belgili, ikkita belgisiz
C)to'rtta belgili, bitta belgisiz
D)beshta belgili, ikkita belgisiz

10.Solijon boshini quyi solib, chuqur o'yga botgan edi.

Ushbu gapda qaysi kelishiklar mavjud?

- A)belgili tushum va jo'nalish kelishigi
B)belgili tushum, belgili va belgisiz jo'nalish kelishigi
C)belgili va belgisiz tushum, belgili jo'nalish kelishigi
D)belgisiz tushum va belgili jo'nalish kelishigi

Mavzu: Egalik kategoriyasi UGMsi va uning nutqda voqelanishi

Reja:

1. Egalik shakllarining ifodalanish usullari haqida
2. Egalik kategoriyasi – murakkab kategoriya. Ushbu shaklning nokategorial ma'nolari
3. Egalik kategoriyasi UGMsi
4. Egalik kategoriyasi OGM va XGMLari, ularning nutqiy voqelanishlari
5. Egalik qo'shimchalarining soddalanishi.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar:

Egalik kategoriyasi, qarashlilik / mansublik ma'nosi, sof sintaktik aloqa, egalik qo'shimchalarining soddalanishi, possessiv, egalik kategoriyasi UGMsi, egalik kategoriyasi XGMLari, egalik kategoriyasi OGMlari, kategorial ma'no, nokategorial ma'no, modal ma'no, shaxs-son ma'nosi, butun- qism ma'nosi, egalik shakllarining ifodalanish usullari.

Sintaktik shakllardan biri boʻlgan egalik kategoriyasining asosiy koʻrsatkichlari quyidagilar sanaladi:

[-(i)m], [-(i)miz], [-(i)ng], [-(i)ngiz], [-(s)i]. Ushbu shakllar ismlarga (ot, sifat, son, taqlid soʻz, olmosh, sifatdosh, harakat nomlariga) qoʻshiladi va qaralmishni maʼlum bir shaxsga (predmetga) tegishli ekanligini ifodalaydi. Egalik qoʻshimchalari tarkibida koʻrsatiluvchi [-lar] shakli egalik qilinayotgan narsalarning koʻpligiga ishora qiladi, ammo ega shaxs haqida maʼlumot bermaydi: ...*Buni olim oʻz tadqiqotlarida yuksak ilmiy darajada yoritib bergan* (A. Hayitmetov). Egalik shakllarining ifodalanish usullarida quyidagi holatlar kuzariladi:

1. Morfologik usul, yaʼni egalik maʼnosi, egalik shakli orqali ifodalanadi, ammo qaratuvchi soʻz keltirilmaydi: *kitobim, kitobing, kitobi*.

2. Morfologik-sintaktik usul, yaʼni egalik subyekti (qaratuvchi soʻz) qaratqich kelishigida, egalik obykti (qaralmish) egalik shaklida keladi: *mening kitobim, sening kitobing, uning kitobi*.

3. Sintaktik usul. Bunda 1) egalik subyekti qaratqich kelishigida, egalik obykti affiksiz keladi: *bizning kitob, sizning uy* kabi; 2) egalik subyekti shaklsiz, egalik obykti egalik shaklida keladi: *ota mehri, oʻzbek tilshunosligi*; 3) egalik subyekti chiqish kelishigida, egalik obykti egalik shaklida keladi: *ulardan biri, oʻquvchilardan beshitasi*. Tilshunoslikda egalik shakllarining yana boshqa ifodalanish holatlari ham kuzatilgan va atroflicha oʻrganilgan.

Morfologik kategoriyalar sintaktik qobiliyatlarining yoʻnalishlariga koʻra sodda va murakkab shakllarga boʻlinar ekan, egalik kategoriyasi murakkab kategoriya boʻlib, unda bir necha kategoriyalarga mansub boʻlgan maʼnolarni ajratish mumkin:

a) lisoniy va nolisoniy munosabatlarni ifodalash (egalik kategoriyasi uchun kategorial maʼno);

b) shaxs maʼnosi (nokategorial maʼno);

v) son maʼnosi (nokategorial maʼno);

g) modal maʼno (nokategorial maʼno);

d) butun-qism maʼnosi (nokategorial maʼno).

Shaxs maʼnosi uch xil koʻrinishga ega: I shaxs (soʻzlovchi), II shaxs (tinglovchi), III shaxs (oʻzga). Hamma shaxsning oʻz qoʻshimchasi bor:

Shaxs	qoʻshimcha
I	-(i)m, -(i)miz
II	-(i)ng, -(i)ngiz
III	-(i)si

Egalik shakllari sonni ham ifodalaydi:

1. Birlik- -(i)m, -(i)ng (*kitobim, kitobing*)

2. Koʻplik- -(i)miz (*kitobimiz*)

3. Birlik / koʻplik- (i) ngiz, -i (si) (*kitobingiz, kitobi*)

-i(ngiz), -i(si) qoʻshimchalari ikkala songa ham betaraf, yaʼni “oraliq uchinchi” tabiatiga ega.

Demak, son kategoriyasi maʼnosi boshqa kategoriyalar, jumladan, egalik kategoriyasi mazmunida ham mavjud ekan.

Egalik kategoriyasi uchun kategorial bo'lmagan yana bir ma'no – bu modal ma'nodir. Modal ma'no egalik kategoriyasi uchun H.Ne'matov ta'biri bilan aytganda, “hamroh” ma'nodir, o'zining grammatik kategoriyasiga ega emas. I shaxs birlik va III shaxs qo'shimchalari umuman modal ma'no ifodalamaydi. Modal ma'no ifodalash faqat II shaxs birlik va ko'plik shakllarida mavjud bo'lib, bu ayniqsa, II shaxs ko'plikda yaqqolroq seziladi. Sizlash, sensirash, kesatish, mensimaslik, hurmat kabi qator modal ma'nolar ijtimoiy omil bilan zich bog'liq bo'lib, o'zbek tilida bu ma'nolarni ifodalash uchun turli morfologik, lug'aviy vositalar qo'llaniladi. Chunonchi, hurmat ma'nosini ifodalash uchun xoslangan shakllar G`. Zikrillayev tomonidan chuqur tahlil qilingan [2, 106-108;].

Egalik qo'shimchalarining xususiy qo'llanishlarida butun–qism ma'nosining yuzaga chiqishini ham kuzatish mumkin: *o'quvchilardan biri, talabalarning a'lochisi* kabi. Xo'sh, egalik kategoriyasi uchun kategorial bo'lgan ma'no nima?

Egalik kategoriyasining UGMsi sifatida formal-funksional tadqiqda bu kategoriyaning shaxs-son ma'nolari bilan murakkablashgan hokim so'zni tobega bog'lash (ya'ni, hokim shaxs - son tobe) funksiyasi vazifasi va ma'nosi tushuniladi. Bu UGM so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarning lug'aviy ma'nolari, bu ma'nolar aloqador bo'lgan atalmishlar–denotatlarning o'zaro mantiqiy-hayotiy munosabatlari asosida rang-barang OGMLar sifatida voqealanadi. Egalik kategoriyasining OGMLari sifatida quyidagi turlarni ajratish mumkin:

1. Qarashlilik / mansublik ma'nosi: *Ilhomning kitobi, bolaning otasi, qo'yning boshi...*;
2. Foil harakat (bajaruvchi harakat): *Adibaning kulishi, sening gapirishing...*;
3. Sof sintaktik aloqa (aniqlanmishni ot aniqlovchi bilan bog'lash): *Qovun bozori, go'sht do'koni...*;

Bu OGMLar so'zlar, ular denotatlari orasidagi real (hayotiy) munosabatlar asosida son-sanoqsiz XGMLar sifatida voqelanishi mumkin. Chunonchi,

1. *Bolaning otasi*
2. *Gulning bargi*
3. *Mohigulning kitobi*
4. *Qizlarning bittasi...* kabi o'nga yaqin so'z birikmalarida XGMLar muayyan so'zlar orasidagi mantiqiy bog'lanish bilan belgilanadi. Chunonchi, ota va bola orasida qanday mantiqiy (real) bog'lanish bo'lishi mumkin? Voqelikda ota bilan bola orasida qarindoshlik munosabatlari mavjud. Shuning uchun “*bolaning otasi*”, “*otaning bolasi*” SBdagi XGM- qarindoshlik ma'nolarini ifodalash egalik kategoriyasi UGMsi

a) aniqlanmishni aniqlovchi bilan bog'lash;

b)shaxs-songa ishora qilishning “qarashlilik/mansublilik” OGMsi “g'alviri”dan o'tib, ota va bola leksik birliklari va tushunchalarining o'zaro munosabati asosidagi voqelanish ko'rinishidir. Yoki “*Ilhomning kitobi*” so'z birikmasida uch xil XGM voqelanishi mumkin:

1. Ilhomga qarashli kitob. Ilhomning mulki bo'lgan kitob.
2. Ilhom yozgan kitob. Muallifi Ilhom bo'lgan kitob.
3. Ilhomga qaysidir jihatlari bilan aloqador bo'lgan kitob.

Nutq sharoiti bu ma'nolarni muayyanlashtirib turadi. Chunonchi, 1-matnda 1-ma'no, 2-matnda 2-ma'no, 3-matnda esa 3-ma'no voqelangan:

1. *Ilhomning kitobi yo'qolmasin. Ehtiyot qiling.*
2. *Ilhomning yangi kitobi chiqibdi. Uni tabriklashga boryapmiz.*

3. Bu uch kitob- A.Qodiriy "O'tgan kunlar" romanining uch nashri. Ilhomning kitobi-ijodkorning eng so'nggi, mukammal, istiqloldan keyin muallifning qo'lyozmasi asosida berilgan to'liq haqiqiy matni.

Firuzaning kitobi-bu asarning sho'ro tuzumi davrida ko'p joylarini buzib, qisqartirib e'lon qilingan birinchi nashri. Go'zalniki esa asarning qisqartirilgan nashridir. Bu XGMlar bevosita grammatikaga aloqador emas. Bu ma'nolar ichida grammatik tizimga aloqadori UGM va qisman OGMLardir.

Egalik kategoriyasining ikkinchi OGMsi bog'liq qurshovda- aniqlanmish hokim so'z vazifasida harakat nomlari, sifat-doshlar va ba'zan fe'llardan yasalgan otlar kelgan so'z birikmalarida voqelanadi. Bunday birikmalarda aniqlanmish harakat-holat ma'nosiga, qaratqichli aniqlovchi esa foil / subyekt ma'nosiga ega bo'ladi: *Salimning kelishi, Ilhomning ko'rgani, Lolaning kulishi...*

Bu OGM ham bajaruvchi va harakat-holat orasidagi hayotiy (real) munosabatlar, bog'lanishlar, aniqlanmishning nisbat shakllariga bog'liq ravishda xilma-xil XGMlarida voqelanadi. Chunonchi, "Ilhomning kulishi" bilan "Mohigulning Ilhomni kuldirishi" birikmalari orasidagi farq kulish va kuldirish harakat nomi tarkibidagi nisbat farqlari bilan bog'liq. Xuddi shunday "Karimning yozishi" bilan "Kitobning yozilishi" birikmalari orasidagi farq nisbat farqlari bilan belgilanadi.

Egalik kategoriyasining uchinchi OGMsi yorqin ravishda so'z birikmalari tuzish, so'zlararo sintaktik aloqani o'rnatish uchun xizmat qiladi. Chunonchi, 1. *Astrobodning bir kuni bir yilga teng.* 2. *Karimning yo'qligidan bo'ldi.* Egalik kategoriyasi shakllarining sintaktik vazifa bajarish-otli birikmalar hosil qilish vazifasi asosida tadqiqotchilar turkiy tillarda so'z birikmalari tizimida ham, gap qurilishida ham alohida qurilish-possesiv (qarashlilik) qurilishi mavjudligini qayd etadilar va possesiv qurilish nominativ qurilishga qarama-qarshi qo'yiladi. Haqiqatan ham, tilimizda istagan turdagi so'z birikmasi va istagan turdagi gap qaratqichli birikma variantiga ega bo'lishi mumkin. Birikmalarga misol: *Qizlardan bitta-qizlarning bittasi. Molga qul, qizga oshiq-molning quli, qizning oshig'i. Vatan uchun kurash- Vatan kurashi. Qizil gul-gulning qizili. Yaxshi hokim- hokimning yaxshisi.*

Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida nisbiy sifatlarning hind-yevropa tillariga nisbatan ozligining sababi ham egalik kategoriyasining sintaktik mohiyati bilan bog'liqdir: *ученическая форма- o'quvchi kiyimi, зимние ночи - qish kechalari, компьютерные курсы - kompyuter kurslari.* Xuddi shunday istagan nominativ qurilishli (egasi bosh kelishik shakli bilan ifodalangan) gap ham o'zbek tilida qaratqichli (possesiv) birikmaga ajralishi mumkin: *Karim keldi-Karimning kelishi. Kitob yozildi- kitobning yozilishi.*

Egalik qo'shimchalarining ayrim so'zlar tarkibida sintaktik funksiyasi ham, ma'nolari ham to'la yo'qolib soddalanadi. Masalan, "qaysi" so'zi tarixan "qayu" olmoshidan va "-si" egalik qo'shimchasidan hosil bo'lgan: *qayusi-qaysi.* III shaxs egalik qo'shimchasining soddalanishi, ayniqsa, payt, zamon, o'rin (makon) otlarida ko'p sodir bo'ladi va odatda bu so'zlarni o'zgarmas so'zlar- ravishlar turkumiga o'tkazadi: *Tog'da kechasi (kechalari, tunlari) osmon juda past ko'rinadi. O'rni kelganda gapni uring va boshqalar.*

Adabiyotlar:

1. Дмитриев Н. К. Категория принадлежности. ИСГТЯ II. Москва-1956.
2. Зикриллаев Ф. Ўзбек тили морфологияси. Бухоро-1994.

3. Менглиев Б. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар. ДДА, Тошкент-2002.
4. Нигматов Х. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. Ташкент-1989.
5. Ўзбек тили грамматикаси. I том, Тошкент-1975.

SLAYDLAR

Soʻz birikmasi doimo ikki tarkibiy qismdan iborat boʻladi. Tobe hamda hokim aʼzolarining maʼlum bir grammatik vositalar, shuningdek, ohang yordamida birikuvini asosida soʻz birikmalari hosil boʻladi.

Talabaning ishtiroki (qaratqichli birikma)

Zavqqa toʻla inson (boshqaruvli birikma)

Zangori osmon (bitishuvli aloqa)

Har uchala birikmalar ham munosabatlarning uygʻun holda yuzaga kelishi asosida mazmuniy va shakliy asosda bogʻlanadi.

Tobe soʻzning vazifasiga koʻra soʻz birikmasi tasnifi

- Soʻz birikmalari tobe soʻzning gapda qanday sintatik vazifa bajarishiga koʻra aniqlovchili, toʻldiruvchili hamda holli birikmalarga boʻlinadi. Ikkinchi darajali boʻlaklar grammatik vositalar asosida tobe qism tarkibining funksiyasini belgilaydi.

TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MATERIALLAR(Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)

**1.Ko'chiring. So'zlardagi ko'plik, egalik
qo'shimchalarining qo'shilishiga e'tibor bering. Ularning
o'rin almashishidagi ma'noviy –uslubiy xususiyatlarini
tushuntiring.**

Farzandim-farzandimiz.Boshim-boshlarim,iztiroblar-
iztirobimiz,kuyov-kuyovingiz,yuzlarim-yuzim,do'stim-do'stginam-
do'stlarim,uyimizda-uylarimizda,hayajonimiz-hayajonlarim,xirmon-
xirmonlarim-xirmonimiz,dilim-dillaringiz-dilimiz,ko'zdan ayrildi-
ko'zidan ayrildi,mashinadan chiqdi-mashinasidan chiqdi.

**2.Matnni o'qing.Egalik qo'shimchalarining ishlatilishiga
e'tibor bering.**

- Bolaginam, muzlab qolay debsan-ku! - dedi u tinmay. Issiq ko'rpaga o'rab qaynoq-qaynoq choy ichirishdi. Har choy ho'plaganimda jo'rrttaga bir inqillab qo'yaman. Ichimga issiq kirishi bilan huzur qilib uxlab qolibman. Ertasiga birinchi qilgan ishim qishlog'imizda yashaydigan Soraxon folbinning ishlarini tekshirib ko'rish bo'ldi. Meni biron kishi komissiya qilib tayinlagani yo'q-ku, lekin shunchaki o'zim qiziqib qoldim-da. O'qituvchimiz unga ishonmanglar, hammasi yolg'on deydi. Yolg'on bo'lsa, nega xolamning shuhrati shunchalik yoyilib ketadi. Rom ochirib, dardiga davo so'rash uchun odam shunaqangi ko'p keladiki, shunaqangi ko'p keladiki, qishlog'imizdagi medpunkt uning oldida ip esholmaydi. Undan keyin, kelganlar quruq kelishmaydi. Birovi shoxdor qo'y, birov sariq echki, birov qog'ozga o'ralgan pul, bir xillari katta tog'orada to'rt quloqli somsa tashlab ketishadi. Men bilan o'qiydigan o'g'li Mirobiddinxo'janing kerilganini aytmaydismi, bir o'zining ikkita velosipedi bor. Tunov kun, bittasini minib biroz sayohat qilgan edim, qosqonini egib qo'ygan ekanman, aka-uka meni tutib olib rosa do'pposlashdi.

Odamlar:

- Soraxon folbin to'ppa-to'g'ri xudo bilan gaplashadi! - deyishadi.
Mirobiddinxo'ja bo'lsa maqtanib:

- Bizning uydan xudoning ovozi eshitilib turadi! - deydi.
Ishqilib, ana shu narsalarni tekshirib ko'rmoqchi bo'ldim-u, ertalab nonushtadan so'ng to'ppa-to'g'ri folbin xolamning uyiga qarab yo'l oldim. Hovlisida yettita xotin, beshta chol, uchta bola o'tirishibdi. Hammasi ham kasal bo'lsa kerak, rangi oftob urgan xashakdek sapsariq. Qalpoqni kiyib sekin ichkari kirdim. Folbin xolam qorong'i

uyda o'tirib olib rom ochyapti, qarshisida bola qo'ltiqqlagan mening oyimga o'xshagan cho'ziq yuzli bir ayol o'tiribdi.

- O'g'lingni sariq jin uribdi, qizim, - dedi folbin xolam.(Xudoyberdi To'xtaboyev)

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

1.Ko'chiring. So'z birikmalarini ajrating. Tobe bo'lakdan hokim bo'lakka chiziqcha tortib, chiziqning tepasiga ularning bog'lanish usullarini yozib qo'ying.

1. Tarixni anglash orqali insonda hayotni anglash qobiliyati shakllanadi. 2. Inson tarixning yaratuvchisi, ishtirokchisi va uni dunyoga keltiruvchi eng oliy xilqat ekanligini va bu rad etib bo'lmas haqiqatligini tan olamiz. 3. Insoniyat tarixi bu har birimizga bog'liq bo'lgan, o'zligimizni ko'rsatadigan, bizning olis shajaramizni, nasl-u nasabimizni, insoniy qadr-u qimmatimizni belgilaydigan muqaddas va mo'tabar voqelikdir. 4. Biz g'olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yangicha g'oya kerak. Bu g'oyaning zamirida xalqimizning o'zligini anglashi yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas. 5. Har bir yangi avlod yangi tarixni taqozo etadi, uni yaratadi, takomillashtiradi. O'z dunyoqarashi va manfaatlari doirasida vujudga keltiradi.

(«Fidokor» gazetasidan)

2. So'z birikmalarni quyidagi jadvalga joylashtiring.

Otli birikma	Fe'lli birikma

3. Ikki guruhga bo'lining. 1-guruh sodda birikmalarni, 2-guruh murakkab birikmalarni topib, izohlang.

Namuna:


hayotni anglash qobiliyati – murakkab SB.

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR. TEST.

- 1. Asraymiz o'simlik xillarini tayin, Asraymiz hayvonlar kamyon zotini. Hatto atroflarni o'rab atayin, Qo'riqxonada deymiz so'ngra otini.** A. Oripovning "Qo'riqxonada" she'ridan olingan ushbu misralarda qaratqich va tushum kelishi qay tarzda qo'llangan?

A) ikki o'rinda belgisi, ikki o'rinda belgisiz tushum kelishi qo'llangan
B) bir o'rinda qaratqich va tushum kelishi belgisi, ikki o'rinda qaratqich belgisiz qo'llangan
C) bir o'rinda qaratqich, bir o'rinda tushum kelishi belgisiz qo'llangan
D) ikki o'rinda qaratqich belgisiz, to'rt o'rinda tushum belgisi qo'llangan
- 2. Mehnat zavqi tutar o'lkani. Sahar ketar cho'pon tog'iga. (H. Olimjon)** Ushbu misralarda kelishik qo'shimchalari qay tarzda qo'llangan?

A) ikki o'rinda belgisi qo'llangan
B) ikki o'rinda belgisi, bir o'rinda belgisiz qo'llangan
C) ikki o'rinda belgisi, ikki o'rinda belgisiz qo'llangan
D) bir o'rinda belgisi, bir o'rinda belgisiz qo'llangan
- 3. Gul rangin bulbul doimo, Gul bo'yin ardoqlar tong esgan sabo, Rang-u bo'y shaydosi tushib bo'ldilar, Sabo sargardon-u bulbul sernavo.** Ushbu misralarda qaysi kelishik belgisiz qo'llangan?

A) qaratqich belgisiz qo'llangan
B) qaratqich, tushum va o'rin-payt kelishiklari belgisiz qo'llangan
C) qaratqich va o'rin-payt kelishiklari belgisiz qo'llangan
D) tushum kelishi belgisiz qo'llangan
4. Quyidagi gapda qo'llangan o'rin-payt kelishigidagi otning ma'nosini aniqlang. **Shu-shu Anora har kuni avtobusda ishga qatnaydi.**

A) vosita B) payt C) o'rin D) atash
- 5. Ko'chada, xiyobonlarda baqir-chaqir, yugur-yugur, ur-yiqit boshlanib ketgan edi.** Ushbu gapdagi otlar sonini aniqlang.

A) 4 B) 2 C) 5 D) 3
6. Qaysi kelishik qo'shimchalari badiiy uslubda qisqargan holda qo'llanilmaydi?

A) qaratqich va tushum
B) tushum, jo'nalish va chiqish
C) chiqish, o'rin-payt va jo'nalish
D) chiqish va o'rin-payt
7. Kelishik shaklidagi otlar qaysi so'z turkumlaridagi so'zlar bilan grammatik bog'lanadi?

- A)ot, fe'l, sifat, ravish
 B)ot, fe'l, sifat
 C)ot va fe'l
 D)barcha mustaqil so'zlar bilan
- 8.Quyidagi grammatik ma'nolardan qaysi biri ot turkumi uchun asosiy va doimiydir?
 A)egalik va kelishik
 B)son
 C)kelishik
 D)son, kelishik
- 9.**Bobur bog'I, orol dengizi** kabi birikmalarda nima sababdan oldingi qismda qaratqich kelishigi qo'llanmaydi?
 A)chunki bu birikmalardagi 3-shaxs egalik qo'shimchasi qarashlilik ma'nosini bildirmayapti
 B)chunki bu birikmalardagi 3-shaxs egalik qo'shimchasi xoslik ma'nosini bildiriyapti
 C)chunki bu birikmalardagi 3-shaxs egalik qo'shimchasi umumdan ajralganlik ma'nosini bildiriyapti
 D)barchasi to'g'ri
- 10.Ot turkumiga oid so'zlar nutqda har doim qanday shaklda bo'ladi?
 A)egalik shaklini olgani holda
 B)egalik shaklini olgani holda va birlik yoki ko'plik shaklida
 C)birlik yoki ko'plik shaklida
 D)qaysidir kelishik shaklida va birlik yoki ko'plik shaklida
- 11.Quyidagi misralarda tushum kelishigi qay tarzda qo'llangan? **Bolalar ruhiga hayot degan dars Manmanlik urug'in joylasa; Oshiqlar ko'chada ma'shuqasin emas, Kimningdir qadamin poylasa.**
 A)ikki o'rinda belgili, bir o'rinda belgisiz
 B)bir o'rinda belgili,ikki o'rinda belgisiz
 C)bir o'rinda belgili qo'llangan
 D)ikki o'rinda belgili

Mavzu: Kelishik kategoriyasi. Uning UGMsi va nutqda voqelanishi.

Reja:

- 1.Kelishik shakllarining semantik va sintaktik xususiyatlari.
- 2.Kelishik kategoriyasi paradigmasining UGMsi va uning nutqda voqelanishi.
3. Makon kelishiklari (jo'nalish, chiqish, o'rin kelishiklari) UGMsi va OGMLarining ajratilishi.
- 4.Sof grammatik kelishiklar (bosh, qaratqich, tushum kelishiklari) xususiyati.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar:

Kelishik kategoriyasi, aloqa-munosabat shakli, qaratqich-qaralmishli birikma, kelishik shakllarining o`rin almashtirishi (bir-birining o`rnida qo`llanishi), kelishiklarning ma'no va vazifasi, kelishik kategoriyasining UGM si, makon kelishiklari OGMsi va ularning XGMLari, sof grammatik shakllar, bosh kelishikning qo`llanish imkoniyatlari, kelishiklarda variant va invariant tushunchasi, so`z birikmasi qoliplari.

Kelishik morfologik kategoriyalar ichida o'zining sintaktik tabiati g'oyat ustunligi bilan ajralib turadi. Kelishik kategoriyasi ma'lum shakllar tizimi orqali ifodalanadi va alohida bir paradigmani hosil qiladi. Kelishiklar so'zlarni o'zaro bog'lashga xizmat qiluvchi aloqa-munosabat shakllaridan bo'lib, asosan, tobe so'zni hokim so'zga bog'laydi. Kelishik kategoriyasi olti shaklning sistemasi bilan shakllanadi, ularning har biri ma'lum ma'nolar yig'indisi va vazifaviy imkoniyatga ega. Bu shakllar quyidagi jadvalda ko'rsatilgan:

№	Kelishiklarning nomi	Qo'shimchasi	Misollar
1	Bosh kelishik	O	kitob, yaxshi, o'n, men
2	Qaratqich kelishigi	-ning	kitobning, yaxshining, o'nning, mening
3	Tushum kelishigi	-ni	kitobni, yaxshini, o'nni, meni
4	Jo'nalish kelishigi	-ga (-ka, -qa)	kitobga, yaxshiga, o'nga, menga
5	O'rin – payt kelishigi	-da	kitobda, yaxshida, o'nda, menda
6	Chiqish kelishigi	-dan	kitobdan, yaxshidan, o'ndan, mendan

Demak, kelishik kategoriyasi 6 a'zoli bo'lib, ularning har biri semantik-sintaktik xususiyatga ega.

Bosh kelishik. Ushbu kelishik O shaklli bo'lib, kelishik shakllariga qarama-qarshi qo'yiladi va shularga nisbatan belgilanadi. Bosh kelishikdagi so'zshakl gap tarkibida xohlagan gap bo'lagi vazifasida kelishi mumkin. Masalan, ega vazifasida: *Derazamning oldida bir tup O'rik oppoq bo'lib gulladi* (H. O.).

Kesim vazifasida: *Dil qulfi-til.* (Maqol)

Aniqlovchi vazifasida: *Bilim-baxt kaliti.* (Maqol)

To'ldiruvchi vazifasida: *Ko'rpangga qarab oyoq uzat.* (Maqol)

Hol vazifasida: *Bugun majlis bo'ladi.*

Undalma vazifasida: *Bolalarim, endi gapimga quloq tutinglar* (Ertakdan). *Sizga yo'ldosh bo'lsam, aziz do'stlarim, Sizga xizmat qilsa, she'rim, so'zlarim* (H. G').

Kelishiklar tobe munosabatni ifodalovchi vosita ekan, so'z birikmasi tarkibida bosh kelishikdagi so'z ham hokim, ham tobe pozitsiyada kela oladi va bu xususiyatni boshqa kelishik shakllarida kuzatib bo'lmaydi. Chunki boshqa kelishiklar so'z birikmasida tobe mavqeda bo'ladi. Chunonchi, *katta ko'cha, gul bargi* birikmalarida hokim pozitsiyani, *Toshkent shahri, beton uy* birikmalarida tobe pozitsiyani egallagan. Bosh kelishikning qo'llanish imkoniyatlari nihoyatda

kengdir va ular ma'lum vazifaga xoslangan bo'ladi. Ketma-ket kelgan ikki va undan ortiq bosh shakldagi so'z bir tushunchani ifodalasa qo'shma ot hosil bo'ladi: *qo'lqop, mingoyoq, gultojixo'roz* kabi. Bosh shakldagi otlar takror, juft holatlarda qo'llanib, juft va takroriy otlarni hosil qiladi va grammatik ma'noni yuzaga chiqaradi: *qozon-tovoq, qop-qop, etak-etak, non-pon* va hokazo. Ikki va undan ortiq bosh shakldan so'z birikmasi ham hosil bo'ladi. Birikma tarkibidagi otlar aniqlovchi-aniqlanmish, izohlovchi-izohlanmish vazifasini bajaradi: *temir panjara, toza ko'ylak, Sora buvi, Rahim amaki, Jo'ra temirchi* kabi. Ayrim aniqlovchi-aniqlanmish, izohlovchi-izohlanmishli birikma egalik qo'shimchasi yordamida hosil bo'ladi va egalik shakli ikki bosh shaklni bog'lash uchun xizmat qiladi: *Buxoro shahri, o'zbek xalqi*. Ikki bosh shakl III shaxs egalik qo'shimchasi vositasida bog'lanib qaratqich-qaralmishli birikma hosil qiladi. Qaratqich atoqli ot bo'lsa, qo'shimchani ma'nosi konkretlashib qaralmishning aynan kim yoki nimaga xosligi ifodalanadi: *Lutfiy g'azali, Samarqand noni*. Qaratqich turdosh ot bo'lsa umumiy xoslik ifodalanadi: *vatan ishq, daraxt ildizi, non ushog'i*.

Tilshunoslar turkiy tillarda "bosh kelishikdagi ot (imy) gapning xohlagan bo'lagi vazifasida kela olishi"ni ta'kidlaganlar. Bosh kelishikning ushbu xususiyati uning barcha kelishiklar o'rnini bosa olishidan kelib chiqadi. Ammo hamma o'rinlarda ham BK boshqa kelishiklarning o'rnini bosish imkoniyatiga ega emas. BKda aynan TK va QK bilan o'rin almashish imkoni kuchli. ChK, JK va O'Klarda esa bu imkoniyat nihoyatda chegaralangan. Masalan, *ikki kundan keyin - ikki kun keyin, qishloqqa ketdi - qishloq ketdi, oqshomda ketdi - oqshom ketdi*.

Qaratqich kelishigi uch xil variantda qo'llaniladi: *kitobning varag'i, mening uyim, qoshin qarosi*. Tilshunoslikda QK ko'rsatkichini olgan so'zni qaratuvchi, u bilan bog'langan so'zni qaralmish deb atashadi. Qaratqich - qaralmish munosabati ancha barqaror bo'lib, QK ning so'z birikmasidagi sintaktik imkoniyati kuchlidir. Qaratqich kelishigi shuning uchun, shuning singari kabi birikuvlarda so'z birikmasi hosil qilmaydi, balki so'zning ajralmas qismiga aylanadi (to'satdan, qo'qqisdan kabi ravishlar tarkibida - dan ChK ning yaxlitlanishi kabi). Qaratqich kelishigi affiksini olgan negiz egalik affiksini olgan negiz bilan bog'lanadi: *oilaning baxti, Karimning kitobi*. Bunday qurilishli so'z birikmalari [Ism^{q.k.} + Ism^{e.q.}] so'z birikmalari umumiy qolipining voqelanishidir, bu birikmalarning lisoniy va nutqiy xususiyatlari tadqiqotchi S. Nazarova tomonidan batafsil o'rganilgan [1]. Qaratqich-qaralmish konstruksiyasida turlicha ma'no munosabatlari voqelanadi.

Tushum kelishigi ham bir necha morfologik shaklga ega: -ni, -n kabi. TK dagi so'z faqat fe'l bilan boshqariladi. Fe'llar TK dagi so'zga munosabatiga ko'ra ikkiga ajraladi: o'timli fe'llar va o'timsiz fe'llar. TK ham QK kabi BK bilan juda ko'p holatlarda o'rin almasha oladi: *kitobni o'qidi - kitob o'qidi, olmani yedi - olma yedi...* TK bilan shakllangan so'z gap tarkibida vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajaradi:

...Novdalarni bezab g'unchalar

Tongda aytdi hayot otini... (H.O.) Yigit qizga xat yozdi.

Chiqish kelishigi yagona ko'rsatkichga ega: -dan. Bu qo'shimcha ko'rsatish olmoshlariga qo'shilganda bir [n] tovushi orttiriladi: u+dan=undan, shu+ga=shunga... Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ChK va BKning o'rin almashish imkoniyati juda chegaralangan: *nondan yeng- non yeng, choydan iching-choy iching...* Chiqish kelishigidagi so'z gap tarkibida hol, to'ldiruvchi, ega, kesim bo'lib kelishi tan olingan:

Karimada shu kitoblardan bor. Shuncha yerdan bizning so'k oshimizni ichgani kelisharmidi? (Cho'lpon)...Enaxon o'z ko'nglida yana xijolat tortishdan qutulmadi. (Cho'lpon) CHK ni olgan so'z TK ni olgan so'z bilan o'rin almashish

imkoniyatiga ham ega va bunda ChK ma'no semantikasi TK ma'no semantikasidan farq qiladi: *choyni iching-choydan iching, nonni yeng-nondan yeng...* ChK dagi so'z qaratuvchi pozitsiyasida kelganda, QK bilan vazifadosh bo'lishi ham mumkin: *qog'ozlardan bir-ikkitasi/ qog'ozlarning bir-ikkitasi*.

Jo'nalish kelishigining ko'rsatkichi—ga. JK semantikasi xoslik, yo'nalganlik, tenglashtirish kabi ma'no xillaridan tuzilgan: *ukamga olmoq, maktabga bormoq...* JK ning boshqa kelishik, xususan, BK bilan o'rin almashish imkoni juda chegaralangan: *quyiga bormoq- quyi bormoq, pastga bormoq- past bormoq*. Mustaqil so'zlarning deyarli barcha turi (a) va ko'makchilar (b) JK li so'zni boshqara oladi:

- *sizga mushtoq, uyga ketmoq, birga bir.*
- *buyruqqa binoan, kelishuvga ko'ra.*

O'rin kelishigining ko'rsatkichi—da. O'K ning BK bilan o'rin almashishi JK va CHQ dagi kabi juda kam uchraydi: *A.Navoiy bir ming to'rt yuz qirq birinchi yil tug'ilgan*. O'Kdagi so'zda makon, zamon, obyekt, vosita kabi ma'nolar reallashadi:

Ular mashinada qaytishdi (vosita)

Vodiylarni yayov kezganda

Bir ajib his bor edi menda (obyekt) (H.O.)

Kechqurun yotar paytda kampir ikkovini yoniga chaqirib o'z fikrini aytdi (zamon). (Cho'lpon) O'rin kelishigi gap tarkibida to'ldiruvchi, hol, kesim vazifasida kelishi mumkin. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlash joizki, turkiy tillarda kelishiklarning semantik va funksional jihatlarini bir - biridan alohida va har xil mikrosistemalarda ko'rib chiqib bo'lmaydi, chunki turkiy til kelishiklarining ma'no va vazifasi dialektik birlikda yashaydi, kelishiklarning turli funksiyasi bir-biriga turli belgilari bilan qarama-qarshi qo'yiladi [3, 51;].

Kelishik kategoriyasi egalik kategoriyasi bilan birgalikda sintaktik shakllarning so'z birikmalariga xos guruhini tashkil etadi. Shuning uchun uning munosabati eng avvalo egalik kategoriyasi bilan bir. Egalik kategoriyasi UGMsining sintaktik mohiyati [H shaxs-son T] bo'lsa, kelishik kategoriyasining sintaktik mohiyati teskari yo'nalishda $T \rightarrow H$, ya'ni tobe shakl sintaktik funksiyasidir. Shuning uchun kelishik sintaktik mohiyati (UGMsi) ni "tobeni hokimga bog'lash" tashkil etadi. Kelishik shakllari o'z ichida ikki guruhga ajratiladi. M.Qoshg'ariydan boshlab hozirgi davr tilshunoslarigacha bu guruhlarni ajratishda mushtaraklik bor. 1-guruhni, odatda, makon kelishiklari deb ataydilar. Bular jo'nalish, chiqish va o'rin kelishiklaridir. 2-guruh tilshunoslikda ko'pincha sof grammatik kelishiklar deb nomlanadi va ularga bosh, qaratqich, tushum kelishiklari kiritiladi. Ularning xususiyati sifatida aniq ma'noga ega emasliklari ta'kidlanadi. Makon kelishiklarining ma'noviy UGMsini makon /zamon, maqsad / sabab ma'nolar majmuasi tashkil etadi. Bosh, qaratqich, tushum kelishiklarida hokim yoki tobe so'zning qaysi turkumga mansubligi, ma'noning muayyan yoki umumlashmaligi (aniq, noaniqligi), tobe so'zning hokim so'zga nisbatan joylashish xususiyati tashkil etadi. Bu umumiy grammatik ma'nolar bir necha OGMLarda voqealanadi. Makon kelishiklarida quyidagi OGMLarni ajratish mumkin:

- Makon / zamon ma'nosi.
- Maqsad / sabab ma'nosi.
- Manba / yo'nalish ma'nosi.

4. Qiyoslash ma'nosi.

Makon kelishiklarining bu OGMLari har bir kelishik shaklida yana xususiylashadi va nisbiy XGMLar shaklida nutqda voqealanadi. Dastlab **makon /zamon** OGMsining kelishik shakllarida voqealanishini ko'ramiz:

I.1. Jo'nalish kelishigi.

I.1.1. Harakat yo'nalgan manba / obyektini ifodalaydi: *uyga kelmoq, ertaga qoldirilmoq, kechgga yaqin, osmonga qaramoq, kitobga chizmoq* va boshqalar.

I.1.2. Yo'nalgan harakatning oxirgi chegarasi: *devorga tegmoq, qishloqqa kelmoq, auditoriyaga kirmoq, aeroportga qo'nmoq...* So'z birikmasi tarkibidagi tobe va hokim so'zning ma'nolari ular ifodalagan tushunchalar orasidagi hayotiy (real) aloqalar asosida bu ma'no behad katta rang-baranglik kashf etishi mumkin.

I.2. Chiqish kelishigi.

I.2.1. Yo'nalishli harakatning bosh manbai bo'lgan obyekt: *uydan qishloqqa kelmoq, o'qishni maktabdan boshlamoq, yozdan keyin / so'ng kelmoq;*

I.2.2. Harakatning o'rnini va payti bilan bog'liq ma'nolarni ifodalash: *orqadan kelmoq, oldindan rejalashtirmoq;*

I.3. O'rin kelishigi.

I.3.1. Makon yoki zamonda o'rinish, barqarorlik: *maktabda bo'lmoq, yotoqxonada yashamoq, oyogida turmoq, tongda yig'ilmoq.*

Maqsad/sabab OGMsi yuqoridagi kelishiklarda quyudagi ko'rinishlarda voqealanadi:

II.1. Jo'nalish kelishigi.

II.1.1. Maqsad ma'nosi: *o'qishga kelmoq, ko'rishga bormoq;*


II.1.2. Sabab ma'nosi: *gapirishga qo'rqmoq, chekishga odatlanmoq;*

II.2. Chiqish kelishigi

II.2.1. Sabab ma'nosi: *og'irligidan cho'kmoq, betobligidan nolimoq;*

II.2.2. Maqsad ma'nosi: *ishdan ketish uchun, ovqatdan yegani;*

II.3. O'rin kelishigi. Bu kelishik shakli makon kelishiklari orasida o'ziga xos ham sintaktik, ham ma'noviy xususiyatga ega. Uning sintaktik o'ziga xosligi shundaki, bu kelishik ixtisoslashgan sintaktik vazifaga - gapda hol bo'lib kelishiga asoslangan va gapda hol ham, to'ldiruvchi ham bo'lib kela oladigan jo'nalish, chiqish kelishiklariga zid turadi. O'rin kelishigi tushum, jo'nalish, chiqish kelishiklaridan farqli o'laroq boshqarilmaydi ham va barqaror o'rin yoki payt statik ma'nosiga ega va buni quyidagicha ko'rsatish mumkin:



Shuning uchun bu kelishik shaklida makon kelishiklari OGMLarining voqelanishi o'ziga xosdir. Shularga asoslanib ba'zi tadqiqotchilar o'rin kelishigi shaklini hattoki kelishiklar shaklidan chiqarib, o'rin-payt ravishlari yasovchisi, yuksak unumdorlikka ega bo'lgan derivatsion formant deb ham baholaydilar [4, 5-6;].

III.1. Jo'nalish kelishigi. (Manba/jo'nalish OGMsi)

III.1.1. Harakat natijasida biror narsa qo'shiladigan manba/obyekt: *dengizga quymoq, qozonga solmoq, ovqatga aralashmoq.*

III.1.2. Harakat va holat yo'nalgan shaxs yoki predmet: *o'rtog'iga tutqazmoq, qalbiga yo'l topmoq, ukasiga yozmoq.*

III.1.3. Harakat yo'nalgan manba emas, balki vosita bo'ladigan predmetni anglatadi: *sababiga qiziqmoq.*

III. 2. Chiqish kelishigi

III.2.1. Harakatning o'rinish, joylashish o'rnini: *labidan o'pmoq, qo'lidan ushlamoq, qulog'idan cho'zmoq.*

Chiqish kelishigining bu ma'nosi jo'nalish kelishigining III.1.1. ma'nosi bilan mutanosibdir va buni *qo'lga yopishmoq, qo'lidan ushlamoq/tutmoq* birikmalarini qiyoslash bilan ilg'ab olish mumkin.

Jo'nalish va chiqish kelishiklarida **qiyoslash OGMsi** (IV) ham turlicha ko'rinishlarda voqelanadi: *uchga teng, uch so'mga olmoq, tomdan baland, uchdan ko'p*.

Ikkinchi guruh kelishiklar (bosh, chiqish, tushum)da kelishik kategoriyasining UGMsi quyidagi OGMLarda voqelanadi:

6 Tobe so'zning hokim so'zga nisbatan distant, ya'ni ajralgan holda joylashganligi.

7 Tobe so'z anglatgan predmetning aniqligi.

8 Hokim so'zning ot yoki fe'l ekanligi. Bu OGMLarning kelishik shakllarida voqelanishi ham o'ziga xosdir.

Birinchi OGM voqelanishida bosh kelishik tushum va qaratqich kelishiklari bilan oppozitsiyada turadi, bunda bosh kelishik kontakt (yonma-yon) joylashgan to'ldiruvchi va aniqlovchi shakli, tushum kelishigi distant (hokim so'zdan ajralib) to'ldiruvchi, qaratqich distant ot-aniqlovchi shakli sifatida chiqadi: *maktab bog'i - maktabimiz bog'i*. Lekin "maktabning yangi bog'i", "maktabimizning yangi bog'i" birikmalarida tobe-hokimni bir-biridan ajratganda qaratqich kelishigi zarur bo'ladi va ma'no konkretlashadi. Xuddi shunday hollarni "kitob o'qimoq", "kitobni o'qimoq" birikmalarida ham kuzatamiz.

Tushum kelishigi bilan qaratqich kelishigi o'zaro biri vositasiz to'ldiruvchi shakli, ya'ni ismni fe'lga tobelantirish shakli, qaratqich kelishigi esa ism / aniqlovchi-ismni boshqa ismga tobelantiruvchi shakl sifatida chiqadi. Rang-barang nutqiy ma'nolar tushum kelishigida ham yuzaga chiqadi. Chunonchi, harakat to'la qamrab oladigan manba/obyekt (*suvni ichdi, kinobni o'qidi*); harakat natijasida yaratiladigan obyekt (*xat yozmoq, bino qurmoq*); harakat natijasida yo'qotiladigan manba/obyekt (*pulni yo'qotmoq, pulni oldirmoq, uyni buzmoq*); harakat natijasida sifati, rangi, shaklini o'zgartiradigan manba/obyekt (*yog'ochni yormoq, derazani bo'yamoq, labini bo'yamoq*). Egalik kategoriyasi bo'limida ko'rib o'tganimizdek qaratqich kelishigida ham so'z birikmalari tarkibidagi so'zlar va ularning lug'aviy ma'nolari so'zlar anglatgan narsa, belgi, xususiyatlarning o'zaro hayotiy aloqalari bilan belgilanadi va grammatikaga aloqador emas.

Adabiyotlar:

1. Назарова С. Бирикмаларда сўзларнинг эркин боғланиш омиллари. НДА, Тошкент, 1997 йил.
2. Неъматов Ҳ. Чегара келишиги. ЎТА, 1974 йил, 4-сон, 38-39-бетлар.
3. Нигматов Х. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. Ташкент, 1989, стр 50-79.
4. Нигматов Х. О критериях выделения обстоятельства как члена предложения. Советская тюркология, 1986, №4 -стр 3-11.
5. Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Тошкент, 2001 йил, 75-100-бетлар.

SLAYDLAR

- **So`z birikmalari nutq bosqichida**

So`z birikmalari nutq bosqichida o`zidagi barcha imkoniyatlarni to`la namoyon qila oladi. Nutq vaziyatidan kelib chiqqan holda hokim bo`lak ham guruhlanadi.



So`z birikmalaridagi mazmun va shakl

So`z birikmalari o`zaro mutanosib ravishda tobe yoki teng aloqaga kirishganda turli ko`rsatgichlar asosida bog`lana oladi. Hokim komponentning talabi bilan tobe bo`lakning turli vositalarda kelishi ko`makchilar hamda kelishiklar hamda turli qo`shimcha vositalarga bo`lgan ehtiyojno oshiradi. Grammatik vositalar so`z birikmasining shakliy xususiyatini ochib bersa, vositalar asosida yuzaga keladigan xususiyatlar uning mazmuniy tomonini ochib berishga xizmat qiladi. Hokim a`zo ham o`z vazifasini fe`lli yoki otli birikma ko`rinishida ochib beradi.

TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MATERIALLAR(Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)

Шоимова Н.
Ўз РФА ТАИ

ҚИПЧОҚ ШЕВАЛАРИНИНГ МОРФОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ҲАҚИДА (Қашқадарё шевалари асосида)

Ўзбек халқининг тили жуда кўп ва хилма-хил сўз бойликларига эга. Бундай бўлиши табиий, чунки, ўзбеклар жуда катта ҳудудларга-фақат Ўзбекистондагина эмас, балки, Қозоғистон, Қирғизистон, Туркменистон, Тожикистон ҳамда Қорақалпоқистон каби қардош республикаларда, шунингдек, хорижий мамлакатларда, жумладан Афғонистон, Хитой ва бошқа ўлкаларда тарқалган бўлиб, унинг устига, ўзбек шева ва шева гуруҳлари, диалектларнинг ниҳоятда кўплиги ва ранг-баранглиги жиҳатидан қардош туркий тиллар орасида биринчи ўринда туришидир. Бу фактни ўз вақтида ўзбек шевалари тадқиқотчиларининг қалдирғочларидан бири ҳисобланган проф. Е.Д.Поливанов ҳам таъкидлаб ўтган эди.

Маълумки, ўзбек халқи тил жиҳатидан тарихан учта йирик-карлуқ, қипчоқ, ўқуз деб номланувчи лаҳжалардан (бу лаҳжалар эса ўз навбатида бир қанча шева, шева гуруҳларидан) ташкил топган. Уларнинг ҳар бири умумўзбек тили учун муштарак сўз бойлигига эга бўлиши билан бирга ўзларига хос тил хусусиятларига –фонетик, морфологик, хусусан, лексик жиҳатидан фарқланадиган қатор лингвистик белгиларга эга. Масалан, қипчоқ диалектига тааллуқли шевалар сўз бошида й ўрнига ж талаффуз қилинади:

йўл-жўл,
ёмон-жаман,
Ғ-В ТОҒ-тав
 боғ-бав

ёқмоқ ўрнига жавмоқ; сўз бошида ҳ орттириб талаффуз қилинади: арра-ҳарра; ўзига хос кўшимчаларга эгаллиги, масалан, -жатир/баражатир каби; менга, сенга, унга, ўрнида маған, саған, уған каби шахс олмошларини қўллаш каби қатор хусусиятлари билан бошқа ўзбек шеваларидан фарқланади.

Ўзбек халқининг кўп асрлик ҳаёти, ижтимоий фаолияти билан боқлиқ бўлган ва шу жараёнда юзага келган одоб, ахлоқ, урф-одат, мавсум-маросим, инсонлар характериға мос уй-рўзқор,

чорвачилик ва шулар каби боқлиқ бўлган сўз ва терминлар ўзбек тилининг луғат таркибини бойитади.

Қипчоқ гуруппасига кирувчи шеваларнинг ҳаммаси ўзининг тил хусусиятлари жиҳатидан бутун ҳудудлар бўйича бир хил деб бўлмайди. Улар маълум бир ўзига хос хусусиятлари билан бири-биридан фарқ қилади.

Қипчоқ шеваларининг морфологик хусусиятини-сўзларнинг ясалиш, турланиш, сўзларнинг тусланишини текшириб кўрилганда, шу шевада қўлланиладиган барча асосий морфологик ҳодисалар шу жумладан, бир томондан, ўзбек тили учун умумий бўлса, иккинчи томондан, қипчоқ шеваларига оид ҳодисалар кўзда тутилади. Айниқса, л, р, н каби товушларнинг тушиши ва тўлиқсиз феъл, равишдош формаларининг қисқариши ҳамда сўз ва иборалар ёки баъзи сўз бирикмаларининг ихчамлашуви учун замин яратади. Масалан, олиб кетди ўрнида эпкэттў; олиб кет- эпкэт; тикиб келди-тўктў; окиб келди-октў кабилар.

Келишикларда - га,-қа,-ка,-қа,-ла жўналиш келишиги⁷:экәм уйка кэттў. Пошшә тоққә чўктў. Өтәркә чўхтў (яйловга); йўллә кәрәймән.

Қаратқич келишиги қўшимчалари⁸- нўнг, -ни; -нўў,-ниў;-дў,-ди;-тў,-ти каби кўринишларда ишлатилади: Эргашнинг боғидан олдим-Эргаштў боғитан (-дан) оллўм.

Чиқиш келишиги қўшимчаси- дан, тан; тәз жовәйтқән хәвәтән кәрк. Кўплик қўшимчаси⁹, лар, ләр,-нар-нәр вариантларида ишлатилади. Отнәр кәлтў (отлар келди), сәлләтләр кәлтў, көйләр, бир заманнар, сәннәр кабилар.

Калтатайтан жиқилдим (отдан йиқилдим):

Калтатайтқа йахшилап қарап қўй:

Манам ким гўшаи ишқингда ётган
рўдапойингман.

Эшикдан урсангу қувсангки кетмас бир

гадойингман,

Ёмонингдан ёмону баднамодин баднамойингман,

Демасман арқимоқу тўпичоқу бадипойингман.

Баҳор нақобили бир беқуюшқон калтатойингман.

(Муқимий)

Демак, шевалардаги мавжуд бўлган ана шу ранг-баранг тил хусусиятларини ўрганиб чиқиш, уларни ёзиб олмаса, улар вақтлар ўтиши билан ўзгаради, халқимиз тарихи, унинг маънавий ва

⁷ Қ Муҳаммаджонов. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари. Тошкент; Фан, 1981, 14-15-бетлар.

⁸ Қ Муҳаммаджонов. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари морфологияси Тошкент, Фан, 1983, 15-37-бетлар.

⁹ Б.Жўраев Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. Тошкент, Фан, 1969 21-24-бетлар.

моддий маданиятининг ажралмас қисми сифатида фан учун, келажак авлод учун изсиз йўқолиб кетиши мумкин. Шевалардаги шу муқаддас бойликларни тўплаб олиш, ўзбек атамаларини тартибга солишда, шевалар луғатини, ўзбекча-русча, изоҳли луғатларни яратишда бу халқ хазинаси бебаҳо манба ҳисобланади.

AMALIY MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

1. Ko'chiring. Belgili va belgisiz qaratqich shaklli so'zlarni aniqlang.

1. Maqtanganning uyini ko'r, kerilganning to'yini ko'r.
2. "Boburnoma" qahramonlar tavsifi, ularning shakl-shamoyilini ta'riflashdan boshlanadi.
3. Dangasaning vaji ko'p.
4. Hayotim lazzati, qalbim qo'risan, Vatanim
5. Bir lahza jimlikdan keyin allaqayerdan qo'ylarning, sigirlarning ma'rashi, ho'kizlarning o'kirishi eshitildi.
6. Boyagi yigitning, Avazning, qo'li gul ekan. (P. Qodirov)

2. Gaplarni o'qing. Kelishik va ko'makchilarning sinonimligiga e'tibor bering.

1. Abu Ali ibn Sino G'aznaga yo'l oldi.
2. Begimga o'xshashni xohlayman.
3. Beruniy indamay eshikka yo'naldi.
4. Qaysi gunohlaringga seni qiynoqqa soldilar.
5. Navkar uning qo'llaridan qayirib, eshikka sudradi.
6. Sizga atalgan tilaklarim bir jahon.
7. Inson qalbi bilan hazillashmang siz.

SEMINAR MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR.

Matnni o'qing. Kelishik qo'shimchalarining ishlatilishiga e'tibor bering.

Zulfiya XX asr o'zbek she'riyatining yirik vakillaridan biridir. U o'zining teran falsafiy, hassos, fojiviy, va hayotbaxsh realistik ijodi bilan hozirgi zamon o'zbek she'riyatida yangi sahifa ochdi.

Isroil Muslimov qizi Zulfiya 1915- yil 1- martda Toshkentning O'qchi nahallasida tig'ildi. Hovli mo'jazgina bo'lsa-da, unda bir-biridan chiroyli, muattar gullar o'stirilardi. Oila a'zolari she'rxonlikni, musiqani juda yaxshi ko'rardi. Zulfiya oilaning kenjasi edi. Uning bir-biridan ko'rkam, bir-biridan aqlli to'rt akasi bor edi. Ularning bari keyinchalik mas'ul lavozimlarga ishladilar, qatag'on-

qirg'in yillarining achchiq zahri va shafqatsiz qahriga duchor bo'ldilar....

Oiladagi tinch, fayzli, shirin hayotni vujudga keltirishga onaning xizmati juda katta edi. Ona shoirtabiat, ko'p narsani bilguvchi, farzandlarini katta dunyo sari dadil yetaklagan zehnli ayol edi. "Agar iste'dodim bor bo'lgan bo'lgan bo'lsa, uning chashmasi – onam. Agar adabiyot ahliga bir kaft don yanglig' she'riy hosil tutgan bo'lsam, uning urug'uni qalbimga avval onam sochganlar.", - degan edi Zulfiya. Shoiraning butun ijodi davomida onani, ayolni ulug'lovchi otashin she'rlar yozishi bejiz emasdi. Uni doim „qattiq minnatdorchilik tuyg'usi“, „uzilmagan qarz hissini to'kib solish ehtiyoji“ band etadi va shu mavzuning yangi-yangi jihatlarini ochadi. Otasi esa temirchi edi. "Ustaxona uyimizning yonginasida bo'lganligi uchun ham, - deydi Zulfiya, - men uning laxch cho'qqa aylangan po'lat eritmalarini turli shaklga solishini, o'sha cho'g' po'latdan turli saboblar yasashini hayrat bilan kuzatishini yaxshi ko'rardim. Olov va mehnat mahorat bilan birikkanda inson ko'p ishlarning uddasidan chiqishi mumkinligini ham men bolalikdan anglab yetdim. Keyinchalik charchagan yoki dilga tanglik cho'kkan, loqaydlik hukmron bo'lgan daqiqalarda otamning salobatli aziz qiyofasini, bolg'asining bir maromda ko'tarilib tushishini eslashning o'zi menga ajoyib tarzda yangi kuch-quvvat bag'ishlardi."

Zulfiya boshlang'ich maktabni bitirgach, xotin-qizlar pedagogika bilim yurtida tahsil oldi(1931-1934). Shu yerda she'r mashq qila boshlaydi. Bilim yurti qoshida adabiy to'garak tashkil etilgan edi. Unga shoir Shukur Sa'dulla rahbar edi. To'garakga G'afur G'ulom, Uyg'un kabi ko'zga ko'ringan shoirlar bilan uchrashuvlar uyushtirilardi. Shoira o'z ustozini ,avvalo, „davrning, hayotning o'zi deb “ hisoblardi. O'sha davrning shuhratli shoirlari, turli-tuman kitoblar shoiraga ijod sirlarini ishlashda ko'mak berganiga shakshubha yo'q albatta. Ilk she'ri bo'lmish „Qizil durra “ning dunyoga kelishiga paranjini tashlab zavod-fabrikalarda boshlariga qizil durra o'rab ishlay boshlagan ayollar hayoti turtki bergani ham bejiz emas. Shoira hayot, turmush saboqlaridan ilhom oldi va 17 yoshidayoq "Hayot varaqlari"(1932) degan ilk to'plamni chiqardi. Ammo u bunda dunyoga, voqealikka, insonga o'z nuqtai nazaridan qarash darajasiga ko'tarilmagandi. Hamid Olimjon bilan taqdirining bog'lanishi (1935) shoira hayoti va ijodida ulkan burilish bo'ldi.

Mavzu: Kesimlik kategoriyasi. Kesimlik kategoriyasi UGMsi.

Reja:

- Kesimlik kategoriyasi–tasdiq/inkor, mayl/zamon, shaxs/son shakllari va ma`nolarining majmuasi sifatida.
- Kesimlik kategoriyasi shakllarining gap bo`lagini farqlash xususiyati.
- Predikatsiya va kesimlik.

Mavzu bo`yicha tayanch iboralar:

Kesimlik kategoriyasi, predikativlik tushunchasi, morfologik kategoriyalarning ma`noviy xususiyati va sintaktik imkoniyatlari, kesimlik kategoriyasi UGMsi, tasdiq-inkor, mayl-zamon, shaxs – son shakllarining ifodalanish xususiyatlari, kesimlik kategoriyasining murakkab kategoriya ekanligi, kesimlik kategoriyasi shakllariga munosabat jihatdan mustaqil so`zlarning ismlarga va fe`llarga ajralishi.

So`zlarning sintaktik shakllaridan biri bu kesimlik kategoriyasidir. Kesim gap bo`lagi sifatida dunyodagi barcha tillarning sintaktik sistemasida alohida o`rin tutadi. Uning mavqei turkiy tillarda, ayniqsa, ustun.

Turkiy tilshunoslikda, xususan, o`zbek tilshunosligida maxsus morfologik kategoriya sifatida kesimlik kategoriyasini ko`rsatish odat tusiga aylanib bormoqda. Turkiy tilshunoslikda kesimlik kategoriyasini alohida morfologik kategoriya sifatida ajratgan olim N.K.Dmitriyev bo`ldi. U “Kesimlik qo`shimchalari tarixiga oid” maqolasida quyidagilarni yozadi: “Qo`shimchalardan iborat morfologik kategoriya mavjud, ammo kesimlik kategoriyasi to`liq sintaktik funksiya bajaradi. Turkiy tillarning xususiyati shundadir”. Darhaqiqat sintaktik shakllardan kelishik va egalik kategoriyasi so`zlarni bog`lashga xizmat qilsa, kesimlik shakllari esa so`zlarga alohida sintaktik vazifa belgilaydi. Kesimlik kategoriyasini maxsus morfologik kategoriya sifatida formal- funksional tezis mualliflari ham ishlatgan [3, 3-9;]. Kesimlik kategoriyasining turkiy tillar grammatik kategoriyalari ichidagi o`rni Sh.Shahobiddinova tomonidan maxsus o`rganildi va biz quyida uning nomzodlik dissertatsiyasi ilovasidagi kesimlik kategoriyasi haqidagi xulosalarini alohida keltiramiz: “Kesimlik kategoriyasi. Bu kategoriya shakllarining ma`nolari murakkab bo`lib, ularni quyidagicha ko`rsatish mumkin:

- Shaxs ma`nosi.
- Son ma`nosi.
- Zamon ma`nosi.
- Mayl – munosabat ma`nosi.
- Tasdiq - inkor ma`nosi.
- Kesimlikni shakllantirish va gapning egasi bilan bog`lash vazifasi.

Birinchi beshinchigacha bo`lgan ma`nolar kesimlik kategoriyasi mohiyatining ma`noviy tomonini tashkil etadi. Oltinchi ma`no esa uning mohiyatida sintaktik tomonni tashkil etadi. Shu turdagi ikki xil ma`no birikishidan kesimlik kategoriyasining UGMsi (umumiy lisoniy grammatik ma`no) hosil bo`ladi. Bu UGM o`n minglab xususiyl ma`nolar shaklida nutqda voqelanadi” [6, 70;].


Kesimlik kategoriyasi shakllari uchun tasdiq-inkor, mayl-zamon, shaxs-son ma`nolarining birikkan holda ifodalanishi xos bo`lib, bu ma`nolar so`zshakl tarkibida bitta qo`shimcha bilan ham bir necha qo`shimcha bilan ham

ifodalanishi mumkin. Masalan, “gulni ol” gapida “ol” soʻzshakli tasdiq, buyruq mayli, ikkinchi shaxs, birlik son, hozirgi zamon maʼnolarini voqelashtirib kelmoqda va bu maʼnolar bitta [0] bilan ifodalanmoqda. “Otam ishchi” soʻzshaklida ham tasdiq, aniq mayl, hozirgi-kelasi zamon, uchinchi shaxs, birlik maʼnosi [0] bilan ifodalanmoqda. “Gulni olmadingiz” gapida inkor maʼnosi [-ma] qoʻshimchasi bilan, mayl-zamon maʼnosi [-di] bilan, koʻplik maʼnosi [-iz] bilan ifodalanmoqda. “Gulni olma” gapida esa inkor maʼnosi [-ma] bilan, mayl-zamon, shaxs-son maʼnolari [0] bilan berilib, gap kesimi shakllantirilmoqda. Misollardan koʻrinib turganidek, mayl, zamon, shaxs-son, tasdiq-inkor, koʻrsatkichlari feʼlgagina emas, kesim vazifasini oʻtashga xoslangan har qanday soʻzga mansub boʻlib yigʻiq yoki yoyiq holatlarda voqelanadi. I.I. Meshaninov yozadi: “...shaxs-sonda... soʻz turkumi emas, balki gap boʻlagi oʻzgaradi. Albatta, soʻz turkumiga (feʼlga) ham shaxs-sonda tuslanish xos, biroq bu mutlaq uning oʻzigagina xos belgi emas; feʼlning oʻzi ham shaxs-sonda shuning uchun oʻzgaradiki, tilda har qanday kesim shaxs-sonda oʻzgaradi” [2, 38;]. Bu yerda yana bir narsani taʼkidlash zarurki, boshqa soʻz turkumi bilan ifodalangan kesim bilan feʼl bilan ifodalangan kesim orasida tuslanish darajasi boʻyicha farq boʻlishi mumkin. Chunki boshqa soʻz turkumi bilan ifodalangan kesimning tuslanish darajasi sust, mayl/zamon tushunchalarini aniqroq ifodalash zarurati tugʻilganda, aynan feʼlga ehtiyoj seziladi. Masalan, *Men ishchiman // Men ishchi boʻlganman // Men ishchi boʻlsam...; Bahor // Bahordir // Bahor edi // Bahor boʻlgan...* kabi. Bundan koʻrinadiki, feʼlda kesimlik imkoniyati kengroq. Feʼllarda mayl, zamon, shaxs va son, tasdiq – inkor maʼnolarini ifodalashga xizmat qiladigan shakllarning oʻta keng rivojlanganligining sababi shundaki, kesim juda koʻp hollarda feʼl bilan ifodalanadi. Ammo bu shakllar feʼlning feʼlligini belgilovchi, soʻz turkumi sifatida farqlovchi shakllar emas. Bu shakllar soʻz turkumini emas, gap boʻlagini farqlaydi. Oʻz mohiyatini sintaktik qatlamda ochuvchi shakllar faqat bulargina emas. Masalan, kelishik kategoriyasi koʻrsatkichlari ham shu hil xususiyatga ega. Kelishiklar muayyan gap boʻlaklarini shakllantirish uchun xizmat qiladi: Qaratqich kelishigi qaratqich aniqlovchini, tushum kelishigi vositasiz toʻldiruvchini, oʻrin, joʻnalish, chiqish kelishiklari toʻldiruvchi va holni, bosh kelishik ega, kesim va boshqa gap boʻlaklarini. Shu tufayli kelishikni ham muayyan soʻz turkumi, xususan, otga bogʻlab boʻlmaydi. Demak, turkiy tillarda, jumladan, oʻzbek tilida vositasiz toʻldiruvchini

shakllantiruvchi tushum kelishigi, ot aniqlovchini shakllantiruvchi qaratqich kelishigi morfologik formalariga oʻxshab, gap kesimini shakllantiruvchi maxsus morfologik shakllar sirasi borki, ular soʻzning alohida bir sintaktik vazifadagi shaklini–kesimlik shaklini yasashga xizmat qiladi. Kesimlik kategoriyasi mohiyatini semantik jihatdan mayl-zamon, shaxs-son, tasdiq-inkorlik ifodalash, sintaktik jihatdan gap kesimini shakllantirish tashkil etadi. Jumladan, mayl-zamon kategoriyasining maʼnoviy xususiyatini soʻzlovchining harakatga va harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalash tashkil etsa, ushbu morfologik kategoriyaning sintaktik imkoniyatini gap kesimini shakllantirish, kesimga turli valentliklar berish, mikromatn tarkibiy qismlarini bogʻlash kabilar belgilaydi. Yoxud shaxs-son koʻrsatkichining maʼnoviy xususiyati harakat bajaruvchisining shaxs va sonini, aniq-noaniqligini, bor-yoʻqligini ifodalashda boʻlsa, sintaktik xususiyati gap kesimini shakllantirishidir.

Kesim vazifasida kelgan barcha soʻzlar shaxs-son shakl koʻrsatkichiga egadir. Har qanday voqea, hodisa maʼlum zamon davrasida sodir boʻladi. Demak, ifodalangan voqea, hodisalar uch grammatik zamondan birini koʻrsatadi (zamondagi umumiylik ham shunga kiradi). Zamon maʼnosi turli vositalar orqali

ifodalanadi. Masalan, *ma`ruza o`qildi* (o`tgan zamon), *ma`ruza o`qilyapti* (hozirgi zamon), *ma`ruza o`qiladi* (kelasi zamon) gaplarida zamon ma`nosi fe`lning zamon shakllari vositasida ifodalangan. **Zamon kategoriyasi bilan mayl kategoriyasi** birgalikda bir butunlikni tashkil qiladi. Mayl kategoriyasi faqat tuslangan fe`llargagina xosdir. Zamon kategoriyasi esa mazmuniga qarab qisman sifatdosh va ravishdoshlarga o`xshab ketadi. Ravishdosh va sifatdoshlardagi (zamon bilan tuslangan fe`llardagi) zamon bilan tuslangan fe`llardagi zamon bir – biridan keskin farq qiladi. Ulardagi farq shundaki, tuslangan fe`llardagi zamon harakat sodir bo`lish paytining nutq momentiga munosabatini ifodalasa, ravishdosh va sifatdoshlardagi zamon harakatning sodir bo`lish paytining kesim bilan ifodalangan harakatning paytiga munosabatini ifodalaydi. Shunday qilib, zamon kategoriyasini quyidagi chizma orqali ifodalasa bo`ladi:



Kesimi ot bilan ifodalangan gaplar ham zamon ma`nosini anglata oladi: *Dilshoda – talaba. Otam – iqtisodchi* kabi. *Shamol! Odam!* kabi bir tarkibli gaplar ham zamon (hozirgi zamon) ma`nosi bilan bog`langan.

Shaxs kategoriyasi **gapdagi mundarijaning voqelikka munosabatini ko`rsatishda qatnashadi, gapda shaxsga munosabat ifodalanadi. Shaxs kategoriyasi son kategoriyasi bilan bog`liq. Har bir shaxsda son bor:**

<u>Birlik</u>	<u>Ko`plik</u>
Men yozdim.	Biz yozdik.

Shaxs va son ma`nosini ifodalash imkoniyatiga ega birliklar o`zbek tilida bir qanchadir: shaxs olmoshlari, ayrim mayl ko`rsatkichlari, kesimlik shakllari. Shaxs-son kategoriyasi shakllari quyidagicha ziddiyatlar tizimini hosil qiladi: shaxs ma`nosini ifodalashga ko`ra kategoriya shakllari uch guruhga birlashib, o`zaro ekvipolent ziddiyatga kirishadi:

-man, -miz, -m, -k, – I shaxsni ifodalaydi.

-san, -siz, -ng, -ngiz, – II shaxsni ifodalaydi.

O – III shaxsni ifodalaydi.

Son ifodalashda ham ekvipolent ziddiyat yuzaga keladi. Ammo bu ziddiyatga shakllar ikki guruhga bo`linib kirishadi:

-man, -san, -Ø, -m, -ng – birlik ifodalaydi. [O] birlik ham, ko`plik ham ifodalovchi shakl sifatida faqat birlik ifodalovchilar bilan birlik ifodalash, faqat ko`plik ifodalovchilar bilan ko`plik ifodalash belgisiga ko`ra qisman privativ ziddiyat hosil qiladi. Bunda Ø har ikki ziddiyatning ham kuchsiz a`zosi bo`ladi.

Tasdiq-inkor ma`nosini ifodalashda morfologik ko`rsatgichlardan tashqari na, emas yordamchi so`zlarini, yo`q so`zini ko`rsatish mumkin. [O] bo`lishlilikni, [-ma] bo`lishsizlikni ifodalash bo`yicha ekvipolent ziddiyatga kirishadilar:

1. *Majlis yarim kechagacha cho`zild.* (O.M.).

2. *Uzoqdan Navoiyning qorasi ko`ringuniga dovur u amirning kelishiga ishonmagan edi* (O.M.).

Tasdiq-inkor shakllari mohiyatining semantik tomonini bo`lishli – bo`lishsizlik ifodalash, sintaktik tomonini gap kesimini shakllantirishda qatnashish tashkil etadi.

Kesimlilik kategoriyasi ko`rsatkichlariga shaxs – son, tasdiq – inkor, mayl – modallik mansub ekan, bu ma`nolar ifodalanishiga ko`ra uch turga bo`linadi:

10 Kesimlik ma`nolarining yig`iq ifodalanishi:

a) fe`l – kesimlarda: *Yoz! Yozgin!; Boray.*

b) ot – kesimlarda: *O`qituvchiman; Shifokorsiz.*

11 Kesimlik ma`nolarining yoyiq ifodalanishi:

a) fe'l – kesimlarda: *Yozmasaydingiz.*

b) ot – kesimlarda: *O`qituvchidirman.*

12 Kesimlik ma`nolarining tafsiliy usul bilan ifodalanishi:

a) fe'l – kesimlarda: *Olgan bo`lsangiz; O`qisa bo`ladi.*

b) ot – kesimlarda: *O`qituvchi edim; Bahor bo`ldi.*

Predikatsiya va kesimlik. Darhaqiqat, kesimlik sof morfologik kategoriya hisoblanadi. Shu sababdan uni predikativlik tushunchasidan farqlash zarur. Predikativlik sof mantiqiy kategoriya bo`lib, harakat va uning sohibi kabi voqelikdagi munosabatlarning inson ongida aks etishidir. Predikativlik asosida hukm yotadi. Shuning uchun ham u gapning grammatik asosini belgilashga xizmat qilmaydi. Hukm tafakkurning muayyan bir shakli, uni umumlashtiruvchidir. Hukmda voqelik, ya`ni predmet va hodisalar yakka-yakka holda emas, balki o`zaro munosabatda, bir-birlari bilan bog`liq holda aks etadi. Fikrlashda (hukm yuritishda) hukm elementlari bo`lgan subyekt, predikat, ba`zan bog`lama bo`lishi shart. Gap esa bir necha bo`lakdan iborat bo`lganidek, bir bo`lakdan ham iborat bo`lishi mumkin. Tafakkurning murakkab shakli bo`lgan hukm tilning murakkab shakli bo`lgan gap orqali ifoda qilinadi. Gap hukmning ifoda shaklidir. Demak, predikativ aloqa bo`llishi uchun hukm bo`lishi kerak. Har qanday predikativ aloqa hukmni ifodalaydi (hukm tasdiq yoki inkor shaklida ifodalanadi). Predikativ aloqa – tushunchalarning mantiqiy munosabati. Predikativ aloqa gapning materiali bo`lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1.Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши. НД, Тошкент, 1994 йил.

2.Мещанинов И.И. Глагол. М.-Л.: 1949. стр. 38.

3.Нигматов Х., Абдуллаев К., Банару В., Махмудов Н., Мухаммедова Д., Нурманов А. Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков. (тезисы формально – функционального исследования) Советская тюркология, 1984 г., стр. 3-9.

4.Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Тошкент, 2001 йил.

5.Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик ва хусусийлик диалектикаси талқинида. 2-жузв, Андижон, 1994 йил.

6.Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида. НД, Самарқанд, 1993 йил.

Bog'lama, uning vazifasi va turlari

Reja:

1. **Bo'lmoq** fe'lining bo'glama vazifasida kelish xususiyatlari.

2. **Emoq** fe'lining bog'lamalik tabiati.

3. **Bo'lmoq** fe'lida fe'l yasovchilik xususiyati.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

Bog'lama, ot – kesim, fe'l – kesim, bo'lmoq fe'lining boglamalik xususiyati, emoq fe'lining bog'lamalik xususiyati, bo'lmoq va qilmoq fe'llarida fe'l yasovchilik xususiyati, bog'lamalarning turlari.

Turkiy xalqlar tilshunosligida ham, hind-evropa tilshunosligidagi kabi bog'lama ma'lum darajada o'zining o'rganilish tarixiga ega. A.M.Sherbak, A.G'ulomov, M.Asqarovalar bog'lamlar aslida mustaqil ma'nosini yo'qotib yordamchi so'z vazifasiga ko'chgan, predikativlikni ko'rsatadigan fe'l bo'lmagan so'zlar bilan qo'shib, uni shakllantiradigan, kesim vazifasida qo'llangan etakchi qismning ma'nosiga shaxs-son, zamon, bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl kabi grammatik ma'nolar qo'shadigan vositalar ekanligini ko'rsatib, bu vazifada **to'liqsiz fe'llar**, bo'l, qil kabi **ko'makchi fe'llar, sanaladi, hisoblanadi** kabi so'zlar, -dir elementi va predikativlik qo'shimchalari qo'llanishini ta'kidlaydilar [3, 93-94;].

Bo'lmoq fe'lining ega – kesim munosabatida bog'lama bo'lib kelishi, shaxs-son, zamon, bolishli-bo'lishsizlik ma'nolarini ifodalab, ot turkumidagi so'zlar va sifatlar bilan birga tarkibli kesimni tashkil qilishi haqida fikrlar yuritilgan. Chunonchi, *Xalqdan, jamiyatdan uzilgan kimsa baxtli bo'lmaydi; Odam mehnat bilan odam bo'ladi; Gadoning dushmani gado bo'ladi* kabi.

Bog'lama vazifasida kelgan **bo'l** so'zidan “bo'lmoq”, “mavjud bo'lmoq”, “yuzaga kelmoq”, “voqe bo'lmoq” ma'nosini anglatuvchi **bo'l** mustaqil fe'lini farqlash zarur: birinchi bo'l tarkibli kesimning ichiga kiradi, ikkinchi bo'l esa o'zi mustaqil kesim sanaladi: *U majlislar bilan band bo'ldi; Gaping yolg'on bo'lmasin.* Ushbu gaplarda qo'llangan bo'l bog'lama vazifasida kelgan. *Kecha majlis bo'ldi; Bugun, albatta, tadbir bo'ladi* gaplarida esa bo'l mustaqil kesim sanaladi. Tarkibli ot kesimlarda bog'lama bo'l+ma+sin shaklida ifodalansa, taxmin ma'nosi bildiriladi. Masalan: *Tag'in dadang kelmagan bo'lmasin! (kelgan bo'lsa kerak).*

Bo'lmoq bog'lamasini turkologiyada, jumladan, o'zbek tilshunosligida fe'llar ichida eng ko'p ishlangan, olimlar e'tiborini eng ko'p jalb etgan fe'l deyish mumkin. **Bo'lmoq** fe'li gapda, asosan, uch xil vazifaga xoslangan bo'ladi:

- mustaqil bo'lak vazifasida keladi: *Bu dunyoda yo zaring bo'lsin, yo zo'ring bolsin.* (O'.H.)
- so'z yasash vazifasini bajaradi: *Salim agronom bo'ldi; Men o'qituvchi bo'ldim.*

v) yetakchi fe'lga qo'shib uning yordamchi qismi (bog'lama) vazifasida keladi va so'zning analitik shaklini hosil qiladi: *U xatni yozib bo'ldi.*

Shuni ham aytish kerakki, “Men opang bo'laman” gapining kesimi “Men o'qituvchi bo'laman” gapining kesimi bilan tashqi tomondan bir xil. Biroq birinchi holatda **bo'l** – bog'lama vazivasini bajarmoqda, shuningdek, gapda qo'llanmasligi ham mumkin (Men opangman); ikkinchi holatda esa bo'l fe'li subyekning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ko'rsatadi, ya'ni so'z yasash funksiyasini bajaradi.

To'liqsiz fe'llar. Bu vositalar bilan ifodalangan bog'lamlar kesimning yordamchi komponenti vazifasida keladi. Har xil turkumdagi so'zlar bilan ifodalangan kesimga–yetakchi qismga qo'shila oladi: *bahor edi, ko'p edik, go'zal ekan, yuztacha emish, sen eding, borib edik, kelgan edilar, bor ekan, yo'q ekan* kabi. **Edi** bog'lamasi kesimning yetakchi qismi orqali anglashiladigan harakat, holat yoki biror belgining o'tgan zamonda yuz berganligini, so'zlovchi bu voqelikning bevosita ishtirokchisi ekanligini anglatadi: *Saida o'zida yo'q xursand edi* (A.Q.). *Vodiylarni yayov kezganda Bir ajib his bor edi menda* (H.O). *Men uni ko'rmagan edim* (S.Z).

Edining arxaik shakli **erdi** sanaladi. *Hamon yodimdadir gul chog'i erdi* (A.N).

Ekan bog'lamasi kesimning yetakchi qismi orqali anglashilagan harakat, holat, belgining yoki oldindan ma'lum bo'lmagan biror aniq voqelikning keyin ma'lum bo'lganligi, ba'zan kutilmaganda yuz berganligi kabi grammatik ma'nolarni anglatadi. Arxaik shakli "erkan" dir: *Saidaning kelishi bejiz emas ekan* (A.Q) Turmush o'lgur shunaqa ekan (O'.H).

Emish (arxaik shakli ermish) bog'lasini gumon, eshutilganlik ma'nosini (*Raisning xatosi topilgan emish*. (A.Q)), kesatiq, masxaralash, rad etish ma'nolarini (*Alamlaridan ichar emishlar. O'z ko'ngillarida rashk qilar emishlar* (O'.H).) ifodalashga xizmat qiladi.

Emas bog'lamasi lingvistik adabiyotlarda goh to'liqsiz fe'l, goh inkor bog'lamasi, goh inkor yuklamasi sifatida talqin qilinadi. Ba'zi olimlar uni to'liqsiz fe'l tarkibidan chiqarib tashlaydilar. Har holda emas sozi tarixiy jihatdan **e, er** o'zagidan hosil bo'lgan kelasi zamon sifatdoshining bo'lishsiz shaklidir. Hozirgi vaqtda u lug'aviy ma'nosini yo'qotgan grammatik birlikka aylanib qolgan [1,15;]. **Emas** inkor bog'lamasi bo'lishsizlik, harakatning, belgining yuzaga kelmaganligi kabi ma'nolarni ifodalaydi: *Bola emas, balo bo'ldi bu!*; *Men bo'yoqchi emasman, bilasiz-ku*. (O'.H). To'liqsiz fe'l asosida yuzaga kelgan bu yordamchilarning ba'zisi sof fe'l kabi tuslanadi: edi+m, edi+ng, edi+k. Bog'lama vazifasida bo'l fe'lidan tashqari, boshqa ba'zi fe'llar ham qo'llana oladi (sanaladi, hisoblanadi, tuyuladi, o'xshaydi kabi). Bog'lama vazifasida keladigan fe'llarda lug'aviy ma'no kuchsizlashgan bo'ladi.

Sanaladi, hisoblanadi. Bu fe'llar garchi o'z lug'aviy ma'nolarini yo'qotmagan bo'lsa-da, ism kesimlarda yordamchi qism vazifasida qo'llanadi, ega – kesimni tutashtirishda asosiy vosita sanaladi: *U talaba sanaladi – U talabadir. Men talaba hisoblanaman – Men talabaman.*

Demak, bog'lamalar nafaqat ega va kesimni tutashtiruvchi vosita, balki gapning funksional – struktural elementi bo'lib, gap sintaksisini o'rganish muammosining uzviy qismi hamdir .

Adabiyotlar:

- 1.Расулов Р. Эмас сўзи ҳақида. ЎТА, 1978 йил, 5-сон, 15-бет.
- 2.Цалкаламанидзе А.А. Система значений и функционирование глагола бўл в современном узбекском литературном языке. АҚД, Ташкент, 1973, стр. 14-15
- 3.Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент, 1987 йил.
- 4.Ҳожиёв А. Тўлиқсиз феъл. Тошкент, 1970 йил.

Mavzu: Mayl va zamon shakllarining munosabati

Reja:

- 1.Mayl- zamon shakllarining dialektik bog'liqlik masalasi.
- 2.Xabar mayli va uning zamon shakllari. Xabar mayli UGMsi.
- 3.Buyruq-istak mayli UGMsi va uning nutqda voqelanishi, modal ma'nolari.
- 4.Shart mayli UGMsi, uning nutqda voqelanishi va modal ma'nolari.
- 5.Zamon shakllarida ma'nodoshlik va shakldoshlik.
- 6.Umumiy xulosalar.

Mavzu bo'yisha tayanch iboralar:

Mayl-zamon morfologik kategoriyasining ma'noviy xususiyati, mayl va zamon shakllarining sintaktik xususiyati, xabar mayli umumiy grammatik ma'nosi, buyruq-istak mayli umumiy grammatik ma'nosi, shart mayli umumiy


grammatik ma'nosi, ot-kesimli gaplarda zamon shaklining ifodalanishi, real (aniq) harakat, ideal (noaniq) harakat, zamon shakllarida shakldoshlik, zamon shakllarida manodoshlik, nutq momenti.

Turkiy tillarda mayl va zamon shakllarining yasalishi, qo'shimchalarining etimologiyasi, bu shakllarning ma'no va qo'llanishlaridagi xususiyatlari haqida ko'plab ilmiy ishlar yozilgan. Mayl va zamon shakllarining zich aloqada ekanligini deyarli barcha tilshunoshlar e'tirof etadilar. Turkiyshunoslar ularning juda yaqinligini aytib o'tib, ushbu shakllarga yaxlit bir butunlik sifatida qarash lozimligini uqtiradilar. Chunki zamon shakllari harakatning nutq momentiga, mayl shakllari harakatning voqelikka munosabatini ifodalaydi. Mayl va zamon ma'nolari bir-birini taqozo etadi: harakatning bajarilish zamoni haqida tushuncha uning shu zamonda bajarilgan yoki bajarilmaganligi (endi bajarilishi, umuman bajarilmasligi, bajarishga intilish, undash, bajarishni xohlash, bajarilishidan gumonsirash) tushunchasi bilan albatta bog'lanadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida zamon va mayl ifodalash uchun xoslangan ko'rsatkichlarning birortasi zamon yoki faqat mayl ifodalamaydi.

N.A.Baskakovning ta'kidlashicha, mayl va zamon kategoriyalari ginetik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lganligi tufayli hozirgi turkiy tillarda ularning faqat semantik emas, balki morfologik jihatdan ham qat'iy differentsiatlashmaganligi ko'rinadi [4, 24;]. Darhaqiqat, bir vaqtning o'zida mayl va zamon ma'nolari uchun ikki qo'shimcha qator ishlatilmaydi. Bir shakl bir tomondan mayl ma'nosini ifodalash uchun xizmat qilsa, ikkinchi tomondan ish-harakatning zamonga munosabatini ko'rsatadi. Ya'ni bir shaklda ham zamon, ham mayl ma'nosi o'z ifodasini topadi: "O'qidi" so'zi aniqlik (xabar) maylida bo'lgani holda, ish-harakatning o'tgan zamonda ijro etilganligini ifodalaydi; "Borsam" so'zi shart mayliga xos, lekin hozirgi-kelasi zamon tushunchasi ham mavjud. Xabar mayli boy va rang-barang zamon sistemasiga ega bo'lsa, boshqa mayllar nisbatan kam sonli zamonlar tizimini o'z ichiga oladi. Mayl-zamon morfologik kategoriyasining ma'noviy xususiyati so'zlovchining harakatga va harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalash tashkil etsa, sintaktik xususiyati gap kesimini shakllantirish, kesimga turli valentliklar berish, mikromatn tarkibiy qismlarini bog'lashdir.



O'zbek tilida, asosan, uch xil mayl bor: xabar mayli, buyruq-istak mayli, shart mayli.

Xabar mayli nutqda keng qo'llanuvchi zamon shakllaridan iborat. Bu zamon shakllari o'tgan, hozirgi, kelasi zamon guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhda bir necha zamon shakllari mavjud. Har bir zamon shakli o'ziga xos qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi, o'z tuslanish va ma'no xususiyatlariga ega. Dastlab, o'tgan zamon shakllari tizimini ko'rib chiqamiz:




Demak, zamon kategoriyasining umumiy ma`nosi kesim ifodalagan harakat, holatning nutq momentiga munosabatini ifodalashdan iborat bo`lsa, o`tgan zamon shakllarida nutq jarayonidan oldin sodir bo`lganlik umumiy ma`nosi mavjud. Biroq shakllar orasidagi farq harakatning davomiyligini ifodalash (o`qirdim), bu belgiga ega emaslik (o`qidim), harakatning kutilmaganda sodir bo`lishi (o`qibman) yoki bu ma`noga nisbatan neytralligidadir.

Hozirgi zamon (hozirgi-kelasi zamon) shakllari va ularning ma`nolarini quyidagi gaplarda ko`rib o`tamiz:



Yuqoridagilardan hozirgi zamon shakllarining umumiy grammatik ma`no (UGM)si kelib chiqadi: nutq jarayonida va undan so`ng ham davom qiladigan ish-harakat (holat)ni ifodalash. Bu ma`no nutqda turli shakllarda turlicha hozirgi-kelasi zamon ma`nolarida reallashadi.

Kelasi zamon shakllariga quyidagilar mansub:



Demak, kelasi zamon shakllari nutq paytidan so`ng bajariladigan harakatni bildiradi va bunda gumon, istak, ta`kid, qat`iylik ma`nolari yuzaga chiqadi. Kelasi zamon ma`nosini ifodalash bilan aloqador shakllarning barchasi (-r, (-ar), -gay, -moqchi, -gum zamon qo`shimchalari, buyruq va shart mayllari shakllari) *edi* to`liqsiz fe`li bilan birikkanda armon-ushalmagan orzu, reja, tilak, imkoniyat ma`nolarini ifodalaydi: *Men sizga uylanmoqchi edim.* (O.Y.)

Ot-kesimli gaplarda ham zamon shakllari ifodalanadi, bunda *bo`lmoq* bog`lamasi va *edi* to`liqsiz fe`li keng ishlatiladi. *-a* (-y) qo`shimchali hozirgi- kelasi zamon fe`li bilan bog`lama vazifasida kelgan *bo`lmoq* fe`li ham hozirgi va kelasi zamon ma`nolariga ega bo`ladi. *-a,-y* zamon shakli kelasi zamon ma`nosini ifodalaganda bog`lama zarur bo`ladi: ... *Kelar yili tuqqaning, o`zingga yo`ldosh bo`lur* (Qo`shiqdan). Hozirgi zamon ma`nosida kelganda tushib

qolishi, shaxs-son qo'shimchalari esa ot-kesimga to'g'ridan-to'g'ri qo'shilishi mumkin: *Men shogird bo'ldim – Men shogirdman; Sen shifokor bo'lding – Sen shifokorsan*. Ot-kesim hozirgi-kelasi zamonning III shaxsida *-dir* qo'shimchasini olishi mumkin: *Bahor go'zaldir; Samarqand qadimiy shahardir*. Gapning egasi va kesimi ot turkumiga mansub bo'lsa, kesim tarkibida *-dir* bog'lamas bo'lmasa, u holda ega bilan kesim orasida tire (–) qo'yiladi: *Akam– shifokor; Onam– to'quvchi*. Agar ega va kesimdan biri boshqa so'z turkumiga mansub bo'lsa, tire qo'yilmaydi: *Bahor go'zal; Men shifokor* kabi.

To'liqsiz fe'lning *ekan, emish* shakllari gap kesimiga gumon, taxmin, kutilmaganlik, eshitilganlik kabi ma'nolarni yuzaga chiqaradi. Ot-kesimli gaplarda bular bog'lama vazifasini o'taydi va o'tgan zamon ma'nosini ifodalaydi: *Aytgan gaplari yolg'on ekan; Dadam kasal emish*.

Buyruq - istak va shart mayllaridagi fe'llar hamisha nutq momentidan keyin sodir bo'ladigan, ya'ni ideal harakatlarni ifodalaydi. Shu xususiyati bilan ular aniqlik (xabar) maylidan farq qiladi, chunki xabar mayli ham real (nutq momentidan oldin va nutq momentida bo'lgan), ham ideal (nutq momentidan keyin bo'ladigan) harakatlarni ifodalay oladi. Bu ular orasidagi birinchi farqdir. Ikkinchi farq shundaki, buyruq-istak va shart mayllari hamisha modal ma'nolarga ega bo'lib, ularda zamon shakllari yo'q. Xabar mayli esa modal ma'nolarga nisbatan neytral bo'lib, keng taraqqiy etgan zamonlar sistemasiga ega.

Buyruq-istak mayli bilan shart mayli orasidagi farq shundaki, birinchisi hamma vaqt ideal harakatga qo'zg'atishni ifodalaydi, ikkinchisi esa harakatga qo'zg'atish ma'nosiga ega bo'lishi ham, ega bo'lmasligi ham mumkin: *Ertaga ertalab ishga chiqmanglar* (S. A.). *Agar xabar kelsa, komandirovkaga borasizda* (P.Qodirov). *Qani endi gap uqtirib bo'lsa!...* (A. Qahhor) Ushbu gaplarning birinchisi va uchinchisida ideal harakatga qo'zg'atish ma'nosi, ikkinchisida esa qo'zg'atish ma'nosiga ega bo'lmaslik belgisi mavjud.

Buyruq-istak mayli shakllari va ular ma'nosini quyidagi chizmada umumlashtirish mumkin:

Birlik		
I shaxs	Ishlay / boray	Istak ma'nosi
II shaxs	Ishla /bor Ishlagin /borgin	Harakatga qo'zg'atish ma'nosi (buyruq, maslahat, iltimos)
III shaxs	Ishlasin /borsin	Orzu-istak, maqsad ma'nosi
Ko`plik		
I shaxs	Ishlaylik/boraylik	Ish-harakatni bajarishga undash, bajarishga bo'lgan maqsad, istak ma'nosi
II shaxs	Ishlang/boring ishlanglar/boringlar Ishlangiz /boringiz	Hurmat ma'nosi, ko'plik ma'no bo'yog'i, ko'tarinkilik, hurmat, kitobiylik ma'nolari
III shaxs	Ishlasin /borsin ishlasinlar /borsinlar	Orzu-istak, qat'iy buyruq, maqsad ma'nolari

Fe'l o'zak yoki asosga qo'shib kelgan-sa qo'shimchasi shart mayli shaklini yasaydi. -sa qo'shimchasi fe'lda so'z yasovchisi yoki nisbat, bo'lishsizlik qo'shimchalari bo'lsa, shu qo'shimchalardan keyin keladi: *qurdirmasang, ishlangiz* kabi. Shart mayli shakllarining modal ma'nosi shart (*Agar odam bo'lay desang, ishda oqla o'zingni* (U)), istak (*Koshki edi o'sha yerga men ham uchsam*), iltimos/maslahat (*Menga ham so'z bersangiz*),

hayratlanish (*Nahotki Ilhom ham kelmagan bo'lsa?*), to'siqsizlik (*Tilim kelishmasa ham, dilim kelishadi*(A. Q.)), faraz, gumon (*U bugun kelmasa kerak*), imkoniyat, zaruriyat (*Bugun o'qishga bormasam bo'lmaydi*), qiyoslash, chog'ishtirish (*To'y qandoq xursandchilik bilan boshlangan bo'lsa, shundoq tugadi* (A. Q.)) kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Qo'shma gaplar tarkibida shart mayli shakli asosan, shart va payt ma'nolari bilan qo'llaniladi. Lekin qani endi, koshki, yaxshi bo'lardi, zora kabi tilak -istak ifodalovchi so'z va birikmalar bilan birga kelgan hollarda shart mayli mustaqil sodda gapning kesimi bo'lib kela oladi va tilak-istak ma'nolarini ifodalaydi: *Qani endi murodiga yetsa.*

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkin: Nutq momenti shunday real harakatlarni ideal harakatlardan ajratib turadi. Ideal harakatlar so'zlovchi uchun hamisha qorong'i bo'lganligi uchun ular hamma vaqt modal ma'nolar ifodalaydi. Buyruq - istak, shart-istak barcha kelasi zamon shakllari uchun ma'no umumiyliigi shundan iboratki, ular hamisha ideal harakatlarni ifodalab, modal ma'no xususiyatlariga ega bo'ladi. Shu xususiyati asosida ba'zan bu shakllardan biri ikkinchisi o'rnida qo'llanila oladi: *Ukam o'qisin (o'qisa, o'qigay) deb bu kitobni oldim.* Ideal harakatlarni ifodalovchi barcha shakllarga edi (erdi) to'liqsiz fe'li qo'shilganda o'tgan zamondagi modallik irreal (bo'lishsiz shaklda sodir bo'lgan) harakatni ifodalaydi: *kelsaydim, kelgaydim, kelardim* kabi [2, 31-34;].

Bir zamon shaklining boshqa zamon shakliga xos ma'noda qo'llanishi zamon shakllarida omonimiya va sinonimiya shakli nutqimizda ma'lum uslub talabi bilan bo'ladi. Harakatning qaysi zamonga oidligi esa umumiy holatdan sezilib turadi:

1.-**di** qo'shimchasi yordamida yasaladigan shakl kelasi zamon va hozirgi zamon ma'nolarida qo'llanadi: *Hozir qorong'ida qayoqqa bordigu, nimayam qildik.*

2.-**di** shakli **-gan** shakl o'rnida ko'p qo'llanadi: *A.Navoiy 1447 yilda tug'ildi/tug'ilgan.*

3.-**gan** shakli ba'zan hozirgi zamon ma'nosida qo'llanadi: *Ayrimlari imtihondan o'tgan, ba'zilari esa e'lonlar taxtasi yonida.*

4.-**yap** shakli kelasi zamonga oid harakatni ifodalaydi va bu, asosan, ket, bor, yubor boshla kabi fe'llar doirasida uchraydi: *Ertaga urushga ketyapman, uka.* (O.Y.)

5.-**yotib** shakli o'tgan zamonga oid harakatni ifodalaydi: *Tunov kun opamni ko'raman deb kelayotibdi.*

6.-**yapti** va **-di** shakllarining zamon xususiyatida ham yaqinlik bor: *Hozir soat o'ndan oshyapti. -Hozir soat o'ndan oshdi.* Shunga o'xshash zamon shakllari orasida shakldoshlik va manodoshlik holatlari nutqda keng qo'llaniladi.

Qisqasi, turkiy tillarda mayl va zamon kategoriyalari o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, harakatning obyektiv borliqqa munosabati (uning real yoki ideal e'kanligi) aniq ko'rsatilgan (ya'ni faqat ideal harakatlarni ifodalaydigan) mayllarda harakatning nutq momentiga munosabati, ya'ni zamon ma'nosi qorong'ilashtiriladi (buyruq-istak, shart-istak mayllarida); harakatning obyektiv borliqqa munosabati aniq ko'rsatilmagan (ya'ni ham real, ham ideal harakatlarni ifodalay oladigan) aniqlik maylida keng taraqqiy e'tgan zamonlar sistemasi yozaga chiqadi.

Adabiyotlar:

- Зикриллаев Ғ. Ўзбек тили морфологияси. Бухоро, 1994 йил.
- Неъматов Ҳ. Фейлда майл ва замон категорияларининг муносабати. ЎТА. 1971 йил, 1-сон, 31-34- бетлар.
- Турсунов У ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1992 йил.
- Худойберганава З. Ўзбек тилидаги майл мезонлари хусусида. ЎТА. 1997 йил, 5-сон, 23-26- бетлар.
- Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология, Тошкент, 1975 йил.

TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MATERIALLAR(Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)

**LISONIY BIRLIKLARDA UMUMIYLIK VA XUSUSIYLIK,
MOHIYAT VA HODISA DIALEKTIKASI. MAQOLA
TAHLILI. (Matn prof. A.Nurmonovning “O`zbek tili va
adabiyoti” jurnalining 1995-yil 1-sonidagi maqolasidan
olindi.)**

*Til tizimining har bir uzvida dialektika qonunlari yotadi. Til tizimi va uning bevosita yuzaga chiqishida umumiylik va xususiylik, mohiyat va hodisa dialektikasi namoyon bo`ladi. Lisoniy birliklarda namoyon bo`lgan umumiylik va xususiylik, mohiyat va hodisa zidlanishini ifodalash uchun tilshunoslikda ko`proq **invariant** va **variant** atamalaridan foydalaniladi.*

Invariant (mohiyat) va variant (hodisa) tushunchalari til birliklarining antologik mohiyatini, demakki, tilning antologik tabiatini tavsiflashda eng muhim ahamiyatga egadir. Har qanday umumiylik xususiyliklar orqali namoyon bo`lganidek, har qanday invariant variantlar orqali moddiylashadi.

Bevosita sezgi organlarimiz bilan idrok qilishimiz mumkin bo`lgan moddiy vositalar zahirida qandaydir umumiylik, mohiyat mavjudligini, tadqiqotchilarning vazifasi ana shu yashiringan

mohiyatni topish ekanligini e'tirof etish fanda invariant nazariyasini vujudga keltirdi.

Invariant nazariyasini vujudga kelishi gnoseologiya uchun katta ahmiyatga ega bo'ldi. Chunki u in'ikos nazariyasini chuqurlashtirdi va konkretlashtirdi¹.

Invariant~variant tushunchalari til va nutq tushunchalari bilan uzviy bog'liq. Invariant~variant tushunchalari tilning fonologiya sathida til va nutq birliklarini farqlash talabi bilan vujudga keldi. Invariant va variant muayyan sinfga mansub predmetlarning, belgi-xususiyatlarining ziddiyatli, ikkilangan xususiyatini aks ettiradi.

Invariantlik xususiyati ma'lum narsani shunga o'xshash boshqa narsada ham mavjud bo'lgan umumiy xususiyatini ko'rsatadi. Variantlilik esa invariant xususiyat bilan bir sinfga birlashgan predmetlardan faqat bittasi uchun xos bo'lgan xususiyatni namoyon qiladi.

Muayyan til birligining turli makon va zamonda har xil moddiy o'zgarishlarga uchrashi invariant va variant tushunchalarining o'zgarishiga olib keladi. Masalan, [k] undoshi yondosh tovushlar qurshovi, yo so'zning qaysi bo'g'inida kelishi yoki so'zlovchinig qaysi hududga mansubligiga ko'ra turlicha talaffuz qilinadi. Bunday turlicha talaffuz qilingan tovushlar bir [k]ning turli vakillari sanaladi. Ana shu turli xil vakillar variant, variantlar umumlashmasi esa invariant hisoblanadi.

Invariant~variant tushunchalari tilshunoslikda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan bo'lsa ham, lekin uni tushunish, talqin qilish tilshunoslar o'rtasida bir xil emas...

¹ Илларионов С. В. Гносеологическая функция принципа инвариантности. – «Вопросы философии», 1968, № 12, с. 91.

AMALIY MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

1. Kesimlik belgisiga ega bo'lgan quyidagi so'zlar asosida gaplar tuzing.

Birlashdik, ketyapti, o'qimoqchi, umr ko'rdi, intilishar edi, qad ko'tarib turibdi ekan, bosilib chiqqanmi, ma'qul keldi, qisqa bo'ladi, ekib qo'yamiz, porlab turadi, qo'llab-quvvatlamochilar, sevadi, riyozat chekdingmi, davom ettirdim.

2. Gaplarni o'qing, kesimlik belgilariga ega bo'lgan so'zlarni aniqlab, ularga tavsif bering.

- 1. O'z davringda baxtingni taqdir qo'lidan xalos et.*
- 2. Aysh-ishrat va xursandchilik bilan o'tayotgan kunni g'animat bil.*
- 3. Jamiki yaxshi va yomonga muruvvat qil.*
- 4. Qilgan (yaxshiliklaring) o'zingga qaytadi.*
- 5. Noshukurlar esa (o'z) yomonligi bilan sharmanda bo'ladi.*

(“Yatimat at-dahr” dan)

**So'zlardagi kesimlik belgilarini almashtirib bo'ladimi?
Almashtirib bo'lmasa, nima uchun? Buning sabablarini aniqlang.**

SEMINAR MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR.

1. Matnni o'qing fe'l maylini aniqlang.

So'z

So'zlarni adab gavharining toji, o'zi arab hakimlarining ustodi bo'lgan Sobit ibn Qurradan quyidagi hikmatlarni naql qiladilar: “Jism rohati ovqatning ozida, ruh rohati kam yeyishda, til rohati kam gapirishda!” Lekin so'z aytish lozim bo'lgan joyda jim o'tirmoq ziyonga yo'l qo'ymoq va malomatga qolmoqdir.

Agar ko'rsang yo'lda ko'r-u choindir,
Agar xomush o'tirsang zo'r gunohdir!

2.Quyidagi fe'llarni fe'l nisbatlari bo'yicha guruhlang.

Keldi, tashishdi, olishdi, zavqlandi, odatlandi, achindi, eslash, sezdi, tinglandi, puflandi, tinglashdi, qaltiradi, suhbatlas, ochdi, bezaldi, ilitildi, kiyindi, torttirdi, bo'lindi, o'qish, kechirtirdi, seskandi, chizildi, uqtirilgan, tiklandi, chalindi, bezandi.

3.She'rni o'qing. Fe'llarni alohida ko'chiring. Zamon, mayl, nisbat va shaxs-sonini aniqlang.

Iltijo.

Qalbim o'ksindi, boisi nedur,
O'zimni o'zimdan izlaman beun,
Sabo yellariga qalbim ochaman:
Yig'lamasdan yashashni o'rgatsin ochun.
Quyoshdan so'radim qalbim taftini,
Yomg'irdan so'radim dardim hukmini,
Yulduzga yolvorib aytaman shuni:
Yig'lamasdan yashashni o'rgatsin ochun.
Ozor bermang menga, ozoringizman
Qalbingiz qo'rida bezoringizman
Men sizni deganman, diydoringizman,
Yig'lamasdan yashashni o'rgatsin ochun.
Ato eting tog'dek mustahkam sabr,
Irodam jo'sh ursin misoli bahr
Hech kimda bo'lmasin ko'z yoshli umr,
Yig'lamasdan yashashni o'rgatsin ochun.

(Dilfuza Zaripova)

Yordamchi so'zlar

Mavzu: Yordamchi so'zlar. Ularning leksik va grammatik tuzumlardagi o'rni.

Reja:

- 1.Leksemalarning ma'naviy tasnifidagi "ma'naviy nomustaqillik" belgisi tushunchasi.
- 2.Yordamchi so'zlarning "oraliq uchinchi" tabiatiga egaligi.
- 3.Yordamchi so'zlarning shakli xususiyatiga ko'ra guruhlanishi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

Mustaqil so'z, yordamchi so'z, ma'naviy mustaqillik, ma'naviy nomustaqillik, sof yordamchi so'zlar, qo'shinchasimon yordamchi so'zlar, yarim yordamchi so'zlar, ko'makchi-

bog`lovchi, bog`lovchi-yuklama, “oraliq uchinchi” xususiyati, yordamchi so`zlarning boyish manbalari.

Barchaga ma`lumki, leksik sath birliklari ikki katta guruhga bo`linadi: mustaqil so`zlar va yordamchi so`zlar. Bular orasidagi zidlanishni **ma`noviy va vazifaviy nomustaqillik** tashkil etadi. Bu oppozitsiya belgisiga ko`ra yordamchi so`zlar belgili a`zo mavqeini, mustaqil so`zlar belgisiz a`zo mavqeini egallaydi. Yordamchi so`zlar hech qachon mustaqil qo`llanilmaydi, bog`liq qurshovlardagina kela oladi. Mustaqil so`zlar esa mustaqil qo`llanilish va ma`no ifodalash qobiliyatiga egadir.

Leksemalarning ma`noviy tasnifida ilk bosqich belgisi “ma`noviy mustaqillik” emas, “ma`noviy nomustaqillik” bo`lishining sababi mustaqil leksemalarning bu belgiga nisbatan betarafligidir. Chunonchi, katta guruhni tashkil etuvchi atoqli otlar (Temir, Anor, Gavhar) guruhida, mavhum otlarda mustaqil ma`noning mavjudligi kishini shubhaga soladi. Mustaqil so`zlarda “ma`noviy mustaqillik” belgisi shartli ekanligini I.Madrahimov quyidagicha izohlaydi: “...assimilyatsiya tilshunoslikda boshqacha, biologiyada esa tamoman o`zgacha talqin etiladi. Loy adabiy tilda boshqacha, otarchilar nutqida esa boshqacha izohlanadi. Shunga o`xshash hodisalarni sifat, fe`l, ravishlar ichida ham ko`plab uchratish mumkin. Bularning barchasi “ma`noviy mustaqillik” belgisi mustaqil leksemalarda nisbiy tushuncha, nisbiy belgi ekanligini ko`rsatadi. Mana shuning uchun leksemalarning ma`noviy tasnifida eng ilk bosqichning belgisi “ma`noviy mustaqillik” emas, balki “ma`noviy nomustaqillik” bo`la oladi” [2, 30;]. Ushbu belgi asosidagi ziddiyatda ko`makchi, bog`lovchi, yuklamalar kuchli (belgili) a`zoni tashkil etadi. Sof ko`makchi, sof bog`lovchi, sof yuklamalar hech qachon mustaqil ma`noli so`zlar xususiyatiga ega bo`la olmaganligi tufayli ularning guruhiga o`ta olmaydi.

Tilshunoslikda yordamchi so`zlarning leksemalar¹ va qo`shimchalar orasida “oraliq uchinchi” bo`lib, ham leksemalar, ham grammatik morfemalar xususiyatini o`zida mujassamlashtirilishi aniqlanilgan. Ular shaklan leksema, mazmunan qo`shimchadir. (qiyos: *Kitobni akamga/akam uchun oldim.*) Shu tufayli bo`lsa kerak, til tizimida yordamchi so`zlarning o`rni turlicha baholanadi—ayrim olimlar ularni qo`shimchalarga, ayrimlari nutq bo`lakchalariga, ba`zilari yordamchi so`zlarga nisbat beradilar. Yordamchi so`zlarning so`zmi, qo`shimchami yoki mustaqil so`zlarning yordamchi so`zlar bilan bog`lanishi so`z birikmasimi ekanligi hanuzgacha munozara mavzui bo`lib qolmoqda. Chunki yordamchi so`zlar guruhi ichida shunday birliklar borki, ular ham “ma`noviy mustaqillik”, ham “ma`noviy nomustaqillik” xususiyatiga ega (ot+ko`makchilar, yordamchi va ko`makchi fe`llar). Chunonchi, “tortib” mustaqil so`z sifatida ravishdosh kabi qo`llaniladi: “Baliq qarmoqni bir *tortib*, qochib ketdi”. Shu so`z “Farhod tog`idan *tortib* Shirin yayloviga qadar Sirdaryo bo`ylab tizilib ketgan yetmish ming xalq bu sovuqlarni pisand qilmaydi” (Oydin. Hikoyalar, 91-bet) gapida yordamchi so`z vazifasida kelgan. [Tortib] leksemasi mustaqil va yordamchi ma`nolarga ega bo`lishiga qaramay, mustaqil leksemalar tipiga kiradi. *Uchun, sayin, uzra, kabi, va ga* o`xshagan yordamchi so`zlar aniq bir tushunchani ifodalay olmaydi, ammo turli munosabatlarni ifodalaydi va ular yordamchi so`zlar guruhidan joy oladi. Yuqoridagilardan anglashiladiki, “alohida qo`llanila olish yordamchi leksemalarni mustaqil leksemalar bilan yaqinlashtirsa, turli-tuman munosabatlarni ifodalash kabi umumlashgan ma`no ularni morfemalarga, qo`shimchalarga yaqinlashtiradi va

¹ Leksemalar deganda bu o`rinda mustaqil ma`noli so`zlar tushuniladi.

leksemalar va morfemalar ziddiyatida “oraliq uchinchi” vazifasida keladi” [2, 32;].

Yordamchilarni soʻzlarga quyidagilar yaqinlashtiradi: a) shaklan alohida ajralib turishlik; b) lugʻaviy maʼnoning mavjudligi (sifat koʻmakchilar, ot koʻmakchilar, feʼl koʻmakchilarda...); v) koʻpincha ularning mustaqil soʻzlarga yaqinlashishi, ulardan kelib chiqishi. Yordamchi soʻzlarning grammatik morfemalarga oʻxshash tomoni ularning morfemalar kabi mustaqil nominativ funksiya bajarishligi (ammo, va, sayin, kabi), qoʻshimchasimon shaklda boʻlishi (-u, -yu, -da; -ki (-kim); -dek (-day), -cha;) va boshqalar. Biroq yordamchi soʻzlarning grammatik morfemalardan farqli tomoni shundaki, a) ular gap boʻlagi, soʻz birikmasi, gap sathida sintaktik xarakterdagi vazifa bajaradi. Bu xususiyat koʻmakchilar uchun xos.

Chunonchi, 1.Yaxshi bilan yursang yetarsan murodga,

Yomon bilan yursang qolarsan uyatga (Maqol).

2.Toʻlqinlarning kuchli naʼrasi

Yulduzlarga qadar yetardi (Uygʻun).

b) gap boʻlaklari yoki gaplarni oʻzaro bogʻlaydi. Bunday funksiyada, asosan, bogʻlovchilar va yuklamalar keladi:

Xonaga baland boʻyli, biroq oriqqina yigit salom berib kirdi. (S.A)

Saida bu-gapni aytdi-yu, chiqib ketdi (S.A.).

v) gap maʼnolarini ifodalashga xizmat qiladi (soʻroq, inkor va sh.k.). Bu yuklamalarning vazifasi.

Yordamchi soʻzlar shakliy xususiyatlariga koʻra uch guruhga ajratib oʻrganiladi:

qoʻshimchasimon yordamchi soʻzlar;

sof yordamchi soʻzlar;

v) yarim yordamchi soʻzlar.

Qoʻshimchasimon yordamchi soʻzlar har uchala yordamchi soʻzlar tarkibida uchraydi. Koʻmakchilar orasida [-dek/-day,-cha], bogʻlovchilar orasida [-ki(-kim);-u, -yu,-da (affikssimon yuklama - bogʻlovchilar), yuklamalar orasida [-mi, -chi, -a, -ya, -ku,-oq (-yoq), -da, -gina] kabi qoʻshimchaga oʻxshash yordamchi soʻzlarni uchratish mumkin. Qoʻshimchasimon yordamchi soʻzlar shaklan qoʻshimchaga oʻxshaydi, ammo yordamchi soʻzlarning vazifasini bajaradi. Chunonchi, 1.Poʻlatdek (kabi) dadil bir yigit bu ishdan hayiqsa, uyat boʻladi (O.M.). 2.Shu payt oʻgʻilchasi eshikdan yugurib keldi-da (va), dadasining quchogʻiga otildi (O.). 3.Bazmga Gulnoragina (faqat) kelmadi (S.A).

Sof koʻmakchilar sirasiga avvaldan maʼlum uchun, bilan, sari, qadar, kabi, singari, sayin, orqali soʻzlari; sof bogʻlovchilar sirasiga va, hamda, ammo, lekin, biroq, balki, yo, yoxud, goʻyo, agar, basharti kabilar; sof yuklamalar qatoriga xuddi, faqat, axir, hatto, naq, atigi, soʻzlari kiradi. Yarim yordamchi soʻzlar atamasi ostida boshqa turkumga mansub boʻlgan soʻzning yordamchi vazifasida qoʻllanilishi (*old, orqa, avval, boʻylab, boshlab...*) yoki tabiatida “shakldoshlik” mavjud boʻlgan birliklar tushuniladi. Masalan, “yolgʻiz” sifat turkumiga oid soʻz yuklama oʻrnida (Yolgʻiz senga suyanaman.) ishlatiladi. Yoki “Vaqtida yomgʻir yogʻadi, vaqtida qor” gapida “vaqtida” soʻzining vazifasi bogʻlovchilarga yaqindir. Bunga oʻxshash misollar nutqimizda koʻp uchraydi. Yordamchi soʻzlarning shakliy xususiyatlariga koʻra turlarini quyidagi jadvalda umumlashtirish mumkin:

Yordamchi soʻz turi	Sof yordamchi soʻz	Qoʻshimchasimon yordamchi soʻz	Yarim yordamchi soʻz
Koʻmakchi	kabi, singari, sari, sayin, dovur, uchun, orqali	-dek, -day, dayin, -cha	old, oldin, orqa, qarshi, avval, boʻylab, koʻra, qarab, tomon
Bogʻlovchi	va, hamda, ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun, agar, goʻyo, toki, basharti, garchi, xoh, dam, yoki, yoxud, yo	-ki, (-kim), -u, -yu, -da	vaqtida, bir
Yuklama	axir, hatto, faqat, ham, naq, goʻyo, goʻyoki, atigi	-mi, -ku, -gina, -u, -yu, -da, -a, -oq, (-yoq), -dir	yolgʻiz, baʻzan, bir

Jadvaldan koʻrinib turganidek, yordamchi soʻzlar salmogʻi mustaqil soʻzlar hisobidan ortib boradi. Yordamchi soʻzlarning boyishiga yana bir yoʻl ularning ichki tomondan bir turdan ikkinchi turga oʻtishidir, aniqrogʻi, “oraliq hodisa” xususiyatiga ega boʻlgan koʻmakchi-bogʻlovchi, bogʻlovchi-yuklamalarning mavjudligi. Masalan, *bilan, deb, deya* kabilar koʻmakchi-bogʻlovchilardir. Ushbu koʻmakchilarning bogʻlovchi vazifasida kelishi ancha keng tarqalgan hodisadir. “Ammo lekin bu ishni paysalga solish yaramaydi” gapida bogʻlovchi-yuklama qoʻllanilgan, yaʼni ammo bogʻlovchisi kuchaytiruv yuklamasi vazifasida kelgan.

Qisqasi, bugungi kunda yordamchi soʻzlarni har tomonlama oʻrganish, ularni lisoniy tahlil qilish ishlari tilshunosligimizda davom etmoqda.

Adabiyotlar:

1. Гак В.Г. Француз тили назарий грамматикаси. Морфология. (И.Мирзаев таржимаси) Самарқанд, 2002 йил, 108 бет.
2. Мадраҳимов И. Лексемалар таснифидаги илк босқич. ЎТА, 2003 йил, 3-сон, 29-32-бетлар.
3. Мадраҳимов И. Ўзбек тилида лексемаларнинг [I M] асосидаги таснифи. ЎТА, 2002 йил, 6-сон, 22-24-бетлар.
4. Неъматов Ҳ., Маҳмудов Н., Нурмонов А., Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили.
5. 220.100. Ўзбек филологияси бакалавр йўналиши учун намунавий ўқув дастури. Тошкент, 2002 йил.
5. Нигматов.Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв.Ташкент, 1989 г.
6. Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, «Ўзбекистон», 1992 йил.

SLAYDLAR

Yordamchi soʻzlar

Bogʻlovchilar	Va,
Koʻmakchilar	Bilan,
Yuklamalar	-mi,

Bogʻlovchilar

Teng bogʻlovchilar	
Ergashtiruvchi Bogʻlovchilar	

TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TAʼLIM UCHUN MATERIALLAR(Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)

М.Абдуллаева (Сам ДУ)

ЎЗБЕК ТИЛИДА БИРИКТИРУВ БОҒЛОВЧИЛАРИНИНГ АЙРИМ ПРАГМАТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Прагматика тилшуносликнинг назарий ва амалий тармоқларидан бири сифатида инсоннинг ижтимоий фаолиятини ўзида мужассамлаштирган нуткий жараён, нуткий вазият таъсири билан намоён бўлувчи коммуникатив ният билан боғлиқ тушунчаларни ўрганади [1]. Ҳар қандай тил бирлиги нутқ жараёнида прагматик, ҳосила маъно касб этади. Жумладан, боғловчилар кўшма гап составидаги айрим содда гапларни ҳамда уюшиқ бўлакли мураккаб содда гаплар орасидаги турли хил муносабатларни ифодалаш

учун қўлланувчи ёрдамчи сўзлардир [2]. Матн талаби билан улар хилма-хил прагматик, ҳосила маънолар касб этиши мумкин. Масалан, куйидаги матнга диққат қилайлик: *Самарқанд – ўзининг бой тарихи, буюк маданияти, муқаддас обида ва қошоналари билан шухрат қозонган дунё тараққиётининг бешикларидан бири бўлиб, бугун ҳам ўз салоҳияти ва бетакрор қиёфаси билан жаҳон миқёсида минг-минглаб мухлисларни ўзига мафтун этиб келаётгани, халқимизнинг гурур ва ифтихорига айлангани ҳақида гапириш ортиқча, деб ўйлайман* (И.А.Каримов).

Бу матнда ва боғловчиси уч марта қўлланган, биринчи марта (обида ва қошоналари билан) ва иккинчи марта қўлланиш (салоҳияти ва бетакрор қиёфаси билан) уюшиқ бўлакли аниқловчиларни таъкидлаш, матнга кучли, кўтаринки рух бағишлаш учун хизмат қилган. Сўнгги қўлланишда эса (гурур ва ифтихорига айлангани) тўлдирувчилардан бирининг тушириб қолдирилган грамматик кўрсаткичларини (-ига) мантиқан тикланиши учун восита вазифасини бажаради.

Баъзан насрий матнларда ортиқча жимжимадорликка интилиб, ноўрин қўлланган бириктирув боғловчилари ҳам кўзга ташланади: *Муҳаббат – гиштлари соғинч ва ҳижрон оловида пишган, лойлари кўз ёшларидан қорилган, баландлиги умид ва орзулардан кўтарилган, мардлик ва фидойиликдан зийнатланган ва садоқат туфайли абадиятга юз тутган минорадир* (Муҳаммад Исмоил. Ёзувчи ён дафтаридан // ЎзАС, 16.09.05). Бу матнда ва боғловчисининг тўрт марта қўлланиши, матннинг айниқса охириги қисмларини тушуниш, ундаги прагматик маънони англаш жараёнини қийинлаштиради.

Шеърый матнларда бириктирув боғловчилари турли хил прагматик имкониятларини кўпроқ намоён этади. Масалан, шоир А.Ориповнинг «Ҳаким ва Ажал» достонидан олинган куйидаги парчаларга диққат қилайлик:

1. *Кори хайрга баҳш этарди лаҳзаю онни,
Ортар эди китобида қайд ва саҳифа.*

Матнда –ю юкламаси билан ва боғловчиси ўзаро маънодошлик ҳосил қилган. Қиёсланг: *лаҳзаю онни // лаҳза ва онни; қайд ва саҳифа // қайду саҳифа.*

2. *Уни тафтиши қилмоқдайди Малика аён
Ва баробар пинхон дилин борарди ёриб.*

Матнда ва боғловчиси содда гапларни ўзаро боғлаш ҳамда боғланган қўшма гапни вужудга келтириш воситаси сифатида кўринади.

3. *Ва ахийри паноҳ истаб келмиш бу томон,
Донги кетган улуг Ҳаким, юртдош вазирга*

Матнда ва боғловчиси олдинги гапни кейинги гап билан боғлайди, шу асосда мантиқий боғланиш вужудга келади.

4. *Ногаҳонда дув ёришиди Ҳакимнинг юзи,
Деди: - Олгил истаганча олтин ва қумуш,
Сени менга парвардигор йўллади ўзи,
Топшираман сенга Мирзо, оғир бир юмуш.*

Матнда ва боғловчиси уюшиқ тўлдирувчиларни ўзаро боғлаш учун восита бўлмоқда.

5. *Қирққа етгач жонланади марҳум мутлақо,
Тилга кирар ва оёққа тургайдир бешак*

Бу матнда ва боғловчиси сўзларни эмас, балки ибораларни ўзаро боғлашга хизмат қилмоқда. Қиёсланг: *тилга кирмоқ ва оёққа турмоқ.*

6. *Бормикин ё тирикликда ўзга тартибот,
Чеклимикан мавжудотнинг ҳадди, саноғи?
Лекин бунда мантиқ қани? Асли не мурод?
Баробарми яхши билан ёмоннинг доғи?*

Бу матндаги билан ёрдамчиси бириктирув боғловчиси (ва)га маънодош. Қиёсланг: *яхши билан ёмоннинг // яхши ва ёмоннинг.*

7. *Кўникдилар асрлар ҳам тақдир ишига,
Салтанатлар келиб кетди такрор ва такрор.
Фақат Ҳаким буюк Чархнинг айланишига
Сукут ичра қулоқ тутиб ётар бедор.*

Айнан бир сўзнинг ёнма-ён боғловчи ёрдамида қўлланиши матн орқали ифодаланаётган чуқур давомийлик, анъанага садоқат мотивларининг ифодаси учун хизмат қилмоқда.

8. *Бадавий шаклида келиб Азроил
Муҳаммадга деди: - Жонингни олгум.
Ва лекин ҳурматга эрурсан ноил,
Тила тилагингни, дўст бўлиб қолгум...*

Охирги парчада *ва лекин* боғловчилари ёнма-ён келиб, услубий маъно ифодалашга хизмат қилаётир. Бундан кўринадики, ёрдамчилар, жумладан бириктирув боғловчилари матн талаби билан турлича прагматик (ҳосила) маъноларни ифодалашга хизмат қилади. Биз бу ўринда масаланинг айрим томонларига эътибор қаратдик, холос.

АДАБИЁТЛАР

1. Петров В.В. Философия, семантика и прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск ХУІ. -М.: Прогресс, 1985.

2. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили, 1-қисм, - Тошкент: Ўқитувчи, 1980.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

Matnni o`qing. Matndan yordamchi so`zlarni toping va ularni jadvalga joylashtiring.

Saxiylik

Saxiylik kishilar o`rtasidagi ishonch va muhabbatdan paydo bo`ladi. Saxiy kishi o`z iltifoti bilan bировга qarz yoki yordam bermaydi, balki unga bo`lgan ishonchining qanchalar quvvatga ega ekanligini oshkor etadi. Chingiz Ahmarov barchaga saxiylik ko`rsatishni xohlaydi. Hammaning ko`nglini olishni, qo`lidan kelgancha yaxshilik qilishni istaydi. Demakki, u insonga ishonadi.

Chingiz Ahmarovning esdaliklarini o`qib, savollaringa qisman javob topgandek bo`laman: «Xalqning ishonchini oqlay oldimmi? Ruhimda to`xtovsiz, iznsiz oqib yotgan cheksiz-chegarasiz haya-jonlarimni, orzu-maqсадlarimni, ehtiros-larimni san`atga aylantirib, rang-tasvirga ko`chirib, odamlar qalbiga singdira oldimmi? degan so`roq qarshisida shaxsiy yetishmovchiliklarim va turmush og`irliklarini esimdan chiqaraman, yanada ko`proq kuch bilan ishlash orqali xalqdan qarzlari-mni uzishim kerakligini o`ylab ustaxonaga shoshaman. Yangi, katta asarlar yaratish ishtiyoqi meni bir soniya ham tark etmaydi... Ishlashim, tanda jon bor ekan, rasmlar chizishim kerak...»

Bog`lovchilar	Va,
Ko`makchilar	Bilan,
Yuklamalar	-mi,

1-topshiriq. Matndagi yordamchi so`zlarni shakliy xususiyatiga ko`ra turlarini ustunlarga joylashtiring.


Oqil, donolardan Hojimurod Odiliy aytadi:

— Bir olim, fozil odam yomon fe'l-atvorga ega bo'lgan qo'pol tabiatli odam birla bir qancha vaqt suhbatdosh bo'lib umr o'tkazdi. Uning qo'pol muomalasiga barcha kabi chidab keldi. Bir kuni haligi qo'pol tabiatli odam safar tomon chiqib ketdi. Olim odam kun bo'yi toqatsizlanib yig'ladi. Odamlar taajjublanib:

— U badfe'l odamdan qutulganingizga sevinmasdan yig'laganingiz qiziq. Axir sassiqso'z, shu qadar qo'pol muomalali sherigingizdan qutulganingiz ko'nglingizga shodlik, joningizga huzur-halovat emasmi? — deb olimdan so'radilar.

Olim, fozil odam u haqda shunday javob berdi:

— U badfe'l sherigimdan ajralganim uchun emas, balki u bechoraga achinganimdan, unga rahmim kelganidan yig'layman, chunki shuncha suhbatlarimdan foydalanmay, yomon fe'l-atvorini o'zi birla birga olib ketdi, mana shu sababdan achinib ko'zyosh to'kaman.



SEMINAR MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR.

1. Matndan bog'lovchi va yuklamalarni toping.

Ildiz

Og'riq tishni sug'urib tashlashdi-yu, ammo ildizi qolgan ekan, yana dard qilaverdi. Uni ham topib, olib tashlangach darddan forig' bo'lindi. Ha, illat ildizi bilan sug'urilmasa bekor!

Jilg'a

-Nega sen sokin oqasan-u, kenja ukang Jilg'a esa shovullagani-shovullagan? – deb so'rashdi daryodan.

- U hali sayoz-da, -deb javob qildi daryo.

Uchqun

-Umring muncha qisqa bo'lmasa-ya, - deyishdi Uchqunga.-
Yonasan –u o'chasan.

-Alangam qoladi-ku, - dedi Uchqun.

It

-Nega meni yomon ko'rishib, it deyishadi, a ?- deb zorlandi it.

-Chunki sen bo'lar- bo'lmasga akillab, ko'ringanning iligidan olmoqchi bo'lasan-da, - deyishdi

2. Matndan bog'lovchi va yuklamalarni toping.

44- yil

Sentabr tongi otdi.

Meni cheksiz quvonch bilan baxt uyg'otdi.

Ko'k jildimda alifbe va bir burda non,

Birinchi bor qadam qo'ydim maktab tomon.

O'yinlardan ancha erta to'ygan edim,

Kitoblarga barvaqt havas qo'ygan edim.

Yod bilardim alifbening harflarini,

O'qir edim informbyuro xabarini.

Juman «pochta» dadamdan xat keltirgan kun

Katta bayram bo'lar edi mening uchun.

O'qir edim yuz hijjalab, yuz tutilib,

Takrorlardim yirtilguncha xat titilib.

Yayrar edim ma'nosini uqarkanman,

Dadam xatin o'qib savod chiqarganman.

Bu kun yana xat olganmiz,

Ajoyib xat,

Gospitaldan chiqqan emish sog' -salomat,

Boshidagi jarohati bitgan emish,

Hatto o'rni bilinmasdan ketgan emish.

Berlin tomon tushar endi yo'lim debdi.

Xat so'ngida yaxshi o'qi, o'g'lim, debdi.

Shu kun tunda uch chiziqli daftarimga,

Oro berib katta-katta harflarimga,

Xira chiroq yorug'ida ko'z ishqalab

Dadamga xat yozmoq uchun surdim qalam:

«Dadajon!

Men sizni juda sog'indim.

Sog'indim ikkala ko'zim bilan teng.

Kelib qolarmishsiz ertami-indin,

Ayam shunday dedi,

Rostmi shu, ayting?!

Dada,

U kun sizni tushimda ko'rdim.

Oq otda keldingiz,

So'radingiz suv.

Men buni ayamga gapirib berdim.

Dadang keladi, deb aytdi,

Rostmi shu?..

Rustamning akasi urushdan qaytdi,
Qo'ltiqtayog'i bor,
Bir oyog'i yo'q.
Rustam aytib berdi:
Ataka payti
Tizzasidan olib ketgan emish o'q...
Xol aka qaytgandi uyga to'satdan,
O'g'li, dadajon, deb chopib kelibdi.
Ota quchay desa qo'li yo'q ekan,
Tik turgan joyida yig'layveribdi.
Darsga kelmay qoldi
Tunov kun Tal'at,
Muallim urishsa turaverdi jim.
Dadasidan kelgan ekan qoraxat.
Hammamiz yig'ladik,
Hatto muallim...
Dadajon!
Sizga o'q tegmasin hecham,
Men uchun ham tezroq qayting salomat,
Buvim aytgan,
Agar men tilak qilsam,
Tilagim bo'larmish doim ijobat.
Rost aytaman,
Sizni juda sog'indim,
Sog'indim ikkala ko'zim bilan teng,
Kelib qolasizmi, ertami-indin?
Kutaman,
Dadajon, albatta keling». (Erkin Vohidov)

Mavzu: Ko`makchi. Ko`makchilarning ma`nosi, vazifalari va turlari.

Reja:

1. Ko`makchilar yordamchi so`zlarning bir ko`rinishi sifatida.
2. Ko`makchilarning shakliy xususiyatiga ko`ra turlari. Sof ko`makchilar.
3. Yarim ko`makchilarning “oraliq uchinchi” tabiati.
4. Qo`shimchasimon ko`makchilarning ma`no va vazifa tomonlari.

Mavzu bo`yicha tayanch iboralar:

Sof ko`makchi, yarim ko`makchi, qo`shimchasimon ko`makchi, ko`makchi va kelishik munosabati, ko`makchi – bog`lovchi, yaxlitlanish, o`zbek tilining lug`at tizimi, pog`onaviy (iyerarxik) bo`linish, ULM (umumiy lisoniy ma`no), leksoid va affiksoid ko`rinishli, ko`makchilar sirasining boyishi.

Turkiy tillarda (jumladan, o`zbek tilida ham) ko`makchilar ko`p yillardan buyon tilshunos olimlarimizning tekshirish manbai bo`lib kelmoqda. O`zbek tilidagi ko`makchilarga birinchi bo`lib mukammal ta`rifni A.N.Kononov bergan: “Ko`makchilar shunday bir gruppaga so`zlarki, ular ot bilan yoki obyekt bilan predikat orasidagi qurol – vosita, maqsad, sabab, payt, masofa, yo`nalish, o`xshatish kabi munosabatlarning yaratilishida xizmat qiladi” [1, 56;]. Sh. Shoabdurahmonov ham o`zining “Yordamchi so`zlar” asarida ko`makchilarga xuddi shunday ta`rif bergan: “Ko`makchilar obyektning obyektga yoki obyektning predikatga bo`lgan turli grammatik munosabatlarini ko`rsatuvchi yordamchi so`zlardir” [7, 3-4;]. Darhaqiqat, ko`makchilar tobe munosabatni ifodalash va kelishik ma`nolarini aniqlash, to`ldirish uchun xizmat qiladi [3, 22;]. Shu xususiyati bilan ko`makchi bog`lovchilar, yuklamalardan farq qiladi. Ko`makchilar ma`no va vazifa jihatidan kelishik qo`shimchalariga yaqin turadi. Shuning uchun ba`zan kelishik shakllari bilan anglashilgan ma`no ko`makchi bilan ham ifodalanadi (*Mashinada keldim - mashina bilan keldim. Ukamga oldim- ukam uchun oldim* kabi). Lekin bular kelishik affiksalariga qaraganda ma`noni aniq, konkret ifodalaydi. Ko`makchilar ma`nosi va bajaradigan vazifasi jihatidan quyidagi turlarga bo`linadi:

- a) sof ko`makchilar;
- b) yarim ko`makchilar;
- d) qo`shimchasimon ko`makchilar.

Nutqimizda tez-tez ishlatiladigan *uchun, bilan, sari, qadar, kabi, singari, sayin, orqali* so`zlari **sof ko`makchilar** bo`lib, ular tobe so`zni hokim so`zga bog`lashga xizmat qiladi. Sof ko`makchilar boshqa so`zlarga birikkan holda turli munosabatlarni anglatadi. Jumladan, **bilan** ko`makchisi. *Bilan* o`zbek tilida asosan ko`makchi, ba`zan bog`lovchi vazifasida ishlatiladi. Shuning uchun bu ko`makchi turi bugungi kunda yordamchi so`zlarning birining o`rnida ikkinchisi qo`llanilishi nuqtai nazaridan ko`makchi-bog`lovchi atamasi ostida ham o`rganilmoqda. *Bilan* yordamchisining etimologiyasi haqida prof.A.N. Kononov V.V.Radlov, J.Deni kabi qator turkiyshunoslarning fikrlarini e`tiborga olib, uning “birlan” so`zidan kelib chiqqanini aytgan. *Bilan* yordamchisining *birla, birlan, bila, ila, -la* shakllari vazn, qofiya va uslub talabiga ko`ra ko`proq poeziyada uchraydi. Chunonchi, *Baxt ila to`lib-toshgan go`zal oy deraza tagida o`sgan daraxt barglarida mudrab yotadi* (R. Tagor). Bu ko`makchi quyidagi ma`nolarni bildiradi:

- 1) biror harakatning bajarilishida shaxs, predmetlarning birgaligini bildiradi: *Ko`pchilik bilan odam o`zini kuchli sezadi.*

2) harakatni bajarishda vosita ma`nosini bildiradi: *Shu gapning ustiga Ismat bobo hassasi bilan eshikni ochib kirib keldi* (P. Qodirov).

3) payt ma`nosini ifodalaydi: *Qo`ng`iroq chalinishi bilan o`qituvchi sinfga kirdi*.

4) sabab ma`nosini bildiradi: *Ular: "Gulnor o`z ajali bilan o`ldi..."*, -*deyishdi* (O).

5) harakatning bajarilishidagi holatni ifodalaydi: *Onamning mehr bilan boqib turgan ko`zlarini bir umr unuta olmasam kerak*. (O) Bilan ko`makchisi keng tarqalgan yordamchi so`zdir. Uning bog`lovchilik, ko`makchilik tabiati olimlarimiz orasida tortishuvlarning bo`lishiga sabab bo`lgan. "... va, bilan, hamda, shuningdek so`zlari hozirgi o`zbek adabiy tilida teng bog`lovchilarning biriktiruv bog`lovchilari turiga kiradi" degan fikr ham ilgari surilgan [8,52;]. Ammo bu o`rinda shuni qayd etish kerakki, bog`lovchi vazifasidagi "bilan" ning va, ham biriktiruv bog`lovchilaridan farqlanadigan o`ziga xos xususiyatlari bor:

1. Bu yordamchi birgalik ma`nosini yaratadi: *Chodir sahnasidan bir qiz bilan yigit chiqib o`yin qildi* (M.Ism.). Ushbu misoldagi bilan o`rnida "va" ni qo`llasak, yuqoridagi ma`no kelib chiqmaydi, balki qiz bilan yigitning alohida – alohida o`ynagani ma`nosi ifodalanadi.

2. **Va, ham** bog`lovchilari uyushib kelgan fe`l kesimlarni bog`laydi, ammo "bilan" da bu imkoniyat chegaralangan. Qiyoslang: *Lola ishlaydi va o`qiydi. Lola ishlaydi ham o`qiydi*. Ammo "Lola ishlaydi bilan o`qiydi" tarzidagi gap nutqda ishlatilmaydi "Bilan"ning grammatik vazifasi bog`lovchi va ko`makchi vazifasida kela olishidir; shunga ko`ra, bilan boshqa ko`makchilardan farqlanadi. Shuning uchun "bilan" ko`makchisini ko`makchi – bog`lovchi termini bilan ataganimizda uning barcha xususiyatlari namoyon bo`ladi. Bu ko`makchi turi gapda vosita ma`nosini bildirganda to`ldiruvchi, sabab, payt, harakatning bajarilish tarzini bildirganda hol vazifalarida keladi.

Uchun ko`makchisi atalganlik (*Yo`lchi uchun keltirgan tugunchak yodiga tushdi* (O.)), maqsad (*Hamma xalq ochdan o`lmaslik uchun bir amal – taqal qilib turibdi* (O.)), sabab (*Kampirning ahmoqligi yo dushmaningizning ig`vosi uchun shundoq deyishga qandoq tilingiz bordi?* (A.Q.)) kabi ma`nolarda qo`llanilib, to`ldiruvchi, maqsad holi, sabab holi vazifalarida keladi.

Kabi, singari yanglig` ko`makchilari bir narsani boshqa narsaga o`xshatish, chog`ishtirish ma`nosini anglatadi. Masalan; *Ukam men kabi bechora... g`am chekib yotgandir* (O.). Kabi, singari ko`makchilari bilan **-dek, -day** qo`shimchalarining ma`nodoshlik xususiyati turkiyshunoslarimiz tomonidan qayd etilgan [1, 66-67; 3, 22-23;]. Formal tilshunoslikda bu affikslar

ravish yasovchi qo`shimchalar sifatida berilgan [6, 233;]. Ushbu manbadan shunday jummalarni keltiramiz:

"5. **-dek, -day**. Bu affikslar orqali yasalgan ravishlar harakat va holatning yasash asosida ifodalangan narsa yoki belgi-xususiyat bilan o`xshashligini, qiyoslashni bildiradi: *tog`-dek, ot-dek, lochin-day, qadimgi-day, ilgarigi-dek, avvalgi-dek, burungi-day, gul-day* kabi. *Qalandarov ertasiga kundagiday saharda idoraga chiqdi* (A.Q.). *U go`yo tug`ilib o`sgan qishlog`ini ko`rmoqchiday boshini ko`tarib hayajon va sog`inch bilan uzoqlarga tikildi* (O.)". [6, 233;]. Bu o`rinda ham til hodisalarini izohlashda zo`rma - zo`rakilik yuzaga kelgan. Natijada nutqimizda tez - tez ishlatiladigan ushbu qo`shimchalar noto`g`ri talqin etilgan. Buni quyidagi oddiy qiyosda ko`rish mumkin:

-dek, -day (qo`shimchasimon ko`makchi)	kabi (singari, yanglig`) (sof ko`makchi)
1.Oydek go`zal qiz.	Oy kabi go`zal qiz.
2.Tog`dek yuksak.	Tog` kabi yuksak.
3.Lochinday dadil.	Lochin singari dadil.
4.Ilgarigidek qadrdon bo`lib ketishgan.	Ilgarigi kabi qadrdon bo`lib ketishgan.
5.Gulday ochilib menga bir bor qaramaysiz.	Gul yanglig` ochilib bizga bir bor

Oddiygina mantiqning o'zi **-dek, -day** qo'shimchasi kabi (singari, yanglig', misol, misoli) sof ko'makchisiga sinonim ekanligini, **-dek, -day** qo'shimchalarida so'z yasash xususiyati yo'qligini ko'rsatib turibdi. 7 – sinflar uchun mo'ljallangan “Ona tili” (mualliflari: Ne'matov H. va b. T., “O'qituvchi” 2000) darsligida ham bu mantiq o'z ifodasini topgan.

-dek, -day qo'shimcha shaklidagi ko'makchilar hamisha o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi va urg'uli bo'ladi. **-dek, -day** ko'makchilari ko'p hollarda bir-birini almashtira oladi. Ular bitta ko'makchining ikki ko'rinishidir.

-dek, -day ko'makchi qo'shimchasi o'zining eski adabiy o'zbek tilida keng qo'llangan **-dayin** ko'rinishiga ham egadir. Bu ko'rinish, asosan, hozirda ko'tarinki uslubda, she'riyatda qo'llaniladi:

Oydayin ruxsoringga zoru intizorman o'zim.

Zihi sarv ustida yuzung qamardayin,

Qani bir shoxi gul sen siymbardayin.

(Muhabbatnomadan.)

-day ko'makchisi *shunday, bunday, qanday, unday, allaqanday* kabi olmoshlar; *jinday, qittay, arziguday, aytganday, jo'jabirday, o'lguday, dovongirday* kabi ravishlar tarkibida yaxlitlanib qotib qolgan va o'zakdan ajralmaydigan bo'lib qolgan.

Qadar, dovur ko'makchilari hokim bo'lakka tobelanish munosabatini yaratar ekan, bunda o'rin, payt ma'nolarini ifodalaydi. Qadar ko'makchisi **-ga** qo'shimchali ot va olmoshlar bilan qo'llanib, chegara, nihoya ma'nolarini bildiradi: *Tantanali yig'ilish boshlangunga qadar askiya, o'yin-kulgi davom etdi.* (O.) Qadarga ma'nodosh qo'shimchasimon ko'makchi sifatida **-cha** qo'shimchasining to'g'ri kelishi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan: *Mehmonlar kechga qadar o'tirishdi – Mehmonlar kechgacha o'tirishdi.*

Orqali ko'makchisi harakatning biror vosita bilan bajarilishini bildiradi: *Anvar o'z istiqbolini yolg'iz muhabbat orqali ko'rar edi.* (A. Qod.) *Bilan* va *orqali* ko'makchilari vosita ma'nosini anglatishlariga ko'ra ma'nodoshlik hosil qiladi. Ammo bu ma'nodoshlik ma'lum kontekstlardagina voqelanadi. O'rin ma'nosini ifodalagan otlar bilan birikkanda *bilan* va *orqali* ko'makchilari sinonim bo'ladi: *Katta yo'l orqali yurib borib chapga burildik – Katta yo'l bilan yurib borib chapga burildik.* Agar ko'makchi boshqarayotgan ot o'rin ma'nosini ifodalamas, bu ko'makchilar ma'nodoshlik kasb etmaydi. Chunonchi,... *Yigitga deraza orqali to'yib - to'yib qarashga zor bo'lsa - da,...* (O.)

Sari ko'makchisi harakatning yo'naltirilgan o'rni, payti ma'nosini anglatadi: *Hirotsari yurdik.* (O.) *Ko'krak og'rig'im borgan sari battar bo'lyapti.* (O.) *Sari* ko'makchisi o'rin, tomon, payt ma'nosini bildirganda *sayin* ko'makchilari bilan ma'nodosh bo'ladi. Gapda payt holi, o'rin holi, to'ldiruvchi vazifalarida keladi.

Barchaga ma'lumki, sistem tahlil jarayonida har bir narsaning mohiyati shu narsaning o'ziga o'xshash, ayni vaqtda undan farqli va unga zid boshqa narsalar bilan bo'lgan munosabati orqali ochiladi. Jumladan, o'zbek tilining lug'aviy tizimi mustaqil va yordamchi leksemalarga bo'linadi. O'z navbatida mustaqil leksemalar atash /nomlash vazifasini bajaruvchi atovchi leksemalarga va ishora ma'noli leksemalarga (olmoshlarga), yordamchilar esa ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalarga, bularning har biri, o'z navbatida, yana boshqa guruhlariga pog'onali ravishda bo'linib ketaveradi. “Tilimizning yordamchi so'zlar, mustaqil so'zlar va morfemalar tizimi izchil pogo'naviy (iyerarxik) tuzilishga ega bo'lib, nisbiy va quyi pog'onalar o'zaro gipogiperonimik (tur-jins) munosabatlar bilan bog'lanadi—har bir yuqori bosqich quyi pog'ona uchun giperonim mavqeida, quyi bosqich yuqori bosqichga nisbatan giponim mavqeida bo'ladi” [2, 138;]. Demak, so'z yoki morfema ma'lum bir pog'onalardan o'tib lisoniy birlik darajasiga yetadi va kishi ongida tayyor, majmui sifat sifatida yashaydi. Quyida ayrim yordamchi so'z (ko'makchi)larning ULM (umumlisoniy ma'no)sini berishga harakat qilamiz:

Bilan—/ leksik sath birligi—ma`noviy nomustaqil – umumlashgan / grammatik ma`noli – shaklan morfologik o`zgarma—leksoid va affiksoid ko`rinishli—yakka qo`llanishli—sintaktik bog`lash vazifasida kela oladigan lisoniy birlik.

Kabi—/ leksik sath birligi—ma`noviy nomustaqil—umumlashgan / grammatik ma`noli—shaklan morfologik o`zgarma—leksoid ko`rinishli—yakka qo`llanishli—sintaktik bog`lash vazifasida kela oladigan lisoniy birlik.

Xuddi shunday boshqa ko`makchilarga ham ta`rif berish mumkin.

Endi ikki og`iz so`z **yarim ko`makchilar** haqida. Mustaqil so`zlarning “nomustaqillik” belgisiga nisbatan mo`tadilligi sababli mustaqil so`zlar ichidan yarim yordamchilar ajralib chiqadi. Yarim ko`makchilar bir xususiyati bilan “ma`noviy mustaqil”, ikkinchi xususiyati bilan “ma`noviy nomustaqil” leksemalarga o`xshab ketadi va “oraliq uchinchi” guruhini hosil qiladi. Leksemalar nomustaqil leksema sifatida voqelanganda leksema sememasi o`z muayyanligini kuchsizlantiradi va semema grammatik ma`no sifatida voqelanadi. Chunonchi, quyidagi gaplarda ifodalangan [ko`ra] leksemasining ma`nolarini qiyoslashga harakat qilamiz:

1. *Yaxshi-yomonni ko`ra-ko`ra odamning yaxshimi, yomon ekanini tez ajratib oladigan bo`lib qolgan.* (A.Q.)

2. *Qalandarovdan shikoyat boshlashdan ko`ra ko`proq bu noqulay ahvoldan chiqish uchun ...* (A.Q.)

1-gapda qo`llanilgan [ko`ra] “ko`z bilan ko`rmoq, kuzatmoq” semasiga ega bo`lsa, 2 - gapda “ko`rish” semasi kuchsizlangan va “chog`ishtirish, qiyoslash” grammatik ma`nolarini voqelantirgan. 1-gapda qo`llanilgan “ko`ra” ko`rmoq fe`lining ravishdosh formasi bo`lsa, 2-gapda fe`l ko`makchi sifatida tobelanish munosabatini hosil qilgan. Qolgan yarim ko`makchilar ham xuddi shunday xususiyatlarga egadir. *Old, oldin, orqa, ro`para, qarshi, avval, keyin, so`ng, oxir, tomon, ost, ust, tag, tepa, yon, uch, ich, o`rta, ora* kabi o`rin va payt ma`noli otlar, *bosh, qosh, lab, og`iz, oyoq, qorin* kabi tana a`zolari nomlari, *qariyb, bo`ylab, boshlab, ko`ra, deya, deb, atab, o`xshab* kabi ravishdoshlar juda ko`p hollarda ko`makchi vazifasida keladi va ko`makchilar xazinasining boyishiga sabab bo`ladi. Bunday hollarda bu so`zlar yarim ko`makchi sanalib, o`zi birikib kelgan so`z bilan birgalikda bir gap bo`lagi, ko`pincha, hol bo`lib keladi. Ko`makchilardan *bilan, uchun, kabi, singari, yanglig`, sayin, sari, sababli, orqali, tufayli, chog`li, bo`ylab, haqida, to`g`risida* kabilar o`zlari birikib kelgan so`zlarga hech qanday qo`shimchasiz bog`lanadi; *tomon, qadar, qarshi, qaraganda, doir; binoan, qaramay* kabi ko`makchilar o`zlari birikib kelgan so`zdan-**ga** qo`shimchasini qabul qilishni talab qiladi: *qonunga binoan, ukasiga qaraganda, baxtga qarshi; so`ng, keyin, boshqa, tashqari, buyon, avval, ilgari, boshlab* ko`makchilari - **dan** qo`shimchali so`zlar bilan birikadi: *bundan avval, o`qishdan keyin, tanaffusdan so`ng* kabi. Ko`makchilarning grammatik munosabatni yaratib, kelishik qo`shimchalariga o`xshash vazifani bajarishi haqida yuqorida qisman aytib o`tgan edik. Darhaqiqat, ko`makchilar shu xususiyati bilan ham boshqa yordamchi so`zlardan farq qiladi. A.N. Kononov ta`biri bilan aytganda, ko`makchilar ko`p hollarda kelishiklarning dubleti sanaladi. Masalan: *Ukamga oldim – Ukam uchun oldim. Siyohda yozdi – Siyoh bilan yozdi. Telefonda gaplashdi – Telefon orqali gaplashdi.*

Adabiyotlar:

1. Кононов А.Н. Грамматика узбекского языка. Ташкент, 1948 год, 271 стр.
2. Неъматова Л. Ўзбек тилида привативлик (нофонологик сатхлар). НД, Тошкент, 2002 йил.
3. Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. Ташкент, 1989 г.
4. Рустамов Т. Ҳозирги ўзбек адабий тилида кўмакчилар. Тошкент, «Фан» нашриёти, 1965 йил, 130 бет.
5. Рустамов Т. Ўзбек тилидаги билан ёрдамчиси ҳақида. ЎТА, 1962 йил, 5-сон.

- 6.Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, «Ўзбекистон» нашриёти, 1992 йил.
- 7.Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар. Тошкент, 1953 йил.
- 8.Ҳожиёв А. Ҳозирги ўзбек адабий тили боғловчилари ҳақида мулоҳазалар. ЎТА, 1986 йил, 2-сон.

SLAYDLAR

Ko`makchilar ma`nolari(bilan misolida)

1): Biror harakatning bajarilishida shaxs yoki predmetlarning birgaligini	Ko`pchilik bilan odam o`zini kuchli sezadi,
Harakatni bajarishda vosita ma`nosini	Shu gapning ustiga Ismat bobo hassasi bilan eshikni ochib kirib keldi.
Payt ma`nosini	Qo`ng`iroq chalinishi bilan o`qituvchi sinfga kirdi.
Sabab ma`nosini	«Gulnor o`z ajali bilan o`ldi...», -deyishdi.
Harakatning bajarilishidagi holatni	mehr bilan boqib turgan ko`zlarini bir umr unuta olmasam kerak.

--	--

TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA`LIM UCHUN MATERIALLAR(Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)

1.Ko'makchilarni toping.Ularning grammatik xususiyatlarini tushuntiring.

Tiriksan, yaxshilik yo'llarini tut,
Yaxshilik umringni bezaguvchi qut.
Mard bo'lsang, ozoring uchun uzr ayt,
O'zgaralar ozorin batamom unut.

Inson adolat-la qiladi amal,
Barchaga salomin etmaydi kanda.
Sadaqa ulashar o'zi kambag'al,
O'shadir imoni mukammal banda.

(T.Xolmatov.)

Vatan kengdir, elning bag'ri keng uchun,
Yurtboshing mehri quyoshga teng uchun,
Bu imkon, bu zamon sen-u men uchun,
Bu muqaddas Vatanda azizdir inson.

2. Quyidagi ko'makchilar ishtirokida gaplar tuzing.

Singari, kabi, sari, qaraganda, haqida, bo'yi, misli, misoli, uchun,
bo'ylab, tomon, sari.

3. Quyidagi ko'makchilar ishtirokida "Buxoro-sharq gavhari" mavzusida matn tuzing.

Ichra, chamasi, tomon, ko'r, yanglig', uchun, singari, orqali, osha,
bilan, sayin.

AMALIY MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

**O'qing. Ko'makchilarni toping. O'zi bog'langan mustaqil so'z
turkumlari bilan birga ko'chirib yozing.**

VATAN QAYG'USI

Yotsam tushimda, uyg'onsam yonimda, ko'z yumsam, miyamda, ko'z ochsam qarshimda mungli bir xayol kelib turardur!

Ey mungli xotun, sen kimsan! Ey g'amli ona, nechuk mungdan ayrilmaysan? Yonimda, ko'zimda, miyamda, yuragimda nima axtarasan, nechuk ketmaysan? Qayg'u tutunlari ichra yog'dusiz qolgan ko'zlaring yosh yomg'irlari nechun to'kadur? Zulm zanjirlari bilan bog'langan qo'llaring nechun har yonga uzatiladur, nima tilaysan? Oh... Bildim... Angladim! Sen mening Vatanimsan, Vatanning mungli xayolisan. Yurtim, Turonim, sendan ayrilmoq —mening o'limim. Sening uchun o'lmoq mening tirikligimdur.

Yo'q, sen kimsasiz emassan. Mana men. Borlig'im bilan senga ko'mak qilurga hozirman. Mana men, chin ko'ngil bilan sening yo'lingda o'lurga rozi. Qof tog'lari yo'limda tushsa, tamug' olovlari qarshimda chiqsa, yana sen sari ketarman.

Men sening uchun tug'ildim, sening uchun yasharman, sen uchun o'larman.

(A. Fitrat)

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR. TEST TOPSHIRIQLARI

1. Aziz ham bu savolni kutmaganligi uchun hatto ancha vaqtga qadar javob berolnay qolgan edi. Ushbu gapda mustaqil lug'aviy ma'no anglatmaydigan nechta so'z bor?

A) 4 ta B) 3 ta C) 6 ta D) 5 ta

2. Qaysi qatorda o'xshatish qo'shimchasini ko'makchi bilan almashtirish mumkin?

A) qanday xislatlarni rivojlantirish lozimligini bilish zarur

B) jinday kuting hozir majlis tugaydi

C) bunday befarosatlar onda-sonda uchrab turadi

D) unday demang hamma ham birday emas

3. Qaysi javobda kuchaytiruv- ta'kid yuklamalari berilgan?

A) –da, -gina (-kina, -qina) B) ham, g'irt

C) -ki, -dir D) faqat, -oq, (-yoq)

4. Qaratqich kelishigi shaklidagi ismlarga qo'shilib keladigan vazifadosh ko'makchilarni aniqlang.

A) old, ost, ust B) qadar, sayin beri

C) haqida, to'g'risida, qarshisida D) bilan, kabi, tomon

5. U faqat shoirgina emas, balki adabiy tanqidchi ham edi. Mazkur gapda atash ma'nosiga ega bo'lmagan so'zlar miqdorini toping.

A) 3 ta B) 4ta C) 5 ta D) 6 ta

6. Qaysi gapda teng bog'lovchini ergashtiruvchi bog'lovchi bilan almashtirish mumkin?

A) yigitlar, mehmonlarni o'lka bo'ylab kezdiring va bog'imizni ko'rsating

B) biz yaxshi tayyorlandik va birinchi g'alaba qo'lga kirdi

C) kasalning kelishi oson, lekin ketishi ancha qiyin

D) tig' yarasi tuzaladi, lekin dil yarasi tuzalmaydi

7. Qaysi gapda sof ko'makchi ishtirok etmagan?

A) toshbaqa uyasi tomon sudraldi

B) Vatan ham ona kabi qadrlidir

C) bu uchun hammamiz ancha gap eshitamiz

D) yangiliklarni xat bilan ma'lum qilib turamiz

8. Atash ma'nosini tamoman yo'qotib, faqat o'zi birikkan so'zni boshqa so'zga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiladigan so'zlarni toping.

A) uchun, singari, kabi, tufayli
hamda

B) lekin, shuning uchun,

C) tomon, keyin, misoli, qadar
chamasi

D) axir, nahotki, menimcha,

9. Gumon yuklamasi qo'llangan gapni toping.

A) suv hayot manbaidir

B) u sizni yo'qlab kelgandir

C) barcha gaplarda gumon yuklamasi qo'llangan

D) urug'ingdir, aymog'ingdir, biror og'zi maymog'ingdir

10) Qaysi qatordagi ko'makchi chegara ma'nosini ifodalagan?

A) kechga qadar tinimsiz ishladik

B) uygacha suhbatlashib bordik

C) maktab tomon yo'l oldik

D) shu kichik yo'lak orqali o'tasiz

Mavzu: Bog'lovchi. Bog'lovchilarning ma'nosi, vazifalari va turlari

Reja :

Bog'lovchi va uning shakliy jihatdan ko'rinishlari .

Bog'lovchi- yuklamalarning mohiyati .

Bog'lovchilarning hozirgi o'zbek adabiy tilida o'rganilish zarurligi .

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

Bog'lovchi, teng munosabat, tobe munosabat, sof bog'lovchi, qo'shimchasimon bog'lovchi, yarim bog'lovchi, bog'lovchi-yuklama, bog'lovchilar sirasining boyishi, yakka va juft bog'lovchi, teng bog'lovchi turlari, tobe (ergashtiruvchi) bog'lovchi turlari.

Bog'lovchilar ham ko'makchilar kabi sintaktik bog'lash vositasi sanalib, ulardan tobe munosabatni ifodalashi bilan birga teng munosabatlarni ham hosil qilishi bilan ajralib turadi. Bog'lovchilar gap bo'laklari, qo'shma gapning sodda gapga teng qismlari orasidagi turlicha aloqalarni, grammatik munosabatni ko'rsatadi. Bog'lovchilarning mohiyati, o'zbek adabiy tilidagi bog'lovchilarning turlari, bu turlarga oid so'zlar tilshunosligimizda qator ishlarning manbai bo'lgan. Mavjud adabiyotlarda bog'lovchilarning turlari va bu turlarga qaysi so'zlar mansubligi masalasida turlicha nuqtai nazarlar bor, ya'ni bir ishda bog'lovchi deb berilgan birlik boshqa ishda yuklamalar qatoriga kiritiladi, ko'makchi deb berilgan birlik bog'lovchi deb tan olinadi. Bog'lovchilarga oid so'zlarning aniq belgilanmaslik sababi ularning lisoniy jihatdan o'rganilmaganligida deb o'ylaymiz.

Bizningcha, bog'lovchilarni ham ko'makchilar singari shakliy jihatdan uch guruh (sof bog'lovchilar, yarim bog'lovchilar, qo'shimchasimon bog'lovchilar)ga ajratib o'rgansak, bog'lovchilarga mansub birliklarni to'g'ri belgilagan bo'lamiz. **Sof bog'lovchilar** guruhiga faqat bog'lovchi vazifasida qo'llaniladigan *va, hamda, yo, yoxud, yoki, ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun, agar, ya'ni* kabi yordamchi so'zlar xos. **Qo'shimchasimon bog'lovchilar** guruhiga *-ki (-kim)* va ham bog'lovchi, ham yuklama vazifasida kela oladigan *-u (-yu), -da, -mi* qo'shimchalari mansubdir *-u (-yu), -da* qo'shimchalarining bog'lovchi vazifasini to'la-to'kis bajarishi qator manbalarda qayd etilgan, *-mi* qo'shimchasida ham bog'lovchilik xususiyati borligini "Yomg'ir yog'dimi, hamma joy nam bo'ladi", "Karim keldimi, to'polon boshlanadi" tipidagi gaplar tasdiqlaydi. Ushbu gaplarda qo'llangan *-mi* qo'shimchasi ta'kid ma'nosini voqelantirgan holda sodda gaplarni bir-biriga bog'lash funksiyasini bajaryapti. **Yarim bog'lovchilarga** mustaqil so'z turkumlaridan o'sib chiqqan, "oraliq uchinchi" tabiatiga (ham mustaqil, ham yordamchi) ega bo'lgan *ba'zan, bir, vaqtida, hali, goh, (goho)* kabi so'zlarning takroriy shakli misol bo'ladi. Chunonchi,

1. *Ba'zan Qoratoyning ishxonasida, ba'zan choyxonada tunab yurdi* (O.).

2. *Ikki kundan beri goh savalab, goh shiddat bilan yog'ayotgan yomg'ir hammayoqni uvitib yubordi* (A.Q.). 3. *Vaqtida qor yog'adi, vaqtida yomg'ir.*

Ushbu gaplarda qo'llanilgan *ba'zan, goh (goho)*, vaqtida so'zlarining vazifalari bog'lovchilarga juda yaqin.

"Salima tez qaytdi. U yangi xabar olib keldi"; "Brigadada mehnat yaxshi uyushtirilmadi. Natijada hosil kam bo'ldi"; "Azimboy ko'p zulm o'tkazdi. Oqibatda xalqning sabr kosasi to'ldi" gaplaridagi *u, natijada, oqibatda* so'zlari birinchi gapni ikkinchi gap bilan bog'lab kelmoqda. Demak, *u, natijada, oqibatda* so'zlarini ham yarim bog'lovchilar sirasiga kiritsak to'g'ri bo'ladi. Ikkinchi gapning mazmuni birinchi gapsiz aniq emas. Yordamchi so'zlar nafaqat so'zlarni, gaplarni bir-biriga bog'lashga, matn qismlarini ham bog'lashga xizmat qiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilidan darslik va qo'llanmalarda bog'lovchilarning vasifasi jihatidan turlari quyidagicha belgilangan: I. **Teng bog'lovchilar**. 1. Biriktiruv bog'lovchilari: *va, -u (-yu), hamda*. 2. Ayiruv bog'lovchilari: *yo, yoki, yoxud, goho, dam... dam, bir... bir, ba'zan... ba'zan*. 3. Zidlov bog'lovchilari: *ammo, lekin, biroq*. II. **Ergashtiruvchi bog'lovchilar**. 1. Aniqlov bog'lovchilari: *ya'ni, -ki (-kim)*. 2. Sabab bog'lovchilari: *chunki, shuning uchun, zeroki*. 3. Shart bog'lovchilari: *agar, agarda, agarchi*. 4. Chog'ishtiruv bog'lovchilari: *go'yo, go'yoki*. Teng bog'lovchilar, ergashtiruvchi bog'lovchilarning ma'no va vazifa tomoni, imlo xususiyatlari formal tilshunoslikda ancha o'rganilganligi tufayli biz bular ustida to'xtalishni lozim topmadik. Ammo ayrim so'zlarning bog'lovchilik tabiatidan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, bog'lovchilarning miqdori, ularning mohiyati, turlari hanuzgacha aniq belgilanganicha yo'q. Masalan, chog'ishtirish bog'lovchilariga *go'yo, go'yoki* kiritiladi [2, 220; 3, 386]. Ammo bu so'z gap bo'laklari yoki gaplarni bog'lash uchun xizmat qilmaydi, balki o'xshatish, qiyoslash ma'noli konstruksiyalarda shu ma'noni ta'kidlash uchun xizmat qiladi, o'xshatish, qiyoslash ma'nosi esa boshqa vositalar bilan ifodalanadi: *Beda orasi juda issiq, go'yo quyoshning butun olovi beda ichiga yashiringanday* (O.). *Nay sadosining mayin to'lqinlari tip-tiniq havoda yoyilarkan, go'yo hammayoq jonlangan kabi tuyuldi* (O.). Ushbu misollarda o'xshatish, qiyoslash *-dek* qo'shimchasi va *kabi* so'zi bilan ifodalanyapti,

go`yo esa shu ma`noni ta`kidlayapti. Demak, *go`yo* yuklama \cong ta`kid yuklamasi hisoblanadi. “Balki” yordamchisi haqida ham shu fikrni aytish mumkin. *Balki* qo`llanishidagi ba`zi xususiyatlariga ko`ra, zidlov bog`lovchilaridan farq qiladi. Zidlov bog`lovchilari ko`pincha qo`shma gap qismlarini bog`laydi, *balki* yordamchisi bunday vazifani bajarmaydi: *Havo bulut bo`ldi, lekin (ammo, biroq) yomg`ir yog`madi*. Bu misolda zidlov bog`lovchisi o`rnida *balki* so`zini qo`llab bo`lmaydi. *Balki* so`zi gumon mazmunli gaplarda, zid mazmunli qismlarga ega gaplarda gumon, qarama-qarshilik ma`nolarini ta`kidlash uchun qo`llanadi: *...toping, balki tanishlaringiz bordir* (O.). *Chunki biz Azizbek kabilardan xalqningina emas, balki o`zimizni ham qiynatdirmog`damiz* (A.Qod.). O`z-o`zidan anglashiladiki, *balki* sof bog`lovchi bo`lolmaydi, bog`lovchi funksiyasini bajarayotgan yuklamalar sirasidan joy oladi. Qisqasi, bir turdan ikkinchi turga o`tish va bog`lovchi-yuklama, ko`makchi-bog`lovchi kabi oraliq hodisalar hosil qilish yordamchi so`zlar tabiatiga xos xususiyat bo`lib, ularning ichki manba asosida boyishining bir yo`li sanaladi. *Ham... ham* biriktiruv bog`lovchisi ta`kid qo`shimcha ma`no bo`yog`iga ega, *na...na* esa inkor ma`nosini ifodalaydi, “-mi” so`roq - taajjub yuklamasi esa gap tarkibida bog`lash funksiyasini bajaradi. Shuning uchun bular bog`lovchi-yuklamalar hisoblanadi. Chunoschi,

1. *Na so`zlarida ma`no bor, na ishlarida hayo* (O.).
2. *Bir tovuqqa ham suv kerak, ham don kerak* (Maqol).
3. *U bir gapni aytdimi, albatta, qiladi*.

Yuqorida aytilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, o`zbek tili bog`lovchilarining ma`no va xususiyatlari tamomila boshqacha, ularni turkona tahlil qilish, bog`lovchilar bilan bog`liq masalalarni to`g`ri va to`la hal etish bugungi kunda tilshunosligimiz oldida turgan bosh masalalardan biri sanaladi. Mavjud adabiyotlarda bog`lovchilarning turlarga ajratilishi va nomlanishi yetarli asosga ega emasligi, bog`lovchilarni guruhlash va nomlash rus tili grammatikasiga taqlid asosida bo`lganligini zakiy tilshunos A.Hojiyev ham ta`kidlagan edi [5, 56;].

Adabiyotlar:

1. Асқарова М. Боғловчи-юкломалар ҳақида. ЎТА, 1962 йил, 5-сон, 5-12- бетлар.
2. Кононов А.Н. Грамматика узбекского языка. Ташкент, 1948г.
3. Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1992 йил.
4. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Тошкент, 1975 йил.
5. Ҳожиёв А. Ҳозирги ўзбек тили боғловчилари ҳақида мулоҳазалар. ЎТА, 1986 йил, 2-сон, 51-56-бетлар.

Mavzu: Yuklama

Reja:

1. Yuklamalarning ma`no va vazifasi.
2. Ularning shakliy va vazifaviy turlari.
3. Yordamchi so`zlar haqidagi xulosalar.

Mavzu bo`yicha tayanch iboralar:

Yuklama, “bo`glash” funksiyasi, leksoid, affiksoid, yakka va juft qo`llanish, qo`shimchasimon yuklama, sof yuklama, yarim yuklama, yuklamalarning ma`no va vazifaviy jihatdan guruhlanishi, so`roq yuklamalari, ayirish-chegaralash yuklamalari, ta`kid yuklamalari,

kuchaytiruv yuklamalari, o`xshatish-qiyoslash yuklamalari, inkor yuklamasi, yuklama va modal so`z munosabati, modal so`z-gaplar.

Yordamchi so`zlarning funksional belgisi “bog`lash”dir. Shu belgi asosida ko`makchi, bog`lovchi, yuklamalar so`z va gaplarni bir - biriga bog`lash uchun xizmat qiladi. Ammo bu vazifa bog`lovchi va ko`makchilar uchun o`zgaras, barqaror sanaladi. Yuklamalarning o`ziga xos xususiyati shundaki, ular so`zlarga yoki gaplarga so`roq, ta`kid, kuchaytiruv, ayirish-chegaralash, o`xshatish kabi qo`shimcha ma`nolarni beradi va funksional “bog`lash” belgisiga nisbatan beqaror, o`zgaruvchan sanaladi, ya`ni “bog`lash” belgisi bo`lishi ham mumkin, bo`lmasligi ham mumkin. Chunonchi, **na-na yordamchisi** teng bog`lovchilarning bir turi sifatida inkor bog`lovchisi sanalib kelingan. G`. Abdurahmonov esa uni inkor bog`lovchisi deb atash bilan birga, unda yuklamalik xususiyati ham borligini ko`rsatadi [1, 63:]. Haqiqatan ham, bu yordamchi ham bog`lovchilik, ham yuklamalik vazifasini bajaradi. Bog`lovchi vazifasida kelganda ayrim teng huquqli bo`lak (komponent)larga inkor ma`nosini berib, ularni bog`laydi: *Na so`zlarida ma`no bor, na ishlarida hayo.* (O.) Bu yordamchi so`z yuklama vazifasini bajarib, mazmunidan inkor anglashilgan gaplar tarkibida keladi va inkor ma`nosini ko`rsatadi: *Raising erkatoiy og`li na o`qiydi, na biror joyda ishlaydi.*

Go`yo yordamchisi mazmunidan o`xshatish yoki chog`ishtirish ma`nolari anglashilgan sodda va qo`shma gaplar tarkibida ishtirok etadi. Sodda gaplardagi funksiyasiga ko`ra ko`proq yuklamalarga yaqin turadi: *Tursunoy go`yo qalbi bilan ashulaga jo`r bo`lar edi.* (As. Muxtor) *Kampirning yuzida go`yo kulgiga o`xshagan bir narsa aks etdi.* (A. Qahhor) *Go`yo yordamchisi qo`shma gaplarda sodda gap qismlarini biriktiruvchi grammatik vositalarning biri sifatida xizmat qiladi, ya`ni qo`shma gapdagi vazifasiga ko`ra sodda gapdagi vazifasidan farqli o`laroq, u faqat yuklamagina emas, balki bog`lovchi- yuklama sanaladi: Ertaga nikoh bo`ladi, go`yo men uning xotini.* (O.) *Shunday baqirdiki, go`yo butun xona larzaga kelgandek bo`ldi.* (A. Qahhor) “Ayt dimi, qiladi”; “Qo`ydi-da, chiqdi” gaplarida ham *-mi, -da,* qo`shimchasimon yuklamalarning bog`lovchilik xususiyatini kuzatish mumkin. Demak, yuklamalarning qo`shma gap tarkibiy qismlarini o`zaro bog`lash vazifasi keng uchraydigan hodisa ekan va bu tilshunosligimizda ma`lum darajada o`rganilgan.

Yordamchi so`zlar tuzilishiga ko`ra so`zsimon va qo`shimchasimon shaklda bo`ladi. Bu haqda ko`makchi, bog`lovchi mavzularini o`rganishda qisman ma`lumotga ega bo`ldik. Ko`pgina leksoid yordamchi so`zlarning affiksoid ko`rinishlari mavjud, bu yuklamaga ham tegishlidir: **ham, -am /-yam; uchun, -chun; -u, -yu; bilan, -ila, -la** shular jumlasidandir. Yuklamalar shakliy jihatdan uch xil ko`rinishga ega.

1. Qo`shimchasimon yuklamalar (-mi, -chi, -a, -ya...).
2. Sof yuklamalar (xuddi, faqat, axir...).
3. Yarim yuklamalar (yolg`iz, ba`zan...).

Yuklamalar vazifaviy jihatdan quyidagi ma`no turlariga bo`linadi:

1. So`roq yuklamalari: -mi, -chi, -a, -ya, nahotki. Bu yuklamalar turli so`z turkumlariga qo`shilib, so`roq ma`nosini bildiradi. Ba`zan so`roq ma`nosidan tashqari taajjublanish, hayratlanish ma`nolarini ham ifodalaydi.

-mi affiks yuklamasi o`zidan oldingi so`zga qo`shib yoziladi, *-chi, -a, -ya* yuklamalari esa o`zidan oldingi so`zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

Kiyganingiz ipakmidi, kimhobmidi, Sevganingiz bizlardan ham ortiqmidi?!

Opang-chi? Sen-chi? Men-a? Meni-ya?

Nahotki shu gaplarga ishongan bo`lsangiz.

2. Ayirish-chegaralash yuklamalari: faqat, faqatgina, -gina (-kina, -qina).

Bu yuklamalar ayrim narsa va hodisalarni boshqalardan ajratish, harakatni chegaralash uchun qo`llaniladi. *-gina* affiks yuklamasi o`zidan oldingi so`zga qo`shib yoziladi: *To`yga Sheraligina kelmadi, xolos. O`ktam indamadi, faqat yuragida to`lqinlangan mehr bilan onasiga tikildi. Faqat* yuklamasining o`rnida *yolg`iz* so`zini ham qo`llash mumkin. Sifat so`z turkumiga oid bu so`z yarim yuklama hisoblanadi: *Sobir, yolg`iz senga suyandim (Sobir, faqat senga suyandim).*

3. Ta'kid yuklamalari: -ku, -da, -u, -yu. Gapda ifodalangan biror voqeani ta'kidlash uchun qo'llaniladi: *Sobir-ku keldi, Mahmud kelmadi-da!*

4. Kuchaytiruv yuklamalari: axir, hatto, hattoki, -oq (-yoq).

-oq, (-yoq) affiks yuklamasi o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi. Harakatning birin-ketin tezlik bilan davom qilishini, boshlanish paytini, ta'kidlashni ko'rsatadi: *Gullarni ko'riboq ko'ngli yorishdi. Axir, hatto, hattoki* yuklamalari ham fikrni kuchli ta'kidlash, avvalgi voqeani eslatishni ifodalaydi: *Axir do'stimsan-ku!*

5. O'xshatish - qiyoslash yuklamalari: xuddi, naq, go'yo, go'yoki. *Bahorda bu bog'lar go'yoki kelindek yasanadi.*

(*Chirildoqlarning mayin musiqasi hamma yoqni to'ldirgan, go'yo kechaning o'zi kuylaydi* kabi gaplarda yuklama -bog'lovchi vazifasini bajaradi.)

6. Inkor yuklamasi: na. Takror holda ishlatiladi, inkor ma'nosini ifodalaydi:

Na ko'kning fonari o'chmasdan,

Na yulduz sayr etib ko'chmasdan (U.).

Yordamchi so'zlar – ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalar tilimizni, uning cheksiz imkoniyatlarini yana ham boyroq, ifodalarimizni yana ham aniqroq va go'zalroq qilishning vositalaridandir. Yordamchi so'z turkumlari yuzasidan olib bordan izlanishlarimiz bizni quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalar nutqimizning cheksiz imkoniyatlarini yanada boyroq, ifodalarimizning yanada aniqroq va go'zalroq bo'lishini, jumalarning rang - barangligini ta'minlovchi muhim vositalardandir.

2. Yordamchi so'zlar til tizimida mohiyatan mustaqil so'zlar bilan qo'shimchalar oralig'ida turadi.

3. Yordamchi so'zlar nutq rang-barangligini ta'minlashini birgina misol yordamida ko'rish mumkin: 1) *senday qiz*, 2) *sendek qiz*, 3) *sendayin qiz*, 4) *sening kabi qiz*, 5) *sen singari qiz*, 6) *sening singari qiz*, 7) *senga o'xshash qiz*, 8) *senga o'xshagan qiz...* (Bu birikmalar o'xshash ma'noni ifodalagan bilan ularning har biri juda nozik farqlarga ega).

4. Bog'lovchi -yuklama, ko'makchi-bog'lovchi, ko'makchi-yuklama kabilar muosir til tizimida ko'rsatilganidek, yordamchi so'z turkumlariga xos bo'lgan "oraliq uchinchi"lardir.

5. Tilimizda yarim ko'makchilar, yarim bog'lovchilar, yarim yuklamalar sirasi boyib bormoqda. Chunonchi: *Vaqtida yomg'ir yog'adi, vaqtida qor.*

Nogoh yomg'ir yog'adi, nogoh qor.

6. O'z mohiyati bilan yuklamalar modal so'zlarga yaqin turadi. Shu tufayli bu ikkisi ko'pincha birgalikda tasvirlanadi. Ammo modal so'zlar bilan yuklamalarni tenglashtirib bo'lmaydi:

1) yuklamalar rang - barang ma'nolarni ifodalaydi, shulardan ba'zilarigina modal ma'noga yaqin keladi;

2) yuklamalar ko'pincha mustaqil ishlatilmaydi, biror so'zga tirkalib yuradi.

Modal so'zlar esa a) gap tarkibida gap modalligini kengaytiruvchi, murakkablashtiruvchi vosita sifatida ro'yobga chiqadi. Boshqacha qilib aytganda, [WpM] gap qurilish qolipining [Pm] qismida mujassamlangan va xilma-xil vositalar bilan ifodalanadigan tasdiq/inkor, taxmin, gumon, shubha, ishonch, shart, qat'iylik, istak, imkoniyat kabi modal ma'nolar gapning boshqa bo'laklari bilan tobe - hokimlik munosabatiga kirishmaydigan modal so'zlar, tasdiq/inkor so'zlar vositasida kengaytiriladi: *Kanizak, aftidan, shuni aytmoqchi edi...*(A.Qahhor) b) mustaqil ravishda yakka o'zi bitta gap bo'lib kela oladi va modal so'z - gaplar deb yuritiladi. Bunday so'z - gaplarning barchasida kesimlik kategoriyasi ma'nosi so'zning lug'aviy ma'nosida mujassamlangan bo'ladi: *Kelasizmi? - Albatta.* Modal so'z – gaplar haqida navbatdagi ma'ruza bayonida keng to'xtalib o'tamiz;

3) yuklamalar morfologiyada yordamchi so'zlar guruhida, modal so'zlar so'z-gaplar doirasida o'rganiladi;

4) boshqa so'z guruhlari kabi modal so'zlar ham, yuklamalar ham o'ziga xos morfologik, sintaktik, ma'noviy belgilarga ega. Modal so'zlar bilan yuklamalarning o'zgarmasligi ularning

morfoloqik belgisiga kiradi. Sintaktik jihatdan esa modal soʻzlar ajraluvchilik, yaʼni kirish soʻz vazifasida kela oladi, yuklama esa muchalanmaslik (gap boʻlagi boʻla olmaslik) belgisiga ega. Semantik jihatdan modal soʻzlar fikrning voqelikka munosabatini ifodalaydi va butun gapga taalluqli boʻladi. Yuklamalar esa taʼkid, oʻxshatish, kuchaytirish kabi qoʻshimcha maʼno ifodalaydi. Yuklama ifodalagan maʼno butun gapga bevosita taalluqli boʻlmay, avvalo oʻzi tirkalib kelgan boʻlakning maʼnosini boʻrttirishga xizmat qiladi va shu boʻlak orqali butun gapga taalluqli boʻladi.

Adabiyotlar:

1. Абдурахмонов Ф. Қўшма гап синтаксиси асослари. Тошкент, 1958 йил.
2. Асқарова М. Боғловчи-юкломалар ҳақида. ЎТА, 1962 йил, 5-сон, 5-12-бетлар.
3. Neʼmatov H. va boshqalar. Ona tili. 7-sinf uchun darslik. Toshkent, «Oʻqituvchi», 2001- yil.
4. Неъматова Л. Ўзбек тилида привативлик (нофонологик сатҳлар). НД, Тошкент, 2002 йил.
5. Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1992 йил.
6. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Тошкент, 1975 йил.

SLAYDLAR

Yuklamalarning maʼno turlari

№	Maʼno turlari	Yuklamalar
1.	Soʻroq-taajjub yuklamalari	
2.	Kuchaytiruv-taʼkid yuklamasi	
3.	Ayiruv-chegaralash yuklamasi	
4.	Oʻxshatish-qiyoslash yuklamasi	
5.	Gumon yuklamasi	
6.	Inkor yuklamasi	

TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TAʼLIM UCHUN MATERIALLAR (Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)

Matnni oʻqing. Yuklamalarning maʼnosi va yozilishiga izoh bering.

Vatan madhi

Vatandan shirinroq hech narsa yo'q. Axir, odamlar nimaniki muqaddas deb hisoblasa, nimaniki teran mazmun bilan sug'orilgan, deb bilsa, bularning barini ularga Vatan o'rgatgan emasmi? Mayli, ko'pgina odamlar o'zga yurtlarning qudrati-yu ajoyibotidan zavqlansin, imoratlarning dabdaba-yu vasvasasiga qoyil qolsin, lekin hamma Vatanini sevadi. O'zga yurtlarning behisob mo'jizalarini ko'pchilik ko'rgan, ammo hech kim ularga mahliyo bo'lib o'z yurtini unutib qo'ygan emas-ku?!

Barcha odamlar Ollohdan Vatanini farovonlikda boshqa shaharlarga teng qilishni so'raydi-yu, lekin tanlashga kelganda har qancha faqiru ko'rimsiz bo'lsa-da, faqat o'z Vatanini tanlaydi. Vatan hamma odamlar uchun shu qadar azizki, qonun chiqaruvchilar hamma joyda eng katta jinoyatlar uchun oliy jazo sifatida Vatandan badarg'a qilishni belgilab qo'yishgan. Axir, janglarda safda turganlar uchun eng oliy, eng ulug' xitob- Vatan uchun jangga undaydigan xitobdir. Bu xitobni eshitgan hech bir odam undan bo'yin tovlashni o'ziga munosib bilmaydi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

1. Gaplar ichidan *bilan*, *ham* so'zlarining qaysi o'rinlarda bog'lovchi, qaysi o'rinlarda boshqa yordamchi so'z vazifasida qo'llanganini aniqlang, undagi farqni tushuntirib bering.

1. Kumushbibi endi o'n yettini qo'yib, o'n sakkizga qadam bosganida, bo'yi ham onasiga yetayozgan, ammo jussasi onasidan ko'ra to'laroq ko'rinar edi.

2. Muloyim kishida insof ham, diyonat ham, e'tiqodga sodiqlik ham, vijdon ham, sadoqat ham — hammasi bo'ladi.

3. Ahmad Yassaviy ko'ngil va til birligini qadrlagan.

4. Binolar qurildi, biroq tadbirkorlik ishlari qanday olib borilmoqda?

5. She'r bilan kuyning hamohangligiga erishmoq zarur.

6. Ona ba'zan farzandi boshida parvona bo'lardi, ba'zan beshikka bosh qo'yganicha uxlab qolardi.

2. So'zlashuv uslubida ishlatiladigan *minan*, *omalekin*, *valek*, *lek*, *shun-chun* kabi bog'lovchilar ishtirokida gaplar tuzing. So'ngra ularni yozma nutq uslubida yozing.

Og`zaki nutq	Yozma nutq

SEMINAR MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR.

Yordamchi va alohida so`z turkumlari bo`yicha test savollari

1. Gap bo`laklari va gaplarni tobelantirib bog`lovchi ular orasidagi shart ma`nosini ifodalovchi bog`lovchini toping?
 - a) garchi
 - b) balki
 - c) negaki
 - d) ya`ni
2. Qaysi gapda teng bog`lovchi qo`llangan?
 - a) Haqiqat tikonli gulga o`xshaydi, shuning uchun ham u hidlashni bilmaganlarning burniga sanchiladi.
 - b) El netib topgay menikim , Gar o`zimni topmasam
 - c) Menga Pushkin bir jahon-u Menga Bayron bir jahon
 - d) Barcha gaplarda teng bog`lovchi mavjud.
3. Qaysi gap zidlov bog`lovchisi vazifasidagi so`z qo`llangan?
 - a) Bo`rondan so`ng Olimjon brigadasidagi ishlar ozaymadi, balki yana ko`paydi.
 - b) U turmushidan, o`tgan umridan rozi, lekin ana shu roziligini tushuntirib berolmasdi.
 - c) Ma`nisiz hayot kechirish yomon turmush kechirish degani emas, ammo sekin-asta o`lish demakdir
 - d) Berilgan barcha gaplarda
4. Qaysi gapda vazifadosh bog`lovchi qo`llangan?
 - a) Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidir
 - b) Kun ilishi bilan daraxtlar kurtak yoza boshladi
 - c) Sen ham, men ham shunga ishonibmiz-a?
 - d) Badia bilan Ma`suma beka arava tagiga kirib yashirinishdi

5. Gaplarning qaysi birida vazifadosh modal soʻz ishtirok etgan?
- Bu fikr, umuman, eng zarur toʻgʻri deb oʻylabman
 - Bu, ehtimol, achchiq alamning oqibatidir
 - Shubhasiz, u shunday fikrga kelgan
 - Onajonim, balki bir kun men ham shoir boʻlaman
6. Taqlid soʻz qaysi gapda hol vazifasida kelgan?
- Jigarim ostiga tegardi jiz-jiz, Sochlarim oqargan shunda ehtimol
 - Shunday boʻlsa ham, vujudini tutgan qalt-qalt titroqni hozilomuz qichqirdi
 - Yetti qaroqchi yulduz tik kelganda qoʻngʻir-qongʻir ovozdan uygʻondi
 - Qoʻqqisdan osmon kaptari gʻuv-gʻuylab qolishdi.
7. Qaysi qatordagi gapda vazifadosh koʻmakchi ishtirok etgan?
- Bu kitob qoʻliga tushgandan keyin, bosh koʻtarmay mutolaaga tushdi.
 - Avval oʻyla, keyin soʻyla.
 - Xalqimiz faqat jisman emas, ruhan ham uygʻoq boʻlmogʻi darkor.
 - Ish bilan ovora boʻlib, kunning oʻtganini ham sezmay qolasan.
8. Qaysi gapda uchta oʻrinda yordamchi soʻz turkumiga oid birliklar qoʻllangan?
- Yupanch topdingmi dunyoga kelib, Ustoz yo shogirdan, yoki tengdoshdan
 - Men ham eshitgan va koʻrganimni aytaman-da joʻra.
 - Berilgan barcha gaplarda
 - Biladilar-da bu kishi. Yovlar bilan olishgan-a
9. Qaysi qatorda vazifadosh koʻmakchi otlashgan soʻzdan keyin qoʻllangan?
- Yomonlarning qoshida yalinish yaxshilarning ishi emas
 - Insonning feʼl-atvoriga qarab unga baho berishadi.
 - Bitmas-tuganmas bilimning tagida mashaqqat yotadi
 - Toʻydan keyin nogʻora chalmoq – nodonlar ishi
10. Qaysi qatorda faqat kuchaytiruv- taʼkid yuklamalari berilgan?
- da, -u, -yu, -axir, -faqat
 - hatto, -ku, ham, nahotki
 - ki, -chi, -a, sira
 - oq, -yoq, -dir, ham, xuddi
11. Har kimning zari boʻlmasa-da, ammo hunar boʻlsa, dunyoda hech bir havf-u xatar boʻlmaydi, shuning uchun kishi hunar ziynati bezanmogʻi lozim. Berilgan gapda qanday bogʻlovchi vositalaridan foydalanilgan?

- a) Ohang, yuklama, bo`lsa bog`lovchisi. Ko`makchilik qurilma, teng bog`lovchi
 - b) Ohang, fe`lining shart mayli shakli bo`lsa bog`lovchisi, teng bog`lovchi, ko`makchilik qurilma
 - c) Yuklama, ohang, zidlov bog`lovchisi, ko`makchilik qurilma, bo`lsa bog`lovchisi
 - d) Ohang, fe`lning shart mayli shakli
12. Qaysi so`z turkumiga kiruvchi so`zlardan keyin yozuvda vergul qo`yiladi
- a) Sabab bog`lovchisi, undov so`zlar, modal so`zlar
 - b) Maqsad bog`lovchisi, modal so`zlar, yuklamalar
 - c) Undov so`zlar, modal so`zlar
 - d) Undov so`zlar, modal so`zlar, yuklama, bog`lovchilar
13. Gumon yuklamasi qo`llanmagan gapni toping.
- a) Suv hayot manbaidir
 - b) U sizni yo`qlab kelgandir
 - c) Barcha gaplarda gumon yuklamasi qo`llangan
 - d) Urug`ingdir, aymog`ingdir, Biror og`zi maymog`ingdur
14. Ko`makchilarga xos xususiyat qaysi qatorda noto`g`ri izohlangan?
- a) Ko`makchilar sifatdoshlardan keyin kelib, ularni hokim so`zga bog`lash uchun xizmat qiladi.
 - b) Ko`makchilar harakat nomidan keyin kelib, ularni hokim so`zga bog`lash uchun xizmat qiladi.
 - c) Ko`makchilar ravishdoshlardan keyin kelib, ularni hokim so`zga bog`lash uchun xizmat qiladi
 - d) Ko`makchilar olmoshlardan keyin kelib, ularni hokim so`zga bog`lash uchun xizmat qiladi.
15. Sof ko`makchi qo`llangan gapni toping.
- a) Gap futbol o`yini ustida ketardi.
 - b) Barchasidan qovun soz, paykal uzra dumalar.
 - c) Muxbirimiz telefon orqali xabar berdi
 - d) Gapirishdan avval yaxshilab o`ylash lozim
16. O`rtada bo`lsin deb qadr ham izzat Ayriliq ham o`lim yaralganmi yo? Ushbu misrada berilgan yordamchi so`zlar turi va miqdorini toping.
- a) Bitta ko`makchi, ikkita biriktiruv bog`lovchisi, bitta ayiruv bog`lovchisi
 - b) Bitta yuklama, uchta teng bog`lovchi
 - c) Bitta yuklama, ikkita teng bog`lovchi
 - d) Bitta ko`makchi, bitta yuklama, ikkita teng bog`lovchi
17. Qaysi qatorda undov so`zlarga xos xususiyat noto`g`ri berilgan?
- a) Gap tarkibida kelib, uni undov gapga aylantirish mumkin
 - b) Undov so`zlar o`zi undov gap bo`lib kelishi mumkin

- c) Undov soʻzlar gap bilan grammatik jihatdan bogʻlanishi mumkin.
 d) Undov soʻzlar otlashganda gapda maʼlum vazifada qoʻllanishi mumkin.
18. -dek qoʻshimchasi qaysi koʻmakchi bilan maʼnodoshlik hosil qiladi?
- a) asosan
 b) boʻylab
 c) yarasha
 d) yangligʻ
19. Qaysi javobda vazifadosh bogʻlovchi berilgan?
- a) Balki ertalab oʻziga isitib berish uchun shunaqa deyotgandir
 b) Pokiza kishi hamisha shodlik ustida, gunohkor esa qaygʻu ostida boʻladi
 c) Yer bilan suv egizak, bir-birisiz yashay olmaydi.
 d) Goʻyo sharpa oʻtganday boʻldi
20. Qaysi qatorda vazifadosh modal soʻzlar berilgan?
- a) balki, ehtimol, chamasi, aftidan
 b) afsuski, haqiqatdan, avvalo, xullas
 c) albatta, shekilli, tabiiy, toʻgʻri
 d) attang, umuman, taxminan, shubxasiz

Mavzu: Soʻz – gaplar. Ularning maʼnoviy guruhleri

Reja:

1. Soʻz-gaplar toʻplamini ajratish tamoyillari.
2. Soʻz – gaplar va ularning tasnifi. Modallar, undovlar, tasdiq / inkor va taklif / ishora soʻzlari va bularning ichki boʻlinishlari. Boshqa soʻz turkumlari bilan aloqalari.
3. Soʻz-gaplarning sintaktik xususiyatlari.
4. Umumiy xulosalar.

Mavzu boʻyicha tayanch iboralar:

Soʻz-gap, boʻlaklarga ajratilmaydigan gap, semantik-funksional shakllangan soʻz -gap (SFSHSG), [WPm] qolipi, [W[^]] qolipi, modal soʻz-gaplar, undov soʻz- gaplar, tasdiq/inkor soʻz – gaplar, taklif/ishora soʻz-gaplar, sof soʻz-gaplar, soʻz-gaplashgan soʻzlar, soʻz-gaplashayotgan soʻzlar, soʻz- gapsimon soʻzlar, soʻz- gaplarning boshqa soʻz turkumlari bilan aloqalari.

Oʻzbek formal tilshunosligida soʻz - gaplarning mohiyati, turlari, ularning leksik material tavsifi, qoʻllanish xususiyatlari yetarlicha emperik asosda oʻrganilgan [5; 6, 582 – 601; 7, 135-136;]. Shakl - vazifaviy tilshunoslikda gapning eng kichik qurilish qolipi [WPm] sifatida talqin qilingach, ziddiyatli, izohtalab nuqtalarga ega boʻlgan soʻz - gaplarga ham lison / nutq ixtilofi nuqtai nazaridan yondashish zarurligi ayon boʻlib qoldi va har bir gapning til

bosqichida o'z qolipi mavjud bo'lgani kabi so'z-gaplarning ham o'ziga xos muayyan bir lisoniy qurilish qolipi bo'lishi shart va zarurligi e'tirof etildi.

“Bo'laklarga ajratilmaydigan gaplar” yoki so'z - gaplar umumiy atamasi ostida birlashtiriladigan gaplarning alohida belgilari mavjudki, ular shu belgilari bilan mustaqil so'zlardan, yordamchi so'zlardan, sodda yoxud qo'shma gaplardan farq qiladi. Bular quyidagilar:

1. Mustaqil holda gap bo'la olish belgisi.
2. Gap tarkibida shu gapning biror bo'lagi bilan sintaktik aloqaga kirisha olmaslik belgisi.
3. O'ziga xos g'ayrioddiy ma'noga ega bo'lish belgisi.
4. Bog'lamalar bilan birika olmasligi va shuning uchun mayl, zamon, shaxs/son shakllariga ega emaslik belgisi. So'z - gaplar deganda shu to'rt asosiy belgi bilan bir majmuaga birlashtiruvchi hodisalar tushuniladi.

1. Mustaqil holda alohida gap bo'la olish belgisi. Bu belgi 4-belgi bilan chambarchas bog'langan. O'zbek lisoniy tizimi gapda ma'lum bir axborotni tashuvchi tasdiq/inkor, mayl/zamon va shaxs/son ma'no va munosabatlarini ifodalovchi tarkibiy qismlar zarur bo'lishini talab etadi. So'z- gaplarda bunday tarkibiy qismlarni alohida - alohida ajratish mumkin emas. Lekin ular ham gap bo'la oladi, chunki kesimlik shakllari ma'no va munosabatlari so'z-gaplarning o'zida mujassamlangan va ularning ichki mohiyatini tashkil qiladi. “Bunday gaplarda kesimlik kategoriyasi ma'nolari va kesimlik — gap markazi vazifasida kelish — fikrni shakllantirish, uni ifodalash yo'q emas, bor. Ular gap sifatida voqelanuvchi so'zning leksik ma'nosida mujassamlashgan. Shu sababdan bunday gaplarda kesimlik mavjud, ammo kesimlik shakli ifodalanmagan” [3, 20-21;].

2. Demak, so'z-gaplar **mustaqil gap bo'la olish** “qobiliyatiga” ega bo'lganligi uchun bu so'zlarga nisbatan “semantik funksional shakllangan so'z - gaplar” atamasi qo'llaniladi. Bu atamadagi “semantik” tarkibiy qismi hodisaning lug'aviy (ma'noviy) tomoniga ishora qilib turadi. Bunda gap markazi mavqaida kelgan leksemalarning ikki tabiiy xususiyati namoyon bo'ladi, ya'ni bunda leksik birlik ham so'z, ham gapdir. Bu atamaning “funktional” tarkibiy qismi esa so'z - gaplarning sintaktik vazifa bajarishi faqat gap markazi vazifasida kela olishi bilan chegaralanganligini ifodalaydi. Demak, semantik-funktional shakllangan gaplar grammatik shakllangan gaplar ([WPm])dan farq qiladi va kesimlik ma'nolari so'z-gaplarda leksik birlikning yoki atov birligi [W]ning o'zida mujassamlanganligi tufayli so'z-gaplarning lisoniy qurilish qolipi [W^] sifatida berilgan.

3. So'z-gaplarning o'ziga xos g'ayrioddiy lug'aviy ma'noga egaligi. Bu xususiyat quyidagilarda namoyon bo'ladi: 1. Ma'no imkoniyatlari chegaralangan. 2. O'zida grammatik shakllarni talab etmaydi. 3. Boshqa so'zlar bilan birikish qobiliyatlaridan mahrum. 4. Gapda bajara oladigan vazifasi cheklangan. Shuning uchun ham bu leksemalar boshqa leksemalarga nisbatan g'ayrioddiy, biroq ma'no va vazifa jihatidan alohida barqaror til birligi hisoblanadi. Aytib o'tilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, taqlidlar kabi so'z turkumlari gapning istagan bir bo'lagi vazifasida kela olsa, so'z-gaplar gap (yoki uning markazi) vazifasida kela olishga xoslangan, bog'lovchi, ko'makchi, yuklamalar esa sintaktik aloqani ifodalash uchun xizmat qiladi. So'z-gaplar o'z ichida bir necha ma'noviy guruhlarga ajraladi: 1. Modallar. 2. Undovlar. 3. Tasdiq/inkor so'zlar. 4. Taklif/ishora so'zlar.

So'zlovchining bayon etilayotgan fikrga munosabatini — qat'iy ishonch, gumon, taxmin kabi ma'nolarni ifodalab keladigan so'zlar **modal so'zlardir**. Ularga *xullas, demak, chamasi, tabiiy, ehtimol, shubhasiz, shekilli* kabi so'zlar misol bo'ladi va bular formal tilshunosligimizda batafsil o'rganilgan.

Kishilarning his-tuyg`ularini, haydash, to`xtatish kabi xitoblarni, buyruqlarni ifodalaydigan so`z-gaplarning ko`rinishi **undov so`zlardir**. His-tuyg`u undovlariga *oh, voy, eh, barakalla, rahmat, ofarin* kabi so`zlar, buyruq-xitob undovlariga *pisht, beh-beh, pish-pish, chuh* kabi xitob so`zlar kiradi. So`z-gaplarning uchinchi ma`naviy guruhi bo`lgan **tasdiq/inkor so`zlar** ko`pincha modallar tarkibida o`rganilgan. *Ha, mayli, xo`sh, xo`p* so`zlari tasdiqni, *yo`q, mutlaqo, aslo, sira* so`zlari inkorni ifodalovchi so`z-gaplardir. **Taklif/ishora so`zlarga** qo`llanishi tana a`zolarining maxsus harakatlari bilan uzviy bog`liq bo`lgan *ma, mang, qani, marhamat* so`zlari kiritilgan. Ular tinglovchiga qaratilgan bo`lib, uni biror ish-harakatni bajarishga undaydi.

So`z- gaplar shunday hodisalar guruhiki, ularning juda ko`pchiligi boshqa so`z turkumlaridan tarixiy taraqqiyot jarayonida o`ziga xos nutqiy qo`llanish natijasida shakllangan va rivojlangan. Chunonchi, *so`zsiz, tabiiy* so`zlari sifatdan, *albatta* ravishdan o`sib chiqqan bo`lsa, *har qalay, har holda* modal so`zlari so`z birikmalaridan, *nasib bo`lsa, xudo xohlasa* kabilar gaplardan kelib chiqqan. **Sof so`z-gaplarga** *albatta, alhamdulillah; eh, hoy, oh, o`h; ha, yo`q, mutlaqo; ma, mang* kabi modal, undov, tasdiq/inkor, taklif/ishora so`zlari mansubdir. O`zbek tilshunosligida so`z-gaplarni lisoniy jihatdan o`rgangan R.Bobokalonovning tadqiqot ishida sof so`z-gaplar, [W[^]]-lashgan (modallashgan, undovlashgan tasdiq/inkorlashgan, taklif/ishoralashgan) so`zlar, [W[^]]-lashayotgan (modallashayotgan, undovlashayotgan...) so`zlar, [W[^]]-simon (modalsimon...) so`zlar va ular nutqiy voqelanishlari mufassal o`rganilgan [1, 9-15;]. [W[^]]-lashgan (so`z-gaplashgan) so`zlar o`z semantik-funksional xususiyatlari bilan har xil guruhning markaziy leksemalariga juda yaqin turadi, lekin o`z aloqasini boshqa so`z turkumlaridan to`la - to`kis uzmagani bo`ladi. Chunonchi, modallashgan so`zlarga *chamasi, chog`i, ehtimol*; undovlashgan so`zlarga *ura, olg`a, dod, voydod*; tasdiq/inkorlashgan so`zlarga *bo`pti, ma`qul, aksincha, mutlaqo*; taklif / ishoralashgan so`zlarga *qani* kabi leksemalar misol bo`ladi. [W[^]]-lashayotgan (so`z-gaplashayotgan) so`zlar so`z-gaplarga to`la-to`kis o`tgan bo`lmaydi va so`z-gaplarga o`tishning “yarim yo`li”da turgan so`zlardir. A.M.Peshkovskiy “Ayrim sifatlar sifatlardan uzilib to`la-to`kis otlarga o`tib ketgan bo`lsa, ayrim sifatlar otlarga o`tishning yarim yo`lida turibdi” deb ruscha “морозное” va “больной” so`zlarini misol keltiradi. Bu o`rinda modallashayotganlarga *balki, hatto, aftidan*; undovlashayotganlarga *yashang, voy o`lay*; tasdiq/inkorlashayotganlarga *durust, to`g`ri, rost, aslo, hargiz*; taklif/ishoralashayotganlarga *mana mundoq* kabi so`zlarni misol keltirish mumkin. Chunonchi, 1.*Balki, siz aytarsiz nima bo`lganini?* (P.O.) 2.*Nafsi uchun emas, balki qadri uchun yig`laydi-da* (O`Us.). 3.-*Qayerga borish, kimga uchrashishni u yaxshi biladi.* – *To`ppa-to`g`ri* (Ch.Ayt.). 4.*Hilola gapning to`g`risini aytdi* (O`Us.). Gaplarida [W[^]-lashayotgan] so`zlar (1-3-gapda) qo`llanilgan. [W[^]]-simon (so`z-gapsimon)lar deganda mohiyatan so`z-gaplar bo`lmagan lug`aviy birliklarning so`z-gap vazifasida kelishi tushuniladi. Jumladan, modalsimonlarga *shunday qilib, baxtga qarshi, tovba, xudo saqlasin*; undovsimonlarga erkalash ma`noli *asalim, oppog`im* va undalma ma`noli *ey, do`stlar* kabi; tasdiq/inkorsimonlarga *xuddi shunday, hech qachon, noto`g`ri* kabi; taklif / ishorasimonlarga *boshlang* ko`rinishli so`zlar misol bo`ladi. Qisqasi, so`z-gaplarning leksik-semantik turlari bo`lmish sof so`z-gaplar o`zlari tarixan kelib chiqadigan so`z turkumlaridan batamom uzilgan bo`lib, ularning ko`pchiligi ravish, sifat, ot sifatida mutlaqo qo`llanilmaydi. So`z-gaplashgan unsurlar esa o`zlari tarixan kelib chiqqan so`zlar bilan omonimik munosabat hosil qiladi va o`z aloqasini boshqa turkumlardan to`la uzmagani bo`ladi. So`z-gaplashayotgan unsurlarga o`zi boshqa so`z turkumi (ravish, sifat, olmosh, son,

fe'l)ga tegishli, lekin soʻz-gaplarga xos maʼno va vazifalarda qoʻllanila oladigan birliklar kiradi va bularning soʻz-gapsimonlardan farqi shundaki, ushbu qatlamga oid soʻzlar tarixiy taraqqiyot natijasida batamon “yarim yoʻl”dan soʻz-gaplarga oʻtib ketishi mumkin. Soʻz-gapsimonlar esa oʻz turkumi doirasida qoladi.

Soʻz-gaplarning sintaktik xususiyati yuqorida taʼkidlaganimizdek, ularning kesimlik qoʻshimchalarini qabul qilmasligi, bogʻlama bilan birika olmasligidadir. Soʻz-gaplar ham undalmalar, sodda gaplar kabi kengaygan yoyiq holatlarda boʻlishi mumkin: 1.*Choʻlni oʻzlashtirgan mardlarga ofarin* (A.Q.). 2.*Falakning dastidan dod!* (Hamza) 3.*Barakalla sizga!* Misollardan koʻrinib turganidek, soʻz-gaplar faqat bitta soʻzdan iborat boʻlmay, nutqda kengayish qobiliyatiga ega. Soʻz-gaplarning yana bir sintaktik xususiyati shundaki, [Wp] qurilishli gaplarda kesimlik kategoriyasi va maʼnosi [W]ga [Pm] orqali kiritiladi, [m]ning esa oʻzbek tilida juda koʻp koʻrsatkichlari mavjud. Shaklning oʻzgarishi bilan kesimlik kategoriyasining maʼno turlari ham oʻzgaradi. Masalan, *Boʻladi. Boʻlmaydi. Boʻlsa. Boʻldi* va h.k. Ammo soʻz-gaplarda bunday emas. Har bir soʻz-gap shu gapga xos boʻlgan maʼnolarni ifodalashga xoslangan boʻladi. Chunonchi, “Ha” soʻzi tasdiqni ifodalaydi. Uning boʻlishsizligi “Ha emas” bilan emas, balki alohida soʻz “yoʻq” bilan ifodalanadi. “Albatta” yoki “shubhasiz” modal soʻzi qatʼiy ishonch va tasdiqni ifodalaydi, inkor maʼnosi “mutlaqo”, “aslo” soʻz-gaplari bilan beriladi.

Soʻz-gaplarda zamon va shaxs maʼnolari [0] koʻrsatkichli boʻlib, matnda muayyanlashadi. Oʻzbek tilida gap (kesimlik) zamon va shaxs maʼnolaridan xoli boʻla olmaydi. Zero, soʻz-gaplarda zamon va shaxs-son maʼnolarining kontekstual aniqlanish xususiyati bu soʻzlarning asosiy sintaktik xususiyati–kesimlik qoʻshimchalarini qabul qilmay gap boʻlib kela olishi bilan sharhlanadi. Soʻz-gaplarning yana bir sintaktik xususiyati – ularning gap tarkibida alohida pozitsiyada turishi, yaʼni boshqa gap boʻlaklari bilan bogʻlanmasligidir va oʻzi gap sifatida “yashay olishi”, hamisha lisoniy alohidalikni saqlab qolishi bilan belgilanadi. Chunonchi, 1.-*Ertaga kelasizmi? -Albatta.* (Oʻ.Us.) 2.-*Yengil tortdingmi, qizim? -Shukur* (A.Q.).

Xulosa shuki, soʻz - gaplarning umumiy sintaktik xususiyati shundaki, ular kesimlik qoʻshimchalarini qabul qilmagan holda gap va uning markazini tuza oladi. Toʻrt leksik-semantik turida (modallar, undovlar, tasdiq/inkor, taklif/ishora soʻzlar) kesimlik kategoriyasini tashkil etuvchi maʼnolardan har biri alohida boʻrttirilgan “yalangʻoch” holda yuzaga chiqadi: modallar soʻzlovchining munosabatini ([Pm]dagi maylni), taklif/ishoralar shaxsga qaratilganlik maʼnosini ([Pm]dagi shaxs-sonni), tasdiq/inkorlar tasdiq va inkorni ([Pm]dagi boʻlishli/boʻlishsizlikni) va undovlar boʻlgʻusi harakatni ([Pm]dagi zamonni) ifodalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

- 1.Бобокалонов Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар. НД, Тошкент-2000.
- 2.Бобокалонов Р. Сўз-гапларнинг синтактик хусусиятлари. Адабий тил жонкуяри. (Илмий мақолалар тўплами). Бухоро, 2002 йил, 26-28-бетлар.
- 3.Бобокалонов Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гапларнинг кесимлик категориясига алоқадорлиги. Моҳиятга интилган олим. (Илмий мақолалар тўплами). Бухоро, 2001 йил, 19-21-бетлар.

4. Нигматов Х.Г. (и др.) Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков/Тезисы/. Сов.тюрк. 1984, №5.
5. Саидов С. Модал сўзларнинг гапда қўлланиши ҳақида. ЎТА, 1964, 4-сон.
6. Ўзбек тили грамматикаси. I том, Морфология. Тошкент, 1975 йил, 582-601-бетлар.
7. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент, 1987 йил, 135-137-бетлар.

TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MATERIALLAR (Dars mavzusiga oid jurnal maqolalari)

**Р.Бобокалонов, Н.Саломова (Бух ДУ)
ТИПИК ВА АТИПИК ГАП ТУРЛАРИ ХУСУСИДА**

В. Гумбольдт қарийб икки аср муқаддам: «Ҳар қайси тилнинг ўз системаси бор, тилшунос шуни тадқиқ қилиши керак» деб бежиз айтмаган эди (1). Ўзбек тилшунослигининг Европада яратилган систем структурализм таълимоти ва унинг назарийгчилари (В. Гумбольдт, Ф. де Соссюр, Ш. Балли, Г. Гийом, К. Жерман, Ж. Дюбуа, Р. Якобсон, А. Тенъер кабилар) изидан бориши бежиз эмас. Ундан кўзланган мақсад систем-структурал тилшунослик таҳлил усуллариининг афзал жиҳатлари ва илғор лингвистик назарий қарашларнигина ўзбек тилшунослигига олиб кириш эмас, балки улардан унумли ва имкон қадар қиёсий-типологик аспектларда фойдаланишдан иборатдир.

Сўнги йилларда лисоний ва нутқий ҳодисаларнинг деалектик қонуниятлар методологияси замирида тилшуносликнинг барча сатҳларидаги муаммоли масалалар чуқурроқ таҳлил қилинмоқда. Ўзбек тилининг барча бўғинида ростанакам «туркона назокат» сезила бошламоқда ва уни «ортиқча грамматик юклардан» ҳоли қилишга астойидил киришилгани мустақиллигимиз шарофатидандир. Дарҳақиқат, тил ва нутқ уларнинг мазмуни ва шакли ўртасидаги муносабатлар жуда мураккабдир. Бу таълимот тадқиқ этилаётган ишимиз учун ҳам аҳамиятлидир. Худди шу йўналишда ўзбек тилидаги гапларнинг қурилиши: **1. Грамматик шаклланган гаплар (қисқ. ГШГ), 2. Семантик функционал шаклланган сўз-гаплар (қисқ. СФШСГ)** ларга ажратилиб тадқиқ қилинди. Француз тилидаги сўнги илмий адабиётларда эса 1) **Типик** ҳамда 2) **Атипик** гаплар хусусияти бир-биридан фаркланиб кўрсатилади.

Ҳозирги француз адабий тилидага гап қурилиши учун атипик ҳодисаси сифатида каноник модел асос қилиб олинган ва уни типик гапларга нисбатан зиддиятга қўйиш мумкин. Каноник модели атипик гапларни:

1. **Phrases présentatifs** (Презантатив гаплар): *Voici (voilà) le stylo!*
2. **Construction binaire** (Бинар конструкция) *Vraiment, ce n'est pas possible.*
3. **Mots-propositions** (Сўз-гаплар): *Ça va?* (Аҳвол яхшими?)

Phrases nominales (Наминатив гаплар): *Le printemps.* (Баҳор)

5. **Insertion d'une phrase:** а) **Prepositions incidents** (Кириш гаплар): *Il viendra, j'espère.* *Ўйлайманки,* у келади. б) **Prepositions incisives** (муаллиф гапи): *-Je vais à midi, dit Jacques.* (*Тушлик пайтида бораман, деду Жак*) кабилар ташкил этади.

Ўзбек тилида атипик гапларни СФШСГ лар билан қиёслаш мумкин. Синтактик қуршовда СФШСГларнинг маъно имкониятлари чегараланганлиги, ўзида грамматик шакл талаб этмаслиги, бошқа сўзлар (ва гап бўлаклари) билан семантик жиҳатдан алоқага киришиш қобилиятидан маҳрумлиги, гап бўлаги саналмаслиги ва гапдаги бўлақлар билан боғланмаслиги сингари белгилари аниқлаштирилган. Француз тилида эса бу белгилар тўлиқ асос қилиб олинмаганлиги кузатилади. Шунингдек, СФШСГ лар таркибида учрамайдиган *презантатив гаплар бинар конструкция, номинатив гаплар, муаллиф гапи, кириш сўз ва гаплар* қаторида сўз-гаплар биргаликда каноник модел (алоҳида ўзига хос қурилиш) га эга бўлиши сўнги тадқиқотларда эътироф этилмоқда (3). Тил ва нутқ дихотомияси моҳиятидан келиб чиққанда гапнинг минимал қурилиш қолипи француз ва

Ўзбек тилларида кескин фарқланади. Гапларнинг формал қурилишида (*forme passive subordonnée, constructions binaires, les énoncés à un seul terme, l'emphase, mots-propositions* алоҳида гап турларида) ҳам худди шу ҳолатни учратамиз.

Семантик - функционал шаклланган гаплар, одатда *модал, ундов, тасдиқ-инкор, тақлиф-хитоб* маъноли сўзлардан иборатдир. Булар ГШГлардан, яъни (WPm) қолипга гаплардан фарқли ўлароқ (W) рамзида берилади (2,1-156). Дарҳақиқат, француз лексикаси ва синтаксиси оралиғида сўз-гап бўлиш қобилятига эга бўлган лексик бирликлар ҳам мавжуд. Уларнинг лексик-семантик ва синтактик хусусияти шу вақтга қадар илмий асосда аниқлаштирилмаган. Аммо биз юқорида таъкидлаб ўтган СФШСГ ларнинг онтологик белгилари каноник модели антипик гапларда ҳам ўз ифодасини топганлигини эътироф этган ҳолда *бинар конструкция* ҳамда *презентатив* гапларнинг лексик-семантик ва функционал хусусиятлари юзасидан илмий ахборот беришга уринмоқчимиз.

I Француз тили таҳлили шундан далолат берадики, кўплаб гаплар нисбий икки мустақил бўлақлардан иборат бўлиши мумкин. Бундай бўлақлар гап ярусида оппозиция ҳосил қилади. Аммо уларда гап учун характерли бўлган мантикий ҳукм алоҳида-алоҳида кўзга ташланмайди. Аксинча, оппозициядаги биринчи қисмнинг мазмуни иккинчи қисм (бўлақ) мазмуни билан боғланиб изоҳланади ва бу мазмунан боғланиш бир тугал фикрга тенг келади. Бунинг асосий сабаби, содда гапнинг бинар оппозициясида туриш (ўтиш)дир. Бошқача қилиб айтганда, француз тилидан содда гаплар бинар оппозицияга ўтганда нисбий (мустақил) икки компонентли гапларни ҳосил қилади. Уларда компонентлар иккита бўлиб кўринганда ҳам мантикий ҳукм битта бўлади ва кесимлик кўрсаткичларини йўқотади. Қиёслаймиз:

Содда гапнинг бинар оппозицияси

1. *Chaudes, les marrones!*
2. *Magnifique, ce paysage !*
3. *Génial, ce film!*

Содда гапнинг меъёрий қурилиши

1. *Les marrones sont chaudes.*
2. *Ce paysage est magnifique.*
3. *Ce film est génial.*

Кўринадики, содда гапнинг бинар оппозициясида синтактик алоқанинг воситачи унсурлари учрамайди, лекин қисмлар маълум ва муайян пауза (оҳанг) орқали ўзаро боғланганликлари сезилади. Бинар қурилишли гаплар ҳақида француз тилшунослари Мартин Режел, Жан Кристоф, Пеллат, Рене Рейуллар ўз муносабатларини маълум қилишган (3). Бироқ шуни таъкидлаш керакки, унда содда гапнинг бошқа турлари, чунончи, тўлиқсиз ва сўз-гаплар турлари билан аралаштириб тушунтирилган. Бизнингча, бинар қурилишли гаплар содда гапнинг алоҳида кўриниши сифатида баҳоланиши мумкин ва унинг чегараси, кўринишлари алоҳида тадқиқ этилиши қиёсий тилшунослик учун ҳам аҳамиятга моликдир.

Француз тилшунослари бинар оппозиция муаммолари ҳақида XX асрнинг биринчи ярмиданок фикр билдиришган. Жумладан, Анре Мартине – Сорбонна университети профессори, функционал лингвистиканинг асосчиларидан бири – лексикологияга доир ўзининг «*La linguistique synchronique*» номли илмий асарида жараён ва объект муносабатида бинар оппозициянинг пайдо бўлиши ҳақида бирмунча қизиқарли далил-исботлар келтиради. Масалан, **table** предмет (ўриндик) маъносининг «**table**» шаклидаги ифодаси билан {table}ифодаланувчи ўртасида бинар зидият лисон (нутқ) ихтилофида кўзга ташланади. Олимнинг фикридан келиб чиқадиган хулоса шуки, бинар оппозиция «белги ва белгиланувчи» (*le signifié et le signifiant*) муносабатда намоён бўлади. Яъни, бу муносабат лексик бирликларнинг нутқ жараёнида кузатилиши учун аҳамиятлидир.

Бинар конструкция моҳиятан бинар оппозиция билан узвий боғлиқликка эга бўлишига қарамай, ундан бирмунча хусусиятлари билан кескин фарқлидир. Бу фарқлар нимада намоён бўлади?

1. Лексик бирликларнинг синтактик қурилишида – функционал моҳият касб этишида. Лексик бирлик бинар оппозицияда ўз моҳиятини сақлаган ҳолда лексик маъно ифодалайди. Бинар конструкцияда эса, лексик маънодан кўра синтактик қурилиш муҳим аҳамият касб этади.

2. Синтактик қурилишнинг формал тузилишида. Гап вазифасидаги лексик бирлик ёки лексик қурилма моҳиятан муайян бир гап турига хослашади. Масалан, от

туркумининг бинар конструкциядаги бирламчи вазифаси номинал (атов) гап бўлиши билан изоҳланади. Унинг предлог детерминативлари билан ифодаланиши эса, тўлиқсиз гапга алоқадор бўлади. Биз синтактик қурилишнинг формал тузилиши деганда, унинг қайси гап турига мансублигини эътиборга оламиз. Шу ўринда Мартин Режел, Жан Кристоф, Релат ва Рене Рейолларнинг «*Grammaire méthodique du français*» (3) ўқув дарсликларида «бинар конструкция» термини лексик-синтактик жиҳатдан алоҳида гап «компонент»и сифатида (нисбий маънода) қўлланганини эътироф этишимиз лозим (гарчи бу илмий ишда «бинар конструкция» ёки «бинар қурилишли гап» темини гапнинг алоҳида тури сифатида қайд этилмаган бўлса ҳам). Унда «бинар оппозиция» ва «бинар конструкция» терминлари икки фаркли маънода: 1) лексик семантик ва 2) синтактик-стилистик планда ўрганилган.

II Презантатив гапларнинг хусусиятларини *voici* ва *voilà* ўзгармас шакллари билан аниқлаштириш ва уларни нутқда кузатиш муқаррардир. Бундай гаплар экспрессив бўёқдор сўроқ мазмунни ифодалаган гапларга жавоб бўла олади.

1. **П у а quelqu'un? – Voilà, voilà....On vient.** *Бирор жонзод борми? – Ана, ана ... Бораянман*

2. **L'addition, s'il vous plait - Voilà, voilà.** *Ҳисоб китоб қилинг, илтимос – Мана ҳозир*

Презантатив гапларни сўзма-сўз таржима қилиш мумкин эмас. Агар шундай қилинса, фикрни аниқлаштиришга путур етади. Презантатив гаплар ўртасидаги семантик хусусият Мартин Режел, Жан Кристоф, Реже Рийал бу лексик бирикмалар мазмундан келиб чиқиб, **voici** да ҳаракат давом этишини **voilà** да эса, ҳаракат яқунланганлигини эътироф этишади: **Voilà tous mes forfaits. En voici le salaire** (Расин). – *Ана менинг барча кирдикорларим. Мана шундан, шунча ёмонлик.*

Расман хабар маъносини ифодалаганда бу бирликлар бўлишсизлик маъносини ифодалаш учун хизмат қилмайди. Чунончи, **Ne voilà personne** – *Ҳеч ким кўринмайди. Ne voilà pas qu'il revient?* – *Унинг келишини ким кўрибти?*

Бу бирликлар киёсий ва ортгирма даражаларни ҳам узида ифодалаш мумкин:

1. Comparatif: - *Voici plus intéressant !*

2. Superlatif – *Voici le plus beau de l'histoire! Voilà le plus beau de l'histoire!*

Презантатив гаплар услубий хусусиятга кўра эмоционал-экспрессив хусусиятга эга: **Voilà qu'il neige** – қорнинг ёғишии қаранг.

Тил доимий тараққиётда бўлгани сингари презантатив нутқий ходисалар ҳам француз адабий тилида ўзгача ўзига хос ҳаёт кечирмоқда. Бундай нутқий ходисалар типик гап қолипидан чиқиб, ўзининг атипик гап қурилишига аллоқачон ўтгани боис уларни алоҳида СФШСГ турига киритиш маъқулдир. Шу жумладан, бинар конструкцияси ҳам СФШСГ учун аҳамият нутқий ходисалардан биридир. Буларнинг тадқиқи киёсий типология ва назарий грамматика учун аҳамиятлидир.

АДАБИЁТЛАР

1. Гумбольд В. Избранные труды по языкознанию. -М., 1984.

2. Бобокалонов Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар. НД - Тошкент, 2000.

3. Martin Reigel, Jean Christophe Pellat, René Riol. Grammaire methodique du francais. PUF. –Paris, 1998. Page 347.

AMALIY MASHG`ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

1.Quyidagi so'zlarni undov va taqlid so'zlarga

ajrating.

Oh, kish, lip-lip, dag'-dag', gumbur, beh-beh, ehe, uf, bay-bay, uh, obbo, o'hho', qurey- qurey, yalt-yult, qars-qurs, g'ir-g'ir.

2.Berilgan gaplardan modal so'zlarni toping.

1.Darhaqiqat, men izlagan inson siz bo'lib chiqdingiz.

2. Nihoyat, bugun men juda xursand bo'ldim.
3. Nachora, hayotda kurashib yashayman-da.
4. Ehtimol, men o'zim sababchidirman.
5. Chamasi, bu voqea sizga qiziq tuyulsa kerak.
6. Binobarin, bu naql ko'p serhikmat naqldur.
7. Umuman olganda, baxtli kishi fitnalardan yiroq bo'lgan va musibat yetganda sabr qilgan kishilardir.
8. Agar yaxshiliging seni xursand qilib, yomonliging xafa qilsa, demak, sen mo'min ekansan.

3. Matnni o'qing. Matndan undov, modal, so'zlarni topib, izohlang.

...Laylak qishlog'ining eng katta boyi Muhsin guppi yotsa ham, tursa ham yeriga yer qo'shishni o'ylardi. Yana bir orzusi dono va hozirjavob odam sifatida dovrug' taratish edi. Shu sababli oldiga Nasriddin Afandi kelib, sizga maslahatim bor, deganda, sevinganidan o'yinga tushib ketgudek bo'ldi.

- Xo'sh, xo'sh, - dedi u dik etib turib, salom-alikdan so'ng Nasriddin Afandini o'tirishga taklif etarkan.

- Bilasizmi, mulla aka, - gap boshladi Nasriddin, «mulla aka»ning Muhsin guppiga moydek yoqishini bilib, - men bugun tush ko'rdim.

- Xo'sh, xo'sh? - Muhsin guppi unga bir piyola choy uzatdi.

- Tushimga otam rahmatli kiribdilar. «Bog'ingdan uch-to'rt qadam yuqoriroqda odamdek keladigan, chorak qismi yerga ko'milgan eski xum bor. Qishlog'ingdan uch-to'rt bechorani topgin, uni suvga to'ldirishsin. Xumga eng oxirgi chelak suvni quygan odamga bog'ingning yarmini xatlab. berasan», dedilar.

- Iya, xudoyo tavba qildim! - dedi Muhsin guppi sevinchdan gupillab ketgan yuragini bazo'r tinchitib.

- Taqdir ekan, qanday qilay? - dedi Nasriddin Afandi bechorahol qiyofada.

- Ha, endi tushga har balo ham kiraveradi-da, - dedi Muhsin gupp yupatgandek bo'lib, bo'lmag'ur narsa uchun hayhotdek bog'ning Yarmidan ajralib o'tirasizmi?

- Yo'q, - dedi Nasriddin qat'iylik bilan. - Otam rahmatlining tirikliklarida so'zlarini ikki qilmasdim, endi ruhlari ozor cheksinmi?

- Ofarin! Ofarin! - Muhsin guppi ham sevinchdan, ham hovlidan quruq qolish vahimasidan bir turib yana o'tirdi. - Balli! Yashang! - bu olqishini boyagidan ancha xotirjam aytdi. Chunki darrov reja tuzishga sho'ng'ib, ko'zlari sovuq yiltiray boshlagandi.

- Xo'sh, - Nasriddin gapning kashtasini yanada gajakdorrog qildi. - Qoshingizga kelishimning boisi, mulla Muhsin aka, siz qishloqning ipidan ignasigacha biladigan obro'li odamsiz. Men esa yangiman.

Xo'sh, shu xumni to'ldiradigan odamni qayerdan topaman? Menga birov ishonarmidi...

Ikkinchi tomondan, juda shov-shuv qilishning ham tarafdori emasman. Otamning aytganlarini bajarib, ko'nglimni xotirjam qilsam bas.

- Juda yaxshi kelibsiz!.. - dedi - yu, shu gapidan so'ng Muhsin guppini qattiq yo'tal tutdi. Aslida bu yo'tal emas, sevinchdan otilib chiqayotgan kulgisini xaspo'shlovchi soxtalik edi. - Juda to'g'ri va oqilona yo'l, deya Muhsin guppi ko'zyoshlarini artidi. - Ovoza qilish shart emas. Bu savob ishingizni o'zim uddalab beraman. Gah desam qo'linga qo'nadigan ikkita odamim bor. Bechoralar juda kambag'al. Aytaman, o'zim boshida turib, bajarib beraman. A?

- Bo'пти, men rozi! Rahmat sizga! - Nasriddin o'rnidan turdi.

- Bo'lmasa ishni bugundan qoldirmaylik, mulla aka. Yana otamning arvohi urib yurmasin meni. Kechasi tushimga kirib.

- Juda yaxshi! - Muhsin sevinchdan qafasdagi qushday potirloyotgan yuragini qo'li bilan bosdi. Nasriddin ketish taraddudida eshik tomon yurdi-yu, ilkis to'xtadi:

Na: aytmoqchi! - dedi u bir narsani hozirgina eslagandek. – Boyagi otam aytgan xumlari hech qachon bog'da turmasdi. Ertalab uyg'onib qaragam, xuddi aytganlaridek, bog'ning o'rtasida chorak bo'yi ko'milib, tippa-tik turibdi!

- Yo tavba! - Muhsin yoqa ushladi.

Nasriddin Afandi eshagiga mindi-da, iltijo qildi:

- Kutaman, mulla aka, xudo xayringizni bersin, shu ishinni tezroq bitirishga yordam bering!

Nasriddin ketdi. Muhsin guppi sal uzoqlashishini kutib turdi-da, sevinganidan baqirib yubordi:

- Tursunali! Alimsho!

Ichkaridan uzun-qisqa bo'lib ikki kishi yugurib chiqdi...

(Zohir A'lam)

SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR.

Yordamchi va alohida so'z turkumlari bo'yicha test savollari

1. Na.....na inkor bog'lovchisi qo'llangan gaplarning kesimi qanday shaklda bo'ladi?

a) bo'lishli shaklda

b) bo'lishsiz shaklda

c) barcha javob to'g'ri

d) o'zni bilan bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklda

2. Faqat vazifadosh ko'makchilar ishtirok etgan ko'makchilar berilgan qatorni toping.

- a) qarab, keyin, ust.
 - b) so`ng, singari, bo`ylab
 - c) tufayli, avval, to`g`risida
 - d) tomon, haqida, ko`ra
3. Qaysi gapdagi modal so`z fikrning tartibini bildiradi?
- a) Nihoyat, unday inson ham ko`rindi
 - b) Alqissa, xaloyiq va har tarafdin kelgan kishilar to`da bo`lishib maslahat qildilar
 - c) Darhaqiqat, chang- to`zon ancha narilab, Karki tomonga ketardi.
 - d) Xullas, kayfiyatim chog` edi.
4. Yozuvda qaysi bog`lovchilardan oldin doim vergul qo`yiladi?
- 1. sabab bog`lovchilari
 - 2. aniqlov bog`lovchilari
 - 3. shart bog`lovchilari
 - 4. biriktiruv bog`lovchilari
 - 5. zidlov bog`lovchilari
- a) 1,2,3,5
 - b) 1,2,5
 - c) 1,2,3,4,5
 - d) 2,3,5
5. O`xshatish, qiyoslash ma`nosini ifodolovchi ko`makchini toping
- a) qadar
 - b) qarab
 - c) yanglig`
 - d) to`g`risida
6. Qaysi gapda vazifadosh bo`g`lovchi ishtirok etgan?
- a) ...chars-churs uchqun sochdi-da, axiyri gurillab ketdi
 - b) Bulut bo`ldi-da, yomg`ir yog`madi.
 - c) Birov kiridi-da, chiqib ketdi.
 - d) Choy qaynatib ichishni-da unutdi
7. "Binobarin" so`zi turkumiga oid so`z?
- a) Modal so`z
 - b) Ravish
 - c) Yuklama
 - d) Ko`makchi
8. Yuklama qatnashgan gapni toping.
- a) Abdumalik ota mevalarim yeyishar, deb bahorda ko`chat ekadi.
 - b) Ahmad bu gapni sira kutmagandi, tok urgandek eti jimirlashib ketdi.
 - c) Bu xabar unda hech qanday norozilik tug`dirmadi.
 - d) Vatanimiz poytaxtida ya`ni Toshkentda diqqatga sazovor joylar ko`p
9. Yana ular futbol haqida nazariy bilimlarga ega bo`lishimizni talab qildilar. Ushbu gapdagi ko`makchilarning ma`nosini aniqlang.
- a) chegara ma`nosi
 - b) maqsad ma`nosi
 - c) yo`nalish ma`nosi
 - d) fikr mavzusi ma`nosi
10. Qanday so`zlar vazifadosh bog`lovchilar bo`lishi mumkin?

1. ko`makchilar 2. yuklama 3. modal so`zlar

4. taqlid so`zlar 5. bog`lovchilar

a) 1,2,3,4 b) 1,2,3 c) 1,2,3,4,5 d) 1,2

11. Bog`langan qo`shma gapning payt, sabab-natija munosabati ifodalangan qismlarini qaysi bog`lovchilar bog`lab keladi?

- a) zidlov bog`lovchi
- b) ayiruv bog`lovchi
- c) birikuv bog`lovchi
- d) inkor bog`lovchisi

12. Faqat sof ko`makchilar berilgan qatorni toping.

- a) sayin, uzra, qadar
- b) uchun, doim, so`ng
- c) sari, yarasha, tomon
- d) kabi bo`ylab, muvofiq

13. Gaplarning qaysi birida yuklama ishtirok etmagan?

- a) Haykal ham qo`yingiz bamisli xayol.
- b) Taraqqiyot tasodif emas, balki zaruratdir.
- c) U o`z ishini sira vaqtida qilmaydi.
- d) Nihoyat unday inson ham ko`rindi

14. 1. Devor usti yomg`irdan iviy boshladi.

2. Kitob ustida uzoq ishladi.

3. Nosir o`z ustida ko`p ishlardi.

Ushbu gaplarning “usti” so`zi qaysi javobda to`g`ri izohlangan?

- a. 1- va 3- gaplarda vazifadosh ko`makchi, 2- gapda mustaqil so`z
- b. 2-3 gaplarda vazifadosh ko`makchi, 1- gapda mustaqil so`z
- c. 1-2 gaplarda mustaqil so`z, 2- gapda vazifadosh ko`makchi
- d. 2- va 3- gaplarda mustaqil so`z, 1- gapda vazifadosh ko`makchi

15. Gapirganda ovozi xuddi ichidan chiqqanday guldurab, jaranglab eshitiladi. Ushbu gapda nechta yasama fe`l bor va ular qaysi so`z turkumlaridan hosil bo`lgan yasama fe`l bor va ular qaysi so`z turkumlaridan hosil bo`lgan?

- a) 2 ta, ot va taqlid so`zlar
- b) 3 ta, ot va taqlid so`zlar
- c) 3ta, ot, taqlid so`z va undovlar
- d) 2 ta, ot va fe`ldan

16. Taqlid so`zlardan ko`proq qaysi turkumdagi so`zlar yasaladi?

- a) ot
- b) fe`l
- c) sifat
- d) taqlid so`zlardan so`z yasalmaydi

17. Qaysi qatorida vazifadosh modal berilgan

- a) balki, ehtimol, chamasi, atrofidan

- b) afsuski, xaqiqatdan, avvalo, xullas
 c) albatta, shekilli, tabiiy, to`g`ri
 d) attang, umuman, taxminan, shubhasiz
18. U faqat shoirgina emas, balki adabiy tanqidchi edi. Mazkur gapda atash ma`nosiga ega bo`lmagan so`zlar miqdorini toping.
 a) 3ta
 b) 4ta
 c) 5ta
 d) 6ta
19. Vazifadosh bog`lovchi berilgan gapni toping.
 a) Xalqni qo`rqitgan emas, balki xalq dardiga sherik bo`lgan odam marddir
 b) Nega endi natijaga baho berishadi-yu, sababini tekshirib ko`rmaydi.
 c) Barcha gaplarda vazifadosh bog`lovchilar qo`llangan
 d) Onam bilan men ertalab yo`lga chiqdik
20. Qaysi qatorda sof modal so`zlar berilgan?
 a) avvalo, xullas, shubhasiz, baxtinga
 b) haqiqatdan, afsuski, attang, taxminan
 c) avvalambor, darhaqiqat, jumladan, shaksiz
 d) masalan, umuman, aftidan, chamasi
21. Qaysi qatordagi gapda vazifadosh ko`makchi ishtirok etgan?
 a) Bu kitob qo`liga tushgandan keyin, bosh ko`tarmay mutolaaga tushdi.
 b) Avval o`yla, keyin so`yla.
 c) Xalqimiz faqat jismonan emas, ruhan ham uyg`oq bo`lmog`i darkor.
 d) Ish bilan ovora bo`lib, kuning o`tganini ham sezmay qolasan
22. Qaysi gapda **ham** yuklamasi bog`lovchi vazifasida qo`llangan?
 a) Sekin unga yaqin bordim, bu manzara bizning ko`ngilga yaqin-da, qarindosh
 b) O`zi balo tog`ning boshida turmush, kun-u tun yoz ham qish
 c) Barcha javoblarda yuklama sifatida qo`llangan
 d) Men ham eshitgan va ko`rganimni aytaman-da, jo`ra
23. Modal so`zlarni toping.
 1. attang 2. faqat 3. birdan 4. aftidan 5.
masalan
 6. nihoyat 7. nahotki 8. xayriyat 9. biroq 10.
ehtimol
 a) 4,5,7,8
 b) 1,3,6,8,10
 c) 1,4,5,6,3,10
 d) 1,4,7,8,9,10

24. **Polvonlar epchillikda bir-biridan o`tardi, kurashda goh unisi, goh bunisi yutadi.** Ushbu gapdagi ayiruv bog`lovchisi nimaga xizmat qilgan?

- a) qo`shma gap qismlarini bog`lash uchun
- b) uyushgan bo`laklarni bog`lash uchun
- c) o`zaro tobe bo`laklarini bog`lash uchun
- d) qo`shma gap qismlari va uyushiq bo`laklarni bog`lash uchun

25. Ko`makchilar qaysi kelishik shakllaridagi ismlar bilan qo`llanishi mumkin?

- | | | |
|-------------------------|----------------------|---------------------|
| 1. bosh kelishik | 2. qaratqich | 3. jo`nalish |
| 4. tushum | 5. o`rin-payt | 6. chiqish |
- a) 1,2,3,6
 - b) 2,3,4,5,6
 - c) 1,2,3,4,5,6
 - d) 3,4,5

26. Quyidagilardan qaysi biri yuklama?

- 1. balki 2. nahotki 3. nihoyat 4. axir 5. agar 6. hech 7. sira**
- a) 2,4,6
 - b) 2,3,5,6
 - c) 2,3,4,7
 - d) 1,2,4,7

27. Asl (sof) ko`makchilar berilga qatorni toping.

- | | |
|-----------------|---------------|
| A. Bilan, uchun | B. Ost, ust |
| C. Qarab, ko`ra | D. Ich, keyin |

28. Ot ko`makchilarining to`liq qatorini belgilang.

- A. Ost, ust, yon
- B. Ko`ra, qarab, qaraganda
- C. Oldin, keyin, so`ng
- D. A va B javoblar to`g`ri

29. Teng bog`lovchilar qaysi qatorda ko`rsatilgan?

- A. Va, lekin, biroq
- B. -ki, chunki, hamda
- C. Shu sababli, deb, toki
- D. Ammo, -u, -yu

30. Yaxshi bilan yurdim yetdim murodga, yomon bilan yurdim qoldim uyatga. Ushbu gapdagi yordamchi so`zni aniqlang.

- A. Biriktiruv bog`lovchisi
- B. Zidlov bog`lovchisi
- C. Shart bog`lovchisi
- D. Maqsad bog`lovchisi

31. Yordamchi so`zlarga xos bo`lmagan xususiyat qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?

- A. Grammatik ma`noga ega bo`ladi.
- B. Leksik ma`no ifodalaydi.

- S.Sintaktik vazifa bajaradi.
D.Barcha javoblar to`g`ri
- 32.Ayiruv-chegaralov yuklamalari berilgan qatorni toping.
A.-mi, -chi
B.-a, -ya
C.Faqat, gina, kina
D.Hatto, nahot, nahotki
- 33.**Ona bilan bola gul bilan lola.**Gapidagi yordamchi so`zni aniqlang.
A.Sof ko`makchi
B.Teng bog`lovchi
C.Yuklama
D.Vazifadosh ko`makchi
- 34.Aniqlov bog`lovchisi ishlatilgan gapni aniqlang.
A.Yurt obod, chunki mustaqilmiz.
B.Shahar va qishloqlarimiz kundan-kunga chiroy ochib bormoqda.
C.Maqsadimiz shuki, doimo tinchlik bo`lsin.
D.Siz ham biz bilan borasizmi?
- 35.**Biz-chi, biz nima qilamiz?** Yuklamaning ma`no turini aniqlang.
A.Tajub yuklamasi
B.So`roq yuklamasi
C.Ayiruv-chegaralov yuklamasi
D.Ta`kid yuklamasi
- 36.**Faqat** o`rnida keluvchi so`zni toping.
A. Xolos
B.Shugina
C.Nahotki
D.Yolg`iz
- 37.Tovushga xos taqlid so`z qaysi qatorda berilgan?
A.Yalt-yult
B.Lip-lip
C.Qaltur-qultur
D.Dir-dir
E.Qars-qurs
- 38.Haydah-chaqirish undovlari to`g`ri ko`rsatilgan qatorni toping.
A.Hoy, ey, eh
B.Shov-shuv, gumbur-gumbur, taq-tuq
C.Kisht, beh-beh, qurey-qurey
D.Sharaq-shuruq, tars-turs, g`o`ng`ir-g`o`ng`ir
- 39.Otlashgan undov so`z qaysi gap tarkibida berilgan?
A.Voy, Umidamisan?
B.Eh, yurtimiz qanday go`zal!
C.Uzoqdan traktorning tirillagani eshitildi.
D.Barglarning shitir-shitiri quloqqa yoqimli eshitilardi.
- 40.Gumon, noaniqlikni bildiruvchi modal so`zlar berilgan qatorni toping.

- A. Albatta, shaksiz, shubhasiz
- B. Demak, binobarin, balki
- C. Chamasi, ortidan, ehtimol
- D. Masalan, xullas, haqiqatan

GLOSSARIY

Atama, nazariy tushuncha, ibora	O`zbek tilidagi izohi	Rus tilidagi izohi	Ingliz tilidagi izohi
Fonema	Eng kichik lisoniy birlik. U muayyan til egalarining ma'lum tovushlar tipi haqidagi umumiy tasavvurlaridir. Har bir fonema so`zlovchilar ongida o`z tipini farqlovchi belgilari majmui asosida vujudga kelgan maxsus "akustik – artikulyatsion portret" yoki "tovushlar obrazi" sifatida saqlanadi.	Фонема (греч. phonem a — звук). Кратчайшая звуковая единица, способная различать звуковые оболочки (звуковую сторону, звучание) разных слов и морфем. Так, в функциях различия звуковых оболочек слов бак, бок, бук выступают фонемы <a>, <o>, <y>. Качественно образные звуки речи можно свести к небольшому числу общих их типов — фонем, которые, противопоставляясь другим типам, участвуют в смысловой, дифференциации слов или в различении морфологических форм.	using special signs to represent the different sounds made by the voice in speech Pronunciations are shown in this dictionary using the International Phonetic Alphabet.
Leksema	Lisonning borliq hodisalarini nomlash, ifodalash, ko`rsatish uchun xizmat qiluvchi birlikdir. Lisoniy birlik sifatidagi leksema biri ikkinchisiz mavjud bo`la olmaydigan ikkita psixofizik-akustik struktura (tovush qobig'i), ya'ni nomema hamda ma'lum bir tusuncha asosida vujudga kelgan mazmuniy struktura, ya'ni sememaning birligidan iborat.	(от греч. lexis – слово, выражение), слово, рассматриваемое как единица словарного состава языка в совокупности всех его конкретных грамматических форм и выражающих их флексий, а также всех возможных значений (смысловых вариантов); абстрактная двусторонняя единица словаря. Представляет собой совокупность форм и значений,	(word, expression, speech) in linguistics - the word as an abstract unit of morphological analysis. In one lexeme , different paradigmatic forms (word forms) of one word are combined. For example, a dictionary, a dictionary, a dictionary are forms of the same lexeme, by agreement written as a

		своих собственнх одному и тому же слову во всех его употреблениях и реализациях, лексема характеризуется как формальным, так и смысловым единством.	DICTIONARY.
Sintaksis	Sintaksis (gr. syntaxis–tuzish, qurish)ning asosi gap haqidagi ta’limotdir. Gaplar, aslida, soʻzlarning erkin birikuvlariga ham asoslanganligi tufayli soʻzlarning bogʻlanish qonuniyatlari, soʻz birikmalari ham sintaksisda oʻrganiladi.	Синтаксис (др.-греч. σύν-ταξις–составление)– раздел лингвистики, изучающий строение и функциональное взаимодействие различных частей речи в предложениях, словосочетаниях и пр. языковых единицах. Является составной частью грамматики. Исследуемые в рамках синтаксиса вопросы тесно соприкасаются с областью изучения морфологии.	Syntax. The relation between a unit and other units (inner relations between units). No unit can be used independently; it serves as an element in the system of other units. This kind of meaning is called syntactic . Formal relation of units to one another is studied by syntactics (or syntax).
Morfema	leksemadan ajralgan holda oʻz mohiyatini namoyon qila olmaydigan, shakl va denotativ boʻlmagan mazmunning birligidan iborat boʻlgan kichik lisoniy birlikdir.	(от др.-греч. морф? «форма») — мельчайшая значимая единица языка, выделяемая в составе слова и выполняющая функции словообразования и формообразования (словоизменения). Понятие морфемы в науку ввёл Иван Александрович Бодуэн-де Куртенэ. Если фонема неделима с точки зрения формы, то морфема неделима с точки зрения содержания. Морфема — двусторонняя единица, одна	Morpheme is the smallest unit of language that has some meaning (by definition, given by the American linguist Leonard Bloomfield in 1933). The term was introduced by IA Baudouin de Courtenay. The division of morphemes into parts leads only to the isolation of insignificant elements - phonemes.

		из её сторон — семантическая, то есть план содержания (означаемое), другая — фонетическая или графическая форма, то есть план выражения (означающее).	
Qo`shimcha	leksemadan ajralgan holda o`z mohiyatini namoyon qila olmaydigan, shakl va denotativ bo`lmagan mazmunning birligidan iborat bo`lgan kichik nutqiy birlikdir.	Аффикс — вспомогательная часть слова, присоединяемая к корню и служащая для словообразования и выражения грамматических значений. Не может самостоятельно образовывать слово (в русском языке) — только в сочетании с корнями. В отличие от некоторых корней (как, например, <i>почтамт, с теклярус</i>), не бывают единичными, встречающимися только в каком-то одном слове.	The affix (also formant or format) is a morpheme that joins the root and serves to form words. Affixes can be word-building (like English -ness and pre-) and flexion (like -s and -ed). The affix is a bound morpheme (a morpheme that does not coincide with the stem in at least one word form of an unofficial word, eg, kindness, unlikely). Prefixes and suffixes can be separable affixes.
Sintaksisning o`rganish manbayi	Sintaksisning o`rganish manbayi – lison-nutq qarama-qarshiligi asosida farqla nuvchi nutqiy sintaktik birliklar va lisoniy sintaktik birliklar. Lison bosqichi da bu til sathining o`rganish manbayi so`z birikmasi va gap hosil qiluvchi lisoniy-sintak tik qurilish qoliplaridir.	Объект исследования синтаксиса. Синтаксис изучает предложение – его строение, грамматические свойства и типы, а также словосочетание – минимальное грамматически связанное объединение слов. В таком смысле можно говорить о синтак	Syntax deals with the way words are combined. It is concerned with the external functions of words and their relationship to other words within the linearly ordered units – word-groups, sentences and texts. Syntax studies the way in which the units and

		сисе предложения и синтаксисе словосочетания.	their meanings are combined. It also deals with peculiarities of syntactic units, their behavior in different contexts.
Sintaksisning bo`limlari	Sintaksisning bo`limlari deganda o`rganish obyektiga ko`ra ajratiladigan ikki bo`lim: so`z birikmasi (SB) sintaksisi va gap sintaksisi tushuniladi.	Разделы синтаксиса. Разделами синтаксиса являются: синтаксис словосочетания и синтаксис предложения.	The syntactical level has two level units as well: 1. The word-group – the dependent syntactic unit; 2. The sentence – the main communicative unit.
Gap sintaksisi	Gap sintaksisi. So`zlovchi uchun fikr ifodalash va axborot uzatish, tinglovchi uchun axborot qabul qilish vositasi sanal mish gap va uning qurilishi, tuzilishi, tarkibiy qismlari va mazmuni bilan aloqador jihatlarni o`rganadigan bo`lim gap sintaksisi sanaladi.	Синтаксис предложения – качественно новая ступень в общей языковой системе, определяющая языковую сущность, коммуникативно-функциональную значимость языка. Синтаксис предложения строится на изучении единиц коммуникативного плана. Связи и отношения форм слова и словосочетаний в составе предложения подчиняются целям коммуникации, поэтому они отличны от связей и отношений между компонентами словосочетания.	In non-functional linguistics, a sentence is a textual unit consisting of one or more <u>words</u> that are grammatically linked. In functional linguistics, a sentence is a unit of written texts delimited by graphic features such as upper case letters and markers such as periods, question marks, and exclamation marks. This notion contrasts with a clause , which is delimited by phonologic features such as pitch and loudness and markers such as pauses; and with a clause , which is a sequence of words that represents some process going on throughout time.
Gap	Gap kishilar orasida	Предложение – это	It is rather difficult

	<p>fikr, axborot uzatish uchun ishlatiladigan asosiy birlik bo`lib, fikr ifodalashning eng oddiy va tipik ko`rinishidir.</p>	<p>единица языка, которая представляет собой <u>грамматически</u> организованное соединение <u>слов</u> обладающее <u>смысловой</u> и <u>интонационной</u> законченностью. С точки зрения <u>пунктуации</u>, предложение как законченная единица речи оформляется в конце <u>точкой</u>, <u>восклицательным</u> или <u>вопросительным</u> <u>знаками</u> – или <u>многоточием</u>. Также предложение является синонимом «<u>фразы</u>».</p>	<p>to define the sentence as it is connected with many lingual and extra lingual aspects – logical, psychological and philosophical. We will just stick to one of them - according to academician G.Pocheptsov, the sentence is the central syntactic construction used as the minimal communicative unit that has its primary predication, actualises a definite structural scheme and possesses definite intonation characteristics.</p>
<p>Sintaktik aloqa</p>	<p>Sintaktik aloqa mustaqil so`zlarning nutq jarayonidagi erkin bog`lanishidir. M.: <i>O`zbekiston kelajagi buyuk davlat. Qizil gul.</i> Sintaktik birliklar bir necha a`zoli bo`ladi. Faqat gap bir a`zoli bo`lishi mumkin. Nutqda so`zlarning bir-biri bilan bog`lanishi har bir tilning LSQlari, leksemalar ning birikish imkoni yatlari asosida sodir bo`ladi.</p>	<p>Синтаксическая связь служит для выражения зависимости и взаимозависимости элементов словосочетания и предложения и формирует синтаксические отношения, т. е. те разновидности синтаксического соответствия, которые регулярно выявляются в синтаксических единицах независимо от их уровня. Н.: в результате подчинительной связи согласования в сочетании каменный дом рождаются атрибутивные отношения между формами слов в данной синтаксической единице.</p>	<p>Syntactic relations are syntagmatic relations observed between syntactic units. They can be one of three types – coordination, subordination and predication.</p>

<p>Tizim</p>	<p>Tizim. O`zaro bog`langan va shartlangan ikki va undan ortiq elementlarning munosabatidan tashkil topgan va yangi sifatga ega bo`lgan barqaror butunlik tizim (sistema)dir.</p>	<p>Система. Система (от др.-греч. σύστημα – целое, составленное из частей; соединение) – <u>множество элементов</u>, находящихся в отношениях и связях друг с другом, которое образует определённую целостность, <u>единство</u>.</p>	<p>System implies the characterization of a complex object as made up of separate parts (e.g. the system of sounds). Language is a structural system. System a structured set of elements connected by a common function.</p>
<p>Til</p>	<p>Til. Til sof lisoniy qobiliyat va imkoniyat bo`lib, tafakkurni shakllantirishga (kodlashtirishga), xotirada qat'iy sistema tuzib saqlashga, axborotni uzatish va qabul qilishga imkoniyat beruvchi muhim (birlamchi) insoniy ijtimoiy-ruhiy kommunikatsiya vositasi hisoblanadi.</p>	<p>Язык – сложная <u>знаковая система</u>, естественно или искусственно созданная и соотносящая понятийное содержание и типовое звучание (написание). <u>Термин</u> «язык», понимаемый в широком смысле, может применяться к произвольным знаковым системам, хотя чаще он используется для более узких классов знаковых систем.</p>	<p>Language is a collective body of knowledge, it is a set of basic elements, but these elements can form a great variety of combinations. In fact the number of these combinations is endless.</p>
<p>Til tizimi</p>	<p>Til tizimi. O`zaro bog`langan va shartlangan ikki va undan ortiq elementlarning munosabatidan tashkil topgan va yangi sifatga ega bo`lgan barqaror butunlik sistema sanalar ekan, til birliklari voqelanish xususiyatiga ko`ra ham, tuzilish (ontologik) tabiatiga ko`ra ham sistema sanaladi.</p>	<p>Языковая система, система языка – множество элементов <u>языка</u>, связанных друг с другом теми или иными отношениями, образуящее определённое <u>единство</u> и целостность. Каждый компонент языковой системы существует в противопоставлении другим элементам, что наделяет его <u>значимостью</u>. Представление о системе языка включает в себя понятия <u>уровней языка</u>, <u>единиц</u></p>	<p>System. Language is regarded as a system of elements (or: signs, units) such as sounds, words, etc. These elements have no value without each other, they depend on each other, they exist only in a system, and they are nothing without a system. System implies the characterization of a complex object as made up of separate parts (e.g. the system of sounds). Language is a</p>

		<p><u>языка, парадигматики</u> и <u>синтаг матики,</u> <u>языкового</u> <u>знака, синхронии</u> и <u>диахронии</u>. Языковая система имеет <u>иерархическую</u> структуру: единицы более высоких уровней представ ляют собой сочетания единиц низших уровней.</p>	structural system.
Lison	<p>Lison UMIS tabiatli lisoniy birliklarning serqirra, ko'p qavatli sathlaridan tashkil topgan barqaror, tashqi muhit ta'siriga o'ta sezgir, o'zgarish, rivojlanish va moslashish immanent qobiliyatini o'z ichida mujassam lashtirgan murakkab qurilishli iyerarxik sistemadir. Lison deyilganda ma'lum bir jamiyatning barcha a'zolari uchun avvaldan tayyor holga keltirib qo'yilgan, hamma uchun umumiy va majburiy fikrni ifodalash va boshqa maqsad uchun xizmat qiladigan birliklar hamda bu birliklarning o'zaro birikish qonuniyatlarini yig'indisi tushuniladi.</p>	<p>Язык – сложная <u>знаковая система</u>, естественно или искусственно созданная и соотносящая понятийное содержание и типовое звучание (написание). <u>Термин</u> «язык», понимаемый в широком смысле, может применяться к произвольным знаковым системам, хотя чаще он используется для более узких классов знаковых систем.</p>	<p>Language is a collective body of knowledge, it is a set of basic elements, but these elements can form a great variety of combinations. In fact the number of these combinations is endless.</p>
Me'yor	<p>Me'yor – lisonning ichki qurilish tizimiga nisbatan tashqi omil bo'lib, lisoniy imkoniyat – sinonimik qator, lisoniy birliklarning dublet, allovariant va variantlari, sohaviy birliklardan har birining voqelanish o'rne va xusiyatini belgilaydi. Bu</p>	<p>Норма – исторически обусловленная совокупность общеупотребительных <u>языковых</u> средств, а также правил их отбора и использования, признаваемые обществом наиболее пригодными в конкретный</p>	<p>Norm, Linguistic the historically determined aggregate of linguistic means in common use in a given language; also, the rules governing the choice and use of such means – rules that have</p>

	<p>tushuncha til tizimida lison va nutqning aloqadorligini ta'minlovchi asosiy tushunchadir.</p>	<p>исторический период. Норма является одним из существенных свойств языка, обеспечивающих его функционирование и историческую преемственность за счёт свойственной ей устойчивости, хотя и неисключающей <u>вариантности</u> языковых средств и заметной исторической изменчивости, поскольку норма призвана, с одной стороны, сохранять речевые традиции, а с другой – удовлетворять актуальным и меняющимся потребностям общества.</p>	<p>become generally accepted by a specific linguistic community during a specific historical period. The linguistic norm is one of the essential characteristics of a language, ensuring its functioning and historical continuity. Literary norms represent a special kind of linguistic norm. They become established during the evolution of a literary language in the course of national development. The specific features of the norms of a developed literary language are the relative stability and unity of linguistic means and their rich functional and stylistic differentiation.</p>
<p>Nutq</p>	<p>Nutq. Substantial tilshunoslik nazariyotchilari – H. Ne'matov, B. Mengliyev, R. Sayfullayeva, M. Qurbonova, M. Abuzalova qarashlarida nutq-lisonning me'yor elagidan o'tgan muayyan moddiy (yozma, og'zaki, tasviriy, imo-ishora, signal v.h.) shakllaridan birida voqelanishi hisoblanadi.</p>	<p>Речь – исторически сложившаяся форма <u>общения</u> людей посредством <u>языковых</u> конструкций, создаваемых на основе определённых правил. Процесс речи предполагает, с одной стороны, формирование и формулирование мыслей языковыми (речевыми) средствами, а с другой стороны –</p>	<p>Speech is closely connected with language, as it is the result of using the language, the result of a definite act of speaking. Speech is individual, personal while language is common for all individuals. To illustrate the difference between language and speech let us compare a definite</p>

		<p><u>восприятие</u> языковых конструкций и их <u>понимание</u>. Таким образом, речь представляет собой психолингвистический процесс, устную форму существования человеческих языков.</p>	<p><i>game of chess</i> and a <i>set of rules</i> how to play chess.</p>
<p>Lison-nutq ziddiyati (qarama-qarshiligi)</p>	<p>Lison - nutq ziddiyati (qarama-qarshiligi). Lison-nutq ziddiyati til birligining bir butun holda, ammo lisoniy va nutqiy jihatlarini qiyosan o`rganilishi ni taqozo etuvchi substansial tahlil ning bosh tamoyili. Bu tamoyil F.de Sossyur tomonidan aniqlangan til-nutq dixotomiyasi ning sistem-struktur tilshunoslikda qo`llanilishi va mantiqiy rivojlantirilishi asosida shakllangan.</p>	<p>Язык-речь. Возникает очень важная проблема: язык и речь. Разграничение понятий «язык» и «речь» впервые в четкой форме было выдвинуто и обосновано швейцарским лингвистом Ф. де Соссюром, крупнейшим теоретиком в области общего языкознания. Эти понятия были более глубоко разработаны другими учеными, в частности акад. Л.В.Щербой. Для Соссюра, в частности, соотнесены три понятия: речевая деятельность, язык, речь.</p>	<p>Language is opposed to speech and accordingly language units are opposed to speech units. The language unit phoneme is opposed to the speech unit – sound: phoneme /s/ can sound differently in speech - /s/ and /z/. The sentence is opposed to the utterance; the text is opposed to the discourse.</p>
<p>O'zak</p>	<p>Har bir so`zshaklda ishtirok etishi shart bo`lgan, lug`aviy ma`no ifodalovchi qism.</p>	<p>Основа — неизменяемая часть слова, которая выражает его лексическое значение.</p>	<p>The basis is the unchangeable part of the word, which expresses its lexical meaning.</p>
<p>Grammatik ma`no</p>	<p>Har bir tilning qurilish tizimi nutqda ifodalanishini zaruruy va majburiy deb talab etadigan va turli xil shakliy ko`rinishlar bilan beriladigan umumlashgan ma`nolardir. Grammatik ma`no-lug`aviy ma`no</p>	<p>Грамматическое значение — значение, выражаемое словоизменяющей морфемой (грамматическим показателем). Разница между лексическими и грамматическими значениями (каждое из</p>	<p>Grammatical meaning is the meaning expressed by inflectional morpheme (grammatical index). The difference between lexical and grammatical meanings (each of these rules is not absolute and has counterexamples): Grammatical meanings</p>

	ustidagi ustama ma'no.	<p>этих правил не абсолютно и имеет контрпримеры): грамматические значения не универсальны, менее многочисленны, образуют замкнутый, более чётко структурированный класс.</p> <p>Грамматические значения, в отличие от лексических, выражаются в обязательном, «принудительном» порядке. Например, говорящий по-русски не может «уклониться» от выражения категории числа глагола, говорящий по-английски — от категории определённости существительного и т. д.</p>	<p>are not universal, less numerous, form a closed, more clearly structured class. Grammatical meanings, in contrast to lexical ones, are expressed in mandatory, "compulsory" order. For example, a speaker in Russian can not "evade" from expressing the category of the verb number, speaking in English - from the category of the definiteness of the noun, and so on.</p>
Sintaktik birliklar	<p>Sintaktik birliklar. So`z birikmasi va gap sintaksisning asosiy birliklaridir. Lison-nutq ziddiyati asosida nutqiy sintaktik birliklar va lisoniy sintaktik birliklar farqlanadi.</p>	<p>Синтаксические единицы. Словосочетание рассматривается как единица синтаксиса, которая выполняет коммуникативную функцию (входит в речь) только в составе предложения. Обще-признано, что к словосочетаниям относятся соединения слов на основе подчинительной связи. Другой основной синтаксической единицей является предложение. Предложение — это минимальная единица человеческой речи, представляющая собой грамматически организованное</p>	<p>The syntactical level has two level units as well:</p> <p>3. The word-group – the dependent syntactic unit;</p> <p>4. The sentence – the main communicative unit.</p>

		соединение слов, обладающее известной смысловой и интонационной законченностью.	
S i n t e t i k shakllar	Lug'aviy shakl va aloqa - munosabat qo'shimchalari vositasida yasaladigan shakllar.	Синтетическая форма (от греч. <i>synthetikos</i> из <i>synthesis</i> — соединение, составление) — это морфологическая форма словообразования или словоизменения, в которой грамматические значения выражаются при помощи флексий и аффиксов без использования дополнительных слов. Синтетическая форма противопоставляется аналитической форме, когда в процессе словообразования к исходному слову добавляются одно или несколько вспомогательных слов.	Synthetic form (from the Greek <i>synthetikos</i> of <i>synthesis</i> is a compound, compilation) is a morphological form of word formation or inflection, in which grammatical meanings are expressed by means of inflexions and affixes without the use of additional words. The synthetic form is opposed to the analytical form, when one or more auxiliary words are added to the original word during the process of word formation.
Ko'plik son	Bu shakl ot turkumiga mansub leksemalarda "belgilanmagan miqdor" semasini muayyanlashtiradi.	Множественное число (часто используется сокращение мн. ч.) — грамматическое число, используемое при обозначении нескольких предметов, объединённых по какому-либо признаку (однородных предметов).	Plural (often abbreviated as plural) is a grammatical number used for the designation of several objects united by some feature (homogeneous objects).
Kelishiklar	So'zlarni o'zaro bog'lashga xizmat qiluvchi aloqa-munosabat shakllaridan bo'lib, asosan, tobe so'zni hokim so'zga bog'laydi.	Падёж в языках флективного (синтетического) или агглютинативного строя — словоизменяемая грамматическая категория именных и местоимённых частей речи (существительных,	The case in the languages of the inflective (synthetic) or agglutinative system is the inflectional grammatical category of the nominal and pronoun parts of speech (nouns, adjectives,

		прилагательных, числительных) и близких к ним гибридных частей речи (причастий, герундиев, инфинитивов и проч.), выражающая их синтаксическую и/или семантическую роль в предложении.	numerals) and the hybrid parts of speech (participles, gerunds, infinitives, etc.) that are close to them, expressing their syntactic and / or semantic role in the sentence.
Lisoniy sintaktik qolip	Lisoniy sintaktik qolip (qisqacha – LSQ). Inson ongida soʻzlash, nutqni shakllantirish maqsadida leksema larni soʻz birikmalari shakliga keltirish, gap hosil qilish qoliplari mavjud. Ular LSQlar, modellar, konstruksiyalar, qurilmalar tarzida nomlanadi, biroq bu atamalar bir tushunchani ifodalaydi. M.: <i>kitobni oʻqimoq, xatni yozmoq</i> kabi cheksiz birikmalarni yuzaga chiqaradigan [O ^{t.k.} ~F]=SB qolipi, qanday nomlanmasin, bu uning mohiyatiga taʼsir qilmaydi.	Синтаксические модели языка Модель (франц. <i>modèle</i> е, от лат. <i>modulus</i> — мера) в <u>языкознании</u> — 1) искусственно созданное лингвистом реальное или мысленное устройство, воспроизводящее, имитирующее с воим поведением (обычно в упрощённом виде) поведение какого-либо другого («настоящего») устройства (<i>оригинала</i>) в лингвистических целях.	The model is an abstract representation of reality in some form (for example, in mathematical, physical, symbolic, graphic or descriptive) intended to represent certain aspects of this reality and allows to obtain answers to the questions under study.
Paradigma	Umumiy belgilari asosida birlashgan va bir-birini taqozo etadigan, ammo har bir oʻziga xos belgilari bilan boshqasiga qarama-qarshi turuvchi lisoniy birliklar tizimi.	ПАРАДИГМА в языкознании , система форм одного слова, отражающая видоизменения слова по присущим ему грамматическим категориям; образец типа склонения (см. СКЛОНЕНИЕ (в грамматике)) или спряжения (см. СПРЯЖЕНИЕ). Понятие « парадигма » употребляется также в словообразовании, лексикологии и синтаксисе.	Paradigm (from Greek: <i>παράδειγμα</i> , "example, model, pattern") - inflectional paradigm - in linguistics a list of word forms belonging to one lexeme and having different grammatical meanings. Usually presented in the form of a table. Ferdinand de Saussure used this term to refer to a class of elements

			having similar properties. The word παράδειγμα in Greek means "example, model, pattern"; the inflectional paradigm is a model of how the inflectional forms are constructed for whole classes of lexemes (declensions of nouns, conjugations of verbs, etc.)
Valentlik	Valentlik (birikuvchanlik) aslida kimyoviy atama bo`lib, tilshunoslikda lisoniy birliklarning amalga oshmagan birikuvchanlik-biriktiruvchanlik imkoniyatlari sifatida qaraluvchi lisoniy hodisaga nisbatan qo`llanadi.	Валентность (от лат. <i>valentia/valens</i> (род.п. <i>valentis</i>) – «имеющий силу») в <u>синтаксисе</u> – способность <u>слова</u> вступать в <u>синтаксические связи</u> с другими элементами, например, валентности глагола <i>дать</i> определяют способность сочетаться с <u>подлежащим</u> , прямым дополнением, косвенным <u>дополнением</u> : <i>Я даю ему книгу</i> . Термин «валентность» в <u>лингвистике</u> используется также для обозначения особенностей того или иного <u>глагола</u> вступать с <u>зависимыми словами</u> в определенную грамматическую связь.	Valency . The formation of the subordinate word-group depends on the valency of its constituents. Valency is a potential ability of words to combine. Actual realization of valency in speech is called combinability. Valency the ability of a language unit to take an adjunct, potential combinability of a language unit.
Ma`noviy birikuvchanlik	Ma`noviy birikuvchanlik. Ma`noviy birikuvchanlik biriktiruvchi leksemaning ma`noviy jihatdan o`ziga mos birikuvchilarni tanlashidir. Masalan, [o`ylamoq] leksemasi	Семантическая валентность – способность данного слова связываться синтаксически с любым словом, в значение которого входит определенный семантический признак. Лексическая	Lexical valency . The aptness of a word to appear in various combinations with other words is called <i>lexical valency or collocability</i> . The noun 'myth', for example, may be a component of such word-groups, as 'to

	<p>[gul]leksemasini o`ziga torta olmaydi, [gul]leksemasi [o`ylamoq] leksemasidagi birorta ham bo`sh o`ringa tusha olmaydi. Chunki ularda ma`noviy muvofiqlik mavjud emas.</p>	<p>валентность – способность данного слова синтаксически связываться со словами из ограниченного списка, при этом несущественно, есть у них общие семантические признаки или нет.</p>	<p>create a myth, to dispel a myth, to explode a myth, myths and legends, etc.’ Lexical valency is of special importance when it concerns differentiation of meanings of a polysemantic word. The range of the lexical valency of words is linguistically restricted by the inner structure of the English word-stock. Though the verbs ‘lift’ and ‘raise’ are synonyms, only ‘to raise’ is collocated with the noun ‘question’.</p>
<p>Morfologik birikuvchanlik</p>	<p>Morfologik birikuvchanlik. Leksemalarga grammatik shakllar qo`shilganda ularning birikuvchilari sirasini kengaytiruvchi yoki toraytiruvchi valentlik imkoniyatlari morfologik birikuvchanlikdir.</p>	<p>Морфологическая валентность – способность лексемы сочетаться со словами определенного класса или с отдельным словом в определенной <u>грамматической форме</u>.</p>	<p>Grammatical valency is the aptness of a word to appear in specific grammatical or rather syntactic structures. The minimal grammatical context in which words are used to form word-groups is usually called the pattern of the word-groups. For example, the verb ‘to offer’ can be followed by the infinitive and the noun (‘to offer to do something; to offer a job’). Its synonym the verb ‘to suggest’ has a different grammatical valency; it can be followed by the gerund and by the noun (‘to suggest</p>

			doing something, to suggest an idea’).
Sintaktik birikuvchanlik	Sintaktik birikuvchanlik. Sintaktik birikuvchanlik leksema valentligining ikkinchi tomoni bo`lib, u hokim mavqedagi leksemaning tobe leksemalarni o`ziga tortish uchun ularning ma`lum bir sintaktik shaklda, ya`ni kelishik, ko`makchi, ravishdosh, sifatdosh qo`shimchalarini olgan holda bo`lishini talab qilishidir.	Синтаксическая валентность – совокупность и свойства потенциально возможных при слове <u>синтаксических связей</u> , набор и условия реализации синтаксических связей.	Grammatical valency is the aptness of a word to appear in specific grammatical or rather syntactic structures. The minimal grammatical context in which words are used to form word-groups is usually called the pattern of the word-groups. For example, the verb ‘to offer’ can be followed by the infinitive and the noun (‘to offer to do something; to offer a job’).
Kesim	Kesim. Gapning markazi va uyushtiruvchisi maqomida kesim [AB+Kk]dan iborat yzv (bo`lak)dir. [AB+Kk]=K–kesim ning lisoniy mohiyati ifodalangan formula. (AB–atov birligi, Kk–kesimlik ko`rsatkichi.)	Сказуемое. При установлении типологии сказуемого учитываются основные признаки, связанные с его семантикой и способами формального выражения. Семантическим ядром сказуемого как члена предложения, противопоставленного подлежащему, является обозначение действия или признака в широком смысле.	There are two competing notions of the predicate in theories of <u>grammar</u> . The competition between these two concepts has generated confusion concerning the use of the term <i>predicate</i> in theories of grammar. This article considers both of these notions. The first concerns <u>traditional grammar</u> , which tends to view a predicate as one of two main parts of a <u>sentence</u> , the other part being the <u>subject</u> ; the purpose of the predicate is to complete an idea about the subject,

			such as what it does or what it is like.
Kesimlik kategoriyasi	Kesimlik kategoriyasi mazmun jihatidan tasdiq-inkor (T), so`zlovchining bayon etilgan fikrga bildirgan munosabati (M), zamon (Z) va shaxs-son (Sh) ma'nolaridan tarkib topadi. (Bu shartli ravishda, qisqacha T, M, Z, Sh tarzida belgilanadi.)	Категория сказуемости отсутствует в русском языке.	
Kesim turlari	Kesim turlari. Kesim erkin voqelanish va voqelana olmaslik xususiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi: mustaqil kesim va nomustaqil kesim.	Виды сказуемого. Глагольное сказуемое, формально уподобленное подлежащее му, – это формы глагола любого наклонения, времени и лица. Простое глагольное сказуемое считается осложненным, если оно выражено двумя глаголами ми, из которых один лексически неполноценен, или двумя повторяющимися глаголами. Именное сказуемое состоит из глагольной связки в личной форме именной части. Сказуемое может быть смешанным , т. е. состоять из глаголов и имен. Такие сказуемые объединяют признаки составного глагольного и составного именного сказуемого.	The predicate is one of the two main parts of a <u>sentence</u> (the other being the <u>subject</u> , which the predicate <u>modifies</u>). The predicate must contain a verb , and the verb requires or permits other elements to complete the predicate, or it precludes them from doing so. These elements are <u>objects</u> (direct, indirect, prepositional), <u>predicatives</u> , and <u>adjuncts</u> : <i>She dances.</i> – verb-only predicate. Ben reads the book. – verb-plus-direct-object predicate. A noun used in the predicate with a copulative verb or a factitive verb and having the same referent as the subject of the copulative verb or the direct object of the factitive verb, as in <i>She is the mayor</i> or <i>They elected her mayor</i> .

ILOVALAR

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

Рўйхатга олинди:

№ БД – 5120100 – 3.01

2016 йил “9” 01



ҲОЗИРГИ ЎЗБЕК ТИЛИ

ФАН ДАСТУРИ

Билим соҳаси: 100000 – Гуманитар соҳа

Таълим соҳаси: 120000 – Гуманитар фанлар

Таълим йўналиши: 5120100 – Филология ва тилларни ўқитиш
(Ўзбек филологияси)

Тошкент – 201_

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2016 йил “22” 01 даги “26”-сонли буйруғининг _____-иловаси билан фан дастури рўйхати тасдиқланган.

Фан дастури Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълими йўналишлари бўйича Ўқув-услубий бирлашмалар фаолиятини Мувофиқлаштирувчи Кенгашининг 2016 йил “9” 01 даги 1 - сонли баённомаси билан маъқулланган.

Фан дастури Ўзбекистон Миллий университетида ишлаб чиқилди.

Тузувчилар:

- Менглиев Б.Р. – ЎзМУ Ўзбек тилшунослиги кафедраси мудир, филология фанлари доктори, профессор
- Қурбонова М.М. – ЎзМУ Ўзбек тилшунослиги кафедраси профессори, филология фанлари доктори

Такризчилар:

- Мухамедова С.Х. – ТДПУ Умумий тилшунослик кафедраси мудир, филология фанлари доктори
- Абдурахмонова М.Т. – ЎзМУ Ўзбек тилшунослиги кафедраси доценти, филология фанлари номзоди

Фан дастури Ўзбекистон Миллий университети Кенгашида кўриб чиқилган ва тасвир килинган (2015 йил “21” 11 даги 3 - сонли баённома).

Кириш

Дастур ҳозирги ўзбек тилидаги лисоний ва нутқий сатҳларни изчил фарқлаб, лисоний система сатҳлари ва бирликлари, бу бирликларнинг ўзаро муносабатларини тил имкониятлари сифатида тавсифлайди, бу имкониятларнинг нутқий воқеланишини лисоний ва нолисоний омиллар яхлитлигида талкин қилиш масалалари таълимни системалаштиради. Олий таълим ДТС асосида ўзбек тилининг лисоний сатҳлари бўйича бериладиган маълумотларни тилшуносликнинг тегишли бўлимларига мос равишда тартиблаштиради.

Фаннинг мақсади ва вазифалари

“Ҳозирги ўзбек тили” курси таълимнинг мақсади Давлат таълим стандартлари асосида бўлажак филологларга ҳозирги ўзбек тилининг лисоний қурилиши ва имкониятлари ҳамда уларнинг нутқий қўлланилиши масалалари бўйича системали илмий–назарий маълумот беришдан иборат бўлиб, таълим олувчиларда қайд этилган масалалар бўйича билим, кўникма ва малакаларни шакллантириш унинг асосий вазифаларини ташкил этади.

Фан бўйича билим, кўникма ва малакага қўйиладиган талаблар

Ҳозирги ўзбек тили ўқув фанини ўзлаштириш жараёнида амалга ошириладиган масалалар доирасида бакалавр ҳозирги ўзбек тилининг шаклланиш тарихи, шеваларга муносабати, лисоний сатҳлари, лисоний парадигмалари, лисоний бирликларининг субстанциал имкониятлари, лисоний муносабатлар, лисоний тасниф асослари, лисоний бирликлари субстанциал имкониятларининг нутқий воқеланиши, имло қоидалари ва талаффуз меъёрлари, фонетикаси, лексикаси, морфемикаси, сўз ясалиши, морфологияси, синтаксиси, пунктуацияси ҳақида тасаввурга эга бўлиши кўзда тутилди. Шунингдек, ҳозирги ўзбек тили сатҳлари ва уларнинг бирликларини фарқлаш тамойилларини, лисоний муносабат ҳамда унинг турларининг илмий асосларини, лисоний бирликлар субстанциал имкониятларини аниқлаш усулларини, фонетик, лексик, грамматик имкониятларини аниқлаш асосларини, субстанциал имкониятларининг нутқий воқеланишида лисоний, шахсий ва прагматик омиллар роли ва ҳамкорлигининг илмий асосларини, имло, талаффуз ва пунктуацияси меъёрларининг илмий мезонларини билиши ва улардан фойдалана олиши малакасини эгаллашлари таълимнинг хал қилувчи вазифаларидир. Пировардида ҳозирги ўзбек тилида лисон, нутқ ҳамда улар бирликларини фарқлаш асосларини шарҳлай олиш, лисоний ва нутқий бирликларини ажратиш мезонларини тушунтира олиш, бирликлар орасидаги лисоний муносабатларни тавсифлай олиш, лисоний имкониятларини нутқий вазият ва

шароитта боғлиқ равишда самарали ишга солиш кўникмаларига эга бўлиши керак.

Фаннинг ўқув режадаги бошқа фанлар билан ўзаро боғлиқлиги ва услубий жиҳатдан узвийлиги

Курсни ўзлаштириш учун қуйи таълим бўғинларидаги “Ҳозирги ўзбек адабий тили” ва олий таълимдаги “Тилшуносликка кириш” фанлари бўйича эгалланган маълумотлар замин вазифасини ўтайди.

“Ҳозирги ўзбек тили” курси бакалаврият босқичидаги “Қадимги туркий тил”, “Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси”, “Ўзбек диалектологияси”, “Умумий тилшунослик”, “Она тили ўқитиш методикаси”, “Ўзбек тили стилистикаси”, шунингдек, магистратура босқичидаги “Назарий тилшунослик масалалари”, “Прагматингвистика”, “Матн тилшунослиги”, “Психоллингвистика”, “Лингвокультурология” каби ўқув курслари таълимга асос бўлиб хизмат қилади.

Асосий қисмда (маъруза) курс мавзулари маънавий кетма-кетликда келтирилади. Ҳар бир мавзунинг моҳияти асосий тушунчалар ва тезислар орқали очиқ берилди. Бунда мавзу бўйича талабаларга ДТС асосида етказилиши зарур бўлган билим ва кўникмалар тўла камраб олиниши керак.

Асосий қисм сифатига қўйиладиган талаб мавзуларнинг долзарблиги, уларнинг иш берувчилар талаблари ва ишлаб чиқариш эҳтиёжларига мослиги, мамлакатимизда бўлаётган тил таълими соҳасидаги ўзгаришлар, тил имкониятларини эгаллашни такомиллаштириш, таълим ва бошқа соҳалардаги ислохотларнинг устувор масалаларини камраб олиши ҳамда фан ва технологияларнинг сўнгги ютуқлари эътиборга олиниши тавсия этилади.

Фаннинг ишлаб чиқаришдаги ўрни

Талабаларнинг ўзбек тилшунослиги фани бўйича ўрта ва ўрта махсус таълим муассасарида олган билимларини чуқурлаштириш, кенгайтириш; ўзбек тилшунослигида қўлланиладиган атамаларни ўзлаштириш, ҳозирги ўзбек тили фанининг назарий масалаларини ёритиш; субстанциал йўналиш муаммолари устида ишлаш ва ҳамда прагматик лингвистика масалаларини чуқур ўрганишга даъват этиб, мукамал билимли мутахассис тайёрлаш ҳозирда муҳим аҳамиятга эга.

Фанни ўқитишда фойдаланиладиган замонавий ахборот ва педагогик технологиялар

Талабаларнинг “Ҳозирги ўзбек тили” курсини ўзлаштиришлари учун ўқитишнинг илғор ва замонавий усулларидан фойдаланиш, янги ахборот-педагогик технологияларни татбиқ қилиш катта аҳамиятга эгадир. Курсни ўқитишда таълимнинг дарслик, ўқув ва услубий қўлланмалар, маъруза

матнлари каби асосий, дугатлар, қомуслар, тарқатма, электрон материаллар, кўргазмалар воситалардан, маъруза, семинар ва амалий ва машғулотларида замонавий педагогик технологиянинг “Кластер”, “Аклий ҳужум”, “Кейс-стади”, “Бумеранг”, “Матбуот конференцияси” сингари методлари орқали ҳамда слайдлар, шунингдек, замонавий ахборот технологияларидан-компьютер, электрон дарсликлар, электрон дугатлар ва интернет материалларидан, мультимедия имкониятларидан ҳам унумли фойдаланилади.

Асосий қисм

Фаннинг назарий машғулотлари мазмуни

Қириш

Ҳозирги ўзбек тилининг диалектал таркиби. Ҳозирги ўзбек тилига бошқа тилларнинг таъсири. Ҳозирги ўзбек тили тушунчаси. Унинг лисоний имконият эканлиги ва воқеланиш шакллари: адабий ва ноадабий, оғзаки ва ёзма шакллари, услубий кўринишлари. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг диалектал асослари. Ўзбек тили расмий услуби асосида давлат тили сифатида. *Давлат тили* тушунчаси ва унинг ёндош ҳодисалар (миллий тил, халқ тили, халқаро тил, расмий тил каби) дан фарқи.

Ҳозирги ўзбек тилини илмий ўрганиш босқичлари. XX асргача бўлган ўзбек тил илми. Ўзбек анъанавий тилшунослиги. Ўзбек субстанциал тилшунослиги. Ҳозирги ўзбек тилининг янги лингвистик парадигмаларда илмий талқин қилиниши.

Ҳозирги ўзбек тили сатҳлари: фонетик-фонологик сатҳ, лексик сатҳ, грамматик сатҳ. “Ҳозирги ўзбек тили” фанининг бўлимлари. Тил сатҳлари ва тилшунослик бўлимлари муносабати.

Ҳозирги ўзбек тилида лисон, нутқ, меъёр муносабати. Лисон тилнинг имманент имконияти сифатида. Нутқ тил имкониятларининг лисоний ва нолисоний омиллар таъсирида воқеланган ҳолати эканлиги. Лисоннинг умумийлик, моҳият, имконият, воқелик (УМИС), нутқнинг алоҳидалик, ҳодиса, воқелик, оқибат (АХВО) табиатига эгаллиги. Лисоний ва нутқий бирликлар. Меъёр лисон ва нутқни боғловчи ҳодиса сифатида.

Ҳозирги ўзбек тилида лисоний муносабатларнинг турлари: парадигматик муносабат, синтагматик муносабат, уларнинг хусусиятлари. Парадигматик муносабатларда лисоний зиддиятлар. Ўзбек тили тизимида лисоний зиддиятнинг турлари: нотўлиқ (приватив) зиддият, тенг қийматли (эквивалент) зиддият, даражали (градуал) зиддият, уларнинг хусусиятлари.

Ҳозирги ўзбек тили ҳодисаларини таснифлаш асослари. Тасниф белгиси. Таснифнинг турлари.

Ҳозирги ўзбек тилининг фонетик сатҳи ва фонологияси

Ўзбек тили фонетикаси ва фонологияси тушунчалари. Эмпирик соҳа сифатидаги фонетика назарий соҳа сифатидаги фонологиянинг асоси эканлиги. Ўзбек тили фонологияси ва унинг асосий бирлиги. Фонема ва товуш муносабати, унда лисон ва нутқ муносабатининг аке этиши. Фонеманинг турлари. Ушли фонемалар ва уларнинг субстанциал хусусиятлари, ушли фонемаларни таснифлаш асослари. Ундош фонемалар ва уларнинг субстанциал хусусиятлари, ундош фонемаларни таснифлаш асослари. Фонемаларро лисоний зиддиятларнинг вокеланиши.

Ўзбек тили фонемалари лисоний имкониятларининг нуткий вокеланиши. Нуткий вокеланишда фонема лисоний имкониятларининг нуткий шароит ва вазиятга мослашиши. Фонемаларнинг нуткий вокеланишига таъсир қилувчи лисоний омиллар: ёндош товушлар, ургу, бўғиц, оҳанг ва б. Фонемаларнинг нуткий вокеланишига таъсир қилувчи нолисоний омиллар (нуткий вазият ва шароит, сўзловчи шахс ва б.), уларнинг лисоний омиллар билан уйғунлашуви.

Ҳозирги ўзбек тилининг лексик сатҳи ва лексикология

Лексик сатҳ, унинг хусусиятлари ва бирлиги. Лексема лексик сатҳ бирлиги сифатида. Лексема ва сўз, уларнинг хусусиятлари. Лексема ва сўзда лисон ва нутқ муносабатининг аке этиши. Лексеманинг тузилиши, туб/ясалганлиги, маъно кўлами, генезиси, кўлланиши ва бошқа белгиларига кўра турлари, муносабатлари. Семема ва нуткий маъно, уларнинг турлари ва хусусиятлари, узвал ва окказионал маъно. Сема ва унинг хусусиятлари, семанинг турлари. Лексеманинг нуткий вокеланиши, унга таъсир қилувчи лисоний (морфологик, синтактик) ва нолисоний (нуткий вазият, шароит, шахсий сифатлар) омиллар ҳамкорлиги. Сўзнинг маъновий тараққиёти. Лексема маъносининг торайиши ва кенгайиши. Ҳосила маъно вужудга келиш йўллари ва усуллари: метафора ва вазифадонлик; метонимия ва синекдоха.

Ўзбек тилида лексик-семантик системалар. Лексема – шакл ва маъно унсуридан иборат система сифатида. Лугавий қатор. Лугавий микросистема. Лугавий-маъновий гуруҳ. Лугавий-маъзувий гуруҳ. Лугавий-маъзувий тўда. Лугавий-маъзумий майдон.

Ўзбек тилида парадигматик муносабатлар. Синонимия. Синонимик қатор. Доминантга. Лисоний синонимлар, нуткий синонимлар. Синонимик даражаланиш (градуонимия). Лугавий синонимларнинг марказ ва қуршов қатлами.

Лексик антонимия. Антонимик жуфтлик. Лисоний ва нуткий антонимия.

Омонимлар, омоформалар. Омонимияга ёндош ходисалар: омофонлар ва омографлар. Пароним ва параномазия.

Гипонимия, градуонимия.

Ўзбек тили лексикасида лисоний зиддиятларнинг амал қилиши.

Ўзбек тили лексикасининг тарихий тараққиёти. Ўзбек тили лексикасида эскирган қатлам ва унинг турлари: архаизмлар ва историзмлар. Сўз ўзлаштириш. Ўзлашма ва олинма сўзлар. Сўз олиш йўллари.

Ўзбек тили лексемаларининг ишлатилиш доираси. Ишлатилиш доираси чегараланган ва чегараланмаган лексика. Ишлатилиш доираси чегараланган лексиканинг турлари.

Ўзбек тили лексикасининг эмоционал-экспрессивликка муносабати. Экспрессивликнинг ифодаланиш усуллари.

Ўзбек тилида ономастик лексика, унинг турлари ва таркиби.

Ўзбек тили фразеологияси. Фразема. Фразеологик маъно, унинг турлари. Фразеологик-семантик муносабатлар. Фраземаларнинг нутқий воқеланиши. Фраземанинг нутқий воқеланиши, унга таъсир қилувчи лисоний (морфологик, синтактик) ва нолисоний (нутқий вазият, шароит, шахсий сифатлар) омиллар ҳамкорлиги.

Перифраза. Перифразаларнинг турлари, таркиби, услубий хусусиятлари.

Лексикография. Лўғат ва унинг турлари. Умумий ва махсус, филологик ва қомусий, алифболи ва системали, академик ва таълимий, босма ва электрон, ёпиқ (доимий янгиланмайдиган) ва очик (доимий янгиланиб турадиган) лўғатлар. Ўзбек ўқув лексикографияси муаммолари ва ўқув лўғатлари.

Тил корпуси.

Ўзбек тили морфемикаси, деривацияси ва морфофонологияси

Морфема морфемика бирлиги сифатида. Морфеманинг лексемага муносабати. Морфеманинг хусусиятлари, вариантлари, типлари: деривацион ва грамматик морфемалар. Деривацион морфеманинг турлари. Грамматик морфеманинг турлари: лўғавий шакл ҳосил қилувчи морфемалар, синтактик шакл ҳосил қилувчи морфемалар. Морфемаларда шакл ва маъно муносабатлари. Морфема лисоний имкониятларининг нутқий воқеланиши, унга таъсир қилувчи лисоний (лексик, синтактик) ва нолисоний (нутқий вазият, шароит, шахсий сифатлар ва б.) омиллар ҳамкорлиги.

Ўзбек тили деривацияси ва сўз ясалиши. Сўз ясаш қолипи. Сўз ясаш қолипи УМИС, ясама сўз АХВО сифатида. Сўз ясаш қолипининг турлари: унумли ва унумсиз, махсулдор ва каммахсул қолиплар. Ясама сўзларнинг хусусиятлари, типлари ва турлари. Ясама сўз нутқий, ясалган сўз лисоний ҳодиса эканлиги. Ясама сўз тараққиётида ихтисослашиш, соддалашиш, тублашиш ҳодисалари. Сўз туркумларида ясалиш ва ясама сўзларнинг лексемалашиши. Сўз туркумларининг кўчиши. Сўз туркумларида транспозиция, конверсия ва полифункционаллик. Морфофонология. Лисоний морфонологик альтернативлар. Морфонема – морфонологиянинг тил бирлиги сифатида.

Ҳозирги ўзбек тили грамматикаси Морфология

Грамматиканинг таркибий қисмлари. Морфология, грамматик шаклланган сўз унинг бирлиги сифатида. Ўзбек тилида лексемани грамматик шакллантирувчи восита ва унинг турлари. Грамматик маъно, унинг турлари: морфологик ва синтактик маъно, умумий, оралик ва хусусий грамматик маъно, категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно, уларнинг хусусиятлари ва турлари.

Ўзбек тили грамматик (морфологик) категориялари ва уларнинг турлари: лугавий шакл ҳосил қилувчи категориялар, лугавий-синтактик шакл ҳосил қилувчи категориялар, синтактик шакл ҳосил қилувчи категориялар. Грамматик шакл лисоний имкониятларининг нутқий воқеланиши, унга таъсир қилувчи лисоний (лексик, синтактик) ва полисоний (нутқий вазият, шароит, шахсий сифатлар ва б.) омиллар ҳамкорлиги.

Ўзбек тилида сўз туркумлари. Сўзларни туркумлаш тамойиллари, тасниф асослари. Мустақил сўз туркумлари, уларнинг ўрганилиш тарихига шарҳ. Мустақил сўз туркумларининг хусусиятлари, тиллари: ўзгарувчи ва ўзгармас туркумлар, гайриоддий маъноли туркумлар (олмош, таклид). Мустақил сўз туркумлари тартиби.

Феъл. Феълнинг мустақил сўз туркуми сифатидаги умумий грамматик хусусиятлари. Феълнинг умумий грамматик маъноси. Феълнинг лугавий-грамматик гуруҳлари. Ўқимли ва ўқимсиз феъллар. Феълнинг нутқдаги турлари: тусланган ва тусланмаган кўринишлари; тузилиш турлари, тўлиқсиз феълларнинг сўз туркумлари системасидаги ўрни.

Феълнинг таснифловчи категориялари. Нисбат категорияси ва унинг шакллари тизими. Нисбат категорияси ва шакллариининг умумий грамматик маъноси уларнинг субстанциал моҳияти сифатида. Нисбат категорияси умумий грамматик маъносининг нутқий воқеланишида лисоний ва полисоний омиллар ҳамкорлиги. Бўлишли-бўлишсизлик категорияси ва шакллариининг умумий грамматик маъноси уларнинг субстанциал моҳияти сифатида. Бўлишли-бўлишсизлик категориясининг тасдиқ-инкор категориясига муносабати. Бўлишли-бўлишсизлик категорияси умумий грамматик маъносининг нутқий воқеланишида лисоний ва полисоний омиллар муносабати.

Феълнинг ўзгаловчи категорияси ва унинг шакллари: сифатдош, равишдош, ҳаракат номи. Ўзгаловчи категория ва шакллари умумий грамматик маъноси уларнинг субстанциал моҳияти сифатида. Бўлишли-бўлишсизлик категорияси умумий грамматик маъносининг нутқий воқеланишида лисоний ва полисоний омиллар муносабати.

Феълнинг ҳаракат тарзи категорияси мураккаб таркибли категория сифатида. [Равишдош+кўмакчи феъл] ҳаракат тарзи категорияси шакли сифатида. Ҳаракат тарзи категорияси ва шакллариининг умумий грамматик

маъноси. Ҳаракат тарзи категорияси умумий грамматик маъносининг нутқий воқеланишида лисоний ва нолисоний омиллар муносабати.

Феълнинг нокатегориал шакллари тизими.

От ва унинг ўрганилиш тарихи. Отнинг мустақил сўз туркуми сифатидаги умумий грамматик хусусиятлари. Отнинг умумий грамматик маъноси. Отнинг луғавий-грамматик гуруҳлари.

Отнинг таснифловчи категорияси. Сон категорияси ва унинг шакллари. Сон категорияси ва шакларининг умумий грамматик маъноси. Сон категорияси умумий грамматик маъносининг нутқий воқеланишида лисоний ва нолисоний омиллар муносабати.

Отнинг нокатегориал шакллари.

Сифат ва унинг ўрганилиш тарихи. Сифатнинг мустақил сўз туркуми сифатидаги умумий грамматик хусусиятлари. Сифатнинг луғавий-грамматик гуруҳлари. Аслий ва нисбий сифатлар.

Даража сифатнинг таснифловчи категорияси сифатида. Даража категорияси умумий грамматик маъносининг нутқий воқеланишида лисоний ва нолисоний омилларнинг уйғунлашуви.

Сифатнинг нокатегориал шакллари: кучайтirma ва озайтirma шакллари.

Сон ва унинг ўрганилиш тарихи. Соннинг мустақил сўз туркуми сифатидаги умумий грамматик хусусиятлари. Соннинг луғавий-грамматик гуруҳлари ва таснифланиши. Сон грамматик шакларининг луғавий маънога таъсир қилиш имкониятлари. Сон шакллари умумий грамматик маъносининг нутқий воқеланишида лисоний ва нолисоний омилларнинг уйғунлашуви. Нумеративлар. Нумеративли бирикувларнинг қолиплари.

Равиш ва унинг ўрганилиш тарихи. Равишнинг мустақил сўз туркуми сифатидаги ўзига хос грамматик хусусиятлари. Ўзгармаслик равишнинг грамматик белгиси сифатида. Равишнинг луғавий-грамматик гуруҳлари.

Таклид ва унинг ўрганилиш тарихи. Таклиднинг мустақил сўз туркуми сифатидаги ўзига хос грамматик хусусиятлари. Ўзгармаслик таклиднинг грамматик белгиси сифатида. Таклиднинг луғавий-грамматик гуруҳлари.

Олмош ва унинг ўрганилиш тарихи. Олмошнинг ўзига хос ишоравий (дейктик) табиати, мустақил сўз туркуми сифатидаги ўзига хос грамматик хусусиятлари. Олмошларнинг матндаги ўрни. Синтактик имкониятлари.

Синтактик шакл ҳосил қилувчи категориялар ва уларнинг турлари: эғалик, келишик ва кесимлик категорияси. Уларнинг умумтуркумий ва синтактик вазифа учун хосланган категориялар эканлиги.

Эғалик категорияси ва унинг шакллари парадигмаси. Эғалик категорияси ва шакларининг умумий грамматик маъноси. Эғалик категориясининг турли мустақил сўз туркумларида қўлланиш хусусиятлари. Эғалик категорияси умумий грамматик маъносининг нутқий воқеланишида лисоний ва нолисоний омиллар ҳамкорлиги.

Келишик категорияси ва унинг шакллари парадигмаси. Келишик категорияси ва шакларининг умумий грамматик маъноси. Келишик категориясининг турли мустақил сўз туркумларида қўлланиш хусусиятлари.

Келишик категорияси умумий грамматик маъносининг нутқий воқеланишида лисоний ва нолисоний омиллар ҳамкорлиги.

Кесимлик мураккаб таркибли категория сифатида. Кесимлик категориясининг таркиби (шахс-сон, замон, тасдиқ/инкор, модаллик категориялари), унинг шакллари парадигмаси. Шахс-сон категорияси ва шакллариининг умумий грамматик маънолари. Замон категорияси ва шакллариининг умумий грамматик маънолари. Тасдиқ-инкор категорияси ва шакллариининг умумий грамматик маънолари.

Кесимлик категорияси ва шакллариининг умумий грамматик маъноси. Кесимлик категориясининг турли мустақил сўз туркумларида қўлланиш хусусиятлари. Кесимлик категорияси умумий грамматик маъносининг нутқий воқеланишида лисоний ва нолисоний омиллар ҳамкорлиги. Боғлама.

Ёрдамчи сўзлар ва уларнинг турлари: кўмакчи, боғловчи, юклама.

Кўмакчи, унинг ўрганилиш тарихи, хусусиятлари, типлари ва турлари. Кўмакчи лисоний имкониятларининг нутқий воқеланиши, унда лисоний ва нолисоний омиллар ҳамкорлиги.

Боғловчи, унинг ўрганилиш тарихи, хусусиятлари, типлари ва турлари. Боғловчи лисоний имкониятларининг нутқий воқеланиши, унда лисоний ва нолисоний омиллар муносабати.

Юклама, унинг ўрганилиш тарихи, хусусиятлари, типлари ва турлари. Юклама лисоний имкониятларининг нутқий воқеланиши, унда лисоний ва нолисоний омиллар уйғунлиги.

Сўз-гаплар, уларнинг ўрганилиш тарихи, хусусиятлари, типлари ва турлари. Сўз-гаплар лисоний имкониятларининг нутқий воқеланиши, унда лисоний ва нолисоний омиллар муносабати.

Синтаксис

Синтаксис ва унинг ўрганиш предмети. Синтактик бирликлар: сўз бирикмаси ва гап. Ўзбек тилида лисоний синтактик қолип ва унинг турлари: сўз бирикмаси қолиплари ва гап қолиплари, уларнинг қурилиш хусусиятлари.

Валентлик, унинг тилдаги моҳияти. Валентлик ва синтактик алоқа УМИС ва АХВО диалектикасининг синтактик сатҳдаги воқеланиши сифатида.

Эркин бирикмалар ва унинг турлари. Сўз бирикмаси, унинг хусусиятлари, таркиби, типлари ва турлари, ёндош ходисаларга муносабати. Сўз бирикмаси лисоний синтактик қолипининг нутқий воқеланиши, унда лисоний ва нолисоний омиллар муносабати. Сўз бирикмаси қолипларида эркин бирикув омиллари: маъновий, шаклий ва жойлашув омилари. Сўз бирикмасида тобе алоқанинг турлари: мослашув, бошқарув, битишув алоқалари.

Гап ва унинг қурилиш турлари. Содда гап, унинг лисоний ва нутқий хусусиятлари. Содда гап қолипи ва унинг турлари. Содда гапнинг лисоний

белгилар асосидаги турлари: йиғиқ ва ёйиқ гап, бир бош бўлакли ва икки бош бўлакли гап. Содда гап қолиплари. Гап бўлаклари. Гап бўлакларида даражаланиш (кесим – эга – ҳол – тўлдирувчи – аниқловчи). Гап маркази. Гап ва сўз кенгайтирувчилари.

Кесим – гап маркази ва унинг уюштирувчиси. Кесимнинг турлари: мустақил ва номустақил кесим, содда ва мураккаб кесим. Феъл кесим ва исм кесим. Феъл кесим, унда кесимлик категориясининг воқеланиш имкониятлари кенглиги. Феъл кесимнинг тузилиш турлари ва кўринишлари. Исм кесим, унинг грамматик шакли, ифодаланиши. Боғлама, унинг кўринишлари. Исм кесим, унда кесимлик категориясининг воқеланиш хусусиятлари. Феъл кесимнинг тузилиш турлари ва кўринишлари.

Эга, унинг гап қурилишидаги ўрни. Эгали ва эгасиз гаплар. Эганинг ифодаланиши.

Ҳол, унинг гап қурилишидаги ўрни, маъновий турлари, ифодаланиши.

Тўлдирувчи, унинг гап қурилишида сўз кенгайтирувчиси сифатидаги ўрни, ифодаланиши. Тўлдирувчиларнинг турлари.

Аниқловчи, унинг гап қурилишидаги ўрни, ифодаланиши. Аниқловчининг турлари.

Содда гапнинг мураккабланиши: гапнинг ажратилган бўлаклари, уюшқ бўлақлар, ундолма, кириш ва киритма кенгайтирувчилар.

Содда гап лисоний имкониятларининг нутқий воқеланиши, унда лисоний ва нолисоний омиллар муносабати.

Кўшма гап. Кўшма гап таснифи асослари. Кўшма гапнинг қурилишига кўра таснифи: тенг муносабатли, тобе муносабатли, мутаносиб муносабатли кўшма гаплар. Кўшма гапнинг таркибидаги боғловчи воситаларига кўра таснифи: фақат оҳанг воситасида, юкламалар воситасида, тенг боғловчилар воситасида, эргаштирувчи боғловчилар воситасида, нисбий сўзлар воситасида боғланган кўшма гап.

Кўшма гапнинг таркибий қисмлари орасидаги маъновий муносабатга кўра турлари: қисмлари пайт, ўрин, сабаб, бирин-кетинлик, бир вақтдалик, изоҳлаш, қиёслаш ва б. маъновий муносабатлар асосида боғланган кўшма гаплар. Кўшма гапнинг қисмлари орасидаги функционал муносабатларга кўра турлари: кесим тобе гапли, эга тобе гапли, ҳол тобе гапли, тўлдирувчи тобе гапли, аниқловчи тобе гапли кўшма гап. Кўшма гап таркибий қисмларининг ирреалликка муносабатига кўра таснифи.

Мураккаб кўшма гап. Мураккаб кўшма гапларда синтактик алоқа турлари.

Кўшма гап лисоний имкониятларининг нутқий воқеланиши, унда лисоний ва нолисоний омиллар муносабати.

Ўзга гапли қурилмалар, уларнинг турлари, лисоний хусусиятлари, нутқий воқеланиши, унда лисоний ва нолисоний омиллар ҳамкорлиги.

Уюшган гап, унинг содда ва кўшма гап оралиғида тутган ўрни. Уюшган гапнинг лисоний-синтактик қолипи, турлари, нутқий воқеланиши, унда лисоний ва нолисоний омиллар муносабати.

Амалий машғулотларни ташкил этиш бўйича кўрсатма ва тавсиялар

Амалий машғулот талабаларни “Ҳозирги ўзбек тили” фанига доир маълумотлар билан мустақил танишишга, уларни оғзаки нутқ ва ёзма матнларни танқидий жиҳатдан таҳлил ва талкин қилишга йўналтиради. Талабалар тўплаган билимларини дарс вақтида мунозара ёки маъруза кўринишида химоя қилади. Амалий машғулотларда талабалар “Ҳозирги ўзбек тили” фанининг ўзига хос назарий хусусиятларига доир илмий масалаларни амалий жиҳатдан ўрганишади.

Амалий машғулот учун тавсия этиладиган мавзулар қуйидагича:

1. Матнни лисоний ва нутқий бирликларга ажратиш машқлари.
2. Лисоний муносабат ва лисоний зиддият бўйича машқ.
3. Фонемаларнинг лисоний ва нутқий хусусиятлари бўйича машқ.
4. Сўз урғуси ва бўғин турлари бўйича машқ.
5. Фонетик таҳлил.
6. Орфография ва орфоэпия тамойиллари бўйича машқ.
7. *Комплекс фонетик-орфоэтик-орфографик таҳлил.*
8. Лексема ва сўз муносабати бўйича машқ.
9. Лексик зиддиятлар бўйича машқ.
10. Семема ва нутқий маъно, сема ва унинг турлари бўйича машқ.
11. Сўз маъноси тараққиёти, ҳосила маънонинг вужудга келиш йўллари ва усулларини фарқлаш машқлари.
12. Лексемаларнинг шакл ва маъно муносабатига кўра таҳлили.
13. Лексемаларнинг таснифи бўйича машқ.
14. Фразеологик таҳлил.
15. *Комплекс лексик таҳлил.*
16. Морфемик таҳлил. Сўз ясалиши таҳлили.
17. Грамматик маъно турлари бўйича машқ.
18. **Феълнинг лугавий-грамматик турлари ва лугавий шакллари бўйича машқ.**
19. Феъл таҳлили.
20. **Отнинг лугавий-грамматик турлари ва лугавий шакллари бўйича машқ.**
21. От таҳлили.
22. **Сифатнинг лугавий-грамматик турлари ва лугавий шакллари бўйича машқ.**
23. Сифат таҳлили.
24. **Соннинг лугавий-грамматик турлари ва лугавий шакллари бўйича машқ.**
25. Сон таҳлили.
26. **Равиш, унинг лугавий-грамматик хусусиятлари ва турлари бўйича машқ. Равиш таҳлили.**

27. Таклид, унинг луғавий-грамматик хусусиятлари ва турлари бўйича машқ. Таклид таҳлили.

28. Олмош, унинг луғавий-грамматик хусусиятлари ва турлари бўйича машқ. Олмош таҳлили.

29. Синтактик категориялар бўйича машқ.

30. Ёрдамчи сўзлар бўйича машқ.

31. Ёрдамчи сўзлар таҳлили.

32. Сўз-гаплар бўйича машқ.

33. Сўз-гаплар таҳлили.

34. Комплекс морфологик таҳлил.

35. Сўз бирикмаси таҳлили.

36. Содда гап таҳлили.

37. Гап бўлаклари таҳлили.

38. Мураккаб содда гап таҳлили.

39. Қўшма гап таҳлили.

40. Ўзга гапла қурилмалар таҳлили.

41. Уюшган гап таҳлили.

42. Комплекс синтактик таҳлил.

43. Мураккаб синтактик бутунлик бўйича машқ ва таҳлил.

44. Тиниш белгилари бўйича машқ.

Изоҳ: Мазкур рўйхатдаги мавзулардан амалий машғулотлар учун ажратилган соатлар ҳажмига мос ҳолда фойдаланиш тавсия этилади.

Семинар машғулотларни ташкил этиш бўйича кўрсатма ва тавсиялар

Семинар машғулотлари талабаларни “Ҳозирги ўзбек тили”га оид маълумотлар билан мустақил танишишга, уларни танқидий нуқтаи назаридан таҳлил ва талқин этишга йўналтиради. Талабалар эгаллаган билимларини дарс пайтида мунозара ёки маъруза шаклида намойиш этади.

Семинар машғулотларида талабалар ҳозирги ўзбек тилининг илмий муаммолари тўғрисида амалий кўникма ва малака ҳосил қилишади.

Семинар машғулотлари учун тавсия этиладиган мавзулар қуйидагича:

1. Ҳозирги ўзбек тилида лисон, нутқ, меъёр муносабати. Лисоний ва нуткий бирликлар.

2. Ҳозирги ўзбек тилида лисоний муносабат ва унинг турлари. Лисоний зиддиятлар. Лисоний тасниф ва унинг турлари.

3. Фонетика ва фонология. Фонема ва товушнинг диалектик муносабати.

4. Лексик сатҳ ва унинг бирлиги лингвистик муаммо сифатида.

5. Лексеманинг семантик структураси. Семема ва сема муносабати. Сема турлари. Моносемия ва полисемия.

6. Лексик-семантик системалар: луғавий-маъновий гуруҳ, луғавий-мазмуний тўда, луғавий-мазмуний майдон.

7. Ўзбек тилидаги лексемаларнинг шакл ва маъно муносабатлари: омонимия, синонимия, антонимия, градуонимия, гипонимия, партонимия.
8. Ўзбек тили лексемалари таснифи.
9. Ўзбек тили фразеологизмлари.
10. Ўзбек лексикографияси ва лугатчилиги. Умумий ва махсус лугатлар. Академик, оммабоп ва ўқув лугатлари.
11. Морфема, унинг турлари, лисоний хусусиятлари ва нуткий воқеланиши.
12. Ўзбек тили деривацияси ва сўз ясалиши.
13. Грамматик шакл, грамматик маъно ва грамматик категория.
14. Ўзбек тилида сўз туркумлари. Мустақил сўз туркумлари.
15. Феъл, унинг грамматик хусусиятлари ва таснифловчи категориялари.
16. От, унинг грамматик хусусиятлари ва таснифловчи категориялари.
17. Сифат, унинг грамматик хусусиятлари ва таснифловчи категориялари.
18. Сон, унинг грамматик хусусиятлари ва таснифловчи категориялари.
19. Равиш ва унинг грамматик хусусиятлари.
20. Тақлид ва унинг грамматик хусусиятлари.
21. Олмош ва унинг грамматик хусусиятлари.
22. Ўзбек тилида синтактик шакл ҳосил қилувчи категориялар. Эгалик категорияси, унинг умумий грамматик маъноси ва шакллари парадигмаси. Эгалик категориясининг мустақил сўз туркумларида воқеланиш имкониятлари.
23. Келишик категорияси, унинг умумий грамматик маъноси ва шакллари парадигмаси. Келишик категориясининг мустақил сўз туркумларида воқеланиш имкониятлари.
24. Кесимлик категорияси, унинг умумий грамматик маъноси ва шакллари парадигмаси. Кесимлик категориясининг мустақил сўз туркумларида воқеланиш имкониятлари.
25. Ўзбек тилида сўз-гаплар: тизими, турлари ва субстанциал-грамматик хусусиятлари.
26. Ёрдамчи сўзлар: тизими, турлари ва субстанциал-грамматик хусусиятлари.
27. Синтактик бирликлар. Сўз бирикмасининг лисоний синтактик хусусияти ва боғланиш омиллари.
28. Валентлик ва синтактик алоқа лисон ва нутқ дихотомик бўлинишида.
29. Содда гапнинг лисоний синтактик хусусиятлари ва нуткий воқеланиши.
30. Гап бўлаклари. Сўз кенгайтирувчилари ва гап кенгайтирувчилари.
31. Қўшма гап, унинг лисоний турлари ва хусусиятлари.
32. Ўзга гапли синтактик ҳодисаларнинг лисоний қурилиш хусусиятлари.

33. Уюшган гап ва унинг тил лисоний синтактик системасидаги ўрни.

34. Тиниш белгилари: турлари ва вазифалари. Тиниш белгиларининг қўлланишидаги муаммолар.

Изоҳ: Мазкур рўйхатдаги мавзулардан семинар машғулотлари учун ажратилган соатлар ҳажмига мос ҳолда фойдаланиш тавсия этилади.

Курс ишлари ташкил этиш бўйича услубий кўрсатмалар

Курс ишлари талабаларнинг эгаллаган билим ва кўникмаларини амалиётда синаш, назарий тайёргарлик асосида амалий ишларни бажариш малакасини оширишга йўналтирилади.

Талабалар бажариши лозим бўлган амалий ишларнинг камида беш йиллик дастури ишлаб чиқиши ва у давомийлик, узвийлик, узлуксизлик, такрорийликдан ҳолилик тамойиллари асосида бўлмоғи лозим. Яъни биринчи йилда бажарилган иш иккинчи йилда янги босқичда давом эттирилиши, иккинчи йилда бажарилган ишлар учинчи йил топшириқлари учун материал бўлиб хизмат қилиши керак.

Ҳар бир босқич курс ишлари учун кафедраумумий режасидан келиб чиққан ҳолда индивидуал режалар тизимини шакллантириш, ишларнинг бажарилишини мониторинг қилишнинг қулай ва тезкор усуллари ишлаб чиқиши зарур. Курс ишлари ҳимояси ҳам “режа→фаолият→ҳимоя” узвий яхлитлигининг якуний босқичи сифатида аниқ мезонлар асосида, натижаларни баҳолашнинг мақбул шакл, усул ва воситалари уйғунлигида ташкил этилади.

Кафедра 5 йилга мўлжалланган курс ишлари мавзуларини таълимнинг маълум бўғини (боғча, бошланғич синф, ўрта умумий таълим, ўрта махсус таълим) учун бирор ўқув лугатини яратишни қуйидагича режалаштириши мумкин. Лугатни тайёрлаш босқичлари қуйидагича кечади:

1-босқич. Сўз танлаш. Бунда талабаларга тегишли лугат учун ҳарфлар асосида сўз танлаш топшириғи курс иши сифатида берилади. Талабалар сонидан келиб чиққан ҳолда ҳарфлар тенг тақсимланади (бир ҳарф бир неча талабага бўлиб берилиши ҳам мумкин). Талаба ўзи тўплаган сўзларини нега танлаганлигини берилган топшириқ мезонлари асосида ҳимоя қилади.

2-босқич. Сўзларга мисол танлаш. Талаба сўзларга кўрсатилган манбалар асосида тегишли мисоллар танлайди. Карточкаларга ёзади. Мисолларнинг компьютер вариантини тайёрлайди.

3-босқич. Берилган мисолларни гуруҳларга ажратиш ва ҳар бир гуруҳга тегишли умумий белгиларни аниқлаш.

4-босқич. Маъноларни изоҳлаш.

5-босқич. Лугат мақолаларини тузиш, таҳрир қилиш.

Кафедра профессор-ўқитувчилари лугатни нашрга тайёрлаш ишлари билан шуғулланади.

Шу асосда талабаларни кучи ва илмий раҳбарнинг кўрсатмалари асосида бир ўқув лугати яратилади.

Агар тегишли ҳар бир университетдаги кафедрада шундай тилдаги ўқув лугатлари яратилса, демак, 5 йилда тахминан республиканинг турдош кафедраларида 10 га яқин ўқув лугати дунёга келади.

Куре ишлари учун таянч кафедра томонидан турдош кафедралар учун тавсия этилаётган узок муддатли концептуал мавзулар тўплами куйидагилар:

- I. Ўзбек тилининг ўқув изоҳли лугати (ЎЗМУ).
- II. Ўзбек тилининг маънодош сўзлар ўқув изоҳли лугати (АнДУ).
- III. Ўзбек тилининг зид маъноли сўзлар ўқув изоҳли лугати (БухДУ).
- IV. Ўзбек тилининг шаклдош сўзлар ўқув изоҳли лугати (ГулДУ).
- V. Ўзбек тилининг талаффуздош сўзлар ўқув изоҳли лугати (НамДУ).
- VI. Ўзбек тилининг сўз ясалиши ўқув лугати (НукусДУ).
- VII. Ўзбек тили ибораларининг ўқув изоҳли лугати (СамДУ).
- VIII. Ўзбек тилининг сўзлар даражаланиши ўқув изоҳли лугати (УрДУ).
- IX. Ўзбек тилининг уядош сўзлар ўқув изоҳли лугати (ФарДУ).
- X. Ўзбек тилининг эскирган сўзлар ўқув изоҳли лугати (ТерДУ).
- XI. Ўзбек тилининг ўзлашма сўзлар ўқув изоҳли лугати (ҚарДУ).

Изоҳ. Таянч олий ўқув юрти Ўзбек тилшунослиги кафедраси ушбу амалий тадқиқотларни мувофиқлаштириш, тайёр бўлган лугатни тақризлаш, масъул муҳаррирлик қилиш масъулиятини ўз зиммасига олади.

Мустақил таълимни ташкил этишнинг шакли ва мазмуни

“Ҳозирги ўзбек тили” фанини ўрганувчи талабалар аудиторияда олган назарий билимларини мустаҳкамлаш ва тилшуносликнинг амалий масалаларни ҳал қилишда кўникма ҳосил қилиш учун мустақил таълим тизимига асосланиб, кафедра ўқитувчилари раҳбарлигида, мустақил иш бажарадилар. Бунда улар кўшимча адабиётларни ўрганиб ҳамда Интернет сайтларидан фойдаланиб реферат ва илмий доклад тайёрлайдилар, амалий машғулот мавзусига доир уй вазифаларини бажарадилар, кўрғазмали қуроқлар ва слайдлар тайёрлайдилар.

Талаба мустақил ишни тайёрлашда муайян фаннинг хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда куйидаги шакллардан фойдаланишга тавсия этилади:

1. Дарслик ва ўқув қўлланмалар бўйича фан мавзуларини ўрганиш.
2. Гаркатма материаллар бўйича маърузалар қисмини ўзлаштириш.
3. Интернет сайтларидан маълумотларни танлаш ва ўзлаштириш.
4. Махсус адабиётлар бўйича реферат ва конспектлар тайёрлаш;
5. Амалий машғулотларга тайёрланиш.
6. Семинар машғулотларига тайёрланиш.
7. Илмий маъруза тайёрлаш.
8. Слайдлар тайёрлаш.
9. Графикли органиайзерлар тайёрлаш.
10. Мисоллар тўплаш.
11. Лингвистик масалалар тайёрлаш.

12. “Ўзбек тили ва адабиёти” журналида эълон қилинган мақолалар устида ишлаш.

13. “Тил ва адабиёт таълими” журналида эълон қилинган мақолалар устида ишлаш.

14. “Филология масалалари” журналида эълон қилинган мақолалар устида ишлаш.

15. Мавзу бўйича Интернет материаллари билан танилиш.

Изоҳ: Мазкур рўйхатдаги мавзулардан мустақил таълим машғулоти учун ажратилган соатлар ҳажмига мос ҳолда фойдаланиш тавсия этилади.

Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати

Раҳбарий адабиётлар

1. Ислом Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.

Асосий адабиётлар

2. Jamolxonov N. Hozirgi O'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: ЎЗМЭ, 2013.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
5. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.
6. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонолиги ва морфонологияси. Тошкент. 2010.

Қўшимча адабиётлар

7. Жамолхонов Х. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Фан, 2009.
8. Замонавий ўзбек тили. Морфология. Дарслик.– Тошкент: Мумтоз сўз, 2008.
9. Замонавий ўзбек тили. Синтаксис. Дарслик. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2013.
10. Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013.
11. Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили ишора-имло қоидалари. (Пунктуация). Олий ўқув юртлири филология факультетлари талабалари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
12. Нейматов Х, Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989.
13. Нейматов Х, Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
14. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Олий ўқув юртлири ўзбек филологияси факультетлари талабалари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.

15. Нурмонов А., Махмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992.
16. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида синтактик муносабатлар. (Ўқув қўлланма). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002.
17. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. Олий ўқув юрғларининг филология факультетлари ўқитувчи ва талабалари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007.
18. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.

Интернет сайтлари

19. www.ziyo.net
20. www.thinsan.com
21. www.uforum.uz
22. www.literature.uz

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

Ro`yxatga olindi

"Tasdiqlandi"

Filologiya fakul'teti

Ilmiy Kengashida

muhokama qilingan va tasdiqlangan

Kengash raisi dotsent A.Haydarov

"__" avgust, 2017- yil

OLIJ TA'LIMNING

Bilim sohasi – Gumanitar fanlar va san'at

Ta'lim sohasi – Gumanitar fanlar

**Ta'lim yo`nalishi: 5120100 – Filologiya va tillarni o`qitish
(o`zbek tili) talabalari uchun**

"Hozirgi o`zbek adabiy tili (morfologiya) "

fanidan

ISHCHI O`QUV DASTUR

Tuzuvchi–Mehriniso Abuzalova

Taqrizchi: Filologiya fanlari nomzodi, dotsent B.Qilichev

Kafedra mudiri:

dots. A. Ahmedov

BUXORO -2018

KIRISH

Milliy istiqloq sharofati bilan o'zbek tilshunosligi fani mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tdi. Ona tili ta'limini ijodiy tafakkur sohibini yetishtirishda muhim amallardan biriga aylantirish maqsadida tilshunosligimizda formal-funksional (shakl-vazifaviy) tahlil yo'nalishi shakllandi va ommalashdi. O'zbek filologiyasi bakalavri yo'nalishida o'rganiladigan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv fani namunaviy dasturi 2016-17-yillarda qayta mukammallashtirildi. Ushbu ishchi dastur namunaviy dastur asosida tuzilgan bo'lib, formal-funksional morfologiya bo'yicha ilmiy-nazariy bilimlarni, tushunchalarni izohlashga qaratilgan. O'quv kursi jahon tilshunosligining so'nggi yutuqlariga tayangan substansial tahlil talqinlari asosida o'qitiladi.

Eslatma: Kurs bo'yicha tavsiya etilayotgan adabiyotlarning ayrimlari milliy Istiqlol davridan oldin yaratilgan. Shu sababli mafkura nuqtai nazaridan hozirgi davrga mos bo'lmaganligi uchun ulardan tanqidiy foydalanish lozim.

Fanga ajratilgan o'quv soatlarning o'quv turlari bo'yicha taqsimoti.

№	Mavzularning nomi	Auditoriya soatlari				Mustaqil ish	Jami
		Jami	Shu jumladan:				
			ma`ruza	amaliy	semi-nar		
4-semestr							
1.	Kirish.	2	2			2	4
2.	Grammatik shakl, grammatik kategoriya	10	4	4	2	8	18
3.	Mustaqil so`zlar turkumi	26	10	8	8	10	36
4.	So`zlarning sintaktik shakllari	18	6	6	6	10	28
5.	Yordamchi so`zlar	14	6	4	4	10	24
	Yakun						
	Jami	70	28	22	20	40	110

2. ASOSIY QISM.

2.1.Ma`ruza mashg`ulotlari(28 soat).

1-ma`ruza. Kirish.O`zbek tilshunosligida an'anaviy (formal) va yangi (formal-funksional) yo`nalishlar. (2 soat)

Reja:

1. O'zbek tilshunosligida an'anaviy va yangi yo'nalishlarning o'zaro munosabati.
2. Ular davomiyligi. Yangicha "Zotiy yondashuv" tushunchasi haqida.
3. Formal-funksional tilshunoslikning tahlil usullari haqida qisqacha ma'lumot.

IPT- Ma'ruza-konferensiya.

IAT- Ma'ruza matni.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

- 1.Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
- 2.Замонавий ўзбек тили. Морфология. Дарслик.– Тошкент: Мумтоз сўз, 2008.
- 3.Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
- 4.Қурбонова М. Шакл-вазифавий тадқиқ усулларига доир. "Ўзбек тили ва адабиёти" журналі, 1998- йил, 5-сон.

2- Mavzu. 1-ma`ruza. Grammatik shakl va grammatik ma'no. (2 soat)

Reja:

1. Umumiy grammatik ma'no (UGM).
2. Xususiy grammatik ma'no (XGM).
3. Oraliq grammatik ma'no (OGM).
4. UGM, XGM, OGM tushunchalarining sharhi, ularning mohiyati.
5. Umumiy ma'noni ochish yo'llari.

IPT- Sharhlovchi ma'ruza.

IAT- Axborot texnologiya.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

- 1.Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
- 2.Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.
- 3.Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Олий ўқув юртлари ўзбек филологияси факультетлари талабалари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
- 4.Нигматов Х. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII веков. Т., 1989.
5. Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида. НДА., Самарқанд, 1993 йил.

2-ma`ruza. Grammatik ma'no ifodalash usullari. (2 soat)

Reja:

1. Agglyutinativ tillarda grammatik ma'no ifodalovchi vositalar.
2. Ular qo'llanishining darajasi.

IPT- Insert uslubi.

IAT- Axborot texnologiyasi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

- 1.Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
- 2.Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.

3. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Олий ўқув юртлари ўзбек филологияси факультетлари талабалари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
4. Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 1992.
5. Ўзбек тили грамматикаси. 2- том. Морфология, Т., 1975.

3-Mavzu. 1-ma`ruza. So`z turkumlari tasnifi. (2 soat)

Reja:

1. So`zlarning serqirraligi va tasniflarning xilma-xilligi.
2. Leksemalarni ma'noviy, morfologik, sintaktik tabiatiga ko`ra guruhlash.
3. Umumiy o`rta ta'lim maktablarida so`z turkumlari va ularning tasnifi.

ИПТ- Muammoli ma'ruza.

ИАТ-Axborot texnologiyasi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
2. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.
3. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Олий ўқув юртлари ўзбек филологияси факультетлари талабалари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
4. Бобокалонов Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар. НДА. Т., 2000.
5. Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серкирралиги ва уни таснифлаш асослари. НД. Т., 1994.
6. Нигматов Х. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII веков. Т., 1989.

2-ma`ruza. Mustaqil so`zlar va ularning shakllari. (2 soat)

Reja:

1. Fe'l. Uning UGMsi.
2. Fe'llarning o`timli va o`timsiz turlari.
3. Fe'llarning tasniflovchi kategoriyalari.

ИПТ-Aqliy hujum yordamidagi ma'ruza.

ИАТ-Informatsion texnologiya.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo`llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
2. Замонавий ўзбек тили. Морфология. Дарслик.– Тошкент: Мумтоз сўз, 2008.
3. Расулов Р. Ўзбек тилида ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. Т., 1989.
4. Турсунов У. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 1992.

5. Фуломов А. Феъл. Т., 1954.

6. Ҳожиёв А. Феъл. Т., 1973.

3-ma`ruza. Ot. Uning UGMsi. (2 soat)

Reja:

1. Ot turkumi va uning UGMsi.
2. Lugʻaviy shakllar toʻgʻrisida maʼlumot.
3. Son paradigmasi.
4. Kichraytirish, erkalash, shaxsiy munosabat shakllari.

IPT-Dialog ma'ruza.

IAT-Ma'ruza matni.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Jamolxonov H. Hozirgi Oʻzbek adabiy tili. Oliy oʻquv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: ЎЗМЭ, 2013.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2003.

4-ma`ruza. Sifat. (2 soat)

Reja:

1. Sifat va uning UGMsi.
2. Asliy va nisbiy sifatlar.
3. Asliy sifatlarning daraja, kuchaytirma va ozaytirma shakllari.
4. Sifatning maʼnoviy guruhleri va yasalish qoliplari. Ot yasalishi.

IPT-- Muammoli ma'ruza.

IAT-Axborot texnologiyasi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Jamolxonov H. Hozirgi Oʻzbek adabiy tili. Oliy oʻquv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: ЎЗМЭ, 2013.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2003.
5. Содикова М. Ҳозирги ўзбек адабий тилида сифат. Тошкент, 1974 йил;
6. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. ва бошқалар. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Т., 2001.

5-mavzu. Son, uning UGMsi . Ravish. Taqlidlar. (2 soat)

Reja:

1. Son, uning UGMsi, lug‘aviy shakllari.
2. Sonning lug‘aviy ma‘no guruhlari.
3. Numerativ (o‘lchov) so‘zlar. Otlarni numerativ so‘z sifatida voqelantiruvchi qoliplar (sanoq son + hajm, makon, zamon, miqdor v.q. otlar + sanalish) (bir qop bug‘doy).
4. Sonlarning sintaktik vazifalari.
5. Ravish va uning ma‘noviy va grammatik (o‘zgarmaslik) belgisi.
6. Ravishlarning ma‘noviy turlari va ularning so‘z yasash qoliplari.
7. Taqlidlarning mustaqil so‘zlar tizimidagi o‘ziga xos ma‘no, tarkib, qurilish va vazifa xususiyatlari.

IPT- Sharhlovchi ma‘ruza.

IAT- Ma‘ruza matni.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Jamolxonov H. Hozirgi O‘zbek adabiy tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: ЎЗМЭ, 2013.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003.
5. Кўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. Т., 1966.

4- Mavzu. 1- 2-ma‘ruza. So‘zlarning sintaktik (aloqa-munosabat) shakllari. (4 soat)

Reja:

1. So‘zlarning sintaktik (aloqa-munosabat) shakllari.
2. Sintaktik shakllarning tarkibi va ichki bo‘linishi:
 - a) so‘zlarni bog‘lashga xizmat qiluvchi kategoriyalar (kelishik, egalik);
 - b) so‘zlarga alohida sintaktik vazifa belgilovchi kategoriya (kesimlik kategoriyasi).
3. Egalik kategoriyasi va uning UGMsi.
4. Egalik kategoriyasi shakllarining murakkabligi. Ushbu shaklning nokategorial ma‘nolari.
5. Kelishik kategoriyasi. Kelishik kategoriyasi va uning UGMsi

IPT- Sharhlovchi ma‘ruza.

IAT- Maruza matni .

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Jamolxonov H. Hozirgi O‘zbek adabiy tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: ЎЗМЭ, 2013.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.

4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.
5. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида синтактик муносабатлар. (Ўқув кўлланма). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002.
6. Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари. НДА. Т., 1995.

3-ma`ruza. Kesimlik kategoriyasi.(2 soat)

Reja:

1. Kesimlik kategoriyasi va uning murakkab kategoriyalar tizimidagi o`rni.
2. Kesimlik kategoriyasi UGMsi-gap markazi-kesimni shakllantirish ekanligi.
3. Predikatsiya va kesimlik.

ИПТ- Sharhlovchi ma'ruza.

ИАТ- Ko`rgazma qurol.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Замонавий ўзбек тили. Синтаксис. Дарслик. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2013.
2. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида синтактик муносабатлар. (Ўқув кўлланма). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002.

5- Mavzu. 1-ma`ruza. Yordamchi so`zlar. (2 soat)

Reja:

1. Yordamchi so`zlar va ularning leksik hamda grammatik tizimdagi o`rni.
2. Yordamchi so`zlarning "oraliq uchinchi" tabiatiga ega ekanligi.
3. Shakliy xususiyatlariga ko`ra guruhlanishi. Ko`makchi. Ularning ma'no va vazifasi.

ИПТ-- Muammoli ma'ruza.

ИАТ- Axborot texnologiyasi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
3. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.
4. Рустамов Т. Ҳозирги ўзбек адабий тилида кўмакчилар. Т., 1965.
5. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар. Т., 1953.

5- Mavzu. 2-ma`ruza. Yordamchi so`zlar. (2 soat)

Reja:

1. Bog`lovchi. Ularning ma'no va vazifasi.
2. Bog`lovchi va yuklamalar orasidagi munosabat.

ИПТ-- Muammoli ma'ruza.

ИАТ- Axborot texnologiyasi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
3. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.
4. Рустамов Т. Хозирги ўзбек адабий тилида кўмакчилар. Т., 1965.
5. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар. Т., 1953.

5- Mavzu. 3-ma'ruza. Yordamchi so'zlar. (2 soat)

Reja:

1. So'z gaplar. Ularning ma'no turlari va vazifasi.
2. So'z gaplar va modal, undov so'zlar orasidagi munosabat.

ИПТ-- Muammoli ma'ruza.

ИАТ-Axborot texnologiyasi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
3. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.
4. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар. Т., 1953.
5. Бобокалонов Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар. НДА. Т., 2000.
6. Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серкирралиги ва уни таснифлаш асослари. НД. Т., 1994.
7. Нигматов Х. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII веков. Т., 1989.

2.2. AMALIY, SEMINAR MASHG'ULOTLARI.

Amaliy mashg'ulotlarning mavzulari (22 soat)

1-mashg'ulot. Grammatik ma'no ifodalovchi vositalarni matndan aniqlash. Ular bo'yicha xulosalar chiqarish. Ularning qo'llanish darajasini kuzatish. O'zga tillar bilan chog'ishtirish. (2 soat).

2-mashg'ulot. Fe'l so'z turkumi bo'yicha mashq. Matndan o'timli va o'timsiz fe'llarni aniqlash. Fe'l nisbatlarining o'timli va o'timsiz fe'llarga munosabati. (2 soat).

3-mashg'ulot. Fe'l lug'aviy ma'no guruhlarini aniqlash. Har bir LMGning markaziy leksemalarini aniqlash. (2 soat).

4-mashg'ulot. Fe'l funksional shakllari bo'yicha mashq. Matn bilan ishlash.

5-mashg'ulot. Ot lug'aviy shakllari bo'yicha mashq. Son paradigmasi. Kichraytirish, erkalash, shaxsiy munosabat lug'aviy shakllarinining nutqiy voqelanishini kuzatish. (2 soat).

6-mashg'ulot. Sifat so'z turkumi. Asliy va nisbiy sifatlarni guruhlash. Asliy sifatlarning daraja shakllari bo'yicha mashq. (2 soat).

7-mashg'ulot. Son. Uning ma'no guruhlari bo'yicha mashq. Matndan o'lchov so'zlarni aniqlab, qolipini sharhlash. Sonning sintaktik vazifalari. (2 soat).

8-mashg`ulot. Ravishlarning morfologik o`zgarishlik belgisini aniqlash. Boshqa turkumlardan farqli tomonlarini kuzatish. Ma'noviy turlari, yasalishi, sintaktik vazifalari ustida ish.

9-mashg`ulot. Taqlidlar. Olmosh. Ularning guruhlarini, yasalish usullari bo`yicha mashq. (2 soat).

10-mashg`ulot. Sintaktik shakllar bo`yicha mashq. Egalik, kelishik shakllari paradigmasi bo`yicha amaliy ish. (2 soat).

11-mashg`ulot. Kesimlik kategoriyasi shakllari paradigmasi bo`yicha amaliy ish. (2 soat).

Seminar mashg`ulotlarining mavzu va rejalari (20 soat)

1-mashg`ulot. Grammatika va milliylik, milliy mafkura. (2 soat).

Reja:

1. Milliy mafkura tushunchasi.
2. O`zbekona grammatik talqinlar.
3. Morfologiya va sintaksisning dialektik birligi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Ислом Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч.- Тошкент: Маънавият, 2008.
2. Каримов И. Маънавий юксалиш сари. Т., Ўзбекистон, 2000.
3. Баркамол авлод орзуси. Т., 2000.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.

2-mashg`ulot. Leksema va uning serqirralik tabiati. So`zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari. (2 soat).

Reja:

1. Tasnif, sistema (tizim) tushunchalari.
2. So`z serqirraligi va uning tasniflash masalalari.
3. So`zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari. Mustaqil so`zlar, yordamchi so`zlar, so`z-gaplar.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Абузалова М. Ҳозирги ўзбек тили. Морфология. Бухоро, 2004.
2. Бобокалонов Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар. НДА. Т., 2000.
3. Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серкирралиги ва уни таснифлаш асослари. НД. Т., 1994.
4. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. ва бошқалар. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Т., 2001.
5. Солнцев В.М. Язык как системно- структурное образование. М., “Наука”, 1977.

3-mashg`ulot. Fe'l lug`aviy ma'no guruhlarini ustida ish. (2 soat).

Reja:

1. Harakat fe'llari guruhi bosh leksemalarini aniqlash.
2. Natijali faoliyat fe'llarining harakat fe'llaridan farqli tomonlarini kuzatish.

3. Munosabat fe'llari xususida fikrlash.
4. Fe'lning boshqa lug'aviy ma'no guruhlarini.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
2. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.
3. Нурмонов А., Шахобиддинова Ш. ва бошқалар. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Т., 2001.
4. Расулов Р. Ўзбек тилида ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. Т., 1989.
5. www.ziyo.net

4-mashg'ulot. Harakat tarzi shakllari paradigmasi. Ularning hosil bo'lish usullari. (2 soat).

Reja:

1. Yetakchi va ko'makchi fe'llar tushunchasi.
2. Ko'makchi fe'llar guruhi. Ularning ma'no va vazifalari.
3. Harakat tarzi analitik shakllarining yasalishi va ma'nolari.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
2. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.
3. Нурмонов А., Шахобиддинова Ш. ва бошқалар. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Т., 2001.
4. Расулов Р. Ўзбек тилида ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. Т., 1989.
5. www.ziyo.net

5-mashg'ulot. S'oz turkumlari tizimida ismlar(4 soat).

Reja:

1. Predmet ifodalovchi so'z turkumlari.
2. Belgi ifodalovchi turkumlar.
3. Holat va payt ma'nolarini ifodalovchi turkumlar.

6-mashg'ulot. Kelishik shakllarining umumiy grammatik ma'nolari (UGM), oraliq grammatik ma'nolari (OGM), xususiy grammatik ma'nolari (XGM).

Reja:

1. Kelishiklarning kategoriyalar tizimidagi o'rni.
2. Kelishik shakllarining ma'no va sintaktik vazifasiga ko'ra ziddiyatga kirishuvi.
3. Kelishik shakllarining soddalanishi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
2. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.
3. Нурмонов А., Шахобиддинова Ш. ва бошқалар. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Т., 2001.
4. www.ziyo.net

7-mashg'ulot. So'z yasash (derivatsiya) va uning grammatikaga munosabati. (2 soat).

Reja:

1. Tilning so'z yasash bo'limi haqida tushuncha.
2. Berilgan matndan yasama so'zlarni aniqlash va ularning yasash usulini tahlil qilish.
3. So'zning morfemik tarkibida bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясаши тизими. Олий ўқув юрталарининг филология факультетлари ўқитувчи ва талабалари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007.
2. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
(Badiiy adabiyot sifatida Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani va Э.Vohidovning she'riy to'plami tavsiya etiladi).

8-mashg'ulot. So'zshakl grammatik ma'nosi va so'zshakl vazifasi ustida ish (2 soat).

Reja:

1. Grammatik shaklda ma'no va vazifa mushtarakligini izohlash.
2. Matndan qo'shimchalarda mavjud bo'lgan va nutq bosqichida voqelangan grammatik ma'nolarni tahlil qilish, UGMLarni aniqlash.
3. Har bir grammatik shaklning sintaktik vazifasi xususida xulosa chiqarish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари. НДА. Т., 1995.
2. Нигматов Х. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII веков. Т., 1989.
3. Ўзбек тили грамматикаси. 2- том. Морфология, Т., 1975.

9-mashg'ulot. Kesimlik shakllari. (2 soat).

Reja:

1. Kesimlik shakllarining yig'iq, yoyiq, tafsiliy usullarda qo'llanilishini kuzatish.
2. Ismlarda (fe'l bo'lmagan turkumlarda) kesimlik shakllarining voqelanishini matndan aniqlash.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.

- 2.Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
- 3.Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003. ("Men ardoqlaydigan fazilat " mavzuida ijodiy matn yozilib, rejadagi vazifalar bajariladi).

2.3. MUSTAQIL ISH UCHUN MAVZULAR VA TOPSHIRIQLAR.

Mustaqil ta'lim. Mustaqil ishning asosiy maqsadi-talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rejalashtirishdan iborat.

Mustaqil ishning tashkiliy shakllari quyidagilardan iborat: ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish; berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash; seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish; hisob- grafik ishlarini bajarish; ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza-tezislarni hamda slaydlar tayyorlash.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI:

- 1."O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida e'lon qilingan dolzarb mavzular borasidagi mulohazalarni o'rganish va munosabat bildirish
2. Tilning morfologiya sathiga doir krossvordlar tuzish
- 3.Kursni qamrab oluvchi test variantlari tuzish
- 4.Grafikli organayzerlar tayyorlash.

3. O'quv kursidan kurs ishlari rejalashtirilgan.

Kurs ishi mavzulari :

O'zbek tilining zid ma'noli so'zlar o'quv izohli lug'atini tuzish bo'yicha material tayyorlash.

- 1-mavzu. Fe'l so'z turkumiga xos so'zlar antonimiyasi.
- 2-mavzu. Ot so'z turkumiga xos so'zlar antonimiyasi.
- 3-mavzu. Sifat `z turkumiga xos so'zlar antonimiyasi.
- 4-mavzu. Son so'z turkumiga xos so'zlar antonimiyasi.
- 5-mavzu. Ravish so'z turkumiga xos so'zlar antonimiyasi.
- 6-mavzu. Olmosh so'z turkumiga xos so'zlar antonimiyasi.
- 7-mavzu. Bog'lovchi so'z turkumiga xos so'zlar antonimiyasi.
- 8-mavzu. Ko'makchi so'z turkumiga xos so'zlar antonimiyasi.
- 9-mavzu. Bog'lovchi so'z turkumiga xos so'zlar antonimiyasi.
- 10-mavzu. Harakat fe'llari turkumiga xos so'zlar antonimiyasi.
- 11-mavzu. Nutq fe'llari turkumiga xos so'zlar antonimiyasi.
- 12-mavzu. Holat fe'llari turkumiga xos so'zlar antonimiyasi.
- 13-mavzu. Munosabat fe'llari turkumiga xos so'zlar antonimiyasi.
- 14-mavzu. Tafakkur fe'llari turkumiga xos so'zlar antonimiyasi.

15-mavzu. Aniq otlar turkumiga xos soʻzlar antonimiyasi.

16-mavzu. Mavhum otlar turkumiga xos soʻzlar antonimiyasi.

17-mavzu. Asliy sifat turkumiga xos soʻzlar antonimiyasi.

18-mavzu. Nisbiy sifat turkumiga xos soʻzlar antonimiyasi.

**"HO'AT. Morfologiya"(2-kurs) fanidan nazorat turlari va shakllari
bo'yicha
BALLAR TAQSIMOTI
4-semestrda o'tkaziladi**

Nazorat turi	Nazorat shakllari	Har bir nazorat uchun belg. maks. Ball	Nazoratlar soni	Nazorat shakllari bo'yicha belgilangan maks.ball
Joriy nazorat (JB)	1. Ogʻzaki soʻrov	10	1	10
	2. Daftar tutish	5	1	5
	3. Slayd tayyorlash	15	1	15
	Jami			30
Oraliq nazorat (OB)	1. Yozma ish	20	1	20
	2.Ogʻzaki(must.ishlar bo'yicha)	20	1	20
Jami				40
Yakuniy nazorat (YaN)	1. Yozma test	30	1	30
Jami				30
Наммаси				100

Baholash mezonlari

"HO'AT. Morfologiya" fani o'quv rejasida belgilanganidek o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishida 2 - kursda o'qitiladi. Fan uchun **jami 110 soat, shu jumladan 28 soat ma'ruza, 22 amaliy, 20 soat seminar, 40 soat talabani mustaqil ishi uchun ajratilgan.**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta mahsus ta'lim vazirligining "Oliy muassasalarida talabalar bilimni baholashning reyting tizimi to'g'risida muvaqqat Nizom"da belgilanganidek, fandan talabani bilimni baholash muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

Joriy nazorat – 30 ball (10+10+10)

(ball hisobida)

Yuqori ball – 30 ball

O'tish (saralash) balli – 16

ball

26 – 30 ballgacha – "a'lo" baho

22 – 25 ballgacha – "yaxshi" baho

16 – 21 ballgacha – "qoniqarli" baho

16 balldan past ball – "qoniqarsiz" baho

Joriy nazorat amaliy va seminar mashg`ulotlari hisobidan har 10 soatda 2 marta (15+15) og`zaki shaklda sarhisob etiladi. Har bir joriyning o`rtacha balli quyidagicha:

- 14–15 ballgacha – "a'lo" baho
- 11 – 13 ballgacha – "yaxshi" baho
- 8 – 10 ballgacha – "qoniqarli" baho
- 8 balldan past ball – "qoniqarsiz" baho

1. Talaba amaliy, seminar mashg`ulotlarida muntazam ishtirok etsa, amaliy, seminar mashg`ulotlari uchun ajratilgan har bir mavzu bo`yicha talabaning adabiyotlaridan olgan konspekti, bilimi, mustaqil ijodiy fikr-mulohazalari, amaliy ko`nikmalari mavjud bo`lsa, talaba darslarda o`z fikrini nazariy jihatdan asoslay olsa, ilmiy adabiyotlar ma'lumotlariga tayangan holda mavzu tahlillarini to`liq bajara olsa, mavzu yuzasidan ilmiy mushohada yurita olsa, o`z mustaqil fikriga ega bo`lsa, **14 balldan 15 ballgacha**, ya'ni **"a'lo" baho** qo`yiladi.

2. Talaba amaliy, seminar mashg`ulotlarida ishtirok etsa, amaliy, seminar mashg`ulotlari uchun ajratilgan har bir mavzu bo`yicha talabaning adabiyotlaridan olgan qisman konspekti, bilimi, mustaqil fikr-mulohazalari, amaliy ko`nikmalari mavjud bo`lsa, talaba darslarda o`z fikrini nazariy jihatdan qisman asoslay olsa, mavzu tahlillarida juz'iy kamchiliklar mavjud bo`lsa, **11 balldan 13 ballgacha**, ya'ni **"yaxshi" baho** qo`yiladi.

3. Talaba amaliy, seminar mashg`ulotlarida qisman ishtirok etsa, fikrlarini etarli darajada asoslay olmasa, nazariy tayanch tushunchalarnigina o`zlashtirgan bo`lsa-yu, amaliy tatbiqda qiynalsa, **8 balldan 10 ballgacha**, ya'ni **"qoniqarli" baho** qo`yiladi.

4. Talaba amaliy, seminar mashg`ulotlarida sababsiz ishtirok etmasa, amaliy, seminar mashg`ulotlari uchun ajratilgan har bir mavzu bo`yicha talabaning adabiyotlaridan olgan konspekti, bilimi, mustaqil fikr-mulohazalari, amaliy ko`nikmalari mavjud bo`lmasa, qo`yilgan savollarga umuman javob bera olmasa, berilgan savollar yuzasidan fikrini bayon eta olmasa, **8 balldan past ball**, ya'ni **"qoniqarsiz" baho** qo`yiladi va bu haqda kafedra ma'muriyati ogohlantiriladi.

Oraliq nazorat – 40 ball (20+20)
(ball hisobida)

Yuqori ball – 40 ball
O`tish (saralash) balli – 22

ball

- 35 – 40 ballgacha – "a'lo" baho**
- 29 – 34 ballgacha – "yaxshi" baho**
- 22 – 28 ballgacha – "qoniqarli" baho**
- 22 balldan past ball – "qoniqarsiz" baho**

Oraliq nazorat ma'ruza mashg`ulotlari va mustaqil ta'lim hisobidan har 14–16 soatda 2 marta (20+20) yozma shaklda o`tkaziladi. Har bir oraliqning o`rtacha balli quyidagicha:

- 18–20 ballgacha – "a'lo" baho
- 15 – 17 ballgacha – "yaxshi" baho
- 11 – 14 ballgacha – "qoniqarli" baho
- 11 balldan past ball – "qoniqarsiz" baho

1. Talaba savolnomalardagi topshiriqlarni nazariy jihatdan asoslay olsa, ilmiy adabiyotlar ma'lumotlariga tayangan holda mavzu tahlillarini to`liq bajarsa, mavzu yuzasidan ilmiy mushohada yurita olsa, o`z mustaqil fikriga ega bo`lsa, shuningdek, yozma ishda orfografiya, punktuatsiya, uslubiyat

qoidalariga to'liq rioya eta olsa, **18 balldan 20 ballgacha**, ya'ni "**a'lo**" baho qo'yiladi.

2. Savollar bo'yicha talaba nazariy jihatdan umumiy tasavvurga ega bo'lsa, fikrlarini bayon qilishda manba – adabiyotlarga yetarli darajada murojaat qila olmasa, mavzu tahlillarida juz'iy kamchiliklar mavjud bo'lsa, shuningdek, yozma ishda orfografiya, punktuatsiya, uslubiyat qoidalariga to'liq rioya etishda juz'iy kamchiliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa, **15 balldan 17 ballgacha**, ya'ni "**yaxshi**" baho qo'yiladi.

3. Talaba savollar bo'yicha yuzaki tasavvurga ega bo'lsa, fikrlarini yetarli darajada asoslay olmasa, nazariy tayanch tushunchalarni mexanik ravishda o'zlashtirgan bo'lsa, shuningdek, yozma ishda orfografiya, punktuatsiya, uslubiyat qoidalariga to'liq rioya etishda qator kamchiliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa, **11 balldan 14 ballgacha**, ya'ni "**qoniqarli**" baho qo'yiladi.

4. Talaba qo'yilgan savollarga umuman javob bera olmasa, berilgan savollar yuzasidan fikrini bayon eta olmasa, savollar doirasidagi mavzular tahlilini talab darajasida bajara olmasa, shuningdek, yozma ishda orfografiya, punktuatsiya, uslubiyat qoidalariga to'liq rioya etishda qo'pol kamchiliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa, **11 balldan past**, ya'ni "**qoniqarsiz**" baho qo'yiladi va bu haqda kafedra ma'muriyati ogohlantiriladi.

Yakuniy nazorat – 30 ball
(ball hisobida)

Yuqori ball – 30 ball
O'tish (saralash bali) – 22 ball

26 – 30 ballgacha – "a'lo" baho

22 – 25 ballgacha – "yaxshi" baho

16 – 21 ballgacha – "qoniqarli" baho

16 balldan past ball – "qoniqarsiz" baho

Yakuniy baholash semestr yakunida, odatda, yozma shaklda o'tkaziladi. Yakuniy baholashda talabaning bilim, ko'nikma va malakalari ishchi o'quv dasturidan kelib chiqqan holda fanning umumiy mazmuni doirasida baholanadi. Yakuniy baholash yozma ish o'tkazish usulida amalga oshiriladi. Ya'ni,

1. Talaba savolnomalardagi topshiriqlarni nazariy jihatdan asoslay olsa, ilmiy adabiyotlar ma'lumotlariga tayangan holda mavzu tahlillarini to'liq bajarsa, mavzu yuzasidan ilmiy mushohada yurita olsa, o'z mustaqil fikriga ega bo'lsa, shuningdek, yozma ishda orfografiya, punktuatsiya, uslubiyat qoidalariga to'liq rioya eta olsa, **26 balldan 30 ballgacha**, ya'ni "**a'lo**" baho qo'yiladi.

2. Savollar bo'yicha talaba nazariy jihatdan umumiy tasavvurga ega bo'lsa, fikrlarini bayon qilishda manba – adabiyotlarga yetarli darajada murojaat qila olmasa, mavzu tahlillarida juz'iy kamchiliklar mavjud bo'lsa, shuningdek, yozma ishda orfografiya, punktuatsiya, uslubiyat qoidalariga to'liq rioya etishda juz'iy kamchiliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa, **22 balldan 25 ballgacha**, ya'ni "**yaxshi**" baho qo'yiladi.

3. Talaba savollar bo'yicha yuzaki tasavvurga ega bo'lsa, fikrlarini yetarli darajada asoslay olmasa, nazariy tayanch tushunchalarni mexanik ravishda o'zlashtirgan bo'lsa, shuningdek, yozma ishda orfografiya, punktuatsiya, uslubiyat qoidalariga to'liq rioya etishda qator kamchiliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa, **16 balldan 21 ballgacha**, ya'ni "**qoniqarli**" baho qo'yiladi.

4. Talaba qo'yilgan savollarga umuman javob bera olmasa, berilgan savollar yuzasidan fikrini bayon eta olmasa, savollar doirasidagi mavzular tahlilini talab darajasida bajara olmasa, shuningdek, yozma ishda orfografiya,

punktuatsiya, uslubiyat qoidalariga to'liq rioya etishda qo'pol kamchiliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa, **16 balldan past**, ya'ni "**qoniqarsiz**" **baho** qo'yiladi va bu haqda kafedra ma'muriyati ogohlantiriladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI RAHBARIY ADABIYOTLAR

1. Ислом Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч.- Тошкент: Маънавият, 2008.

ASOSIY ADABIYOTLAR

2. Jamolxonov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: ЎЗМЭ, 2013.

3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.

4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.

5. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

6. Жамолхонов Х. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Фан, 2009.

7. Замонавий ўзбек тили. Морфология. Дарслик. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008.

8. Замонавий ўзбек тили. Синтаксис. Дарслик. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2013.

9. Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013.

10. Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили ишора-имло қоидалари. (Пунктуация). Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

11. Неъматов Х, Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989.

12. Неъматов Х, Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

13. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Олий ўқув юртлари ўзбек филологияси факультетлари талабалари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.

14. Нурмонов А., Махмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992.

15. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида синтактик муносабатлар. (Ўқув қўлланма). – Самарқанд: СамДУ нашири, 2002.

16. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. Олий ўқув юртларининг филология факультетлари ўқитувчи ва талабалари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007.

17. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.

ELEKTRON ADABIYOTLAR

18. www.ziyo.net

19. www.thinsan.com

20. www.uforum.uz

21. www.literature.uz

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

"Hozirgi o`zbek adabiy tili. Morfologiya "fanidan

O`QUV-USLUBIY XARITA

Ta`lim yo`nalishi: o`zbek tili va adabiyoti

Ta`lim shakli: Kunduzgi

Fan o`qitiladigan davr: 4-semestr

Umumiy yuklama: 110 soat

Auditoriya soatlari: 70 soat

Shundan: Ma`ruza 28 soat

Laboratoriya -

Seminar 20 soat

Amaliy mashg`ulot 22 soat

4- semestr

1	2	3	Mashg`ulot turlari bo`yicha rejalashtirilgan yuklama hamda baholash shakllari											15
			4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	
Fanlarning mavzulari (ishchi o`quv dasturi bo`yicha)	Mavzu bo`yicha umumiy soatlar	Ma`ruza	Shu jumladan pedagogik texnologiya asosida	Baholash shakllari	Amaliy seminar mashqotlari	Shu jumladan, interaktiv metodlar asosida	Baholash shakllari	Labaratoriya mashg`ulotlari	Shu jumladan, interfaol metodlar asosida	Baholash	Mustaqil ish	Mustaqil ish	Mavzu bo`yicha	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15

Mustaqil ta`lim: 40 soat

1.	Kirish.	6	2		2		Og`zaki	2			6		2
2.	Grammatik shakl, grammatik kategoriya	12	4	2	4	1	Yozma	4			4		3
3.	Mustaqil so`zlar turkumi	26	10		10	3	Og`zaki	6			10		4

4.	So`zlarning sintaktik shakllari	14	6	2		4		Og`zaki	4			10		5
5.	Yordamchi so`zlar	12	6	2		2		Og`zaki	4			10		4
6.	Oraliq nazorat													
7.	Yakuniy nazorat	-			Yozma ish									
	Jami	70	28			22			20			40		

DASTUR BAJARILISHINING KALENDAR REJASI
(ma`ruza, seminar, amaliyot mashg`ulotlari)

Fakultet: Filologiya Bosqich: 2 Akademik guruh _____

Fanning nomi: HO`AT Morfologiya

Ma`ruza o`qiydi: M.Abuzalova

Amaliy mashg`ulotni olib borish: M.Abuzalova

Seminar mashg`ulotini olib borish: M.Abuzalova

	Mashg`ulot shakli Ma`ruza-28 soat	Mavzu nomi	Mashg`ulot			Yuklama		O`qituvchi imzosi
			Sanasi	Vaqt	Auditori va	Rejalash tirilgan	Bajarilgan	
1.	Mavzu: Kirish.	1-ma`ruza: Kirish. Fanning maqsadi va vazifalari. O`zbek tilshunosligida an'anaviy va yangi yo`nalishlar.				2		
2.	Mavzu: Grammatik shakl, grammatik	2-ma`ruza: Grammatik shakl va grammatik ma'no.				2		

	kategoriya	3-ma`ruza: Grammatik ma'no ifodalash usullari.				2		
3.	Mavzu: So`z turkumlari tasnifi.	4-ma`ruza: So`z turkumlari tasnifi. Mustaqil so`zlar va ularning shakllari.				2		
		5-ma`ruza: Mustaqil so`zlar va ularning shakllari.Fe'l.				2		
		6-ma`ruza: Ot. Uning UGMsi.				2		
		7-ma`ruza: Sifat.				2		
		8- ma`ruza; Son, uning UGMsi. Ravish. Taqlidlar.				2		
4	Mavzu: So`zlarning sintaktik (aloqa- munosabat) shakllari.	9-10-ma`ruza: So`zlarning sintaktik (aloqa- munosabat) shakllari. Kelishik kategoriyasi. Egalik kategoriyasi				4		
		11-ma`ruza: Kesimlik kategoriyasi.				2		
5.	Mavzu: Yordamchi so`zlar	11-12-ma`ruza: Yordamchi so`zlar.				4		
		13- ma`ruza:So`z- gaplar. Ularning turlari.				2		
		oraliq nazorat						
		Yakuniy nazorat						

Seminar - 20 soat

№	Mashg`ulot shakli	Mavzu nomi	Mashg`ulot			Yuklama		O`qituvchi imzosi
			Sanasi	Vahti	Auditoriya	Rejalashtirilgan	Bajarilgan	
1.	Seminar	Grammatika va milliylik, milliy mafkura.				2		
2.	Seminar	Leksema va uning serqirralik tabiati. So`zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari.				2		
3.	Seminar	Fe'l lug`aviy ma'no guruhlari ustida ish.				2		
4	Seminar	Harakat tarzi shakllari paradigmasi. Ularning hosil bo`lish usullari.				2		
5	Seminar	S`oz turkumlari tizimida ismlar.				4		
6.	Seminar	5.Kelishik shakllarining umumiy grammatik ma'nolari (UGM), oraliq grammatik ma'nolari (OGM), xususiy grammatik ma'nolari (XGM).				2		
7.	Seminar	6. So`z yasash (derivatsiya) va				2		

		uning grammatikaga munosabati.						
8.	Seminar	7. So`zshakl grammatik ma'nosi va so`zshakl vazifasi ustida ish.				2		
9.	Seminar	Kesimlik shakllari.				2		

Amaliy mashg`ulot -22 soat

№	Mashg`ulot shakli	Mavzu nomi	Mashg`ulot			Yuklama		O`qituvchi imzosi
			Sanasi	Vahti	Auditoriya	Rejalashtirilgan	Bajarilgan	
1.	Amaliy	1-mashg`ulot. Grammatik ma'no ifodalovchi vositalarni matndan aniqlash. Ular bo`yicha xulosalar chiqarish. Ularning qo`llanish darajasini kuzatish. O`zga tillar bilan chog`ishtirish.				2		
2.	Amaliy	2-mashg`ulot. Fe'l so`z turkumi bo`yicha mashq. Matndan o`timli va o`timsiz fe'llarni aniqlash. Fe'l nisbatlarining o`timli va o`timsiz fe'llarga munosabati.				2		
3.	Amaliy	3-mashg`ulot. Fe'l lug`aviy ma'no guruhlarini aniqlash. Har bir LMGning markaziy leksemalarini aniqlash.				2		
4.	Amaliy	4-mashg`ulot. Fe'l funksional shakllari bo`yicha mashq. Matn bilan ishlash.				2		

5.	Amaliy	5-mashg`ulot. Ot lug`aviy shakllari bo`yicha mashq. Son paradigmasi. Kichraytirish, erkalash, shaxsiy munosabat lug`aviy shakllarinining nutqiy voqelanishini kuzatish.				2		
6.	Amaliy	6-mashg`ulot. Sifat so`z turkumi. Asliy va nisbiy sifatlarni guruhlash. Asliy sifatlarning daraja shakllari bo`yicha mashq.				2		
7.	Amaliy	7-mashg`ulot. Son so`z turkumi. Uning ma'no guruhlari bo`yicha mashq. Matndan o`lchov so`zlarni aniqlab, qolipini sharhlash. Sonning sintaktik vazifalari.				2		
8.	Amaliy	8-mashg`ulot. Ravishlarning morfologik o`zgarmaslik belgisini aniqlash. Boshqa turkumlardan farqli tomonlarini kuzatish. Ma'noviy turlari, yasalishi, sintaktik vazifalari ustida ish.				2		
9.	Amaliy	9-mashg`ulot. Taqlidlar. Olmosh. Ularning guruhlari, yasalish usullari bo`yicha mashq.				2		
10.	Amaliy	10-mashg`ulot. Sintaktik shakllar bo`yicha mashq. Egalik, kelishik shakllari paradigmasi bo`yicha amaliy ish.				2		
11.	Amaliy	11-mashg`ulot. Kesimlik kategoriyasi shakllari paradigmasi bo`yicha amaliy ish.				2		